

HARBIY
ATAMALARNING
YANGI IZOHLI
LUG'ATI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI**

HARBIY ATAMALARNING YANGI IZOHLI LUG‘ATI

**Toshkent
“Innovatsiya-Ziyo”
2020**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti buyurtmasiga binoan, O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan nashr etildi.

УДК: 811.512.133'374.26:35

ББК: 81.2У36-4 68я2

X 29

Samarov Rustamjon Sadriddinovich

Harbiy atamalarning yangi izohli lug'ati/Alimov Alisher Yusupovich; Nasirov Komiljon Jaylauyevich; Ikramov Shuhrat Erkinovich; Tursunov Babajon Pirimovich; Mo'minov Mansurjon Rejapovich/lug'at/. Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020, 384 b.

Harbiy atamalarning yangi izohli lug'ati harbiy faoliyatda, harbiy-ilmiy muloqotda keng qo'llaniladigan 1230 ta atamalarni qamrab olgan. Lug'at harbiy-ilmiy muloqotning tamoyillariga asoslangan tarzda tuzilgan. Lug'atdan harbiy-pedagogik faoliyat, harbiy-ilmiy tadqiqot olib boruvchilar, oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari (tinglovchilari) hamda harbiy boshqaruv organlari hodimlari foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish respublika agentligining asarlar reestriga kiritilgan. Mualliflik huquqiga hurmat ila qarash so'raladi.

Taqrizchilar:

N. Maxmudov – Filologiya fanlari doktori (DSc), professor, Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot Instituti direktori

A. Xolbekov – Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zMU)

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Ilmiy kengashining 42-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Harbiy faoliyatning tarixi mudofaa tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning sodda ko'rinishi "Homo sapiens"ning qo'liga tosh yoki tayoq olib, yashash uchun kurashganida ifodalangan. Ya'ni "Homo sapiens"ning yegulik uchun ovga chiqqanligi, vahshiy hayvonlardan o'zini himoya qilish uchun baland ovoz bilan qichqirgani, toshni toshga urib, olov chiqarib, sovuqdan jon saqlagani, tabiat ofatlaridan o'z jonini qutqarish maqsadida panohgohlar topganligi ko'rinishidagi guruhiiy harakatlar namunasida o'z aksini topgan.

Nazariy jihatdan, mudofaa tafakkuri bir nechta tarixiy bosqichlarda rivojlangan bo'lib, bu kunga qadar harbiy fanda bir qator ta'limotlar yaratildi. Jumladan, "Milliy xavfsizlik (national security) ta'limoti", "Umumiy xavfsizlik (common security)", "Kichik urushlar nazariyasi" (theory of small wars), "Zamonaviy urushlar nazariyasi" (theory of modern wars), "Mudofaani ta'minlashda tizimli yondashuv" (systematic approach for providing stability), "Barqarorlikni ta'minlashda harbiy kuch" (military power in providing stability), "Yumshoq kuch" (soft power), "Aqlli kuch" (smart power), "Ulkan strategiya" (high strategy), "Katta strategiya" (grand strategy) kabilar shular jumlasidandir. Boz ustiga, insoniyat tarixida oldin uchramagan pandemiya tufayli virusli inqiroz (COVID – 19) vujudga keldiki, natijada mudofaa va xavfsizlikni ta'minlashga doir bo'lgan an'anaviy yondashuvlar takomillashuvni taqozo etnoqda. Shu sababli Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh. M. Mirziyoyev: "Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda hech kim chetda turmasligi, "O'z bolangizni, o'z uyingizni, o'z Vataningizni ko'z qorachig'idek asrang!" degan shior odamlarimiz qalbidan chuqur joy olishi kerak!", – deya mudofaa ongi va xavfsizlik madaniyatini shakllantirish masalasiga ma'rifiy yondashish maqsadga muvofiqligini alohida ko'rsatib o'tgan. Agar mudofaani ta'minlash, xavfsizlik madaniyatini tarkib toptirish va ommaviylashtirishning zamiriga e'tibor qaratsak, bunda inson mujassamlashganligini kuzatish mumkin. U tibbiyot xodimimi yoki muhandis, ustoz-murabbiymi yoki tadbirkor, ijodkormi yoki harbiy mudofaa va xavfsizlikni ta'minlash uchun bilimga ega bo'lishi talab etiladi. Buning uchun Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar
www.press-service.uz

a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi.

Sharq donishmandlari aytganidek, **"Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!"**

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak². Shunda mudofaa faoliyati yanada mustahkamlanib, jamiyatimizda xavfsizlik madaniyatiga rioya etish tamoyillariga qat'iy amal qilish ta'minlanadi.

Bu, o'z navbatida, harbiy atamalarning ma'no-mazmunini bilishni taqozo etadi. Chunki aniq bir xulq namunasini ifoda etishda taqiqlanadi, taqiqlanmaydi kabi konseptlarning mohiyatini anglash lozim bo'ladi. Buning uchun mudofaa va xavfsizlikka doir tushunchalarning izohini amalga oshirish lozim bo'ladi. Harbiy atamalarning yangi izohli lug'ati vazifadorligi jihatidan mudofaa faoliyati va xavfsizlik madaniyatiga doir bo'lgan aniq tushunchalarni shakllantirish va tasavvurlarni rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasida mudofaani tashkil etish vazifalari, jumladan, mudofaaning ilmiy, ilmiy-texnik, ma'rifiy, harbiy-sanoat, iqtisodiy, axboriy va qonunchilik bazasini takomillashtirish zarurligi belgilab qo'yilgan³. Bu holat, o'z navbatida, mudofaa va xavfsizlikni ta'minlash sohasida ilmiy tadqiqotlarni olib borish, mamlakatimizning mudofaa salohiyatini oshirishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri, general-mayor B. Qurbonov: "Jahondagi vaziyat shiddat bilan o'zgarib, dunyoning ayrim mintaqalarida ahvol keskinlashib, xalqaro terrorizm va ekstremizm xavfi ortib borayotgani bizdan xalqaro va mintaqaviy vaziyatni har tomonlama tahlil va prognoz qilishni, mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, Qurolli Kuchlarimizning jangovar tayyorgarligi va salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ko'rishni talab etmoqda.

Yuqori professional, harbiy va vatanparvarlik burchiga sadoqatli, fidoyi va mard harbiy xizmatchilarni tarbiyalash O'zbekiston

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar
www.press-service.uz

³ Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа тўғрисидаги қонун (янги таҳрири) // "Xalq so'zi" gazetasining 2001-yil 11-may soni.

Respublikasining mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi⁴”, – deb turli xavf⁵ va xatarlarni⁶ o‘z vaqtida belgilab, o‘zining kasbiy burchiga sodiq qoluvchi harbiy xizmatchilarimizda tahdidbardosh xulq namunasini shakllantirish dolzarb masala ekanligini ko‘rsatib o‘tgan.

Harbiylik kasb sifatida murakkabligi, kasbiy vazifa va majburiyatlarni bajarishning qat’iy talablari mavjudligi, favqulodda vaziyatlarda milliy manfaatlarimiz himoyasini amalga oshirish nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda qaror qabul qilishni talab etishi, individual va guruhiiy tarzda faoliyat yuritishni talab qilishi bilan ajralib turadi. Shu sababli bo‘lsa kerakki, harbiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarga kasbning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda talablar qo‘yilgan (kasbiy talablar/muhim kasbiy talablar). Jumladan, Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida: “Bu ish (harbiy faoliyat bilan shug‘ullanish – R.S.) uchun ziyrak, hushyor odam kerak, toki g‘ofillik orqasidan biror-bir kutilmagan falokat yuz bermasin⁷”, – deb yozadi. Yusuf Xos Hojib harbiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchining ziyrakligi va hushyorligini kasbiy sifat tarzida belgilab, mudofaa va xavfsizlikni ta‘minlashda ziyraklik atrof-muhitda kechayotgan harbiy-siyosiy jarayonlarni baholashda, hushyorlik esa favqulodda holatlarni ham inobatga olgan holda yo‘l tutish uchun shartligini ko‘rsatib o‘tgan. Ko‘rinib turibdiki, harbiy faoliyatning obyekti, predmeti, vositalari (ish quroli), kategoriyalari va ularning tarixi mavjud. Jumladan, bu kunga qadar qadimiy turkiy harbiy atamalarning tavsifi amalga oshirilmagan. Ularni o‘rganish milliy davlatchilik tarixida harbiy boshqaruv tizimining amal qilganligini belgilab beruvchi tarixiy asos hisoblanadi. Chunki “harbiy til”ning so‘z boyligi milliy harbiy tariximizning muhim ajralmas qismi hisoblanib, askar, serjant va ofitserlarimizni harbiy-kasbiy faoliyatga tayyorlashda harbiy-ta’limiy manba sifatida dunyoqarashni shakllantirish, madaniylashtirish, kasbiylashtirish, muhim harbiy-kasbiy sifatlarni shakllantirish kabi funksiyalarni bajaradi. Masalan, qadimiy turkiy harbiy atamalardan “Dorug‘a” – shahar mirshabboshisi, ya’ni harbiy lavozimni belgilovchi tushuncha hisoblanib, dorug‘aning shaharda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash uchun bajariladigan kasbiy vazifalar majmuasini belgilab

⁴ Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазири, генерал-майор Б.Н. Курбонов. “Ватан – муқаддас. уни ҳимоя қилиш шарафли бурчдир!” // Ҳарбий таълим ва фанда инновациялар. 1(7)2020. 3-бет.

⁵ Хавф (خوف), qo‘rquv, vaxima degan ma’nomlarni anglatadi.

⁶ Xatar (خطر), xavfli holat, qo‘rquvli holat kabi ma’nomlarni anglatadi.

⁷ Қадимий ҳикматлар. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1987. 193- бет.

bergan. Yoki "Shikva" – bildirgi, shikvachi, ya'ni shikoyatchi ma'nolarini anglatgan. Maqsad shikva – bildirgi vositasida, turli toifadagi askarlarning xizmat va shaxsiy masalalariga taalluqli bo'lgan muammolarni yuqori qo'mondonlikka yetkazib, yechimini topishdan iborat bo'lgan. Bildirgining bu funksiyasi bu kunga qadar saqlanib kelmoqda.

Bugungi kunda mudofaa va xavfsizlikni ta'minlash amaliyoti kognitologik⁸ yondashuvni taqozo etmoqda, chunki xavf va tahdidlar intellektuallashib bormoqda.

Qo'lingizdagi harbiy atamalarning yangi izohli lug'ati harbiy-ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi, harbiy-ma'rifiy faoliyat olib boruvchi, harbiy ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilar hamda doktorant va tadqiqotchilarga mo'ljallangan bo'lib, undan "harbiy-ilmiy til" boyligini saqlab qolish, milliy harbiy tarix va harbiy san'at tarixini o'rganishda foydalanilishi mumkin.

R. Samarov
falsafa fanlari doktori, professor, polkovnik

⁸ Lotincha cogitio – tafakkurlash, fikr yuritish; yunoncha logos – so'z, ta'limot.

ABOLITSIYA – 1) qonun, qaror yoki shartnomaning bekor qilinishi; 2) lavozimning tugatilishi; 3) jinoyat ishida aybdorlik yuridik jihatdan aniqlangan bosqichida to'xtalishi (bundan farqli o'laroq, afv e'lon qilinganda chiqarilgan hukm bekor qilinishi yoki yumshatilishi mumkin. Abolitsiya huquqi davlat boshlig'ining vakolatiga kiradi; 4) inson g'ururishaning tiklanishi – rasmiy tuhmatning inkor etilishi.

ABBREVIATURA (lot. *abbrevi* – qisqartiranan) – 1) lingvistikada: so'z birikmalarini qisqartirib hosil qilingan so'zlar; 2) nashrchilik, harbiy grafika va xarita yozuvida so'zlarni harf, raqam va belgilar bilan ifodalash, qisqartirish, soddalashtirish usuli. Masalan, BTR – bronetransportyor, 17 tbr – 17-tankchilar brigadasi.

AVANGARD (fr. *avant-garde* – oldindagi qo'riqchi) – umumqo'shin bo'linmadan oldinga yuboriladigan motoo'qchi bo'linma bo'lib, asosiy kuchlarning dushman qarshiligiga uchramay, olg'a harakatlanishlarini ta'minlaydi. Avangard bo'linmalari:

1. Belgilangan yo'nalishdagi jangovar ta'minot chegaralarida mudofaaga o'tgan dushmanni yo'q qilish;

2. Raqibning himoya bo'linmalarini qirib tashlash va asosiy kuchlarining chekinishini kechiktirish maqsadida yuboriladi.

AVIATASHUVCHI – jangovar suvusti kemasi, 100 va undan ortiq jangovar samolyot va vertolyotlarni joylashtirish, ularning uchish va qo'nishi uchun mo'ljallangan. Ikkinchi Jahon urushida AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya flotlarida qo'llanildi.

AVIATSIYA (fr. *aviateur*, lot. *avis* – qush) – 1) vazni havodan og'ir apparatlarning yer yaqinidagi fazoda parvoz etishi uchun qo'llanilishi; 2) aviatsiya parvozi uchun uchish apparatlarini qo'llaydigan, aerodrom va ta'minot texnikasiga ega tashkilotlar majmui; 3) davlatning qurolli kurash vositasi.

Aviatsiya fuqarolik va harbiy aviatsiyaga, ba'zi davlatlarda "Harbiy-havo kuchlari"ga bo'linadi. Harbiy aviatsiya – qurolli kuchlarning boshqa turlari bilan birgalikda va mustaqil tarzda faoliyat yuritishi uchun mo'ljallangan.

Aviatsiya qismlarining qurol-aslahalari tarkibida samolyot, gidrosamolyot va vertolyotlar mavjud. Turli bombardimonchi, raketa otuvchi, to'pdan otuvchi aslaha bilan jihozlangan, ob-havoning har qanday sharoitida tovush tezligidan ham tez uchadigan samolyotlar – harbiy

aviatsiyaning jangovar qudrati asosidir. Vazifasiga ko'ra harbiy aviatsiya:

- olis masofalarga harakatlanuvchi, ya'ni strategik aviatsiya;
- front aviatsiyasi, ya'ni taktik aviatsiya;
- armiya aviatsiyasi;
- harbiy-transport aviatsiyasi;
- maxsus aviatsiyaga bo'linadi.

Jangovar vazifasi va harakatlarining xususiyatlariga ko'ra harbiy aviatsiya:

- bombardimonchi aviatsiya;
- qiruvchi aviatsiya;
- qiruvchi-bombardimonchi aviatsiya;
- hujumchi aviatsiya;
- razvedka aviatsiyasi;
- maxsus aviatsiya;
- suvosti kemalariga qarshi kurash aviatsiyasi;
- harbiy-transport aviatsiyasiga bo'linadi.

Amalda aviatsiya XX asr boshlarida rivojlana boshladi. Birinchi marta 1903-yil amerikalik mexaniklar – aka-uka U. Rayt va O. Raytlarning ichki yonuv dvigateli o'rnatilgan samolyoti muvaffaqiyatli parvoz etdi. Shundan keyin 20-yillarning o'rtalaridan boshlab samolyotsozlikda duralyumindan foydalanila boshlandi; 30-yillar o'rtalariga kelib biplandan butunlay monoplanga o'tildi. 30-yillar oxirida reaktiv dvigatel vujudga keldi; 1942-yilda birinchi marta suyuq yonilg'i bilan ishlovchi raketa dvigateli o'rnatilgan samolyot uchirildi. 1955-yilda vertolyotsozlik keng rivojlandi, harbiy-havo kuchlarida tovushdan tez uchadigan samolyotlar vujudga keldi. 60-70-yillarda samolyotning tezligi soatiga 3000-3500 km, uchish balandligi 30 km, uchish uzoqligi 10000 km dan ortdi.

AVIATSIYA BOMBASI – uchish apparatlari yordamida tashlanadigan aviatsiya o'q-dorilari turidan biri. Korpus, zaruriy tarkib (portlovchi modda, yondiruvchi, yorituvchi, tutun purkovchi tarkib), stabilizator, portlatuvchi qurilma va portlatuvchi modda zaryadidan iborat. Jangovar qo'llashdan oldin bir yoki bir nechta portlatkichlar bilan jihozlanadi. Vazifasiga ko'ra asosiy va ko'makchi bombalarga bo'linadi.

Asosiy bombalar – dushmanni yo'q qilish va mudofaa inshootlarini vayron etish uchun qo'llaniladi. Ular jumlasiga fugasli, parchalanuvchi, fugasli-parchalanuvchi, tankka qarshi, zirhyorar, betonyorar, suvosti kemalariga qarshi, yondiruvchi, fugasli-yondiruvchi, kimyoviy kabi bombalar kiradi.

Ko'makchi bombalar – joyni yoritish, tutun bilan qoplash, tashviqot varaqalarini yoyish, signal berish, o'quv maqsadida foydalanish uchun qo'llaniladi. Ular jumlasiga yorishuvchi, fototarkibli (tunda fotosuratga olish jarayonida joyni yoritish uchun qo'llaniladigan), tutun purkovchi, signal berib nishon ko'rsatuvchi, amaliy va shu kabi bombalar kiradi.

Yadroviy, boshqariladigan, boshqarilmaydigan va sekin-asta pastlaydigan aviatsiya bombalari mavjud.

AVIATSIYA BRIGADASI – taktik va operativ-taktik vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan harbiy-havo kuchlarining asosiy tashkiliy qismi. Aviatsiyaning bombardimonchi, qiruvchi-bombardimonchi, olis masofalarda harakatlanuvchi bombardimonchi, qiruvchi, razvedkachi, armiya va harbiy-transport aviatsiyasi brigadalari mavjud.

AVIATSIYANI JOYLASHTIRISH – aviatsiyaning tinchlik davridagi kundalik faoliyatini va harbiy holatdagi jangovar harakatlarini har tomonlama ta'minlash uchun aviatsiya qismlari, qo'shilmalari, ular foydalanadigan aerodromlar bazalari, moddiy vositalarning zaxirasiga ega bo'lgan omborlar, aloqa yo'llari, shuningdek, mahalliy oziq-ovqat zaxiralari va ba'zi fuqarolar tashkilotlarida saqlash.

AVIATSIYA ZARBASI – quruqlik va dengizdagi dushman obyektlarini yo'q qilish, yanchib tashlash maqsadida turli o'q-dorilarni qo'llagan tarzda aviatsiyaning dushmanga qisqa vaqt davomida yetkazadigan qudratli ta'siri.

AVIATSIYA YO'NALTIRUVCHISI – uchishlarni jangovar boshqarish va aviatsiyaning quruqlikdagi qo'shinlar, havo va dengiz desantlari manfaatlari yo'lida yo'naltirish bo'yicha mutaxassis. U qo'mondonlik-kuzatuv punktida joylashadi va radiotexnik vositalar hamda maxsus signallar yordamida jangovar to'qnashuv chiziqlari yaqinidagi dushman nishonlariga aviatsiyaning yo'naltirib turadi.

AVIATSIYA MADADI – quruqlikdagi qo'shinlar birlashmasi tomonidan o'tkazilayotgan jang manfaati uchun aviatsiya tomonidan bajariladigan jangovar harakatlar. Asosiy vazifasi – dushmanning yadroviy hujum vositalari, yaqinlashayotgan zaxira kuchlari, boshqaruv punktlari, to'plangan jonli kuchi va texnikasi hamda front oldi yo'lagining yaqinidagi hududlarda joylashgan eng muhim obyektlarini yakson etish.

AVIATSIYA MASHQLARI – harbiy-havo kuchlari shaxsiy tarkibi bilan olib boriladigan jangovar tayyorgarlikning asosiy shakllaridan biri. Jangovar vaziyatga maksimal yaqinlashtirilgan tarzda o'tkaziladi. Operativ-strategik, operativ va taktik turlarga bo'linib, bir yoki ikki

tomonlarga o'tkaziladi. Qo'shinlarda olib boriladigan jangovar tayyorgarlik bilan bog'liq bo'lgan aviatsiya mashqlaridan tashqari namunali, ilmiy tadqiqot, tajriba uchun uchish kabi mashqlar o'tkaziladi.

AVIATION TA'MINOT – quruqlikdagi havo-desant qo'shinlarning jangovar vazifalarni bajarishda ularning manfaatlari yo'lidagi aviatsiyaning jangovar harakatlari yig'indisi. Aviation ta'minot aviation tayyorgarlik, aviation qo'llab-quvvatlash, aviation kuzatuv, aviation himoyalash kabilarni o'z ichiga oladi.

AVIATION XAVFSIZLIGI – aviatsiya xavfsizligi xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish, aeroportlar, havo kemalari va fuqaro aviatsiyasi obyektlarini qo'riqlash, ekipaj a'zolari, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar, passajirlar, qo'ldagi yuklar, pochta, yuklar va bort zaxiralarini tekshiruvdan o'tkazish, havo kemalarini qo'lga olish va olib qochishga bo'lgan urinishlarning oldini olish va bunday urinishlarga chek qo'yish kabilarni o'z ichiga oluvchi tadbirlar majmuasini ta'minlash.

AVIATION QUROL VA ASLAHALARI – harbiy samolyotlar va boshqa harbiy uchish apparatlariga o'rnatiladigan qurol-aslahalar va ularni qulay ishlatish imkonini beradigan uskunalar. Aviation qurol-aslahasining raketa otuvchi, to'pdan otuvchi, bombardimonchi, mina va torpeda otuvchi hamda maxsus, ya'ni yadroviy, kimyoviy va boshqa aviatsiya o'q-dorilarini qo'llovchi turlari mavjud.

AVIATION QUROL – uchish apparatlariga o'rnatiladigan qurol-yarog'lar va ularning jangovar qo'llanilishini ta'minlovchi tizimlar. Ular o'qotar-zambarakli, aviation zambaraklar va pulemyotlar, ularning o'q-dorilari, mo'ljalga olish va boshqa ta'minlovchi tizimlar, bombardimon qiluvchi, aviation bombalar, bombali kasseta va bog'lamlar, bombardimonchi qurilmalar va nishonga olgichlar, raketali majmualar, shuningdek, baravariga o't ochishning reaktiv tizimlari kabi turlarga bo'linadi.

AVIATION HIMOYASI – 1) dushmanga havo razvedkasini olib borish, aviatsiya hamda uchuvchisiz vositalar bilan qo'shinlar va front ortidagi obyektlarga qarata zarba berishga yo'l qo'ymaslik maqsadida amalga oshiriladigan qiruvchi aviatsiyaning asosiy vazifalaridan biri; 2) qiruvchi aviatsiyaning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, qo'shinlar va front orti obyektlariga nisbatan dushmanning havo hujumiga yo'l qo'ymaslik hamda havo razvedkasini olib borishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, boshqa turdagi qismlarning himoyasi uchun ham amalga oshiriladi.

AVTODROM – avtomobillarni boshqarish, sinovdan o'tkazish, shuningdek, avtomobillar musobaqalarini o'tkazish uchun jihozlangan maxsus hudud. Haydovchilikka o'rgatish uchun esa u turli qarshiliklar, to'siqlar, katta o'lchamli o'tish joylariga ega bo'lgan yo'llar majmuasini, haydovchilik asoslari va qoidalarini o'rgatish uchun maxsus joyni, normativlarni qayta ishlash va trenajorlarda mashq qilish moslamalarini o'z ichiga oladi.

AVTOMAT (yun. *automatos* – o'zi harakatlanuvchi) – 1) avtomatik o'qotar shaxsiy qo'l quroli bo'lib, dushmanning jonli kuchini yo'q qilish uchun mo'ljallangan. Avtomat mexanizmlarining avtomatik harakatlari porox gazlari energiyasidan foydalanishga asoslangan. Ilk bor Rossiyada V. Fyodorov tomonidan 1916-yilda ixtiro qilingan. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qurol-aslahasi tarkibiga, asosan, o'qli qurollarning asosiy turlaridan biri bo'lib qolgan M. Kalashnikov tizimiga mansub avtomat qabul qilingan; 2) bevosita odam qatnashmay, berilgan dastur bo'yicha energiya, ashyolar yoki axborotni olish, uzatish va ishlatish jarayonlaridagi barcha vazifalarni bajaruvchi qurilma.

AVTOMATIK QUROL – pulemyot, pistolet, avtomatik miltiq, avtomat, avtomatik to'p kabi qurollar bo'lib, o't ochilganda porox gazlari bosimining energiyasi yordamida o'qni yoki snaryadni harakatga keltirish, qurolni qayta o'qlash va navbatdagi o'q yoki snaryadni uzish amalini bajarish uchun foydalaniladi. Avtomatik qurolning asosiy xususiyatlari o't ochish sur'ati, o't ochishning amaliy tezligi va olov rejimi bilan tavsiflanuvchi yuqori darajada tez otishidir.

AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV VOSITALARI – qo'shinlar (qo'shinlar boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimi (QBAT), jangovar vositalar (jangovar vositalar boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimi (JVBAT), qurol-yarog' (qurol-yarog' boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimi (QYaBAT) boshqaruvi va avtomatlashtirilgan aloqa (avtomatlashtirilgan aloqa tizimi (AAT) ishi ta'minlanishi uchun zarur bo'ladigan axborotni avtomatlashtirilgan tarzda hosil qilish, saqlash, uzatish, qabul qilish va unga ishlov berishga oid vazifalar hal etilishida qo'llaniladigan texnik va dasturiy (matematik) vositalar.

Avtomatlashtirilgan boshqarish vositalari o'z ichiga:

- elektron-hisoblash vositalari;
- boshqaruv organlari va BPni avtomatlashtirish komplekslari (jumladan: operativ tarkibning avtomatlashtirilgan ish joylari; umumiy va

yakka tartibda foydalanishga oid axborotni aks ettirish vositalari; hujjatlashtirish va bosib chiqarish vositalari);

– ma'lumotlar uzatish vositalari;

– jangovar vositalar, qurol-yarog' va o't ochish amallari boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimi va vositalarini mujassam etadi.

AVTOMOBIL PARKI – 1) qurolli kuchlar tizimidagi birlashma, qo'shilma, harbiy qism, korxona, muassasa va idoralarga tegishli turli avtomobillar, avtoshataklar, avtobuslar va tirkamalar majmui; 2) avtotexnika saqlanadigan, ta'mirlanadigan va unga xizmat ko'rsatiladigan maxsus jihozlangan joy.

AVTOMOBIL TAYYORGARLIGI – butun shaxsiy tarkibni, avtomobil texnikasini doimiy jangovar tayyorgarlik holatida ushlab turish va uni to'g'ri ekspluatatsiya qilishga o'rgatish. Avtomobil xizmati va avtotransport qismlarining shaxsiy tarkibi uchun mashinalarning tuzilishini o'rganish, ularni ekspluatatsiya qilishning tartib va qoidalari, yo'l harakati qoidalari, boshqarish, avtomobilda tashishni tashkil etish kabilar – o'qitishning asosiy predmetidir.

AVTOMOBIL TEXNIKASI – jangovar xizmat faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi va qurolli kuchlarda mavjud barcha turdagi avtomobillar, zanjirli va g'ildirakli shatakchilar, transporter-shatakchilar, traktorlar, tirkamalar, ta'mirlash va evakuatsiya qilishning harakatlanuvchi vositalari.

AVTOMOBIL XIZMATI – qurol-aslaha, yonilg'i, oziq-ovqat kabi moddiy vositalar va odam tashish uchun mo'ljallangan maxsus xizmat turi. Jang qilayotgan qismlarga texnikani tashish va yaradorlarni evakuatsiya qilishda foydalaniladi.

AVTOMOBIL QO'SHINLARI – harbiy avtomobil qismlari va bo'linmalaridan iborat, tashkiliy jihatdan qurolli kuchlarning birlashma, qo'shilma va front orti ta'minoti bo'linmalari tarkibiga kiruvchi maxsus qo'shinlar. Moddiy vosita va o'q-dorilarni yetkazib berish, shuningdek, yarador va bemorlarni evakuatsiya qilish uchun mo'ljallangan. Zamonaviy avtomobil qo'shinlari turli jangovar vaziyat va yo'l sharoitlarida yuqori manyovrchanligi va ishonchli harakatlanishi bilan farq qiladi.

AVTONOM GURUHLASH – ma'lum vaqt davomida faoliyat ko'rsatuvchi maxsus tashkil etilgan kuch va vositalar bo'lib, ular olis, tarqoq yo'nalishlarda, hududlarda o'zini shaxsiy tarkib, jangovar texnika va moddiy-texnika vositalari bilan to'ldirmay turib, jangovar harakatlarni mustaqil ravishda va harbiy vazifalar to'liq bajarilgunga qadar amalga

oshirishga qodirdirlar.

AVTOTEXNIKA TA'MINOTI – tinchlik va harbiy davrlarda ham avtomobil texnikasini shay holda va jangovar foydalanish uchun doimiy tayyor tarzda saqlab turish, uning ishonchli ishlashini ta'minlash, zararlangan va nosoz mashinalarni tez tiklash va safga qaytarish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar majmuasi; texnik ta'minotning bir turi.

AVTOTRANSPORT TAYYORGARLIGI – avtomobil bo'linma va qismlar shaxsiy tarkibini o'rgatish va qo'shinlar hamda moddiy vositalarni avtomobil transportida tashishni tashkil etish va amalga oshirish. Avtotransport tayyorgarligi davomida avtomobil texnikasidan samarali foydalanish usullari va transport imkoniyatlari, yuklarni yuklash, tushirish, joylashtirish va mahkamlash, ularni qabul qilib olish va topshirishni hujjatli rasmiylashtirish qoidalari, kolonnalarda harakatlanish tartibi va boshqalar o'rganiladi.

AVTOTRANSPORT XIZMATI – qurolli kuchlarning front orti xizmati bo'lib, front ortining turli bo'g'inlarida harbiy avtomobillar orqali tashishni tashkil etish va amalga oshirish, bo'ysunuvchi avtomobil qismlari va bo'linmalarini boshqarish, ularning yuqori darajadagi safarbarlik va jangovar tayyorligini ta'minlash, shaxsiy tarkibi va xizmat mutaxassislarini tayyorlashga mo'ljallangan.

AVTOPILOT (*avto.* + fr. *pilote* – uchuvchi) – uchish apparatlarini, ya'ni samolyot, vertolyot, snaryad va boshqalarni avtomatik tarzda uchuvchi ishtirokisiz boshqarish mexanizmi. Avtopilot samolyotni ekipajsiz uchirish va uni radioto'lqinlar vositasida boshqarish imkoniyatini beradi. Avtopilot raketalar, samolyot-snaryadlar, Yerning sun'iy yo'ldoshlari va shu kabilarga ham o'rnatiladi.

AGRESSIYA (lot. *agressio* – hujum) – xalqaro huquq sohasiga oid tushuncha bo'lib, bir davlat qurolli kuchlarining boshqa davlat suvereniteti, hududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi g'ayriqonuniy tarzda kuch ishlatishi va tajovuzi. U tinchlikka va insoniyat xavfsizligiga qarshi xalqaro og'ir jinoyatdir. Birinchi bo'lib hujum boshlash agressiya alomati sanaladi.

ADMIRAL (arab. – أمير البحر, golland. *admiraal* – dengiz hokimi, qo'mondoni) – harbiy-dengiz flotining oliy toifali ofitserlari tarkibiga mansub harbiy unvon bo'lib, armiyaaning general-polkovnik unvoniga to'g'ri keladi. Ilk bor 1706-yilda ta'sis etilgan. Admiral unvonidan tashqari kontr-admiral, vitse-admiral, flot admirali unvonlari mavjud.

ADYUTANT (lot. *adjutans, adjutant* – yordam beruvchi) – 1) harbiy amaliyotda turli topshiriqlarni amalga oshirish uchun boshliq huzurida xizmatni o'tovchi ofitser yoki serjant. Sovet armiyasida (1954-yilgacha) shuningdek, batalyon (divizion, eskadrilya)dagi shtab lavozimi; 2) XVII-XVIII asrlarda monarxlar mulozimlari orasidagi saroy harbiy amali (general-adyutant, fligel-adyutant); 3) XIX asrda Fransiya polkda unter-ofitserlar va kaprallarni o'qitishga mas'ul bo'lgan ofitserni ham adyutant deb nomlashgan.

AZIMUT (fran. *azimuth*, arab. *السموت as-sumut* – yo'llar, yo'nalishlar) – kuzatish nuqtasining meridian tekisligi bilan shu nuqtadan va kuzatilayotgan obyektдан o'tuvchi vertikal tekislik orasidagi burchak.

Magnit azimuti deb ataluvchi azimutni aniqlashda geografik meridian tekisligi o'rniga magnit meridiani tekisligi olinadi.

Magnit azimuti – magnit meridianining shimoliy yo'nalishidan mahalliy jism yoki nishon yo'nalishiga qadar soat mili harakati bo'ylab 0 gradusdan 360 gradusgacha o'lchanadigan gorizont burchak.

Azimutdan nishon ko'rsatish, joyda mo'ljal olish, yo'l yotqizilmagan joylar va tevarak-atrof ko'rinishi cheklangan sharoitda harakatlanish mobaynida, artilleriyadan o't ochish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar tayyorlanayotganida hamda samolyot va kemalarni boshqarishda foydalaniladi. Azimut haqiqiy (astronomik), geodezik, magnit azimutlariga bo'linadi.

AYLANIB O'TISH – 1) qo'shinlarning dushman sarhadlari ichkarisiga chuqur kirib, ortidan zarba berish maqsadida o'tkaziladigan manyovr. Dushmanning jangovar tartiblarida ochiq qolgan qanot va oraliqlar mavjudligida frontda harakatlanayotgan qo'shinlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Aylanib o'tish manyovri dushman qo'shini guruhini qurshab olish va yo'q qilish, qo'shinlar boshqaruvini izdan chiqarish, chekinadigan yo'llaridagi obyektlarni qo'lga kiritish uchun qo'llaniladi; 2) joyning borish va chiqish qiyin bo'lgan hududi, vayron etilgan, yong'in yoki suv ostida qolgan zonalarini yengib o'tish usullaridan biri.

AKADEMIYA (yun. *academia*) – ayrim ilmiy muassasa va o'quv yurtlarining nomi. Yunonlarning afsonaviy qahramoni Akadem va Afina yaqinida uning sharafiga qo'yilgan joy nomidan olingan. Platon akademiyasi dastlabki akademiya edi (miloddan avvalgi taxminan 387-yil). O'rta asr Sharqidagi ayrim ilmiy maskanlarga nisbatan ham akademiya atamasi qo'llanilgan. Jumladan, Xorazmning Urganch shahrida

1010-yilda asos solingan ilm markazi ham shunday akademiyalardan bo'lgan va "Ma'mun akademiyasi" deb nomlangan. XV – XVI asrlarda Yevropadagi bir qancha ilmiy jamiyatlar akademiya deb yuritilgan. XVII asrda dastlabki Fanlar Akademiyalari tashkil etila boshlandi.

AKVALANG (lot. *aqua* – suv + ingl. *lung* – o'pka) – suv ostida odam nafas olishi uchun yelkaga osib yuriladigan avtonom apparat. Siqilgan havo to'ldirilgan ballon va nafas olish apparatidan iborat. 40 m ga qadar chuqurlikkacha sho'ng'ish uchun ishlatiladi.

AKSELBANT – faxriy qorovul shaxsiy tarkibi va harbiy paradlar ishtirokchilarining tantanalarda kiyiladigan kiyim elementi. Tilla, kumush yoki turli rangli ipdan to'qilgan, uchlari metall poynakli bog'ich bo'lib, o'ng yelkadagi (kamdan kam hollarda chap yelkadagi) zar pogonlar ostiga qadaladi.

AKSILTERROR OPERATSIYA – terrorchilik harakatiga chek qo'yish va uning oqibatlarini minimallashtirish, shuningdek, jismoniy shaxslarning xavfsizligini ta'minlash hamda terrorchilarni zararsizlantirishga qaratilgan, kelishilgan va o'zaro bog'liq maxsus tadbirlar majmui; terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkaziladigan zona - joyning yoki akvatoriyaning alohida uchastkalari, havo bo'shlig'i, transport vositalari, binolar, imoratlar, inshootlar, xonalar hamda terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkaziladigan doiradagi ularga tutash hududlar.

AKT – (lot. *actus* – harakat; *actum* – hujjat) – 1) qilmish, harakat; 2) rasmiy hujjat. Yuridik akt davlat organi mansabdor shaxsi tomonidan normativ-huquqiy hujjat shaklida (qonun, farmon, qaror va h.k.) mustahkamlangan vakolatlari doirasida qabul qilinadi va majburiy kuchga ega bo'ladi.

AKTIV-REAKTIV SNARYAD – artilleriya snaryadi (minasi) bo'lib, uchishi uchun oddiy (faol) va reaktiv zaryadlardan foydalaniladi. Oddiy snaryad ko'rinishiga ega bo'lib, korpusiga uchish masofasini 25-100 %ga uzoqlashtirish uchun mo'ljallangan raketa dvigateli o'rnatilgan.

Aktiv-reaktiv snaryadlarning kamchiligi o't ochish mobaynida nishon markaziga nisbatan ayni bir joyga tegmaslik ehtimolligining kattaligidir. Aktiv-reaktiv snaryadlarning qo'llanilishi to'p va minomyotlarning uzoqqa ota olish qobiliyatini oshirib, ushbu qurollarni yaratishda ishlatiladigan metall sarfini kamaytirdi.

ALGORITM (lot. *algoritmi* – ibtido) – ma'lum bir sohaga oid masalalarni yechishda ishlatiladigan jarayonlar tizimining muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida. O'rta asrlarda sanoqning o'nli tizimi bo'yicha to'rt arifmetik amal bajariladigan qoida algoritm deb atalgan. Bu qoidalarni fanga IX asrda o'zbek matematigi Muhammad al-Xorazmiy kiritgan. Yevropada bunday qoidalar uning nomi bilan atalib, «algorizm» deyilgan. Keyinchalik «algoritm»ga aylangan. Al-Xorazmiyning «Arifmetika» asarining birinchi so'zi: «Qola al-Xorazmiy» so'zlari lotin tilida Algoritmi deb yozilgan. Fanda «Evklid A.», «G'iyosiddin Qo'shiy A.», «Lure A.», «Markov A.» deb ataluvchi A.lar ma'lum. Bunday algoritmlar soni va algoritm tushunchasi tobora kengayib, algoritmlar nazariyasi paydo bo'ldi. Bu kibernetikaning nazariy va mantiqiy asosidir.

Qo'shuv, ayiruv, ko'paytiruv va bo'luv kabi arifmetik qoidalar, kvadrat ildiz chiqarish qoidalari, har qanday ikki natural son uchun umumiy bo'luvchini topish usuli algoritmning eng oddiy misollaridir. Aslini olganda, biror-bir vazifani umumiy tarzda, ya'ni uning variatsiya qilinuvchi shartlarining butun turkumi uchun hal qilish vositalariga ega bo'lganimizda hamisha algoritm bilan ish ko'ramiz.

Algoritm buyruqlar tizimi sifatida rasmiy tusga ega bo'lganligi sababli, uning asosida hisoblash mashinalari uchun amallar dasturini ishlab chiqish va vazifani mashina orqali hal etilishini amalga oshirish mumkin. Algoritmni aniqlash hamda uning nazariyasini ishlab chiqish, hisoblash texnikasi va kibernetika taraqqiy etayotgan davrda algoritmning keng qamrovli vazifalarni hal etishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

ALOQA – qo'shin va qurollarni boshqarish tizimidagi ma'lumotlarning turli vosita va usullar yordamida uzatilishi va qabul qilinishi; qo'shinlar (kuchlar) boshqaruvi ta'minotining asosiy vositasi. Aloqa:

uzatiladigan ma'lumot va qo'llaniladigan yakuniy apparatlarga (aloqa shakliga) ko'ra – telefon, telegraf, telekod, televideoniya, videotelefon, signalli va feld'eger-pochta aloqasi;

foydalaniladigan vosita va signallarning tarqalish muhitiga (aloqa turiga) ko'ra – simli, radio, kosmik, optik, lazerli.

ALOQANING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMI – xabarlarini uzatish, kanallarni va xabarlarini kommutatsiyalash, shuningdek, aloqani boshqarish jarayonlarining avtomatlashtirilgan aloqa tizimi. O'z tarkibiga boshqaruv punktlarining avtomatlashtirilgan aloqa tugunlari,

avtomatlashtirilgan tayanch aloqa tarmog'i, boshqarish punktlari o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri aloqa liniyalari, tayanch aloqa tarmog'iga bog'lanish, ulanish liniyalarini oladi. Aloqaning avtomatlashtirilgan tizimi kanallarning kommutatsiyalangan, xabarlarining kommutatsiyalangan, kanallar va xabarlarining kommutatsiyalangan tizimlariga bo'linadi. Maxfiy va yashirin xarakterdagi axborotlarni uzatish jarayonida aloqaning avtomatlashtirilgan tizimi dasturiy usul bilan uning avtomatik ravishda berkitilishini amalga oshiradi.

ALOQA YO'LI – signallarni uzatkichdan qabul qilgichga tarqatuvchi texnik qurilmalar va fizik muhitlar yig'indisi. Aloqa kanalining tarkibiy qismi. Ko'p kanalli aloqa tizimida ixchamlashtiriladi va bir vaqtning o'zida ko'p kanalga taalluqli bo'ladi. Ba'zan aloqa kanali tarkibiga bir necha aloqa yo'llari ulanadi. Ma'lumotlarni uzatishda foydalaniladigan signallarning tarziga ko'ra elektr, akustik, ya'ni tovush va optik aloqa yo'llariga bo'linadi.

Mustahkam va sifatli aloqa o'rnatish uchun simli aloqa yo'llari quriladi. Harakatlanuvchi obyektlar, boshqa sayyoralar va kosmos bilan aloqa o'rnatishda simsiz aloqa yo'llaridan foydalaniladi.

ALOQA TARMOG'I – 1) O'zbekiston Respublikasi aloqa tizimining tarkibiy qismi; 2) aholi, ishlab chiqarish korxonalari, tashkilot va muassasalarga turli aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi aloqa korxonasi; 3) qo'shinlarning kundalik faoliyati, operatsiya yoki jangda tashkil etiladigan aloqa qo'shinlariga mansub kuch va vositalarning tashkiliy-texnik qo'shilmasi.

Aloqa uzellari boshqaruv punktlarida yoki kanallarni taqsimlash punktida tashkil etilib, ko'chmas yoki ko'chma bo'lishi mumkin. Aloqa tizimidagi vazifasiga ko'ra:

- boshqaruv punktining aloqa uzeli;
- tayanch aloqa uzeli;
- ko'makchi aloqa uzeligaga bo'linadi.

Aloqa uzeli tarkibiga radioaloqa markazi, avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalar markazi, elektr ta'minot markazi, aloqa uzelinesi boshqarish punkti, feld'eger-pochta aloqasi stansiyasi, aloqa vertolyotlari va samolyotlarining qo'nishi (uchishi) uchun mo'ljallangan maydon kirishi mumkin.

Ko'makchi aloqa uzeli – aloqa tizimi elementi bo'lib, yuqori pog'onadagi shtabning boshqaruv punkti va tayanch aloqa uzeli bilan juda olis masofada harakatlanayotgan qo'shinlar bilan aloqani ta'minlash;

SAMARQAND IQTISODIYOT
VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

№

boshqaruv punkti bilan bevosita aloqa o'rnatish yoki tayanch aloqa uzelliga bog'lanish uchun zaruriy kuch va vositalarga ega bo'lmagan qismlar bilan aloqani ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Tayanch aloqa uzeli aloqaning tayanch tizimi elementidir. Aloqaning o'qli majmualari va front bo'ylab joylashgan aloqa yo'llari kesishmalarida yoki aloqa kanallarini taqsimlash punktlarida tashkillashtirilib, aloqa kanallarini vujudga keltirish, taqsimlash va ushbu kanallarni boshqaruv punktlarining aloqa uzellariga va ko'makchi aloqa uzellariga uzatish uchun xizmat qiladi.

Ko'chma aloqa uzeli – boshqaruvning ko'chma punkti elementi bo'lib, qo'shinlarni kundalik faoliyat, jangovar shaylikning turli darajalariga keltirilgan va harbiy harakatlar davomida aloqa bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Ko'chmas aloqa uzeli – boshqaruvning ko'chmas punkti elementi bo'lib, maxsus jihozlangan va ishonchli himoyalangan inshootlarda joylashtiriladi. Aloqa tizimining asosini tashkil etadi.

Boshqaruv punktining aloqa uzeli – birlashmaning aloqa tizimi elementi. Yuqori pog'onadagi, bo'ysunuvchi va hamkor shtablar bilan aloqa o'rnatish, aloqa vositalaridan texnik jihatdan foydalanish, boshqaruv punktidagi ichki aloqani ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Aloqa uzeli asosiy, zaxira va oldindagi qo'mondonlik punktlari, front orti ta'minoti va ko'makchi boshqaruv punktlarida tashkil etiladi. Yuqori pog'onadagi shtabga mansub aloqa uzeli aloqa tizimida mavjud aloqa uzellariga nisbatan bosh aloqa uzeli hisoblanib, barcha bo'ysunuvchi va hamkor aloqa uzellari harakatlarini muvofiqlashtirib boradi.

ALOQA QO'SHINLARI – qo'shinlar bilan aloqa bog'lash va boshqarishni ta'minlash uchun mo'ljallangan maxsus qo'shinlar.

Qurolli kuchlarning barcha turlari tarkibida mavjud. Zamonaviy aloqa qo'shinlari aloqa qismlari, bo'linmalari, ta'minot va ta'mirlash organlaridan tashkil topgan. Texnik jihatdan yuqori ishonchli, harakatchan radio, radiorele va troposfera stansiyalari, televizion, fototelegraf, yuqori chastotali telefon va telegraflashtirish apparatlari, shuningdek, quruqlik va havodagi harakatchan aloqa vositalari bilan ta'minlangan. Taktik pog'onaning ultraqisqa to'lqin radiostansiyalari, uzoq masofalarga ko'p kanalli aloqa yo'llarini tashkil etish imkonini beruvchi radiorele stansiyalar, kommutatsiya jihozlari va maxsus apparatlarga ega.

ALOHIDA DAVR – safarbarlik, ya'ni harbiy holatni joriy etish to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan boshlanadigan davr, shu jumladan, harbiy harakatlar olib boriladigan butun davr.

ALTIMETR (lot. *altum* – balandlik, +yun. *metron* – o'lcham, o'lchov) – uchish apparatining parvoz balandligini ko'rsatuvchi asbob. Barometrlı altimetr – uchish apparatining parvoz qilgan yeridan ungacha bo'lgan balandligini, radioaltimetr – uchish apparatining uchib o'tayotgan hudud ustidan balandligini o'lchaydi.

ALYANS – (fran. *alliance* – ittifoq) – umummaqsadga erishish uchun birlashish. Targ'ibot va tashviqotda negativ alomatni yakson qiluvchi sifatida ishlatiladi.

AMALIY SNARYAD – artilleriyaning ko'makchi snaryadi bo'lib, qurolni poligon sinovidan o'tkazish va amaliy o't ochish mashg'uloti mobaynida foydalanish uchun xizmat qiladi. Tuzilishi soddalashtirilgan, portlatkichsiz va tanqis bo'lmagan ashyolardan tayyorlanadi.

AMALIY HARBIY PSIXOLOGIYA – harbiy xizmatchi va harbiy jamoalarda (masalan, harbiy qism, harbiy bo'linma) joriy psixologik holatni o'rganish, o'quv-jangovar mahorat va kasbiy sifatlarni, shuningdek, tinchlik, favqulodda va jangovar vaziyatlarda shaxsiy tarkibning xizmat faoliyati samaradorligini oshirishning harbiy-psixologik mexanizmi shakllanganligini baholashdan, belgilab berishdan iborat bo'lgan fan tarmog'i. Bunga harbiy-psixologik tadqiqotlar yo'nalishida pistirma psixologiyasi, raqibni chalg'itish psixologiyasi, maxsus psixologik tayyorgarlik psixologiyasi mavzulari doirasida aniq vazifalarni hal etish nazarda tutiladi.

AMBRAZURA (fr. *embrasure* – shinak) – himoyalaniş qurilmalari va zirhli minoralardagi ochiq yoki to'siladigan tuynuk. Ushbu inshootlarda, minoralarda o'rnatilgan qurollar, minomyotlar, pulemyotlar, avtomatlar va boshqalardan o't ochish uchun mo'ljallangan. Ambrazuraning shakli va o'lchami qurol turi, o'qqa tutish maydoni, og'ish burchagi va inshoot balandligiga bog'liq bo'ladi.

AMFIBIYA (yun. *amphibios* – ikki xil hayot kechiruvchi) – 1) quruqlikda ham, suvda ham yurish qobiliyatiga ega jangovar mashina yoki transport. Suzish qobiliyati amfibiya korpusining germetizatsiyasi, ya'ni suv kirmaydigan-chiqmaydigan qilinishi va zaruriy suv sig'imi bilan, suvdagi harakati esa suvda olg'a ilgarilatuvchi dvijitel ishi bilan ta'minlanadi. Suzuvchi tanklar, piyodalar jangovar mashinasi, zirhli transportyorlar va shunga o'xshash boshqa texnika turlari ham amfibiya

sanaladi; 2) quruqlikdagi aerodrom va suv yuzasidan uchish va suv yuzasiga qo'nishga moslashgan amfibiya samolyoti, gidrosamolyot; 3) yurish qobiliyatini yaxshilash maqsadida chang'i kuzovi chang'i-qayiq bilan almashtirilgan aerochana.

ANGAR (fr. *hangar*) – samolyot va vertolyotlarni saqlash, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan inshoot.

ANTENNA (lot. *antenna* – kema machtasidagi ko'ndalang yog'och) – radioto'lqinlarni tarqatish yoki qabul qilishga mo'ljallangan, odatda, radio va televizion qabul qilgich bilan birga ishlaydigan qurilma. Antennaning asosiy xususiyatlaridan biri yo'nalganlik diagrammasi bo'lib, u antenna taratayotgan va qabul qilayotgan elektr magnit maydoni quvvatining fazoda taqsimlanish xususiyatini belgilaydi. Antenna yordamida juda kuchsiz radiosignallarni qabul qilish, signallarni muayyan yo'nalish bo'yicha uzatish va qabul qilish, radioto'lqinlar manbayi o'rmini aniqlash mumkin. Antenna turlari: vibratorli – simli, tirqishli, karnayli, ko'zguli, linzali antennalar, antenna-panjara kabilar.

ANTIDOTLAR (yun. *antidoton* – nimagadir qarshi beriluvchi) – organizmga singib kirgan zaharli moddalarni zararsizlantirish yoki chiqarib tashlash uchun yordam beruvchi dori, vosita. Zaharli moddalardan zararlanish xavfi bo'lganda, profilaktik maqsadlarda ham (mas., fosfororganik zaharli moddalarga qarshi P-3 tabletkalari), zararlanish alomatlarini paydo bo'lganda, davolash (fosfororganik zaharli moddalarga qarshi afin, sinil kislotasiga qarshi amid-nitrit) maqsadlarida ham qo'llaniladi.

ANTIMANIPULYATIV XULQ – birovlarining shaxsiy qadr-qiymatini, huquqini poymol etmasdan, o'z qadrini, huquqini bilib, unga rioya etish va talab qila olishdan iborat bo'lgan xulq namunasidir. Bu assertiv xulq ham deyiladi. Qachonki inson o'z xatti-harakatlarining chegarasi, me'yorini bilib unga rioya etsa, birovlarining qadr-qiymatini, haq-huquqini hurmat qilib, odob doirasida uni joyiga qo'ya oladi.

ANKETA – (so'rov varaqasi) – 1) aniq masala (mavzu)ni amaliy o'rganish maqsadida so'rov varaqasi shaklida keltirilgan savollar to'plami; 2) harbiy sotsiologiya va psixologiyada empirik ma'lumotlar to'plash usuli. Uning bir qancha shakllari mavjud: to'g'ridan to'g'ri, elektron, pochta orqali, to'g'ridan to'g'ri guruhii kabi.

ANNEKSIYA – (yunon. *annexio* – qo'shib olish, zabt etish) – bir davlat tomonidan boshqa davlat yoki xalqqa tegishli bo'lgan hududlarni zo'ravonlik bilan qo'shib olish.

ANTIMILITARIZM (yunon. *militaris* – harbiylashtirishga qarshi oqim) – ichki va xalqaro maydondagi qarama-qarshiliklarni hal qilish maqsadida qurolli zo‘ravonlikni qo‘llashga qarshi chiquvchi ijtimoiy-siyosiy qarashlar va harakatlar majmui.

APELLATSIYA (lot. *appellatio* – murojaat qilish, shikoyat qilish) – 1) biror shaxs yoki guruhning vakolatli idora yoxud davlat organi tomonidan ular ustidan chiqargan ko‘rsatma, qaror yoki xulosalardan norozi bo‘lib, yuqori davlat organlariga shikoyat qilishi; 2) sudlangan shaxslar yoki tashkilotlarning sud qarori va hukmidan norozi bo‘lib, ishni to‘lig‘icha ko‘rib chiqish huquqiga ega bo‘lgan yuqori sud organlariga shikoyat yoki yordam so‘rash shakllaridan biri; 3) yuqori davlat organlari yoki idoralariga yordam va maslahat so‘rab shikoyat qilish. Apellatsiya har bir davlatning qabul qilgan jinoyat-protsessual qonunlariga asosan olib boriladi.

ARERGARD – asosiy kuchlarning qaytishini ta‘minlash maqsadida umumqo‘shin qo‘shilmalaridan tayinlangan motoo‘qchi (tank) qism (bo‘linma)lar. A.ning vazifasi – hujumdagi dushman harakatini to‘xtatib turish, undan asosiy kuchlarni ajratish va ularning tashkiliy qaytishini ta‘minlashdir. Asosiy kuchlarning tartibli chekinishini ta‘minlash uchun ularga hujum qilayotgan dushmanni to‘xtatib turish. Qo‘shinlarning jangovar tartibi elementi.

ARMIYA (lot. *armo* – qurollanaman) – davlat qurolli kuchlari yig‘indisi; 1) suverenitetni, hududiy yaxlitlikni ta‘minlash, harbiy kuch qo‘llash yoki qo‘llash tahdidi orqali milliy manfaatlarini va xavfsizlikni himoyalash uchun tuziladi; 2) davlat qurolli kuchlarining bir qismi, harbiy dengiz flotidan tashqari; 3) faqat quruqlikdagi qo‘shin; 4) tezkor jamlanma, birlashma, tezkor vazifalarni yechishga mo‘ljallangan bir necha guruhlardan va alohida qo‘shin turlaridan tarkib topgan maxsus qo‘shin va zaxira. Qaysi qurolli kuchlar turiga mansubligiga, jangovar tarkibi va mo‘ljallanganligiga qarab umumqo‘shin, tank, raketa, havo, havo-desant, havo hujumiga qarshi va boshqa armiyalarga bo‘linadi. 5) jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarning qurollangan tashkiloti, ular tomonidan o‘zlarining hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilish uchun tuzilgan revolyutsion armiya, milliy-ozodlik armiyasi, partizan armiyasi va boshqalar. Armiya bir necha belgilariga ko‘ra klassifikatsiya qilinadi. Tashkil etilish tizimiga ko‘ra doimiy, ya‘ni regulyar, militsion, aralash armiyalar; to‘ldirilishiga ko‘ra umumiy harbiy majburiyat asosida, ixtiyoriy, ya‘ni yollanma yoki aralash tizimda tuzilgan armiyalarga bo‘linadi.

ARMiya GENERALI – qurolli kuchlar oliy ofitserlari tarkibining umumqo‘shin harbiy unvoni. General-polkovnik unvonidan so‘ng beriladi. 1940-yil 7-may kuni ta‘sis etilgan. Harbiy-dengiz floti, Harbiy-havo kuchlari va qo‘shinlar turida armiya generali unvoniga flot admirali, aviatsiya, artilleriya qo‘shinlari, aloqa qo‘shinlari marshali harbiy unvonlari mos keladi. “Marshallik yulduzi” topshiriladi.

Mazkur unvon O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi oliy harbiy unvon sanalib, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo‘mondoni va O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziriga urush davrida beriladi.

ARMiya MUSOBAQALARI – shaxsiy tarkibni tarbiyalash vositasi, qo‘yilgan vazifani sifatli bajarish maqsadida harbiy xizmatchilar faolligini safarbar etishga asoslangan jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlikning ajralmas qismi. Bugungi kunda “Armiya o‘yinlari” shaklida amalga oshirilmoqda. Qisqacha tarixi:

“ARMY-2015” – xalqaro armiya o‘yinlari 2015-yildan boshlab Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V. V. Putin taklifiga binoan o‘tkazilmoqda. 2015-yil 1-15-avgust kunlari Rossiya Federatsiyasi hududida bo‘lib o‘tdi;

“ARMY-2016” – xalqaro armiya o‘yinlari 2016-yil 30-iyuldan 13-avgustgacha bo‘lib o‘tdi. Ikki hafta ichida 19ta davlatdan 3,5 mingta harbiy xizmatchi 23ta musobaqada kuch sinashdi. Rossiya harbiy xizmatchilari 20ta oltin, Qozog‘iston – ikkita va Xitoy – bitta oltin medalni qo‘lga kiritdilar;

“ARMY-2017” – xalqaro armiya o‘yinlari 2017-yil 29-iyuldan 12-avgustgacha 5ta davlat: Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Belarus Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi hududida bo‘lib o‘tdi. O‘yinlar davomida 28ta xalqaro musobaqalar, shu jumladan, 5ta yangi musobaqalar o‘tkazildi. Musobaqada 28 mamlakatdan 4500dan ortiq harbiy xizmatchilar qatnashdi. Rossiya Federatsiyasi hududida 18ta, Xitoy Xalq Respublikasida – 6ta, Qozog‘iston Respublikasi hududida – 3ta, Belarus Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasida bittadan musobaqalar bo‘lib o‘tdi. “ARMY-2017” o‘yinlarida hammasi bo‘lib 28ta mamlakatdan jamoalar ishtirok etishdi;

“ARMY-2018” – xalqaro armiya o‘yinlari 2018-yil 28-iyuldan 11-avgustgacha bo‘lib o‘tdi. O‘yinlar davomida 28ta xalqaro musobaqalar bo‘lib o‘tdi. “ARMY-2018” yettita davlat hududida bo‘lib o‘tdi: Rossiya

Federatsiyasi, Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi. "ARMY-2018" boshlanishi bilan Xalqaro armiya o'yinlari xalqaro assotsiatsiyasi tashkil etildi. O'yinlarda 32ta mamlakatdan 189ta jamoa ishtirok etdi. Birinchi marta Jazoir, Vetnam, Myanma, Pokiston, Sudan va Filippin jamoalari ishtirok etishdi;

"ARMY-2019" – xalqaro armiya o'yinlari 2019-yil 3-17-avgust kunlari bo'lib o'tdi. O'yinlar davomida 32ta xalqaro musobaqalar bo'lib o'tdi. "ARMY-2019" musobaqalari 10ta davlat hududida tashkil etildi: Armaniston Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Belarus Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Hindiston, Qozog'iston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Mo'g'uliston, Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi. Suriya, Janubiy Afrika, Isroil, O'zbekiston, Bangladesh, Uganda va Laos jamoalari birinchi marta Xalqaro armiya o'yinlarida ishtirok etishdi.

O'zbekiston 39ta ishtirokchi davlat orasida 5-o'rinni egalladi: 2ta oltin, 4ta kumush va 5ta bronza sovrin qo'lga kiritdi:

"Tank biatloni" bo'yicha ikkinchi divizionida – 1-o'rin, "Harbiy-tibbiy estafeta" bo'yicha – 1-o'rin, "Toza Osmon" bo'yicha – 2-o'rin, "Harbiy razvedka mahorati" bo'yicha – 2-o'rin, "Xavfsiz yo'nalish" bo'yicha – 3-o'rin, "Ta'mirlovchi batalyon" bo'yicha – 2-o'rin, "Elbrus halqasi" bo'yicha – 2-o'rin. O'z chiqishlari davomida o'zbek harbiylari musobaqalar rekordlarini yangiladilar.

"ARMY-2020" – xalqaro armiya o'yinlari 2020-yil 23-avgustdan 5-sentabrgacha bo'lib o'tdi. O'yinlar davomida 30ta musobaqa o'tkazildi. "ARMY-2020" musobaqalari 11ta davlat - Armaniston Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Belarus Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Hindiston, Qozog'iston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Mo'g'uliston, Rossiya Federatsiyasi, Shri-Lanka va O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazildi.

O'zbekistonlik harbiylar 32 davlat orasida 3-pog'onani qayd etdi.

Joriy yilning 23-avgustidan 5-sentabrigacha davom etgan "ARMY – 2020" xalqaro armiya o'yinlarida 30dan ortiq davlatning 160dan ziyod jamoasi qatorida O'zbekiston Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari 16 yo'nalishda – "Merganlik marrasi", "Qurolsoz usta", "Musaffo osmon", "Artilleriya olovi ustasi", "Yo'l patruli", "Qo'shin razvedkasi a'lochilari", "Tank biatloni", "Elburs halqasi", "Sodiq do'st", "Xavfsiz marshrut", "Dala oshxonasi", "Harbiy ralli", "Harbiy-tibbiy estafeta", "Merganlar

marrasi", "O'tliq marafon", "Avtozirhli tanktexnika ustasi" musobaqalarida faol ishtirok etdi.

O'tgan yil hamyurtlarimiz 32 mamlakat harbiylari o'rtasida jami 14 yo'nalishda – 2ta birinchi, 4ta ikkinchi, 5ta uchinchi o'rinni egallab, **umumjamoaa hisobida 5-o'rinni egallagan bo'lsa, joriy yilda 3-pog'o-naga ko'tarildi.**

Markaziy harbiy okrugning "Forish" tog' poligonida o'tgan "Harbiy-tibbiy estafeta" musobaqasi qizg'in bahslarga boy bo'ldi. Yurtdoshlarimiz shartlarni bajarish jarayonida o'tgan yilgi rekordlarni bir necha bor yangiladilar. Xususan, erkaklar jamoasi 6 daqiqa 28,8 soniya ko'rsatkich bilan rekord vaqtini 1 daqiqa 8 soniyaga yangiladi.

Sharqiy harbiy okrugi poligoni birinchi bor mezbonlik qilgan "Yo'l patruli" musobaqasida ham yurtdoshlarimizga teng keladigani topilmadi.

Natijada jamoamiz Rossiya va Belarusdan kelgan hamkasblarini ortda qoldirib, 1-o'rinni egallab, shohsupaga ko'tarildi. Xalqaro armiya o'yinlarining "Sodiq do'st" musobaqasida 2017-yilda 3-o'rinni, 2018-yilda 4-o'rinni 2019-yilda 2-o'rinni qo'lga kiritgan O'zbekiston harbiy kinologlari joriy yilda 1-o'ringa sazovor bo'ldi.

Eng muhim mutaxassisliklardan biri "Qo'shin razvedkasi a'lochilari" musobaqasi Novosibirsk shahri yaqinidagi "Kolsovo" poligonida bo'lib o'tdi.

Yakunda shohsupa quyidagicha ko'rinish oldi:

I o'rin – Rossiya;

II o'rin – O'zbekiston;

III o'rin – Belarus.

"Elburs halqasi" xalqaro musobaqasida ishtirokchi davlatlar harbiy xizmatchilari bir necha shartlarni o'ta murakkab tog' sharoitida va kuchli bosim ostida bajardilar. Kabardin-Bolqordagi Elburs cho'qqisiga uyushtirilgan marsh harbiy alpinistlarni jiddiy sinovdan o'tkazdi.

Vakillarimiz ushbu musobaqalarda 2017 va 2018-yil 4- va 5-o'rinlarni egallagan edi. 2019-yilda esa 12 041 ball jamg'argan O'zbekiston jamoasi shohsupaning ikkinchi pog'onasini egalladi. Joriy yilda ham hamyurtlarimizga ikkinchi o'rin nasib etdi.

"Artilleriya olovi ustasi" musobaqasi Rossiyaning Saratov viloyatida o'tkazildi. Ushbu tanlov uch bosqichdan iborat bo'lib, birinchi "Individual poyga" bosqichida minomyot hisoblari umumiy uzunligi 4 kilometrlik (2 km dan 2 aylana) to'siqlardan o'tib, belgilangan nishonlarni yo'q qilishi lozim. Ikkinchi bosqich "Tungi sprint"da harakatlar xuddi birinchi

bosqichdagi kabi amalga oshiriladi. Farqi – harakatlar qorong'ida bo'lib o'tadi.

“Estafeta” – uchinchi bosqichda ikkala minomyot hisoblari ishtirok etadi. Bunda birinchi minomyot hisobi finishga 50 metr qolganda, ikkinchi minomyot hisobiga tartib raqamini uzatadi. Tartib raqamlari qo'lga uzatilmay turib, ikkinchi minomyot hisobi start chizig'ini kesmay turadi. Musobaqalar yakuniga ko'ra yurtimiz vakillari faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi. VI Xalqaro armiya o'yinlarining o'zbekistonlik harbiy xizmatchilar ishtirok etgan barcha yo'nalishlar bo'yicha natijalari quyidagicha:

- “Sodiq do'st” – 1-o'rin;
- “Yo'l patruli” – 1-o'rin;
- “Harbiy tibbiy estafeta” – 1-o'rin;
- “Qo'shin razvedka a'lochisi” – 2-o'rin;
- “Harbiy ralli” – 2-o'rin;
- “Otliq marafon” – 2-o'rin;
- “Elbrus halqasi” – 2-o'rin;
- “Xavfsiz marshrut” – 2-o'rin;
- “Artilleriya olovi ustasi” – 2-o'rin;
- “Qurolsoz usta” – 2-o'rin;
- “Merganlik marrasi” – 2-o'rin;
- “Dala oshxonasi” – 3-o'rin;
- “Xavfsiz muhit” – 3-o'rin;
- “Avtozirhli tanktexnika ustasi” – 3-o'rin.

ARSENAL – o'q-dori va qurol-yarog'larni ta'mirlash, yig'ish, hisobga olish, saqlash va harbiylarga tarqatish uchun xizmat qiluvchi harbiy muassasa.

ARTILLERIYA (fr. *artillere* – tayyorlamoq, shaylamoq) – 1) qo'shinlar turi; 2) qurol turi yoki aslahaga mansub anjomlar majmui; 3) artilleriya aslahasining tuzilishi, xususiyatlari va jangovar qo'llanilishi haqidagi fan.

Qo'shinlar turi sifatida bo'linma, qism va qo'shilmalardan tashkil topgan. Artilleriya, o'z navbatida, qo'shinlar artilleriyasiga (armiya, korpus, divizion, polk, batalyon artilleriyasi) va oliy qo'mondonlik artilleriyasiga bo'linadi.

Jangovar vazifasi va qurol-aslahasi turiga ko'ra to'pli, zambarakli, reaktiv, zenit va minomyotlar artilleriyasiga, shuningdek, tankka qarshi maxsus, tog' va boshqa turdagi artilleriyalarga bo'linadi. Harbiy-havo kuchlarida samolyot va vertolyotlardagi aviatsiya to'plari, harbiy-dengiz

flotida esa kemasiz (shu jumladan, zenit) to'plar va qirg'oqdagi artilleriyaga bo'linadi.

Artilleriyaning ba'zi turlari yadroviy zaryad bilan anjomlangan snaryadlar bilan o't ochishi mumkin.

Fan sifatida artilleriya qurol-aslahaning tuzilishi, qo'llanilishi, uni loyihalashtirish, ishlab chiqarish hamda tegishli quroldan o't ochish va jangovar jihatdan qo'llash usullari sohalaridagi bilimlar majmuidir.

ARTILLERIYANING ASBOBIY RAZVEDKASI – artilleriya razvedkasining tarkibiy qismi; aniqlovchi va o'lchovchi turli jihozlar yordamida olib boriladi. Dushmanning qaramog'ida bo'lgan obyektlar va nishonlarning koordinatalarini aniqlaydi, o'z artilleriyasining o't ochishini ta'minlashga xizmat qiladi, shuningdek, fotogrammetrik ishlarni bajaradi. Optik, tovushli, radiolokatsion va radiotexnik razvedka turlariga bo'linadi.

ARTILLERIYA GURUHI – umumiy boshqaruv ostida birlashtirilgan umumqo'shin birlashmalari, qo'shimchalari manfaatlaridagi vazifalarni bajarish uchun ajratilgan, ikki yoki undan ortiq artilleriya divizioni. Motoo'qchi brigadasida brigada artilleriya guruhi tuzilishi mumkin.

ARTILLERIYA GURUHLANMASI – umumqo'shin birlashmasining boshqaruvchisi, ya'ni komandirining qarori bilan tuzilgan tarkib bo'lib, dushmanga o'q otish bilan zarba berish bo'yicha qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun harbiy okrug qo'shinlari, umumqo'shin brigadalarining operativ va jangovar tuzilmasida artilleriya qo'shimchalari hamda bo'linmalarining taqsimlanishi, guruhlariga vaqtincha birlashishi va joylashuvi.

ARTILLERIYA RAZVEDKASI – raketa qo'shinlari va artilleriyaning jangovar faoliyati uchun zarur bo'lgan dushman, hudud va meteorologik shart-sharoitlar haqidagi ma'lumotlarni qo'lga kiritish va qayta ishlash. Artilleriya razvedkasi barcha turdagi janglarda dushmanning obyektlar va manzillarini o'z vaqtida aniqlash, birinchi navbatda, yalpi qirg'in qurollarini tashish va qo'llash vositalari, tank guruhlarini, boshqaruv punktlari, radioelektron vositalari va ularning joylashish koordinatalarini aniqlash maqsadida tashkil etiladi. Artilleriya razvedkasi zimmasiga raketa zarbalarining natijalarini nazorat qilish, artilleriya zarbalarini korrektsiyalash, dushman va o'z qo'shinlari harakatlarini nazorat qilish vazifalari ham yuklanadi. Artilleriya razvedkasi optik va elektron-optik asboblari, ovoz o'lchagichli, radiolokatsion va radiotexnik stansiyalar yordamida razvedka bilan shug'ullanuvchi bo'linmalar tomonidan amalga

oshiriladi.

ARTILLERIYA SNARYADI – turli nishonlarni yo‘q qilish, qorong‘i atrofini yoritish, jang maydonini tutun bilan qoplash, shaxsiy tarkibni o‘qitish kabi amallarni bajarish uchun mo‘ljallangan artilleriya o‘q-dorisi.

Artilleriya snaryadi korpus, ichki tarkib va portlatkichdan tashkil topgan. Tuzilishi bo‘yicha oddiy faol va faol-reaktiv snaryadlarga bo‘linadi. Vazifasiga ko‘ra asosiy, maxsus va ko‘makchi turlarga bo‘linadi.

Asosiy snaryadlar jumlasiga:

- parchalanuvchi;
- fugasli;
- parchalanuvchi-fugasli;
- zirhyorar;
- fugasli-zirhyorar;
- kumulyativ;
- yondiruvchi snaryadlar kiradi.

Maxsus snaryadlar jumlasiga:

- tutun purkovchi;
- yorituvchi;
- tashviqot varaqalarini sohib tashlovchi;
- radiolokatsiyaga qarshi snaryadlar kiradi.

Ko‘makchi snaryadlar jumlasiga:

- o‘quv;
 - amaliy;
- qurol tizimini sinash uchun mo‘ljallangan snaryadlar kiradi.

Kalibriga ko‘ra:

- kichik – 20-75 mm;
- o‘rta – 76-155 mm;
- yirik – ko‘rsatib o‘tilgan kalibrlardan katta kalibrli snaryadlarga bo‘linadi.

Qurol kalibriga nisbatan kalibrli; kalibrdan kichik; kalibrdan yirik snaryadlar mavjud.

ARTILLERIYA QUROLI – snaryadlarni (minalarni) uloqtirish uchun mo‘ljallangan o‘qotar qurol turi. Artilleriya qurolining:

- to‘plar;
- zambaraklar;
- minomyotlar;

– tisarilmaydigan qurollar kabi rusumlari bo‘lib, ular yerda qo‘llaniladigan; tankka qarshi; tankka o‘rnatilgan; zenit; aviatsiyada qo‘llaniladigan; kema va qirg‘oq artilleriyasi quroliga bo‘linadi.

Artilleriya qurolining asosiy jangovar xususiyatlari jumlasiga snaryad qudrati, nishonni aniq urishi, tez va uzoqqa otish qobiliyati, o‘z olovi bilan manyovr qilishi, qo‘llanilishdagi ishonchlilik, har qanday sharoitda inkorsizlik xususiyatlari kiradi. Zamonaviy artilleriya quroli snaryad solinadigan qism, zatvor va tepki so‘ndirgich bilan birgalikdagi stvol va lafetdan tashkil topgan.

ATAKA (fr. *attaque* – hujum) – dushmanni yakson qilish maqsadida kuchli o‘t ochish bilan birgalikda qismlar, bo‘linmalar, qo‘shilmalar, shuningdek, samolyotlar, vertolyotlar va shu guruhlarining jangovar tartibdagi shiddatli harakati. Hujum harakatlarini hal qiluvchi davr. Ataka motoo‘qchi qo‘shinlar, tank, havo, havo hujumi va boshqa usullar bilan farqlanadi. Ataka vaqt harakati bo‘yicha kunduzgi yoki tungi; yo‘nalishlar bo‘yicha front orti, qanot va front bo‘ylab bo‘lishi mumkin.

ATAKANING ARTILLERIYA TAYYORGARLIGI – artilleriyaning qo‘shinlar hujumi oldidan qilinadigan jangovar harakatlari. Dushmanning yalpi qirg‘in qurollarini tashuvchi va qo‘llovchi hamda boshqa o‘t ochish vositalarini, jonli kuchlarini, shuningdek, oldindan tashkillashtirilgan o‘t ochish bilan uning mudofaa inshootlarini yakson qilish maqsadida o‘tkaziladi. Atakaning o‘t ochish tayyorgarligining tarkibiy qismi belgilangan vaqtda boshlanadi va hujum qiluvchi bo‘linmalarining atakaga o‘tish marasimga chiqishi bilan yakunlanadi. Bir yoki bir necha o‘t yog‘dirishdan iborat bo‘lishi mumkin.

ATAKANI ARTILLERIYA VOSITALARI YORDAMIDA QO‘LLAB-QUVVATLASH – artilleriyaning o‘z qo‘shinlari atakasi boshlanishi davomida dushmanga front oldidan va hamla qiluvchilarning qanotlaridan ularning to‘xtovsiz oldinga harakatlanishi uchun sharoit yaratish maqsadida uzluksiz ketma-ketlikda talafot yetkazishdagi jangovar harakati.

ATTESTATSIYA (lot. *attestatio* – guvohlik berish; guvohnoma; tasdiqnoma) – harbiy xizmatchi yoki harbiy xizmatga majbur shaxsning axloqiy-siyosiy, ishchanlik sifatleri va shaxsiy qobiliyatlarini tavsiflovchi hamda bundan keyingi davrda undan xizmatda foydalanishning maqsadga muvofiqligi haqidagi xulosani aks ettiruvchi hujjat.

ASLAHAXONA – qurol-aslaha va o‘q-dorilarni yig‘ish, hisobini yuritish, ta‘mirlash, saqlash va qo‘shinlarga topshirish uchun

mo'ljallangan muassasa. Ilk bor XVI asrda vujudga kelgan. Aslahaxonalar XIX asrga qadar armiya uchun qurol-aslaha va o'q-dorilar ishlab chiqish bilan mashg'ul bo'lgan. Zamonaviy aslahaxonalar baza va omborxonalar vazifasini bajaradi. Fransiya va AQSH kabi davlatlarda aslahaxona deb ba'zi kemasozlik zavodlarini atashadi.

ASOSIY ZARBA – qarshilik ko'rsatayotgan dushmanni tor-mor qilish va operatsiya maqsadi sifatida qo'yilgan vazifani bajarish uchun qo'shinlar (flot kuchlari) turkumi tomonidan muhim ahamiyatga ega yo'nalishda (hududda) beriladigan hal etuvchi zarba. Asosiy zarba beriladigan yo'nalishda qo'shinlarning (kuch va vositalarning) dushman kuchi va vositalaridan ustun keladigan turkumi vujudga keltiriladi.

ASOSIY YO'NALISH – dushmanni tor-mor etish, muhim obyektni qo'lga kiritish kabi maqsadlarda asosiy kuch va vositalar jamlanadigan yo'nalish.

ASOSIY KUCHLAR – qo'shin, qo'shilma yoki qismga tegishli kuch va vositalarning asosiy vazifani bajarish uchun mo'ljallangan asosiy qismi. Asosiy kuchlar tarkibiga shtatdagi, qo'shimcha berilgan va madad beruvchi kuchlar hamda barcha qo'shin turlari va maxsus qo'shinlarning vositalari kiritiladi.

ATOM BOMBASI – yadroviy zaryad va vayron qiluvchi katta kuchga ega bo'lgan aviabomba. Portlash yadroviy zanjir reaksiyalariga asoslangan. Dastlabki ikki atom bombasi 1945-yilda AQSH aviatsiyasi tomonidan Yaponiyaning Xirosima (6-avgust) va Nagasaki (9-avgust) shaharlariga tashlanib, ulkan vayronagarchilik keltirgan.

ATROPOGEN TAHDIDLAR – inson faoliyati natijasida ijtimoiy munosabatlarning turli sohalarida yuzaga kelgan xavf-xatarlar.

ATTASHE (fr. *attache* – qo'shib qo'yilgan, birlashtirilgan) – diplomatik martaba. Diplomatiya vakolatxonalarda harbiy, harbiy-dengiz, harbiy-havo, savdo, madaniyat, matbuot masalalari attashelari bo'ladi. Mavqeyiga ko'ra harbiy attashelar diplomatga tenglashtirilib, diplomatik korpus tarkibiga kiritiladi, diplomatik imtiyozlar va daxlsizlik huquqiga ega bo'ladi.

AXBOROT – axborot so'zi arab (أخبارات) tilidan olingan bo'lib, "xabarlar majmuasi" degan ma'noni anglatadi. Axborot bu – real borliqni tasvirlab beruvchi, tizimlashtirilgan moddiy belgi (shakl)lar majmuasidir. Axborotga oid turli konsepsiyalar mavjud. Ularning muhimlari quyidagilar:

- tashqi dunyodan olingan va unga moslashish jarayonida mazmunning belgilanishi nazariyasi (Viner);
- entropiyaning inkor etish nazariyasi (Brillyuen);
- kommunikatsiya va aloqa jarayonida bartaraf etiladigan noaniqliklarni belgilash nazariyasi (Shennon);
- xilma-xillikning uzatilish nazariyasi (Eshbi);
- tizimlarning murakkablik o'lovini belgilash nazariyasi (Mol);
- tanlov ehtimolligi nazariyasi (Yaglom);
- axborotning hissiylik nazariyasi (P. Simonov);
- real borliqni tasvirlab beruvchi, tizimlashtirilgan moddiy belgilar (shakllar) majmuasi nazariyasi (R. Samarov).

Harbiy faoliyatda qo'shinlarni boshqarish manfaatlarida komandirlar va boshqaruv organlarini harbiy-siyosiy vaziyat yoki bo'ysunuvchilarning holati haqida xabardor qilish uchun mo'ljallangan xabarlar majmuasidir. Xabarlar majmuasi (ma'lumotlar) ishonchli, to'liq, muhim, o'z vaqtida berilgan, tushunarli va qisqa bo'lishi kerak.

AXBOROT BERISH – jangovar vazifani to'g'ri va aniq anglab olish, jangovar harakatni o'z vaqtida bajarish uchun harbiy-siyosiy vaziyatni inobatga olgan holda bajariladigan jangovar vazifa va jangovar harakatni yuritish usuli haqida qo'mondonlik (shtab) tomonidan beriladigan axborot. Axborot strategik, taktik va operativ darajalarda harbiy-siyosiy vaziyatni inobatga olgan holda berilishi mumkin.

Strategik axborot – mazmunan dushmanni jangovar qobiliyati, kuch va vositalarining strategik yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti, qo'shinimizning bo'lg'usi harakatlari xususiyatiga umumiy baho beradigan axborot.

Operativ axborot – chegaradosh frontlarning hamkorlikda ish ko'rayotgan shtablari orasida vaziyat o'zgarib borgan sari almashib boriladigan axborot. Jangovar vazifa qo'shinlarning hamkorlikdagi harakatlari bilan bajarilayotganida operativ axborot mazmuni taktik axborot mazmuni bilan to'latilib boriladi.

Taktik axborot – texnik vositalar orqali dushman harakati va bunga muvofiq qo'shinlarimiz harakatining xususiyatlari haqida bevosita jang maydonida berib boriladigan axborot.

AXBOROTNING PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGI – individual, guruh va ommaviy tarzda inson psixologiyasiga (hissiy-irodaviy, aqliy, ehtiyojlari kabi sohasiga) jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalariga taalluqli bo'lgan axborotning destruktiv, ya'ni salbiy

mazmundagi xossalardan (salbiy ta'sir etuvchi tarkiblardan) himoyalanganlik holatini tushunish lozim. Axborotni himoyalash muammolari nafaqat ko'p sonli kompyuter vositalaridan foydalanuvchilarni, balki kompyuter tizimi va tarmoqlari sohasidagi mutaxassislar diqqatini ham o'ziga jalb qilmoqda. Undan to'la qutulish istagida bo'lgan mijoz yoki subyektning asosiy maqsadi – axborot xavfsizligining ta'minlanganligiga erishishdir. Shu tariqa, barcha axborot tahdidlarini ikki guruhga (ichki va tashqi) bo'lish mumkin.

AXBOROT XAVFSIZLIGI – ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, ulardan foydalanish, ochish, buzib ko'rsatish, o'zgartirish, o'rganish, yozib olish va yo'q qilishning oldini olish amaliyoti. Bu universal tushuncha bo'lib, ma'lumotlarning egallanishi mumkin bo'lgan shaklidan (elektron yoki mas. jismoniy) qat'i nazar, foydalaniladi. Axborot xavfsizligining asosiy vazifasi ma'lumotlar qo'llanilishining maqsadga muvofiqligidan kelib chiqib, ularning maxfiyligi, yaxlitligi, ularga kirishni cheklash va himoya qilishdir.

ASHYOVIIY MULK – harbiy xizmatchilar faoliyati va maishiy hayoti uchun zarur bo'ladigan kiyim-kechak, anjom, ko'rpa-to'shak, yuvinish-taranish va poyabzalga mansub ashyolar. Vazifalariga ko'ra ashyoviy mulk shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan ashyolar (kiyim-kechak), harbiy kiyim buyumlari, anjomlar, ko'krak nishonlari, farqlovchi nishonlar va inventar hisobdagi ashyolar (ya'ni, kiyim-kechakning shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallanmagan ashyolar, sport va alpinistlikka oid ashyolar, chodirlar, ashyo tikish, ta'mirlash va yuvish uchun mo'ljallangan xo'jalik buyumlari)ga bo'linadi.

AERODROM (*aero...* + yun. *dromos* – yugurish, yugurish joyi) – samolyot, vertolyot va motorsiz uchadigan apparatlarning parvozi, qo'nishi, joylashishi va ularga xizmat ko'rsatilishini ta'minlovchi havo bo'shlig'i hamda inshoot va jihozlar majmui bilan birgalikdagi quruqlik hududi. Tarkibiga uchish maydoni va xizmatga oid texnik hudud kiradi. Aerodromlar harbiy, fuqarolik va birgalikda foydalaniladigan qo'shma aerodromlarga bo'linadi. Harbiy aerodromlar vazifasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- jangovar aviatsiya qismlari va bo'linmalari joylashadigan qo'shinlar aerodromi;

- o'quv va maxsus vazifalar bajaradigan uchish apparatlari, ularning jihozlari va qurol-aslahasini sinash va boshqa maqsad uchun mo'ljallangan aerodrom;

– havo trassalari va mahalliy havo yo'llari bo'yicha amalga oshiriladigan parvozlarni ta'minlash uchun mo'ljallangan trassa aerodromi.

Aerodromlar quyidagicha nomlanadi:

– agar aerodromda aviatsiya qismlari va bo'linmalari joylashgan bo'lsa yoki undan uchish apparatlarini qabul qilish, xizmat ko'rsatish va uchirish uchun foydalanilayotgan bo'lsa – *harakatdagi aerodrom*;

– aviatsiya qismi yoki bo'linmasi harbiy aerodromda doimo joylashgan hollarda – *doimiy joylashish aerodromi*;

– aviatsiya qismi yoki bo'linmasiga vaqtincha joylashish va foydalanish uchun ajratiladigan aerodrom – *zaxira aerodrom*.

AEROFOTO SURATGA OLISH – joy va unda joylashgan obyektlarni uchish apparatlaridan fotosuratga olish.

Joy va joylardagi obyektlarni ilmiy-texnik jihatdan o'rganib chiqish jarayonida topografik xaritalar va joy rejasini tuzish yoki ularga aniqlik kiritish maqsadida qo'llaniladi.

Harbiy sohada aerofoto suratga olish jarayoni joy xususiyatlari, dushman qo'shinlarining joylashuvi va harakatlari, uning mudofaa istehkomlari va boshqa obyektlari haqida ishonchli va aniq ma'lumotlarni olish imkonini beruvchi havo razvedkasi turlaridan biri sifatida qo'llaniladi. Bundan tashqari, aerofoto suratga olish amali qo'shinlarning jangovar va o'quv-jangovar harakatlarini nazorat qilish, uchuvchilar tarkibiga bomba uloqtirish, havoda o't ochish, grafik va foto hujjatlar tuzish, obyektlar koordinatalarini belgilash, quruqlikdagi raketalarni uchirish va artilleriyaning o't ochish marraalarini topogeodezik jihatdan bog'lash, qo'shinlarimizning niqoblanganlik saviyasini tekshirib baholashni o'rgatishga mo'ljallangan bo'lib, boshqa maqsad uchun ham qo'llanilishi mumkin.

AERODROM-TEXNIK TA'MINOTI – aviatsiya bo'linmalari va alohida samolyotlarning uchishini ta'minlaydigan tadbirlar majmuasi; front orti ta'minot turi. Aerodrom, aerodrom inshootlari va uchishni ta'minlovchi yerusti texnikasini tayyorlash, aviatsiya texnikasini uchishga tayyorlash, avariya uchragan yoki aerodrom hududida favqulodda qo'ndirilgan samolyotlar evakuatsiyasining moddiy ta'minoti.

AEROMOBILLIK – quruqlikdagi qo'shinlar tuzilmalarining samolyot va vertolyotlarda tashilishiga moslashuvchanligi. Aeromobillik qo'shinlarning jangovar imkoniyatlarini oshiradi va dushmanga kutilmaganda zarba berish uchun imkoniyat yaratadi.

AEROMOBIL OPERATSIYASI – dushmanning front orti qismiga aeromobil havo-hujumchi tuzilmalarni havo orqali yashirin ravishda va tezda tashlashdan iborat jangovar harakatlarning shakli bo'lib, tanlangan obyektlarga havo-yer zarbalarini berish, yangi hududlarda tezkor manyovrni bajarishga imkon yaratadi. Uning vazifalari: ayrim hudud va joy qismlarini bosib olish hamda o'z qo'lida ushlab turish, muhim obyektlarni yakson qilish, dushmanning yaxlit chekinishiga yo'l qo'ymaslik, uning ikkinchi esheloni bilan kurashish, desantlar tushirishni ta'minlash va boshqalar.

AEROFOTORAZVEDKA – uchuvchi bilan va uchuvchisiz uchish apparatlariga o'rnatilgan fotosuratga olishning texnik vositalari yordamida dushman hamda hudud haqida ma'lumotni qo'lga kiritish; havo razvedkasi usuli.

“AQLIY MARKAZ” – davlat rahbari yoki mamlakat oliy hokimiyati boshqaruvi qoshida siyosat, iqtisodiyot, milliy strategiya va ilm-fanning turli sohalari vakillaridan tashkil etilgan mutaxassislarning norasmiy kengashi nomi. “Aqliy markaz” tushunchasi urushdan keyin fanning siyosatdagi o'rni ortgan, ijtimoiy, siyosiy, harbiy va boshqa fanlarning hokimiyat boshqaruv organlari tomonidan muhim qarorlarni qabul qilishga ko'maklashishi darajasida taraqqiy etgan davrda qo'llana boshlangan. “Aqliy markaz” bir necha yuztadan yoki bir necha ming kishidan iborat mutaxassislarni birlashtirishi mumkin. “Aqliy markaz”, odatda, vaziyatga ko'ra hamda rahbarning shaxsiy fazilatlari, uning ilmni qay darajada qadrlashiga qarab tashkil etiladi. Siyosiy, harbiy-siyosiy, harbiy-strategik va h.k. vaziyatlar borasida bildirilgan mutaxassislarning xulosalari siyosatning professionallasuviga xizmat qiladi.

B

BAYONOT – xalqaro huquqda bir yoki bir necha davlatning siyosiy partiyasi yoki partiyalari, hukumati yohud hukumatlarining bir yoki bir necha davlatlarga oid muhim masalalar yuzasidan o'z rasmiy fikrlari, qarashlari hamda maqsadlarini ma'lum xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlashlari yoki aksincha, qoralashlarini, ularga e'tiroz bildirishlarini ifodalaydigan hujjat.

BAZA (yun. *basis* – asos, negiz) – 1) asos, negiz, tayanch; 2) omborxona; 3) ta'minot yoki xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tashkilot.

BAYROQBOG' – harbiy kiyimning yelkasi uzra tashlab yuriladigan tasma yoki qayish. Jangovar Bayroqni bayroqdor tomonidan olib yurish uchun mo'ljallangan bayroqbog' uzun va qisqa yelka kamarlari va Jangovar Bayroq sopining pastki uchini kiritib o'rnatish uchun teridan tayyorlangan kichik qolipdan iborat.

Teridan tayyorlangan yelka kamarlariga qizil (harbiy-dengiz flotida – havorang) shoyi gazlama tortilgan bo'lib, chetlari zar uqa bilan tikib bezatilgan. Assistentlarning bayroqbog'lari bayroqdorniki singari bo'lib, faqat teri qolip o'rniga zarhal rangli popuk qadaladi.

BAYROQDOR – zimmasiga Jangovar Bayroqni olib yurishdek faxriy majburiyat yuklangan harbiy xizmatchi.

Mukofotlarga sazovor bo'lgan yoki xizmat davomida o'zini ijobiy ko'rsatgan serjantlar yoki ofitserlar tarkibidan qism komandirining buyrug'i bilan tayinlanadi. Ayni paytda bayroqdor bilan bir qatorda uning ikkita assistenti va Jangovar Bayroqni kuzatib borish uchun bayroqdor vzvod tayinlanadi. Jangovar Bayroqni olib yurish mobaynida bayroqdor va uning assistentlari yelkalariga bayroqbog' tashlab olgan bo'lishlari lozim.

BAYROQDOR VZVOD – Jangovar Bayroqni saf oldiga (tayinlangan joyga) olib chiqish va saqlash joyiga eltib qo'yish mobaynida kuzatib borish uchun qism komandirining buyrug'i bilan tayinlangan bo'linma.

Jangovar Bayroq saqlash joyiga olib ketilayotganida bayroqdor vzvod bilan birga bayroqdor, assistentlar va barabanchi bo'lishlari lozim.

BAKTERIOLOGIK QUROL – odam, hayvon va o'simliklarni yoppasiga kasallantirish maqsadida zararlantirib, kasallikka chalintirilgan jonivorlar: hasharot, kemiruvchi va boshqalar orqali tarqatiladigan modda. Shuningdek, o'q-dorilarga joylangan suspenziya, ya'ni biror moddaning boshqa suyuq modda ichida mayda zarra holida suzib yuradigan eritmasi va kukun holida qo'llaniladigan bakterial vositalar, ya'ni bakteriya, virus va zamburug'lar hamda ular o'zidan hosil qiladigan zaharli mahsulotlar ham bakteriologik qurollar tarkibiga kiradi. 1925-yilda imzolangan Jeneva protokoli va 1972-yilda qabul qilingan BMT Konvensiyasi bilan taqiqlangan.

BALLISTIKA (yun. *ballo* – irg'itaman, *otaman*) – artilleriya snaryadlari, boshqarilmaydigan raketalar, mina, bomba, o'q va shu kabilarining otildigan mahaldagi harakatini o'rganadigan fan. Ichki, tashqi va eksperimental (tajriba) ballistikalarga bo'linadi. *Ichki ballistika* o'q otilganda, porox gazlarining ta'siri bilan o'qning stvol ichidagi harakati va

porox yonib hosil bo'ladigan gazlar bosimini o'rganadi. *Tashqi ballistika* o'qning havodagi harakati va nishonga tegish qonuniyatini o'rganadi. *Eksperimental ballistika* tajriba, tekshirish va sinash qonuniyatlari bilan shug'ullanadi.

Ichki va tashqi ballistika fizika va matematika fanlariga tayanadi.

BALLISTIK RAKETA – dvigateli to'xtagandan so'ng ballistik trayektoriya, ya'ni erkin otiladigan jism trayektoriyasi bo'ylab uchadigan raketa. Qanotli raketadan farqliroq, ballistik raketa atmosferadagi parvozi mobaynida aerodinamik ko'tarish kuchi hosil qiluvchi sirtga ega emas. Aerodinamik barqarorlik hosil qilish uchun ballistik raketa, ba'zan, muvozanatlashtiruvchi moslamalar bilan ta'minlanadi. Ballistik raketalar turkumiga turli maqsadli jangovar, eltuvchi, qit'alararo, kosmik apparatlarni tashuvchi raketalar mansub. Ular bir yoki ko'p pog'onali, boshqariladigan va boshqarilmaydigan bo'ladi.

BANNIK – artilleriya to'pining stvolini tozalash uchun mo'ljallangan asbob. Sop va unga o'rnatilgan silindrsimon cho'tkadan tashkil topgan. Dastaki bannikdan tashqari mexanizatsiyalashtirilgan bannik, ya'ni gidrobannik ham qo'llaniladi.

BARABANCHI – saf tayyorgarligi mashg'ulotlari va safda turib bajariladigan turlicha harakatlar mobaynida qo'llaniladigan barabanni chalishga o'rgatilgan harbiy xizmatchi. Ilgari jang jarayonida barabanchilardan chopar va yaradorlarni olib chiqish uchun yordamchi sifatida foydalanilgan.

BATALYON (fr. *bataillon* – jangchilar bo'linmasi) – brigadaning asosiy taktik bo'linmasi bo'lib, u 3-4ta vzvod va maxsus, aloqa, razvedka kabi guruhlardan iborat. Alohida harbiy qism deb sanaladigan avtomobil, sapyor va boshqa batalyonlar harbiy okrug tasarrufiga kiradi.

BATALYONNING MUDOFAA HUDUDI – brigada mudofaa polosasining bir qismi bo'lib, batalyonni kuchaytirish vositalari bilan uni egallashi. U o'z ichiga aylana mudofaaga tayyorlangan va o'zaro o't ochish tizimi hamda to'siqlar bilan bog'langan vzvod va guruhlarining tayanch punktlarini oladi. Bundan tashqari, batalyonning mudofaa rayoni artilleriya, minomyotlar, tanklar, turli harbiy qurilmalar, zenit vositalarining o't ochish pozitsiyalari bilan jihozlanadi. Shuningdek, artilleriya va havo hujumidan himoyalash vositalarining o't ochish pozitsiyalari, rezervlarning o't ochish va yoyilish marrahlari hamda zaxira pozitsiyalari ham uning tarkibiga kiradi.

BATAREYA (fr. *batterie* = batter – urmoq) – artilleriya divizioni-

ning, polki yoki brigadasining asosiy o't ochuvchi va taktik bo'linmasi bo'lib, 2-3ta o't ochuvchi guruh va boshqarmadan iborat. 2-6 dona to'plarga, ya'ni minomyotlar, reaktiv artilleriyaning jangovar mashinalari yoki tankka qarshi boshqariluvchi raketalariga ega bo'ladi.

BETARAFLIK – urushda qatnashmaslik, tinchlik davrida esa harbiy bloklarda ishtirok etishdan voz kechish.

BEZOVTALOVCHI HARAKATLAR – dushman qo'shinlarini charchatish, ularni ruhan sindirish, hujumga tayyorgarlik, qayta guruhlanish, muhandislik ishlarini bajarish rejasini buzish va boshqalarga yo'naltirilgan jangovar harakatlar. Mudofaada maxsus ajratilgan kuchlar va vositalar bilan amalga oshiriladi. Bezovtalovchi harakatlarga davriy ravishdagi o'q otishlar va artilleriyaning tartibli o't ochishlari, dushmanga o'ziotar qurollardan qo'qqisdan o't ochishlar, samolyotlarning kichik guruhlar bilan hujumlari, diversion-razvedka guruhlari va snayperlarning harakatlari va boshqalar kiradi.

BILDIRGI – harbiy xizmatning turli masalalari borasida harbiy xizmatchining boshliqqa beradigan og'zaki yoki yozma ma'lumoti. Ariza, taklif va shaxsiy iltimoslar ham bildirgi ko'rinishida rasmiylashtirilib, taqdim etiladi. Bildirgini taqdim etish, berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat Nizomida belgilangan.

BINOKL – o'zaro parallel qilib ulangan ikkita durbindan iborat optik asbob. Jang maydonini kuzatish, joyni o'rganib chiqish va nishonlar razvedkasini yuritish, shuningdek, oddiy burchakli o'lchovlarni bajarish uchun xizmat qiladi. Binokl obyektiv, prizmalar, linzalar tizimi va okulyardan tarkib topgan. Ko'rish karrasining oshirilishiga ko'ra binokllar ikki guruhga bo'linadi: o'rtacha kattalashtiruvchi (6-8 karra, ko'rish maydoni 8-5°); yirik kattalashtiruvchi (10-20 karra, ko'rish maydoni 5-2°).

BIOLOGIK ZARARLANGAN ZONA – shaxsiy tarkib, aholi va hayvonlar orasida yuqumli kasalliklarning avj olish xavfi vujudga kelgan, bakteriologik qurol ta'siri ostidagi hudud. Biologik zararlangan zonaning sarhadlari qo'llanilgan biologik vosita turi, meteorologiya sharoiti, joy relyefi va yuqumli kasallik tarqab ketishini cheklash uchun ko'rilgan choralar miqyosiga bog'liq. Biologik zararlangan zona chegaralari kuzatuv postlari va maxsus razvedka dozorlari tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra aniqlanib, biologik razvedka va tibbiy laboratoriya tahlillarining natijalari asosida ushbu ma'lumotlarga aniqlik kiritiladi.

BIOLOGIK ZARARLANISH – aholi, hayvonlar va o'simliklarning ommaviy kasallanishini keltirib chiqarish maqsadida dushman tomonidan

qo'llanilgan biologik qurol orqali yer, ustki havo qatlami va joyning mikroorganizmlar bilan zararlanishi.

BIOLOGIK RAZVEDKA – dushmanning biologik qurolni qo'llashga tayyorgarligi va qo'llashi hamda shu jarayonda foydalanilgan biologik vositalar haqida axborot olishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar yig'indisi.

BIOLOGIK yoki BAKTERIOLOGIK QUROL – tirik kuchlarni, qishloq xo'jaligi hayvonlari va ekinlarini yalpi zararlash, shuningdek, harbiy materiallar, oziq-ovqat zaxirasi, neft mahsulotlari, optik asboblari, elektron jihozlarni ishdan chiqarishga mo'ljallangan yalpi qirg'in quroli. Biologik vositalar bilan qurollangan o'q-dorilar va olib yurish vositalariga ega bo'lgan jangovar asboblari.

BIRIKTIRILADIGAN JIHOZLAR – muhandislik ta'minotiga oid vazifalarni bajarish uchun jangovar mashinalar va transportga (tank, shatak, traktor, avtomobil kabilarga) biriktiriladigan (tirkaladigan) mexanizmlar. Biriktiriladigan jihozlar jumlasiga trallar, buldozerlovchi (yer qazuvchi), qor tozalovchi va boshqa qurilmalar kiradi. Yo'l va aerodromlarni uyumlardan tozalash, tanklar va artilleriya shataklarining o'z-o'zini yer ostiga panalashlari uchun, shuningdek, yurish yo'llarini tayyorlash, uyum, vayronalik va tabiiy to'siqlar orasida yo'l ochish jarayonida qo'llanadi.

BIRINCHI NAVBATDAGI VAZIFA – quruqlikdagi qo'shinlarning bo'linma, qism, qo'shilma va birlashmasi oldiga hujumni boshlash va olib borish uchun qo'yilgan jangovar vazifaning birinchi navbatda amalga oshiriladigan qismi. Birinchi navbatdagi vazifa yuqori pog'onadagi boshliq tomonidan qo'yilib, mazmunan dushmanning muayyan hududdagi asosiy kuchlarini tor-mor etish hamda hujumning istiqboli va navbatdagi vazifaning (*"Navbatdagi vazifa" atamasiga qarang*) muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi marraning zabt etilishidan iborat.

BIRLASHMA – tarkibiga bir necha qo'shilma yoki tarkibi oz birlashmalar, shuningdek, alohida qism va muassasalar kiradigan harbiy tuzilma.

Tarkibi va bajaradigan vazifasiga ko'ra birlashma: strategik, operativ-strategik, operativ, operativ-taktik va hududiy umumqo'shin birlashmalarga bo'linadi.

Strategik birlashma:

– qit'adagi harbiy harakatlar (urush) maydonida joylashgan birlashma – quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy-havo kuchlari, harbiy-dengiz

floti, qo'shinlar turi va maxsus qo'shinlarga mansub bir necha alohida qo'shilmalardan;

– okeanlarda olib boriladigan harbiy harakatlar (urush) maydonida joylashgan birlashma – bir yoki bir nechta flotlar, qo'shinlar birlashmasi, qo'shinlar turi va maxsus qo'shinlarga mansub alohida qo'shilmalardan iborat.

Operativ-strategik birlashma – bir necha operativ birlashmalar, qurolli kuchlar turlari, qo'shin turlari va maxsus qo'shinlarga mansub alohida qo'shilma va harbiy qismlardan iborat. Bunday birlashmalar jumlasiga front va flot kiradi.

Operativ birlashma – odatda, qurolli kuchlarning bitta turiga mansub qo'shin turi va maxsus qo'shinga tegishli bir necha qo'shilma va qismlardan iborat.

Armiya, flotiliya, eskadra sanaladigan bunday birlashmalar urush va tinchlik davrida tashkil etilib, jangovar harakatlarni mustaqil ravishda yoki hamkorlikda olib borish uchun mo'ljallangan.

Operativ-taktik birlashma qurolli kuchlarning bitta turiga mansub qo'shinlar (kuchlar) turi, maxsus qo'shin va xizmat turiga tegishli qo'shilma va qismlardan iborat bo'lib, operativ-taktik va taktik vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan. Bunday birlashmalar jumlasiga armiya korpusi va mexanizatsiyalashtirilgan korpus kiradi.

Hududiy umumqo'shin birlashma – operativ vazifalarni hal etish, mamlakat va qurolli kuchlarni tayyorlash bilan bog'liq harbiy-ma'muriy ishlarni belgilangan ko'lam va doiralarda bajarish uchun mo'ljallangan. Bunday birlashma jumlasiga harbiy okruglar kiradi.

BLINDAJ (frans. *blindage* < *blinder* – qalqon, g'ov, to'siq) – 4-8 nafar shaxsiy tarkib uchun mo'ljallangan pana joy turi. O'q, snaryad va minalar portlashi natijasida hosil bo'ladigan parchalar, yondiruvchi vositalar, shuningdek, yadro qurolining qirg'in keltiruvchi omillaridan himoya etuvchi, yog'och, temir-beton, po'lat va shu kabilar bilan qoplanib shibbalangan – yopiq turdagi istehkom.

BLOKADA (ingl. *blockade* – qamal qilmoq, qurshamoq) – xalqaro huquq nuqtayi nazaridan harbiy harakatlarni amalga oshirishning alohida shakli bo'lib, B. qilinuvchi obyekt tashqi aloqalarga kirishishining oldini olish maqsadida ajratib qo'yilishi tushuniladi. Blokadalar quruqlik blokadası, dengiz blokadası va havo blokadasiga ajratiladi. Dengiz b.sini qo'llash keng tarqalgan. Blokada davrida neytral davlatlarning urushayotgan davlatlar bilan erkin savdo aloqalarini olib borishi

qiyinlashadi. B. qilinayotgan obyekt chegaralari, qirg'oqlari, portlariga qarshi qaratilgan bo'lishi shart, aks holda, u yuridik jihatdan haqiqiy hisoblanmaydi. Hozirgi xalqaro huquqda blokadaga agressiyaning bir ko'rinishi sifatida qaralmoqda. Siyosiy blokada – biror-bir davlatni muayyan talabni bajarishga majbur etish maqsadida uning tashqi aloqalariga putur yetkazishga qaratilgan siyosiy tadbirlar tizimi. Siyosiy blokada davlatni diplomatik jihatdan yakkalab qo'yishda ifodalanib, iqtisodiy yoki harbiy b. bilan bog'liq bo'ladi. Ikkinchi Jahon urushidan keyin G'arb davlatlari milliy mustaqillik uchun kurash yo'liga o'tgan mamlakatlarga qarshi siyosiy b.ni keng miqyosda qo'llagan. Iqtisodiy blokada – biror davlatning xo'jalik tizimini izdan chiqarish maqsadida uni iqtisodiy jihatdan yakkalab qo'yish amaliyoti. Iqtisodiy blokada – tashqi savdo, moliyaviy yordam, kredit ajratish va boshqa aloqalarni to'xtatib qo'yish (taqiqlash) yo'li orqali amalga oshiriladi. Odatda, blokadaning bu shakli siyosiy va harbiy b. bilan birgalikda amalga oshiriladi.

BLOKPOST – qurollangan qo'riqchilar bilan mustahkamlangan to'suvchi va nazorat o'tkazuvchi joy. U aholi yashaydigan punktlar, okkupatsiya qilingan yoki qo'shinlar bilan vaqtincha egallangan hududlarda o'rnatiladi. Blokpost o'zini mustaqil himoya qila oladi. Blokpostlar, odatda, terroristik xatti-harakatlarga qarshi tadbirlar o'tkazish yoki kasalliklar tarqalishining oldini olish maqsadida zarur hududlarda o'rnatiladi. Ular doimiy yoki vaqtincha o'rnatilishi mumkin bo'lib, o'zlari orqali o'tadigan transport vositalarini tekshirish, shuningdek, terroristlar tarafidan qayta foydalanilmasligi uchun yo'llarni qurshovga olish maqsadlariga ega bo'ladilar.

BOMBA (lot. *bombus* – shovqin) – 1) aviatsiya o'q-dorilarining asosiy turlaridan biri; 2) harbiy-dengiz floti kemalari tomonidan suv ostidagi nishonlarga shikast yetkazish uchun qo'llaniladigan snaryad; 3) artilleriya snaryadining eski nomi; 4) qo'poruvchilik va terroristik maqsad uchun qo'lda yasalgan qurol. Yadroviy, fugasli, parchalanuvchi, zirhyorar, tankka qarshi, suvosti kemasiga qarshi va boshqa maqsadli bombalar mavjud.

BOMBAPANA – kishilarni raketa, aviatsiya bombalari va artilleriya snaryadlaridan himoya qilish maqsadida qurilgan pana joy.

Shaharlarga havo hujumi qilina boshlangach, bombapanalar qurilgan. Bombapanalar g'ishtli yoki temir-beton bino va inshootlar tagida, ya'ni yerto'lasida quriladi va jihozlanadi.

BOMBARDIMONCHI AVIATSIYA – harbiy-havo kuchlarining

asosiy zarbdor kuchi. Bombardimonchi aviatsiyaning asosiy vazifasi: yalpi, keng ko'lamdagi hujumdan yoki jangdan oldin dushman aerodromlari, dengizdagi harbiy kemalari, mustahkamlangan mudofaa istehkomlari, qo'shini va jangovar texnikasi to'plangan joylar, shahar va aholi punktlari, temiryo'l tarmoqlari, sanoat markazlariga bomba tashlab va raketa qo'llab, vayron qilish, dushman qo'shinlarining jangovar holatini susaytirish, harbiy-ruhiy jihatdan ta'sir etish sanaladi. Ilk bor 1911-yilda paydo bo'lgan. Samolyotlarning uchish-taktik imkoniyati va bajaradigan jangovar vazifalar xususiyatiga ko'ra bombardimonchi aviatsiya ikkiga: front, ya'ni taktik bombardimonchi va uzoqdagi obyektlarni bombardimon qiluvchi strategik bombardimonchi aviatsiyaga bo'linadi.

BOMBARDIMONCHI SAMOLYOT – dushmanning quruqlik va dengizdagi obyektlarini bomba va raketalar bilan yo'q qilish uchun mo'ljallangan jangovar samolyot. Bunday samolyot:

- *parvoz vazniga ko'ra* – yengil, o'rta va og'ir;
- *vazifasi va topshiriq bajarish tavsifiga ko'ra* – front, ya'ni taktik va olis masofalarda harakatlanuvchi, ya'ni strategik turlarga bo'linadi.

Zamonaviy bombardimonchi samolyotlar tovush tezligidan tez uchadigan, yoqilg'isini havoda to'latish imkoniyatiga ega bo'lgan samolyotlardir. Turli radio shovqin va xalaqitlar yaratuvchi vositalar bilan ta'minlangan. Ularga o'rnatilgan qudratli radioelektron va boshqa maxsus jihozlar, dushman obyektlariga qarata har qanday meteorologik sharoitda, kunduz kuni va tunda zarba berish imkonini yaratadi.

Strategik bombardimonchi samolyotlarning harakat radiusi katta bo'lib, dushman ortidagi uzoq sarhadlarda mavjud nishonlarga qarata raketa-yadro zarbalar berish uchun mo'ljallangan.

Taktik bombardimonchi samolyotlar jang mobaynida paydo bo'lgan nishonlar va operativ sarhadlardagi dushman obyektlarini yakson etish uchun mo'ljallangan. Parvozinig maksimal vazni 35-70 tonna, parvoz uzoqligi 5000 km, bombali yuk vazni 3-4,5 tonna.

BOMBA TASHLASH – 1) uchish apparati ekipajining tegishli obyektni nishonga olish va unga qarata bomba tashlash bo'yicha bajaradigan harakatlarining majmui. Mazkur harakatlar bir necha bosqichlardan, xususan:

- nishonga qarab boshqariladigan yoki boshqaruvsiz kechadigan parvoz;
- nishonga yaqinlashish;
- raketalar yoki zenit oloviga qarshi manyovr;

- jangovar kurs tanlash;
- obyektни nishonga olish;
- bomba tashlashdan iborat.

Bomba otishning quyidagi turlari mavjud: gorizontaal parvozdan; pastga sho'ng'ib kechayotgan parvozdan; tik yuqoriga qarab uchish mobaynida, ya'ni kichik balandlikda nishonga yaqin kelib, muayyan masofa qolganida samolyot tik yuqoriga qarab uchadi va parvozning hisoblab chiqarilgan nuqtasida bomba ulotqiriladi;

2) ilmiy-amaliy fan bo'lib, aviatsiya bombalarini qo'llash nazariyasi, sohaga doir texnik vositalar va uslublarni tadqiq etadi.

BOMBA YUKLAMASI – zarba beruvchi bombardimonchi vositalarning massasi, aviatsion uchish apparatlari jangovar zaryadlanishining tarkibiy qismi. Zarba berish vositalari uchish apparatlarining tashqarisida qanotlar va fyuzelyaj ostida bombatutqichlarga, ichkarisida bomba bo'lmalariga osib qo'yiladi. Bomba yuklamasi uchish apparatlari uchib ketish massasining 25 foizigacha borishi mumkin.

BORT JURNALI – belgilangan shaklga ega parvoz hujjati bo'lib, parvozga doir vazifa olishdan toki samolyot qaytib qo'nganiga qadar kechgan parvoz haqidagi barcha ma'lumotlarni, ya'ni parvoz tezligi, balandligi, burchaklari, masofasi va davomiyligini yozib borish uchun mo'ljallangan. Bort jurnali ekipajning hisobot hujjati sanaladi.

BOTIRLIK – jangchining xavfli vaziyatda g'alaba qozonishiga qat'iy ishonch bilan qo'rqmay, yagona maqsad sari harakatlanishi va hayoti uchun xavf tug'diradigan vazifani bajarish mobaynida namoyon bo'ladigan ma'naviy-ruhiy va jangovar sifatlari. Botirlik – vujudga kelgan har qanday vaziyatdan qat'i nazar, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida uzil-kesil harakatlar bajarish, tanlagan g'oya va tamoyillarga sodiq qolishni taqozo etadi. *Jang sharoitida* botir jangchi har qanday g'ovni dadil yengib, dushmanga qarshi mardonavor va shiddat bilan jang qiladi. *Tinchlik davrida* jangchining botirliги taktik mashg'ulot, jangovar o't ochish, raketa uchirish, parvoz kabi tadbirlar mobaynidagi yagona maqsadli tashabbuskor harakatlari, o'zi va o'rtoqlariga nisbatan talabchanligi, tanqid qila olishi va o'z harakatiga tanqidiy munosabatda bo'la olishi, har qanday yovuzlik va adolatsizlikka loqayd bo'lmagan xulqqa ega bo'lishida namoyon bo'ladi. Botirlikning aniq ifodasi jasorat va tashabbusdir. Botirlik tushunchasi mardlik, barqaror iroda, dadillik kabi sifatlار bilan uyg'unlashgan bo'lib, ikkiyuzlamachilik, qo'rquqluk,

tushkunlik, munofiqlik kabi tushunchalarga mutlaqo ziddir. Botirlik sifatini tarbiyalash, jangchi tabiatiga singdirish borasidagi harakatlar jangovar ta'limot va harbiy xizmat jarayoni, mafkuraviy ish, madaniy-oqartuv va ommaviy-sport tadbirlari davomida amalga oshiriladi.

BOSHLIQ – bo'ysunuvchi shaxsiy tarkibga nisbatan muayyan huquq va majburiyatlarga ega mansabdor shaxs. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida:

- shaxsiy tarkib o'z sohasi bo'yicha vaqtincha bo'lsa ham bo'ysunadigan – to'g'ridan to'g'ri boshliq;

- xizmat pog'onasiga ko'ra bo'ysunuvchilarga yaqin bo'lgan – bevosita boshliq toifalari mavjud.

Boshliqlar harbiy unvonlariga ko'ra ham bo'linadi. Misol uchun general va polkovniklar – barcha askar, serjant va ofitserlarga boshliq sanaladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida boshliq deb ataluvchi lavozimlar toifasi ham mavjud. Ular jumlasiga: bosh boshqarma, boshqarma, bo'lim, qo'shin va xizmat turi, harbiy muassasa, harbiy ta'lim muassasasi boshliqlari, boshqaruv va ta'minot organlariga rahbarlik qiluvchi boshliqlar kiradi.

BOSHQARILADIGAN BOMBA – aviatsiya bombasi turi. Quruqlik va dengizdagi kichik o'lchamli muhim nishonlarga tashlanadi. Boshqariladigan bomba samolyotdan radiouzatkichlar yordamida boshqariladi. Boshqa turdagi bombalarga nisbatan mo'ljalga aniq tegadi. Bunday qurol-aslaha va o'q-dorilar o'ta aniq qurollar jumlasiga kiradi.

BOSHQARILADIGAN ZENIT RAKETASI – havo nishonlarini urib tushirish uchun mo'ljallangan, reaktiv dvigatelga ega uchuvchisiz uchish apparati.

Boshqariladigan zenit raketasi raketali zenit kompleksining tarkibiy qismidir. Uning asosiy elementlari jumlasiga uchish apparati, raketa bortidagi yo'naltiruvchi moslamalar va dvigatel qurilmasi kiradi.

BOSHQARISH PULTI – stol, ustun, stend ko'rinishiga ega qurilma. Yuza tomoniga boshqarish organlari bilan ma'lumotlarni tasvirlovchi vositalar o'rnatilgan bo'lib, ushbu vositalar yordamida operator tomonidan boshqarilayotgan obyektga ta'sir o'tkaziladi va zaruriy ma'lumotlar olinadi. Operator tomonidan bajariladigan asosiy ishlar mazmuniga ko'ra:

- tezkor boshqarish pulti;
- ma'lumotlar olish pulti;
- boshqarilayotgan obyekt va aloqa kanalidagi nosozliklarni funksional-texnologik nazorat qilish uchun mo'ljallangan pult;

– majmualashtirilgan pultlarga bo‘linadi.

Boshqarish pulti bevosita obyektga mustahkamlangan yoki obyektдан muayyan masofa nariga o‘rnatilib boshqaradigan bo‘lishi mumkin.

BOSHQARUVNING TEZKORLIGI – qo‘mondonlar, komandirlar va shtablarning bo‘ysunuvchi qo‘shinni qo‘yilgan vazifani muvaffaqiyatli bajarilishini ta‘minlovchi muddatlarda boshqara olish qobiliyati. Boshqaruvning operativligiga:

- vaziyatni bilish;
- o‘z vaqtida qaror qabul qilish va jangovar harakatlarni tashkil etish;
- boshqaruv organlari va punktlari jangovar shayligining yuksak saviyada bo‘lishi va ularning bir joydan boshqa joyga mohirona ko‘chib o‘tishi;
- aloqa tizimi ishining ishonchli ta‘minlanishi;
- vaziyat haqidagi axborotni yig‘ish va qayta ishlash amallarining puxta tashkil etilishi;
- boshqaruv va aloqaning barcha texnik vositalaridan unumli foydalanish, qo‘shinlar boshqaruvini avtomatlashtirish;
- shtablar faoliyatining eng samarali usullarini qo‘llash;
- axborotni maxfiylashtirish apparatlaridan keng ko‘lamda foydalanish;
- boshqaruv punktlarining yashovchanlik xususiyatini oshirish;
- izdan chiqqan boshqaruvni zudlik bilan tiklash amallarini tashkil etish bilan erishiladi.

BRIGADA (frans. brigade; ital. brigata — jamiyat, otryad) – qurolli kuchlarning taktik qo‘shilmasi. Motoo‘qchi, tank, artilleriya, aloqa va shu kabi brigadalar bo‘ladi. Harbiy-havo kuchlarida bir necha aviatsiya bo‘linmalari va qismlaridan tashkil topgan aviatsiya brigadalari bo‘lishi mumkin.

BUYRUQ – 1) yakkaboshchilikka asoslangan huquqiy hujjat. Muayyan muassasa yoki boshqa tur tashkilot oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo‘llaniladi. Buyruqning asosiy matni asoslovchi (kirish) va farmoyish qismlaridan tarkib topadi. Asoslovchi (kirish) qismida buyruq chiqarilishidan maqsad, shart-sharoit va sabablar ko‘rsatiladi, asos qilib olinayotgan buyruq havola qilinadi (nomi, raqami, sanasi yoziladi). Ba’zi buyruqlarni asoslashga hojat bo‘lmasligi mumkin, bunday hollarda ular to‘g‘ridan to‘g‘ri farmoyish qismi bilan ham berilaveradi; 2) Qurolli Kuchlarda boshliqning bo‘ysunuvchilar tomonidan ijro etishi shart bo‘lgan yozma yoki og‘zaki

ko'rsatmasi. Buyruq muhokama va tanqid qilinmay, so'zsiz ijro etiladi. Buyruq orqali qo'shinlar oldiga jangovar vazifalar qo'yiladi. Qo'shin, muassasa va harbiy-ta'lim muassasalarining hayoti va kundalik faoliyati tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida birlashma qo'mondoni, qo'shima, qism, kema komandiri kabi mansabdor shaxslar yozma buyruq berish huquqiga ega. Bo'linma komandiri *faqat og'zaki* buyruq beradi. Muhim sana, shu jumladan, Qurolli Kuchlarning ayrim turlari uchun belgilangan bayram kunlari sharafiga ham bayram buyrug'i chop etilishi mumkin.

BURCH – fuqarolik huquqi subyektlari zimmasiga qonun hujjatlari, shartnoma, ish muomalasi odatlari bo'yicha yuklangan majburiyat. Burchning mazmuni subyekt tomonidan ma'lum xatti-harakatlar sodir etish (masalan, pul to'lash, ashyoni topshirish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish) yoki ma'lum qat'iy harakatlarni sodir etishdan tiyilib turish (masalan, shartnoma bo'yicha yoki boshqa qonuniy asoslarda o'ziga ma'lum bo'lgan boshqa subyektlarning tijorat sirini boshqalarga oshkor qilmaslik, sir saqlash)dan iborat. Subyekt tomonidan o'z zimmasiga yuklangan burchni bajarmaslik yoki unga rioya etmaslik tegishli fuqarolik huquqiy javobgarligini keltirib chiqaradi.

BUTLOVCHI JIHOZ – muayyan detal, yig'ma birlik yoki ularning majmuidan iborat bo'lib, konstruktiv yaxlitlik xususiyatiga ega, QA HMT namunasi tarkibida qo'llash uchun mo'ljallangan jihoz.

BUYUM SAQLASH XONASI – muddatli harbiy xizmat askarlarining shaxsiy buyumlari va umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy-maishiy mulk saqlanadigan vzvod yotoqxonasidagi xona.

BO'YSUNISH QOIDALARI – lavozimi, harbiy unvoni kichik harbiy xizmatchilarning katta lavozim va unvondagi shaxslarga xizmat bo'yicha bo'ysunish talablari. Xizmat mavqeyi va harbiy unvonlari turlicha bo'lgan shaxslar orasidagi munosabatlarda xizmatga oid, shu jumladan, harbiy intizom qoidalarining ijro etilishi.

BO'YSUNMASLIK – komandirning buyrug'ini ijro etishdan ochiqdan ochiq bo'yin tovlash, ya'ni ongli ijrosizlik. Bu holat harbiy jinoyat sifatida ko'riladi. Bo'ysunuvchi bo'ysunmaganida yoki qarshilik ko'rsatganida, komandir harbiy intizom va tartibni tiklash maqsadida aybdorni majbur etish, zarur bo'lsa, hibsga olib, javobgarlikka tortishga qadar barcha choralarni ko'rishga majburdir. Jangovar vaziyatda, tinchlik davrida esa bo'ysunmayotgan shaxs harakatlari Vatan xoinligi va jangovar

vazifaning bajarilmay qolishiga ochiqdan ochiq yo'naltirilganida yoki komandir, harbiy xizmatchi, fuqaro hayotiga xavf tug'dirayotgan alohida hollardagina qurol ishlatilishi mumkin.

BO'YSUNUVCHI – xizmat maqomi, ya'ni egallab turgan lavozimi va harbiy unvoniga ko'ra komandirning hamda yuqori pog'onadagi mansabdor shaxslarning buyruq va ko'rsatmalarini so'zsiz, aniq bajarishga majbur bo'lgan harbiy xizmatchi.

BO'LINMA – 1) quruqlikdagi qo'shinlar vzvodi tarkibidagi yoki harbiy dengiz kuchlari komandasidagi 6-12 kishidan iborat harbiy tuzilma. Tank qo'shinlari va aviatsiyada tank, samolyot, vertolyot ekipajiga, artileriyada – qurol raschyotiga to'g'ri keladi. 2) muttasil va tarkibi o'xshash qo'shin birligi. Bo'linma qurolli kuchlarning har bir turida mavjud bo'lib, undan yirikroq bo'linma yoki harbiy qism tarkibiga kiradi. Bo'linma tushunchasiga: batalyon, divizion, eskadrilya, rota, batareya, zveno, kemaning jangovar qismi, vzvod, raschyot, ekipaj, seksiya kabilar kiradi. Tashkiliy tuzilishi, qurol-aslahasi va miqdoriy ko'rsatkichi bo'linmaga belgilangan jangovar vazifaga bog'liq bo'lib, tegishli shtat jadvallarida ko'rsatib o'tiladi.

BO'SH VAQT – harbiy qism kun tartibida muddatli harbiy xizmat askarlarining shaxsiy ishlari: ko'ngilochar o'yinlar, maktub yozish, kutubxonaga borish uchun ko'zda tutilgan vaqt oralig'i. Odatda, kun oxirida taqdim etiladi.

D

DAVLAT (دولة) arab tilidan olingan bo'lib, quyidagi ma'nolarni anglatadi: mol-mulk, boylik; mamlakat; hukumat. Siyosatshunoslikda davlat – qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud tizimi idoralaridan iborat bo'lib, jamiyat siyosiy tizimining asosiy bo'g'inidir. Muayyan hududiy yaxlitlikdagi jamiyat siyosiy tizimi asosini tashkil etuvchi siyosiy institut. Bu institutning o'ziga xos belgilariga quyidagilar kiradi: 1) hudud va uning chegaralari; 2) aholi (fuqarolar); 3) muayyan vazifalariga ega tashkilot va muassasalar (qurolli kuchlar, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimi va h.k.); 4) ichki va tashqi suverenitet. Ijtimoiy fikr rivojlanishi tarixida davlat haqida qator nazariyalar paydo bo'lgan: a) liberal, demokratik nazariyasiga ko'ra, davlatning asosiy vazifasi – jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruh va fuqarolar manfaatlarini kuzatish; b) anarxiya nazariyasiga ko'ra, jamiyat faqat davlatsiz, davlat hokimiyatsiz to'laqonli

erkin yashaydi va rivojlanadi; v) sinfiy davlat nazariyasi markazida sinf g'oyasi yotadi. Bu nazariyaning mohiyatiga ko'ra har bir davlat faqat bir sinf, bitta ijtimoiy guruh manfaatlarini ko'zlaydi, xolos. Demak, davlat bu sinfning quroliga aylanadi; g) totalitar davlat nazariyasining mohiyati shundan iboratki, jamiyatdagi har bir guruh va fuqaroning manfaatlari faqat davlat manfaatlariga bo'ysundirilishi lozim. Demokratiya uchun fuqaro birlamchi bo'lsa, totalitarizm uchun davlat birlamchidir. D. ijtimoiy hayotning majburiy tartib-qoidalarini belgilaydi va ularga jamiyat barcha a'zolarini bo'ysundirish huquqiga ega bo'ladi hamda uning bajarilishi uchun barcha qonuniy majburiy choralarni qo'llaydi. D.ning boshqa siyosiy institutlardan farqi shundaki, u qonun chiqaruvchi oliy huquqqa ega. D. o'zining siyosiy ehtiyojlariga davlat siyosiy muassasalarni bo'ysundiradi va ular orqali o'z siyosatini o'tkazadi. Shuni ta'kidlash lozimki, D. jamiyat rivojining muhim sharoitidir. Falsafiy nuqtayi nazardan qaraganda, davlat – obyektiv reallik. D. jamiyat rivojiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va h.k. Masalan, kuchsiz D. jamiyatning huquqiylik va adolatlilik yo'lidan taraqqiy etishining kafolati bo'la olmaydi. Zamonaviy demokratik D.ning siyosiy hokimiyatni tashkil etuvchi asosiy tamoyili hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sudlarga bo'linishidir.

D. xalqaro huquqning suveren subyekti sifatida xalqaro munosabatlarning asosiy ishtirokchisi bo'lib, o'z hududida siyosiy hokimiyatni amalga oshiradi. D. xalqaro doirada siyosiy hokimiyatning rasmiy vakili sifatida barcha huquqlarga va bu huquqlarni amalga oshirish yuridik qobiliyatiga ega. D. suvereniteti o'z hududida mazkur davlat hokimiyati barqarorligi va xalqaro munosabatlar doirasidagi mustaqilligi bilan bog'lanadi. Chunki D. aynan o'zi xalqaro huquq me'yorlarini ishlab chiqadi, uni buzganlik uchun javobgarlikni belgilaydi, xalqaro tashkilotlar faoliyatini va xalqaro huquqiy tartibni o'rnatadi. D.ning mazkur huquq va imkoniyatlari uning o'zidan tashqari hech kim tomonidan chegaralanmaydi. D.ning asosiy huquq va majburiyatlari xalqaro huquqning asosiy tamoyillari, xususan, BMT Ustaviga asosan belgilanadi. Barcha davlatlar iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa xarakterdagi tafovutlarga qaramay, bir xil asosiy huquq hamda majburiyatlarga egadir. Shu bilan birga davlatlarning suveren tengligi tamoyili ular tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalarga binoan, egallangan yoki zimmasiga olgan xususiy huquqlar va majburiyatlar hajmi hamda mazmunidan farqli bo'lishi mumkinligini inkor etmaydi.

DAVLATNING MUDOFAA QOBILIYATI – davlatning o‘z suverenitetini, milliy manfaatlari va hududi yaxlitligini qurolli kurash vositalari bilan himoya qilishga tayyorgarlik darajasini, davlatning tajovuzlardan himoyalaniishga hozirlik darajasini ifoda etuvchi harbiy tashkilotlarning holati va imkoniyati. Davlatning mudofaa qobiliyati ko‘rsatkichlari – davlat harbiy kuch-qudratining kattaligi – harbiy tashkilotlar barcha tarkibiy qismining miqdoriy va sifat tavsifi, eng avvalo, Qurolli Kuchlari va ularning jangovar tayyorgarlik darajasi, davlatning safarbarlik imkoniyatlari, ya’ni uning o‘z harbiy kuch-qudratini oshirish imkoniyatlari. O‘z navbatida, har ikkala omil ushbu davlatning iqtisodiy, ilmiy-texnik, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy rivojlanish, uning umumiy kuch-qudrati omilidir.

DAVLAT SIRI – harbiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va boshqa mazmundagi, davlat ahamiyatiga ega va davlat tomonidan maxsus muhofaza etiladigan muhim ma’lumotlar. Harbiy xizmatchilarning davlat sirlarini mustahkam saqlash bo‘yicha majburiyatlari Vatanga qasamyod matni va umumqo‘shin Nizomlarning tegishli moddalarida belgilab qo‘yilgan. Bunday ma’lumotlarni yig‘ish va xorijiy davlatga yetkazib berish Vatanga xoinlik sanaladi va aybdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi.

DAVLAT CHEGARASI – davlatning quruqlik va suvdagi doirasini belgilaydigan chiziq. Bu chiziq ustidan o‘tadigan vertikal sath shu davlatning havo chegarasi sanaladi. Quruqlik va suvdagi chegaralar – tegishli davlatlar o‘rtasidagi shartnoma bo‘yicha delimitatsiya va demarkatsiya yo‘li bilan o‘rnatiladi. Davlat chegarasi daxlsizdir. Uning daxlsizligini ta’minlash uchun qo‘shni davlatlar, uning chizig‘ini zaruriy holatda tutib turish, shuningdek, undan o‘tish qoidalarini belgilovchi muayyan rejim o‘rnatadilar. Shuningdek, chegara yaqinidagi hududlar va yaratiladigan chegara yo‘laklarida maxsus chegara rejimi o‘rnatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasini belgilash, o‘zgartirish, himoya qilish va qo‘riqlash sohasidagi munosabatlar 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi. 2000-yil 1-yanvardan kuchga kirgan ana shu Qonunga ko‘ra davlat chegarasini belgilash va o‘zgartirish O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat chegarasi orqali shaxslar, transport vositalari, tovarlar, boshqa

mol-mulk va hayvonlarni o'tkazish belgilangan o'tkazish punktlari orqali amalga oshiriladi.

Davlat chegarasi rejimini ta'minlash uchun chegara oldi zonasi va chegara oldi mintaqasi belgilanadi.

Chegara oldi zonasi – davlat chegarasiga tutash hududning bir qismi bo'lib, u davlat chegarasiga tutash tuman, shahar, shaharcha, qishloq, ovul hududi doirasida belgilanadi.

Chegara oldi mintaqasi – chegara oldi zonasining davlat chegarasi chizig'iga bevosita tutash qismi bo'lib, u bevosita davlat chegarasi bo'ylab, uning quruqlik uchastkalarida yoki chegarabo'yi daryolari, ko'llari va boshqa suv havzalari qirg'og'i bo'ylab o'tkaziladi.

Davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlash bo'yicha maxsus vakolatli organ O'zbekiston Respublikasi davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitadir. Davlat chegarasi rejimiga rioya etilishiga doir masalalarni hal qilish, chegara Nizomlarini tartibga solish maqsadida, davlat chegarasining muayyan uchastkalariga mazkur qo'mitaning raisi O'zbekiston Respublikasining chegara vakillarini tayinlaydi.

DAVLAT CHEGARASINI BUZISH – shaxs obyekt tomonidan har qanday texnika va boshqa vositada, davlatning quruqlikdagi, suvdagi yoki havodagi chegaralarini o'tkazish punktlari bo'lmagan joylardan yoki punktlardan, ammo ruxsatsiz yoxud belgilangan tartibni buzib, kesib (piyoda yurib, transportda minib, uchib, suzib) o'tishi. Chegarani buzgan shaxslar qonunchilikda ko'zda tutilgan jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortiladilar.

DAVLAT CHEGARASINI QO'RIQLASH – muayyan davlatning quruqlik, suv va havodagi chegaralari daxlsizligini ta'minlash, shuningdek, chegaradagi siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini muhofaza etish borasida, mamlakatning tegishli qonunlariga muvofiq amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi. Jahon mamlakatlarining quruqlik va suvdagi chegaralarini qo'riqlash, odatda, tegishli davlatning chegara qo'shinlari zimmasiga, havo bo'shlig'idagi chegaralarini qo'riqlash esa havo hujumidan mudofaa qo'shinlari zimmasiga yuklanadi.

DAVLAT CHEGARALARINI HIMOYA QILISH – harbiy okrug qo'mondonligi chegara qo'shinlari va boshqa harbiy qismlar bilan birgalikda dushmanning quruqlikdan, havodan va dengizdan beradigan zarbalarini qaytarish, zaiflashtirish, safarbarlikni tugatish, qo'shinni kuchaytirish va ular bilan birinchi mudofaa operatsiyalar olib borish, shuningdek, tinchlik davrida, urush xavfi paydo bo'lgan va boshlangan

davrlarda dushmanning josus, agenturalari, qo'poruvchi-razvedka va boshqa maxsus kuchlarning davlat chegarasi orqali bildirmasdan kirishlari va kesib o'tishga urinishlarining oldini olish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar va harakatlar tizimi.

DAVLATLAR KOALITSIYASI (ITTIFOQI) – umumiy manfaatlarni himoya qilish, mushtarak xavfsizlik va kollektiv mudofaani ta'minlash yoki ittifoq bo'lib urush olib borishga hamjihat tayyorgarlik ko'rib, uni olib borish uchun tuziladigan bir necha davlatdan tashkil topgan muvaqqat siyosiy yoxud harbiy-siyosiy ittifoq. Ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bitim, shartnoma va paktlar asosida tashkil topadi.

Odatda, koalitsiyada, ittifoqning umumiy maqsadlari va ushbu maqsadlarga erishish borasida amalga oshiriladigan birgalikdagi harakatlarning xususiyatlari belgilab olinadi. Ayni vaqtda, koalitsiya tarkibidagi har bir davlat, avvalambor, o'z siyosiy, iqtisodiy va harbiy maqsadlarini ko'zlaydi.

DAVLATNING HARBIY TASHKILOTI – davlat boshqaruvi va harbiy boshqaruv organlarining, Qurolli Kuchlarning, urush davri uchun tuziladigan boshqa organlar, muassasalar va maxsus tuzilmalarning, shuningdek, mudofaa sanoati kompleksi majmui bo'lib, ularning birgalikdagi faoliyati harbiy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan bo'ladi.

DAVLAT HUDUDI – ma'lum bir davlat suvereniteti amal qilayotgan hudud. Davlat hududi bir vaqtning o'zida siyosiy bo'shliq va tabiiy geografik muhit. Davlat hududi o'z tarkibiga quruqlik va suv bo'shliqlarini davlat chegarasi doirasida qamrab oladi, shuningdek, quruqlik va suv ustidagi havo bo'shlig'i va ostidagi tabiiy boyliklar ham davlatniki hisoblanadi.

DALA KO'NIKMASI – qurolli kuchlar shaxsiy tarkibining ko'nikma va mahoratlari. Boshqaruv organlari, qism va bo'linmalar ta'limoti, hamkorligi va turli sharoitda jangovar harakatlar yurita olish qobiliyati. Jangovar malakaning tarkibiy qismi. Quruqlikdagi qo'shinlar jangovar shayligining ko'rsatkichlaridan biri. Dala ko'nikmasi harbiy xizmatchining qurol va harbiy texnikani a'lo bilishi, joyning turli sharoiti va yilning barcha fasllarida, kunduz kuni va tungi vaqtda yuritilayotgan jang mobaynida shiddat bilan epchil harakatlana olishidan iborat. Harbiy xizmatchining dala ko'nikmasi manyovr va mashqlar davomida takomillashib boradi.

DALA OSHXONALARI – jangovar vaziyat, mashqlar, dala chiqishi

kabi sharoitda qo'shinlar shaxsiy tarkibi uchun issiq ovqat tayyorlash va uni transportda tashish vositalari. Dala oshxonalarining *ko'chma* – avtomobil va zanjirli transportda tortib boriladigan, tirkamali; *tashib yuriladigan* turlari mavjud. Taomlar ko'chma dala oshxonasida bir joyda turib va harakat mobaynida, tashib yuriladigan oshxonada, odatda, faqat bir joyda turib tayyorlanadi.

DASTLABKI MARRA – qo'shinlar qo'yilgan vazifalarni bajarishni boshlaydigan shartli chiziq. Marshda va suvli to'siqlarni kechib o'tishda qo'shinlar harakatini bir vaqtda ta'minlash uchun belgilanadi. Hujumda hamlaga o'tish marrasi belgilanadi. Dastlabki marra batalyon uchun bo'linmalarning dastlabki rayondan uyushgan holda harakatni boshlashi va ularni o'z vaqtida hamlaga o'tish marrasiga chiqishini ta'minlash maqsadida belgilanadi. Dastlabki marraning dastlabki rayondan uzoqligi, odatda, 5-10 km ni tashkil etadi va bu batalyon yoki vzvod bo'linmalari kolonnasining cho'zilishi va ularning harakatlanishi uchun belgilangan o'rtacha tezlikni olishini ta'minlab beradi.

DEGAZATSIYA – jangovar zaharlovchi va kuchli ta'sirga ega moddalar bilan zararlangan joylar, shuningdek, qurol-yarog', jangovar texnika, kiyim-kechak va boshqalarni kimyoviy moddalar hamda eritmalar yordamida zararsizlantirish.

Maxsus texnik vositalar – jihoz, komplekt va degazatsiya mashinalari yordamida degazatsiyalovchi modda, shuningdek, suv va organik eritmalar qo'llagan holda o'tkaziladi. Qisman va to'liq o'tkaziladigan degazatsiya tadbirlari mavjud.

Bug'lanish, diffuziya, gidroliz, havoning kislorod bilan oksidlanishi jarayonlarining hisobiga ham tabiiy degazatsiya ro'y berishi mumkin.

DEGAZATSIYALOVCHI MODDALAR – kimyoviy zaharli moddalarni zararsizlantiruvchi kimyoviy vositalar. Degazatsiyalovchi moddalar ta'sir o'tkazishiga ko'ra:

oksidlovchi-xlorlovchi, suvli eritmalar va gipoxloridlar suspenziyasi, xloraminlar eritmaları va boshqalar;

ishqorli, ya'ni soda, ammiak, o'yuvchi ishqorlar bo'ladi.

DEGAZATSIYA MASHINALARI – qurol-aslaha, harbiy texnika, transport, kiyim-kechak, himoya vositalari, mudofaa istehkomlari, joy hududlarida degazatsiya, dezaktivatsiya, dezinfeksiya va dezinseksiya tadbirlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan mexanizatsiya vositalari. Odatda, degazatsiyalovchi moddalar uchun mo'ljallangan katta hajmli idish, nasos, cho'tkalar va rezina shlanglardan tashkil topgan.

DEZAKTIVATSIYA (dez... va lot. *activus* – ta'sirchan) – shaxsiy turkibning radioaktiv zararlilar bilan zaharlanishining oldini olish maqsadida qurol, harbiy texnika, kiyim-kechak, oziq-ovqat, tuproq, bino va inshootlar kabi zararlangan obyektlar, shu jumladan, suvdan radioaktiv moddalarni yo'q qilish usuli.

Qisman va to'liq o'tkaziladigan dezaktivatsiya tadbirlari mavjud.

Qisman o'tkaziladigan *dezaktivatsiya* shaxsiy tarkib tomonidan zararlangan hududda yoki uning tashqarisida bo'linma va qism komandirlarining buyrug'iga binoan, jangovar vazifani bajarishni davom etgan tarzda o'z kuchi bilan o'tkaziladi.

To'liq dezaktivatsiya qo'shilma komandirining qaroriga binoan, qisman o'tkazilgan dezaktivatsiyadan so'ng ham zaharlanish darajasi yo'l qo'yilgan me'yordan oshgan holatda o'tkaziladi. Ushbu tadbir, odatda, jangovar vazifa bajarilganidan so'ng yoki jangovar harakatlar orasidagi tanaffus mobaynida zararlannagan joyda – bevosita qism hududi yoki maxsus ishlov berish punktida o'tkaziladi.

Joylarning dezaktivatsiyasi radioaktiv moddalarni eritmalar (suv) bilan yuvib tashlash, tuproqning (qorning) zararlangan qatlamini o'yib tashlash yo'li bilan, suv dezaktivatsiyasi esa – filtrlash, oqizib yuborish (qaynatish) bilan, shuningdek, ion almashtiruvchi yelimlar yordamida o'tkaziladi. Oziq-ovqat mahsulotlarining dezaktivatsiyasi zararlangan idishlarga qayta ishlov berish yoki almashtirish bilan o'tkaziladi. Zararlangan tayyor taom va non yo'q qilinadi.

Barcha qo'shin turlari, bo'linma va qismlarda dezaktivatsiya qilish tadbirlari mustaqil tarzda – fizik-kimyoviy usulda amalga oshiriladi.

DEZERTIRLIK (lot *desertor* – qochiq) – harbiy xizmatdan butunlay bo'yin tovlash maqsadida harbiy qism yoki xizmat joyini ongli ravishda o'zboshimchalik bilan tashlab ketish, shuningdek, shu maqsadda xizmat joyiga yetib kelmaslikdir. Harbiy xizmatdan qochib yurish, xizmat joyini tashlab ketish jinoyat sanaladi. Boshqa xizmat joyiga o'tkazilganda, ta'tilda bo'lganda, davolanish tugaganda, xizmat safariga yuborilganda harbiy qism yoki xizmat joyiga yetib kelmaslik ana shu turdagi jinoyatni sodir etish demakdir.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar turkumiga kirib, o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra og'ir jinoyat sanaladi.

DEZINSEKSIYA (dez... va lot. *insectum* – hasharot) – kasallik qo'zg'atuvchisini tarqatuvchi zararkunanda chivin, pashsha, bit, kana,

iskabtopar, shuningdek, turar joylardagi suvarak, qandala, burga kabilarni yo'qotish uchun qo'llanadigan tadbirlar majmui. Bunda fizik, ya'ni issiq havo, issiq suv, kimyoviy va biologik usullar, ya'ni mikroba, qush kabilarni qo'llaniladi.

Dezinseksiya profilaktik va qiruvchi turlarga bo'linadi.

*Profilaktik dezinseksiya*ga shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish, chiqindilarni vaqtida chiqarib tashlash, turar joy va xizmat binolarini ozoda saqlash, hovuz va ariqlarni tozalash, hasharotlar paydo bo'lishi va ko'payishining oldini olish kiradi.

Qiruvchi dezinseksiya fizik, kimyoviy va biologik usullar bilan amalga oshiriladi. Biologik dezinseksiya usuli zararkunandalarning "bir-birini yedirish"ga, fizik dezinseksiya esa yuqori yoki past bosim bilan ta'sir etishga asoslanadi.

DEZINFEKSIYA (*dez...* va *infeksiya*), – yuqumsizlantirish – odam va hayvonlar uchun yuqumli kasalliklarni qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar: bakteriya va viruslarni tashqi muhitda fizik, kimyoviy va biologik usullar bilan yo'qotish choralari majmui. Dezinfeksiyaning quyidagi turlari mavjud:

– profilaktik dezinfeksiya – yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida vagon, oshxona, inshoot, suv kabilarda muntazam ravishda yuqumsizlantirishdir;

– kundalik dezinfeksiya – bemor atrofidagi buyumlar dezinfeksiyasi;

– yakunlovchi dezinfeksiya – bemor gospitalga jo'natilganidan, sog'ayib ketganidan yoki vafot etganidan so'ng u yotgan joyda o'tkaziladi.

Usullarning qo'llanilishi:

– fizik usulda: to'yingan suv bug'i, issiq havo, ultrabinafsha nurlaridan yoki qaynatish usulidan foydalaniladi;

– kimyoviy usulda: eritma, kukun va gazlar ko'rinishidagi dezinfeksiya moddalari qo'llaniladi, changyutgichlar bilan tozalanadi.

Inson terisining ochiq joylari va kiyim-kechakning ayrim joylaridagi dezinfeksiya, odatda, sanitar ishlov berish jarayonida amalga oshiriladi.

DEMARKATSIYA CHIZIG'I – 1) harbiy ishda urushuvchi tomonlarni vaqtincha yarash vaqtida ajratib turuvchi chiziq (o't ochish to'xtatilgan chiziq); 2) mag'lub davlatlar hududini zonalarga bo'luvchi chiziq; 3) qo'shni davlatlar o'rtasida da'volashilayotgan hududda doimiy chegara aniqlanganiga qadar vaqtincha belgilanadigan chiziq.

DEMILITARIZATSIYA (*de...* va lot. *militaris* – harbiy) – biror shartnomaga binoan muayyan hududdagi harbiy istehkom va inshootlarni

yo'qotish, harbiy baza va qurolli kuchlarni saqlashni taqiqlashni, qurolsizlantirishni anglatadi.

Demilitarizatsiya:

– *to'liq* – Antarktika, Aland arxipelagi, Oy va boshqa osmon jismlarini qurollardan asrash;

– *qisman* – yadro qurolidan xoli zonalar tashkil etish orqali amalga oshadi.

DEMOBILIZATSIYA – harbiy kuchlarni harbiy holatdan tinchlik holatiga o'tkazish, qurolli kuchlarni tinchlik davridagi shtatlar darajasigacha qisqartirish hamda xalq xo'jaligi moddiy vositalarining armiya va flot tomonidan o'rnatilgan tartibda qaytarib berilishi ko'zda tutiladi. Harbiy xizmatchilarning Qurolli Kuchlar safidan urush yakunidan so'ng zaxiraga bo'shatilishi – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga asosan amalga oshiriladi.

DEMOBILIZATSIYA (frans. *demobilisation*, *de* – bekor qilingan ma'noni anglatuvchi old qo'shimcha va *mobiliser* – harakatga keltirish) – mamlakat qurolli kuchlari va iqtisodiyotini urush holatidan tinchlik holatiga o'tkazish. Qurolli kuchlarning demobilizatsiyasi urush davrida tuzilgan harbiy qism va qo'shimchalarni, shtablar va muassasalarni tarqatib yuborish orqali tinchlik davri shtatlariga keltirish, ortiqcha shaxsiy tarkibni xizmatdan bo'shatish va safarbarlik e'lon qilinganda olingan texnika va mulklarni iqtisodiyot tarmoqlariga qaytarishdan iborat. Demobilizatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga asosan amalga oshiriladi.

DEMOGRAFIYA (yun. *demos* – xalq va *grapho* – yozaman) – har yili turli sabablarga ko'ra vafot etgan aholi o'rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to'ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bog'liq holda o'rganadigan fan. Demografiyaning paydo bo'lishi, asosan, XVII asrning 2-yarmidan angliyalik olim J. Graunt (1620-1674) tadqiqotlari bilan bog'liqdir. Demografiya terminini 1855-yilda fransuz olimi A. Giyar qo'llagan. 1882-yilda Xalqaro gigiyena va demografiya kongressining Jeneva sessiyasida rasmiy qabul qilingan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida bu atamaning qo'llanilishi keng tarqalgan. O'zbekistonda, asosan, 1960-yillardan qo'llanila boshladi.

DEMOGRAFIK XAVFSIZLIK – hayot jarayoni va inson avlodining to'xtovsiz tabiiy qayta tiklanish jarayonining himoyalanganligidir. Demografik xavfsizlik davlat va jamiyat tomonidan millat salomatligini mustahkamlash, uning genofondini saqlash va rivojlantirish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy-

psixologik va boshqa choralarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni nazarda tutadi.

DESANT (frans. *descente* – tushirish) – dushman hududiga yoki dushman ishg'ol etgan hududga havo, dengiz yoki daryo orqali tushirish va jangovar harakatlar yuritish uchun maxsus tayyorlangan qo'shinlar. Jalb etiladigan qo'shinlar miqdori, bajariladigan vazifa xususiyati va tushiriladigan sarhadlarga ko'ra desant strategik, operativ, taktik va maxsus vazifalarni bajaruvchi desant turlariga bo'linadi. Desantni tashlash uchun qo'llaniladigan vosita va usullarga ko'ra havo va dengiz desantlariga bo'linadi. Shu bilan bir qatorda namoyishkorona, dushmanni chalg'itish uchun, kema va tank desantlari ham mavjud.

DESANTLASH – jangovar vazifani bajarish uchun dushman hududiga qo'shnlarni havo transportida olib borish va tushirish. Parashut yordamida tushirish yoki aralash, ya'ni parashut-tushirish usullari bilan amalga oshiriladi. Desantlashni tayyorlashda desant uchun boshlang'ich rayon tayinlanadi.

DESANTCHILAR JANGOVAR MASHINASI – havo-desant qo'shinlarining zirhli, zanjirli, suzuvchi mashinasi bo'lib, shaxsiy tarkibni desantlash va jang qilish uchun mo'ljallangan. Shaxsiy tarkib sakraydigan hududga parashutda tashlanadi. Jangovar vazifasi, imkoniyatlari, tuzilishi, qurol-aslahasining tarkibi, vazni va jihozlanishiga ko'ra desantchilar jangovar mashinasi piyodalar jangovar mashinasiga yaqindir.

DESANT-SHTURMCHI HAKAKATLAR – desant-shturmchi qo'shilmalar, qismlar va bo'linmalar tomonidan jangovar vazifalarning bajarilish usuli. Obyektlarga uchib borish, havo-shturmli hujumni, bo'linmani tushirish, hujum va dushman obyektlarini yo'q qilish, qaytish rayoniga chiqish yoki yangi vazifani bajarish uchun manyovr qilishni o'z ichiga oladi. Havo-shturmli hujum oldidan, odatda, hujum qilinayotgan obyektga artilleriya, aviatsiya va raketa zarbalari beriladi.

DETONATOR (lot. *detonare* – portlamoq) – raketaning jangovar qismi, snaryad, mina va aviabombadagi asosiy zaryadni portlatuvchi modda zaryadi. Detonator sifatida, odatda, tetril, trotil va shu kabilardan foydalaniladi. Ayrim o'q-dorilarga detonator ta'sirini oshirish uchun qo'shimcha detonator kiritiladi.

DETONATSIYA (lot. *detono* – gumburlash) – 1) portlovchi moddaning kimyoviy o'zgarish jarayoni. Juda yupqa qatlamda sodir bo'lib, tovush tezligidan katta tezlikda, ya'ni qattiq va suyuq portlovchi moddalarda soniyada 9000 m, gazsimon portlovchi aralashmalarda

soniyada 1000 – 3500 m tezlikda tarqaladi. Bunda portlovchi moddaning potensial energiyasi ajralib, zarb to'liqida yuqori bosim hosil qilib beradi. Detonatsiya mexanik ta'sir etish yoki issiqlik ta'sir ettirish – zarba, uchqun va shu kabi yo'llar bilan yuzaga keltiriladi. Yuqori bosimli gazlarning katta miqdori vujudga kelishi bilan xarakterlanadi; 2) karbyuratorli dvigatel silindrida yoqilg'i aralashmasining juda tez portlash holatiga yaqin tarzda yonish jarayoni. Bunda dvigatel me'yoriy tarzda ishlay olmaydi, taqillaydi, titraydi va qizib ketadi. Yonilg'ining detonatsiyaga turg'unligini yonilg'iga 1 %dan kam miqdorda bo'lgan antidetonator deb nomlanadigan moddalar oshiradi.

DETONATSIYALOVCHI SHNUR – bir necha zaryadlarni portlatish uchun mo'ljallangan, brizantli portlovchi modda bilan to'latilgan, egiluvchan qayishqoq naycha, pilik. 1 m uzunlikdagi detonatsiyalovchi shnurda 10-13 gr portlovchi modda mavjud. Detonatsiyalovchi shnur kapsul-detonator, elektrodetonator yoki portlovchi modda zaryadidan portlaydi. Shurning detonatsiyalash tezligi soniyada 9000 m.

DESHIFRATOR (frans. *dechiffre* – ma'nosini yechmoq) – ma'lumot yoki signal shifrini avtomatik tarzda ochish, dekodlash va unda mavjud axborotni qabul qilayotgan tizim tiliga, ya'ni kodiga o'girish. Turli aloqa vositalari va axborotni uzatish tizimlarida qo'llaniladi.

DIVIZION (frans. *division* – bo'linma) – 1) artilleriya polki (brigadasi) bo'linmasi. Divizion alohida bo'lishi, ya'ni polk yoki brigada tarkibiga kirmasligi ham mumkin. 2-4 batareya va maxsus qo'shinlar bo'linmalaridan iborat bo'ladi; 2) harbiy-dengiz flotida bir turdagi 3 va 4-rang kemalaridan tashkil topgan harbiy qism, odatda, kemalarning qo'shilmalari tarkibiga kiradi; 3) raketa qo'shinlari va artilleriyadagi asosiy taktik va o't ochar bo'linma. Divizion mustaqil yoki biror qism, birlashma tarkibida bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibida ham artilleriya divizionlari mavjud.

DIVIZIYA (lot. *divisio* – bo'linish) – quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy-havo kuchlari va harbiy-dengiz flotidagi asosiy taktik qo'shilma. Motoo'qchi diviziya, artilleriya diviziyasi, zenit diviziyasi, tank diviziyasi, aviatsiya diviziyasi, havo desanti diviziyasi kabi diviziyalar mavjud.

Polklardan, brigada yoki brigada guruhlaridan, shuningdek, har xil qo'shin turlari va maxsus qo'shinlarning polk va batalyonlaridan tashkil topadi. Ilk bor diviziya XVII asrda Fransiyada, XVIII asrning boshlarida Rossiyada paydo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari

qo'shinlari diviziyaga ajratilmagan.

DINAMIT (yun. *dynamis* – kuch) – tarkibida nitroglitserin bo'lgan va patronlarga joylashtirilgan plastik yoki kukunsimon portlovchi modda. 62 % dinamitlar eng ko'p qo'llaniladi va portlaganda 5,3 MJ/kg issiqlik ajratadi.

DIREKTIVA – jangovar harakatlarni tayyorlash va yuritish (operativ) hamda armiya hayoti va faoliyatiga doir boshqa masalalar bo'yicha amal qilinadigan ko'rsatmalardan iborat jangovar yoki xizmatga oid hujjat.

Direktiva mazmun va ahamiyatiga ko'ra buyruq bilan teng bo'lib:

- operativ direktiva;
- tashkiliy-safarbarlik borasidagi direktiva;
- jangovar va operativ tayyorgarlik borasidagi direktiva;
- tarbiyaviy ishlar borasidagi direktiva;
- front orti ta'minoti bo'yicha direktivalar bo'lishi mumkin.

DISPANSERIZATSIYA – kasalliklarning oldini olish va aniqlangan kasalliklarni o'z vaqtida davolash maqsadida harbiy xizmatchilar sog'liqlarini shifokor ko'rigidan muntazam o'tkazib turish. Dispanserizatsiya natijalari tibbiy kitobchaga yozib boriladi.

DISTANSIYA (lot. *distantia* – masofa) – 1) biror narsa orasidagi masofa, oraliq; 2) safda ketma-ket turgan harbiy xizmatchi, mashina, qurol, bo'linma, qism va kema kabilar o'rtasidagi oraliq masofa; 3) temiryo'l xo'jaligining turli sohalari ma'muriy birligi.

DISTANSION MINALASHTIRISH – dushmanning operativ tuzilmasining ichkarisida yoki kirib kelgan guruhlanmasining oldiga uni mag'lub etish yoki manyovrlarini cheklash maqsadida turli tashuvchi vositalar, ya'ni raketali, samolyot va vertolyotli artilleriya va aviatsiya yordamida muhandislik minalarini o'rnatish.

DNEVALNIY – bo'linma, tibbiy punkt, parkning sutkalik naryadining vakili. Soldat yoki serjantlar orasidan tayinlanadigan navbatchi. U bo'linmadagi navbatchiga bo'ysunadi va o'rnatilgan joyda xizmatni bajaradi. G'iloqli shtik-pichoq bilan qurollanadi.

DOVYURAKLIK – jangchining murakkab jangovar vaziyatda va hayoti xavf ostidaligida o'zini idora etib, sabot bilan qo'rquv va esankirash xislatlarini yengib, oldiga qo'ygan maqsadga erishish uchun qat'iylik va bosiqlik bilan kurasha olish qobiliyatini tavsiflovchi axloqiy-ruhiy va jangovar sifatleri. Dovyuraklik sifati irodasizlik, qo'rqqulik va jur'atsizlik kabi sifatarga ziddir. Dovyuraklikning muhim omillari:

- yuksak intizom;
- askariy mahorat;
- qurol-yarog' va harbiy texnikadan mohirona foydalanish;
- puxta texnik va ixtisoslik bo'yicha tayyorgarlikka ega bo'lish;
- harbiy jamoaning ma'naviy-jangovar uyushqoqligidir.

Tinchlik davrida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari jangchilarining dovyurakligi:

- jangovar, ijtimoiy-siyosiy, askariy, huquqiy va jismoniy tayyorgarlik jarayonida;
- harbiy xizmatining to'liq muddati davomida;
- jangovar sharoitga maksimal yaqinlashtirilgan vaziyatlaridagi dala (havo) ta'limoti davomida shakllanadi.

DOZIMETR (yun. *dosis* – *ulush*, bo'lak va *metreo* – o'lchayman) – zararlangan hududda bo'lgan vaqt davomida shaxsiy tarkib tomonidan olingan ionli nurlanishning summar dozasi belgilash imkonini beruvchi asbob. Radioaktiv nurlanishni nazorat qilib borish uchun foydalaniladi. Vazifasiga ko'ra dozimetrlar qo'shinlar dozimetriga va shaxsiy dozimetrlarga, qo'llanish usuliga ko'ra esa ko'chmas, ko'chma va olib yuriladigan bo'ladi.

DOZIMETRIK ASBOBLAR – radioaktiv nurlanish dozalarini yoki ular bilan bog'liq kattaliklarni o'lchashda ishlatiladigan asboblardir. Bir turdagi nurlanishlar yoki aralash nurlanishlar miqdorini o'lchaydigan turlarga bo'linadi. Radiatsion razvedka va dozimetrlar nazorat uchun qo'llaniladi. Dozimetrik asboblarning turkumiga radioaktivlikni ko'rsatuvchi indikatorlar, doza quvvatini o'lchagichlar, radiometrlar va dozimetrlar kiradi.

DOZIMETRIK NAZORAT – shaxsiy tarkib tomonidan olingan radiatsiya dozalari hamda qurol-yarog', texnika, joy, turli buyumlarning radioaktiv zararlanganlik darajasini belgilash uchun tashkil etiladigan tadbirlar tizimi.

Dozimetrlar yordamida radiatsiya va kimyoviy razvedka bo'linmalari, shuningdek, sutkalik naryad tarkibidagi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Tinchlik davrida harbiy qism joylashgan hududning umumiy radioaktiv holatini belgilash uchun o'tkaziladi.

Dozimetrik nazorat radioaktiv nurlanish nazorati va joylarning radioaktiv moddalar bilan zararlanish nazoratiga bo'linadi.

Dozimetrik nazorat ma'lumotlari asosida shtablar tomonidan odamlar, texnika va joy xavfsizligining darajasi belgilanadi.

DOZIMETRCHI – shaxsiy tarkib, bo‘linma tomonidan olingan ionli nurlanish va qurol-yarog‘, texnika, anjomlar, oziq-ovqat mahsulotlari, suv, joy va shu kabilarning radioaktiv zararlanganlik darajasini nazorat qilib borish bo‘yicha majburiyatini bajaruvchi, maxsus tayyorlangan harbiy xizmatchi. Dozimetrechi, radiatsiya va kimyoviy razvedka bo‘linmalari tarkibida yoki mustaqil harakatlanadi va dozimetrik asboblardan ta‘minlanadi.

DOZOR – razvedka yoki qo‘shinlar, qism va bo‘linmalar yurishi davomidagi soqchilar bo‘linmasi bo‘lib, dushman, joy, radiatsion va kimyoviy vaziyat haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lish, dushmanning qo‘shinlarimizga daf‘atan uyushtiradigan hujumining oldini olish maqsadida quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar harakatlar yuritayotgan yoki marshda borayotgan bo‘linma va qismlaridan yuboriladi. Vazifalari va qo‘yilgan topshiriqlarni bajarishiga ko‘ra quruqlikdagi qo‘shinlar dozori: razvedka dozori, alohida razvedka dozori, jangovar razvedka dozori, kimyoviy razvedka dozori, muhandislik razvedka dozori bo‘lishi mumkin. Dozor vertolyot, tank, piyodalar jangovar mashinasi yoki zirhli transportyorda yoxud piyoda harakatlanishi mumkin.

DOIMIY TARKIB – harbiy ta‘lim muassasalari, kurs, maktab va gospital kabi tashkilotlarning shtat asosida tayinlanadigan, rahbarlik qiluvchi, xizmat ko‘rsatuvchi va professor-o‘qituvchilar tarkibi.

DOIRAVIY MUDOFAA – dushmanning turli yo‘nalishlardan qilinadigan hujumini qaytarish va egallangan tayanch punktlar hamda rayonlarni dushman qurshab olish xavfi mavjud sharoitlarda ularni uzoq muddat davomida ushlab turish uchun tashkil etiladigan mudofaa.

DOIRAVIY O‘QQA TUTISH – o‘t ochish vositalari yoki bo‘linmalari tomonidan gorizontalk tekislik bo‘ylab har qanday yo‘nalish bo‘yicha o‘t ochish (otishma qilish) imkoniyati. Alohida o‘t ochish vositasining bunday harakatlari uning konstruksion o‘ziga xosligi yoki o‘t ochish pozitsiyasida uni u yoki bu tomonlarga aylantirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

DOT – uzoq muddatga mo‘ljallangan o‘t ochish nuqtasi.

DUSHMAN – yov, raqib, dushman qo‘shinlari yoki qarshi kurashayotgan davlatning umumiy nomi.

DUSHMAN ZARBALARI VA XAVFLI OMILLAR TA‘SIRI OQIBATLARIGA BARHAM BERISH – tiklash ishlarini o‘tkazish va qo‘shinlarning hayot faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar majmui. Ushbu tadbirlar jumlasiga:

– qo‘shinlarni xavfli hududlardan olib chiqish, ularning jangovar qobiliyatini tiklash;

– boshqaruv organlari, o‘t ochish bilan dushmanga shikast yetkazish, havo hujumidan mudofaa, fortifikatsion inshootlar, to‘siqlar, kechuv joylari tizimini asl holatiga qaytarish;

– qo‘shinlar (kuchlar) harakatlanayotgan maydonlardagi yadroviy, kimyoviy, biologik, termik, radiolokatsion va boshqa ko‘rinishda zararlangan hududlarda qutqaruv, evakuatsion, izolyatsiya qilish va chegaralash ishlarini o‘tkazish;

– qurol-aslaha, harbiy texnika, moddiy zaxiralar, harakatlanish va evakuatsiya qilish yo‘llarini tiklash;

– yong‘inni o‘chirish;

– shaxsiy tarkib va qurol-aslahaga maxsus ishlov berish, suv va oziq-ovqat mahsulotlarini zararsizlantirish kabi tadbirlar kiradi.

DUSHMANNI O‘T OCHISH BILAN YENGISH AMALINI REJALASHTIRISH – qo‘shin turlari va maxsus qo‘shinlar boshliqlari hamda tegishli shtablarning dushmanni o‘t ochish bilan yengish borasidagi vazifalar mazmuni va izchilligini ishlab chiqish; kuchlarni qo‘shinlar harakati yo‘nalishlari, operatsiyadagi operativ vazifalar, qo‘shin turiga birlashtirilgan zonalar va vaqt bo‘yicha taqsimlash borasida aniq maqsadga qaratilgan faoliyatlari. Dushmanni o‘t ochish bilan yengish amalini rejalashtirish tadbirining maqsadi – dushman qo‘shinlari turkumining jangovar imkoniyatlarini belgilangan muddatda, qo‘shinlarimizning minimal talafoti bilan talab darajasida zaiflashtirishga olib keladigan kuch va vositalarimizning oqilona taqsimotidan iborat. Dushmanni o‘t ochish bilan yengish amalini rejalashtirish tadbirlari jumlasiga:

qo‘shinlar harakati yo‘nalishlari va qo‘yilgan operativ vazifaga ko‘ra hamda vazifa mazkur qo‘shinlar tomonidan, operatsiyadagi hissasiga mos tarzda bajarilishi uchun kuch va vositalarning vazifalari va operatsiyada bajariladigan o‘t ochish topshiriqlarining hajmini;

dushmanga o‘t ochish bilan shikast yetkazilishining talab etilayotgan va qozonib bo‘ladigan darajasini;

dushmanga o‘t ochish bilan shikast yetkazuvchi kuch va vositalar tarkibini;

dushmanga operatsiyada o‘t ochish bilan shikast yetkazish tartibini;

dushmanni o‘t ochish bilan yengish amallari, shu jumladan birinchi navbatda bajarilishi lozim bo‘lgan tadbirlarning maqsadi, tuzilishi, vazifalari, shakllari va usullarini belgilash kiradi.

DUSHMAN ORTIDAGI HARAKAT – dushman texnikasi, jonli kuchi va muhim obyektni yo‘q qilish, qo‘shinlar boshqaruvi, front orti ta‘minoti, aloqa uzellari kabilarni izdan chiqarish maqsadida tez harakatlanuvchan qismlarning (havo-desantchilar, tankchilar va mexanizatsiyalashtirilgan bo‘linmalarning) yoki partizanlar otryadining (qo‘shilmasining) dushman fronti ortidagi shiddatli yurishi va jangovar harakatlari. Dushman ortidagi harakat daf‘atan, tez, qat‘iy va dadilligi bilan xarakterlanadi.

DUSHMANNI QURSHOVGA OLISH VA YAKSON QILISH USULLARI – dushmanni qurshovga olish va yakson qilish maqsadida “Udavka”, “Porshen” va “Ikki qavatli porshen” usullari tatbiq qilinadi. “Udavka” usuli, odatda, chegaralangan maydonda, fuqaro aholisi bo‘lmagan sharoitda, alohida, tarkibi ko‘p bo‘lmagan, ya‘ni 15-20 nafar kishi qurolli jangchilar. Bu usulda dushmanni yakson qilishni amalga oshirishda tayinlangan shturmchi kichik guruh bir vaqtda markaz tomon siljish bilan qurshov halqasini asta-sekin qisib borishni ko‘zda tutadi. “Porshen” usuli kunduzgi dam olish, yig‘ilish rayoni yoki vaqtincha zaxira bazada joylashib olgan dushmanning yuz kishigacha qurolli-tuzilmadan iborat jangovar otryadini qurshab olish va yanchib tashlashni ko‘zda tutadi. “Porshen” rolini, odatda, MOK batalyonining zirhli guruhi bilan kuchaytirilgan shturmchi vzvod bajaradi. Dushmanni “Porshen” usuli bilan qurshab olish va yakson qilish quyidagicha yakunlanadi: motoo‘qchi vzvod marrani va qurshovga olish pozitsiyasini egallagach, o‘ziga xos “Silindr”ni hosil qiladi. Zirhli guruh bilan kuchaytirilgan maxsus operatsiyalar qo‘shinlari batalyonining shturmchi vzvodi “Porshen” rolini ijro etarkan, jangovar vertolyotlar va artilleriya zarbalaridan so‘ng “Silindr” ichki sarhadlariga siljishni boshlaydi, qurshov marralarida joylashgan motoo‘qchi vzvod esa joyida qoladi. “Silindr” ichkarisiga hujum qilib siljirkan, qurshovga olgan bo‘linma, shturmchi vzvod ulardan oldinga o‘tgach, pozitsiyadan olinadi va marra (pozitsiya)ni qurshab olishda shturmchi vzvod ortidan jangovar tartibda boradi. “Ikki qavatli porshen” usulining “Porshen” usulidan farqi “Silindr” ichiga shturmchi vzvod siljib, marrani va pozitsiyani chapdan va o‘ngdan qurshovga olganda, motoo‘qchi bo‘linma u yerdan olinib, dushmanga hujum olib borayotgan shturmchi otryad ortidan jangovar tartibda joylashtiriladi.

DIVERSIYA – dushman e‘tiborini asosiy operatsiyadan chalg‘itib, uni zaiflashtirishga qaratilgan harakat.

DIPLOMATIK KORPUS – bitta davlatda akkreditatsiya qilingan elchilar va boshqa D. korpus vakillari. Xalqaro munosabatlar amaliyotiga doimiy elchixonalar tashkil etish joriy qilinishi bilan D.k. vakillarining yuritayotgan faoliyati, imtiyozlari va ijtimoiy mavqeyi nuqtayi nazaridan yaxlit toifa sifatida tasavvur etish imkonini tug'ildi; D.k. iborasi esa 1754-yili Venada hukmdor saroyida yashaydigan bir ayol tomonidan taklif etilgan ekan. Diplomatiya akkreditatsiya to'g'risidagi Vena Kongressi Reglamentida ularga taalluqli hech qanday qarorlar keltirilmagan. D.k., asosan, uning rahbaridan iborat bo'lishi kerak bo'lsa-da, uning tarkibiga elchixonalarning barcha xodimlari: maslahatchilar, kotiblar va hatto D.k. vakillarining oila a'zolari ham kiritiladi. D.k.ga eng keksa (tayinlanish vaqti nuqtayi nazaridan) va "duayen" deb ataladigan diplomatik agent rahbarlik qiladi (doyen du corps diplomatique). U barcha tantanali marosimlarda D.k.ning vakili hisoblanadi. Shuningdek, duayen barcha diplomatik korpus vakillarini qiziqtiradigan masalalarni ilgari suradi. Katolik davlatlarda bunday vazifa papaning nunsiyasi zimmasiga yuklatiladi. Ayrim hollarda D.k. boshqa vakilni ham saylab olishi mumkin.

DIPLOMATIYA – (frans. *diplomatie*) – davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish usullaridan biri. Diplomatiya hokimiyat davlat boshliqlari, Tashqi ishlar vazirligi, diplomatlar tomonidan o'z davlati hamda chet eldagi fuqarolar manfaatini ko'zlab, tashqi siyosiy maqsadlarning rasmiy shaklda amalga oshirilishidir.

DISKREDITATSIYA (fr. *discrediter* – ishonchni yo'qotish) – iqtisodiy subyektning obro'-e'tiboriga putur yetkazish, unga nisbatan ishonchni susaytirish maqsadida ongli ravishda amalga oshiriladigan xatti-harakatlar.

E

EVAKUATSIYA (lot. *evasio* – bo'shataman) – jangovar harakatlar va ommaviy qirg'in qurol ta'siri ostida qolgan hududdan yarador, bemor va asirlar, aholi, moddiy boyliklar, ta'mirlash kerak bo'lgan harbiy mulk kabilarni front ortiga jo'natish.

EKIPAJ (frans.) – 1) aksariyat davlatlar qurolli kuchlarining tank, piyodalar jangovar mashinasi, samolyot kabilarga bevosita xizmat ko'rsatadigan birlamchi (eng quyi) bo'linmasi; 2) kema shaxsiy tarkibi.

EKIPIROVKA – harbiy xizmatchilar uchun tayyorlangan anjom, kiyim-kechak va boshqa mulk. Shaxsiy tarkibni belgilangan moddiy

vositalar bilan shay etish.

EKSTERRITORIALLIK TAMOYILI (lot. *ex* – ...dan tashqari, tashqarida, sirtida + *territoralis* – shu hududga tegishli) – armiyada qo'llaniladigan shaxsiy tarkibni joylashtirish tamoyili bo'lib, bunda mamlakatning bir hududidan bo'lgan chaqiruvchilar xizmat o'tash uchun mamlakatning boshqa hududiga yuboriladilar.

ELEKTR ALOQA KANALI – 1) har qanday axborotni jo'natuvchidan qabul qiluvchiga uzatishni ta'minlaydigan texnik qurilmalar majmui, sim bo'yicha tarqaladigan elektr signallari yoki radiosignallar yordamida amalga oshiriladi. Aloqa tizimlarining vazifasiga qarab, elektr aloqa kanali:

- telegraf;
- telefon;
- faksimil;
- televizion;
- simli;
- radioeshittirish;
- ma'lumotlar uzatish turlariga bo'linadi.

Odatda, elektr aloqa kanallari guruhlatib, ko'p kanalli aloqa tizimlari hosil qilinadi; 2) muayyan ma'lumotni uzatish uchun ma'lum aloqa tizimida ajratiladigan chastotalar yo'lagi, uzatish vaqti yoki boshqa fizikaviy resurslar.

ELTUVCHI RAKETA – ko'p bosqichli boshqariladigan ballistik raketa, kosmosga foydali yukni (ESY, kosmik kema, sayyoralararo avtomatik stansiyalarni) chiqarishda foydalaniladi.

Eltuvchi raketa foydali yukka birinchi yoki ikkinchi kosmik tezlikka yaqin yoki ularga teng tezlik beradi. Trayektoriyaning faol qismida hozirgi eltuvchi raketalarining uchish davomiyligi 17 daqiqaga yaqin, start massasi 3000 t (90 %gacha vaznini yonilg'i tashkil qiladi). Yer atrofidagi orbitaga olib chiqa oladigan foydali yukning massasi 140 t gacha.

ERTALABKI KO'RIK – harbiy qismda joriy etilgan kun tartibining kundalik tadbiri bo'lib, bevosita komandir tomonidan, odatda, vzvod (batareya) tarkibida o'tkaziladigan tadbir. Ertalabki ko'rik davomida barcha harbiy xizmatchilarning mavjudligi, tashqi ko'rinishi va shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilayotganliklari tekshiriladi.

ESKADRILYA (*frans.*) – tarkibiga, odatda, bir rusumga mansub samolyot yoki vertolyotlar (10dan 24gacha) kiritilgan, aviatsiyaning bir necha zvenolaridan (otryadlaridan) iborat asosiy taktik aviatsiya

bo'linmasi.

ESKORT (*frans.*) – 1) kuzatish va qo'riqlab borish uchun tayinlangan harbiy bo'linma (samolyot yoki kemalar guruhi); 2) dengizdagi transport kemalarini qo'riqlab borish uchun tayinlangan harbiy-dengiz flotiga mansub kemalar guruhi; 3) yuqori martabali davlat arbobi va nufuzli harbiy sarkardani kuzatib borish, harbiy xizmatchini dafn etish mobaynida harbiy ehtirom ko'rsatish uchun tayinlangan faxriy eskort.

ESTETIK TARBIIYA (yun. *his qiluvchi, hissiy tarbiyaga doir*) – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari jangchilarining voqelikda ham, san'atda ham go'zallikka moyillik sifatlarini maqsadli tarzda shakllantirib borish jarayoni. Tarbiyaviy ishlarning tarkibiy qismi.

Estetik tarbiyaning ilmiy-uslubiy zamiri insonning amaliy faoliyatiga asoslanadi. Jangchilarning estetik tarbiyasida go'zal, yuksak, oliyanob, qahramonona va fojiali tushunchalar, his-tuyg'ular ta'rifi qo'llaniladi. Nafosat fojia orqali ham ochib beriladi. Bunda go'zallikning qarshi kuchlar bilan faol kurashida mag'lub (yoki halok) bo'lishi bilan badiiyligni ta'riflash mumkin.

Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibining estetik tarbiyasi shaxsning har tomonlama barkamol bo'lib shakllanishdagi umumiy qonuniyatlardan foydalangan holda tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining faoliyati yuksak ma'naviy va estetik mazmunga ega, chunki ularning harbiy xizmati o'zbek xalqining yuksak g'oyalarni hayotga tatbiq etish uchun kurashi va mustaqillik yutuqlarini qurolli himoya etishi bilan bog'liqdir. Jangchilarning kundalik hayotidagi go'zallik manbalari bo'lib, askariy hayot tarzi, harbiy an'analar, qurol-yarog' va harbiy texnikaning estetik elementlari xizmat qiladi.

Jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik, tarbiyaviy ish soatlari va armiyadagi ommaviy-sport tadbirlari jangchilarning estetik tarbiyasi manfaatlariga xizmat qiladi.

ETIKA (yun. *egpoz* – xulq, odat) – axloq va uning shaxs hamda jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganuvchi falsafiy fan. E. axloqshunoslikning falsafiy-nazariy muammolarini va axloqqa doir didaktik amaliy asarlarni o'z ichiga oladi. U insoniyat o'z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalari hikoyatlar, hikmatlar, naqlar, maqollar tarzida bayon etadi, kishilarga axloqning mohiyatini tushuntirib, falsafiy xulosalar chiqaradi, ularga axloqiy qonun-qoidalarini o'rgatadi. E.ning quyidagi mezoniy tushunchalari – kategoriyalari bor: fazilat va illat, yaxshilik va yomonlik,

halollik, rostgo'ylik, kamtarlik, adolat, burch, vijdon, nomus, ideal, baxt, hayotning ma'nosi va boshqalar.

ESHELON – 1) qo'shinlar jangovar tartibining (operativlik jihatdan tortgan safining) elementi. Jangovar tartibda bitta yoki birin-ketin joylashtirilgan bir necha eshelonlar bo'lishi mumkin; 2) davlat qurolli kuchlarining urushdagi strategik masalalarni hal etish uchun mo'ljallangan muayyan qismi; 3) bitta temiryo'l poyezdida yoki kemada tashib ketilayotgan harbiy qism yoki bir necha bo'linmalar; 4) aviatsiya qismi bir bazadan boshqa bazaga ko'chirib o'tkazilayotganida yangi aerodromga uchib borayotgan samolyot va vertolyotlar *parvozdagi eshelonni*; temiryo'l transporti yoki avtomobillarda tashib ketilayotgan bo'linmalar esa *quruqlikdagi eshelonni* tashkil etadi; 5) parvozlarning xavfsizligi manfaatlarida havo trassalarida belgilanadigan samolyotlar parvozining balandligi. Yurishdagi qo'riqlash bo'linmasi tomonidan himoya etiladi.

F

FAVQULODDA VAZIYAT – odamlar qurbon bo'lishiga, ularning sog'lig'i yoki atrof-muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat.

FAVQULODDA HOLAT – yalpi mamlakat yoki uning alohida hududlarida muayyan davrga o'rnatiladigan, faqat ichki yoxud xalqaro vaziyatga bog'liq alohida rejim. Odatda, amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan fuqarolarning huquqlari (masalan, harakat erkinligi) bekor qilinishi yoki cheklanishi bilan kuzatiladi.

FAN METODOLOGIYASI - metod (yunon. *metods* – usul) keng ma'noda yo'l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma'nolarni anglatadi. Metodologiya tushunchasi ikki asosiy mazmunga ega – faoliyatda qo'llaniladigan ma'lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san'atda va h.k.); tizim haqidagi ta'limot yoki metod nazariyasi.

Fan metodologiyasi uning strukturasi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo'llari, bilimni tajribaga tatbiq qilish mexanizmlari va shakllarini o'rganadi. Shuningdek, metodologiya metodlar yig'indisi va faoliyat turi haqidagi ta'limotdir.

FARMOYISH – 1) xizmatga oid yoki og'zaki berilgan komanda

bo'lib, ushbu komanda orqali bo'ysunuvchilarga vazifalar qo'yiladi; 2) qo'shinlarni boshqarish borasidagi jangovar hujjat. Farmoyish turlari:

– bo'ysunuvchi birlashma, qo'shilma, harbiy qism va bo'linmalarga beriladigan jangovar farmoyishlar – jangovar buyruq o'miga buyruq mazmuni qisqacha takrorlanadi;

– qo'shin turini jangovar jihatdan qo'llash borasidagi jangovar farmoyish;

– qo'shin turi, maxsus qo'shin va xizmat turi tasarrufidagi qo'shilma, harbiy qism va bo'linmalarga bevosita beriladigan jangovar farmoyish;

– ta'minot turlari bo'yicha;

– aloqani tashkil etish va saqlash kabi farmoyishlar.

Bo'linma komandirlari barcha hollarda og'zaki farmoyish beradi.

FARQLASH BELGILARI – harbiy xizmatchilarning harbiy kiyimi va farqlovchi nishonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Harbiy xizmatchilar, shuningdek, harbiy yig'inlarga jalb etilgan harbiy xizmatga majbur fuqarolar harbiy unvon va qo'shin turini farqlovchi nishonlari bo'lgan harbiy kiyimda yuradilar. Harbiy kiyimda yurish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadi. Harbiy kiyimda yurish huquqiga ega bo'lmagan fuqarolarga harbiy xizmatchilarning harbiy kiyimini kiyish va farqlovchi nishonlarini taqib yurishi taqiqlanadi.

FAXRIY – 1) qadimgi Rim armiyasida belgilangan xizmat muddatini o'tab, muayyan imtiyozlarga ega bo'lgan askar; 2) tajribali jangchi, bo'lib o'tgan urush qatnashchisi; 3) qurolli kuchlarda yoki biror-bir sohada uzoq vaqt xizmat o'tagan (faoliyat ko'rsatgan) inson (mehnat faxriysi).

FAXRIY YORLIQ – mukofot turi, mehnat, jamoatchilik faoliyati, mamlakat mudofaasini mustahkamlash kabi faoliyatdagi muvaffaqiyatlar uchun fuqaroni hamda korxona, muassasa, harbiy qism jamoasini ma'nan rag'batlantirish shakllaridan biri. Qurolli Kuchlarda barcha toifalardagi harbiy xizmatchilarni va harbiy qismning faxriy kitobiga kiritilgan shaxsni taqdirlash uchun faxriy yorliq ta'sis etilgan. Shuningdek, haqiqiy harbiy xizmatdan zaxiraga bo'shab ketayotgan harbiy xizmatchini taqdirlash uchun minnatdorchilik yorlig'i hamda zaxira va iste'fodagi ofitserning jamoat ishlarida faol ishtiroki uchun faxriy yorliq ta'sis etilgan.

FAXRIY KITOB – jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik hamda harbiy xizmat o'tashda a'lo natijalarga erishgan, yuksak intizomli, shuningdek, Vatan oldida o'z burchini ado etishda alohida xizmat

ko'rsatgan askar va serjantlarning familiyalarini kiritish uchun mo'ljallangan qurolli kuchlar qismlarida mavjud kitob.

Askar va serjantlar familiyalari faxriy kitobga qism (kema) komandirining buyrug'iga asosan kiritiladi.

Faxriy kitob, odatda, harbiy qism klubida (kemaning kayut-kompaniyasida) saqlanadi.

FAXRIY QOROVUL – harbiy ehtirom ko'rsatish uchun garnizon boshlig'i buyrug'i bilan tayinlangan bo'linma (komanda). Faxriy qorovul tarkibiga guruhdan vzvodga qadar bo'linma va harbiy orkestr kiradi. Faxriy qorovul tarkibining majburiyati, harbiy kiyim va qurol-yarog'ining rusumi har bir holat uchun garnizon boshlig'i (qo'shilma yoki harbiy qism komandiri) tomonidan alohida o'rnatiladi.

FIDOKORLIK – jangchining jangovar vazifani bajarish maqsadida, o'z manfaatlaridan voz kecha olish, kerak bo'lsa, jonini qurbon qilish qobiliyatlarida ifodalanuvchi axloqiy-ruhiy va jangovar sifatleri. Fidokorlik Vatan himoyasi uchun shaxsiy mas'uliyatni his etish, yuksak siyosiy ong, vatanparvarlik va baynalmilallik tuyg'ulariga asoslangan. Fidokorlik:

– *jangovar vaziyatda* – harbiy xizmatchining sabotli, ishonchli va faol harakatlari, qo'rquv hissiyotini yengib o'tib, dushman ustidan g'alaba qozonish uchun ongli ravishda o'limga borish qobiliyatida;

– *tinchlik davrida* – armiya xizmati va jangovar tayyorgarlik mashaqqatlarini yengish va harbiy burchni vijdonan bajarishda namoyon bo'ladi.

FLOT – HDFning dengiz va okeanlardagi HHUMda operativ va strategik vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan operativ-strategik birlashmasi.

Flot tashkiliy jihatdan flotiliyalar, eskadralar va turli-tuman kuchlar diviziyalari, maxsus qo'shinlarga (flot kuchlariga) mansub qo'shilma va harbiy qismlar hamda flot frontortiga qarashli harbiy qismlardan iborat bo'ladi.

Yuqorida zikr etilgan vazifalarni o'z mas'uliyatiga birlashtirilgan operatsion zonada turli tavsifdagi flot operatsiyalari va dengiz operatsiyalarini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

FLOTILIYA – flotning operativ birlashmasi bo'lib, o'z ichiga turli-tuman yoki bir turdagi kuchlarni mujassam etishi, o'z vazifalarini yopiq suv havzasida mustaqil ravishda (misol uchun, Kaspiy harbiy flotiliyasi)

yoki flot operatsiyasi tarkibida (misol uchun, Kola, Saxalin, Kamchatka va shu kabi boshqa flotiliyalar) bajarishi mumkin.

Flotiliya muayyan havzada o'ziga xos vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan bo'lib, flotiliya miqyosidagi operatsiyalar yoki jangovar harakatlar olib boradi.

FORMULAR – qurol yoki harbiy texnikani tayyorlagan korxona tomonidan ushbu namunaning kafolatlangan taktik va texnik xususiyatlarini tasdiqlovchi hujjat.

FORTIFIKATSIYA (lot. *fortifi catio* – istehkom) – fortifikatsiyali inshootlarni qurish va harbiy maqsadda foydalanishni o'z ichiga olgan harbiy-muhandislik san'atining sohasi.

FORTIFIKATSIYALI INSHOOTLAR – jangda qurol va harbiy texnikani ko'zdan yashirish, ulardan yanada unumliroq foydalanish, boshqaruv punktlarini joylashtirish, shuningdek, qo'shnlarni, aholi hamda front ortidagi obyektlarni dushman qurollari zarbasidan himoya qilish uchun qurilgan inshootlar. Fortifikatsiyali inshootlar dala inshootlari (vaqtinchalik) va uzoq muddatga mo'ljallangan (usti ochiq yoki yopiq) inshootlarga bo'linadi.

FOTORAZVEDKA – fotosuratga olish yo'li bilan razvedka ma'lumotlariga ega bo'lish. Fotosuratga olish amallari quruqlik, kema, Yerning sun'iy yo'ldoshi va uchish apparatlaridan yuritiladi. Fotorazvedka dushman haqida turlicha razvedka ma'lumotlariga, masalan, dushmanning yadroviy yoki olovli shikast yetkazish vositalari joylashgan joylar, ushbu joylar tizimi, aviatsiya va flot bazalari joylashgan joylar, ularda mavjud samolyot va kemalar rusumi kabi ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini yaratadi.

FRONT (frans. *front*, lot. *frons* – peshona, old tomon) – 1) qit'adagi harbiy harakatlar (urush) maydonining bitta strategik yoki bir necha operativ yo'nalishlaridagi vazifalarni hal etish uchun mo'ljallangan, qurolli kuchlarning, odatda, urush boshlanishi bilan yaratiladigan operativ strategik birlashmasi.

Qo'yilgan vazifalar front tomonidan front miqyosidagi operatsiyalar o'tkazish yo'li bilan, odatda, qo'shni frontlar va QK turiga mansub bo'lib, strategik operatsiyada ishtirok etayotgan boshqa birlashma va qo'shilmalar bilan hamkorlikda, ba'zan esa mustaqil ravishda bajariladi.

Frontning jangovar tarkibi front oldiga qo'yilgan vazifalar, harakat yo'nalishining muhimligi va operativ hajmi kabi boshqa shartlarga bog'liq.

O'tgan urushlar tajribasiga ko'ra front tarkibiga bir necha

umumqo'shin, tank, havo armiyalari, bir necha tank va kavaleriya korpuslari, qo'shin turlari va maxsus qo'shnlarga mansub qo'shilma va harbiy qismlar, front orti tasarrufidagi harbiy qism va muassasalar kirgan; 2) old tomondagi bo'linmalar tizilgan chiziq (qit'adagi harbiy harakatlar (urush) maydonida dushman bilan to'qnash keladigan chiziq); 3) hududning («Front» va «Front orti» tushunchalari ostida) jangovar harakatlar olib borilayotgan maydoni (qismi chegarasi, zonasi); 4) qo'shinlar jangovar tartibining (operativ jihatdan tortgan safining) dushman tomon yuzlangan tomoni. Jangovar harakatlar olib borilayotganida, front hujum fronti, ataka fronti, yorib o'tish fronti, mudofaa fronti kabi frontlarga farq qiladi; 5) safning harbiy xizmatchilar yuzlanib turgan (mashinalarning old tomoni qaratilgan) tomoni.

FRONT AVIATSIYASI – quruqlikdagi qo'shinlar va harbiy-havo kuchlari tomonidan o'tkaziladigan jangovar harakatda jangovar vazifalar bajarish uchun mo'ljallangan aviatsiya turlaridan biri.

Front aviatsiyasi bombardimonchi, qiruvchi-bombardimonchi, qiruvchi, razvedkachi, transport va maxsus aviatsiya turlaridan tashkil topgan.

Tashkiliy jihatdan front aviatsiyasi tarkibiga aviatsiya turlarining harbiy qismlari, vertolyotli harbiy qismlar, ta'minot va xizmat ko'rsatish bo'linmalari kiradi.

Front aviatsiyasi tarkibiga kiritilgan harbiy qismlar tovush tezligidan tez uchadigan, raketa, zambarak va bombardimonchi qurol-aslaha bilan qurollangan, radio va radiolokatsiyali asbob, uskuna va tizimlarga ega samolyotlar (vertolyotlar) bilan ta'minlangan.

Front aviatsiyasi ob-havo va sutkaning har qanday sharoitida parvoz etib, jangovar harakatlar bajarish qobiliyatiga ega.

FRONT ORTI – 1) urishayotgan mamlakatning harbiy harakatlar olib borilayotgan hududidan (zonasidan) tashqari, aholisi va iqtisodiy resurslari bilan birgalikdagi jamiki hududi; 2) urush va tinchlik davrida armiya va flotning front orti ta'minotini va front orti ta'minoti xizmatlariga taalluqli texnik ta'minotini amalga oshiradigan kuch va vositalar; 3) saf, qo'shinlarning (kuchlarning) jangovar tartibi yoxud operativ jihatdan tortgan safining old tomoniga qarama-qarshi tomoni yoki qismi. Quruqlik va havodagi dushman hujumini bartaraf etish, front ortidagi obyektlar hududiga dushman razvedkasi singib borishi va begona shaxslarning kirishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar. Front ortini qo'riqlash va mudofaa etish tadbirlariga:

- qo‘riqlash bo‘linmasi va qorovullik xizmatini tashkil etish;
- transportni kuzatib borish;
- mahalliy aholi harakatini (ko‘chib yurishlarini) cheklash amallari kiradi. Front ortini qo‘riqlash va mudofaa etish uchun:
- kuzatish va xabar berish tizimi yaratiladi;
- front orti hududi va marralarini mudofaa etish bo‘yicha mas‘ul shaxslar tayinlanadi;
- shaxsiy tarkibning trevoga bo‘yicha yig‘ilish va harakatlanish tartibi belgilanadi;
- dushmanning qo‘poruvchi guruhi va desantiga qarshi kurash uchun navbatchi bo‘linma va maxsus komandalar tayinlanadi;
- mudofaa chegaralari belgilanib, muhandislik jihatidan jihozlanadi.

Front ortini qo‘riqlash va mudofaa etish mas‘uliyati front ortidagi qism va muassasalar zimmasiga, operativ zvenoda esa front ortini qo‘riqlovchi qo‘shin zimmasiga yuklanadi. Havo hujumidan HHM qo‘shinlarining umumiy tizimi tomonidan mudofaa etiladi.

FUGASLI ZIRHYORAR SNARYAD – portlatkich modda va mustahkam po‘lat korpusga ega artilleriya snaryadi.

1. Fugasli zirhyorar snaryad tank va mashinalar hamda po‘latdan tayyorlangan inshootlarni yo‘q qilish uchun zirhyorar snaryad sifatida, dala mudofaa istehkomlarini vayron etish uchun esa fugasli snaryad sifatida qo‘llaniladi. Fugasli zirhyorar snaryad tarkibiga yupqa devorli po‘lat korpus, yorib tashlovchi zaryad, yetakchi halqa, snaryad tubiga o‘rnatiluvchi portlatkich, yorishib boruvchi tarkib kiradi.

Fugasli zirhyorar snaryad ta’siri zirh bilan to‘qnash kelish tezligi va zarba fursatidagi kinetik energiya kuchiga bog‘liq emas.

Fugasli zirhyorar snaryadning *afzalligi* jumlasiga:

- tuzilishining nisbatan soddaligi;
- snaryadning zirh bilan to‘qnash kelish burchagiga kam bog‘liqligi kiradi.

Mazkur snaryadning *kamchiliklari* jumlasiga:

- olov samarasi nishondagi zirhning yuqori qatlamiga bog‘liqligi;
- snaryadning boshlang‘ich tezligi pastligi sababli tez harakatlanayotgan nishonni yo‘q qilish imkoniyati deyarli yo‘qligi kiradi.

2. Fugasli ta’sir o‘tkazuvchi artilleriya snaryadi.

Dushmanning mustahkam mudofaa istehkomlari, minali, simli va shu kabi turlicha to‘siqlari, qo‘mondonlik punktlari, aloqa uzellari, bino va inshootlarini vayron etish, jonli kuchi, o‘t ochish vositalari va harbiy

texnikasi jamlangan joylarni yo'q qilish uchun artilleriya qurollari qo'llaniladi.

Fugasli snaryadning nishonni vayron etadigan ta'siri snaryadning to'siqqa zarba berishi, portlash natijasida paydo bo'ladigan omillar, zarbali to'lqin, snaryad korpusining portlash oqibatida vujudga keladigan parchalari nishonga o'tkazadigan ta'sirlarning yig'indisidan hosil bo'ladi. Fugasli snaryad po'lat korpus; trotil, geksojen kabi portlovchi modda; yetakchi halqa va portlatkichdan tashkil topgan.

Fugasli snaryad oniy, inersiyali va harakatga kelishini kechiktiruvchi o'rnatmalar o'rnatiladigan, snaryad boshi yoki tubiga joylashtiriladigan portlatkichlar bilan butlanadi.

FURAJKA – kundalik va parad vaqtida kiyiladigan harbiy bosh kiyim.

Kelib chiqishi uzoq tarixga borib taqaladi, kavaleriyachilar kiyib yurgan jig'a taqilgan baland bosh kiyim otlar uchun yem-xashak zaxirasini (furajni) tayyorlash mobaynida juda noqulay bo'lgan. Shuning uchun furaj yig'im-terimida askarlarga bo'yi qisqa, yengil bosh kiyim berilgan va ushbu kiyim "Furajka" deb atalib kelingan. Furajka gardishi va jiyagining rangi askar yoki ofitserning qaysi qo'shin turida xizmat o'tayotganligini bildirib turadi.

FUQARO MUHOFAZASI MANFAATIDA O'TKAZILADIGAN RAZVEDKA – fuqaro muhofazasi qo'shinlari (kuchlari) tomonidan texnogen, ekologik va tabiiy xususiyatlarga ega bo'lgan favqulodda vaziyatlar, halokatlar, avariya, tabiiy ofatlar, shuningdek, dushman tomonidan zamonaviy qirg'in vositalari qo'llanilishi oqibatlari haqida haqqoniy ma'lumotlarni yig'ish va boshqaruv organlari hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etuvchi kuchlarga uzatish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar majmui.

O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning yagona davlat tizimi tasarrufidagi kuch va vositalar harakatlarining ta'minot turlaridan biri.

Mazkur razvedkaning quruqlik, havo, dengizda o'tkaziladigan va kosmik turlari mavjud. Bajariladigan vazifalarning xususiyatiga ko'ra fuqaro muhofazasi manfaatida o'tkaziladigan razvedka umumiy va maxsus razvedkalarga bo'linadi.

Umumiy razvedka – yuzaga kelgan vaziyatga baho berish, uning O'zbekiston Respublikasi hududida qanday rivojlanishini oldindan taxmin qilish va tegishli choralar ko'rish uchun birinchi galdagi ma'lumotlarni

izlab topadi.

Maxsus razvedka – vaziyat borasidagi aniq ma'lumotlarni yig'adi. U quyidagi turlarga bo'linadi: radiatsiyali, kimyoviy, biologik, muhandislik, o't o'chirish, tibbiyot, veterinar va fitopatologik (o'simlik kasalliklarini o'rganuvchi) razvedkalar.

FUQARO MUHOFAZASI QO'SHINLARI – fuqaro muhofazasining mexanizatsiyalashtirilgan brigada va polklari, maxsus texnika bilan ta'minlangan muhandislik, kimyoviy va boshqa harbiy qismlarni o'z ichida mujassam etgan, urush va tinchlik davrlarida murakkab qutqaruv ishlari, avariya oqibatlarini bartaraf qilish va ta'mirlash-tiklash tadbirlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan FMning maxsus tuzilmalari.

FM qo'shinlari davlatning turli mintaqalarida joylashgan bo'lib, tegishli operatsion yo'nalishlarda o'z vazifalariga xos harakatlarni amalga oshirish yoki yirik ma'muriy-siyosiy va sanoat markazlarini himoya qilish uchun shay holatdagi alohida turkumlarga bo'linadi.

FYUZELYAJ (frans. *fuselage, fuseau* – dan urchuq) – uchish apparatining korpusi. Old qanotlar va (ba'zan) shassini o'zaro bog'laydi. Odatda, fyuzelyajda ekipaj a'zolari, yo'lovchilar, yuk va jihozlar joylashadi.

G

GAZETA (ital. *Qezetta*) – XVI-XVII asrlarda Venetsiyada yangiliklar yoritilgan qo'lyozma va bosma varaqlarni sotib olish mumkin bo'lgan mayda chaqa (tanga) kundalik davriy nashr. Dastlab G. G'arbiy Yevropada (Vena, Venetsiya va boshqa) nashr etila boshlangan. XVI asrda Parij va Londonda xususiy shaxslar tomonidan siyosiy va ijtimoiy hayotga oid yangiliklar yoritilgan qo'lyozma varaqalar chiqarilgan. Ilk bosma varaqalar 1615-1622-yillarda Anverpon, Vena, Frankfurt-na-Mayne, Parij va Londonda haftalik sifatida chiqarila boshlangan. (Shu jumladan harbiy nashrlar).

GAZNIQOB – zaharlovchi va radioaktiv moddalardan insonning nafas olish organlari, ko'zlari va yuzini himoya qilish uchun mo'ljallangan shaxsiy himoya vositasi. Gazniqoblar:

- himoya etish usullariga ko'ra – filtrlovchi va izolyatsiyalovchi;
- vazifasiga ko'ra – qo'shinlar va sanoatda qo'llaniladigan, fuqarolar uchun mo'ljallangan turlarga bo'linadi.

Tuzilishi sodda, qo'llanilishi qulay va uzoq vaqt himoya eta olishi tufayli filtrlovchi gazniqoblar keng tarqalgan.

GAZPANA – kishilarni kimyoviy moddalardan muhofaza qilish maqsadida maxsus jihozlangan joy. Ikkinchi Jahon urushidan so'ng panogoh deb atala boshladi.

GARNIZON (frans. *garnison*; *garnir* – ta'minlamoq, qurollantirmoq) – 1) muayyan aholi punkti yoki biror-bir hududda doimiy yoki vaqtincha joylashgan harbiy qism va harbiy-o'quv muassasalari.

Garnizonda garnizon boshlig'i, Mudofaa vazirining buyrug'i bilan uning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, harbiy komendant, garnizon harbiy avtomobil nazorati boshlig'i tayinlanadi; 2) tayanch punktini (uzoq muddatli mudofaa inshootini, qal'ani) mudofaa etayotgan qo'shinlar.

GARNIZON BOSHIG'I – garnizonda mansabi katta shaxs: komandir, boshliq. Garnizon boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining buyrug'i bilan tayinlanadi. Garnizon boshlig'ining O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomida belgilab berilgan majburiyatlari ushbu shaxsning shtat bo'yicha asosiy majburiyatlari bilan bir vaqtda ijro etiladi.

GARNIZON XIZMATI – garnizonda joylashgan harbiy qism va muassasalarda harbiy xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchilar uchun belgilangan maxsus xizmat turi. Qo'shinlar xizmatining tarkibiy qismi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomiga muvofiq tegishli harbiy xizmatchilar tomonidan olib boriladi.

Garnizon xizmati garnizondagi qo'shinlar hayoti va tayyorgarligi, ularning trevoga signali bo'yicha belgilangan joylarga uyushqoqlik bilan chiqishi va qo'shinlar ishtirokida o'tadigan garnizon tadbirlari (parad va namoyishlar, yodgorliklar poyiga gulchambarlar qo'yish, salyut otish, faxriy qorovullar tuzish, halok bo'lgan harbiy xizmatchilarni dafn etish kabi tadbirlar) benuqson o'tkazilishi, shuningdek, qo'shinlarni yong'in va tabiiy ofatlarga qarshi kurashga jalb qilish kabi ishlarni amalga oshirish uchun zarur sanaladigan harbiy intizomni saqlab borish maqsadida tashkillashtiriladi.

Garnizon hududida joriy etilgan garnizon xizmatiga garnizon boshlig'i rahbarlik qiladi.

GARNIZON NARYADI – garnizon va qorovul xizmatini o'tash hamda garnizonda tartibni saqlash uchun tayinlanadi. Garnizon naryadi tarkibida garnizon qorovullari, garnizon qorovullarining navbatchisi, uning

yordamchisi, patrullar va navbatchi bo'linma tayinlanadi.

GAROVGA OLISH – muayyan maqsadga erishish uchun biror-bir shaxs yoki guruhlar tomonidan boshqa bir shaxs yoki shaxslarni garovga olish. So'nggi o'n yillar davomida shaxsni garovga olish keng tarqaldi. Undan turli mamlakatlarda urushayotganlar, terrorchilar, uyushgan jinoiy guruhlar foydalanmoqda. 1979-yili BMT Bosh Assambleyasi "Garovga olishga qarshi kurash to'g'risida" Konvensiya qabul qildi. Shaxsni ushlab turish, og'ir tan jarohati yetkazish yoki o'ldirish, garovga olinganlarni to'liq yoki qisman ozod qilish evaziga uchinchi tarafni ma'lum harakatlarni amalga oshirish yoxud muayyan harakatlardan tiyilishga majbur qilish ham jinoyat hisoblanadi. Konvensiyaga qo'shilgan davlatlar milliy qonunchiligida mazkur jinoyatni og'ir xarakterdagi jinoyat sifatida jazo tayinlash nazarda tutilgan. Bu borada – jinoyatlarning oldini olishda, unga qarshi kurashda, shuningdek, jinoyatchilarni jazolash masalalarida a'zo davlatlar hamkorlik qilish majburiyatini olgan.

GAUPTVAXTA (nem. *hayptwache* – bosh qorovul) – hibsga olingan harbiy xizmatchilarni tutib turish uchun mo'ljallangan maxsus bino.

Gauptvaxtada intizomiy tartibda qamalgan va harbiy sud tomonidan gauptvaxtada tutilishga hukm chiqarilgan harbiy xizmatchilar tutib turiladi. Gauptvaxtaning jihozlanishi, hibsga olish hukmini ijro etish tartibi, hibsga olinganlarni jo'natish, qabul qilish, tutib turish hamda ozod etish amallari Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomi, shuningdek, Intizom Nizomi bilan tartibga solinadi.

GVARDIYA (ital. – *guardia*) – qo'shinlarning saralangan imtiyozli qismi. Dastlab Fransiyada XV asr boshida, keyinchalik Angliya, Shvetsiya, Rossiya va Prussiyada XVII asrda paydo bo'lgan. Rossiyaning Leyb-gvardiyasi 1687-yilda Pyotr I tomonidan tashkil etilgan va 1918-yilda tugatilgan.

GEGEMONLIK (yunon. *hegemonia* – hukmronlik) – hukmron bo'lishga, boshqa mamlakatlar va xalqlar ustidan hukmronlik qilishga intilishga asoslangan siyosat. G. – davlatlar va xalqlar teng huquqligining bevosita aksi, xalqaro munosabatlarda qaror topishi lozim bo'lgan idealning qarama-qarshisidir.

GENERAL (lot. *generalis* – umumiy, bosh) – oliy toifadagi ofitserlar tarkibiga mansub shaxslarning harbiy unvoni. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida general-mayor, general-leytenant, general-polkovnik, armiya generali unvonlari ta'sis etilgan. Aviatsiya, adliya, tibbiyot xizmati uchun unvonga tegishli nom qo'shiladi, misol uchun, aviatsiya general-

mayori, adliya general-leytenanti, tibbiyot xizmati general-polkovnigi.

General unvoni ilk bor XVI asrda Fransiya ta'sis etilgan.

GENERALISSIMUS (lot. *generalissimus* – eng oliy) – ayrim davlatlar qurolli kuchlaridagi oliy harbiy unvon. Ilgari urush davrlarida o'z armiyalari va ittifoqdosh armiyalarga qo'mondonlik qilgan harbiy rahbarlar, hukmronlik surgan qirolik avlodlariga mansub shaxslar va davlat arboblari faxriy unvon sifatida berilgan. Ilk bor generalissimus unvoni 1569-yilda fransuz qiroli Karl IX tomonidan o'zining 18 yoshli ukasi gersog Anjuskuya berilgan. Generalissimus unvoniga dunyoda 30dan ortiq shaxslar muvassaf bo'lgan.

GENERAL-LEYTENANT – oliy toifadagi ofitserlar tarkibining general-mayor unvonidan so'ng beriladigan harbiy unvoni. Sobiq ittifoqda 1940-yil 7-may kuni ta'sis etilgan.

GENERAL-MAYOR – oliy toifadagi ofitserlar tarkibiga mansub birinchi harbiy unvon bo'lib, katta ofitserlar tarkibiga mansub polkovnik unvonidan so'ng beriladi. 1940-yil 7-may kuni ta'sis etilgan.

GENERAL-POLKOVNIK – oliy toifadagi ofitserlar tarkibining general-leytenant unvonidan so'ng beriladigan harbiy unvoni. 1940-yil 7-may kuni ta'sis etilgan. Kimyo, temiryo'l, avtomobil qo'shinlari, topografiya, moddiy-texnik ta'minot, tibbiyot va moliya xizmatlari ofitserlari tarkibiga mansub shaxslar uchun so'nggi oliy harbiy unvon sanaladi.

GENOTSID – muayyan milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni shundayligicha to'la yoki qisman yo'qotishni mo'ljallab sodir etiladigan quyidagi harakatlar tushuniladi: shunday guruh a'zolarini o'ldirish; shunday guruh a'zolariga jiddiy jismoniy yoki aqliy shikast yetkazish; muayyan guruhni ataylab to'la yoki qisman yo'q qilishga mo'ljallangan hayotiy shart-sharoitlar yaratish; shunday guruh muhitida bola tug'ilishining oldini olishga mo'ljallangan chora-tadbirlarni qo'llash; bolalarni insonlarning bir guruhidan boshqasiga zo'rlab o'tkazish.

GEOGRAFIK KOORDINATALAR – ekvator va Grinвич meridianiga nisbatan yer yuzasidagi nuqtalarning joylashuv holatini aniqlaydigan burchak kattaliklari geografik kenglik va uzunliklar deyiladi.

GEOSIYOSAT – shved olimi va parlament arbobi R. Chellen (1846-1922) tomonidan G'arbiy Yevropa intellektual an'alariga ko'ra "kuchli davlat"ni shakllantirish uchun boshqaruvning optimal tizimi xususiyatlarini aniqlash maqsadida kiritilgan tushuncha. Chellen siyosatning yetakchi unsurlaridan biri bo'lgan G.ni ko'p darajali, ko'p

aspektli (ko'p jihatli), yo'naltiruvchi jarayon sifatida ajratib, G.ni maxsus atama sifatida ko'rsatdi. Aslida, G.ni maxsus atama sifatida konseptual ishlab chiqqan – olmon tadqiqotchisi F. Ratsel (1844-1904) edi. U davlat siyosati va mamlakatning geografik vaziyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikning qayta qurilishiga zamin bo'ladigan yangi ijtimoiy sohaning nazariy asoslarini ishlab chiqish dolzarb masala ekanligini aniqladi. Avvalboshdanoq yuqori mafkuraviy imkoniyatga ega Ratsel konsepsiyasida "alohida makonni his etish" qobiliyati mavjud va shuning uchun o'z chegaralarini tezkor o'zgartirishga (kengaytirishga) intilayotgan xalqlarga alohida tarixiy ahamiyat berilgan. K. Xausxofer (1869-1946) G. tushunchasini bunday talqin etish an'anasini davom ettirib, mohiyatan tajovuzkorlik tabiatiga ega bo'lgan "olmon millati hayotiy makoni"ning imkoniyatdagi zaruriyat haqidagi gipotezani ishlab chiqdi, uning ekspansionistik, imperialistik jihatlariga alohida e'tibor qaratdi va rivojlantirdi. Uchinchi Reyx rahnamolari tomonidan qurol qilib olingan G. nazariyasining bu ko'rinishi uzoq yillar davomida olmon geosiyosiy maktablarining akademik tadqiqotlarini badnom qilib keldi. Amerikalik admiral A. T. Mexen (1840-1914)ning intellektual sxemalarida dengiz va quruqlikda joylashgan davlatlar o'rtasida abadiy ziddiyat mavjudligi ko'rsatiladi, shuningdek, okean va dengiz kommunikatsiyalari va portlari ustidan olib boriladigan har tomonlama nazorat davlatga uzoq vaqt davomida dunyoda geosiyosiy ustunlikni ta'minlab berishi mumkinligi ta'kidlanadi. Yigirmanchi asrning 80-yillarida jahonning "bipolyar" geosiyosiy tuzilishining yaqqol inqirozi hamda keyingi taraqqiyotning "ko'p vektorlik" tendensiyalarining oshib borishi G. g'oyasiga tamoman yangicha yondashuvlarning paydo bo'lishi, shakllanishiga sabab bo'ldi. Bu, xususan, fransuz generali P. Galluaning "Geosiyosat — qudrat manbalari" (1990) asarida o'z aksini topdi. Unda dastavval geosiyosat geografik determinizm siyosiy geografiya bilan aynan emasligiga e'tibor qaratilgan bo'lib, davlatning imkoniyatlari (kuch-qudrati) hududi, aholisi, geografik vaziyati, chegaralarining davomiyligi va konfiguratsiyasi, zaxiralarining ahvoliga va h.k. (shu jumladan, eng yangi ommaviy qirg'in qurollari mavjudligiga ham) bog'liqligi e'tirof etiladi. G.ning zamonaviy talqini, unga tashqi siyosatda u yoki bu masala bo'yicha ustunlikka erishish uchun faqat undan faol foydalanibgina qolmasdan, balki o'zigacha mavjud bo'lgan davlatning muayyan moddiy, ijtimoiy va ma'naviy resurslarining (yoki uning "geosiyosiy potentsiali") ahamiyatiga alohida e'tibor berilishi bilan an'anaviy tushunishdan farq qiladi. Ba'zan G.ni

sohalararo atama yoki uni ilmiy jihatdan g'arbiy yevropacha intellektualizmning mafkuralashgan neologizmi sifatida talqin etilishiga qaramay, davlatning geografik vaziyati va tashqi siyosatining o'zaro bog'liqligini aniqlashda uning siyosatshunoslik – sotsiologik yondashuv sifatida maxsus maqomga ega ekanligiga shubha yo'q.

GEOSIYOSIY MINTAQA – geostrategik mintaqaning bir qismi bo'lib, u jo'g'rofiy chiziqlarning yaxlitligini ifodalaydi. Misol tariqasida, geostrategik mintaqaga Yevroosiyo hududini kiritish mumkin. Sobiq ittifoq respublikalari va Sharqiy Yevropa ham geosiyosiy mintaqaga mansubdir. Geostrategik va geosiyosiy mintaqalarga ta'rif bergach, geosiyosiy vaziyatga ham ta'rif berish imkoni tug'iladi. Ya'ni jo'g'rofiy, siyosiy, harbiy, iqtisodiy va boshqa omillarni inobatga olib, ma'lum mintaq yoki dunyoning tarixiy geosiyosiy vaziyatini o'rganish mumkin. Hozirgi o'zaro bog'liq dunyoda butun hamjamiyat umumiy kuchli siyosiy maydonga aylandi. Bir mintaqadagi kuchlar muvozanati va taqsimlanishi bevosita boshqa mintaqalarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Dunyoning har bir mintaqasi o'ziga xos strategik xususiyatga ega bo'lib, dunyodan ayri holda joylashmagan, har bir o'zgarish, voqea-hodisalar unga ta'sir etadi. Har bir davlatning davlatlararo munosabatlar tizimida tutgan o'rnini uning geosiyosiy holatiga bog'liq bo'ladi.

GEOSTRATEGIK MINTAQA – alohida davlat yoki davlatlar guruhining turli xil qarama-qarshi manfaatlari tutashgan yirik jo'g'rofiy makon. Bu tushuncha xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni qo'llab-quvvatlash, ro'y berishi ehtimoli bo'lgan harbiy tahdidlardan ogoh etish hamda uning oldini olish (Shimoliy Amerika, Yevroosiyo, Afrika geostrategik mintaq va boshq.) bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ro'yobga chiqarishda umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan yer hududining bir qismini ifoda etadi.

GERALDIKA (lot. *heraldica* – jarchi, xabarchi) – gerbshunoslik; gerblarni hamda ularning tarixi, an'analari va foydalanish amaliyotini o'rganuvchi, gerblarga ta'rif beruvchi maxsus tarixiy fan. Emblemalarni o'rganuvchi, o'zaro bog'liq fanlar guruhi – emblematikaning qismi hisoblanadi. Gerblarning boshqa emblemalardan farqi, ularning tuzilishi, qo'llanilishi va huquqiy maqomi tarixan shakllangan o'ziga xos qoidalarga mosdir. Geraldika nima va qanday qilib davlat gerbiga, familiya gerbiga va shunga o'xshash belgilarga tushirish mumkinligini belgilab hamda u yoki bu shaklning ma'nosini tushuntirib beradi. Geraldikaning tarixiy ildizlari O'rta asrlarga borib taqaladi. O'sha davrlarda maxsus geraldika tili ishlab

chiqilgan. Geraldika bo'yicha mutaxassis garldchi, geraldik, gerbshunos yoki amatorist deb ataladi. Har yili "10-iyun – Xalqaro geraldika kuni" sifatida nishonlanadi.

GIBRID URUSH (ingl. *hybrid warfare*) – hujum qilayotgan tomonning klassik ravishdagi harbiy bosib kirish usulini qo'llamasdan, yashirin operatsiyalar, qo'poruvchilik harakatlari, kiber urush hamda dushman hududida harakatlanayotgan nomuntazam, isyonchi guruhlarni qo'llab quvvatlagan holda o'z raqibiga bosim o'tkazish bo'yicha dushmanlik harakatlari. Bunday holatlarda harbiy harakatlar umuman olib borilmasligi va rasmiy nuqtayi nazardan gibril urushi tinchlik davrida ham olib borilishi mumkin.

GIDROMETEOROLOGIYA XIZMATI – aksariyat davlatlar qurolli kuchlarida tashkil etilgan maxsus xizmat bo'lib, shtab va qo'shinlarni (kuchlarni) haqiqiy va kutilayotgan gidrometeo vaziyat haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan. Mazkur ma'lumotlar gidrometeo vaziyatning qo'shinlar harakati, qurol-aslahaning qo'llanilishi va texnik vositalardan foydalanishga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilish uchun asos sifatida xizmat qiladi.

GIDROSAMOLYOT – suvdan ko'tariladigan va suvga qo'nadigan samolyot. Uchuvchi qayiq, amfibiya va qalqovichli gidrosamolyot turlari mavjud. Uchuvchi qayiqning korpusi qayiq shaklida bo'lib, bu shakl uning parvoz qilish, qo'nish va suvda turishini ta'minlaydi. Amfibiya gidrosamolyotga yerga qo'nishi uchun g'ildirakli shassi qilinadi. Qalqovichli gidrosamolyotda esa g'ildiraklar o'miga sigarasimon qalqovichlar o'rnatiladi. Gidrosamolyotning asosiy vazifasi – dengizda razvedka yuritish, dushmanning suvosti kemalarini qidirish va yo'q qilish, suvosti kemalari hujumidan mudofaa kuchlari, kemalar guruhi va konvoylar tarkibida harakatlanish hamda dengizdagi odamlarni qutqarishdir.

GILZA (nem. *Hiilse*, so'zma-so'z – qobiq) – 1) *artilleriya gilzasi* – unitar, yaxlit yoki gilzasi alohida o'qlanadigan artilleriya o'q-dorisining elementi. Yupqa devorli stakan, qobiq ko'rinishiga ega bo'lib, ichiga ko'makchi elementlari bilan birgalikdagi uloqtiruvchi zaryadni, alangalatish vositalarini kapsyul, kapsyulli quvurchani joylashtirish, shuningdek, o't ochilganda gazlar obtyuratsiyasi stvol kanali tubidan yorib chiqishini oldini olish uchun mo'ljallangan; 2) *qurol patronining gilzasi* – konstruksiyasiga ko'ra unitar, yaxlit o'qlanadigan artilleriya gilzasi konstruksiyasiga o'xshash tuzilgan. Gilzalar jez, ya'ni mis va ruh

qotishmasidan, ov qurollari uchun po'lat va kartondan tayyorlanadi. Shuningdek, qisman yoki batamom yonib ketuvchi, misol uchun, nitrotsellyulozaga shimdirilgan kartondan tayyorlangan gilzalar ham mavjud.

GLOBAL BOSHQARUV – xalqaro munosabatlar subyektlarining jahon hamjamiyati miqyosidagi faoliyat qoidalarini ishlab chiqishga intilish jarayoni.

GLOBALLASHUV – iqtisodiyot, ijtimoiy munosabatlar va boshqa turli sohalarida davlatlar o'rtasidagi integratsiya jarayoni.

GORIZONTAL YO'NALTIRISH – to'pga, minora va yo'naltirish postlariga gorizontaal tekislikda zaruriy yo'nalish berish.

GORNCHI – gorn, karnay, burg'u orqali nizomda belgilangan signallarni uzatuvchi, chaluvchi askar yoki matros. Harbiy orkestr tarkibiga kiradi. Qism bo'yicha navbatchiga bo'ysunadi va signallar uzatish borasidagi ko'rsatmalarini ijro etadi. Signallar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining saf Nizomi ilovasida keltirilgan.

GOSPITAL (yun. *hospitalis* – mehmondo'st) – haqiqiy harbiy xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, shuningdek, zaxira va iste'fodagi general, admiral va katta ofitserlarni davolash, ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan harbiy tibbiy muassasa. Gospitallar:

– *tinchlik davrida* – doimiy garnizon, okrug, qurolli kuchlar turi va markaziy klinik gospitallar;

– *urush davrida* – evakuatsiya gospitali va ko'chma-dala gospital turlariga bo'linadi.

Har bir gospital boshqarma, davolash-dagnostika bo'limi, dorixona va xizmat ko'rsatuvchi ta'minot bo'linmalaridan iborat bo'lib, mustaqil harbiy qism maqomiga ega. Gospitalda davolashdan tashqari, harbiy ekspertiza o'tkazish, harbiy qismlardagi shifokorlarga davolash-profilaktika tadbirlarini amalga oshirishda yordam berish, harbiy tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish kabi vazifalar bajariladi.

Turkistonda birinchi gospital 1869-yilda Toshkent shahrida ochilgan. Toshkentdagi ikkita gospitalning Jizzax, Kattaqo'rg'on, Navoiy, Samarqand, Taxiatosh, Termiz, Farg'ona, Chirchiq va Qarshi shaharlarida filiallari faoliyat ko'rsatadi.

GRANATA (*ital.* – granata) – dushmanning jonli kuchi va harbiy texnikasini yaqin masofalarda yakson etish uchun mo'ljallangan o'q-dori turi; portlovchi zaryadli snaryadlarning umumiy nomi. Artilleriya

granatasi, qo'l granatasi tankka va piyodalarga qarshi, tutun purkovchi va granatomyot granatasi mavjud.

Granata po'lat yoki po'latimon cho'yan metallardan tayyorlangan korpus, portlovchi modda zaryadi, ya'ni trotil va portlatkichdan iborat.

Portlash ta'siriga ko'ra granatalar parchalanuvchi, parchalanuvchi-fugasli, fugasli va parchalanuvchi-yondiruvchi turlarga bo'linadi.

Qo'l granatalari parchalanuvchi va tankka qarshi qo'llaniladigan; mexanizmining tuzilishiga ko'ra, zarb ta'sirida tez portlaydigan va ma'lum vaqtdan keyin portlaydigan granatalarga bo'linadi.

Ma'lum vaqtdan keyin portlaydigan granatalar pana joylarda hujumga o'tilganda va boshqa hollarda qo'llaniladi, zarb ta'sirida tez portlaydigan granatalar esa, tankka qarshi, pulemyot va boshqa turdagi o't ochish nuqtalarini vayron qilishda ishlatiladi.

Parchalanuvchi granatalar yaqin jangda o'z parchalari bilan dushmanning jonli kuchiga shikast yetkazish uchun mo'ljallangan. Qo'l granatalari ilk bor XVI asrda, artilleriya granatalari XVII asrda qo'llanila boshlangan.

Artilleriya snaryadlari ham bir vaqtlar granata deb atalgan.

Parchalarining uchib borish masofalariga ko'ra zamonaviy parchalanuvchi granatalar, hujum va mudofaa janglarida qo'llaniladigan granatalarga bo'linadi. Hujumda qo'llaniladigan granata parchalari 25 m gacha, mudofaa jangida qo'llaniladigan granata parchalari esa 200 m gacha uchib boradi.

Qo'l granatalaridan tashqari granatomyotlar uchun mo'ljallangan granatalar mavjud.

Qo'shinlar ta'limoti davomida o'quv granatalari qo'llaniladi.

GRANATOMYOT – asosan, olib yuriladigan qurol bo'lib, dushmanning zirhli nishonlari, jonli kuchi va texnikasini granata (granatomyot o'qi) bilan yo'q qilish uchun mo'ljallangan. Granatomyotlar:

- *ishlash tamoyiliga ko'ra* – dinamoreaktiv, faol, reaktiv va faol-reaktiv;

- *qo'llanilish karraliligiga ko'ra* – bir marotaba va ko'p marotaba qo'llaniladigan;

- *tuzilishiga ko'ra* – dastaki, multiqli, tirgakli (yakka tarzda va avtomatik o't ochadigan) kabi granatomyotlar;

- *vazifasiga ko'ra* – tanklarga qarshi va piyodalarga qarshi;

- *stvolining tuzilishiga ko'ra* – silliq stvolli va kesma stvolli, ajratib olinadigan va bukib qo'yiladigan kabi granatomyotlar bo'ladi.

Qo'l granatomyotining dastlabki namunasi 60 mm li "Bazuka" bo'lib, (1942-y) AQSHda, bir marotaba qo'llaniladigan faustpatron (1943-y) Germaniyada ishlab chiqilgan.

GUMANITAR YORDAM – ijtimoiy yordamga muhtoj aholi guruhlariga meditsina va ijtimoiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy soha muassasalarini qo'llab-quvvatlash, tabiiy ofatlar, avariya va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish yo'lidagi maqsadli beg'araz hamkorlik. Gumanitar yordam dori-darmonlar va tibbiy maqsadli narsalar, oziq-ovqat, xalq ehtiyoji mollari, shuningdek, jihozlar, transport va texnika kabi boshqa mollar, ular bilan bir qatorda ixtiyoriy xayr-sadaqa, ishlar bajarish va xizmat ko'rsatish, tashish, qo'riqlab borish va gumanitar yuklarni saqlash tarzida ko'rsatiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumatining vakolatli tashkilotlari orqali taqsimlanadi.

GURUH (harb.) – 1) operatsiya (jang)da yagona qo'mondonlik ostida u yoki bu vazifani bajarish uchun qo'shilma, qism yoki alohida harbiy xizmatchilarning vaqtinchalik tuzilmasi. QK tezkor guruh, artilleriya guruhi va boshqalar, o'ziga xos taktik vazifalarni bajarish uchun esa shturm guruhi; HDFda kemalar zabdor guruhi, suvosti kemalar guruhi va shunga o'xshash guruhlar tuziladi; 2) ayrim xorijiy armiyalarda: shtat, tuzilma (mas., dala artilleriya guruhi); qo'shinlar jangovar tartibi elementi (mas., batalyon taktik guruh); 3) dunyoning ko'p davlatlari armiyalarida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida vzvod, batareya tarkibiga kiruvchi taktik bo'linma. Alohida guruhlar qism, qo'shilma, muassasalarning shtatlarida ham bo'lishi mumkin. Guruhlar barcha qo'shin turlarida mavjud. Odatda, 2-4 seksiya (hisob, ekipaj)dan iborat.

GURUH MASHG'ULOTI – ofitser, tinglovchi va kursantlar tarkibining operativ va taktik tayyorgarlik shakli.

Ofitser va generallar bilan nazariy qoidalarni o'rganish, ularga jangovar harakatlarni tashkil etish, jangni har tomonlama ta'minlash va qo'shinlarni boshqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalar singdirish uchun joylar, joy maketi yoki xaritalarda o'tkaziladi.

Guruh mashg'ulotida tahsil ko'rayotganlar o'quv guruhlariga birlashib, bir yoki bir necha mansabdor shaxslar, ya'ni qo'mondon, komandir, shtab boshlig'i, qo'shin turi boshlig'i, xizmat boshlig'i kabilar roliga harakatlanishga oldindan tayyorgarlik ko'rib kelishadi. Dushman, yuqori pog'onadagi komandir, uning shtabi, chegaradosh qo'shinlar va shu

kabilar rolini mashg'ulot rahbari ijro etadi.

Bitta guruh mashg'ulotida, odatda, bir necha o'quv savollari ko'rib chiqiladi.

GURUHLI MASHG'ULOT – xarita bo'yicha sinfda, ochiq joyda, maketda ofitserlarni taktik tayyorlashning metodlaridan biri. Bunda barcha o'rganuvchilar faqat ma'lum bir rolda harakat qiladilar, ya'ni ma'lum amaldor shaxs, masalan, batalyon komandiri, bo'lim yoki xizmatlar boshlig'i va boshqalar funksiyasini bajaradilar.

GURUH QUROLI – jangda ikki va undan ortiq kishidan iborat guruh, raschyot tomonidan xizmat ko'rsatiladigan qurol: artilleriya quroli, pulemyot va boshqalar.

H

HAVO-DESANT TAYYORGARLIGI – havo-desant qo'shinlarini dushman ortiga desantlash va jangovar vazifani bajarishga tayyorlash.

Havo-desant tayyorgarligi parashutdan sakrash asoslarining nazariyasi, havo-desant texnikasi, samolyotlarning moddiy qismlari, parashutlarni taxlash, jangovar texnika va moddiy vositalarni yuklash, yerga tushgach, jangovar shaylikka keltirish, shaxsiy tarkibni samolyotga o'tkazish tartibini o'rgatish va parashut bilan amaliy sakrashdan iborat.

Havo-desant tayyorgarligining eng muhim qismi – parashutlardan amaliy sakrash mashqlaridir.

HAVO-DESANT QO'SHINLARI – dushman ortida jangovar harakatlar bajarish uchun mo'ljallangan qo'shin turi.

Parashutchi-desant, tank, artilleriya, o'ziyurar artilleriya hamda boshqa qism va bo'linmalardan tashkil topgan. Havo-desant qo'shinlarining asosiy jangovar vazifalari:

- olis masofalardagi hududlarga tez yetib borish;
- dushmanga daf'atan zarba berish;
- umumqo'shin jangni muvaffaqiyatli yuritish;
- dushmanning chuqur sarhadidagi muhim hududlarini tez egallash va qo'lda tutib turish, raqibning davlat hokimiyati va harbiy boshqaruvini izdan chiqarish;
- orol va qirg'oqlar, harbiy-dengiz va aviatsiya bazalarini egallash;
- hujumni yuritayotgan qo'shinlarga, yurish jarayonida duch keladigan katta suv havzalarini kechib o'tish va tog'li hududlarni tez oshib o'tishga ko'maklashish;

– dushmanning muhim obyektlarini daf etishdir.

HAVO JANGI – qiruvchi aviatsiya harakatlarining asosiy shakli.

Havo jangi, dushmanni yakson etish va atakalarini bartaraf etish maqsadida yakka samolyot, vertolyot yoki samolyotlar guruhi tomonidan yuritiladi. Qiruvchi samolyotlarning havo janggi dushmanga yaqinlashish, ataka qilish, ataka davomida manyovrlar bajarish va jangdan chiqishdan iborat. Bombardimonchilarning, razvedkachi va boshqa samolyotlarning qiruvchilar bilan birgalikda o'tkaziladigan havo jangining asosini – olov bilan uyg'unlashtirilgan mudofaa manyovri tashkil etadi.

HAVO Hujumi – dushmanning qo'shini, kema va boshqaruv punktlari, ma'muriy-siyosiy, harbiy-iqtisodiy markaz va obyektlariga qarata aviatsiyaning bombali, bomba-raketali zarbalari.

HAVO Hujumidan Mudofaa Aviatsiyasi – muhim yo'nalish, hudud va obyektlarni havodagi dushmandan himoya qilish uchun mo'ljallangan aviatsiya qo'shinlari. Tarkibiga qiruvchi qismlar, qiruvchi-tutuvchi samolyotlar va ko'makchi aviatsiya bo'linmalari kiradi.

HAVO Hujumidan Mudofaa Qo'shinlari – davlat qurolli kuchlarining turi bo'lib, dushmanning havodan beradigan zarbasidan himoya qilish uchun mo'ljallangan. Vazifalarini mustaqil tarzda va qurolli kuchlarning boshqa turlari bilan birgalikda bajaradi.

Ilk bor havo hujumidan mudofaa qo'shinlari Birinchi Jahon urushida – samolyotlar jangovar jihatdan qo'llanila boshlanganidan so'ng vujudga kelgan.

HAMKORLIK – turli qo'shinlarning jangda ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun topshiriq mazmuni, bajariladigan vazifalar, o'tkaziladigan tadbir joyi, vaqti va usullari bo'yicha muvofiqlashtirilgan, birgalikdagi uyg'un harakatlari. Harbiy san'at tamoyillaridan biri.

Hamkorlik qurolli kuchlar, qo'shinlar va maxsus qo'shinlar turlariga mansub bo'linma, harbiy qism, qo'shilma va birlashmalar orasida tashkillashtiriladi.

Qo'shinlar hamkorligining tartibi komandir, qo'mondon tomonidan jangga qaror qabul qilish mobaynida belgilanadi va bu boradagi ko'rsatmalar bo'ysunuvchilar oldiga jangovar vazifa qo'yish bilan bir vaqtda berib o'tiladi. Harbiy harakatlarni tashkillashtirish va olib borishning keyingi bosqichlarida hamkorlik tadbirlariga aniqliklar kiritib boriladi.

Hamkorlik tadbirlari:

– *hujumda* – hal etiladigan jangovar vazifalar, marralar, yo'nalishlar

va vaqt bor-yo'qligiga ko'ra birinchi navbatda bajariladigan vazifalar uchun batafsil;

– *mudofaada* – dushman harakatining joiz yo'nalishlari, qo'shinlar qarshi hujumining yo'nalishi va mudofaa davomida hal etiladigan vazifalarga ko'ra tashkil etiladi.

Ayni paytda hamkorlik jangda asosiy vazifani bajarayotgan bo'linma, harbiy qism, qo'shilma va birlashmalar manfaatida, yadro quroliga ega davlat tomonidan ushbu qurol qo'llanilishi ko'zda tutilayotgan sharoitda esa, birinchi navbatda, ushbu davlat qo'shinlari harakatining dushmanga qarata beriladigan yadroviy zarbalar bilan muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etiladi. Hamkorlik, odatda:

– *taktik pog'onada* – harakat joyida;

– *operativ pog'onada* – xarita yoki joy maketida, vaqt taqozo etgan hollarda esa – harakat joyida ham tashkil etiladi.

Hamkorlikni tashkil etish borasidagi ayrim masalalar taktik va qo'mondonlik-shtab mashqlarida ko'rib boriladi.

Hamkorlik *harbiy qism* va *qo'shilmalarda*, odatda, komandir qarori aks ettirilgan *xaritada*, *operativ pog'onada* esa operatsiya rejasining bir qismi sanaladigan – *hamkorlik rejasida* rasmiylashtirilib, uning tegishli ko'chirmalari qo'shinlarga yo'llanadi. Hamkorlikni tashkil etish tartibi borasidagi ko'rsatmalar yozma jangovar buyruqlarda aks ettirilishi mumkin.

Jangovar harakatlar ko'lamini va ushbu harakatlarda ishtirok etadigan qo'shinlar tarkibiga ko'ra hamkorlik *taktik*, *operativ* va *strategik* hamkorlik tadbirlariga bo'linib:

– *taktik hamkorlik* umumqo'shin, dengiz, havo jangida ishtirok etayotgan qo'shilma, harbiy qism va bo'linmalar tomonidan bajariladigan o't ochish amallari, beriladigan zarbalar va amalga oshiriladigan manyovrlarni o'zaro uyg'unlashtirishdan;

– *operativ hamkorlik* bir yoki bir necha chegaradosh operatsion yo'nalishlarda o'tkazilayotgan operatsiyada ko'zlangan maqsadlarga erishish manfaatlarida QK turlari va qo'shin turlariga mansub *operativ*, – *operativ-taktik* birlashma va qo'shilmalar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarni o'zaro uyg'unlashtirishdan;

– *strategik hamkorlik* strategik operatsiya, muhorabalar majmui yoki urushda ko'zlangan maqsadlarga erishish manfaatlarida qurolli kuchlarning bir yoki bir necha harbiy harakatlar maydonida strategik yo'nalishlarda operatsiyalar o'tkazayotgan yirik qo'shinlar turkumi

harakatlarini o'zaro uyg'unlashtirishdan iboratdir.

HARAKATLANISH VAQTIDA DAM Olish – marsh davomida shaxsiy tarkib dam olishi, ovqatlanishi, texnikaning holatini tekshirib, unga texnik xizmat ko'rsatish uchun yurish kolonnasining to'xtashi.

Yo'l yurish davomida, odatda, har 3-4 soat davom etgan harakatdan so'ng to'xtab, bir soatga qadar dam olinadi. Sutkali yurishning ikkinchi yarmida to'xtab dam olish vaqti ikki soatga qadar davom etadi.

Yo'l yurish davomida to'xtab dam olinayotganida kolonnaning yurish tartibi buzilmaydi.

HARAKATLARNI MUVOFIQLASHTIRISH POSTI – kolonna va mashinalar harakatini muvofiqlashtirish uchun komendantlik xizmati tizimida tayinlanadigan harbiy xizmatchilar guruhi. Mazkur post tarkibiga post boshlig'i, aloqa va harakat vositalari bilan ta'minlangan 2-3 nafar askarlar kiradi.

HARBIY AVTOMOBILLAR – qurolli kuchlarda qo'llanilayotgan avtomobillar. Harbiy avtomobillar transport, yuk tashuvchi va maxsus, ya'ni bortiga zaruriy jihozlar joylashtirilgan avtomobillarga bo'linadi. Harbiy avtomobillar o'ta qiyin yo'llarni bosib o'tish va og'ir yuk bilan yura olish qobiliyatlariga ega. Shaxsiy tarkib va harbiy yuklarni tashish, bortiga harbiy texnika va qurol-aslahalar mahkamlangan holda yurish, tirkama va yarim tirkamalarni shataklab borish uchun mo'ljallangan.

Zamonaviy harbiy avtomobillarning barcha g'ildiraklari, odatda, yetaklovchi bo'lib, shinalardagi havo bosimini moslash tizimi, gidravlik yoki pnevmatik tormoz uzatmasi bilan jihozlangan. Harbiy avtomobillarda dvigatelni past haroratlarda ishga tushirishdan oldin yoqiladigan isitkichlar mavjud.

HARBIY AKADEMIYA – oliy harbiy va maxsus-harbiy ma'lumotli ofitser kadrlarni tayyorlash uchun mo'ljallangan oliy harbiy ta'lim muassasasi; harbiy muammolarni tadqiq etish ilmiy markazi.

XVIII asr oxiri va XIX asr o'rtasida vujudga kelgan. Harbiy akademiyaning dastlabki faoliyati boshqaruvchilar uchun ofitserlar kontingentini, keyinroq qo'shinlar uchun ofitserlarni va harbiy nazariya ishlab chiquvchi ofitserlarni tayyorlashdan iborat bo'lgan. Harbiy akademiya yoki unga teng bo'lgan harbiy o'quv muassasalari ko'plab mamlakatlarda mavjuddir. (*Qarang: "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi"*).

HARBIY ALOQA TIZIMI XAVFSIZLIGI – harbiy aloqa tizimining dushman razvedkasining barcha turlariga va harbiy aloqa tizimiga yolgʻon axborotning kiritilishiga qarshi tura olish qobiliyati.

HARBIY ANʼANALAR – nizom, qoʻllanma va yoʻriqnomalarda belgilab berilgan, kundalik sharoit, bayram tantanasi kabi hollarda amalga oshiriladigan harbiy udumlar. Harbiy taomillar jangchilar ongida Vatanga qasamyodning muqaddasligi va unga sodiq boʻlish lozimligini shakllantiradi, Vataniga, xalqiga cheksiz sadoqat, doʻstona armiyalarga nisbatan jangovar oʻrtoqlik, xizmatga nisbatan halol va tirishqoqlik sifatlarini, yurtining dushmanlariga qarshi jonbozlarcha kurashishga shayligini tarbiyalaydi. Harbiy taomillar jumlasiga:

- harbiycha salom berish;
- boʻysunuvchi shaxsning komandirga, boshliqqa bildiruv berishi;
- qorovullar tarqatuv;
- Jangovar Bayroqni olib kirish;
- mushak otish;
- harbiy orkestr ijrosi ostida kuzatib borish;
- bayroqni engashtirish, unga sadoqatni bildirish maqsadida tiz choʻkish;
- harbiy xizmatchilarga tantanali tarzda qurol-aslaha va harbiy texnika topshirilishi kabi amallar kiradi. Bundan tashqari nizomga oid hujjatlarda koʻrsatilmagan baʼzi bir harbiy taomillarga ham rioya etiladi, misol uchun:
- urush qatnashchilari va Oʻzbekiston Qahramonlarini qutlash;
- harbiy xizmatga yangi chaqirilgan askarlarni kutib olish;
- xizmat muddatini munosib oʻtab boʻlgan harbiy xizmatchilarni kuzatish va hokazo.

HARBIY ASLAHA VA ANJOMLAR – harbiy xizmatchilar taʼminoti tarkibiga kiradigan, shaxsiy qurol va narsalarini olib yurishlari uchun moʻljallangan buyumlar komplekti. Ilgari mazkur komplekt “Ammunitsiya” deb atalgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari askar va serjantlarining harbiy aslaha va anjomlari jumlasiga kamar, avtomat oʻqdonlari va granatalar uchun moʻljallangan toʻrvalar, flyaga va kurak uchun moʻljallangan qopchiqlar, himoyalovchi qoʻlqop va paypoqlar, buyumlar qopchasi kiradi. Ofitserlar anjomlari jumlasiga kamar, pistolet qini va dala sumkasi kiradi.

HARBIY ATTASHELAR XIYOBONI – Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida Salor arigʻi boʻyida joylashgan. Xiyobon

2020-yil 9-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5953-sonli Farmoning ijrosi doirasida barpo etilgan. Xiyobonning ochilish marosimi 12ta xorijiy davlatlar, jumladan, Xitoy, Fransiya, Germaniya, Hindiston, Italiya, Qozog'iston, Pokiston, Koreya, Turkiya, Ukraina, Buyuk Britaniya va AQSH kabi davlatlarning harbiy attashelari va ularning yordamchilari ishtirokida bo'lib o'tgan.

Xiyobonda harbiy attashelar tomonidan daraxtlar ekilib, har bir ekilgan daraxt o'zini tarixiy-geografik va madaniy tavsifiga ega bo'lib, xorijiy davlatlarda qadrlanadigan ramziy ma'nolarga ega.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida barpo etilgan "Harbiy attashelar xiyoboni" uzoq yillik va mustahkam harbiy-ilmiy hamkorlikni davom ettirishga xizmat qiladi hamda ular bilan o'zaro do'stona aloqaning ramzi hisoblanadi.

HARBIY ASHULA VA RAQS ANSAMBLI – jangchilarni siyosiy, harbiy va madaniy jihatdan tarbiyalashga musiqiy, vokal va xoreografik san'at vositalari orqali ko'mak berish uchun mo'ljallangan – qurolli kuchlarning shtatli badiiy jamoasi.

HARBIY BAZA – maxsus jihozlangan hudud bo'lib, unda qo'shinlar va harbiy texnikaning zaruriy o'q-dori, yoqilg'i, oziq-ovqat va boshqa moddiy vositalar zaxirasi bilan birgalikda harbiy jihatdan afzal va samarali joylashtirilishi.

Harbiy aviatsiya, harbiy-dengiz, quruqlikdagi qo'shinlar bazasi, raketali baza va umummaqsadli harbiy baza turlari mavjud.

HARBIY BLOK – davlatlarning harbiy-siyosiy ittifoqi bo'lib, unda tegishli davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va harbiy harakatlari o'zaro muvofiqlashtirilishi nazarda tutiladi. Odatda, tinchlik davrida tashkil etiladi.

Mamlakatlarning umumiy siyosiy, iqtisodiy va harbiy masalalarini hal etish uchun birgalikda harakat qilish maqsadida tuzilgan harbiy-siyosiy ittifoqi yoki shartnomasi.

HARBIY BOSHQARUV ORGANLARI – Mudofaa vazirligi tizimidagi qo'shinlarni idora etish uchun mo'ljallangan qo'mondonlik, shtab, boshqarma, bo'lim kabi doimiy (shtatda ko'zda tutilgan) yoki vaqtincha tashkil etiladigan (shtatdan tashqari) organlarning umumiy

nomlanishi. Boshqaruv organlari *jangovar sharoitda* – boshqaruv punktlarida, *tinchlik davrida* – maxsus jihozlangan binoda joylashtiriladi.

Barcha boshqaruv organlari tegishli aloqa vositalari, boshqaruv texnikasi, transport kabilar bilan ta'minlanadi.

HARBIY BOSHQARUV PUNKTLARI – jangovar harakatlarni tayyorlash va olib borish yoki jangovar navbatchilik xizmatini o'tash mobaynida qo'mondon (komandir) tomonidan shtab ofitserlari bilan birgalikda qo'shinlarni (kuchlarni) boshqarish borasidagi amallar bajariladigan, maxsus jihozlangan va texnik vositalar bilan ta'minlangan joylar. Qo'shinlarni (kuchlarni) boshqarish uchun:

- qo'mondonlik punkti;
- oldingi qo'mondonlik punkti;
- zaxira qo'mondonlik punkti;
- front orti va ko'makchi boshqaruv punktlari;
- quruqlikdagi qo'shinlarda – qo'mondonlik-kuzatuv punkti tashkil etiladi.

Boshqaruv punktlari ko'chmas va ko'chma bo'lishi mumkin.

Ko'chmas boshqaruv punktlari yaxshi himoyalangan yerosti va yerusti inshootlarda joylashtiriladi.

Ko'chma boshqaruv punktlari qo'mondonlik-shtab va shtab mashinalari, samolyot va vertolyotlar, poyezdlar, qismlarga ajratilib – yig'iladigan muhandislik inshootlarida jihozlanadi.

HARBIY VATANPARVARLIK MA'RUZALARI – chaqiriqqacha va chaqiriq yoshidagi yigitlar uchun mo'ljallangan, harbiy vatanparvarlik ruhidagi mavzular bo'yicha o'qiladigan ma'ruzalar majmui. O'quv muassasalari va korxonalarning jamoat tashkilotlari, "Yoshlar ittifoqi", "Sog'lom avlod uchun", "Mahalla", "Nuroni" jamg'armalari tomonidan tashkil etiladi. Ma'ruzalar o'qishga harbiy qism komandirlari, ularning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, hokimiyat vakillari, olimlar, urush va armiya faxriylari jalb etiladi.

HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDAGI TARBIYA – O'zbekiston Respublikasi xalqida, ayniqsa, yoshlarida o'z respublikasi bilan faxrlanish tuyg'usi va mustaqil Vatani himoya qilish qobiliyatini shakllantirishdir. Siyosiy va axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, g'oyaviy-nazariy asosi – Vatan xavfsizligi uchun fuqarolik burchi va mas'uliyatini anglab yetishdir.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining vazifasi – Vatanga muhabbat, baynalmilallik, Qurolli Kuchlarning jangovar va o'zbek xalqining milliy

an'analariga sodiqlik sifatlarini tarbiyalash, harbiy va harbiy-texnik bilimlarning puxta egallanishiga omil bo'lishdir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini Vatan himoyasiga tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, mamlakatimizdagi muassasa va korxonalarning jamoat tashkilotlari, "Kamolot" ijtimoiy harakati, maktab ta'limi jamg'armasi, "Sog'lom avlod uchun", "Mahalla", "Nuroniyy" jamg'armalari, "Vatanparvar" tashkiloti, Mudofaa ishlari boshqarma va bo'limlari, urush faxriylari tashkilotlari, sport qo'mitalari va shu kabi tashkilotlarning o'rnini muhimdir.

Komandirlar va ularning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, shuningdek, harbiy jamoa tashkilotlari, jangchilar, yoshlar va o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ulkan hissa qo'shadilar.

HARBIY GUVOHNOMA – muddatsiz hujjat bo'lib, fuqarolarga mudofaa ishlari bo'limlari tomonidan haqiqiy harbiy xizmatga chaqirilayotganlarida topshiriladi. Oddiy askar va serjantlar tarkibiga mansub harbiy xizmatchilar shaxsi, unvoni, lavozimi va qaysi harbiy qismga mansubligini tasdiqlaydi.

HARBIY JASORAT – urush va tinchlik davrida harbiy xizmatchilar tomonidan Vatan oldidagi burchni benuqson ado etishlari bilan ifodalanuvchi, yuksak axloqiy-jangovar sifatning fidokorona va jonbozlarcha namoyon bo'lishi. Harbiy xizmatchilarning jasoratlari negizida yuksak komillik, intizomlilik, ogohlik va uyushqoqlik yotadi.

Harbiy jasorat yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlanadi.

HARBIY JINOYAT – harbiy xizmatchi, shuningdek, o'quv yig'inida ishtirok etayotgan harbiy xizmatga majbur fuqaro tomonidan harbiy xizmat o'tashning o'rnatilgan tartibiga tahdid solib sodir etilgan jinoyiy harakat. Harbiy-jinoyiy qonunchilikda ko'rsatilmagan harbiy jinoyatlar intizomiy jihatdan nojo'ya xatti-harakatlar turkumiga kiradi.

HARBIY JINOYATCHILAR – xalqaro huquqda harbiy hamda tinchlik va insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyatlarning tashkilotchilari, vositachilari, rahbarlari, ijrochilari va ishtirokchilari.

Bu jinoyatlarning turlari va tarkibi hamda jazo choralari xalqaro harbiy tribunallarning nizomlarida belgilab berilgan. Harbiy jinoyatchilar uchun alohida jinoyiy javobgarlik bir qancha xalqaro shartnomalar va bitimlar bilan, harbiy jinoyatlarning ayrim turlari uchun esa ayrim mamlakatlarning jinoyat qonunlari bilan belgilanadi.

Harbiy jinoyatchilar uchun hech qanday jinoyiy javobgarlikka tortish

muhlatlari qo'llanilmaydi, boshpana huquqi ham berilmaydi. Harbiy jinoyatchilar qayerda va qanday holatda bo'lishlaridan qat'i nazar, tutib berilishlari shart.

HARBIY IMKONIYATLAR – davlatning urush va tinchlik davrida qurolli kuchlarga ega bo'lish, qo'shinlarning jangovar qobiliyatini oshirib borish, harbiy kadrlar bilan butlash, qurol-aslaha va texnika, shu jumladan, ta'minotning barcha turlari bilan ta'minlay olish imkoniyatlari. Harbiy imkoniyatlar mazmunan:

- qurol-aslaha va harbiy texnika miqdori va sifati;
- qo'shinlarning moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi;
- shaxsiy tarkib soni, umumta'lim va harbiy-texnik jihatdan tayyorgarlik saviyasi;
- tayyorgarlikdan o'tgan zaxira resurslarning mavjudligi;
- qurolli kuchlarning jangovar shaylik darajasi;
- davlatning safarbarlik imkoniyatlaridan iborat.

HARBIY INTIZOM – barcha harbiy xizmatchilarning davlat qonunchiligi, nizom va buyruqlarda belgilangan tartib va qoidalarga qat'iy va aniq rioya etishlari. Ularda belgilangan qoida, me'yor va talablar barcha harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmat yoshidagi fuqarolarga, shuningdek, harbiy kiyim kiygan zaxiradagi serjant, ofitser va generallarga taalluqlidir. Harbiy intizomga urush va tinchlik sharoitida ham, safda va safdan tashqarida ham, harbiy qism va uning tashqarisida ham rioya etish shartdir. Harbiy intizom harbiy xizmatchilarning siyosiy ongi, harbiy, vatanparvarlik va baynalmilallik burchlarini chuqur anglab yetishlari, Vatan mustaqilligini himoya qilish uchun shaxsiy mas'uliyatlarini his etishlariga asoslanadi.

HARBIY ISTILO (OKKUPATSIYA) – muayyan davlatning qurolli kuchlari tomonidan boshqa davlat hududini, davlat boshqaruvini o'z zimmasiga olgan tarzda vaqtincha egallashi.

Harbiy istiloning amalga oshirilishiga faqat BMT Xavfsizlik Kengashining muayyan va mas'uliyat yuklovchi qaroriga muvofiq yo'l qo'yiladi. Aks holda okkupatsiya agressiya shakllaridan biriga aylanadi.

Harbiy okkupatsiya rejimi va bunday istiloning muayyan huquqiy me'yorlari 1907-yili o'tkazilgan 4-Gaaga konferensiyasi; 1949-yilgi Jeneva konvensiyalari va ularga qo'shimcha ravishda 1977-yili qabul qilingan Qo'shimcha protokollarda bayon etilgan bo'lib, maxsus xalqaro bitimlar bilan belgilangan. Mulohaza yuritilayotgan me'yorlarga muvofiq

harbiy istilo – okkupatsiya qilingan hudud suvereniteti uni istilo qilgan davlat ixtiyoriga o'tishiga olib kelmaydi.

Istilochi davlat okkupatsiya qilingan hududda inson huquqini hurmat qilishi shart bo'lib, istilo qilingan hudud aholisining deportatsiyasi yoki o'z aholisining ushbu hududga ko'chib o'tishiga yo'l qo'ymaslikka majburdir.

Muayyan davlatning qurolli kuchlari BMT Nizomiga zid ravishda boshqa davlat hududiga bostirib kirishi yoki hujum qilishi natijasida amalga oshirilgan harbiy okkupatsiya xalqaro jinoyat sanalib, ushbu bosqinchi davlat xalqaro-huquqiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

HARBIY ISH – umumlashgan tushuncha bo'lib, keng ma'noda mamlakat qurolli kuchlarini tashkil etish va tayyorlash masalalari, harbiy nazariya va amaliyotining rivoji, aholi ichida harbiy bilim va ko'nikmalar shakllantirilishini anglatadi. Tor ma'noda esa harbiy ish atamasi, qo'shinlar jangovar tayyorgarligining maqsadi, dasturi va uslubiyatini, shuningdek, yoshlarni chaqiriqqacha tayyorlash ishlarini bildiradi.

HARBIY IQTISODIYOT – davlatning harbiy ehtiyojini qondiradigan xalq xo'jaligining ixtisoslashtirilgan qismi. Davlatning harbiy ehtiyojlarini iqtisodiy jihatdan qondirilish qonuniyati haqidagi fan. Harbiy iqtisodiyot tinchlik va urush davrida xalq xo'jaligining bir qismi sifatida o'z o'rniga egadir. Harbiy iqtisodiyot jumlasiga:

- moddiy-texnik negiz;
- mehnat resurslari;
- harbiy moliyalashtirish amallari kiradi.

Tashkiliy jihatdan o'z ichiga sanoatning quyidagi mudofaa sohalarini qamrab oladi:

- raketasozlik;
- aviasozlik;
- kemasozlik;

harbiy radioelektronika, artilleriya o'q-dorisi, zirhli-tank texnikasi, raketa yoqilg'isi, yonilg'i kabirlarni ishlab chiqarish.

Harbiy iqtisodiyotning davlat ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari va qobiliyati: davlatning ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi va siyosatiga hamda harbiy-siyosiy rahbariyatning mamlakat iqtisodiy resurslarini safarbar etish va ulardan unumli foydalana olish san'atiga bog'liq. Harbiy iqtisodiyotning xalq xo'jaligidagi salmog'i davlat tomonidan yuritilayotgan harbiy-iqtisodiy siyosat va qurolli kurashning ko'lamiga bog'liq.

Harbiy iqtisodiyot sinfiy qarama-qarshi jamiyat muhitida vujudga kelib, urushning xalq xo'jaligi oldiga qo'ygan talablari ortishi natijasida rivojlanib bordi. Harbiy iqtisodiyotning ijtimoiy mazmuni muayyan davlatda qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy tuzum va yuritayotgan siyosati bilan belgilanadi.

Davlatning harbiy ehtiyojlarini iqtisodiy jihatdan qondirish qonuniyati haqidagi fan sifatida – nazariy bilimlar tizimi bo'lib, obyektlarning o'ziga xos xususiyati va tadqiqot mavzusiga oid umumiy iqtisodiyot qonunlariga asoslanadi, muayyan uslublar majmuiga tayanadi. Harbiy iqtisodiyot fani:

- urush va iqtisodiyot orasidagi o'zaro bog'liqlik;
- mazkur bog'liqlikning tinchlik davrida bajarajak ishi;
- safarbarlik tayyorgarligi va iqtisodiyotni tinchlik davridan urush holatiga o'tkazish;
- iqtisodiyotning urush vaqtidagi barqarorligini ta'minlash usullari;
- qurolli kuchlarni iqtisodiy jihatdan ta'minlash va urush olib borishning ehtimoliy sharoitini belgilash;
- harbiy harakatlar maydonida harbiy-iqtisodiy negizni tashkil etish masalalarini o'rganib boradi.

HARBIY KEMALAR – harbiy-dengiz floti tarkibiga kiruvchi, jangovar va maxsus vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan kemalar. Suvosti va suvusti, strategik va operativ vazifalar bajarish uchun mo'ljallangan, atomli va oddiy energetik qurilmalarga ega harbiy kemalar mavjud. Harbiy kemalar quyidagi sinflarga bo'linadi:

- raketali suvosti kemalari;
- torpedali suvosti kemalari;
- raketali kemalar;
- kreyslerlar;
- eskadra minonoslari;
- suvosti kemalari va minalarga qarshi kemalar;
- desant kemalari.

Suv sig'imi va qurol-aslaha tarkibiga ko'ra I, II, III va IV ranglarga bo'linadi.

HARBIY KENGASH – harbiy rahbariyatning kollegial organi bo'lib, qo'shinlarga taalluqli savollar, jangovar harakatlarni tashkil etish, qo'shinlar tayyorgarligi, ta'minoti masalalarini muhokama qilish, hal etish va bular borasida tavsiyalar tayyorlab, ushbu tavsiyalarni qo'shinlarga qo'mondonning buyruq va direktivalarida yetkazish uchun mo'ljallangan.

Harbiy kengash zimmasiga yuklanadigan eng dolzarb vazifalar jumlasiga – qo‘shinlarning jangovar va safarbarlik shayligi, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligining yuksak sifati va mustahkam harbiy intizomni ta’minlash kiradi.

HARBIY KIYIM – harbiy kiyim-kechak buyumlarining harbiy xizmatchilarni alohida farqlovchi nishonlariga ega umumiy nomi, ya’ni belgilangan rang, bichim, ramzlar, farqlovchi nishonlar va hokazolar.

Harbiy kiyimning asosiy elementlariga quyidagilar kiradi:

– ustki kiyim – qaytarma qalpoqli yengsiz yopinchiq yoki suv o‘tkazmas yopinchiq-chodir, kamzul, tujurka, bushlat, shim;

– bosh kiyimlar – telpak, quloqchin telpak, furajka, soyabonsiz bosh kiyim, beret, pilotka;

– ustki ko‘ylaklar;

– bo‘yinbog‘ va qo‘lqoplar;

– poyabzal;

– kamarlar;

aslaha anjomlari. Shuningdek, harbiy kiyimning ayrim davlatlarda bir qator maxsus turlari mavjud, masalan:

– iqlimi sovuq va o‘ta sovuq hududlar uchun – issiq tutadigan;

– iqlimi jazirama issiq bo‘ladigan hududlar uchun – yengillashtirilgan;

– faxriy qorovullar uchun – paradga kiyiladigan alohida kiyimlar;

– dengiz piyodalari uchun – qora rangdagi qishki dala kiyimlari.

Vazifasiga ko‘ra parad, bayram, kundalik, dala va ishchi harbiy kiyimlarga bo‘linadi. Harbiy kiyimning har bir turi jumlasiga yozgi va qishki kiyim-kechak buyumlari kiradi. Harbiy kiyimni kiyib yurish tartibi harbiy kiyim kiyish qoidalari bilan belgilab beriladi.

HARBIY KIYIM RUSUMI – harbiy xizmatchilarning kiyim-kechak, aslaha-anjom va farqlovchi nishonlariga oid barcha buyumlar to‘plami.

Harbiy kiyim rusumi harbiy xizmat majburiyatini bajarish va uyushqoqlikni oshirishga omil bo‘lib, harbiy xizmatchilarni tartib-intizomga soladi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchining qaysi davlat qurolli kuchlari, qurolli kuchlar va qo‘shinlarning qaysi turiga mansubligi va harbiy unvoniga ko‘ra farqlab olish imkonini beradi.

Harbiy kiyimning rangi, gazlamasining sifati, bichilishi harbiy xizmatchilarning turli iqlim sharoitidagi harakatlari uchun muayyan qulaylik yaratib kuch va sog‘lig‘ini saqlashga omil bo‘ladi. Harbiy kiyim rusumi hukumatning oliy organlari tomonidan tasdiqlanadi. Harbiy kiyim

rusumini kiyib yurish huquqi haqiqiy harbiy xizmat o'tayotgan barcha harbiy xizmatchilar va harbiy litsey tarbiyalanuvchilariga, shuningdek, harbiy kiyim kiyib yurish huquqi bilan zaxira va iste'foga bo'shatilgan general, ofitser va serjantlarga berilgan.

Harbiy kiyim rusumining vujudga kelishi uzoq tarixga borib taqalib, o'z jangchilarini dushman jangchilaridan farqlash zarurligi bilan bog'liqdir. Misol uchun, Spartada ilk bor jangchilarga bir xildagi – qizil rangli yopinchiqlar kiydirilgan. Yaradorlardan sizib chiqayotgan qon irodasiz jangchilarni esankiratib qo'ymasligi uchun ham ayni shu rang tanlangan. Keyinchalik harbiy kiyim rusumlari ko'plab marotaba o'zgartirilib kelindi. Ular soddalashtirilib, qulaylashtirildi va amaliy jihatdan takomillashtirildi. Zamonaviy harbiy kiyim:

- paradga kiyiladigan;
- parad-bayram kiyimi;
- kundalik kiyim;
- dala mashg'ulotlariga kiyiladigan kiyim;
- ish kiyimi rusumlariga bo'linadi.

Harbiy kiyimning barcha rusumlari yozgi va qishki turlarga bo'linadi. Harbiy kiyimning u yoki bu rusumiga (faslga monand) o'tish (kiyib yurish) vaqti harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni yoki garnizon boshlig'i tomonidan belgilanadi. Harbiy kiyimning har bir rusumi muayyan belgilangan vaqt va holatlarda kiyiladi. Harbiy kiyimning barcha ashyolari harbiy xizmatchi egniga loyiq moslashtirilgan va benuqson tutilishi lozim.

HARBIY KOMENDANT BOSHQARMASI – garnizon va qorovul xizmatlarini tashkil etish va garnizon boshlig'ining ko'rsatmalariga binoan, bajariladigan vazifalarning ijrosini ta'minlash uchun mo'ljallangan garnizondagi muassasa. Harbiy komendant boshqarmasi garnizonga vaqtincha kelgan harbiy xizmatchilarning hisobini yuritib boradi.

Kundalik hayotda qulay va sportbop, qo'shin va kuchlar turlari tomonidan qo'yiladigan barcha talablarga javob beradigan tarzda yaratilgan.

HARBIY LAVOZIMLAR – harbiy lavozimlar, harbiy xizmatchilar egallashi lozim bo'lgan shtat lavozimlari va ularga muvofiq keladigan harbiy unvonlar harbiy qismlarning, harbiy xizmat nazarda tutilgan boshqaruv organlarining vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar muassasalarining shtatlarida nazarda tutiladi.

Harbiy lavozimlar oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlariga bo'linadi.

Qurolli Kuchlarda Oliy qo'mondonlik lavozimlariga tayinlash va lavozimidan ozod qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi.

Harbiy xizmatchilarni lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish, shuningdek, harbiy xizmatchilarning xizmat joyini o'zgartirish "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi Nizom bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatchilar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda harbiy xizmatda qoldirilgan hamda harbiy xizmatchilar uchun belgilangan kafolat va imtiyozlari saqlangan holda davlat-huquq hamda mudofaa yo'nalishidagi ishlarni bajarish uchun davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga yuborilishi mumkin.

HARBIY MAJBURIYAT – fuqarolarning o'z mamlakati Qurolli Kuchlari safida qonunda belgilangan harbiy xizmat o'tash majburiyati.

O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatni harbiy majburiyat asosida amalga oshiriladi.

HARBIY-MAISHIY HAYOT – harbiy hayot tarzi. Harbiy xizmatchilar faoliyatining harbiy nizom, buyruq va yo'riqnomalar bilan belgilanuvchi kundalik tartibi.

Mazmunan harbiy xizmatchilarni joylashtirish, hayotiy ehtiyojlarini qondirish, yashash va xizmat xonalarining tutilishi, xizmat majburiyatlarining bajarilishi, harbiy xizmatchilarning o'zaro munosabatlari kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi harbiy maishiy hayot, qo'shnlarning jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligi, harbiy intizomni mustahkamlash, uyushqoqlik, jangovar shaylikni yuqori saviyada tutib turish va harbiy xizmatchilar tomonidan o'z harbiy burchlarini fidokorona ado etishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan.

HARBIY MATBUOT – harbiy sohaning turli masalalariga bag'ishlangan matbuot mahsuloti. Asosan, harbiylar doirasi uchun mo'ljallangan ommaviy axborot va targ'ibotning muhim vositasi. Harbiy matbuot jumlasiga: harbiy ro'znoma, jurnal, kitob, risola, plakat kabilar kiradi. Harbiy matbuotning muhim vazifasi – o'zbek xalqida vatanparvarlik va mardlik sifatlarini tarbiyalash, harbiy sohani har tomonlama rivojlantirishga faol ko'mak berishdir. Harbiy ro'znoma va jurnallar mustaqillik yutuqlari va tajribalarini ochib keng targ'ibot etadi. Shuningdek, qo'shinlar ogohligi, jangovar shayligi va qudratini oshirish, harbiy intizomni mustahkamlash borasidagi dolzarb muammolar va

masalalarni yoritib boradi. Harbiy matbuot nashrlari:

– O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi **“Vatanparvar”** gazetasi. Gazeta 1992-yildan chiqa boshlagan.

– O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi **“O‘zbekiston armiyasi”** ijtimoiy-siyosiy, axborot-tahliliy, ma’naviy-ma’rifiy, harbiy-vatanparvarlik jurnali. Jurnal 2014-yildan chiqa boshlagan.

– O‘zbekiston Respublikasi **“Qurolli Kuchlari Akademiyasi xabarlari”** ilmiy-axborot jurnali. Jurnal 2004-yildan chiqa boshlagan.

– O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi **“Harbiy ta’lim va fanda innovatsiyalar”** ilmiy-axborot jurnali. Jurnal 2018-yildan chiqa boshlagan.

– O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot kommunikatsiya-texnologiyalari va aloqa harbiy instituti **“Harbiy aloqa va AKT xabarlari”** ilmiy-uslubiy jurnali. Jurnal 2020-yildan chiqa boshlagan.

Chirchiq Oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti **“Zirhli qalqon”** ilmiy-axborot jurnali. Jurnal 2020-yildan chiqa boshlagan.

HARBIY MAHORAT – har bir jangchi va yalpi harbiy jamoaning kuchli va texnik jihatdan yaxshi ta‘minlangan dushman ustidan g‘alaba qozonish maqsadida qurol-yarog‘ va texnikadan unumli foydalana olish va eng murakkab vazifalarni bajara olish qobiliyati.

Harbiy mahorat jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik jarayonida shakllanadi.

HARBIY METROLOGIYA – umumiy metrologiyaning harbiy sohasi bo‘lib, qurol-aslaha va harbiy texnikaning jangovar shayligi, ishonchliligi, harbiy qismlarning jangovar qobiliyatini oshirish maqsadida o‘tkaziladigan o‘lchashlar birligi va aniqligi muammolarini o‘rganadi.

Qurolli Kuchlarda metrologik xizmat joriy etilgan bo‘lib, mazkur xizmat shaxsiy tarkibning faoliyati va qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligi metrologik ta‘minlanishini tashkiliy-texnik jihatdan boshqaradi, ularni zamonaviy o‘lchov asboblari bilan ta‘minlaydi, tegishli me‘yoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqaradi, qiyoslash organlarining faoliyatini boshqaradi.

HARBIY MULK – davlat mulkining qurolli kuchlar ixtiyorida vaqtincha yoki doimo bo‘lgan qismi. Harbiy mulkka quyidagilar mansub:

- qurol-aslaha va harbiy texnikaning barcha turlari;
- yoqilg‘i-moy va oziq-ovqat mahsulotlari;
- avariya-qutqarish, aerodrom, paluba, kiyim-kechak, tibbiy va

veterinariya xizmati anjomlari;

– qurolli kuchlarning ishlab chiqarish korxonalariga mansub barcha moddiy vositalar;

– qurolli kuchlar harbiy xizmatchilarining yashash va xizmat o'tash fondlari.

Harbiy mulk:

– oziq-ovqat, yoqilg'i-moy, o'q-dori kabi – *iste'mol mollariga*;

– qurol-aslaha, texnika, kiyim-kechak, ashyoviy mulk kabi – *uzoq vaqt foydalaniladigan mulklarga* bo'linadi.

Harbiy mulkning aksariyat turlari davlat mulki hisoblanib, sotilishi, garovga qo'yilishi, almashtirilishi va tortiq qilinishi mumkin emas.

HARBIY MUSIQA – Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibining saf ta'limoti va harbiy tarbiyasi manfaatlariga xizmat qiladi. Harbiy musiqa tantanali marosimlarda, parad va bayramlarda, saf mashg'ulotlari va qo'shinlar saf tortib borayotganda ijro etiladi.

Harbiy musiqa vositalari orqali qo'shnlarni xabardor etish va boshqarish amallari bajariladi. Odatda, harbiy orkestr yoki alohida musiqachilar, gornchi va barabanchilar tomonidan ijro etiladi.

Harbiy musiqaning asosiy janri – marshdir. Safda turish, safda yurish, kutib olish, tantanali marshlar va fanfara kabilarda harbiy musiqa keng qo'llaniladi.

“Harbiy musiqa tushunchasi” harbiy vatanparvarlik mazmunidagi musiqiy asarlarga, shuningdek, saf qo'shiqlariga ham taalluqlidir.

Harbiy orkestrlar uchun yaratilgan yangi asarlar tanlovlari muntazam o'tkazib boriladi. Saf va konsert repertuarlari doimiy tarzda yangilanadi.

HARBIY NAZORATCHI – qo'shnlarning jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik saviyasi, qurol-yarog' va harbiy-texnika holati, moddiy vositalar tutilishi va sarfi, harbiy qismlar, kemalar shaxsiy tarkibi tomonidan nizom va buyruqlar talablari bajarilayotganligini tekshiruvchi mansabdor shaxs.

HARBIY NIZO – davlatlar o'rtasidagi yoki davlatning ichki qarama-qarshiliklarini harbiy kuch qo'llagan holda hal etish shakli bo'lib, bu qurolli kurash olib borishning barcha turlarini, shu jumladan, urushlar va qurolli nizolarni qamrab oladi.

HARBIY NIZOMLAR – harbiy xizmatchilarning kundalik faoliyati, hayot tarzi, xizmat o'tashlari va shaxsiy tarkib tayyorgarligini tartibga soluvchi bo'linma, harbiy qism va qo'shilmalarning jangovar harakati asoslarini belgilab beruvchi rasmiy, me'yoriy-huquqiy hujjatlar. Nizomlar

jangovar va umumqo'shin nizomlarga bo'linadi.

Jangovar nizomlar Qurolli Kuchlarning muayyan turiga mansub qo'shilma, qism va bo'linmalarning jang va operatsiyadagi jangovar harakatlarning asoslarini belgilab beradi.

Umumqo'shin nizomlar Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibining hayot tarzi va faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjatlardir. Ular harbiy xizmatchilar orasidagi munosabatlar, umumiy va lavozimlariga oid majburiyat va huquqlarini, ichki, garnizon va qorovul xizmatlarini o'tash tartibini belgilab beradi. Mazkur nizomlar qoidalari yalpi Qurolli Kuchlarga taalluqlidir.

O'zbekiston Respublikasi harbiy nizomlarining bosh g'oyasi – har bir harbiy xizmatchining Vatan himoyasi uchun mas'ulligi, harbiy burch va qasamyodga buzilmas sadoqati, o'z xalqiga fidoyilarcha xizmat qilishi, qo'shin va kuchlarning hushyorligi, ularning yuksak jangovar shayligini uzluksiz tutib turishidir.

HARBIY OBYEKTLAR – jangovar harakatlar davomida qo'lga kiritilishi, yo'q qilinishi, vayron etilishi nazarda tutilgan bino hamda inshootlar. Harbiy obyektlar jumlasiga: doimiy joylashuv punkti va jamlanish hududlari, marsh, dastlabki marra, start marrasi va o't ochish marrasidagi – qo'shin, aerodrom, harbiy kema va transportlar, harbiy dengiz va havo bazalari, boshqaruv punktlari, aloqa uzellari, radiotexnik tizimlar, front orti ta'minoti organlari, yo'llar tarmog'i, yirik ko'priklar va gidrotexnik inshootlar, quvvurli o'tkazgichlar, harbiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar kiradi. Mohiyatiga ko'ra harbiy obyektlar – strategik, operativ va taktik turlarga bo'linadi.

HARBIY OKRUG – qo'shilma, harbiy qism va harbiy ta'lim muassasalari hamda turli harbiy idoralarning, ya'ni harbiy savdo, uy-joydan foydalanish qismlari, ta'mirlash zavodi va ustaxonalari, harbiy shifoxona, omborxona va shu kabilarning umumqo'shin birlashmasi.

Davlat hududini harbiy okruglarga bo'lib chiqish amaliyoti aksariyat davlatlarda qo'llaniladi. Davlat hududini harbiy okruglarga bo'lishdan maqsad, mamlakat va uning qurolli kuchlarini urushga tayyorlash borasidagi tadbirlar o'tkazilishini ta'minlash va qo'shinlar boshqaruvini yengillashtirishdir.

Harbiy okrugni okrug qo'shinlari qo'mondoni boshqaradi. Harbiy okrug hududiga taalluqli muhim masalalar okrug Harbiy Kengashi tomonidan hal etiladi. Qo'shinlarni boshqaruvchi organ – okrug shtabidir.

Okrug qo'shinlarida jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik tashkil

etiladi va o'tkaziladi, shaxsiy tarkib orasida tarbiyaviy, madaniy-ma'rifiy ishlar olib boriladi. Aholi orasida safarbarlik, davlatning mahalliy hokimiyat tashkilotlari ishtirokida harbiy vatanparvarlik ishlari yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi tasarrufidagi harbiy okrug operatsion yo'nalishlarda O'zbekiston Respublikasining xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy harbiy-ma'muriy birlik hamda umumqo'shin operativ-strategik hududiy birlashmasidir.

Harbiy okruglar zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajaradilar hamda qonun hujjatlariga muvofiq qarorlar qabul qiladilar.

HARBIY ORKESTR – shaxsiy tarkibning saf ta'limoti, shuningdek, harbiy marosim, taomil va tantanali udumlar o'tkazilayotganida, musiqaviy asarlarni ijro etish bilan bir vaqtda konsertga oid faoliyat yuritish uchun mo'ljallangan shtatga ko'ra tuzilgan maxsus harbiy bo'linma. Harbiy orkestrlardan:

urush davrida – jangdagi jangchilarning jangovar ruhini ko'tarish;

tinchlik davrida – qo'shinlarning jangovar tayyorgarligi, shaxsiy tarkibni ijtimoiy-siyosiy, harbiy va madaniy sohalarida tarbiyalash uchun foydalaniladi. Harbiy orkestrlar ikki turga bo'linadi:

– *misdan tayyorlangan va urib chalinadigan* bir turdagi o'xshash musiqa asboblardan iborat orkestr;

– *aytib o'tilgan musiqa asboblardan tashqari tarkibiga yog'ochdan tayyorlangan, puflab chalinadigan* musiqa asboblari kiruvchi aralash turdagi orkestr.

Harbiy orkestrlar harbiy va estetik tarbiya manfaatlariga xizmat qilib, madaniy-oqartuv ishlari sohasining mohiyatiga ega. Marshdagi va mashq qilayotgan qo'shinlarning axloqiy ruhini ko'tarish, armiyada badiiy havaskorlik jamoalarini shakllantirish va ommaviy-sport tadbirlarini tashkil etishga yordam beradi. Harbiy orkestrga harbiy dirijyor rahbarlik qiladi.

HARBIY OR-NOMUS – jangchining va harbiy jamoaning harbiy burchni ado etishga bo'lgan munosabati va xulqini tavsiflovchi ichki axloqiy sifat va tamoyillar. Harbiy etika ta'riflaridan biri.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari jangchilarining harbiy or-nomusi ularning Vatan mustaqilligini himoyalash uchun ma'nan javobgarliklaridan iborat.

Harbiy or-nomus tushunchasi harbiy xizmatchilarning barcha toifalari uchun harbiy jamoa or-nomusi tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Harbiy or-nomusning harbiy burchni ado etishga taalluqli talablari

Vatanga qasamyod matni va Qurolli Kuchlar nizomlarida belgilangan bo'lib, ma'naviy zamiridan tashqari huquqiy asoslarga ham egadir.

Harbiy or-nomus timsoli – Jangovar Bayroq sanaladi. Uning eng oliy ko'rinishi – jangda namoyon etilgan jasoratdir.

Harbiy or-nomus ommaviy-madaniy ishlar, ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik jarayonida tarbiyalanadi.

Mazkur tarbiya omili sifatida – harbiy xizmatchini mukofotlash, rag'batlantirish tizimi va o'tkaziladigan harbiy an'analar xizmat qiladi.

HARBIY PROKURATURA – O'zbekiston Respublikasi prokuratura tizimining Qurolli Kuchlarda, boshqa harbiy tuzilmalar, harbiy korxonalar, harbiy o'quv muassasalari, harbiylashtirilgan bo'linmalarda prokuror nazoratini olib boruvchi ixtisoslashgan organlari. Harbiy prokuraturaning asosiy vazifalariga davlat xavfsizligi, hududiy daxlsizlik va qo'shinlardagi harbiy tayyorgarlik bo'yicha qonun ustuvorligini ta'minlash, harbiylarning hamda ularning oilalari huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, Qurolli Kuchlarning qonuniy manfaatlarini kasbiy huquqbuzarliklardan himoya etish va bunday huquqbuzarliklarning oldini olish kiradi. Harbiy prokuratura organlari qonunda belgilangan tartibda fuqarolarning, harbiy xizmatchilarning va yuridik shaxslarning ariza hamda shikoyatlarini ko'rib chiqadilar, ularning buzilgan qonuniy huquq va manfaatlarini tiklash yuzasidan tegishli choralarni ko'radilar. O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasiga lavozimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorini Respublika Prezidenti lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod etadi.

HARBIY RAZVEDKA – ehtimoliy yoki haqiqiy dushman deb tan olingan ayrim mamlakat va davlatlar ittifoqidagi harbiy-siyosiy vaziyat, ularning qurolli kuchlari va harbiy-iqtisodiy imkoniyatlari, fuqarolar qo'shinlari tarkibi, joylashuvi, holati, amalga oshirayotgan harakatlarining xususiyatlari va ko'zlayotgan maqsadlari, shuningdek, harbiy harakatlar maydoni haqida ma'lumotlarga ega bo'lish uchun qo'mondonlik va barcha pog'onalardagi shtablar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar hamda qo'shinlar harakatining majmui. Operativ va jangovar ta'minot turlaridan biri.

Bajariladigan vazifalar miqyosiga ko'ra harbiy razvedka *strategik, operativ va taktik* razvedkalarga bo'linadi.

Harbiy razvedka:

– *faoliyat yuritish sohasiga ko'ra* – quruqlik, havo va dengizda hamda kosmosdan olib boriladigan razvedkaga;

– *hal etadigan masalalar tavsifi va vazifasiga ko'ra* – maxsus, radio (radiotexnik), qo'shinlar pog'onasida olib boriladigan, artilleriyaga oid, radiatsion, kimyoviy, biologik (bakteriologik), topografik, gidrografik, gidrometeorologik va texnik razvedkaga hamda muhandislik, ayg'oqchilik va front orti razvedkasiga;

– *razvedkaning qo'llaniladigan texnik vositalariga ko'ra* – radioelektron, optik-elektron, optik, gidroakustik, seysmoakustik, magnitometrik razvedka va tovush razvedkasiga bo'linadi.

Harbiy razvedkaning olib borilishi razvedkaga tegishli kuch va vositalar bilan amalga oshiriladi. Bunday kuch va vositalar jumlasiga qo'shinlar shtatida mavjud razvedka qo'shimmalari, harbiy qismlari va bo'linmalari, shuningdek, qo'shinlar tarkibidan ajratiladigan razvedka organlari kiradi. Razvedka yuritish uchun qo'shinlar turi va maxsus qo'shinlar tasarrufidagi boshqa harbiy qismlar, kemalar va bo'linmalar ham jalb etilishi mumkin.

Harbiy razvedka tadbirlari qo'shinlar jangovar harakatlarining yalpi chegaralari, hududlari, qanotlar va jangovar vazifaning yalpi sarhadlarida olib boriladi.

Razvedka obyektlari jumlasiga:

– dushmanning barcha obyektlari, ya'ni qurolli kurashga taalluqli barcha kuch va vositalari, muhandislik inshootlari;

– harbiy harakatlar maydonining tabiiy-geografik shart-sharoitlari va mahalliy jismlar kiradi.

Bunday obyektlar o'z mohiyatiga ko'ra *strategik, operativ va taktik* razvedkaga oid obyektlarga bo'linadi. Operatsiya jarayoni va natijasiga ta'sir etish darajasiga ko'ra razvedka obyektlari *muhim* va *oddiy* obyektlarga bo'linadi.

Dushman va urush maydonining tabiiy-geografik shart-sharoitlari haqida razvedka kuchlari va vositalari tomonidan, shu jumladan, qo'shinlar faoliyati natijasida olingan ma'lumotlar – *razvedka ma'lumotlari* deb ataladi.

Razvedka ma'lumotlarini qo'lga kiritishda:

– kuzatish, ta'qib qilish va pinhona quloq tutish;

– yerdan, havodan, suv ostida, kosmosdan fotosuratga olish;

– radioelektron vositalar taratayotgan radioto'lqinlarni tutib, texnik tahlildan o'tkazish;

- pelengatsiya;
- qidiruv va yopirilish amallari, pistirma, jang bilan razvedka yuritish;
- joylik aholidan so‘rab-surishtirish;
- harbiy asirlar va dushman tomondan qochib o‘tganlarni so‘roqqa tutish;
- dushmandan tortib olingan hujjatlarni o‘rganib chiqish kabi asosiy usullar qo‘llaniladi.

Qo‘mondonlik va komandir tomonidan qo‘shinlar harakatiga doir qaror qabul qilinishi uchun razvedka ma‘lumotlari zaruriy darajadagi tafsilotlar bilan birgalikda qo‘lga kiritiladi, qayta ishlanadi va qo‘mondonlikka bildiriladi.

HARBIY SAN‘AT – quruqlik, dengiz va havoda harbiy harakatlarni tayyorlash hamda amalga oshirish nazariyasi va amaliyoti.

Harbiy san‘at nazariyasi – harbiy fanning bir qismidir. Harbiy san‘at o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan strategiya, operativlik san‘ati va taktikadan iborat. Bu san‘at ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy tuzum xususiyati bilan belgilanib, mamlakatning rivojlanish tarixi xususiyatlari, milliy xususiyatlari, geografik sharoiti va boshqa omillarga bog‘liq.

Aksariyat xorijiy davlatlar harbiy nazariyasida harbiy san‘at strategiya va taktikadan iborat “Operativlik san‘ati” atamasi qo‘llanilmaydi.

HARBIY SIYOSAT – davlat umumiy siyosatining harbiy ish sohasidagi tarkibiy qismi, davlat harbiy faoliyatini boshqarish san‘ati. Harbiy siyosat ikkita tarkibiy qismdan iborat: 1) ichki tarkibiy qismi davlat harbiy tashkilotini yaratish, saqlash va tayyorlash, harbiy qurilishni amalga oshirish bilan bog‘liq; 2) tashqi siyosiy tarkibiy qismi davlat mudofaasini ta‘minlash, uning suvereniteti, hududiy yaxlitligi va mustaqilligini himoya qilish, ehtimoliy tashqi agressiyaning oldini olish, yo‘q qilish yoki qaytarish, shuningdek, chegaralarni kengaytirish, saqlab qolish, ma‘lum bir hududlarda hukmronligini o‘rnatish, mustahkamlash va mudofaa yoxud agressiv, bosqinchilik maqsadlariga erishish bilan bog‘liq.

HARBIY SIR – qurolli kuchlar soni, tuzilishi, joylashuvi, jangovar qobiliyati, harbiy obyektlar, harbiy sohadagi ixtirolar, harbiy iqtisod kabi harbiy mazmunga ega va ovoza bo‘lib ketmasligi uchun maxsus muhofaza etiladigan muhim ma‘lumotlar. Harbiy sirni ovoza qilgan harbiy xizmatchi jinoiy kodeksga asosan javobgarlikka tortiladi.

HARBIY STRATEGIYA – harbiy san‘atning tarkibiy qismi va uning yuqori sohasi bo‘lib, qurolli kuchlarni urushga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti, urushni rejalashtirish va yuritish masalalarini o‘z ichiga

qamrab oladi, urush qonuniyatlari va xususiyatlarini tadqiq etadi, strategik operatsiyalarni tayyorlash, yuritish usullari va shakllarini ishlab chiqadi, front, flot va armiyalar maqsadini belgilab, ular oldiga vazifalar qo'yadi, kuchlarni harbiy harakatlar maydonlari va strategik yo'nalishlar bo'yicha taqsimlab chiqadi.

Harbiy strategiya operativlik san'ati va taktikaga nisbatan ustuvor o'rinni egallaydi. Shu bilan birgalikda harbiy strategiya operativlik san'ati va taktikaning imkoniyatini hisobga olib, strategik vazifani hal etish manfaatida erishilgan operativlik va taktik muvaffaqiyatlardan foydalanadi. Harbiy strategiya qurolli kuchlar uchun yagona bo'lib, uning tavsiyalarini amalga tatbiq etish qurolli kuchlarning barcha turlari uchun majburiydir. Harbiy strategiya – yalpi dunyo va muayyan mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyat, O'zbekiston Respublikasi va ittifoqchilarining iqtisodiy hamda ma'naviy-siyosiy imkoniyatlari o'zgarib borishi bilan birga taraqqiy etib boradi.

HARBIY SUDLAR – O'zbekiston Respublikasi sud tizimiga kiradi. Ular O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlardan iborat.

Harbiy sudlar chiqaradigan hal qiluv qarorlari va hukmlar O'zbekiston Respublikasi nomidan e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi harbiy hay'ati lavozimiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinbosari sanaladigan harbiy hay'at raisi, harbiy hay'at raisi o'rinbosari va sudyalardan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi viloyat sudi huquqlari doirasida ish olib boradi hamda rais, rais o'rinbosari, sudyalari va xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi.

Okrug va hududiy harbiy sudlar tuman sudi huquqlari doirasida ish olib boradi hamda rais, sudyalari va xalq maslahatchilaridan, zarurat bo'lganda esa sud raisining o'rinbosaridan iborat bo'ladi.

Harbiy sudlarning sudyalari "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda saylanadi va tayinlanadilar.

O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlari:

a) O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitaning, Milliy xavfsizlik xizmatining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarining va Qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etiladigan boshqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilari, shuningdek, o'quv yig'inlarida

bo'lgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni;

b) harbiy qismlar, qo'shilmalar va birlashmalar, harbiy boshqaruv organlarining qo'mondonligiga nisbatan harbiy xizmatchilarning da'volari bo'yicha fuqarolik ishlarini va harbiy boshqaruv organlari hamda harbiy mansabdor shaxslarning harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyatlarni;

v) alohida holatlarga ko'ra umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyat ko'rsatmayotgan joylarda barcha fuqarolik va jinoyat ishlarini;

g) davlat sirlariga taalluqli ishlarni;

d) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ishlarni ko'radi.

Ushbu bandning "a" kichik bandida ko'rsatib o'tilgan shaxslar harbiy yoki unga tenglashtirilgan xizmatni o'tash davrida sodir etgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar, agar ular ish sudda ko'rilish paytiga kelib xizmatdan bo'shab ketgan bo'lsalar ham harbiy sudlar tomonidan ko'riladi.

Ushbu bandning "a" kichik bandida ko'rsatib o'tilgan shaxslar harbiy yoki unga tenglashtirilgan xizmatga chaqirilgunga yoki kirgunga qadar sodir etgan jinoyatlar to'g'risida ishlar umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi harbiy hay'ati sudloviga:

– oliy ofitserlar tarkibidagi mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar, shuningdek, ushbu shaxslarga taalluqli boshqa ishlar va shikoyatlar tegishlidir.

O'zbekiston Respublikasi harbiy sudining sudloviga:

– sodir etilganligi uchun o'lim jazosi belgilanishi mumkin bo'lgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar;

– polkovnik, 1-darajadagi kapitan unvoniga ega bo'lgan shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlar yoxud brigada komandiri lavozimidagi shaxslar hamda xizmat mavqeyi bo'yicha ularga teng shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlar, shuningdek, ushbu shaxslarga taalluqli boshqa ishlar va shikoyatlar tegishlidir.

Okrug va hududiy harbiy sudlar sudloviga:

– podpolkovnik, 2-darajadagi kapitandan yuqori bo'lmagan unvondagi shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlar, shuningdek, ushbu shaxslarga taalluqli boshqa ishlar va shikoyatlar tegishlidir.

Bir guruh shaxslarni ayblashga oid ish bo'yicha, garchi ayblanuvchilardan loaqal biri xususidagi ish harbiy sud sudloviga taalluqli bo'lsa va uni qonunga ko'ra alohida ish yuritishga ajratish mumkin

bo'lmasa, fuqaro shaxslariga oid ish harbiy sud tomonidan ko'rilishiga yo'l qo'yiladi.

Yakka shaxs yoki bir guruh shaxslar bir necha jinoyatni sodir etishda ayblanib, garchi jinoyatlardan loaqal biri to'g'risidagi ish harbiy sud sudloviga taalluqli bo'lsa, hamma jinoyatlar to'g'risidagi va barcha shaxslarga oid ish harbiy sud tomonidan ko'riladi.

Harbiy sudlar jinoyat ishlari bilan birga harbiy qismlar, korxonalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining va fuqarolarning sodir etilgan jinoyatlar natijasida ularga yetkazilgan moddiy zararni undirib berish to'g'risidagi fuqarolik da'volarini ham ko'rib chiqadilar.

Ushlangan, qamoqqa olingan, gauptvaxtada saqlanayotganlarni harbiy sudlarga qo'riqlab olib borish va ularni sud majlisida qo'riqlash, harbiy qismlar yoki garnizonlarning harbiy komendaturalari tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqa saqlash joylarida, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan mahbuslarni ishini ko'rish joyiga qo'riqlab olib borish va qo'riqlash belgilangan tartibda – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining soqchilik qo'shinlari qismlari, organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Harbiy sudlar O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi.

HARBIY TAHDID – harbiy-siyosiy vaziyatning bevosita harbiy nizo kelib chiqish xavfi mavjud bo'lgan holati. Qarama-qarshi tomonlar o'rtasida antagonistik ziddiyatlarning mavjudligi, tomonlarning loaqal birida o'zining siyosiy niyat va intilishlarini amalga oshirish uchun harbiy kuch ishlatish niyati borligi, shu bilan qatorda, uning qurolli kuchlari (qurolli tuzilmalari) va davlat harbiy tashkilotining boshqa elementlari ham qo'yilgan vazifalarni hal etishga tayyorligi bilan xarakterlanadi. Harbiy tahdid harbiy xavf-xatar ko'payishi (eskalatsiyasi)ning natijasidir. Harbiy tahdidning turli ko'lamda namoyon bo'lish turlari mavjud: alohida mamlakat yoki alohida ijtimoiy guruhga tahdid, mamlakatlar guruhlariga (regional) tahdid, jahon hamjamiyatiga tahdid (global).

HARBIY TARBIYA – harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarda siyosiy ong, harbiy burchga sodiqlik, intizomli bo'lish, jasurlik, ruhiy barqarorlik, uyushqoqlik va yuksak jangovar shaylikni tashkil etilgan tarzda muayyan tizim bo'yicha shakllantirish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlat hukumati qarorlari, Vatanga qasamyod va nizomlar talablari asosida, jangovar va ijtimoiy-

siyosiy tayyorgarlik, g'oyaviy tarbiya va madaniy-ma'rifiy ishlari jarayonida amalga oshiriladi.

HARBIY TARIX – o'tmishdagi urushlar va qurolli kuchlar tarixini, harbiy san'at, harbiy tafakkur taraqqiyotini o'rganadi, bo'lib o'tgan urushlardan olingan tajribalarni umumlashtiradi.

HARBIY TA'LIM – harbiy xizmatchilarga harbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan harbiy bilim, ko'nikma va mahoratlar berish, mazkur bilimlarni o'zlashtirib olish, shuningdek, hamjihat jangovar harakatlar yuritish uchun harbiy jamoa, bo'linma, qism va qo'shilmalar tayyorgarligi va hamkorligini shakllantirishning tashkil etilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan jarayoni. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi harbiy ta'limotning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- ilmiylik;
- qo'shinlarni urushda zarur bo'ladigan bilimlarga o'rgatish;
- harbiy xizmatchilarning ongli va faol tahsil ko'rishlari;
- ko'rgazmali, tushunarli, muayyan tizimga solingan va aniq izchillikka ega bo'lishi;
- harbiy ta'limga jamoa tarkibida va shaxsiy yondashuvning uyg'unlashtirilishi.

HARBIY TEXNIKA – qurolli kuchlarning jangovar va kundalik faoliyatini ta'minlash uchun mo'ljallangan qurol-yarog', mashina, jihoz, apparat va shu kabi boshqa texnik vositalar. Vazifasiga ko'ra:

- qurol-aslaha;
- qurol-yarog' tashuvchisi;
- qo'shinlar va jangovar vositalar boshqaruvining texnik vositasi;
- jangovar harakatlarni ta'minlash vositalari;
- targ'ibotning texnik vositalari;
- poligon anjomlariga bo'linadi.

Hujjatlarda, matbuot va og'zaki chiqishlarda ko'proq "Jangovar texnika" atamasi qo'llaniladi. Mazkur atama harbiy texnikani norasmiy tarzda jangovar va ko'makchi turlarga bo'linishi natijasida vujudga kelgan. Bunday bo'linishga muvofiq jangovar texnikaga shartli ravishda:

- tank, samolyot va shu kabilarning o'zi va qurol-yarog'i;
- ayrim qurol komplekslari;
- qurol-aslaha namunalari kiradi.

HARBIY TEXNIKANI SAQLASH – harbiy texnikani belgilangan muddatda jangovar shay holatga keltirilishini ta'minlovchi saqlanish holatida tutib turilishi. Harbiy texnikani saqlash tadbirlari jumlasiga:

- muhitning texnikaga o'tkazadigan salbiy ta'siridan, ya'ni namgarchilik, haroratning keskin o'zgarib turishi kabi omillardan asrash;
- texnikani maxsus saqlash joylariga joylash;
- harbiy texnikaga texnik xizmat ko'rsatish va ko'rikdan o'tkazish amallarini bajarish;
- yong'in xavfsizligiga rioya etish;
- tegishli hujjatlarni yuritib borish amallari kiradi.

Harbiy texnikani bir yilga qadar qisqa muddatda saqlashga va bir yildan ortiq vaqtga davomli saqlashga qo'yish mumkin.

HARBIY-TEXNIK HAMKORLIK – xalqaro munosabatlarning harbiy mahsulot, faoliyat va ko'rsatiladigan xizmat turlarini tadqiq qilish, ishlab chiqarish, ularni eksport va import qilish bilan bog'liq sohasi.

HARBIY TIBBIYOT – Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibi sog'lig'ini saqlash nazariyasi va amaliyotini hamda ular bilan jang chog'ida yuz beradigan shikastlanish va kasalliklarning vujudga kelishi, ushbu kasalliklar qanday kechishi xususiyatlarini o'rganadi. Harbiy harakat vaqtida qo'shinlar shaxsiy tarkibiga tibbiy yordam ko'rsatadi, tinchlik davrida esa davolash-profilaktik ishlarini olib boradi.

HARBIY-TRANSPORT AVIATSIYASI – harbiy aviatsiya turlaridan biri bo'lib, havo desantini bir yerdan ikkinchi yerga olib o'tish, qo'shinlar manyovrlarini havoda o'tkazish, qurol-aslaha, o'q-dori, yoqilg'i, oziq-ovqat va boshqa moddiy vositalarni yetkazib berish, yarador va bemorlarni evakuatsiya qilishga mo'ljallangan.

Zamonaviy harbiy-transport aviatsiyasi qurilish va jihozlanish jihatidan boshqa rusumdagi harbiy samolyotlardan farqlanib turuvchi harbiy transport samolyotlari bilan ta'minlangan. Vazifasi va yuk ko'tarish qobiliyati bo'yicha harbiy-transport aviatsiyasi og'ir (AN-22), o'rta (AN-12) va yengil (AN-24) samolyotlarga bo'linadi. Qo'shin va yuklarni tashish uchun desantlovchi transport vertolyotlari ham keng qo'llaniladi.

HARBIY TUZILMA – yangi tashkil etilgan yoki mavjud harbiy qism, qo'shilma yoki birlashma. Harbiy tuzilma vaqtli, marshdagi bo'linma, terma otryad kabi harbiy jamoa bo'lishi mumkin.

HARBIY UNVON – harbiy xizmatchining boshqa harbiy xizmatchiga nisbatan mavqeyi. Har bir harbiy xizmatchi va harbiy xizmatga majbur bo'lgan fuqaroga uning xizmat mavqeyi, harbiy yoki maxsus tayyorgarligi, Qurolli Kuchlarning qo'shin turlariga tegishliligi hamda davlat oldidagi xizmatlari bo'yicha tegishli harbiy unvon beriladi. Qurolli Kuchlardagi harbiy unvonlar qo'shin unvonlari va kema

tarkibidagi unvonlarga bo'linadi. Harbiy unvon berish tartibi davlatning huquqiy tizimi tomonidan belgilanadi.

Har xil davlatlarda harbiy xizmatchilarni harbiy unvonlari bo'yicha farqlash uchun harbiy unvonlarning farqlovchi nishonlari qo'llaniladi. Ularga: pogonlar, qo'lga, ko'krakka taqiladigan nishonlar, kamdan kam hollarda kokarda, tugmalar, ayrim hollarda harbiy kiyimning boshqa elementlari, masalan: furajka, pilotka, papaxa, galunlar, lampas va kantlar kiradi. Ko'p davlatlarda ayrim harbiy unvonlar o'xshash nomga ega bo'lsa-da, har xil xizmat pog'onalarini anglatishi mumkin.

Qurolli Kuchlardagi oliy harbiy unvon *armiya generali* bo'lib, bu unvon O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni va O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziriga urush davrida beriladi.

Yuridik yoki tibbiy yo'nalishdagi harbiy hisobdagi ixtisoslikka ega bo'lgan harbiy xizmatchi va harbiy xizmatga majbur fuqaroning harbiy unvoniga tegishincha "adliya" yoki "tibbiy xizmat" so'zlari qo'shiladi.

Rezervdagi, zaxiradagi yoki iste'fodagi fuqarolarning harbiy unvoniga tegishincha "rezervdagi", "zaxiradagi" yoki "iste'fodagi" degan so'zlar qo'shiladi.

Harbiy unvon berish va harbiy unvondan mahrum qilish, shuningdek, harbiy unvonini pasaytirish hamda harbiy unvonini tiklash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida mavjud harbiy unvonlar:

Qo'shin unvonlari	Kema tarkibidagi unvonlar
I. Oddiy askarlar tarkibi	
oddiy askar	Matros
II. Serjantlar tarkibi	
kichik serjant	starshina
III darajali serjant	III darajali starshina
II darajali serjant	II darajali starshina
I darajali serjant	I darajali starshina
katta serjant	bosh starshina
III. Ofitserlar tarkibi	
Kichik ofitserlar tarkibi	
leytenant	leytenant

katta leytenant kapitan	katta leytenant kapitan-leytenant
Katta ofitserlar tarkibi	
mayor podpolkovnik polkovnik	
Generallar tarkibi	
general-mayor general-leytenant general-polkovnik armiya generali	

Ofitserlar tarkibiga kiruvchilarni harbiy unvondan ular og'ir va o'ta og'ir jinoyat uchun hukm etilganlarida faqat sudning qarori bilan mahrum qilish mumkin. Harbiy unvonlar:

a) harbiy xizmatchining huquqiy-xizmat mavqeyi va xizmat yuzasidan unga yuklatilgan majburiyatlar darajasini belgilaydi, professional tayyorgarligi, harbiy majburiyatni ado etish darajasining ko'rsatkichi bo'lib, shaxsiy tarkibning harbiy xizmat o'tashi, kadrlarni tayinlash amallari samarali tashkil etilishining muhim sharti sanaladi;

b) Qurolli Kuchlarning har bir harbiy xizmatchisiga alohida, uning harbiy tayyorgarligi yoki mutaxassisligi, o'tagan xizmat muddati, qo'shinlar turiga tegishliligi, shuningdek, harbiy xizmat borasidagi tajribasiga muvofiq beriladi;

v) harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlarda katta-kichiklik darajasini belgilaydi. Harbiy unvon hisobga olingan holda harbiy xizmatchilarning intizomiy huquq va majburiyatlari belgilanadi.

HARBIY FAN – urushlarning qonuniyatlari va strategik xarakteri, davlat va qurolli kuchlarni qurish va urushga tayyorlash hamda qurolli kurashni olib borish usullari haqidagi bilimlar tizimi. Urush harbiy fanning bilish obyekti bo'lib hisoblanadi va uni boshqa ijtimoiy, tabiiy va texnik fanlar bilan bir qatorda tadqiq qiladi. Turli urush va nizolardagi qurolli kurash harbiy fanning predmeti hisoblanadi.

Harbiy fanning eng muhim tarkibiy qismlari: harbiy san'at nazariyasi, qurolli kuchlar qurilishi nazariyasi, qurolli kuchlar harbiy iqtisodiyoti va front orti nazariyasi, harbiy ta'lim-tarbiya nazariyasi kabi harbiy fanlar ijtimoiy, tabiiy va texnik fanlarning maxsus sohalari bilan bog'liq.

HARBIY FIDOKORLIK NISHONLARI – harbiy burchni ado etishda alohida xizmat ko'rsatgan, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlikda "a'lo" va "yaxshi" ko'rsatkichlarga erishgan harbiy xizmatchilarni taqdirlash uchun beriladigan ko'krak nishonlari.

HARBIY XAVFSIZLIK – 1) milliy manfaatlarning harbiy sohada davlat xavfsizligiga bo'lgan tahdidlardan himoyalanganlik holati; 2) qurolli zo'ravonlik vositalari orqali shaxs, jamiyat, davlat va jahon hamjamiyatiga ziyon keltirish imkoniyatlaridan xolislash yoki yo'qqa chiqarish bilan bog'liq ichki va xalqaro hayot sharoitlarining holati. Milliy va xalqaro xavfsizlikning tarkibiy qismi va biri.

HARBIY XIZMAT – fuqarolarining qurolli kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turi.

HARBIY XIZMAT TURLARI – Harbiy xizmat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir.

Harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etiladi:

- muddatli harbiy xizmat;
- safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;
- kontrakt bo'yicha harbiy xizmat;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati.

Tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga o'n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo'lgan, salomatligiga ko'ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladilar.

HARBIY XIZMAT XAVFSIZLIGI – harbiy xizmatning harbiy xizmatchilar, aholi va atrof-muhitning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari faoliyati mobaynida yuzaga keladigan xavf-xatardan himoya qilinishini ta'minlaydigan holati.

HARBIY XIZMAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TADBIRLARI – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining kundalik faoliyati mobaynida harbiy xizmat xavfsizligining shart-sharoitlari saqlab turilishini va shu asosda harbiy xizmatchilarning hayotiy muhim manfaatlarini amalga oshishi, aholi hayoti, salomatligi va mol-mulkiga, shu jumladan, atrof-muhitga zarar yetkazilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-texnik, ma'naviy-ruhiy, tibbiy, ekologik va boshqa tadbirlar tizimi.

HARBIY XIZMATGA MAJBUR BO'LMAGAN FUQARO – turli sabablarga ko'ra harbiy majburiyatni bajarishdan ozod etilgan fuqaro.

Harbiy xizmat o'tashga to'sqinlik qiluvchi xastalik va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan chaqiriluvchi harbiy xizmatga majbur bo'lmagan fuqaro sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Bundan tashqari, Qurolli Kuchlar safida muqaddam xizmat o'tab, ayni paytda rezervdagilar xizmatini o'tayotgan fuqaro harbiy majburiyatni ado etishdan ozod etishga asos bo'ladigan kasallik bilan kasallansa, shuningdek, zaxiradagi harbiy xizmatga majbur fuqarolarning ro'yxatida bo'lish muddati yakuniga yetib, tegishli harbiy hisobdan chiqarilgan bo'lsa, bunday fuqaro – harbiy xizmatga majbur bo'lmagan fuqaro sanaladi.

Harbiy xizmatni o'tashga yaroqsiz deb topilgan fuqaroga tegishli guvohnoma beriladi (yoki harbiy guvohnomasiga tegishli yozuv kiritiladi).

HARBIY XIZMATGA MAJBUR FUQARO – 1) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi (zaxirasidagi) fuqaro. Harbiy xizmatga majbur fuqaro o'quv yig'inlariga chaqiriladi, harbiy xizmatchilar kabi Vatanga qasamyod qabul qiladi va unga tegishli harbiy unvon beriladi. Yig'in davomida ish joyida egallagan lavozim va o'rtacha oylik maoshi saqlanib qoladi. Safarbarlik e'lon qilinganida harbiy xizmatga majbur fuqarolar ularga topshirilgan safarbarlikka oid yozma ko'rsatma varaqasi, chaqiruv qog'ozi yoki tuman, shahar mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i buyrug'ida ko'rsatilgan muddatda yig'in punktlariga yetib kelishga majbur. Ushbu talabni bajarmagan fuqarolar urush davri qonunlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar; 2) keng ma'noda harbiy xizmatga majbur fuqaro – qonun bo'yicha harbiy majburiyat yuklanadigan har qanday fuqaro, shu jumladan chaqiriqqacha va chaqiriq yoshidagi harbiy hisobga kiritilgan yigitlar hamda tibbiy va ixtisoslik bo'yicha tayyorgarlikka ega harbiy hisobga kiritilgan ayollar sanaladi.

HARBIY XIZMATGA CHAQIRUV – fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy majburiyatni ado etish uchun qonunga muvofiq majburiy jalb etilishi.

Fuqarolarning muddatli harbiy xizmatga hamda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan yiliga bir marta – mart-aprel oylarida o'tkaziladi degan norma belgilab qo'yilgan.

Muddatli harbiy xizmatga o'n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo'lgan fuqarolar, shuningdek, muqaddam haqiqiy harbiy xizmatni

o'tamagan ofitserlar chaqiriladi.

Harbiy xizmatdan ozod etilish va chaqiruvini kechiktirish huquqiga ega bo'lmagan, erkak jinsiga mansub fuqarolarning oddiy askarlar tarkibiga mansub lavozimlarda muddatli harbiy xizmat o'tashga chaqiruv – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qaroriga binoan o'tkaziladi. Fuqarolarni muddatli harbiy xizmat o'tashlari uchun yig'ish va jo'natish, harbiy qismlarda ularni qabul qilib olish tartibi amaldagi qonunlarda belgilangan.

Safarbarlik bo'yicha va kelgusi chaqiruvlar Vazirlar Mahkamasining Qarori va Mudofaa vazirining buyrug'iga asosan o'tkaziladi.

Safarbarlik e'lon qilinganida Qurolli Kuchlar safida xizmat o'tayotgan barcha shaxslar alohida ko'rsatmaga qadar harbiy xizmatda ushlanib qolinadi, harbiy xizmatga majbur fuqarolar esa topshirilgan yozma ko'rsatma, chaqiruv qog'ozi yoki tuman, shahar mudofaa ishlari bo'limi boshlig'ining buyrug'ida ko'rsatilgan punktga belgilangan muddatda yetib keladilar.

Belgilangan vaqt va muddatda safarbarlik chaqiruvi bo'yicha hozir bo'lmagan harbiy xizmatga majbur fuqarolar – urush davri qonunlariga ko'ra javobgarlikka tortiladilar.

HARBIY XIZMATCHI – haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan davlat fuqarosi. Har bir harbiy xizmatchiga (harbiy xizmatga majbur fuqaroga) tegishli harbiy unvon beriladi. Harbiy xizmatchilar (harbiy xizmatga majbur fuqarolar) oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga bo'linadi.

HARBIY XIZMATCHILARNING HARBIY KIYIM-KECHAK VA FARQLOVCHI NISHONLARI – harbiy xizmatchilarning harbiy kiyim-kechak va farqlovchi nishonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Harbiy xizmatchilar, shuningdek, harbiy yig'inlarga jalb etilgan harbiy xizmatga majburlar harbiy unvonni va qo'shin turini farqlovchi nishonlari bo'lgan harbiy kiyim-kechakda yuradilar.

Harbiy kiyim-kechakda yurish qoidalari harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning rahbarlari tomonidan belgilanadi.

Harbiy kiyimda yurish huquqiga ega bo'lmagan fuqarolarning, harbiy xizmatchilarning harbiy kiyim-kechagini kiyib va farqlovchi nishonlarini taqib yurishi taqiqlanadi.

HARBIY XIZMATNI O'TASH TARTIBI TO'G'RISIDAGI

NIZOM – O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervida xizmat to‘g‘risida”gi Qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan harbiy xizmat o‘tash tartibini belgilab beruvchi me‘yoriy-huquqiy hujjat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va harbiy masalalarni hal etib beruvchi boshqa qonunlariga asosan chiqarilgan.

HARBIY XIZMATCHILAR VA HARBIY XIZMATGA MAJBUR FUQAROLAR TARKIBI – harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga majbur fuqarolar oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga bo‘linadi. Ofitserlar tarkibi kichik ofitserlar, katta ofitserlar va generallar tarkibiga bo‘linadi. Har bir harbiy xizmatchi va harbiy xizmatga majbur fuqaroga tegishli harbiy unvon beriladi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

– *muddatli harbiy xizmatchilar* egallab turgan lavozimi bo‘yicha harbiy ixtisoslikni sifatli o‘zlashtirishi, ishonib topshirilgan qurol va harbiy texnikani ishlata bilish ko‘nikmalarini egallashi, mustahkam hayotiy pozitsiya, vatanparvarona dunyoqarash, yuksak ma‘naviy-axloqiy va jismoniy sifatlarga ega bo‘lishi, harbiy burchni bajarishga tayyor turishi zarur;

– *oddiy askarlar tarkibiga mansub kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilar* muddatli harbiy xizmatchilarga taalluqli bo‘lgan sifatlarni egallash bilan bir qatorda, harbiy kasbni chuqur o‘zlashtirishi, o‘zaro bog‘liq mutaxassisliklarni o‘rganishi, vaziyatning turli sharoitlarida jangovar va xizmat vazifalarini bajarish vaqtida ishonib topshirilgan qurol va harbiy texnikani qo‘llashning mustahkam ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim;

– *serjantlar tarkibiga mansub kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilar* ma‘nan yetuk, harbiy burchni bajarishga ruhan tayyor bo‘lishi, harbiy kasbni mukammal bilishi, qurol-aslaha va harbiy texnikani mohirona qo‘llay olishi hamda uni saqlash va undan foydalanishda ehtiyotkor bo‘lishi kerak. Ularga bo‘linmalarda yuksak jangovar ruh, sog‘lom ma‘naviy-ruhiy muhit yaratish, bo‘ysunuvchilarda Vatanga sodiqlik va vatanparvarlik hislarini doimiy ravishda tarbiyalab borish, ularni harbiy ixtisosliklar va zaruriy ko‘nikmalarni hosil qilish vazifalari yuklatiladi;

– *ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilar* professional tayyorgarlikka ega komandir (rahbar), harbiy bo‘linmalarga komandirlik (rahbarlik) qilish, murakkab vaziyatlarda tezkor moslashish

va mustaqil harakat qilish, nostandart qarorlarni qabul qilish hamda shaxsiy namunasi bilan bo'ysunuvchilarni jangovar va xizmat vazifalarini hal etishga yo'naltira olishga qodir, harbiy ishga oid chuqur bilimlar, yuksak ma'naviy-ruhiy sifatlar, keng dunyoqarash, intellekt, yaxshi tashkilotchilik qobiliyatiga ega, ishonib topshirilgan qurol-aslaha va harbiy texnikadan to'g'ri foydalanish va uni saqlashni biladigan mutaxassis bo'lishlari zarur.

Sanab o'tilgan sifatlar o'zini harbiy ish va Vatan xizmatiga yuqorida sanab o'tilgan sifatlar o'zini harbiy xizmatga, Vatanga xizmat qilishga bag'ishlagan har bir fuqaro uchun hayotiy maqsad bo'lib qolishi va mashaqqatli mehnat asosida shakllana borishi, nafaqat ekstremal sharoitlarda, balki tinchlik davrida kundalik xizmat davomida ham singdirilib, namoyish etilib borilishi lozim.

HARBIY XIZMATCHILARNING HUQUQIY TARBIYASI – shaxsiy tarkib ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligining tarkibiy qismi. Maqsadi – harbiy xizmatchilarda huquqiy tizim va harbiy huquqiy tartibotga nisbatan hurmatda bo'lish, davlat qonunlari, Vatanga qasamyod va nizomlar talablarini vijdonan va aniq ijro etishga intilish sifatlarini tarbiyalashdir. Harbiy xizmatchilarning huquqiy tarbiyasi – shaxsiy tarkibning huquqiy madaniyatni rivojlantirishga omil bo'ladi. Mazkur tarbiya jarayoni samarali o'tishi uchun komandir, boshliq, tarbiyachi tomonidan qonun va nizom talablari hamda umumistiqomat qilish qoidalariga rioya etishdagi shaxsiy namunasi muhim ahamiyat kasb etadi. Harbiy xizmatchilarning huquqiy tarbiyasida tarbiyaviy ishlar organlari va armiya jamoat tashkilotlarining roli kattadir.

HARBIY XIZMATCHILARNI RUHIY JIHATDAN SARALASH – harbiy xizmatchilarning tegishli harbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan qobiliyat va iste'dodlarini aniqlash.

Saralanayotgan harbiy xizmatchilar shaxsini har tomonlama o'rganib chiqish davomida olingan ma'lumotlarni professiogramma va psixogrammalar bilan taqqoslash yo'li orqali amalga oshiriladi.

HARBIY XIZMATCHINING TA'MINOTI – harbiy xizmatchini kiyim-kechak, pul, oziq-ovqat kabi ta'minotlar bilan ta'minlash.

HARBIY SENZURA – harbiy va davlat ahamiyatiga ega sirlarning ovoza bo'lishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida harbiy organlar va davlatning boshqa organlari tomonidan o'tkaziladigan nazorat shakllaridan biri.

HARBIY ETIKA – harbiy etika (yunon. *ethikos* – ma'naviyatga tegishli, ma'naviy e'tiqodlarni ifoda etuvchi) umumiy etikaning tarkibiy

qismi bo'lib, harbiy axloqning me'yor va tamoyillari, uni axloqiy-ruhiy va jangovar sifatlarini shakllanishiga ta'sir etishini tadqiq qiladi va nazariy jihatdan asoslab beradi. Milliy armiyamizda harbiy etika o'z vazifalarini ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimiz, madaniy va tarixiy o'tmishimiz, buyuk ajdodlarimiz merosi, mard, jasur va fidoyi sarkardalarimizning mahorati, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari hamda milliy urf-odatlarimiz haqida chuqur bilim berish orqali amalga oshiradi.

HARBIY ESEHELON – bitta poyezdda tashib ketilayotgan harbiy qism yoki bir necha bo'linmalar, shu jumladan, harbiy yuklar.

Har bir harbiy eshelonga, manzilga yetib borishning yalpi yo'liga alohida raqam berilib, ma'muriyat tayinlanadi.

Harbiy eshelonda o'taladigan ichki xizmat Ichki xizmat nizomi, qorovullik xizmati Garnizon va qorovullik xizmatlari nizomi bilan tartibga solinadi.

HARBIY EHTIROM – Qurolli Kuchlarda ko'rsatiladigan izzat-ikromning belgilangan shakli, harbiy marosimning tarkibiy qismi. Odatda, harbiy ehtirom ko'rsatilayotgan vaqtda faxriy qorovul, faxriy eskort saf tortadi, madhiya ijro etiladi, mushak otiladi va hokazo.

HARBIY O'YIN – qo'shinlarni boshqarish organlari va ofitser kadrlarni yuzaga kelgan vaziyatga baho berish, qaror qabul qilish, operatsiya va jangovar harakatlarni rejalashtirishga tayyorlashning uslubiy shakli.

O'yin davomida qo'yilgan o'quv savollari xarita vositasida tegishli lavozimlar va ushbu lavozimlarga taalluqli majburiyatlarga muvofiq amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha bo'linib olgan harbiy o'yin ishtirokchilari tomonidan hal etib boriladi.

Harbiy o'yinlar:

- miqyosiga ko'ra – strategik, operativ va taktik;
- mazmuniga ko'ra – umumqo'shin va maxsus;
- bo'linishiga ko'ra – bir tomonlama va ikki tomonlama, bir bosqichli va ko'p bosqichli bo'lishi mumkin.

Qator hollarda harbiy o'yinlar davomida harbiy san'atning yangi masalalari o'zlashtirilib, tadqiq qilinishi mumkin. Alohida hollarda esa harbiy o'yin bo'lajak operatsiyalar va jangovar harakatlar rejalarini sinab ko'rish, qo'yilgan vazifalar ijrosining turli variantlariga baho berish uchun qo'llaniladi.

HARBIY O'RTOQLIK – harbiy xizmatchilar jamoasidagi

uyushqoqlik va jangovar qudratga sezilarli ta'sir o'tkazuvchi o'zaro munosabatlarning axloqiy-huquqiy me'yori. Askariy o'rtoqlikning keng tarqalgan shakllari:

- jangda bir-biriga ko'rsatadigan yordam;
- o'qish va xizmatda bir-biriga ko'rsatadigan yordam;
- halok bo'lgan quroldoshlar xotirasini e'zozlash.

Harbiy o'rtoqlik qurolli kuchlar jangchilari manfaatlarining umumiyligi va maqsadlarning birligi, bo'ysunuvchi va komandir o'rtasidagi uzluksiz munosabat hamda bir-biri va Vatan oldidagi burch hissiyatini ifodalaydi. Askariy o'rtoqlikning asosiy tamoyilda "O'zing halok bo'lsang ham o'rtog'ingni qutqar" maqolida aniq aks etgan.

HARBIY QISM – 1) qurolli kuchlarning barcha turlaridagi tashkiliy jihatdan mustaqil, taktik va ma'muriy-xo'jalik birligi. Har bir harbiy qism o'z shtatiga, ya'ni shaxsiy tarkib, qurol-aslaha, texnika va turli moddiy vositalarning zaruriy miqdoriga, shuningdek, o'z raqami va shartli belgisiga ega. Harbiy qism haqiqiy va shartli nomlanishlari aks ettirilgan ikkita muhr va shtampga ega. Oliy Majlis qaroriga binoan harbiy qismga Jangovar Bayroq topshiriladi; 2) armiya, Ichki ishlar vazirligi qo'shinlari, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari va harbiy-dengiz floti harbiy qism, kema, qo'shilma va muassasalarining raqamli shartli nomi. Shuningdek, ularning rasmiy nomi hisoblanib, xizmat hujjatlarini rasmiylashtirish mobaynida yuridik kuchga ega. 1932-yildan boshlab berilib kelinadi.

HARBIY QISM TARIXI – harbiy qismning tuzilganligi, hayoti va faoliyati, jangovar yo'li, ko'rsatgan jasorat va xizmatlari haqida ma'lumotlar yozilgan hujjat. Harbiy qism tarixiga asos etib: hukumat qarorlari, buyruq, direktiva va yozma ko'rsatmalar, majlislar bayonnomalari, tarixiy ma'lumotnomalar, nazorat-tekshiruv dalolatnomalari, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik borasidagi hisobotlar, xalq xo'jaligida bajarilgan ishlardagi ishtiroki haqidagi bildiruvlar, matbuotda chop etilgan materiallar, urush vaqtida esa – jangovar hujjatlar kabi rasmiy hujjat va ishonchli materiallar olinadi. Harbiy qism tarixidan olingan asosiy hodisa va voqealar harbiy qism muzeyi va jangovar sharaf xonasida eksponat ko'rinishida yoki ta'rif va tasvirlar shaklida ifodalanib, shaxsiy tarkib bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida keng ko'lamda foydalaniladi.

HARBIY QONUNCHILIK – muayyan davlat qurolli kuchlarining qurilishi va faoliyati borasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida

davlatning oliy organlari tomonidan qabul qilingan qonunlar, huquqiy hujjatlar va me'yorlar majmui.

HARBIY QUDRAT – davlat yoki davlatlar ittifoqining iqtisodiy, harbiy, ilmiy-texnik va ma'naviy-siyosiy imkoniyatlari majmui. Harbiy qudrat asosi – davlat iqtisodiyotidir. Harbiy qudrat qurolli kuchlarda va qo'shinlarning qo'yilgan vazifalarni bajara olish qobiliyatida bevosita mujassamlashadi. Harbiy qudrat jamoat va davlat tuzumi hamda davlatda hukm surgan mafkuraga bog'liq.

HARBIY QURILISH – mamlakat mudofaasi va xavfsizligini ta'minlash manfaatida amalga oshiriladigan, davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va harbiy tadbirlar tizimi.

Harbiy qurilishning asosiy maqsadi va ularga erishish usullari davlat siyosati bilan belgilanadi.

HARBIY-HAVO KUCHLARI – Davlat qurolli kuchlarining turi bo'lib, qurolli kuchlarning boshqa turlari bilan birgalikda, shuningdek, mustaqil tarzda, operativ va strategik masalalarni hal etish uchun mo'ljallangan. Vazifasi va jangovar jihatdan qo'llanilishiga ko'ra:

- olis masofalarda harakatlanuvchi;
 - front;
 - harbiy-transport aviatsiyalariga bo'linadi.
- Taktik va texnik tavsiflariga ko'ra:
- bombardimonchi;
 - qiruvchi;
 - hujumchi;
 - razvedkachi;
 - transport;
 - madadkor aviatsiyalarga bo'linadi.

Jangovar imkoniyatlariga ko'ra – havoda hukmronlik surish uchun kurash olib borish, qo'shinlar va flot kuchlariga aviatsiyali madad berish, havoda turib himoya qilish, qo'shinlar va moddiy vositalarni desantlash, havoda tashish, havo razvedkasini yuritish va shunga o'xshash tadbirlarni amalga oshirishga qodir.

Harbiy-havo kuchlari dushman ortining olis sarhadlariga kirib borish va obyektlariga ta'sir o'tkazishga imkon yaratadi, turli jangovar harakatlar bajarib, harbiy operatsiyalar davomi va yakuniga katta ta'sir o'tkazish qobiliyatiga ega bo'ladi.

HARBIY HARAKATLAR – 1) qurolli kuchlarning quruqlik, havo va dengizda dushmanni tor-mor qilish borasidagi harakatlari. Jangovar

harakatlardan farqliroq, harbiy harakatlar strategik miqyosda o'tkaziladigan harakatlar tushunchasiga mansub; 2) tinchlik va urush davrida qo'shinni hamda barcha turdagi harbiy yuklarni tashish amallari uchun foydalaniladigan quruqlik, suv va havodagi yo'llar.

Fuqarolik davlat transport muassasalari bilan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari manfaatida aloqa yo'llarini tayyorlash va ulardan foydalanish masalalari bo'yicha hamkorlik qilish uchun harbiy harakatlar hamda yo'llar organi tashkil qilinadi.

HARBIY HARAKATLARNING TO'XTATILISHI – yalpi frontda yoki bir qismida jangovar operatsiyaning o't ochish bas qilinishi bilan kuzatiladigan vaqtincha to'xtatilishi. Odatda, umumiy yarashuvning muayyan qismi yoki kapitulyatsiya sanaladi, biroq qarshi tomonlarni urush holatidan chiqarmaydi.

Zamonaviy xalqaro huquqda, harbiy harakatlar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xavfsizlik kengashi tashabbusi bilan to'xtatilishi nazarda tutiladi. Mazkur kengash qurolli nizoning taraqqiy etib ketishining oldini olish maqsadida kurashayotgan tomonlardan harbiy harakatlarning to'xtatilishi va nizoni uzil-kesil hal etish uchun muzokaralar boshlashni talab etish huquqiga ega.

HARBIY HARAKATLARNI MUVOFIQLASHTIRISH – qurolli kuchlar harakatlarini uyg'unlashtirish:

a) davlat qurolli kuchlari turkumi harakatining strategik operatsiya oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun o'zaro mos keltirilishi.

Bunday muvofiqlashtirish amallari, odatda, oliy bosh qo'mondonlik va mazkur qo'mondonlikning birlashmalardagi vakillari tomonidan amalga oshiriladi;

b) ittifoqdosh davlatlarning birgalikda yuritayotgan urushdagi umumiy harbiy-siyosiy va strategik maqsadlarga erishish uchun ushbu davlatlar qurolli kuchlari harakatlarining o'zaro moslashtirilishi.

Mazkur muvofiqlashtirish amallarining *asoslari* davlat rahbarlari tomonidan belgilab berilib, amalga oshiriladigan *aniq tadbirlar* esa – tegishli bosh shtablar tomonidan ishlab chiqiladi.

HARBIY HARAKATLAR MAYDONI – 1) sarhadlarida harbiy kuchlarning, ya'ni aviatsiya, harbiy-dengiz floti va quruqlikdagi qo'shinlarning strategik guruhlarini tashkil etilayotgan va strategik miqyosdagi harakatlar yuritilishi mumkin bo'lgan, dengiz yoki okean suvlari qirg'oqlarini yuvib turgan qit'a qismining hududi va ustidagi fazo. Harbiy harakatlar maydonining tarkibi va chegaralari muayyan

davlatlarning harbiy-siyosiy rahbariyati tomonidan belgilanadi; 2) urush maydoni.

Har bir harbiy harakatlar maydoni harbiy harakatlarning tayyorlanishi va yuritilishiga ta'sir o'tkazuvchi muayyan harbiy-siyosiy, harbiy, iqtisodiy, tabiiy geografik va etnografik sharoit va muhandislik jihatdan jihozlanishiga ega. NATO, ya'ni Shimoliy Atlantika tashkilotining harbiy-siyosiy rahbariyati *G'arbiy Yevropa hududini* shartli ravishda harbiy harakatlarning quruqlikdagi uchta (urush) maydonlariga:

- Shimoliy Yevropa harbiy harakatlar maydoni;
- Markaziy Yevropa harbiy harakatlar maydoni;
- Janubiy Yevropa harbiy harakatlar maydoniga bo'ladi.

Okeanlardagi harbiy harakatlar maydonlari ular uchun to'rtta okeanning har biri sanaladi, ya'ni:

- Atlantika okeani harbiy harakatlar maydoni;
- Tinch okean harbiy harakatlar maydoni;
- Hind okeani harbiy harakatlar maydoni;
- Shimoliy Muz okeani harbiy harakatlar maydoni.

HARBIY HISOB – barcha chaqiriluvchilar va harbiy xizmat yoshidagi fuqarolarning istiqomat joylaridagi maxsus hisobi. O'zbekiston Respublikasida mazkur hisob tuman, shahar mudofaa ishlari bo'limlari tomonidan "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunga muvofiq yuritiladi.

HARBIY HISOBDAGI IXTISOSLIK – harbiy xizmatchi yoki harbiy xizmatga majbur fuqaroning egallagan harbiy mutaxassisligiga oid qurolli kuchlar va qo'shinlar turiga mansubligini belgilovchi tushuncha.

Harbiy hisobdagi ixtisoslik armiya va flot safida xizmat davrida shtatli lavozimlar yoki xalq xo'jaligidagi faoliyat tajribasiga ko'ra belgilanadi.

HARBIY HUJJATLAR – harbiy boshqarma organlarining faoliyat yuritish uchun mo'ljallangan, keng doiralardagi masalalar borasida ma'lumotlarga ega – matn va grafik ko'rinishdagi tasvirlar. Qog'oz, xarita, fotosurat, magnitli tasma, perfokarta, disket, kompakt disk va shu kabilarda ishlab chiqariladi. Harbiy hujjatlar jangovar, xizmatga oid va nizomga oid hujjatlar turkumiga bo'linadi. Masalan:

- jangovar hujjatlarga – operativ direktiva, buyruq, rejalar, ish xaritalari, chizmalar;
- xizmatga oid hujjatlar jumlasiga – buyruq, farmoyish, direktiva, ko'rsatma, bildiruv, hisobot, ma'lumot;
- nizomga oid hujjatlar turkumiga – nizom, qo'llanma, yo'riqnoma

kabi hujjatlar kiradi.

Harbiy hujjatlar mazmuni, ularni ishlab chiqish, chop etish, hisobini yuritish, saqlash, yuborish va tarqatish qoidalari tegishli buyruq, qo'llanma va yo'riqnomalar bilan belgilab beriladi yoki tartibga solinadi.

HARBIY HUQUQ – harbiy qonunchilik. Davlatdagi huquqiy tizimning muayyan qismi bo'lib:

- jamoatchilikning Qurolli Kuchlar qurilishi va faoliyati, qo'shinlarni joylash va boshqarish, fuqarolarning harbiy xizmat o'tash sohasidagi munosabatlarini belgilaydi;

- harbiy boshqaruv organi, harbiy xizmatchi va harbiy mansabdor shaxs orasidagi munosabatlarni tartibga soladi;

- harbiy xizmatchilar majburiyati, huquqi va mas'uliyatlarini belgilab beradi.

Harbiy huquqning asosiy negizi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Me'yoriy-huquqiy aktlar sifatida:

- Vatanga qasamyod;

- harbiy qurilishning turli sohalarini tartibga soluvchi qonunlar;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari sanaladi.

Harbiy huquqda harbiy nizomlar muhim ahamiyatga ega. Harbiy huquq me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudratini mustahkamlash, jangovar shaylik darajasini oshirish, mustahkam harbiy intizomni tutib turish, harbiy boshqaruvda qonunchilikka rioya etishni ta'minlash, harbiy xizmatchilar huquqlari va qonuniy manfaatlari rioya etilishiga yo'naltirilgan bo'lib, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy va siyosiy jihatlardan tarbiyalashga omil bo'ladi.

HARBIYCHA SALOMLASHISH – harbiycha hurmat va ehtirom ko'rsatish, harbiycha udum. Vujudga kelishi XIII asrga borib taqaladi. O'sha vaqtlardagi ritsarlarda jangga kirishish maqsadi bo'lmagan "Toza maydonda" uchrashganlarida metall dubulg'alarining yuzidagi pardani ochish odat edi. Keyinchalik pardali dubulg'alar temir kaskalarga almashtirilganida do'stona munosabatni ifodalovchi – qo'lni boshga yaqinlashtirish odati saqlanib qoldi. Keyinroq esa bu odat harbiy xizmatchilar uchrashganda harbiy odobning majburiy harakati sifatida harbiy nizomlarda belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiycha salom berish tartibi Ichki xizmat va Saf nizomlarida belgilangan. Barcha harbiy xizmatchilar bir-biriga harbiycha salom berishga majbur bo'lib, bunda

bo'ysunuvchi va unvoni kichiklar birinchi bo'lib salom beradi.

HIBSGA Olish – qo'lga olib majburiy ravishda qamoqda (gauptvaxtada) saqlab turish. Qat'iy ehtiyot chora sifatida qo'llaniladi. Ma'muriy huquqning ayrim turlarini buzganligi uchun sud qarori bilan qisqa muddatga ozodlikdan mahrum etilgan va jinoyat qilishda gumon qilingan shaxslarni vaqtincha ushlab turish.

HIMOYA VOSITALARI – jangchilar jangda foydalanadigan himoya vositalari. Qadimda sinar, dubulg'a, qalqon, sovut va boshqalar himoya vositalari hisoblangan. Otlar ustiga maxsus yopinchiq – bargustvon yopilgan, Birinchi Jahon urushidan boshlab po'lat kaska va shlemlar, kollektiv himoya vositasi sifatida to'p qalqoni, tank zirhlari va boshqalar qo'llaniladigan bo'ldi. Ba'zi zamonaviy armiyalarda po'lat, neylon va boshqa ko'krakpechlar mavjud.

HIMOYA KIYIMI – shaxsiy tarkibning shaxsiy himoya vositasi bo'lib, zaharlovchi va radioaktiv modda, zararli biologik vosita, raketa yonilg'isining komponentlari teri qoplamasi va kiyim-kechakka tushishidan himoya qilish uchun mo'ljallangan. Shu bilan birga himoya kiyimi, yadroviy portlash mobaynida hosil bo'ladigan yorug'lik nurlanishi bilan jarohatlanish darajasini ham zaiflashtiradi.

HISOBDA TURGAN TARKIB – harbiy qism hisobiga olingan va safarbarlik e'lon qilinganida butlash uchun ushbu qismga yuboriladigan harbiy xizmatga majbur fuqarolar.

HISOBOT XARITASI – hisobot-ma'lumot mazmunidagi jangovar hujjat. Hisobot xaritasida vaqtning muayyan davri uchun dushman va qo'shinlarimizning jangovar harakati grafik ko'rinishida, sanalar izchilligida aks ettiriladi. Qo'shinlarimizning jangovar tajribasini o'rganib chiqish, umumlashtirish, jangovar harakatlar haqida ma'lumotnoma va hisobotlar tuzish uchun mo'ljallangan bo'lib, tarixiy material ishlab chiqish mobaynida ham foydalaniladi.

Uzoq saqlash uchun hisobot xaritasining varaqlariga maxsus eritmalar bilan ishlov berish yoki suv qog'oz bilan qoplash mumkin.

HUDUDIY MUDOFAA – O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini muhofaza va mudofaa qilish, aholi, obyektlar va kommunikatsiyalarni dushman xurujlaridan, qo'poruvchilik va terrorchilik harakatlaridan himoya qilish, shuningdek, favqulodda holat rejimini saqlab turish maqsadlarida tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Hududiy mudofaani ta'minlashga jalb etiladigan kuchlarning vazifalari, hamkorlikdagi harakatlarining tashkil etilishi va tartibi qonun

hujjatlari bilan belgilanadi.

HUJUM – 1. Dushmanni tor-mor etish va joyning muhim hududlarini egallash maqsadida qo‘llaniladigan harbiy harakatlarning asosiy turi. Hujum mazmunan:

- dushmanni o‘t ochish bilan yakson etish;
- qo‘shinlarimizning keskin atakaga ko‘tarilib, dushman joylashgan sarhadlar ichkarisiga shiddat bilan olg‘a siljishi;
- dushmanning jonli kuchlarini yo‘q qilish yoki asirga olish;
- raqib quroli, harbiy texnikasi va egallab olgan joyining ko‘zlangan hudud va marralarini qo‘lga kiritishdan iborat. Alohida fizik-geografik sharoitda hujumni tashkil etish va yuritishning o‘ziga xos farqlanuvchi xususiyatlari mavjud.

2. Dushmanga maksimal talafot yetkazish maqsadlarida jangovar tartibga tizilgan tank bo‘linmalari va motoo‘qchi bo‘linmalarining tanklar va piyodalar jangovar mashinalariga, zirhli transportyorlarga o‘rnatilgan qurollardan, dushmanga yaqin borgan sari esa qurol-yarog‘larning barcha turlaridan qizg‘in o‘t ochish amallarini raqibga yaqinlashish harakatlari bilan uyg‘unlashtirgan tarzda to‘xtamasdan, shiddat bilan harakatlanishidan iboratdir.

Hujum harakatlarning eng dadil va hal qiluvchi davri sanaladi. Hujumda oldinga shiddatli harakat bilan birga kuchli o‘t ochib boriladi. Motoo‘qchi bo‘linmalar hujumi, tanklar va boshqa bo‘linmalar hujumi qo‘llaniladi.

3. Quruqlikdagi qo‘shinlarning qo‘poruvchi-razvedka guruhleri va dushman ortidagi partizanlar otryadining dushman aerodromlari, shtablari, kichik garnizonlari, omborlari va shu kabi obyektlariga daf‘atan uyushtirgan hujumi. Aviatsiya tomonidan havo hujumi, artilleriya tomonidan esa – olovli yog‘in amalga oshirilishi mumkin.

HUJUMKOR GURUH – alohida sharoitda, ayniqsa, aholi punktida jangovar harakat yuritish uchun mo‘ljallangan vaqtinchalik harbiy tuzilma.

HUJUM CHEGARALARI – harbiy qism tomonidan sarhadlarida hujum, manyovr va jangovar vazifalar bajarish bilan bog‘liq harakat yuritilayotgan joy chegaralari. Ikki tomoni joyda ko‘rinib turuvchi (joy burmalari kabi) obyektlar orqali o‘tuvchi cheklovchi chiziqlar bilan chegaralanadi. Yuqori pog‘onadagi komandir tomonidan belgilab beriladi.

HUSHYORLIK – e‘tiborni dushmanga susaytirmay qaratish. Mazmunan siyosiy vaziyatni anglab yetish, dushmanning niyatlarini o‘z vaqtida fahmlab olish, uning qo‘poruvchilik faoliyatiga qarshi faol choralar ko‘rish, davlat va harbiy ahamiyatga ega ma‘lumotlarni qattiq sir

tutishdan iborat.

Yuqori saviyadagi hushyorlikka rioya etish o'z muhitimizdagi zaif tomonlar va salbiy holatlarni bartaraf etilishini talab qiladi. Negaki hushyorlikning susaytirilishi, albatta, qo'shinlarning jangovar shaylik darajasini pasayishiga olib kelib, jangovar harakatlar jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazadi va yengilishiga sabab bo'ladi. Hushyorlik jangovar navbatchilik, sutkalik naryad va qorovul xizmatini o'tash mobaynida alohida ahamiyatga egadir. Qurolli Kuchlar jangchilarining yuqori saviyada hushyor bo'lishlari – Vatan xavfsizligining muhim kafolatidir.

I

IJTIMOIIY XAVF – xatti-harakatlar, jarayonlar, voqealar natijasida shaxs, jamiyat, davlat uchun jamiyat taraqqiyotining barqarorligi va xavfsizligini buzishga qodir bo'lgan salbiy oqibatlarining yuzaga kelishi.

IKKINCHI JAHON URUSHI – (1939-1945-yillar), xalqaro imperialistik reaksion kuchlar tomonidan tayyorlanib, tajovuzkor davlatlar – fashistlar Germaniyasi, fashistlar Italiyasi va militaristik Yaponiya tomonidan chiqarilgan urush.

Imperialistik davlatlarning ikki koalitsiyasi o'rtasidagi urush sifatida boshlangan. Keyinchalik fashistlar blokiga qarshi kurashuvchi barcha davlatlarning fashizmga qarshi adolatli urush tusini ola boshladi, bu ayniqsa sobiq Sovet Ittifoqi urushga kirgach, batamom oydinlashdi.

ILMIY FAOLIYAT (harbiy sohada) – obyektlar, hodisa (jarayonlar)ning xususiyatlari, o'ziga xosliklari va qonuniyatlarini aniqlash maqsadida borliqni o'rganish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanib, fundamental va amaliy tadqiqotlardan iboratdir.

ILG'OR OTRYAD – jangovar tartib elementi bo'lib, jang mobaynida vazifalarni mustaqil tarzda bajarish uchun ajratiladigan kuchaytirilgan tank (motoo'qchi yoki dengiz piyodalari) bo'linmasi. Ilg'or otryad:

– *hujumda* – dushmanning muhim obyektlarini qo'lga kiritish, chekinayotgan kuchlarini ta'qib etish, suv havzasini kechib o'tish kabi vazifalarni bajarish maqsadida dushman mudofaasini yorib o'tadi;

– *mudofaada* – jangovar ta'minot chegaralarida harakatlanish uchun tayinlanadi.

Ilg'or otryad harakatlari aviatsiya va artilleriya olovi bilan qo'llab -

quvvatlanadi.

INTIZOM – Kishilarning jamiyatda tarkib topgan huquq va axloq me'yorlariga, shuningdek, muayyan tashkilot talablariga javob beruvchi ma'lum xatti-harakatlari tartibi. Hukmron ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi va ularga xizmat qiladi.

INTIZOM VA JANGOVAR RUHNING YO'QOTILISHI – axloqiy inqiroz, odob, intizom va siyosiy-ma'naviy holatning tanazzuli.

Armiya shaxsiy tarkibining intizomi buzilib, jangovar ruhi yo'qotilgan hollarda urush mashaqqatlarini yengish qobiliyati va axloqiy-ruhiy sifatleri zaiflashadi. Zamonaviy urush sharoitida yadro quroli va katta talafot yetkazuvchi boshqa vositalar qo'llanilishi natijasida – qo'shinlar va mamlakat aholisi orasida tushkunlik kayfiyati hukm surishi mumkin.

INTIZOMIY AMALIYOT – Harbiy xizmatchilarni tarbiyalash va harbiy intizomni mustahkamlash maqsadida rag'batlantirish va ma'muriy javobgarlikka tortish choralarining armiyada vujudga kelgan tizimi.

Qonunlar va Nizomlarga rioya etishga asoslanadi, harbiy xizmatchilarning qadr-qimmatini hurmat qilish va ularga g'amxo'rlik ko'rsatish bilan uyg'unlashadi.

INTIZOMIY JAVOBGARLIK – harbiy xizmatchilarning harbiy intizom yoki jamoat tartibini buzganliklari uchun javobgarliklari.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilarni intizomiy javobgarlikka tortish Intizom Nizomiga muvofiq to'g'ridan to'g'ri boshliqlar, shuningdek, garnizonlar boshliqlari, harbiy komendantlari, tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limi boshliqlari tomonidan amalga oshiriladi.

INTIZOMIY TA'ZIR – tartibbuzar harbiy xizmatchi aybi va sodir etgan nojo'ya ishining og'irligiga muvofiq intizom va jamoat tartibini buzganligi uchun qurolli kuchlarda beriladigan ta'zir.

Intizomiy ta'zir turlari va belgilash tartibi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom Nizomida belgilab berilgan.

Xususiyatlariga ko'ra intizomiy ta'zir axloqiy-ma'naviy ta'sir o'tkazuvchi va mahrum etish va cheklashlar bilan bog'liq bo'lgan muayyan choralar bo'lishi mumkin. Masalan:

– axloqiy-ma'naviy ta'sir o'tkazuvchi intizomiy ta'zirlar – hayfsan, qattiq hayfsan, lavozimiga to'la loyiq emasligi to'g'risida ogohlantirish;

– mahrum etish va cheklashlar bilan bog'liq bo'lgan muayyan choralarga esa – qism hududidan tashqariga yoki kemadan qirg'oqqa navbatdagi qisqa ta'tilga chiqishdan mahrum etish, navbatdan tashqari

xizmat naryadiga tayinlash (qorovul, vaxta xizmatlari va jangovar navbatchilik bundan mustasno), harbiy unvonni bir pog'onaga pasaytirish, lavozimidan olib tashlab, past pog'onadagi lavozimga tayinlash, askar, serjant va kichik ofitserlarni 5 sutkagacha gauptvaxtada tutgan holda hibsga olish kabi choralar kiradi.

Harbiy intizom va jamoat tartibini buzgan tartibbuzar harbiy xizmatchilarga nisbatan jamoa hukmini chiqarish maqsadida komandir (boshliq) qarori bilan harbiy xizmatchining nojo'ya harakatlari tegishli majlisda muhokama etilishi va o'rtoqlik or-nomus sudida ko'rib chiqilishi mumkin.

ISSIQLIK NURLARI RAZVEDKASI – dushman obyektlarini taratayotgan issiqlik (infraqizil) nurlariga ko'ra maxsus teplolokatorlar yordamida fosh etish.

ISTE'FO – ofitser va serjantlar tarkibiga mansub shaxsning yoshi va sog'lig'iga ko'ra harbiy xizmat o'tashdan to'la ozod etilishi.

Haqiqiy harbiy xizmatdan bo'shatish turlaridan biri. Iste'foga bo'shatilganning harbiy unvoniga "Iste'fodagi" so'zi qo'shiladi (misol uchun, iste'fodagi polkovnik).

ITTIFOQCHI DAVLATLAR (tuzilmalar) – davlat bilan hamkorlik qiluvchi, tinchlik davrida harbiy xavfsizlik manfaatini amalga oshirish, ittifoq a'zolaridan biri yoki davlatga qarshi bevosita harbiy tajovuz uyushtirilgan hollarda o'zaro yordam berish borasida huquqiy majburiyatlar bilan bog'langan davlatlar ittifoqi va nodavlat harbiy tuzilmalar.

ICHKI TARTIB – harbiy xizmatchilarning me'yoriy maishiy hayot tarzi va ta'limotini ta'minlash uchun jangovar qism, bo'linma, kema, park, xizmat xonalari, shuningdek, markaz va lagerlarda umumqo'shin Nizom va yo'riqnomalar talablariga mos belgilangan va muntazam saqlab turiladigan armiyadagi hayot me'yori.

Qismning, bo'linmaning ichki tartibini saqlab turish va qo'shinlar xizmati bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarish uchun sutkalik naryad, vzvodlardagi ichki tartibni saqlab turish uchun vzvod bo'yicha navbatchi va posbonlar tayinlanadi.

ICHKI XIZMAT – harbiy qismning doimiy jangovar shayligini saqlab borish, shaxsiy tarkib ta'limotini ta'minlash, harbiy xizmat o'tashning xavfsiz shart-sharoitlarini yaratish, kundalik maishiy xizmatni tashkillashtirish, harbiy xizmatchilarning sog'ligini saqlash hamda kundalik faoliyat davomida hal etiladigan boshqa vazifalar ijrosini

ta'minlashga qaratilgan ichki tartib va harbiy intizomni muntazam saqlab borish uchun mo'ljallangan, harbiy qism, kema, shtab, boshqarma va muassasada joriy etilgan kundalik faoliyat. Qo'shinlar xizmatining tarkibiy qismi.

Ichki xizmat O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga so'zsiz amal qilgan holda O'R / QK Ichki xizmat Nizomiga muvofiq tashkillashtiriladi.

Ichki xizmat va harbiy xizmat xavfsizligini ta'minlash tadbirlariga harbiy qism miqyosida harbiy qism komandiri, muayyan bo'linma qarorgohida esa – tegishli bo'linma komandiri rahbarlik qiladi. Bunday xizmat harbiy xizmat xavfsizligini ta'minlashning eng muhim yo'nalishi sanaladi. Ichki xizmatning asosiy vazifasi vaqt va moddiy vositalardan unumli foydalanish, majburiyatlarni aniq bajarishidir. Harbiy xizmatchilardan axloq me'yori va o'zini tutish madaniyatiga muntazam rioya etish, jamoat tartibini saqlashga yordam berish, zarurat tug'ilganda fuqarolarga ko'maklashishning talab etilishi ichki xizmatning qurolli kuchlardagi o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

ICHKI QO'SHINLAR – ayrim davlatlarning Ichki ishlar vazirligiga mansub qo'shinlari. Vazifasiga: fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, obyektlarni qo'riqlash va boshqa jangovar-xizmat vazifalarini bajarish, urush davrida esa front va armiyalar ortini muhofaza etish, ozod etilgan shaharlarda garnizon xizmatini o'tash, dushman ayg'oqchilarini zararsizlantirish tadbirlarida ishtirok etish kiradi.

Ichki qo'shinlarning tashkillanishi, faoliyati, boshqaruv tizimi, shaxsiy tarkib ta'minoti va tarbiyasi harbiy qurilish tamoyillariga asoslanadi. Ichki qo'shinlarning harbiy xizmati va jangovar tayyorgarligi tegishli davlat qonunlari va Ichki ishlar vazirligi nizom va qo'llanmalari bilan tartibga solinadi. Qo'shinlarning butlanishi navbatdagi chaqiriq mavsumida va shartnoma bo'yicha xizmat qilish istagini bildirganlar hisobiga amalga oshiriladi.

J

JADAL HARAKAT – biron-bir faoliyatning sur'ati yoki qizg'inligini kuchaytirish, tezlashtirish. Harbiy san'atda ushbu tushuncha, odatda, qo'shinlarning tabiiy to'siqni jang bilan oshib o'tishini, aksariyat hollarda suv havzasini suzib o'tishini anglatadi.

JAZO – bo'ysunmaslik yoki nomaqbul va axloqan noto'g'ri bo'lgan xulq va harakatlar uchun insonga yoki insonlar guruhiga nisbatan huquqiy yoki huquqiy bo'lmagan, yoqimsiz va istalmagan choralar qo'llash.

Jazo shaxsda jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor va ijtimoiy harakatlar modelini shakllantirish uchun qo'llanilishi mumkin.

Huquqda jinoiy jazo (jinoiyat sodir etganlik uchun sudlar tomonidan qo'llaniladi), ma'muriy jazo (ma'muriy qilmishlar uchun sudlar va ijro hokimiyati organlari tomonidan qo'llaniladi) va intizomiy jazo (ish joyida yoki xizmat mobaynida sodir etilgan intizomiy qilmishlar uchun boshliqlar tomonidan qo'llaniladi) kabi jazo turlari mavjud.

Harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladigan jazolar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Intizom Nizomi bilan tartibga solinadi.

JAZO BATALYONI – ayrim davlatlarda harbiy xizmatchilarning urush davrida sodir etgan jinoiy va harbiy jinoyatlari uchun jazo o'tashlariga mo'ljallangan alohida harbiy tuzilma. Mazkur batalyondan jangovar harakatning eng xavfli yo'nalishida foydalaniladi.

JALOLIDDIN MANGUBERDI – to'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad (1198-1231). Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori, mohir sarkarda. Vatan ozodligi yo'lida 11 yil davomida mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurash olib borgan xalq qahramoni. O'zbekiston hukumati Jaloliddin Manguberdining mislsiz jasorati, Vatanga va o'z xalqiga sadoqati va cheksiz muhabbatini qadrlab, uning porloq xotirasini abadiylashtirish maqsadida Xorazmda unga haykal o'rnatdi. Yirik ko'cha, maydon, jamoa korxonalariga uning nomi qo'yildi. 2000-yil 30-avgustda "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'sis etildi.

JAMIYAT XAVFSIZLIGI – jamiyatni parchalanishga olib keluvchi harakatlarga qarshi turish, aholining barcha guruhlari o'z huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlar yig'indisi. Jamiyat xavfsizligi bu shart-sharoitlarini himoyalovchi va kafolatlovchi ijtimoiy institutlar, huquq normalari, ijtimoiy ongning rivojlangan shakllarining mavjud bo'lishini nazarda tutadi.

JANG – 1) qo'shilma, harbiy qism va bo'linmalarning qisqa muddatda, cheklangan sarhadlarda dushmanni tor-mor etish, muhim hudud va marralarni egallash yoki qo'lda tutib qolish kabi boshqa taktik vazifalarni bajarishlari uchun maqsadi, o'tkaziladigan joyi va vaqti bo'yicha muvofiqlashtirilgan zarbalari, o't ochishi va bajaradigan manyovri. Qo'shinlar, aviatsiya va flot kuchlari tomonidan amalga oshiriladigan taktik harakatlarning asosiy shakli. Muhoraba; 2) jangovar

operatsiya yoki uning alohida bosqichidagi maqsadga erishish uchun umumiy g'oya bilan uyg'unlashgan, qo'shilma va birlashmalar tomonidan beriladigan zarba va o'tkaziladigan janglar majmui.

Jang misoliga umumqo'shin jangi; tanklar jangi; uchish apparatlarining havodagi jangi; havo hujumiga qarshi jang; dengizdagi kemalar janglarini keltirish mumkin.

Jangovar harakatning maqsad va turiga ko'ra hujum va mudofaa jangiga bo'linadi. Jang tomonlarning uzil-kesil harakatlari, qo'shinlarning katta ko'lami, tirishqoqligi va rivoji bilan xarakterlanadi. Janglar yirik operatsiya, qurshovga olish, hujum yoki mudofaa janglarining bir qismi bo'lishi mumkin.

Jang qadimdan o'qotar qurol ixtiro qilingunga qadar sovuq qurol bilan qurollangan jangchilarning qo'l jangi ko'rinishini kasb etgan edi. O'qotar qurolning XIV – XVII asrlarda taraqqiy topib takomillashi bilan olov tobora jangning muhim tarkibiy qismiga aylana bordi. Qurolning kelgusida tezotarliligi, otish masofasining uzoqlashishi va aniq otish xususiyati ortishi yuritiladigan janglar maydonining kengayib borishiga sabab bo'ldi.

Qo'shinlarning Birinchi Jahon urushida pulemyotlar va artilleriya qurollari bilan ommaviy tarzda qurollantirilishi, tanklar va aviatsiyaning qo'llanilishi, jang maydonidagi muvaffaqiyat faqat yalpi qo'shin turlari harakatlarining muvofiqlashtiriluviga bilangina qozonilishi mumkinligini ko'rsatdi. XX asrning 30-yillar harbiy fanida *ichkari kiruvchi jang* nazariyasi ishlab chiqilib, umumqo'shin jangning xususiyatlari teran rivojlandi va bu xususiyatlar Ikkinchi Jahon urushi yillarida yanada takomillashdi. Qator davlatlar ushbu asrning 50-yillarida yadro quroli va raketalar bilan qurollanishi umumqo'shin jangi xususiyatlarini sezilarli darajada o'zgartirib yubordi.

Zamonaviy umumqo'shin jangning asosiy xususiyatlari (manyovrchanligi va shiddati bilan bir qatorda) vaziyatning tez va keskin o'zgarishi, jang fronti va sarhadlarining chuqurligi, bir maromda o'zgarmasligi, jang yuritilish usullarining turli-tumanligi, shaxsiy tarkibning jismonan va axloqiy-ruhiy jihatdan kuchli zo'riqishi, jonli kuch va qurol-yarog' bo'yicha katta talafotlar ko'rilishidan iborat. Jang yuritish uchun qo'shilma, harbiy qism va bo'linmalar jangovar tartibga yoyiladilar. Zamonaviy jangning muvaffaqiyatli yuritilishida:

– kuch va vositalarning bir yerga to'planib, dushmanga hujum qilishi va ularning chambarchas hamkorligi;

– dushmanni uning yalpi jangovar tartibi bo'yicha yo'q qilinishi;

- qo‘shinlarimizning bo‘lib-bo‘lib joylashtirilishi;
- dushmanning yadroviy kuch va vositalariga qarshi muttasil kurash olib borilishi;

- jangovar harakatlarning har tomonlama ta‘minlanishi hal etuvchi ahamiyatga egadir.

Jang shaxsiy tarkibning barcha toifalaridan barqaror, tashabbuskor, intizomli bo‘lishni, komandirlardan esa qo‘shinlarni mohirona boshqarishni talab etadi.

Dasht, cho‘l, tog‘ kabi alohida sharoitlar jangni tayyorlash va yuritishning o‘ziga xos xususiyatlarini taqozo etadi.

Yaqin jang – mudofaa istehkomlaridagi dushmanni yo‘q qilish, jangovar harakatlarni tunda, o‘rmonda, aholi punktlarida yuritish mobaynida ko‘proq motoo‘qchi, tank va havo-desant bo‘linmalariga xosdir. Aviatsiyada yaqin jang yuritish uchun mo‘ljallangan qurol-yarog‘lar (pulemyot va zambaraklar) qo‘llaniladi.

Zamonaviy rasmiy hujjatlarda “Yaqin jang” atamasi qo‘llanilmaydi.

Shahar ko‘chalaridagi jang – jangovar harakatning alohida janggohlarga bo‘linib ketishi, qo‘shinni markazlashgan tarzda boshqarish amallarining murakkabligi, hujumkor ishg‘ol etuvchi guruhlarining keng ko‘lamda qo‘llanilishi, manyovr o‘tkazilishining qiyinligi, katta vayronalik, yong‘in va uyumlarning vujudga kelishi bilan xususiyatlanadi. Mazkur jangda asosiy kuch muhim tayanch punktlari, alohida bino, ko‘prik kabi inshootlarni zabt etish va qo‘lda tutib qolishga safarbar etiladi.

Qurshovdagi jang – dushman qo‘shinlarimiz atrofida qurshov frontini barpo etishga muvaffaq bo‘lgan sharoitda yuritiladi. Qurshovdagi jang:

- *mudofaada* – dushmanning mudofaadagi qo‘shinlarimiz ortiga havo desanti tushirganidan so‘ng qanotlarimiz yoki chegaradosh harbiy qismlar marasidan yorib o‘tishi oqibatida;

- *chekinganda* – dushmanning ilgari sur‘ati chekinayotgan qo‘shin harakati sur‘atidan yuqori bo‘lganida;

- *hujumda* – bo‘linma, qism va qo‘shilmalarning asosiy kuchlardan uzoqda harakatlanib, dushman bilan to‘qnash jangi muvaffaqiyatsiz o‘tkazilganida yuz berishi mumkin.

Komandirlarning matonati, tashabbuskorligi va qat‘iyatligi, qo‘shinlarning barqarorligi va qat‘iy turishi, harakatlar daf‘atan va faol o‘tkazilishi, bo‘linmalar olovi, kuch va vositalari bilan mohirona manyovr

o'tkazish amallari qurshovdagi jang xotimasining hal etuvchi ahamiyatiga ega.

Qo'l jangi – urushayotgan tomonlar bir-birini, odatda, sovuq qurol bilan yengish uchun yuritiladigan jang. O'qli qurollar ham qo'llaniladi.

XVIII-XIX asrlarda o'tgan urushlarning qo'l janglarida, asosan, miltiq nayzasi va qo'ndog'i qo'llanilgan, qo'l jangi esa, xususan, nayzalar jangiga tenglashtirilgan edi. Zamonaviy sharoitda qo'l jangi aholi punktida, tunda, transheyada (yurish yo'lagida) jang yuritilganida, razvedka-qidiruv amallari davomida va shu kabi holatlarda yuz berishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarning jasurligi, qat'iyatligi, zukkoligi, harakatlarining chaqqonligi, shaxsiy quroldan mohirona foydalanishi, yaxshi jismoniy tayyorgarligi va bir-biriga yordam berishi qo'l jangi davomida hal etuvchi ahamiyatga egadir.

Dushman harakatini to'xtatuvchi jang – chekinayotgan qo'shilma (harbiy qism, bo'linma) tomonidan qo'lda tutib turilgan marralarimizni dushman o'z harakati davomida yorib o'tishiga yo'l qo'ymaslik va unga maksimal talafot yetkazish maqsadida yuritiladi. Ayni paytda davomli jang boshlash tavsiya etilmaydi. Belgilangan vaqtda yuqori pog'onadagi boshliq tomonidan navbatdagi marrani qo'lda tutib turish maqsadga muvofiq emas deb topilganida keyingi marraga chekinishga komanda beriladi.

Tanklar jangi – urushayotgan tomonlarning tankchi bo'linmalari, harbiy qismlari va qo'shilmalarining to'qnashuvi. Odatda, HHM vositalarining himoyasi ostida artilleriya va aviatsiyaning madadi bilan yuritiladi. Umumqo'shin jangning tarkibiy qismi.

Tanklar jangi hujumda, to'qnash jangida (muhoraba davomida) va mudofaada yuz berishi mumkin. Tanklar jangida dushmanni o't ochish bilan ishonchli yo'q qilish, olov va harakatni uyg'unlashtirish, mudofaada daf'atan o't ochish, qat'iy manyovr, faol va uzil-kesil harakatlar yuritish bilangina muvaffaqiyat qozonish mumkin.

Harbiy xizmatchilarning biror-bir harakatini, ya'ni mashq, o't ochish, manyovr kabi harakatlarini to'xtatish uchun "Jang yoki mashq tamom" buyrug'i beriladi. Mazkur buyruq ovoz, gorn, baraban, telefon, radio, sirena, signal raketasi, bayroqcha orqali va boshqa usullar bilan uzatilishi mumkin.

JANGDAN CHIQISH – kuchlarni dushman va uning zarbalaridan chetga olish yoki boshqa yo'nalishga harakatlantirish maqsadida

uzoqlashtirish.

Katta boshliq buyrug'iga binoan, asosan, tungi vaqtda, maxsus ajratilgan kuch, olovli devor, tutun va minalar himoyasi ostida amalga oshiriladi. Jangdan chiqayotganlarni himoya qilish uchun alohida bo'linma ajratiladi. Mazkur bo'linma egallangan marrani belgilangan vaqt o'tganiga yoki chekinishga buyruq olganiga qadar qo'ldan bermay turadi.

JANG MAYDONI – jang bo'ladigan joy. Bu ma'no o'tmishda janggoh, ma'arakagoh, dorul-harb kabi istilohlar bilan ham ifodalangan. O'rta asrlarda jang maydonini tanlashga (unda to'siq va pana joylar bo'lishiga) sarkardalar tomonidan alohida e'tibor berilgan. Janggohning tekis, keng va qo'shin qismlarini joylashtirishga qulay bo'lishi talab qilingan. Janggohni tanlash maxsus harbiy mansabdor zimmasida bo'lgan.

JANGNI REJALASHTIRISH – qo'shinlar oldiga qo'yilgan vazifalar ijrosining mazmuni va izchilligini batafsil ishlab chiqish, hamkorlik, ta'minot va boshqaruvning tashkil etilishiga ko'ra ushbu qo'shinlar kuchini kelgusi harakatlar yo'nalishlari bo'yicha taqsimlash. Jangni tayyorlash tadbirlarining tarkibiy qismi.

Jangni rejalashtirish amallari qo'mondon, komandir boshchiligida, uning jangga qabul qilgan qarori, shuningdek, yuqori pog'onadagi qo'mondon va shtab ko'rsatmalariga asosan tegishli shtab tomonidan amalga oshiriladi.

Jangni rejalashtirishda tarbiyaviy ishlar organi boshliqlari, qo'shinlar turi, maxsus qo'shin va xizmat turlari qo'mondonlari, boshliqlari ishtirok etadilar.

Jangni rejalashtirish amallarini sir tutish maqsadida ushbu tadbirga tegishli shaxslarning tor doirasi jalb etiladi.

Jangni rejalashtirish amallari ketma-ket yoki parallel yoxud ushbu usullar uyg'unlashtirilgan tarzda bajariladi.

Ketma-ket usul qo'llanilganida bo'ysunuvchi shtablar bo'lg'usi operatsiya tayyorgarlik ishlariga faqat ushbu amallar yuqori shtab tomonidan nihoyasiga yetkazilganidan so'nggina kirishadilar.

Parallel usulda jangni rejalashtirish amallarini katta boshliq qaror qabul qilib, bo'ysunuvchilar oldiga vazifa qo'yganidan so'ng, jangni tayyorlash muddati cheklangan vaqtda esa katta boshliq tomonidan operatsiya g'oyasi ishlab chiqilgach, oldindan berilgan jangovar ko'rsatmalarga asoslangan holda o'tkaziladi.

Jangni rejalashtirish muddatining qisqartirilishi va sifatining oshirilishiga ofitserlarning yuksak saviyadagi tayyorgarligi, shtablar

faoliyatining hamkorligi, hisoblash texnikasi va mexanizatsiya vositalarini tegishli jarayonlarga joriy etish bilan erishiladi.

Jangni rejalashtirish natijalari *jang rejasida* aks ettiriladi.

JANGOVAR AVIATSIYA – bevosita jangovar vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan aviatsiya qo‘shilma, qism va bo‘linmalari. Jangovar aviatsiya tarkibiga qiruvchi-bombardimonchi, hujumchi, bombardimonchi, qiruvchi kabi aviatsiya turlari kiradi.

JANGOVAR ALMASHINUV – qo‘mondonlik punktlari va jangovar postlarda Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibining (kemada – ekipajning) jangovar navbatchilik (vaxta) xizmatini o‘tayotgan qismi.

Kema shaxsiy tarkibining barchasi, odatda, uchta jangovar almashinuvga taqsimlanadi.

JANGOVAR AN‘ANALAR – harbiy xizmatchilarning xulq-atvori va harakatlarida jangovar vazifalarni namunali bajarish va harbiy xizmat o‘tash bilan bog‘liq masalalar borasida tarixan yuzaga kelgan, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan armiyadagi qoida, odat va me‘yorlar. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari jangchilarining eng muhim jangovar an‘analari:

- Vatanga muhabbat;
- harbiy burchga va Vatanga qasamyodga sodiqlik;
- askariy o‘rtoqlik;
- o‘z kuchi va Vatanimiz dushmanlari ustidan g‘alaba qozonishga bo‘lgan ishonch;
- ona yurtni himoya etishga doimiy shaylik;
- harbiy mahoratni takomillashtirish va harbiy intizomni mustahkamlab borishga muttasil intilishdir.

Qurolli Kuchlar hayotida o‘rin egallagan umumiy jangovar an‘analar bilan bir qatorda Qurolli Kuchlar va qo‘shinlar turiga mansub, shuningdek, qism va qo‘shilma tarixi bilan bog‘liq an‘analar ham mavjuddir.

JANGOVAR ASLAHA TA‘MINOTI – qo‘shinlarni qurol-aslahaga va o‘q-dori bilan ta‘minlash turlaridan biri. Qo‘shinlarni jangovar aslahaga bilan ta‘minlash amallari batalyonlarda va vzvodlarda tashkil etiladigan jangovar aslahaga ta‘minoti punktlari tizimi orqali, ba‘zan esa bevosita okrug omborxonalarini orqali bajariladi. Motoo‘qchi guruh va seksiyalarida o‘q-dori keltiruvchilar tayinlanadi.

JANGOVAR AXBOROT POSTI – harbiy-dengiz flotining suvusti, suvusti kemalaridagi yoxud qirg‘oq mudofaasi qismlaridagi jangovar post.

Havo, suvusti va suvostidagi vaziyat va ushbu vaziyatning o‘zgarishi

borasidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil etish va umumlashtirish bilan mashg'ul bo'ladi. Turli texnik vositalar bilan ta'minlangan jangovar axborot posti harbiy-dengiz floti kemasi, birlashmasi, qo'shilmasi boshqariluvini ta'minlovchi – yetakchi jangovar postdir.

JANGOVAR BAYROQ – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qismining Jangovar Bayrog'i harbiy sharaf, matonat va shon-shuhrat ramzidir.

Jangovar Bayroq ikki tomonlama mato, dasta va popukli bog'ichdan tarkib topadi. Jangovar Bayroq asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i olingan. Matoning yuz qismidagi oq yo'lida zar ipak bilan "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI" deb yozilgan. Matoning orqa tomonidagi oq yo'lida harbiy qismning raqami va nomlanishi zar ipak bilan tikib yozilgan.

Jangovar Bayroq harbiy qismga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan Mudofaa vazirligi vakillari tomonidan harbiy qism tuzilishi bilan topshiriladi.

Jangovar Bayroq har doim o'z harbiy qismi bilan, jang mobaynida esa qismning jangovar harakatlar yuritayotgan hududida bo'ladi.

Jangovar Bayroq yo'qotilgudek bo'lsa, harbiy qism komandiri va bunday sharmandalikka bevosita aybdor bo'lgan harbiy xizmatchilar harbiy sud oldida javobgarlikka tortiladilar. Harbiy qism esa tugatiladi.

JANGOVAR BUYRUQ – qo'shinlarga, flot kuchlariga, jangga, tadbir o'tkazishga kirishish uchun jangovar vazifalarni yetkazish shakli, qo'shinlarni, flot kuchlarini boshqarish borasidagi jangovar hujjatlarning asosiy turi. Jangovar buyruqda quyidagilar ko'rsatiladi:

- o'z bo'linmasi harakatlanayotgan hududdagi dushman guruhi va uning ehtimoliy harakatlari xususiyatlariga berilgan bahodan chiqarilgan qisqa xulosalar;

- bo'lajak harakatlar hududida katta boshliq boshqaradigan dushmanga shikast yetkazuvchi vositalarning vazifalari va qo'llanilish tartibi;

- o'z bo'linmasining vazifalari, komandir harakatlarining g'oyasi va h.k.

Bo'linma komandiri jangovar buyruqni, odatda, tegishli joyda og'zaki beradi.

Okruglarda jangovar buyruq yozma ko'rinishda, qo'shilmaning, qismning jangovar vazifalarni bajarishga tayyorgarlik ko'rishini ta'minlovchi muddatda yetkaziladi.

JANGOVAR VAZIFA – yuqori pog‘onadagi komandir, qo‘mondon tomonidan bo‘linma, qism va qo‘shilma oldiga jangda, operatsiyada o‘rnatilgan muddatda muayyan maqsadga erishish uchun qo‘yilgan vazifa.

Jangovar vazifaning mazmuni va ijro usullari harbiy qism yoki qo‘shilmaning belgilangan vazifasi, miqdoriy ko‘rsatkichlari, qo‘shinlarimiz va dushmanning jangovar qobiliyati, shuningdek, vaziyatning boshqa sharoitiga bog‘liq. Qo‘shilma, qism komandirlariga jangovar vazifa og‘zaki yetkazilishi mumkin bo‘lib, u, albatta, yozma tarzda tasdiqlanishi lozim.

JANGOVAR VAZIYAT – muayyan joyda ma‘lum davrda jangovar harakatlarga ta‘sir ko‘rsatadigan omillar va shart-sharoitlar majmui. Jangovar vaziyat dushman kuchlarining holati, o‘z qo‘shinlarimizning holati, ta‘minlanish darajasi, jangovar imkoniyatlari va qo‘shin qismlarining holati, radiatsiyali, kimyoviy va bakteriologik (biologik) vaziyatning xususiyati; yer sharoiti, joy – rayonning iqtisodi, mahalliy aholining ijtimoiy-siyosiy tarkibi va kayfiyati; meterologik va iqlimga oid ma‘lumotlar, jangovar vazifa bajarilishi lozim bo‘lgan muddat va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Jangovar vaziyat barcha turdagi razvedka ma‘lumotlari, kichik komandirlarning hisobotlari, qo‘mondon, shtab axboroti, asirlarni va dushman tomonidan qochib o‘tganlarni so‘roq qilish va boshqalarga qarab belgilanadi.

JANGOVAR VA MIQDORIY TARKIB – bo‘linma, qism, qo‘shilma, birlashma, qo‘shinlar, kuchlar turlari va yalpi qurolli kuchlarning tarkibi.

Ularda mavjud bo‘linmalar, qism, qo‘shilma va birlashmalar sonini, shaxsiy tarkib, qurol-aslaha va harbiy texnika miqdorini aks ettiradi. Tinchlik va urush davrlarining muayyan sanasiga belgilanadi. Shtat va ro‘yxat bo‘yicha va haqiqatda mavjud safdagi tarkiblarga bo‘linadi.

Qo‘shilmalar, qo‘shin va qurolli kuchlar turining jangovar va miqdoriy tarkibi muntazam emas. Ushbu tarkib davlatning siyosiy maqsadi, iqtisodiy va harbiy qudrati, ehtimoliy dushman qo‘shinlarining jangovar va miqdoriy tarkibi kabi boshqa omillarga bog‘liq holda o‘zgarib boradi.

JANGOVAR VARAQA – shaxsiy tarkibni qo‘yilgan vazifalarni bajarishga safarbar etish va unga tezkor axborot berish uchun mo‘ljallangan nashriy tashviqot shakllaridan biri. Urush davrida jangovar varaqadan jangchilar bilan siyosiy ishlar olib borish uchun foydalaniladi.

Jangovar harakat sharoitida jangovar varaqalar frontda va front ortida ro'yi berayotgan hodisalardan xabardor qilish hamda shaxsiy tarkibni jangovar vazifalarni bajarish uchun safarbar etishga imkon yaratadi. Tinchlik davrida jangovar varaqalarni nashr etish faoliyati taktik mashg'ulot va mashqlar davomida, jangovar o't ochish mashg'ulotlari jarayonida, jangovar navbatchilik va qorovul xizmatini o'tash mobaynida hamda boshqa vazifalar bajarilayotganida qo'llaniladi.

Jangovar varaqa guruh, vzwod, batareya va kemalarda nashr etiladi. Jangovar varaqa muharriri bo'linmaning umumiy majlisida ochiq ovoz bilan saylanadi. Jangovar varaqa ba'zan devoriy gazetaning tahrir hay'ati tomonidan ham chop etiladi.

JANGOVAR VERTOLYOTLAR – havodagi muallaq holatini saqlab turishi uchun, asosan, yetakchi havo vintining ko'tarish kuchidan, shuningdek, konstruksiya elementlarining olg'a ilgarilovchi harakati mobaynida ushbu elementlarga ta'sir ko'rsatuvchi aerodinamik kuchlardan foydalanuvchi, bortidagi ekipaj tomonidan boshqariladigan uchish apparatlaridir.

Qurolli Kuchlar turiga mansubligiga ko'ra Harbiy-havo kuchlari, Quruqlikdagi qo'shinlar, Chegara qo'shinlari va Harbiy-dengiz flotiga mansub vertolyotlar bo'ladi.

Harbiy-havo kuchlari va Quruqlikdagi qo'shnlarga mansub vertolyotlarning asosiy qurol-aslahalari jumlasiga tankka qarshi boshqariladigan reaktiv raketalar, snaryadlar, granatomyotlar, zambaraklar, pulemyotlar va boshqarilmaydigan reaktiv snaryadlar kiradi. Ushbu qurol-aslahalar jangovar vertolyotlarning taktik sarhadlarda mavjud tanklar, yengil zirhlangan texnika va jonli kuchga qarshi samarali qo'llanilishini ta'minlaydi.

JANGOVAR ZAHARLOVCHI MODDALAR – zaharli kimyoviy birikmalar bo'lib, jangovar jihatdan qo'llanilganida dushmanning jonli kuchiga ommaviy qirg'in keltiradi. Ular kimyoviy qurolning asosini tashkil etadi.

JANGOVAR IMKONIYATLAR – bo'linma va qismlarning o'quv-jangovar vazifalarni bajarishga, urush davrida – jangovar harakatlarni yuritishga tayyorlikning umumiy saviyasini tavsiflab beruvchi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari. Jangovar imkoniyatlar shaxsiy tarkib, texnika va qurol-aslahaning shtatdagi soni, harbiy xizmatchilarning tayyorgarligi, hayoti va jang yuritishi uchun zarur bo'lgan barcha vositalar bilan uzluksiz ta'minlanishi, uddaburonlik va qat'iy boshqaruv bilan belgilanadi. Qurolli

kuchlar va qo'shin turlarining jangovar imkoniyatlarini belgilovchi o'ziga xos talab va shartlari mavjud.

Aviatsiyaning jangovar imkoniyatlari – dushmanga, ob-havoning turli sharoiti va sutkaning har qanday vaqtida, quruqlik, havo va dengizda yetkazadigan talafot miqyosi bilan o'lchanadi.

Havo desant qo'shinlarining jangovar imkoniyatlari – Havo desant qo'shinlari qo'shilmasi va qismlarining desantlanish sarhadlari, dushman ortidagi obyektlarni egallash, yakson etish yoki qo'lda tutib turish qobiliyatiga ko'ra tavsiflanadi.

Havo hujumidan mudofaa qo'shinlarining jangovar imkoniyatlari – Zenit-raketa qo'shinlari, Zenit-raketa artilleriyasi, Qiruvchi aviatsiya va Radiotexnika qo'shinlarining hamkor qo'llanilgan jangovar imkoniyatlari yig'indisidan kelib chiqib ta'minlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Raketa qo'shinlarining jangovar imkoniyatlari – shikast yetkazilishi lozim bo'lgan obyektlar soni va yetkaziladigan talafot darajasi, dushmanga shikast yetkazish uchun sarflanadigan o'q-dorilar soni va sarhadlari bilan tavsiflanadi.

Quruqlikdagi qo'shinlarning jangovar imkoniyatlari – tor-mor etilishi lozim bo'lgan dushman guruhlarining kattaligi, hujum jarayonida yeta oladigan sarhadlar va ilgarilash sur'ati kabi omillar bilan tavsiflanadi.

JANGOVAR KOMPLEKT – o'q-dorilarning bitta qurolga: avtomat, pistolet, pulemyot, minomyot, to'p va shu kabilarga yoki jangovar mashinaga: o't ochish qurilmasi, zirhli transportyor, tank, samolyot va shu kabilarga berilgan miqdori.

Jangovar vazifani bajarish uchun qo'shinlarning o'q-doriga bo'lgan ehtiyojini belgilash mobaynida hisob-ta'minot birligi sifatida xizmat qiladi. Bo'linma, qism, kema va qo'shilmaning jangovar komplekti, o'z ichiga o'q-dorilarning barcha mavjud qurollar uchun umumlashgan miqdorini qamrab oladi.

JANGOVAR KURS – samolyot, vertolyotlar zarba berish maqsadida nishonga qarab chiqish kursi.

Jangovar kurs nishon mudofaasining holati, ob-havo sharoiti, joy relyefi va shu kabilar hisobga olingan tarzda, jangovar vazifani bajarishga tayyorgarlik ko'rish mobaynida, oldindan hisoblab chiqiladi va nishonga olish jarayonida unga qat'iy rioya qilinadi. Jangovar kurs masofasi samolyotlarning turli rusumlari uchun turlichadir.

JANGOVAR MARRA – okop, blindaj va shu kabi inshootlar bilan

jihozlangan, harbiy qism va bo'linmalar tomonidan jangovar vazifani bajarish uchun mo'ljallangan – joy hududi.

JANGOVAR MASHINALAR – qurol-yarog', aloqa va razvedka vositalari o'rnatilgan g'ildirakli yoki zanjirli mashinalar. Jang yuritish, jangovar harakatlarni ta'minlash va qo'shnlarni tashish uchun mo'ljallangan. Zirhli-tank texnikasiga mansub jangovar mashinalarga – tank, piyodalar jangovar mashinasi, zirhli transportyor, zirhlangan razvedka mashinalari kiradi.

Artilleriyaning jangovar mashinalari turkumiga – o'zi yurar to'p va minomyotlar, tankka qarshi o'zi yurar va ko'p stvolli reaktiv qurilmalar kiradi.

Havo hujumidan mudofaa qo'shinlarining jangovar mashinalariga zenit-raketa komplekslarining uchirish qurilmalari, zenit-artilleriya qurilmalari, zenit-pulemyot qurilmalari kiradi.

Raketa qo'shinlarining jangovar mashinalariga "yerdan yerga" sinfiga mansub raketalarni tashuvchi, zanjirli yoki g'ildirakli shassisiga o'rnatilgan uchirish qurilmalari kiradi.

JANGOVAR MA'LUMOT – jangovar vazifa bajarilayotgan jarayon haqidagi hisobot-ma'lumotli hujjat. Jangovar ma'lumotda, odatda, quyidagilar bayon etiladi:

- jangovar harakat natijalari, qo'shinlarimizning muayyan vaqtdagi joylashuvi va holati;

- dushman kuchining tarkibi, joylashuvi va olib borayotgan harakatlari;

- jangni kelgusida qay tarzda yuritish borasidagi qaror.

Jangovar ma'lumotlar shoshilinch, oddiy va yakuniy bo'ladi. Jangovar ma'lumot oldiga qo'yiladigan muhim talablar – obyektivlik, aniqlik va lo'ndalikdir. Ularni taqdim etish muddati va tartibi jangovar nizomlarda belgilanadi.

JANGOVAR MUSTAQILLIK – komandirning jang davomidagi, shtabning qo'shnlarni boshqarish jarayonidagi tashabbuskor va zukko harakatlari. Jangovar mustaqillik sustlik va sarosimaga tushib qolishga yo'l qo'ymaydi.

JANGOVAR NAVBATCHILIK – maxsus ajratilgan kuch va vositalarning daf'atan yuzaga keladigan masalalarni (yerdan yoki havoda chegaraning buzilishi, qo'poruvchilar hujumi va h.k.) zudlik bilan hal etish yoki jangovar harakatlar yuritish uchun jangovar shaylikni yuqori darajada tutib turilishi.

Havo hujumidan Mudofaa qo'shinlari hamda Harbiy-havo kuchlari bo'linmalarida urush va tinchlik davrlarida tashkil etiladi. Jangovar navbatchilikni o'tash, jangovar qurolni qo'llash tartiblari tegishli yo'riqnomalarda (ko'rsatmalarda) belgilab beriladi.

JANGOVAR NIZOM – qo'shin, aviatsiya va flot kuchlarining jangovar harakatlarni tayyorlash va yuritish borasidagi asosiy qoidalarini belgilab beruvchi amal qilinadigan rasmiy hujjat.

Jangovar Nizom muayyan qo'shin yoki qurolli kuchlarning aniq bir turiga mansub bo'lishi mumkin. Aksariyat davlatlarning zamonaviy jangovar nizomlarida jangovar harakatlarni, oddiy hamda ommaviy qirg'in qurollarni qo'llash nazarda tutilgan holda tayyorlash, yuritish tamoyil va usullari belgilab berilgan.

JANGOVAR PARVOZ – jangovar vazifani bajarish uchun bitta samolyotning (vertolyotning) yoki ular guruhining uchib ketishi.

“Jangovar parvoz” tushunchasi bo'linma, qism, qo'shilma jangovar faoliyatining umumiy hajmi hisobini yuritish uchun, shuningdek, uchuvchilar tarkibiga mansub har bir shaxsning muayyan davrda (oyda, yilda), operatsiyada va butun urush davomida jangovar faoliyati hajmi hisobini yuritish uchun qo'llaniladi.

JANGOVAR POST – kemanding jangovar tuzilmasidagi boshlang'ich tashkiliy qism.

Jangovar post kemanding muayyan joyida, paluba yoki xona maydoni yoxud qismida shaxsiy tarkib va ushbu tarkib xizmat ko'rsatadigan qurol-aslaha va texnik vositalardan tashkil topgan. Jangovar post bir yoki bir necha harbiy xizmatchilardan: starshina va matroslardan iborat bo'lishi mumkin. Jangovar post jangovar qismda o'z nomi va tartib raqamiga ega bo'lib, post komandiri tomonidan boshqariladi va jangovar qism komandiri joylashgan tegishli qo'mondonlik punktiga bo'ysunadi.

JANGOVAR SAMARADORLIK – qurol-aslaha va texnikaning jangovar vazifani bajarishga muvofiqlashtirilganlik darajasi.

Jangovar samaradorlik muayyan vaqt davomida o'q-dori va boshqa vositalarning muayyan sarfi bilan dushman obyektlariga yetkaziladigan talafot bilan belgilanadi.

Jangovar samaradorlik saviyasi o'q-dorilarning dushmanga shikast yetkazuvchi xususiyatlari, yakson etilishi lozim bo'lgan obyektning himoyalanganlik darajasi, shaxsiy tarkibning jangovar ta'limoti, ruhiy tayyorgarligi va shu kabi boshqa omillarga bog'liq.

JANGOVAR SAMOLYOTLAR – havo va quruqlik ustidagi

(dengizdagi) nishonlarni yo'q qilish hamda boshqa vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan harbiy samolyotlar. Ular jumlasiga:

- qiruvchi;
- qiruvchi-bombardimonchi;
- qiruvchi-tutuvchi;
- bombardimonchi;
- suvosti kemalariga qarshi kurashuvchi;
- hujum qiluvchi;
- razvedkachi samolyotlar kiradi.

JANGOVAR TAJRIBA – harbiy xizmatchi, bo'linma, qism va yalpi qo'shinlarning jangovar harakat mobaynida oldin egallagan ko'nikmalar va o'zlashtirilgan harakat usullarini qo'llay olish mahorati.

Jangovar tajriba tushunchasi harbiy xizmatchining shaxsiy tayyorgarlik saviyasini aniqlash uchun ham qo'llaniladi.

JANGOVAR TAYYORGARLIK – Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibini belgilangan vazifasiga muvofiq jangovar harakat yoki boshqa vazifalarni bajara olishi uchun o'qitish va harbiyicha tarbiyalash borasida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Jangovar tayyorgarlik tinchlik davrida ham, urush davrida ham o'tkaziladi. Jangovar tayyorgarlik shaxsiy tarkibga dala, dengiz, havoda parvoz qilish ta'limotini berish va mashqlarini o'tkazishga yo'naltirilgan bo'lib, yuksak malaka jangovar vaziyatlarga maksimal yaqinlashtirilgan sharoitda egallanadi.

Jangovar tayyorgarlikning asosiy tamoyillaridan biri – urush jarayonida talab etiladigan zaruriy mahoratlarni shakllantirishdir.

Jangovar harakatlar qurolli kuchlar turi va qo'shin turi orasidagi hamkorlik hamda jangovar ta'minot masalalari – umumqo'shin mashqlar jarayonida ko'rib, o'rganilib chiqiladi.

JANGOVAR TALAFOTLAR – dushman qurollarining qo'llanilgan barcha turlari va oqibatda yuzaga keladigan omillar ta'siridan shaxsiy tarkib, qurol-aslaha, texnika va moddiy vositalar bo'yicha yo'qotishlar.

Jangovar talafotlar qayta tiklanmas va tiklanuvchan turlarga bo'linadi. *Qayta tiklanmas* turga – halok bo'lgan, bedarak yo'qolgan, asirga tushgan, yaralanishi oqibatida o'lgan va nogiron bo'lib zaxiraga bo'shatilgan harbiy xizmatchilar, qayta tiklab bo'lmaydigan qurol-aslaha, harbiy texnika va boshqa moddiy vositalar kiradi. *Qayta tiklanuvchan* talafotlar turiga – sog'ayganlaridan so'ng safga qaytishi mumkin bo'lgan shaxsiy tarkib, ta'mirlanganidan so'ng foydalanishga yaroqli bo'ladigan qurol-aslaha,

harbiy texnika va boshqa moddiy vositalar kiradi.

JANGOVAR TARKIB – harbiy qism tarkibiga kiruvchi jangovar, ta'minot va xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalarining belgilangan soni.

Qism va qo'shilmaning jangovar tarkibi shtat jadvali bilan belgilanadi, lekin u qo'yilgan vazifaning bajarilishini ta'minlash maqsadida katta boshliq qaroriga binoan boshqa qo'shin turlari bo'linma va qismlari bilan kuchaytirilib, o'zgartirilishi mumkin.

Qo'shinlar jangovar tarkibining hisobi taktik, operativ va strategik miqyoslarda chiqariladi. Taktik hisob birligi sifatida, odatda, batalyon, divizion, maxsus qo'shinlar vzvodi, eskadrilya, kema qabul qilinadi. Operativ, strategik hisob birligi sifatida – okrug, alohida brigada yoki qo'shin turiga mansub qism qabul qilinadi. Bundan tashqari barcha pog'onalarda shaxsiy tarkib, raketalarining uchirish qurilmalari, yadroviy o'q-dori, tank, samolyot, kema va qurolning boshqa turlari hisobi yuritiladi.

JANGOVAR TARTIB – qo'shinlarning jang qilish uchun joylanish tartibi. Bo'linma, qism va qo'shilmalar jangovar vazifani bajarish uchun taktik hamda texnik imkoniyatlar va qurollanish darajasiga ko'ra joylashtiriladi.

Muayyan doirada jangovar vazifani hamkorlikda ado etadigan qo'shinlar, kuch va vositalar, odatda, hamkorlikda harakat qiluvchi barcha bo'linma, qism, qo'shilmalarni o'z ichiga oladigan yagona jangovar tartibga uyushadi.

Jangovar harakatning har bir turi o'ziga mos jangovar tartib qo'llashni talab etadi. Qo'shinlarning jangovar tartibi bo'lajak jang talablarini, kuch va vositalarning holati hamda jangovar imkoniyatlarini, dushman qo'shinlarining joylanishi va harakatini, joyning shart-sharoitlarini hisobga olgan holda tuziladi.

Jangning har bir ko'rinishida qo'shinlarning har bir turi uchun o'ziga xos jangovar tartib qo'llaniladi. Qo'shilma va qismlardagi jangovar tartibning asosiy elementlari eshelonlar, odatda, birinchi, ikkinchi eshelonlar, artilleriya guruhlarini hamda kuch va vositalar sanaladi.

JANGOVAR TEXNIKA – qurol-yarog' komplekslari, namunalari va ushbu qurol-yarog'ni tashuvchilardan misol uchun: samolyot, tank, kema, artilleriya to'pi, o'q-dori, raketali kompleksi kabilardan tashkil topgan harbiy texnikaning asosiy qismi.

Dushmanning jonli kuchi, harbiy texnikasi va boshqa obyektlarini yakson etish uchun mo'ljallangan.

JANGOVAR TIZIM – o‘zaro bog‘langan tuzilmali, shtatli, konstruktiv yechimli yoki komandir, boshliqning qaroriga ega bo‘lgan jangovar qismlarning yig‘indisi bo‘lib, ma‘lum operativ va jangovar vazifalarni ularning mo‘ljallangan maqsadiga muvofiq avtonom tarzda yechishga mo‘ljallangan. Harbiy sistemologiyaning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan jangovar tizim nazariyasi qurolli kurashning o‘rganiladigan mexanizmini ancha kengaytiradi va zamonaviy matematik usullarning imkoniyatlaridan an‘anaviy yondashuvlarga qaraganda to‘laroq foydalanishga imkon beradi, jangovar tizimning funksional xossalarini tadqiq qiladi, oxir-oqibatda zamonaviy operatsiyalar va jangovar harakatlarning borishini ham, natijasini ham, ya‘ni aynan “intellekt”, “tashkillashtirilganlik”, “boshqariluvchanlik”, “kuzatuvchanlik”, “yashirinlik”, “jangovar imkoniyatlar” va “jangovar barqarorlik”larni aniqlab beradi.

JANGOVAR TREVOGA – 1) qismni, kemani jangovar vazifani bajarishga tayyorlash maqsadida zudlik bilan jangovar shaylikka keltirish. Jangovar trevoga bo‘yicha ko‘tarish tadbirlari komandirlar, boshliqlar tomonidan o‘tkaziladi; 2) qo‘shinlarni jangovar trevoga bo‘yicha ko‘tarish uchun aloqa va xabarlashning texnik vositalari orqali bo‘linmada – ovoz bilan beriladigan signal.

JANGOVAR FAOLIYAT – jangovar-xizmat faoliyatning bir turi hisoblanib, shtablar va front orti muassasalari tomonidan urush davridagi jangovar harakatlar va tinchlik davridagi mashqlar davomida yuritiladigan uyushgan maqsadli harakat.

Jangovar-xizmat faoliyati – bo‘linma va qismlarning yuksak jangovar tayyorgarlik darajasi, ya‘ni qo‘shinlarning har qanday vaziyatda, belgilangan muddatda harbiy harakatlarni boshlashga tayyor bo‘lish darajasini ta‘minlashga yo‘naltirilgan. Tinchlik vaqtdagi jangovar tayyorgarlik darajasi qo‘shinlarning harbiy holatga tezkorlikda o‘tishini ta‘minlash kerak, urush vaqtida esa – qo‘yilgan jangovar vazifani zudlik bilan bajarishga kirishish qobiliyati.

Jangovar-xizmat faoliyat jangovar navbatchilik, qorovul va ichki xizmatni o‘z ichiga oladi.

JANGOVAR FAOLLIK – jang va mashqlar davomida harbiy xizmatchilarning jangovar vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan, muayyan darajadagi faolligi, qo‘shinlar manyovrchanligi va harakatchanligi.

Yuqori darajadagi jangovar faollik – dushmanga uzil-kesil zarba berish maqsadida hal etuvchi jangovar harakatlar zo‘r g‘ayrat bilan yuritilganda namoyon bo‘ladi.

JANGOVAR SHAYLIK – qo‘shinlarning jangovar harakatlarni belgilangan muddatda boshlay olish qobiliyatini va qo‘yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishini ta‘minlovchi holati.

Zamonaviy qurol-yarog‘ va talafot yetkazuvchi vositalarning qo‘llanilish tezkorligi, shuningdek, turli-tuman harbiy usullarning qo‘shinlar tomonidan maksimal darajada samarali ishlatilishi jangovar shaylikni ifodalaydi.

JANGOVAR O‘T OCHISH – sun‘iy nishonlarga, dushmanga qarata shtatli quroldan shtatli o‘q-dorilar bilan o‘t ochish. Jangovar tayyorgarlikning tarkibiy qismi bo‘lib, qurolli kuchlar shaxsiy tarkibini, jangovar vaziyatga maksimal yaqinlashtirilgan vaziyatda qurollarning turli rusumlarini qo‘llashga o‘rgatishning eng oliy shakli.

Otish tayyorgarligi bo‘yicha mashg‘ulotlar davomida aksariyat o‘t ochish mashqlari o‘quv va paxtavon snaryadlarni qo‘llagan tarzda o‘tkaziladi.

Jangovar o‘t ochish amallari esa jangovar tayyorgarlikning yakuniy bosqichida, shuningdek, qo‘shinlar tayyorgarligini tekshirish mobaynida jangovar patron va snaryadlar qo‘llanilgan tarzda o‘tkaziladi.

Odatda, taktik mashqlarda, bo‘linmalar, ekipajlar harakatlarining hamkorligini mashq etishning yakuniy bosqichida o‘tkaziladi.

Jangovar o‘t ochish uchun jangovar zaryadlangan o‘q-dorilar qo‘llaniladi.

JANGOVAR QOBILIYAT – qo‘shinlarning jangovar harakatlarni yurita olish qobiliyati. Jangovar qobiliyat qism va qo‘shilmalarning butlanganligi, jangovar harakatlarning xususiyatlari va shiddat darajasi, ko‘rilgan talafotlar va ular o‘rmini tez qoplash imkoniyati mavjudligi, shaxsiy tarkibning tayyorgarlik saviyasi, moddiy vositalar bilan ta‘minlanganlik darajasi va shu kabi boshqa shart-sharoitga bog‘liq.

JANGOVAR QUDRAT – jangovar qudrat qo‘shin (kuch)larning soni, axloqiy-ruhiy holati va o‘rgatilganlik darajasi, qurol-aslaha, harbiy-texnika va boshqa moddiy vositalarning miqdori va sifati; harbiy fanning rivojlanish darajasi; yaxshi tayyorlangan qo‘mondonlik tarkibining mavjudligi va boshqa omillar bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati mamlakat xavfsizligi va mintaqadagi barqarorlik kafolatidir.

JANGOVAR HARAkatLAR – 1) Qurolli Kuchlar turlariga mansub barcha harbiy qismlar, qo‘shilma va birlashmalarning belgilangan jangovar vazifalarni hal etish mobaynidagi uyushqoqlik bilan amalga

oshiradigan harakatlari. Jangovar harakatlarning asosiy turlari – hujum va mudofaa sanaladi. Zamonaviy jangovar harakatlar maqsadlarning qat'iyatligi, katta maydonlarni egallashi, yuqori manyovrchanligi va shiddati bilan tavsiflanadi. Strategik miqyosda o'tkaziladigan jangovar harakatlarga nisbatan ko'proq "Harbiy harakatlar" atamasi qo'llaniladi; 2) Qurolli Kuchlar turlariga mansub qo'shilma va birlashmalarning operatsiya doirasida (yoki operatsiyalar orasida) yirikroq birlashma tarkibida qo'llanilish shakli. Jangovar harakatlar turkumidan biri sifatida muayyan tizimda o'tkaziladigan jangovar harakatlar hisoblanib, HHM qo'shinlari, HHK va HDF birlashmalarini operativ jihatdan qo'llashning alohida shakli ko'rinishida o'tkaziladi.

JANGOVAR HARAKATLAR JURNALI – jangovar harakatlarga tayyorgarlik va ushbu harakatlar jarayoni har kuni yozib boriladigan hisobot-axborot mazmunidagi hujjat.

Harbiy qism (qo'shilma), harakatdagi armiya tarkibida deb sanalgan yalpi muddat davomida qism shtabi ofitseri tomonidan yuritiladi.

Jangovar tajribalarni o'rganib chiqish va umumlashtirish, qo'shinlar harakatlari borasida hisobot va ma'lumotlar tuzish uchun tarixiy formulyalarni to'ldirish mobaynida, shuningdek, kelajakdagi harbiy-ilmiy ishlarda foydalaniladi.

JANGOVAR HARAKATLAR TA'MINOTI – qo'shinlarni (kuchlarni) jangovar shaylikning yuqori saviyasida tutib turish, jangga uyushgan tarzda o'z vaqtida kirishish, qo'yilgan vazifani bajarish uchun samarali sharoit yaratish, dushmanning qo'shinlarimiz ustiga daf'atan hujum uyushtirishiga yo'l qo'ymaslik yoki bunday hujumning oldini olish va zarbalari samarasini pasaytirishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimi. Jangovar harakatlar ta'minoti:

- operativ (jangovar);
- maxsus;
- texnik;
- front orti ta'minoti turlariga bo'linadi.

JANGOVAR HARAKATLAR HUDUDI – urush davomida quruqlik, dengiz va havo bo'shlig'ining jangovar harakatlar qamrab olgan va yuritilayotgan qismi.

Jangovar harakatlar hududining sarhadlari urushayotgan tomonlarning maqsadi, qo'shinlarining miqdori va joylashishiga bog'liq.

JANGOVAR HARAKAT USULLARI – jangovar vazifani hal etish uchun kuch va vositalarni qo'llash tartibi va izchilligi. Jangovar harakat

usullari qo'llaniladigan qo'shin turi va bajariladigan harakat turiga ko'ra hujum, mudofaaga bo'linadi. Jangovar harakatlarning har bir usuli o'z ichiga:

- dushman qo'shiniga shikast yetkazish, tor-mor qilish izchilligini;
- asosiy va boshqa zarbalar yo'nalishini;
- qo'shinlarning asosiy kuchi jamlangan tarzda qo'lda tutib turiladigan marshallarni;
- qo'llaniladigan manyovr xususiyatini qamraydi.

Jangovar harakatlar usuli tegishli qo'mondon tomonidan belgilab beriladi va uning to'g'ri tanlanishiga:

- qo'llaniladigan mavjud dushmanga shikast yetkazuvchi vositalar;
- jangovar vazifaning o'ziga xos xususiyatlari;
- qo'shinimiz va dushman qo'shinining tarkibi va jangovar imkoniyati;
- joy va vaziyat sharoiti ta'sir o'tkazadi.

JANGOVAR HISOB – dushman tomonidan daf'atan hujum uyushtirilgan, tabiiy ofat ro'y bergan yoki boshqa kutilmagan vazifalarni bajarish lozim bo'lgan hollar uchun bo'linma harbiy xizmatchilari orasidagi qo'shimcha majburiyatlar taqsimoti.

Jangovar vaziyat va taktik mashqlar davomida jangovar hisobga ko'ra dozorch, chopar, o'qchi, o'q-dori keltiruvchi kabilar tayinlanishi mumkin. Jangovar hisobga ko'ra trevoga e'lon qilinganda obyektidagi yorug'likni niqoblash, moddiy vositalar zaxirasini belgilangan transport vositalariga yuklash va boshqa tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha majburiyatlar belgilanadi.

Qorovulda qo'riqlanayotgan obyektga uyushtirilishi mumkin bo'lgan ehtimoliy hujumni bartaraf etish hamda qorovulxona yoki postda chiqqan yong'inni o'chirish uchun jangovar hisob tayinlanadi.

JANGOVAR HUJJATLAR – qo'shinlarning jangovar harakatlarini tayyorlash, yuritish, ta'minlash va tahlil etishga doir hujjatlar: xarita, chizma, buyruq, ma'lumot, telegramma, radiogramma, fotosurat va shu kabilar.

JANG OLDI TARTIBI – bo'linma va qismlarning old va bo'y bo'ylab parchalanib tortgan safi. Jang maydoniga yaqinlashish va dushman sarhadlarida yuritiladigan hujum mobaynida qo'llaniladi. Dushmanning yadroviy zarbasi va boshqa turdagi oloviga bardoshlilikni oshirish, dushman mudofaasi ishonchli yanchilishi uchun ataka qilish maqsadida ham qo'llanilishi mumkin. Yurish tartibi yoki jangovar tartibda borayotgan qo'shin jang oldi tartibiga saf tortadi.

JANGCHI – 1) o‘z yurtining qurolli himoyachisi, askar; 2) ayrim davlatlar qurolli kuchlari askarlarining unvoni.

JANGCHI KO‘NIKMALARI – harbiy xizmatchining tez, tejamkor sarf va a‘lo natijalar bilan harakatlanishi. Jangchi ko‘nikmalari:

- harakatchan (motorli);
- sensorlik (o‘ziga singdirib olish);
- intellektual (aqliy);
- aralash ko‘nikmalarga bo‘linadi.

Ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish – jangovar tayyorgarlikning eng muhim vazifalaridan biridir.

Jangchi ko‘nikmalari mustaqil tarzda yoki ta‘lim berayotgan shaxs nazorati ostida, muayyan izchillik bilan murakkablashtirib boriladigan vaziyatda muntazam mashq qilib borish bilan mustahkamlanadi.

JANGCHILARNING SHIJOATLI SIFATLARI – harbiy xizmatchilarning o‘z xulq-atvorini boshqara olish, qo‘yilgan maqsadga erishish mobaynidagi qiyinchiliklarni yengish uchun kuch-g‘ayratlarini safarbar etish va harakatlarini yo‘naltira olish qobiliyatlarini ifoda etuvchi sifatlar. Jangchilarning axloqiy-jangovar sifatleri tarkibiga kiradi.

Jangchilarning asosiy shijoatli sifatleri jumlasiga: sobitqadamlik, dadililik, mardlik, matonat, jasurlik, qat‘iylik, tashabbuskorlik va fidoyilik kiradi.

Tinchlik davrida jangchilarning shijoatli sifatlariga jangovar tayyorgarlik vazifalarining muvaffaqiyatli bajarilishi, jangovar navbatchilik va qorovul xizmatining sergak o‘talishi bog‘liq bo‘lsa, urush davrida esa – jangovar vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi bog‘liqdir.

Jangchilarning shijoatli sifatleri yaxlit harbiy xizmat davomida shakllanadi va rivojlanib boradi. O‘spirin va yigitlarning yuqorida sanab o‘tilgan shijoatli sifatleri harbiy xizmatga chaqirilishiga qadar mehnat va ta‘lim jarayonida shakllanib boradi.

JANGCHINING AXLOQIY-JANGOVAR SIFATLARI – harbiy xizmatchi tomonidan urush va tinchlik davrida o‘z majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro uzviy bog‘liq yoki biri ikkinchisini to‘latib turadigan shaxs fazilatleri.

Mazkur fazilatlar ichida quyidagilar asosiy ijobiy sifatlar sanaladi: burch va qasamyodga sodiqlik, jangovar faollik, intizomlilik, mardlik, fidoyilik, jasurlik, bardoshlilik kabilar.

Axloqiy jangovar sifatleri shakllanishi mamlakatdagi jamoat tuzilishining ijtimoiy xususiyatlari, davlatda hukm surayotgan mafkura va

qurolli kuchlar oldiga qo'yilgan vazifalarga bog'liq.

JASORAT – 1) mardonavor harakat bo'lib, ushbu harakat insondan iroda va kuchining haddan tashqari zo'r berishini talab etadi. Harakat natijasining miqyosi oddiy harakatlar natijasidan ustun kelib, turfa qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liqdir.

Jasorat faqat atoqli shaxslar qismati bo'lib qolmay, balki insonlar guruhi, butun boshli xalq tomonidan ham namoyon etilishi va favqulodda hodisalar oddiy holatdek bo'lib qoladigan – ommaviy harakat turtkisiga aylanib ketishi mumkin. Jasorat harbiy, jangovar, ilmiy, mehnat jasoratlariga bo'linadi; 2) jangchining jangovar va boshqa murakkab vaziyatlarda qiyinchiliklarni tejamli sarflar va mohirlik bilan yengib o'tishi, o'z hukmini dushmanga mardonavor o'tkazishida namoyon bo'ladigan axloqiy-ruhiy va jangovar sifatleri. Mazkur sifatlar zamiridagi asoslar – g'oyaviy e'tiqod, qilayotgan ishining to'g'ri ekanligi, qurolining kuch va qudrati, dushmandan ustun kelishi va quroldoshlariga bo'lgan qat'iy ishonchdan iboratdir.

JISMONIY TAYYORGARLIK – harbiy xizmatchilarning jismoniy sifatlerini rivojlantirish va harbiy amaliy ko'nikmasini shakllantirish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar majmui. Shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarlik tizimidagi fanlardan biri. Jismoniy tayyorgarlik nafaqat kuch, chidamlilik, chaqqonlik, tezlik kabi sifatlerini rivojlantiradi, balki harbiy xizmatchilarning turli sharoitga tez ko'nikishini ta'minlab, jangovar vazifani bajarish mobaynidagi ishchanligi va malaka saviyasiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy tayyorgarlik qurolli kuchlar turi bajaradigan vazifalar va oldiga qo'yilgan talablarni hisobga olgan holda tashkil etiladi va o'tkaziladi. Jismoniy tayyorgarlikning *asosiy vazifalari* harbiy xizmatchilarda:

- harbiy amaliy ko'nikmalar hosil qilish;
- jismoniy saviyasini muttasil takomillashtirib borish;
- ruhiy barqarorlik, o'z kuchiga bo'lgan ishonch, jasurlik va qat'iyatlilik, sabot, chidam, matonat va har qanday vaziyatda o'zini tuta olish kabi sifatlerini tarbiyalash, sog'lig'ini saqlash va organizmini chiniqtirishdan iboratdir. Jismoniy tayyorgarlik *shakllari*:

- ertalabki badantarbiya;
- o'quv mashg'ulotlari;
- o'quv-jangovar faoliyat jarayonidagi jismoniy mashqlar;
- ommmaviy-sport tadbirlari. Asosiy mashqlardan tashqari jismoniy

tayyorgarlik tizimiga:

- sport o'yinlari;
- gimnastika aslahalaridagi mashqlar;
- suvda cho'kayotgan shaxsga yordam berish usullari;
- chang'ilardagi jangovar uslublar kabi amallar kiradi.

Jangchilar, odatda, yil davomida sportga oid razryad me'yorlarini bajaradi, xizmatdan bo'sh vaqtda dam olish va bayram kunlari sport turi bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi.

JISMONIY TARBIYA – umumiy tarbiyaning uzviy qismi, odam sog'lig'ini mustahkamlash, organizmning shakl va funksiyalarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik jarayon. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari: jismoniy mashg'ulotlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush tarzi gigiyenasi.

JOYNI KO'RIB CHIQISH – jangovar harakatlarni tashkil etish, qo'shinning olg'a ilgarilash, qo'shin va shtablarni joylash uchun joy tanlash mobaynida dushmani va joyni ko'z bilan ko'rib o'rganib chiqish amallari. Joy, qo'mondon (komandir) tomonidan qaror qabul qilish yoki qabul qilingan qarorga aniqlik kiritish maqsadida shaxsan ko'rib chiqiladi.

JOY RAZVEDKASI – joyning kelgusi harakatlar hududida (doirasida) kuch va vositalar qo'llanilishiga ta'sir ko'rsatuvchi elementlari haqida ishonchli ma'lumotlarni qo'lga kiritish, yig'ish, umumlashtirish va komandirni (qo'mondonlikni) ushbu ma'lumotlar bilan ta'minlash.

Joyning *hujumdagi* asosiy razvedka obyektlari sifatida yo'llar tarmog'i va holati, qo'shin harakati yo'nalishlari, kelgusi manyovr yo'llari, ularda mavjud to'siqlar va ularni yengib o'tish imkoniyatlari qabul qilinadi. *Mudofaa* uchun joyni razvedka qilish amallari mobaynida mudofaa manfaatlarida jihozlanadigan chegaralar (marralar), hudud, tayanch punktlari, qarshi zarba berish (qarshi atakaga ko'tarilish) uchun marralar kabi obyektlar aniqlanadi.

Joyni razvedka qilish amallari kuzatish, quruqlikda, havo va kosmosdan fotosuratga olish, joyni ko'zdan kechirib chiqish kabi usullar qo'llanilgan tarzda o'tkaziladi.

JAVOBGARLIK – davlat va jamoat tashkilotlarida ishlayotgan mansabdor shaxslarning yetkazgan zarari uchun mas'ulligi; zararning qoplanishi sud orqali amalga oshiriladi. Tadbirkorlarning ishchilarga va boshqa kishilarga tegishli korxonalardan foydalanish jarayonida uning o'zi yoki ishonchli vakillari aybi bilan baxtsiz hodisa yuz bergan hollarda tadbirkor qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

JOSUSLIK – davlat sirini tashkil etuvchi ma'lumotni o'g'irlash, to'plash va yig'ib xorijiy davlatga, tashkilot yoki uning vakiliga topshirish. Bunday ma'lumotlar chet el razvedkasi (josuslik-ayg'oqchilik xizmati) topshirig'iga ko'ra davlat milliy xavfsizligiga zarar yetkazgan holda yig'ilgan bo'lsa, xorij fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs tomonidan sodir etilganidan qat'i nazar bu J. davlat xavfsizligiga qarshi jinoyat hisoblanadi. J. (razvedka) – alohida mintaqa, davlat yoki hududlarda dushmanning harbiy-siyosiy holati to'g'risida ma'lumot olish, uning qurolli kuchlari, harbiy xatti-harakatlaridan boxabar bo'lish. J. (razvedka) – josuslarni bu ishga jalb etmasdan ma'lumotlarni qonspirativ yig'ish va boshqa masalalarni maxsus xizmat xodimlari bilan hal qilish, ishonchli va rasmiy aloqalar orqali kuzatuv yo'li bilan tezkor texnika yordamida amalga oshirish.

Sanoat J. – korxonalarning tijoriy, sanoat yoki xizmatga oid sirlarini tashkil etuvchi ma'lumotlarni (materiallarni) yig'ish (to'plash) va topshirish maqsadida o'g'irlab, yashirin tarzda boshqaga topshirish.

Texnologik J. – raqobatlashuvchi korxona tomonidan boshqa, ayniqsa, turdosh korxona uchun sir hisoblangan texnologik xarakterdagi ma'lumotlarni yashirin qidirish, topish va undan foydalanish.

K

KABEL (gollandcha *kabel* – arqon, tros) – 1) elektrotexnikada himoya qobig'i (odatda, germetik qobiq) ichiga olingan izolyatsiyali bir yoki bir necha (tok o'tkazuvchi) sim; 2) aloqa ishlarida – axborotni (telegrammalar, radioeshittirish va televizion ko'rsatuv dasturlarini) elektr signallari yordamida uzatishga xizmat qiladi. Odatda, tok o'tkazuvchi simlari misdan, izolyatsiyasi qog'oz, polimerlardan, himoya qobig'i esa qo'rg'oshin, alyumin, po'lat, plastmassa, metaloplastikadan yasaladi.

KAZARMA (ital. *caserma*, lot. *casa* – uycha) – harbiy qism shaxsiy tarkibini joylashtirish uchun maxsus qurilgan yoki qayta jihozlangan bino.

Yotoqxonada Ichki xizmat Nizomiga muvofiq muddatli xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchilar joylashadi. Yotoqxonada har bir vzvod uchun quyidagi xonalarning bo'lishi nazarda tutiladi:

- ommaviy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy ishlarini o'tkazish uchun ijtimoiy-siyosiy axborot berish xonasi;
- uxlash (hordiq chiqarish) xonasi;
- vzvod devonxonasi;

- qurol saqlash xonasi;
- maishiy xizmat ko'rsatish, yuvinish, qurol tozalash, harbiy xizmatchilarning shaxsiy buyumlari va vzvod mulkini saqlash xonasi uchun alohida xonalar;
- tamaki chekish va poyabzal tozalash joyi;
- kiyim-kechak va poyabzal quritish xonasi.

Har bir batalyonda shtab, batalyon komandiri, o'rinbosarlari, mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, majlislar o'tkazish, ofitserlarning hordiq chiqarishlari uchun xonalar ajratiladi.

Yotoqxonaning barcha xonalari raqami va vazifasi ko'rsatilgan taxtachalar bilan belgilanadi.

KALIBR (arab, kalibr – shakl) – 1) mashinasozlikda shkalasiz o'lchov asbobi; uning yordamida buyumlarning o'lchamlari, shakli yoki o'zaro joylashishi o'lchanadi; 2) prokat ishlab chiqarishda – tutashuvchi ikki prokat valik orasida kesib olib hosil qilingan tirqish; undan kerakli o'lcham va shakl berish uchun qisiladigan metall o'tkaziladi; 3) o'q otuvchi qurollarda stvoli hamda snaryad, mina, o'qning diametri, qurolning kuchini aniqlovchi asosiy qiymatlardan biri.

O'q otuvchi qurollar kalibri chiziqli birliklarda: dyuymlar, liniyalar, millimetrlarda o'lchanadi.

KALIBRDAN YIRIK SNARYAD – korpusining diametri qurol kalibridan yirik snaryad, mina. Qisqa masofalarga katta bo'lmagan boshlang'ich tezliklar bilan o't ochishda qurol qudratini oshirish uchun nisbatan yengil quroldan: qo'l granatomyoti, minomyot, tepish zarbi yo'q to'p kabilardan qo'llaniladi. To'pni o'qlash amali stvolning og'iz tomonidan bajariladi. Kalibrdan yirik snaryadning uloqtirilishi PG-2, PG-7 rusumli kumulyativ granatalar yoki RPG-2 va RPG-7 rusumli qo'l granatomyotlarda aktiv-reaktiv va reaktiv usullar bilan amalga oshiriladi.

KALIBRDAN KICHIK SNARYAD – faol qismining diametri to'p kalibridan kichik bo'lgan artilleriya snaryadi.

Kalibrdan kichik snaryadni stvol kanali bo'ylab to'g'ri yuritish uchun qurol kalibriga mos keladigan yetaklovchi qurilma qo'llaniladi. Kalibrdan kichik snaryad, parvoz mobaynidagi turg'unligini ta'minlash usuliga ko'ra aylanuvchan va qanotli turga bo'linadi. Vazni kalibrli snaryad vazniga nisbatan yengil bo'lgani bois boshlang'ich tezligi katta.

KALIBRLI SNARYAD – yo'g'on qismi yoki korpusining diametri to'p stvoli kalibriga teng snaryad, mina.

KAMPANIYA – 1) urush bosqichi, bunda g'alaba tomon muayyan

maqsadga erishiladi. Bir qancha strategik operatsiyalar va boshqa shakldagi harbiy harakatlarni o'z ichiga oladi; 2) biror dolzarb ijtimoiy-siyosiy vazifani bajarish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi (masalan, saylov kampaniyasi); 3) ishlab chiqarish operatsiyalari sikli yoki kompleksi (masalan, ekish kampaniyasi).

KAPITAN (lot. *capitaneus* – lashkarboshi) – aksariyat davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi ofitserlar tarkibiga mansub harbiy unvon.

Ilk bor o'rta asrlarda Fransiya ta'sis etilgan. Qurolli Kuchlarimizda mavjud kapitan unvoni 1935-yil 22-sentabr kuni ta'sis etilgan. Farqlovchi nishonlari – pogonga taqilgan 4 dona kichik yulduzlar va bitta bo'ylama chiziq.

Harbiy-dengiz flotida kapitan unvoniga – kapitan-leytenant unvoni mos keladi.

KAPITULYATSIYA (lot. *capitulum* – kelishaman, shartnoma tuzaman) – 1) taslim bo'lish; 2) jangovar harakatlar maydonlari va uning alohida hududlarida yalpi qurolli kuchlar yoki bir qismi tomonidan ko'rsatilayotgan qarshilikning to'xtatilishi. Kapitulyatsiya, odatda, g'olib tomon qo'ygan shartlar yoki qarshi tomonlarning qo'mondonliklari o'rtasidagi muzokaralar natijalariga muvofiq amalga oshiriladi; 3) xalqaro huquqda – urushuvchi davlatlardan birining qurolli kurashini to'xtatib, qurolli kuchlarini raqibiga topshirishi. Qurolli kuchlar tamomila tor-mor qilinganda so'zsiz taslim bo'lish akti imzolaniadi.

KAPSYUL – uloqtiruvchi zaryadlarni o't oldirish yoki yorib yuboruvchi zaryadlarning detonatsiyasini qo'zg'atuvchi vosita. Ingichka metall yoki plastmassadan tayyorlangan portlovchi modda yoki o't oldiruvchi tarkibga ega qalpoqcha ko'rinishida bo'ladi. Kapsyullar olov nuri yoki detonatsiyalovchi impuls ko'rinishidagi initsiirlovchi impuls beruvchi:

– yondiruvchi-kapsyul;

– kapsyul-detonator turlariga bo'linadi.

XIX asr boshida portlovchi simobli kapsyulning ixtiro qilinishi kremniyli quroldan kapsyulli qurolga o'tish, keyinchalik esa – yaxlit (unitar) patronni yaratish imkonini berdi.

KAPSYULLI TARKIBLAR – initsiirlovchi portlovchi moddalar sinfiga mansub portlovchi moddalar bo'lib, yondiruvchi kapsulalarni tayyorlash mobaynida qo'llaniladi. Portlovchi simob, kaliy xlorati (bertolet tuzi) va surmaning uch valentlik oltingugurt bilan birikmasi (antimoniy)

ayrimining tesirishi ta'siri ushbu, poroxni yondirish yoki miltirlashchi moddani detonatsiyasini qo'zg'atish qobiliyatiga ega olovni hosil qilgan holda ro'y beradi.

KARABIN – uzunligi qisqartirilgan, vazni yengillashtirilgan miltiq. 19-asr boshlarida ixtiro qilingan. Namuna tariqasida stvol og'zidan lanadigan uzun og'ir miltiqning kichikroq nusxasi olingan. Karabinning q stvolli va kesma stvolli rusumlari qo'llanilib kelingan. XIX asrda o'qdonli, ko'p marotaba o'qlanadigan karabinlar vujudga keldi. 20-asr zamonaviy armiyalarda avtomatik karabinlar qo'llanilib nmoqda.

KARANTIN (ital. *quarantena* – qirq kun) – 1) yuqumli kasalliklar talishini oldini olish uchun epidemiyaga qarshi va rejimli cheklanishlar ni.

Karantin ilk bor XIV asrda Italiyada o'lat kasalligi tarqalgan lardan kelgan kemalarni reydda qirq kun (nomi ham shundan kelib qan) davomida ushlab turish bilan qo'llanilgan. Keyinchalik karantin hqa yuqumli kasalliklarga qarshi kurash uchun ham qo'llanila hlandi; 2) yuqumli kasalliklarning epidemik yoki epizootik manbadan talishining oldini olish uchun ko'riladigan tadbirlar tizimi. Epidemik abadagi tadbirlar: bunday yerda kirish-chiqish taqiqlanadi yoki klanadi, bemorlar va ular bilan yaqin aloqada bo'lgan kishilar qlanadi, izolyatsiya qilinadi va h.k.; epizootik manbadagi tadbirlar: bu da kasallikka beriluvchan hayvonlarni olib kirish, u yerdan olib chiqish podalar tarkibini o'zgartirish taqiqlanadi, kasal hayvonlar lyatsiyalanadi va shu kabi ishlar amalga oshiriladi.

KARANTIN KASALLIKLAR – odamning o'ta xavfli yuqumli alliklari. Bu xususda chegarani, hududni sanitariya jihatdan muhofaza shga oid xalqaro qoidalar joriy etilgan. Chin chechak, o'lat, vabo, sariq ma shular jumlasidandir.

KARTOTEKA – biror soha bo'yicha ma'lumotlar yozilib, tartibga nngan, o'zida axborot saqlovchi muayyan miqdordagi varaqalar majmui.

Varaqalar yig'indisi ma'lum bir tartibda, masalan, alfavit tartibida, vzusiga qarab birlashtirilgan, tizimga solingan va joylashtirilgan ladi.

KARSER – ayrim davlatlarda belgilangan tartibni buzuvchilar uchun nalarda, armiyada va o'quv yurtlarida ajratilgan maxsus joy. Karser

mahbuslari uchun ayniqsa qattiq rejim o'ralgan.

KASKA (PO'LAT SHLEM) – metall, laklangan teri, plastmassa va boshqa ashyolardan tayyorlangan, boshni urilishdan yoki zarbadan saqlovchi maxsus bosh kiyim. Metall kaska ilk bor 1758-yilda Fransiya paydo bo'lgan. 1939-yildan e'tiboran kaska rasman – *po'lat shlyom* deb ataladi.

KATAPULTA – 1) samolyotlarni aviatashuvchilar va boshqa kemalardan uchishini ta'minlash uchun mo'ljallangan qurilma. Katapulta yordamida yo'lning qisqa qismida (50-90 m) start tezligi soatiga 170-250 km ga yetadi; 2) uchuvchi va kosmonavtlar uchun katapultlanishni, ya'ni katapulta vositasida irg'ib chiqib, parashut bilan tashlashni mashq qilish uchun mo'ljallangan mashq uskunasi; 3) qadimgi Gretsiya va Rim zamonlarida jangovar uloqtiruvchi mashina. XV asrga qadar foydalanilgan.

KATAPULTLANISH – 1) katapulta vositasida irg'ib chiqib, parashut bilan tashlanish; 2) ekipajni avariya holatida maxsus qurilma yordamida uchish apparatini tashlab chiqish usuli va jarayoni; 3) samolyotning aviatashuvchi yoki boshqa kemadan katapulta qurilmasi yordamida uchib chiqish jarayoni.

KEMA XIZMATI – shaxsiy tarkibning, ekipajning kema-dagi qurol, texnik vosita va qurilmalarga xizmat ko'rsatish borasidagi faoliyati. Kundalik va jangovar sharoitdagi amaliyot.

Kema xizmati asoslari Kema Nizomida belgilab berilgan.

KENGLIK – sferik koordinatalar tizimining koordinatalaridan biri, Yer yuzasi, Quyosh, planetalar va osmon sferasidagi nuqtalarning ekvatorga (ekliptikaga) nisbatan joyni belgilaydi, geografik koordinatalar, nuqtaning Yer yuzasidagi holatini ko'rsatadi. Geografik kenglik va geografik uzunlikdan iborat.

Geografik kenglik W – biron nuqtada tik chiziqli bilan ekvator tekisligi oraliq'idagi burchak, ekvator-dan ikki tomonga 0° dan 90° gacha o'lchanadi.

Geografik uzunlik V – shu nuqtadan o'tgan meridian tekisligi bilan boshlang'ich meridian tekisligi oraliq'idagi burchak. Boshlang'ich meridiandan sharqda 0° dan 180° gacha bo'lgan uzunliklar sharqiy uzunliklar, shu meridiandan g'arbda 0° dan 180° gacha bo'lganlari g'arbiy uzunliklar deb ataladi.

KECHKI YO'QLAMA – har kuni vzvodlarda, batareyalarda, harbiy-dengiz floti kemalarida – jangovar qismlarda, xizmatlarda o'tkaziladigan,

kundalik tartibda ko'zda tutilgan tadbir.

Kechki yo'qlamada shaxsiy tarkib nomma-nom ro'yxat bo'yicha tekshiriladi, barcha harbiy xizmatchilarga ma'lum bo'lishi lozim bo'lgan buyruq va buyruqnomalar, kelgusi kunga tayinlangan naryad e'lon qilinadi va jangovar hisob chiqariladi yoki unga aniqlik kiritiladi.

Kechki yo'qlama boshida ko'rsatgan jasoratlari uchun vzvod ro'yxatiga abadiy kiritilgan yoki faxriy askar, matros sifatida kiritilgan harbiy xizmatchilar familiyalari o'qiladi.

Vaqti-vaqti bilan umumiy, umumbatalyon, umumbrigada kechki yo'qlamalari o'tkaziladi.

KECHUV – qo'shinlarning suv to'sig'ini yengib o'tishi. Kechib o'tish uchun suvli havzaning tayyorlangan qismi va zaruriy jihozlar.

Dushman egallagan qirg'oq tomon kechuv – jang bilan o'tkaziladigan kechuv deb ataladi. Kechuv amallari qo'llanilgan usulga ko'ra:

- desant kechuvi;
- parom bilan o'tish;
- ko'prikdan o'tish;
- bevosita suv kechib o'tish;
- suv ostida suzib o'tish;
- muz ustidan o'tish turlariga bo'linadi.

Desant kechuvi – shtatdagi jangovar va kechuvchi-desant mashinalar, shuningdek, qayiq, sol kabi mahalliy kechuv vositalarida amalga oshiriladi.

Parom bilan o'tish usuli – ko'priklar yotqizishning imkoni bo'lmagan, qo'shinning yukli oqimi kam bo'lgan hollarda parom, ponton va barjalar yordamida qo'llaniladi.

Ko'prikdan o'tish usuli – yuqori o'tkazuvchanlik qobiliyatiga ega pontonlar parki, ko'priklar yotqizuvchi qurilma va mahalliy ashyolardan tashkil etilib, qo'shinlar va harbiy texnikaning uzluksiz harakatini ta'minlaydi.

Bevosita suv kechib o'tish usuli – suv havzasining tubi qattiq yoki sun'iy tarzda qotirilgan sayoz joylar orqali amalga oshiriladi.

Suv ostida suzib o'tish usulida – tankni suv ostida boshqarish uskunalaridan foydalangan holda suv havzasi tubi bo'ylab yurib o'tishi ko'zda tutilgan.

Muz ustidan o'tish – muzning qalinligi va yuk ko'tara olish holatiga ko'ra tabiiy yoki kuchaytirilgan muz bo'ylab amalga oshiriladi.

Kechuvni muhandislik vositalari bilan jihozlash muhandislik

kechib o'tayotgan qo'shinlar kuchi bilan amalga oshiriladi. Suv havzasida ninalar mavjudligini tekshirish, suvga tushish va chiqish joylarini yaratish imallari kechuvni tayyorlash va jihozlash asosini tashkil etadi.

KECHUV VOSITALARI – qo'shinlarning suv to'sig'ini yengib o'tishi uchun qo'llaniladigan suzuvchi vosita va ko'priklar tashkil etuvchi uskunalar. Shtatga kiritilgan kechuv vositalari:

- pontonlar parki;
- desant-kechish mashinalari;
- ko'priklar yotqizgichlar;
- mexanizatsiyalashtirilgan ko'priklar;
- qismlarga ajralib-yig'iladigan metall ko'priklar;
- tankni suv ostida boshqarish uskunalari va shu kabilarga bo'linadi.

Kechuv vositalari sifatida kema, barja, kater, qayiq, parom kabi mahalliy suzish vositalari, shuningdek, taxta, bochka, xoda kabi qo'llaniladigan vositalardan foydalanish mumkin.

KIMYOVIY MODDAGA QARSHI SHAXSIY PAKET – terining chiq joylari va kiyimning teriga yaqin qismlariga zaharli moddalar bilan vosita zararlangandan so'ng qisman maxsus ishlov berish uchun no'ljallangan tibbiy vositalar to'plami.

O'z vaqtida degazatsiyalash bo'yicha qabul qilinadigan choralarning ezkorligi – teri yallig'lanishi va zaharli moddalarning qonga singib o'tishining oldini oladi.

Kechroq o'tkazilgan qisman sanitar ishlov amallari jarohat darajasini pasaytiradi, biroq rivojlanib ketishining oldini olmaydi.

KIMYOVIY SNARYAD – jangovar zaharlovchi moddalar (JZM) bilan inson va hayvonlarni shikastlash, joylarni zaharlash uchun no'ljallangan artilleriya snaryadi. Kimyoviy snaryad tarkibiga:

- jangovar zaharlovchi moddalar bilan to'latilgan korpus;
- portlovchi moddani yorib yuboruvchi zaryad;
- pirotexnik tarkib;
- portlatkich kiradi.

KIMYOVIY QUROL – jangovar zaharlovchi moddalar, ularni jo'llash vositalaridan tarkib topgan va ushbu kimyoviy moddalarning zaharlovchi xossalari asoslangan ommaviy qirg'in quroli. Kimyoviy qurol shaxsiy tarkib va mahalliy aholiga shikast yetkazish, joylar, harbiy texnika va moddiy vositalarni zaharlash uchun qo'llaniladi.

Barcha taraqqiyparvar mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston

Respublikasi kimyoviy qurolning qo'llanishi, ixtiro qilinishi, ishlab chiqilishi va zaxirasining to'planishini har tomonlama va batamom man etish uchun muayyan izchillik bilan kurash olib bormoqda.

KIMYOVIY QO'SHINLAR – qo'shilmalar, qism va bo'linmalar, qo'shin turlari, maxsus qo'shinlar va front orti ta'minoti bo'linmalarining jangovar harakatlarini kimyoviy va kimyoviy-texnologik jihatdan ta'minlash uchun, shu bilan birga dushmanni yondiruvchi qurol bilan qirib borish uchun mo'ljallangan maxsus qo'shinlar. Kimyoviy qo'shinlar tarkibiga:

- himoya bo'linmalari;
- radiatsiya va kimyoviy razvedka bo'linmalari;
- maxsus ishlov berish bo'linmalari;
- degazatsiyalash bo'linmalari;
- maxsus kiyim bilan ta'minlash bo'linmalari;
- tutun purkovchi va ognemyotchilar bo'linmalari;
- ta'minot xizmatlari kiradi.

Kimyoviy qo'shinlar Birinchi Jahon urushi yillarida shakllana boshlagan.

KINOLOGIYA (yun. *kyon* – it va *logiya*) – itlar to'g'risidagi fan. Itchilikning ilmiy asosini tashkil etadi.

Kinologiya itlarning evolyutsiyasi, zotlari, anatomiyasi, fiziologiyasi, shu jumladan, oliy nerv tizimi, xatti-harakatlari, seleksiyasi, ularni urchitish, oziqlantirish, saqlash, o'rgatish va ov, qorovul, qidiruv, bojxona, chegara va boshqa xizmatlarda foydalanish masalalarini o'rganadi.

1992-yilning may oyida O'zbekiston Kinologiya federatsiyasi tashkil etildi. O'zbekistonda Respublika Davlat bojxona qo'mitasining milliy Kinologiya markazi, Milliy xavfsizlik xizmatining naslchilik pitomnigi va Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasining naslchilik pitomnigida kinologiya nazariy masalalari o'rganiladi, itchilikka oid naslchilik ishlari, itlarni amaliy maqsadlarda foydalanishga tayyorlash, yangi it zotlarini yetishtirish, ularni sinovdan o'tkazish, shajara va naslchilik daftarlarini yuritish ishlari olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat itlaridan foydalanish va boqish maqsadida zotdor itlarni xizmatga o'rgatish, harbiy sohada qo'llash, boqish va doimiy jangovar shay holatda saqlab turish masalalariga rahbarlik qilish uchun kinologiya xizmati faoliyat yuritadi.

KIRIB-CHIQISH REJIMI – qo'riqlanayotgan hudud, harbiy qism,

shaxsiy tarkib va qismga (obyektga) tashrif buyurganlarning obyektga kirib-chiqishini tartibga soluvchi qonun-qoidalar tizimi. Qurolli Kuchlarda belgilangan kirib-chiqish rejimining asosiy maqsadi – davlat va harbiy ahamiyatga ega sirning saqlanishi, qo'shinlarning yuqori saviyadagi hushyorligi va jangovar shayligini ta'minlashdir.

KICHIK KALIBRLI ARTILLERIYA – stvolli artilleriyaning kalibri 20-75 mm keladigan to'plari.

Kichik kalibrli artilleriya jumlasiga katta tezlikda o't ochuvchi (o't ochish sur'ati bitta stvol uchun daqiqada 1000 donagacha o'q), nishonni qidirish va kuzatib borish, koordinatalarini aniqlash va to'pni avtomatik tarzda yo'llash qurilma va jihozlari bilan ta'minlangan – avtomatik zenit va aviatsiyaga o'rnatiladigan to'plar kiradi.

KICHIK KALIBRLI O'QOTAR QUROL – kalibri 6,5 mm dan kichik, stvolli, o'qotar qurol. Bunday qurollar nishonni avtomatik tarzda aniq urish va vaznni yengillashtirish kabi sifatlarini oshirish zarurati tug'ilgani bois Ikkinchi Jahon urushi yillaridan so'ng ishlab chiqarila boshlandi.

Mazkur qurol sport quroli sifatida ham qo'llaniladi.

KICHIK SERJANT – serjantlar tarkibiga taalluqli ilk harbiy unvon. 1940-yilda ta'sis etilgan.

Harbiy-dengiz flotida ushbu unvonga 2-darajali starshina unvoni mos keladi.

KOKARDA – harbiy bosh kiyimga qadaladigan, belgilangan namunadagi farqlovchi nishon. Ilk bor o'rta asrlarda Yevropa mamlakatlarining yengil kavaleriyasida paydo bo'lgan.

KOLLEGIYA (lot. *collegium* – o'rtoqlik, birodarlik) – 1) rahbarlik qiluvchi, maslahat yoki farmoyish beruvchi organi tashkil etadigan shaxslar guruhi; 2) bir kasbdagi kishilarning ixtiyoriy uyushmasi.

KOLONNA (frans. *colonne*, lot. *columna* – to'g'ri) – 1) harbiy xizmatchilarning ketma-ketligi, bo'linmalar (mashinalar)ning esa nizomda yoki komandir tomonidan belgilangan distansiyalarda birin-ketin joylashgan safi. Samolyotlar (misol uchun, zvenolar) kolonnasi – jangovar tartib shakllaridan biridir; 2) ustun; 3) ustun shaklidagi yodgorlik.

KOMANDA – 1) muayyan xizmatga oid majburiyatlar yoki biron-bir ishlarni bajarish uchun mo'ljallangan, uch va undan ortiq kishidan iborat, doimiy (shtatda ko'zda tutilgan) yoki vaqtinchalik harbiy tashkilot.

Doimiy komandalar jumlasiga: poligon, o't o'chiruvchi va ayrim

komandalar, kemalarda esa jangovar qism va xizmatlar bo'linmalari (misol uchun, rul komandasi, radiotelegrafistlar komandasi) kiradi.

Favqulodda vaziyatlar tizimida esa harbiylashtirilmagan tuzilmalar asosini tashkil etadi;

2) komandirning, boshliqning harbiy nizomlarda belgilangan lo'nda ifodalanadigan og'zaki buyrug'i.

KOMANDIR – zimmasiga bo'linma, qism, kema yoki qo'shilmani boshqarish yuklatilgan Qurolli Kuchlardagi mansabdor shaxs.

Yakka boshliq hisoblanib, unga tobe bo'linmaning (qismning) jangovar va safarbarlik shayligi hamda qo'yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun javob beradi.

Komandir bo'ysunuvchilaridan Nizom, buyruq va ko'rsatmalar talablari, majburiyatlarini o'z vaqtida aniq bajarishlarini talab etishi, oqilona tashabbuskorligi, tirishqoqligi, jasorati va alohida xizmat ko'rsatgan harbiy xizmatchilarni rag'batlantirishi lozim bo'lib, vazifasiga sovuqqonlik bilan yondashgan shaxslardan mas'uliyat talab etishga majburdir.

Komandirning majburiyat va huquqlari harbiy nizomlarda belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom Nizomiga muvofiq komandir buyrug'i – bo'ysunuvchilar uchun qonun hisoblanib, so'zsiz va aniq bajarilishi lozim.

KOMANDIRNING ISH XARITASI – shartli va qisqartma belgilar yordamida vaziyat va ushbu vaziyatning jang (operatsiya) davomida o'zgarishi komandir (boshliq, shtab ofitseri) tomonidan grafik shaklda tasvirlash uchun mo'ljallangan topografik (maxsus) xarita. Komandirning ish xaritasi yordamida:

- olingan vazifa anglab olinadi;
- vaziyat o'rganib chiqilib, baholanadi;
- qaror qabul qilinib, bo'ysunuvchilarga jangovar vazifalar qo'yiladi;
- chegaradosh bo'linmalar (qismlar) bilan hamkorlik tashkil qilinadi;
- yuzaga kelgan vaziyat katta boshliqqa bildiriladi va h.k.

Komandirning ish xaritasidan jangovar hujjatlar, jangovar ko'rsatmalar kabilarni ishlab chiqish mobaynida foydalaniladi.

KOMANDIR O'RINBOSARI – komandirga, boshliqqa bevosita bo'ysunuvchi, tegishli bo'linma, qism, kema qo'shilma, xizmat, muassasa va harbiy ta'lim muassasasi shaxsiy tarkibi uchun to'g'ridan to'g'ri boshliq sanaladigan mansabdor shaxs. Qism komandirining birinchi

o'rinbosari-shtab boshlig'idan tashqari, tarbiyaviy ishlar, front orti ta'minoti va qurol-aslaha, o'quv-uslubiy va ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosar lavozimlari mavjud. Odatda, komandir o'rinbosarining harbiy unvoni komandirning harbiy unvonidan bir pog'ona past bo'ladi.

Komandir o'rinbosarining huquq va majburiyatlari Nizom, qo'llanma, yo'riqnoma va komandir, boshliq ko'rsatmalari bilan belgilanadi.

KOMENDANT (frans. *commandant* – komandir, boshliq) – turli davlatlar qurolli kuchlaridagi mansabdor shaxs. Ilk bor XVI asrda ta'sis etilgan.

Harbiy komendant lavozimi yirik garnizonlar, temiryo'l stansiyalari, aeroportlar, shtablar, harbiy muassasalar, harbiy-ta'lim muassasalarida mavjud.

Qo'shinning yurishi, harakat mobaynida joyda joylashishi kabi hollarda ofitserlar tarkibidan shtatdan tashqari yo'nalish, hudud, kechuv joyi komendanti tayinlanishi mumkin.

Garnizon komendanti har bir garnizonda tayinlanadi va u garnizon boshlig'iga bo'ysunib, uning nomidan ko'rsatmalar berish huquqiga ega. Garnizon komendanti jamoat joylaridagi harbiy xizmatchilar orasida harbiy intizomga rioya qilish, garnizon xizmatini tashkil etish va yuritilishiga javob beradi.

Garnizon komendantining huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovul xizmatlari hamda Intizom Nizomlarida belgilab qo'yilgan.

KOMENDANTLIK SOATI – muayyan aholi punktida sutkaning belgilangan vaqtida maxsus ruxsatnomasiz aholining ko'chaga chiqishi man etilgan vaqt. Komendantlik soati faqat harbiy holat sharoitidagina o'rnatiladi.

KOMENDANTLIK XIZMATI – qo'shnlarning ko'chib o'tish, yurish, to'planish, yoyilish, joylashish va joylashgan joyda, hududda belgilangan tartibga rioya etish kabi amallarni o'z vaqtida va pinhona bajarilishini ta'minlash maqsadida tashkil etiladigan chora-tadbirlar tizimi.

Komendantlik xizmati yurish yo'nalishlari, qo'shin yig'ini, jamlanishi va jangovar harakati hududlarida, zaharlangan, zararlangan zonalar, suv to'sig'i va tog' dovonlaridan oshib o'tilayotganda qismlar shtablari tomonidan tashkil etiladi.

Komendantlik xizmatini tashkil etish mobaynida komendantlik xizmati joriy etilgan hudud, joy va komendantlik postlari, harakatlarni tartibga solish va nazorat-o'tkazish postlarining, punktlarining ish tartibi

belgilab beriladi. Komendantlik xizmatiga oid majburiyatlarni bajarish uchun tegishli komendantlar tayinlanadi. Harakatlarni tartibga solish va komendantlik xizmatining shtatda ko'rsatilgan bo'linmalariga tegishli kuch va vositalardan foydalaniladi. Komendantlik xizmatining asosiy vazifalari:

- qo'shinlar ko'chishini tartibga solish;
- niqoblanish choralarga rioya etilishini qat'iy nazorat qilib borish;
- orqada qolib ketgan shaxsiy tarkib, texnika va transport vositalarini yig'ish va o'z qismlariga yuborish;
- yurish yo'nalishlarini qo'riqlash;
- qo'poruvchi guruhlariga qarshi kurash.

KOMENDATURA – 1) garnizon (qal'a, port) harbiy komendanti boshqaruvining idorasi va komendant joylashgan bino. Ba'zan komendatura atamasi ostida – garnizonlar, temiryo'l stansiyalari, portlar va aeroportlar harbiy komendantlarining idoralari tushuniladi; 2) zimmasiga aerodromdagi aviatsiya qismini moddiy, aerodromga oid texnik va tibbiy jihatdan ta'minlash mas'uliyati yuklatilgan, HHKga mansub aviatsion texnik qism bo'linmasi; 3) chegara qo'shinining bir necha chegara zastavalarida tashkil topgan va davlat chegarasining muayyan qismini muhofaza etish uchun mo'ljallangan bo'linmasi.

Komendatura boshqa holatlarda ham joriy etilishi mumkin.

KOMPAS (lot. *pyxis*) – geografik yoki magnit meridiani yo'nalishini ko'rsatadigan, gorizont tomonlarini aniqlash, mahalliy jismga (nishon, mo'ljalga) nisbatan magnit azimutini bilish va tayinlangan harakat yo'nalishiga amal qilib borish uchun mo'ljallangan asbob.

Magnitli, mexanik, ya'ni gidrokompas, astronomik, radiokompas va shu kabi kompaslar mavjud.

Magnitli kompas ishi – magnitlashtirilgan milning shimol-janub yo'nalishidagi magnit meridiani bo'ylab joylashish xossalari asoslangan.

Mexanik kompas ishi – erkin osib qo'yilgan tez aylanuvchan rotorning aylanish o'qi o'z yo'nalishini o'zgartirmay saqlab turishi va geografik meridian tekisligida tutib turilishiga asoslangan.

Zamonaviy giroskopik kompas – murakkab elektron va elektron-mexanik qurilma bo'lib, geografik (haqiqiy) meridian yo'nalishini barqaror tarzda 0,1-0,2° ga qadar aniqlikda ko'rsatadi.

Astronomik kompas osmon jismini uzluksiz kuzatish yo'li bilan meridian yo'nalishini aniqlaydi.

Radiokompas obyektning bo'ylama o'qi va radiomayoq tomon

yo'nalish orasidagi burchakni o'lchaydi.

Kompas kema boshqarish, aviatsiya, geodeziya, topografiya, kon ishlari va harbiy ishda keng qo'llaniladi.

Samolyot *radiopelengatori* quruqlikdagi uzatuvchi (keng diapazonli) radiostansiyalar va radiomayoqlar tomon yo'nalishni avtomatik tarzda aniqlaydi.

KOMUFLYAJ – obyektlarning, tank, to'p, samolyot, kema, bino kabilarning shaklini buzib, ko'z bilan optika orqali ko'rganda va razvedka vositalari bilan suratga olinganda tanib olishni qiyinlashtiruvchi, turli tusdagi dog'lar bosish, chiziqlar yuritish yo'li bilan harbiycha niqoblash usullaridan biri.

Komuflyaj Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlarida keng ko'lamda qo'llanilgan bo'lib, bugungi kunda ham o'z mohiyatini yo'qotmagan.

KONVOY (gollandcha – *konvooi*) – 1) tergov ostidagi va sudlanuvchi harbiy xizmatchini, harbiy sud tomonidan sudlangan harbiy xizmatchini, intizomiy ta'zir berish borasida hibsga olingan askarni (matrosni) qo'riqlash va kuzatib borish uchun mo'ljallangan harbiy bo'linma (komanda, alohida harbiy xizmatchi); 2) harbiy transport va savdo kemalarining dengizdan xavfsiz o'tishini qo'riqlayotgan harbiy kemalar otryadi.

KONVOYLIK XIZMATI – man etilgan hudud va davlat chegaralarini buzgan shaxslar, harbiy asirlar, hibsga olingan va sudlanganlarni, shuningdek, davlatning hududiy suvlariga ruxsatsiz kirib kelgan xorijiy kemalarni qo'riqlash va kuzatib borish borasidagi vazifalarni bajaruvchi maxsus xizmat. Konvoylik xizmati IIV ichki qo'shinlari, urush davrida ayrim davlatlarda tuziladigan konvoylik batalyonlari, armiya va chegara qo'shinlariga mansub harbiy qismlardan tayinlangan qorovullar va konvoylar tomonidan amalga oshiriladi. Konvoylik xizmatini o'tashning muhim tamoyillari:

- qonunchilikka qat'iy rioya etish;
- konvoylanilayotgan shaxs va qo'lga olingan xorijiy kemalarni ishonchli qo'riqlash;
- konvoylanilayotganlarni tayinlangan joyga o'z vaqtida yetkazish;
- konvoylanilayotganning qochib ketishi va o'z-o'zini qasddan jarohatlashi kabi jinoyatlar sodir etishining oldini olish va bunga yo'l qo'ymaslik;
- konvoylanilayotgan shaxs begonalar tomonidan haqoratlanishi va unga nisbatan kuch ishlatilishiga yo'l qo'ymaslikdir.

Konvoylik xizmati amaldagi qonunchilikka muvofiq o'talayotganligini nazorat qilish mas'uliyati tegishli prokuraturalar zimmasiga yuklatilgan. Konvoylik xizmati qoidalarini buzgan harbiy xizmatchilar "Harbiy jinoyatlar to'g'risida"gi Qonunga muvofiq intizomiy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

KONSERVATSIYALASH – 1) mashina, dvigatel va dastgoh kabilarni ishlatilmaydigan davrida ehtiyot qilish va uzoq vaqt saqlashdan oldin qo'llaniladigan (korroziyadan himoya qiluvchi) texnik choralar; 2) yog'ochning chirishiga qarshi chidamliligini oshirish maqsadida antiseptik vositalar bilan ishlov berish, sirtini kuydirib ko'mir qilish yoki bo'yash; 3) me'morchilik, tarixiy-madaniy va arxeologik yodgorlik, badiiy asar, kitob, hujjat kabilarning uzoq saqlanishini ta'minlaydigan tadbirlar majmui.

KONTAKTSIZ URUHLAR – o'ta aniq qurollarning katta miqdorda qatnashishi mumkin bo'lgan urushlar. Bunday urushlar kelajakka daxldor va aynan shu urushlarga deyarli barcha davlatlarning qurolli kuchlari shay turishi lozim. Kontaktsiz urushlarda havo va dengiz bazasidagi o'ta aniq qanotli raketalarning ommaviy tarzda qo'llanilishi turli maqsadlarga mo'ljallangan ko'p sonli uchuvchisiz boshqariladigan uchish apparatlari yordamida amalga oshiriladi. Ular bir vaqtning o'zida bir necha strategik havo-kosmik yo'nalishlarida harakat qiladi, ya'ni asosiy urinish ma'lum yo'nalishga mo'ljallanmaganligi tufayli himoyalanuvchining havo hujumidan himoya zonasida juda chigal havo-kosmik vaziyatni keltirib chiqaradi. Kontaktsiz urushlarda ochiq-oydin ajratilgan bosh zarba yo'nalishi bo'lmaydi, ya'ni zarbalar urish, harbiy harakatlar sahnasining barcha yo'nalishlari orqali beriladi. Harbiy san'at tamoyillari yangi mazmun bilan boyiydi: birinchidan, bunday urushlarda razvedka-zarba harbiy tizimlarning birdaniga tig'iz harakatlari yetakchi bo'ladi. Zarba berish vositalarining tashuvchilari dushman bilan bevosita kontaktsiz holda bo'ladilar; ikkinchidan, strategik va siyosiy maqsadlarga erishishda yadro quroli ta'sirining keskin kamayishi yoki butunlay yo'qolishi mumkin. Yadro quroli ko'pchilik davlatlarning qurollanishida mavjud bo'lgani holda undan har qanday kritik vaziyatda ham foydalanib bo'lmaydi; uchinchidan, urushning kontaktsiz xarakterga egaligidan quruqlikdagi qo'shinlar guruhlar, kuchlar va vositalar, qurol-yarog', urush maydoni kabilarga zarurat qolmaydi; to'rtinchidan, qurolli kuchlar shakllari va qo'shin turlarining urinishlarini muvofiqlashtirish ikkita biri-biriga bog'langan, lekin qarama-qarshi yo'nalishdagi strategik yadrosiz

zarbdor va strategik himoyadagi kuch va vositalar orasida boradi; beshinchidan, kontaktli urushlarning tarixan ma'lum bo'lgan jang va kurash elementlari – o't ochish, zarba va manyovrlardan faqat o'ta aniq kuch va vositalar zarbasi saqlanib qoladi, lekin u himoyalalanuvchi tomonning zarba berish vositalari yetib bora olmaydigan olis zonalaridan beriladi.

KONTRAKT BO'YICHA HARBIY XIZMAT – kontrakt bo'yicha harbiy xizmat Qurolli Kuchlar safidagi haqiqiy harbiy xizmatga ixtiyoriylik asosida harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar orqali davlat bilan tuziladigan kontraktga binoan kirgan fuqarolar bajaradigan harbiy xizmat turidir.

Harbiy xizmatni kasb tariqasida tanlagan fuqarolar kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlarida o'taydilar.

Harbiy xizmatni o'tash muddatlari va asosiy shartlari kontraktida belgilanadi. Bunda haqiqiy harbiy xizmatga kontrakt bo'yicha kirayotgan shaxslar bilan dastlabki kontrakt besh yilga tuziladi; kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar (rezervdagi harbiy xizmatga majburlar) bilan yangi kontrakt besh yilga yoki agar harbiy xizmatda bo'lish yoshining chegarasiga yetishiga besh yildan kam qolgan bo'lsa, kamroq muddatga tuziladi. Oliy harbiy ta'lim muassasalarining kursantlari bilan o'qish davri uchun kelgusida ularning ofitserlar tarkibi lavozimlarida harbiy xizmatni kamida besh yil majburiy o'tash sharti bilan kontrakt tuziladi.

Harbiy xizmatning kontraktida nazarda tutilgan muddati tugaganidan keyin taraflarning kelishuvi bilan bu muddat yangi kontrakt tuzish orqali uzaytirilishi mumkin. Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tash tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

KORPUS (lot. *corpus* – tana) – 1) aksariyat davlatlarning quruqlikdagi qo'shinlari va qurolli kuchlarining ayrim turlariga mansub oliy taktik yoki operativ taktik qo'shilma (birlashma). Bir necha taktik qo'shilma, qo'shin turiga mansub harbiy qism va maxsus qo'shinlar, boshqaruv va ta'minot organlaridan tashkil topgan. Korpus, birlashma tarkibida yoki mustaqil tarzda taktik va operativ taktik vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan; 2) mashina qismi bo'lib, odatda, barcha asosiy mexanizmlarni o'z ichiga mujassamlashtiruvchi asos sifatida xizmat qiladi; 3) kemanding nazariy chizmasi proyeksiyalaridan biri.

KOSMIK QUROLLAR – harbiy vazifalarni kosmosda yoki

kosmosda turib bajarish uchun mo'ljallangan vositalar, shu jumladan, osmon jismlarida joylashgan vositalar kompleksi. Bugungi kunda yadro quroliga ega birorta ham davlat uni kosmosga joylagan emas. Kosmosda sun'iy yo'ldoshlar tizimi mavjudligi qarshi tomonning kutilmagan tarzda yadroviy zarba berish imkonidan mahrum etib, strategik barqarorlik tutib turilishiga omil bo'lmoqda. Kosmik qurol-aslahalarning asosiy elementlari – harbiy jihatdan foydalanishga mo'ljallangan kosmik yoki aviatsion kosmik tizimlardir. Ularning tuzilishi, bortiga joylashtiriladigan apparatlarining rusum va uskunalari – parvoz mobaynida hal etadigan masalalarga muvofiq belgilanadi. Harbiy sohada foydalanishga mo'ljallangan, aksariyat kosmik apparatlar, kosmik parvoz sharoitida davomli ishlay olish qobiliyatiga egadir. Bunday apparatlar sifatida Yerning avtomatik sun'iy yo'ldoshlari, boshqariluvchi kosmik kema, aviatsion-kosmik apparat, orbital kosmik stansiya kabi kosmik apparatlardan foydalanish mumkin. Kosmik qurolning o'ziga xos xavfi, ushbu xavfning ommaviyligida, ya'ni qurol bilan orbitalarda manyovrlar bajarish imkoniyatining mavjudligi va Yer sharining har qanday nuqtasi ustida paydo bo'lishi; parvozga kam vaqt sarflanishi deyarli oniy harakatga tushishida ifodalanadi. Kosmik qurollarning inson ishtirokisiz avtomatik tarzda qo'llanishi nazarda tutilgan. Ayni shu jihati uning o'ta xavfli ekanligidan dalolat beradi. Negaki eng mukammal va benuqson mexanizm va tizimlar ham kutilmagan fursatda ishdan chiqib, soxta trevoga yuzaga kelishi, natijada yadroviy halokat ro'y berishiga olib keladi. Tizimlarning yangi fizik-kimyoviy asoslarda yaratilayotganligi esa oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkin.

KRIPTOGRAFIYA (yun. *kryptos* – maxfiy, yashirin) – 1) maxfiy yozuv. Matnning yozuv tizimini begona shaxslarning tushunmasligi uchun o'zgartish; 2) paleografiyaning (qadimgi qo'l yozmalarning xati va tashqi ko'rinishlarini o'rganuvchi fanning) maxfiy yozuv tizimi grafikasini o'rganuvchi tarmog'i.

KUZATUV DOIRASI – sarhadida dushmanni kuzatish amallari yuritiladigan, dushman kuchi, vosita va harakatlari kabi ma'lumotlar olish uchun mo'ljallangan – joyning havo bo'shlig'i bilan birgalikdagi chegarasi. Kuzatuv chegarasining o'ng va chap tomonlari joylik jismlar (mo'ljallar) bilan, uzoqligi esa foydalanilayotgan kuzatuv vositalarining imkoniyatlari bilan cheklanadi.

KUZATUV JURNALI – dushman harakatlari, hududidagi obyektlar, o't ochish vositalari kabilarni kuzatish natijalari yozib boriladigan,

hisobot-axborot mazmunidagi hujjat.

Jangning barcha turlarida, kuzatuv punkti va postida yuritiladi.

KUZATUV PUNKTI – komandirlar, shtab ofitserlari va kuzatuvchilar tomonidan jang maydonida dushmani va qo'shinlarimiz harakatlarini kuzatish, bo'linmalarimizni boshqarish uchun mo'ljallangan (okopdagi yoki jihozlangan istehkomdagi) joy.

Hujum paytida kuzatuv punkti harakatchan zirhli vositalarda (vertolyot va tank kabilarda) jihozlanishi mumkin. Kuzatuv natijalari kuzatuv jurnalida aks ettirilib boriladi.

KUZATUVCHI – dushmani, qo'shinlarimiz holati va harakatlarini kuzatib turish, shuningdek, joy, ob-havo kabilarni o'rganib borish uchun tayinlangan harbiy xizmatchi.

Ko'rish va eshitish qobiliyatlari yaxshi rivojlangan, joydagi mo'ljallarga qarab mohirona ilgarilaydigan, razvedka bo'linmalari, shuningdek, boshqa qo'shin (kuch) turiga mansub bo'linmalarining askar va serjantlar, zarur bo'lgan hollarda ofitserlar tarkibidan tayinlanadi.

KUN TARTIBI – shaxsiy tarkibning kundalik xizmati, ta'lim olishi va maishiy hayotini tartibga solish maqsadida sutka vaqtining harbiy qismdagi (kemadagi) taqsimoti. Qism komandiri tomonidan joriy etilib, maxsus hujjat shaklida rasmiylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kun tartibida:

- uyg'onish;
- ertalabki badantarbiya;
- yuvinish;
- ertalabki ko'rik;
- o'quv mashqlari;
- ovqatlanish;
- qurol-aslaha, jangovar va boshqa texnikaga xizmat ko'rsatish;
- mustaqil tayyorgarlik;
- ommaviy-sport tadbirlari;
- tarbiyaviy ishlar o'tkazish vaqtlari ko'zda tutilgan.

Kun tartibida, shuningdek, shaxsiy tarkibning shaxsiy ehtiyojlari, kechki sayil, kechki yo'qlama o'tkazish va uyqu uchun 8 soat vaqt belgilangan. Kun tartibiga rioya etilayotganini nazorat qilib borish qism (kema) bo'yicha navbatchi va bo'linmalardagi navbatchilar zimmasiga yuklatilgan.

KURS (lot. *cursus* – yugurish, harakat) – 1) kema, samolyotning harakat yo'nalishi; 2) biror fan yoki uning biror qismining to'liq bayoni

(masalan, fizika kursi); 3) oliy o'quv yurti, texnikumda ta'lim olish bosqichi (masalan, 1-kurs, 2-kurs); 4) davolash muolajasining tugallangan davri (davolash kursi).

KURSANT – o'quv bo'linmalari, serjantlar tayyorlash maktablari va oliy harbiy-ta'lim muassasasida tahsil ko'rayotgan oddiy askar va serjantlar tarkibiga mansub harbiy xizmatchi. Kursantning huquq va majburiyatlari umumqo'shin va maxsus nizomlarda, shuningdek, harbiy o'quv muassasa vakilligidagi davlat bilan tuzgan shartnomasida belgilanadi.

KUCH NAMOYISHI – biror-bir davlat, davlatlar guruhi qurolli kuchlari tomonidan boshqa davlatga, davlatlar guruhiga qarshi siyosiy, iqtisodiy va harbiy tazyiq o'tkazish maqsadida namoyish etilayotgan tahdid soluvchi harakat.

Qurolli kuchlar jangovar shayligini oshirish, davlat chegarasiga yaqinlashtirib yoyish, manyovr, mashq, jangovar samolyotlar parvozi kabi tadbirlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

KO'MAKCHI ASBOB-USKUNA – belkurak, bolta, arra, misrang, cho'kich (metin-so'qa) va qo'shin tomonidan qurilish ishlarini bajarish uchun foydalanadigan boshqa asbob-uskuna. Aslaha anjomi tarkibiga kiritilgan bo'lib, olib yuriluvchi va tashiluvchi turlarga bo'linadi.

KO'NGILLI – harbiy xizmatga muayyan muddatga yoki urushning boshidan oxirigacha o'z istagi bilan kelgan shaxs – kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi.

Lavozimi harbiy xizmatga kelganida, mavjud shtatga ko'ra belgilanadi. Harbiy xizmatga belgilash borasidagi hujjatlar mudofaa ishlari bo'limida rasmiylashtiriladi.

KO'RGAZMALI TASHVIQOT – tasviriy vositalar: shior, plakat, rasm, diagramma, panno, fotomontaj, fotoro'znoma kabilar orqali ommaga siyosiy ta'sir o'tkazish shakli. Ko'rgazmali tashviqotning asosiy tamoyillari:

- dolzarblik;
- tezkorlik;
- his-tuyg'uli ifodalanish;
- tushunarli bo'lish;
- mavzuning aniqligidir.

Ko'rgazmali tashviqotga ijtimoiy-siyosiy axborot berish xonalari, klublar, kutubxonalar, harbiy shaharchalar hududlari, yashash va xizmat o'tash xonalarini jihozlash mobaynida katta e'tibor qaratiladi.

LAGER – qo‘shinning aholi punktidan tashqarida joylashib hayot kechirishi, jangovar va o‘quv vazifalarni bajarishi uchun maxsus tanlangan, jihozlangan joy.

LAGER YIG‘INI – shaxsiy tarkibga dala sharoitida ta‘limot berish maqsadida qism o‘quv markazida o‘tkaziladigan yig‘in. Qo‘shinni dala yig‘iniga chiqarish tartibi va o‘tkazilishining tashkiliy tomonlari jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik rejasi yoki katta komandir (boshliq) ko‘rsatmasi bilan belgilanadi. Lager yig‘ini davomida qo‘shinning jangovar tayyorgarligi mobaynidagi asosiy e‘tibor:

- shaxsiy tarkibga qurol va texnikani amaliy boshqarish ko‘nikmalarini singdirish;

- taktik vazifalar bajarilishini mashq qilish;

- qismlar (bo‘linmalar) harakatlaridagi o‘zaro hamkorlik, yakdillik va uyushqoqlikni takomillashtirish;

- bo‘linmalarining dala sharoitida boshqarilishiga qaratiladi.

LAGER XIZMATI – qo‘shinning lager va o‘quv markazida joylashishi mobaynida tashkil etiladigan ichki xizmat turi. Qo‘shinning dala ko‘nikmasi manfaatlari va lager sharoitidan to‘la-to‘kis foydalanish maqsadida ichki tartibni o‘rnatish va tutib turish borasida amalga oshiriladigan tadbirlar.

LAZARET – harbiy qism, kema va harbiy ta‘lim muassasasining davolash maskani yoki hospital turidagi mustaqil davolash muassasasi.

LAMPASLAR – shimning yon choklari bo‘ylab tusi shim tusidan farqlanib turuvchi, rangli movutdan tayyorlangan keng mag‘izlar.

Marshal, general va tarbiyalanuvchilarning farqlovchi nishoni.

LAFET – ustiga artilneriya qurolining stvoli o‘rnatiladigan qurilma. Stvolga vertikal va gorizontal burchaklar berish (qurolni yo‘naltirish mexanizmlari yordamida), o‘t ochilgan fursatda qurol tisarilishiga qarshi qurilmalar bilan tisarilish energiyasini so‘ndirish va bu paytda vujudga keladigan kuchni qurilma asosiga uzatish uchun mo‘ljallangan.

LEYTENANT (frans. *lieutenant*) – kichik ofitserlar tarkibiga mansub harbiy unvon. Ilk bor XV asrda Fransiyada ta‘sis etilgan. 1701-yildan 1917-yilga qadar faqat harbiy-dengiz flotida bo‘lgan. Qo‘shinlar uchun 1935-yil 22-sentabr kuni ta‘sis etilgan.

Ushbu unvon harbiy bilim yurtlarini yakunlagan harbiy xizmatchilar va harbiy bo‘lmagan oliy o‘quv muassasasida harbiy tayyorgarlikdan

o'tgan, harbiy xizmatga majbur fuqarolarga beriladi.

LOKATOR – aks etib kelayotgan, uzatilgan elektr magnit yoki tovush to'lqinlari yoxud obyektning o'zidan taralayotgan nurlanishga ko'ra obyekt joylashgan joyni aniqlash uchun mo'ljallangan qurilma. Lokatorlar:

- to'lqinlarining fizik tabiatiga ko'ra – optik, gidro va radiolokatsiya stansiyasi lokatoriga;

- o'rnatiladigan joylariga ko'ra – sun'iy yo'ldosh, samolyot va kemalarga hamda quruqlik yuzasiga o'rnatiladigan lokatorga bo'linadi.

- Zamonaviy lokator, odatda:

- tebranishlarni tebranishlar generatoridan nurlash va tutish uchun mo'ljallangan antenna;

- nurlangan obyektдан aks etib kelayotgan tebranishlarni qabul qilgich;

- fosh etilgan obyekt xususiyatlarini ko'rsatuvchi indikator;

- elektr manbai;

- lokator ishini boshqarish tizimlaridan tashkil topgan.

M

MADANIY-MA'RIFIY ISHLAR – komandir, tarbiyaviy ishlar organi va jamoat tashkilotlari tomonidan shaxsiy tarkib, qurolli kuchlar ishchi va xizmatchilariga ong, bilim berish va tarbiyalash borasida o'tkaziladigan tadbirlar tizimi. Qurolli kuchlarda o'tkaziladigan mafkuraviy ishlarning tarkibiy qismi. Madaniy-ma'rifiy ishlarning tayanch punktlari sifatida ofitserlar uyi, klub, kutubxona, muzey, teatr, ansambl, orkestr kabilar xizmat qiladi.

MAYOQ – dengizda qirg'oqning chiqib turuvchi qismlariga, daryoning quyilish joylari, qoyalar, sayoz joylarga quriladigan minorasimon inshoot. Kemalar qatnovida mo'ljal bo'lib xizmat qiladi. Yorug'lik tizimi, shuningdek, boshqa signallovchi vositalar (sirena, diafon kabilar), radiotexnik qurilmalar bilan jihozlanadi.

MAYOR (lot. *major* – yirik, katta) – aksariyat davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining katta ofitserlar toifasiga mansub harbiy unvon. Ilk bor 1698-1884-yillarda mavjud bo'lgan edi. Bugungi kundagi mayor unvoni 1935-yil 22-sentabr kuni ta'sis etilgan.

MALAKA – 1) biror narsaning sifatini belgilash, biror narsani

baholash; 2) muayyan mehnat turiga tayyorgarlik, yarog'lik darajasi, mahorat; 3) kasb, ixtisos (masalan, merganlik malakasi).

MALAKA DARAJASI – harbiy mutaxassislik qay darajada o'zlashtirib olinganligini belgilab beruvchi harbiy xizmatchining saviya ko'rsatkichi. Malaka darajasi belgilanadigan lavozim va mutaxassisliklar ro'yxati, harbiy xizmatchining malaka darajasini belgilash va tasdiqlash tartibi maxsus nizomlarda belgilangan. Yuqori malaka darajasiga ega harbiy xizmatchilar xizmat pog'onasi bo'yicha ko'tarilish, harbiy ta'lim muassasalariga kirish mobaynida o'rnatilgan imtiyozlardan foydalanadi. Bundan tashqari malaka darajasi uchun har oyda pul mukofoti beriladi.

MAMLAKAT MUDOFAASI – O'zbekiston Respublikasining suverenitetini, hududiy yaxlitligini, aholisining tinch hayoti va xavfsizligi himoya qilinishini ta'minlovchi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborotga oid, tashkiliy va boshqa tushdagi chora-tadbirlar tizimi.

MAMLAKAT MUDOFAASIGA VA QUROLI KUCHLARGA RAHBARLIK – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy bosh qo'mondoni tomonidan amalga oshiriladi. U O'zbekiston Respublikasi mudofaa siyosatining va harbiy qurilishining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Mudofaa vaziri urush davri sharoitida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy bosh qo'mondonining o'rinbosari hisoblanadi.

MAMLAKATNING HAVO HUJUMIDAN MUDOFAASI – davlat tasarrufidagi ishlab chiqarish hududlari, ma'muriy-siyosiy markazlar, aholi, qo'shin guruhlari, harbiy ahamiyatga ega va shu kabi obyektlarni havodan yakson etilishidan himoyalash maqsadida umumdavlat miqyosida o'tkaziladigan tadbirlar va qo'shinlar tomonidan yuritiladigan jangovar harakatlar majmui. Havo hujumidan mudofaa etish tadbirlari havo hujumidan mudofaa qo'shinlari tomonidan qurolli kuchlarning boshqa turlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Mamlakatning havo hujumidan mudofaasi tadbirlari:

– havo dushmanini razvedka qilish, u haqida qo'shinlar va obyektlarni xabardor etish;

- qiruvchi aviatsiyali va raketa-artilleriyali himoya tizimlari;
- radioelektron kurashni tashkil etish;
- strategik va taktik jihatdan niqoblanish;
- boshqaruv tizimi kabilardan iboratdir.

Mamlakatning havo hujumidan mudofaasi havodagi dushman harakatining ehtimoliy xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Mamlakatni havo hujumidan bugungi kundagi mudofaasida tovush tezligidan tez parvoz etuvchi qiruvchi-tutuvchi samolyotlar bilan ta'minlangan havo hujumidan mudofaa aviatsiyasi va jangovar harakatlari radiotexnik qo'shinlar tomonidan ta'minlanadigan zenit-raketali qismlar muhim o'rin egallaydi.

MANGU OLOV – vatan mustaqilligi va ozodligi yo'lida o'z hayotini fido etganlar siymosi va avlodlarning mangu minnatdorchiligi ramzi. Haykal, monument, yodgorlik va memorial komplekslar oldida yoqiladi.

MANYOVR – qo'shinning jangovar harakatlari jarayonida manyovr quyidagilarni anglatadi:

- dushmanga nisbatan samarali holatni egallash hamda kuch va vositalarning zaruriy guruhlarini tashkil etish maqsadida tez va uyushqoq harakatlanishi;

- dushmanning o'ta muhim obyektlariga qarata o'tkazilayotgan ta'sirni yopirilgan tarzda bajarish yoki yangi paydo bo'lgan nishonlarni yo'q qilish uchun – olovni (aviatsiya harakatlari va raketa qo'shinlari zarbalarini) ko'chirib o'tish.

Manyovr yordamida:

- *hujum davomida* – bir yo'nalishda olib borilayotgan harakatlarni boshqa yo'nalishga olib o'tish, dushmanni qurshab olish va shu kabi amallar;

- *mudofaa jarayonida* – xavfli yo'nalishlarni kuch va vositalar bilan kuchaytirish, dushman zarbasiga javoban zarba berish uchun guruhlar tashkil etish kabi amallar bajariladi.

Manyovr, dushman qanotini siquvga olish yoki uni aylanib o'tish, zarurat tug'ilganda esa samarali marraga qadar chekinish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ishtirok etayotgan qo'shin (kuch) miqdori va bajarayotgan vazifaga muvofiq:

- strategik;
- operativ;
- taktik manyovrlar bo'lishi mumkin.

MARDLIK – harbiy xizmatchining murakkab, xavfli vaziyatlarda o'zini tuta bilish, matonatini saqlab qolish, jasorat, jasurlik va qahramonlik namoyon etish qobiliyatini tavsiflovchi axloqiy-ruhiy va jangovar sifatleri.

Insonning xavfli va murakkab vaziyatlarda qat'iy va samarali harakatlanish qobiliyati, oldida turgan maqsadga erishish uchun bor kuchini safarbar eta olishi, zarur bo'lsa hayotini fido qilish bilan ifodalanadi.

Mardlikning yuqori cho'qqisi – qahramonlikdir.

Jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik, dala (havo, dengiz) ta'limoti davomida harbiy xizmatchida axloqiy-jangovar sifatlar muntazam shakllanib, mardonavor xulq-atvor tajribasi yig'ilib boradi.

Jangovar vaziyatlarga yaqinlashtirilgan sharoitda saboq olar ekan, harbiy xizmatchi, tinchlik davridayoq qiyinchiliklarni yengib o'tish, xavfli, murakkab va qizg'in vaziyatlarda muvaffaqiyatli harakatlanish qobiliyatlariga ega bo'ladi.

Harbiy xizmatchining mardonavor xulqiga muhim omil sifatida uning yuksak harbiy mahorati, jangovar texnikani mohirona boshqarishi va qurol-yarog'ni ustalik bilan qo'llay olishi, yaxshi umumiy-ilmiiy, harbiy-texnik va ixtisoslik bo'yicha tayyorgarliklari, ish ko'zini bilgan holda qaror qabul qilishi, ishonch va qat'iylik bilan vazmin harakatlanishini ta'minlaydi.

MARKAZIY HARBIY SPORT KLUBI – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish, targ'ib etish, sportchilar va yuqori toifali komandalar tayyorlash, harbiy okrug, qo'shilma va qismlarga ommaviy-sport ishlarini tashkil etishda ko'mak berish uchun mo'ljallangan o'quv-uslubiy markaz.

MARSH (frans. *marche* – yurish) – tayinlangan hudud yoki ko'rsatilgan marraga o'z vaqtida yetib borish maqsadida qo'shnlarning yo'llar va kolonna yo'llarida uyushgan tarzda va jangovar vazifalar ijrosiga shay holatda transport vositalari, jangovar mashinalar yoki piyoda ko'chib o'tishi.

Marshning asosiy ko'rsatkichlari jumlasiga:

- bosib o'tiladigan yo'l uzoqligi;
- davomiyligi;
- harakat yo'nalishlarining soni va kengligi;
- bir sutkada bosib o'tiladigan yo'lning o'rtacha qiymati;
- qo'shinlar harakatining marsh tezligi kiradi.

Marsh tezligi, odatda:

- avtomobil texnikasi kolonnasi uchun – soatiga 40 km;
 - zirhli-tank texnikasi bilan avtomobil transportining qo'shma kolonnasi uchun – soatiga 30 km;
 - piyoda harakatlanganda – soatiga 4-5 km tezlikda amalga oshiriladi.
- Jangovar vaziyatda tashkillashtirilgan marsh imkon qadar maksimal tezliklarda amalga oshiriladi.

MARSHAL (frans. *marechal*) – 1) qirolning tan soqchilari va otlig qo'riqchilarini nazorat qilgan saroy amaldori; 2) ayrim davlatlarning qurolli kuchlaridagi oliy harbiy unvon. Ilk bor XVI asrda Fransiya ta'sis etilgan. XIX asrda marshal unvoni Ispaniya, Turkiya (mushir), Italiya, Yaponiyada, XX asrda esa boshqa davlatlarda kiritildi. Avstriyada (keyinchalik Avstro-Vengriya), Prussiya (Germaniya) va Rossiyada marshal unvoniga general-feldmarshal, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlarida esa feldmarshal unvoni tenglashtirilgan. Sobiq SSSRda Sovet Ittifoqi marshali, aviatsiya, qo'shin turi, maxsus qo'shinlar marshali va Bosh marshali unvonlari mavjud bo'lgan; 3) Polshada ayrim fuqaro shaxslarining lavozimi, masalan, Seym marshali.

MARSH TEZLIGI – marshdagi qo'shinlar harakatining o'rtacha tezligi (bir soat yoki sutka davomida bosib o'tilgan kilometrlar miqdorida o'lchanadi). Marsh tezligi muayyan sharoit, hudud va yo'nalishlarni hisobga olgan holda rejalashtiriladi.

MASOFALI BOSHQARUV – obyektlarni, apparat, mashina yoki texnik tizimlarni uzoqdan turib boshqarish. Bunda har qaysi obyektga alohida aloqa liniyasi orqali signallar yuborib turiladi.

MASOFA O'LCHAGICH – masofani bevosita o'lchov ishlarini o'tkazmay, joyda aniqlash uchun mo'ljallangan asbob.

Artilleriyadan o't ochish, bomba uloqtirish, topografik o'lchovlar o'tkazish, navigatsiya, muhandislik geodeziyasi, astronomik o'lchovlar, suratga olish amallari bajarilayotganda foydalaniladi.

Akustik, lazerli, optik, radio va yorug'lik yordamida masofa o'lchagichlar, ishlash tamoyiliga ko'ra esa – faol va passiv masofa o'lchagichlar mavjud.

MATONAT – jangchining o'ta xavfli sharoitda jangovar vazifani bajarishni davom etishi uchun ruhi va qobiliyatini saqlab qolish imkonini beruvchi axloqiy-ruhiy va jangovar sifatleri. Matonat burchni ong bilan anglash, kuchli iroda, mardlik va mahorat kabi sifatlar va jamoatchilik oldidagi mas'uliyatni sezish singari xislatlar bilan uzviy bog'liqdir.

MAFKURAVIY ISH – Vatan mustaqilligini himoya qilish uchun O'zbekiston Respublikasi jangchilarining ilmiy dunyoqarashi, huquqiy ongi, yuksak axloqiy-siyosiy va jangovar sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan qo'mondon, komandir va boshliqlar, harbiy kengash va tarbiyaviy ishlar organlari, shu jumladan, harbiy xizmatchilarning jamoat tashkilotlari tomonidan (hududiy tashkilotlar bilan hamkorlikda) amalga oshiriladigan faoliyat. Ushbu ish mazmunan – nazariy, tashviqiy, targ'ibot,

madaniy-ma'rifiy sohalarni qamrab oladi. Mafkuraviy ishning asosiy tamoyillari:

- ilmiy asoslangan;
- dushman mafkurasiga nisbatan murosasiz;
- haqqoniy;
- hayot va amaliyot bilan bog'liq;
- tushunish oson;
- uyg'unlashtirilgan va tabaqalarbop;
- tezkor va uzluksiz bo'lishi lozim.

Mafkuraviy ish zamonaviy harbiy doktrina muammolari va harbiy qurilish tamoyillarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish, qurolli kuchlar shaxsiy tarkibi tayyorgarligining ijtimoiy-siyosiy va axloqiy tomonlarini tadqiqot etishga yo'naltirilgan. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida yuritilayotgan mafkuraviy ishlar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining tarbiyaviy ishlar bosh boshqarmasi tomonidan boshqariladi.

MAXSUS ISHLOV BERISH PUNKTI – harbiy texnika, qurollar, aslaha va transport vositalarini degazatsiya, dezaktivatsiya va dezinfeksiyadan o'tkazish, shaxsiy tarkibga sanitar ishlov berish uchun mo'ljallangan joy.

MAXSUS KIYIM – harbiy xizmatchilarning harbiy texnikaga xizmat ko'rsatish va undan foydalanish, omborxona, aerodrom, park kabi joylarda ishlash mobaynida, shuningdek, dushman fosh etishi ehtimoli mavjud sharoitda hamda zararlangan joylarda kiyib yurish uchun mo'ljallangan harbiy kiyim buyumlari. Maxsus kiyimlar:

– umumiy foydalanish uchun – kombinezon, kamzul, shlyom va etiklar;

- niqoblovchi – kostyum va xalatlar;
- saqllovchi – plash, fartuk kabi turlarga bo'linadi.

Harbiy xizmatchi maxsus kiyim bilan ixtisosi, faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va sharoitiga qarab ta'minlanadi.

MAXSUS MASHINALAR – qo'shin va qurollar hamda qo'shinlarning jangovar harakatini ta'minlovchi apparatlarni boshqaruvchi maxsus uskunalar o'rnatilgan mashinalar. Maxsus mashinalar jumlasiga:

- jangovar harakatlarni boshqaruvchi mashinalar;
- jangovar ta'minot mashinalari;
- front orti ta'minoti mashinalari;
- texnik xizmat ko'rsatish mashinalari kabi mashinalar kiradi.

Suzuvchi maxsus mashinalar suv purkovchi dvijitellar bilan

uskunalangan.

MAXSUS QO'SHINLAR – qurolli kuchlarning jangovar va kundalik faoliyatini ta'minlash borasida maxsus vazifalar bajarish uchun mo'ljallangan harbiy qism va bo'linmalar.

Maxsus qo'shinlar jumlasiga: muhandislik qo'shinlari, aloqa qo'shinlari, kimyo qo'shinlari, radiotexnik qismlar, topogeodeziya bo'linmalari kiradi.

Front orti ta'minoti tarkibiga: yo'lsozlik qo'shinlari, avtomobil qo'shinlari, temiryo'l qo'shinlari, quvur yotqizuvchi qo'shinlar kabi maxsus qo'shinlar kiradi.

MASHQ – askariy amallarning o'zlashtirilishini mustahkamlash, takomillashtirish va avtomatik darajada bajarishga erishish maqsadida tahsil ko'ruvchilarning uslub va harakatlarni qayta-qayta takrorlashlari.

MA'LUMOT – 1) yuqori pog'onadagi komandir (boshliq) yoki shtabni muayyan ma'lumot bilan xabardor qilish uchun mo'ljallangan jangovar yoki xizmatga oid hisobot – ma'lumot mazmunidagi hujjat.

Urush va tinchlik davrlarida taqdim etiladi. Jangovar vaziyatda, odatda, jangovar ma'lumot berilib, ushbu ma'lumotda jangovar vazifa bajarilishining jarayoni, dushman amalga oshirayotgan harakatlar, tegishli komandir qarori, qo'shinlar holati va ta'minlanganlik darajasi kabi masalalar aks ettiriladi.

Bundan tashqari qo'shinlar harakatini ta'minlash turiga ko'ra razvedka ma'lumotlari, muhandislik va kimyoviy ta'minot kabi ma'lumotlar ishlab chiqiladi.

Aloqa tizimi va vositalarining holati – aloqa bo'yicha ma'lumotda aks ettiriladi.

Taqdim etish muddatiga ko'ra ma'lumotlar navbatdagi va navbatdan tashqari ma'lumotlarga bo'linadi. Navbatdagi ma'lumotlar, odatda, ma'lumotlar navbatining jadvalida (*"Ma'lumotlar navbatining jadvali" atamasiga qarang*) ko'rsatilgan muddatda, navbatdan tashqari ma'lumotlar esa vaziyat keskin o'zgargan hollarda bo'ysunuvchining tashabbusi bilan yoki yuqori pog'onadagi komandir (boshliq) talabiga muvofiq taqdim etiladi;

2) tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish. Ma'lumotli bo'lishning asosiy yo'li bilim yurtlarida o'qish bo'lib, bu yerda ta'lim va tarbiya qo'shib olib boriladi. Ma'lumot olishda mustaqil o'qish-o'rganish, madaniy-ma'rifiy ishlar, ijtimoiy mehnat faoliyatida qatnashishning ham ahamiyati katta.

MA'NAViy-MA'Rifiy ISHLARNING USTUVOR MAQSADI –

e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin shaxs ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – Vatan himoyachisini tarbiyalashdan iboratdir.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy maqsadlari:

- harbiy xizmatchilarda yuksak vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ularning faol hayotiy pozitsiyasi va qat'iy e'tiqodini, ona Vatan taqdiri uchun mas'uliyatini kuchaytirish;

- yurtimizga, xususan, milliy armiyamizning ma'naviy-axloqiy negiziga ta'sir o'tkazishga qaratilgan mafkuraviy tazyiq va informatsion-psixologik xurujlarga nisbatan harbiy xizmatchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

- harbiy xizmatchilarni ruhan uyg'oq va sergak bo'lishga, zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatni qalban his etishga, hamisha ogoh va hushyor bo'lib, xizmat-jangovar vazifalarni fidokorona bajarishga safarbar qilish.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy vazifalari:

- harbiy xizmatchilarning ma'naviy saviyasi, estetik tarbiyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an'analarimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan yagona tizimni yaratish;

- harbiy xizmatchilarning ong-u tafakkuriga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg'usini chuqur singdirish;

- harbiy xizmatchilar ongida milliy mafkura hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan yangi dunyoqarashni shakllantirish;

- harbiy xizmatchilarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini tizimli va izchil ravishda yetkazish hamda dunyoda va yon-atrofimizda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlariga nisbatan ularda ongli munosabat va faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, burchga sadoqat, mas'uliyat, fidoyilik tuyg'ularini oshirish;

- harbiy xizmatchilar qalbida milliy g'ururni kuchaytirish, Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini chuqur tushuntirish;

- milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o'rganish, Vatan ozodligi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur

zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etish asosida harbiy xizmatchilarda **"O'zbekiston xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi!"**, – degan hayotiy e'tiqodni qaror toptirish;

– dinning asl mazmun-mohiyatini teran ochib berish orqali harbiy xizmatchilarga ezgulik va rahmdillik an'analarini singdirish, insonparvarlik va mehr-oqibat munosabatlarini shakllantirish hamda ularni milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom, fidoyilik va sadoqat, halollik va poklik, mustaqil fikr va sog'lom turmush tarzi asosida tarbiyalash;

– yurtimizga qarshi qaratilgan mafkuraviy va informatsion-psixologik xurujlar, ularning ortida turgan destruktiv (buzg'unchi) kuchlarning g'arazli maqsadlarini fosh qilish, harbiy xizmatchilar ongi va qalbini beparvolik, loqaydlik, xudbinlik va g'oyaviy beqarorlik singari illatlardan forig' etish.

MA'NAViy-MA'RIFIY TAYYORGARLIK – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida olib boriladigan tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarining asosiy shakli hisoblanib, barcha toifadagi harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilarida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, vatanparvarlik va mamlakat taqdiriga daxldorlik hissini kamol toptirish, ularning ongi va qalbiga milliy g'oya va mafkurani chuqur singdirish, sog'lom dunyoqarash va faol hayotiy pozitsiyani hamda harbiy xizmat majburiyatlarini ongli ravishda, yuksak mas'uliyat bilan bajarish ko'nikmasini shakllantirish kabi maqsadlarda tashkil etiladi.

MA'NAViy-RUHIY IMKONIYATLAR – xalqning siyosiy va ma'naviy yetuklik saviyasi bilan belgilanadigan – mamlakat aholisining ruhiy imkoniyatlari. Harbiy sohada ma'naviy-ruhiy imkoniyatlar o'z ifodasini xalq va armiyaning har qanday sinovlardan o'tish qobiliyati va shayligida hamda xalq va armiyaning ma'naviy-siyosiy holatida topadi.

MA'NAViy SOG'LIQ – insonni dunyo bilan bog'langanligini ifodalab, milliy va diniy his-tryg'ular, go'zallikni idrok etish, unga intilish, hayotdan quvonish hamda undan qoniqqanlikda namoyon bo'ladi.

Ma'naviy sog'liqlikning asosiy belgilariga esa quyidagilar kiradi:

– hayotni qadriyat sifatida qabul qilib, unda yangi sifatlarni shakllantirishga intilish;

– o'ziga va atrofdagilarga gumanistik munosabatda bo'lish, erkalash, jazolash, kechira olish;

– hayot falsafasiga ega bo'lish;

– kunlik hayot tarzidan zavqlanish.

MA'NAVIY SOHADAGI TAHIDDLAR – ma'naviy inqiroz omillari. Ular:

– insonni barqaror ijtimoiy hayotiga zid bo'lgan axborot tahdidlari, axborotni manipulyatsiyalash, ya'ni dezinformatsiya, ma'lumotni yashirish va o'zgartirish;

– aholini milliy urf-odatlar, qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, etnik-madaniy va milliy tarixiy ildizlaridan ajratishga oid turli ko'rinishdagi harakatlar;

– mamlakatning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlarga odamlar moslashishining izchil emasligi;

– odamlarni faoliyat motiviga, faolligi, ijtimoiy yo'naltirilganligiga salbiy ta'sirlar;

– mafkuraviy, madaniy, ma'naviy va iqtisodiy ekspansiyalar;

– aholining jismoniy, ma'naviy va psixologik sog'lig'ini ta'minlash uchun tizim faoliyatining samarasizligi xavfi;

– ta'lim-tarbiya tizimida o'tkazilayotgan islohotlarning zamonaviy emasligi;

– intellektual mulkni himoyalashning me'yoriy chora-tadbirlarini yaratilmaganligi;

– madaniy va moddiy boyliklarni saqlash va ularni ommaviylashtirishdagi to'siqlar;

– psixologik himoya tizimining yetarli darajada shakllantirilmaganligi.

MA'NAVIY XAVFSIZLIK – millatning sifat jihatidan o'zligini yangicha anglashida ifodalanadigan, jamiyat hayoti uchun zaruriy shart-sharoitlar mavjudligi yoki ularni yaratish an'alarini, madaniyati va tarixini, ma'naviy-siyosiy birlik darajasini aks ettiradigan milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi. Ma'naviy xavfsizlik xalq ma'naviyati va vatanparvarligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, hukumatning ichki va tashqi siyosati xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanishida o'z ifodasini topadigan davlat xavfsizligini ta'minlashi mumkin.

Xalq va davlat boshidan kechiradigan har qanday fojialar, odatda, o'ziga xos bo'lgan ma'naviyatning buzilishi, azaldan yot sanalgan g'oya va qadriyatlarning xalq ongiga singib ketishi va bunday g'oyalarni amalga oshirish uchun nomaqbul usullar qo'llanishidan boshlanadi. Shu bois, ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash ustuvor vazifa sanaladi, zero, u millatning ma'naviy ruhini, o'z oldiga tarixiy vazifalarni qo'ya bilish va bajara olish qobiliyatini ifoda etadi.

MEDALLAR – biror voqea, arbob yoki joy sharafiga chiqariladigan, odatda, ikki tomoniga tasvir tushirilgan yoki yozuvi bo'lgan, ko'pincha, doira, tuxumsimon yoki ko'p burchakli shakldagi har xil o'lchovli metall nishon. Medallar harbiy va boshqa sohalarida ko'rsatilgan xizmatlari uchun beriladigan davlat mukofotidir. Respublikamiz medallari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ta'sis etiladi va topshiriladi yoki uning nomidan topshiriladi. Asosan tasdiqlangan tasvir yoki yozuvi bo'lgan doira shaklidagi metallardan tayyorlangan nishon ko'rinishiga ega. Ko'krakning chap tomonida ordenlardan keyin taqib yuriladi. "Oltin yulduz" medali bundan istisno. "Oltin yulduz" medali – O'zbekiston Qahramonining alohida taqdirlash nishoni, orden va medallardan yuqoriroqda taqib yuriladi. Taqdirlanganlar medallar o'rniga tegishli rang va tasvirlari tushirilgan tasmali planka taqib yurishlari mumkin.

MERGAN – bexato otish, niqoblanish va kuzatish san'atini to'la o'zlashtirib olgan maxsus tayyorlangan o'qchi. Nishonga olish uchun mo'ljallangan maxsus moslamaga ega miltiq bilan qurollangan bo'lib, paydo bo'luvchi, harakatchan, ochiq va niqoblanib olgan muhim yakka nishonlarni yo'q qilish borasidagi vazifalarni bajaradi. O't ochish uchun yashirin joy tanlanib tekshiriladi.

MERGAN MILTIG'I – nishonga olish uchun mo'ljallangan optik moslamaga ega miltiq. Yakka nishonlarga qarata o't ochish uchun xizmat qiladi. Mergan miltig'i o'qdonli va o'z-o'zidan o'qlanuvchi turlarga bo'linadi. 1931-yildan e'tiboran qurol-aslaha tarkibida 7,62 mm li mergan miltig'i qo'llanilib kelingan. 1963-yilda Dragunovning o'z-o'zidan o'qlanuvchi 7,62 mm li mergan miltig'i qabul qilindi. Tunda o't ochish uchun mergan miltig'iga tunda ko'rishga mo'ljallangan nishonga olish moslamasi o'rnatiladi.

METEOROLOGIYA (yun. *meteora* – atmosfera va osmon hodisalari) – yer atmosferasi va unda ro'y beradigan jarayonlarni o'rganuvchi fan. Meteorologiyaning asosiy bo'limi – atmosfera fizikasi. Meteorologiya atmosferaning tarkibi va uning tuzilishi, atmosfera va quruqlik yuzasidagi issiqlik almashinishi va issiqlik rejimi, atmosferadagi namlik almashinishi va suvning davriy o'zgarishlari, havo massalarining harakati, atmosferada ro'y beradigan elektr, optik va akustik hodisalarni o'rganadi. Meteorologiyaga aktinometriya, dinamik va sinoptik meteorologiya, atmosfera optikasi, aerologiya, shuningdek, boshqa amaliy meteorologik fanlar kiradi.

METROLOGIYA (yun. *metron* – o'lchov va *logos* – ta'limot) –

o'lchovlar, ularning bir xilligini ta'minlash usullari va vositalari hamda talab etilgan aniqlikka erishish yo'llari haqidagi fan; fizika bo'limi. Asosiy muammolari: a) o'lchashlarning umumiy nazariyasi; b) kattaliklar birliklarini va ularning tizimlarini yaratish; v) o'lchash usullari va vositalari; g) o'lchashlar aniqligini (o'lchashlar noaniqligi nazariyasi, o'lchashlar xatoligi nazariyasini) baholash usullari va ifodalash yo'llari; d) o'lchashlar bir xilligini ta'minlash; e) etalonlarni yaratish; j) o'lchash vositalari va o'lchash uslublarining tavsiflarini aniqlash va birliklar o'lchamlarini etalonlardan qolgan barcha o'lchash vositalariga o'tkazish usullari. Metrologiya yuqori aniqlikdagi fizik tajribalarga tayanadi, u fizika, kimyo va boshqa tabiiy fanlar yutuqlaridan foydalanadi, shu bilan birga, moddiy dunyo obyektlari xossalariining miqdoriy ifodalanishiga imkon beruvchi o'ziga xos qonun va qoidalarini belgilaydi. Metrologiyada o'lchanadigan kattalik obyektning (tizim, jarayon) xususiyati sifatida izohlanadi. O'lchashlarning bir xilligiga erishish uchun qo'llaniladigan barcha o'lchash vositalari to'g'ri darajalanishi va ularni davriy qiyoslash yoki kalibrlashdan o'tkazish lozim. Buning uchun barqarorligi yuqori va aniq maxsus texnik vositalar qo'llaniladi. Davlatlarda o'lchashlar bir xilligini talab etiladigan darajada ta'minlash va saqlab turish uchun metrologiya bo'yicha milliy idoralar tomonidan boshqariladigan metrologik xizmatlar tashkil etiladi.

METROLOGIK XIZMAT – qo'shinlarning metrologik o'lchovlar birligi va aniqligi masalalarida tashkiliy-texnik jihatdan boshqarish uchun tashkil etilgan. Mazkur xizmat qo'shinlarda qo'llaniladigan o'lchov vositalarining parkini shakllantiradi, ushbu vositalarni bir xillashtirish va standartlashtirish tadbirlarini amalga oshiradi, Mudofaa vazirligi qo'shinlaridagi o'lchov vositalarining sozligini kuzatib borib, harbiy qismlarni yangi o'lchov vositalari bilan ta'minlaydi. Yaratilayotgan qurol-yarog' va harbiy texnika namunalariiga metrologik talablarni ishlab chiqaradi va ularni metrologik ekspertizadan o'tkazadi. Qo'shinlar tasarrufidagi harbiy qismlar, qo'shilmalar va birlashmalarning metrologik ta'minoti ustidan nazorat yuritadi.

METROLOGIK TA'MINOT – qurol-yarog' va harbiy texnikaning doimiy jangovar shayligini saqlab turish maqsadida ularning parametrlarini o'lchash va ushbu o'lchovlar ustidan asbobli nazoratning zaruriy sifati va talab etiladigan aniqligiga erishishga yo'naltirilgan tadbirlar majmui; maxsus texnik ta'minot turi. Metrologik ta'minot jumlasiga:

- o'lov vositalarini tekshirish, rostdash va ta'mirlash amallari;
- qo'shinlarni o'lov vositalari (apparatlari) bilan ta'minlash;
- harbiy metrolog kadrlarni tayyorlash tadbirlari kiradi.

Metrologik ta'minot Qurolli Kuchlarning barcha turlari, qo'shin turlari va maxsus qo'shnlarda umumqo'shin hamda sohaviy o'lov vositalari, shuningdek, avtomatlashtirilgan o'lov tizimlaridan foydalanilgan tarzda amalga oshiriladi.

ME'YOR – Harbiy sohada. Miqdor o'zgarishidan sifat o'zgarishiga o'tish chegarasini ko'rsatadi va aksincha.

MEHNATSEVARLIK SIFATINI TARBIYALASH – harbiy xizmatchi, ishchi va xizmatchilarda mehnatga, asosan harbiy faoliyatga ongli va faol munosabatlarini shakllantirish. Tarbiyaviy ishlar, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik jarayonida, tinchlik davrida – harbiy xizmat o'tash, urush davrida esa jangovar harakatlar yuritish uchun zarur bo'lgan askariy ko'nikmalarga ega bo'lish maqsadida amalga oshiriladi.

MILLIY XAVFSIZLIK – fuqaro, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari, milliy qadriyatlari, turmush tarzining keng qamrovli, tabiatiga ko'ra turlicha (siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ekologik, psixologik va boshq.) ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganligi. Milliy xavfsizlikning o'zaro bog'liq uch darajasi mavjud: shaxs xavfsizligi, jamiyat xavfsizligi va davlat xavfsizligi. Ular o'rtasida munosabat faol bo'ladi, bu faollik ijtimoiy munosabatlar xarakteri, siyosiy va iqtisodiy tuzum, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining rivojlanganlik darajasi bilan aniqlanadi. Jamiyat va davlat xavfsizligi asosiy maqsad emas, balki ular shaxs xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilsa, milliy xavfsizlikni nisbatan to'laroq ta'minlashga erishiladi. Tashqi milliy xavfsizlik – milliy manfaatlar, milliy qadriyatlar, moddiy boyliklar va turmush tarzining mamlakat tashqarisidan kelib chiquvchi tahdidlardan himoyalanganligi. Ichki milliy xavfsizlik bu – shaxs, jamiyat va davlat barqaror faoliyati va rivojlanishining ichki hamda tashqi tahdidlardan himoyalanganligi.

MILLIY XAVFSIZLIKKA HARBIY SOHADAGI TAHIDDLAR

– O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy kuch qo'llanilishi haqiqatan mumkinligini tavsiflovchi omillar.

MILTIQ – stvol kanali vintli yo'nilgan o'qli, dastakli qurol. Vintli kesmalar o'qqa aylanma harakat berish uchun xizmat qiladi, bundan tashqari o'qning olis masofalarga turg'un uchishi va o't ochilishining merganlik darajasini ta'minlaydi. Vintli kesмага ega qurolning ilk namunalari XVI asrning boshida paydo bo'lgan. 1856-yilda kesmali qurol

– miltiq deb atala boshlangan. 1868-yilda bir zaryadli 4,2 chiziqli berdanka miltig'i qabul qilingan. So'ngra mazkur miltiq takomillashtirilib, qurolli kuchlar qurol-yarog'lari tarkibiga 1891-yilda S. I. Mosin tomonidan ishlab chiqilgan, uch kesmali, o'qdonli miltiq qabul qilindi. 1963-yilda optik nishonga olish moslamasiga ega, 4,62 millimetrlil, o'zi o'qlanuvchi, E. Dragunovning merganlik miltig'i qabul qilindi. XIX asrgacha qo'shinlarda, asosan, silliq stvolli miltiqlar qo'llanilgan. XIX asrning o'rtasidan esa vintsimon o'yg'i bo'lgan stvolli miltiqlar tarqaladi. O'yi stvolli miltiq 2000 m gacha bo'lgan narsani shikastlay oladi, bir daqiqada 10-12 marta o'q uziladi. Miltiq jangovar maqsadda, shuningdek, yovvoyi hayvonlar va qushlarni ov qilish quroli sifatida ishlatiladi. Ov miltig'ining bir stvolli, qo'sh stvolli, uch stvolli, silliq stvolli, ya'ni sochma va maxsus qo'rg'oshin o'q otadigan, o'yi stvolli va murakkab stvolli turlari bor.

MINA (frans. *mine*) – quruqlik va suv havzasida portlovchi to'siqlar o'rnatish uchun qo'llaniladigan o'q-dori turi.

Minalar:

- muhandislik minalari
- dengiz minalariga bo'linadi.

MINA IZLAGICH – yer, qor va suv ostiga o'rnatilgan minalarni fosh etish uchun mo'ljallangan asbob. Minalangan maydonlarni razvedka qilish, ular orasida qo'shin uchun yo'l ochish va joyni minalardan to'la tozalash uchun qo'llaniladi. Ko'proq induksion mina izlagichlar, ya'ni minalarning metall qismlaridan ta'sirlanuvchi va tarkibida metall ishlatilmagan minalarni dielektrik o'tkazuvchanlikka ko'ra fosh etuvchi mina izlagichlar qo'llaniladi.

Qidiruvchi element, generator, elektr ozuqa manbayi va tovush (ayrim hollarda ko'rsatuvchi) indikatoridan tashkil topgan. Mina izlagich mina o'rnatilgan joyga yaqin keltirilishi bilan indikator o'z tovushi ohangini o'zgartirib, 50 sm gacha yer ostiga o'rnatilgan minani fosh etish imkonini beradi.

MINALANGAN MAYDON – joyning minalar o'rnatilgan qismi, mina portlovchi to'siqlar asosi. Minalangan maydonlar:

– *vazifasiga ko'ra* – desantga qarshi, piyodalarga qarshi, tankka qarshi qurama;

– *harakatga keltirilishiga ko'ra* – boshqariladigan va boshqarilmaydigan turlarga bo'linadi.

Boshqariluvchi minalangan maydonning minalari jangovar holatga masofadan boshqarilib keltiriladi.

MINALASHTIRISH – dushmanga shikast yetkazish, manyovrini qiyinlashtirish va inshootlarni vayron etish maqsadida minalangan maydonlar barpo etish, yakka minalar yoki minalar guruhini o'rnatish.

Dastaki yoki mina qo'yuvchi texnika, maxsus jihozlar bilan uskunalar avtomobil, zirhli transportyor, vertolyot va samolyotlar qo'llanilgan holda muhandislik qo'shinlari tomonidan amalga oshiriladi. Suv havzalari va qirg'oqlarga yaqin joylar desantga qarshi minalar bilan minalashtiriladi.

MINA PORTLOVCHI TO'SIQLAR – dushmanga shikast yetkazish va olg'a siljishini qiyinlashtirish maqsadida joy va obyektlarda o'rnatilgan mina maydonlari, minalar guruhi, yakka minalar hamda portlovchi moddalar tizimi. Mina portlovchi to'siqlar:

– *vazifasiga ko'ra* – tankka qarshi, piyodalarga qarshi, transportga qarshi, desantga qarshi;

– *harakatga keltirilishiga ko'ra* – boshqariladigan va boshqarilmaydigan turlarga bo'linadi.

Boshqarilmaydigan mina portlovchi to'siqlar – jangovar holatga keltirilgan va ta'sir o'tkazilganda portlab ketadigan minalarga ega minalangan maydonlar.

Boshqariladigan mina portlovchi to'siqlar – masofada turib jangovar yoki xavfsiz holatga keltiriladigan minalar.

Mina portlovchi to'siqlar to'la jangovar shaylikda yoki xavfsiz holatda bo'lishi mumkin. Jangovar harakatlarning barcha ko'rinishlarida: hujum va mudofaa janglari, chekinish va qurshovga olish davomida qo'llaniladi. Mina portlovchi to'siqlarning asosiy xususiyati – zichligidir.

Mina portlovchi to'siqlar muhandislik qo'shinlari tomonidan o'rnatiladi, biroq zarur bo'lgan hollarda boshqa qo'shin turiga mansub harbiy qismlar ham jalb etiladi.

MINASIZLANTIRISH – mina, zaryad, portlamay qolgan o'q-dori, portlashi mumkin bo'lgan xavfli qurilma kabilarni razvedka qilish, chiqarib olish yoki yo'q qilish, joy, suv havzasi kabi obyektlarni ulardan tozalash. Muhandis bo'linmalar, tralchilar va maxsus tayyorlangan bo'linmalar (komandalar) tomonidan portlash xavfi bo'lgan moddalarni razvedka qilish, zararsizlantirish va yo'q qilish vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Jangovar harakatlar davomida minasizlantirish amallari dastavval qisman, kelgusida agar zarurat bo'lsa, yoppasiga o'tkaziladi.

MINA TRALI – minalangan maydonga o'rnatilgan minalarni fosh

etish va yo'q qilish uchun mo'ljallangan vosita. Tashuvchisiga ko'ra:

- tankka o'rnatilgan mina trali;
- aviatsion mina trali;
- kemaga o'rnatilgan mina traliga bo'linadi.

MINOMYOT – minani tikka otib, dushman (nishon) ustiga yuqoridan yog'dirish uchun mo'ljallangan, metall taxtaga tayanadigan artilleriya quroli.

Dushmanning ochiq joy, panagoh, tepalikning ortki tomoni, joy qatlari va buramalarida joylashib olgan jonli kuchi va harbiy texnikasini yo'q qilish, shuningdek, har qanday dala istehkomini vayron etish uchun mo'ljallangan qudratli qurol sanaladi. Minomyotlar:

- *o'qlash usuliga ko'ra* – stvol og'zidan (kalibri 50-120 mm) va stvolning ortki tomonidan (kalibri 120 mm dan ortiq) o'qlanadigan;
- *stvolining tuzilishiga ko'ra* – silliq stvolli (aksariyat minomyotlar) va kesmali;

- *tashilish usuliga ko'ra* – ko'tarib yuriladigan, transportda tashiladigan, shatakka olinadigan, o'ziyurar, ortiladigan turlariga bo'linadi.

Minomyot ilk bor 1904-yilning sentabr-oktabr oylarida ixtiro qilingan.

MINTAQAVIY URUSH faqat muayyan mintaqani (qit'aning bir qismini) qamrab olgan, uning sarhadlaridagi barcha yoki aksariyat davlatlar jalb etilgan, ushbu mintaqada tashqarisidagi davlatlar, odatda, yordam berish tariqasida bilvosita ishtirok etgan tarzda o'tadigan urush.

Bunday urush ittifoq bo'lib urush olib borish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin bo'lib, yuqori darajadagi shiddati hamda qurolli kurashning turli vosita va usullari qo'llanilishi bilan farq qiladi.

Qurolli kurashning zamonaviy vositalari bilan bir qatorda qurol-yarog'ning deyarli murakkab bo'lmagan turlari ham qo'llaniladi, urishayotgan tomonlarning muntazam qurolli kuchlari ham, nomuntazam tuzilmalari ham ishtirok etadi.

So'nggi mintaqaviy urushga tarixiy misol tariqasida 1948-67-yillar va 1973-yili bo'lib o'tgan, Yaqin Sharqning katta hududini qamrab olib, sobiq SSRI, AQSH va ayrim g'arb davlatlarini o'z ta'sir doirasiga jalb etgan Arabiston-Isroil urushini keltirish mumkin.

MINTAQAVIY XAVFSIZLIK – 1) xalqaro xavfsizlikning tarkibiy qismi; 2) ma'lum hududda chegaradosh holda joylashgan davlatlar xavfsizligini ta'minlashning kelishilgan tadbirlar majmuasi. Mintaqaviy xavfsizlik – dunyoning u yoki bu mintaqasi davlatlarining o'zaro munosabatlari tizimining vaziyatni beqarorlashtiruvchi, mintaqada darajasida

konflikt va krizislar keltirib chiqaruvchi tahdidlardan himoyalanganligi. U milliy xavfsizlikni ta'minlashning shartlaridan biri hisoblanadi.

MODDIY VOSITALAR – qurolli kuchlarni urush va tinchlik davrida ta'minlash uchun foydalaniladigan vositalar. Moddiy vositalar jumlasiga:

- qurol-aslaha va harbiy texnikaning barcha turlari va o'q-dorilar;
- yonilg'i va yoqilg'i mahsulotlari;
- oziq-ovqat, kiyim-kechak, muhandislik, tibbiyot xizmatlariga mansub va boshqa moddiy qiymatga ega turlari kiradi.

Qurolli Kuchlardagi moddiy vositalar:

- umumqo'shin – qurolli kuchlarning barcha turi uchun;
- qurolli kuchlarning alohida turi uchun mo'ljallangan turlarga bo'linadi.

MODDIY VOSITALAR ZAXIRASI – qurolli kuchlar fronti ortining barcha pog'onalariga mansub aslahaxonalar, baza va omborxonalarda, shuningdek, bevosita bo'linmalarda (kemalarda) saqlanadigan qurol-aslaha, harbiy texnika, o'q-dorilar, yonilg'i, yoqilg'i, oziq-ovqat mahsulotlari, muhandislik, kiyim-kechak, tibbiyot anjomlari kabi harbiy mulkning muayyan miqdori. Qo'shinlarning urush va tinchlik davrida moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan. Aksariyat davlatlar qurolli kuchlarining moddiy vositalar zaxirasi, odatda:

- front orti ta'minotining u yoki bu pog'onasiga ko'ra – strategik va operativ maqsadli hamda *qo'shinlarga mansub moddiy vositalar zaxirasi*;
- vazifasi va sarflanish tartibiga ko'ra – *sarflanadigan (joriy ta'minotga oid) zaxiralar va tegilmas zaxiralarga bo'linadi.*

Sarflanadigan moddiy vositalar zaxirasi o'z navbatida:

- *yurishdan so'ng sarflanadigan zaxiralar*;
- *yo'lda sarflanadigan zaxiralarga bo'linadi.*

Qo'shinlarga mansub moddiy vositalar zaxirasi. Qism va qo'shimmalar omborxonalari, bo'linmalarining transport vositalari, jangovar mashinalar, start marralari, to'p, minomyot va pulemyotlar oldida, ta'mirlash va tibbiyot qismlari (bo'linmalari) va shaxsiy tarkib yonida saqlanadi.

Yurishdan so'ng sarflanadigan zaxiralar, temiryo'l va suv transportida tashib ketilayotgan qo'shimmalar, qism va bo'linmalarining qo'shinlarga mansub hamda yo'lda sarflanadigan moddiy zaxiralarga qo'shimcha tarzda olinadi. Tashilayotgan qo'shinlar tomonidan ular transportdan tushirilib, rejali ta'minotga qo'yilgunlariga qadar sarf etilishi

uchun mo'ljallangan.

Tegilmas moddiy zaxiralar jumlasiga:

– qo'shinlarga mansub moddiy vositalar zaxirasining alohida vaziyatda tegishli komandir ruxsatiga binoan sarf etiladigan bir qismi;

– safarbarlik e'lon qilinganida tuziladigan harbiy qismlarni ta'minlash uchun mo'ljallangan zaxiralar;

– uchish apparatlari va suvosti kemalarida, ular avariya uchragan vaziyatda ekipaj a'zolarini ta'minlash maqsadida saqlanadigan zaxiralar kiradi.

Operativ zaxiralar. Qurolli kuchlarning barcha turlariga mansub operativ front orti baza va omborxonalarida saqlanib, tegishli qo'shilma qo'mondonligining bevosita ixtiyorida bo'ladi.

Operativ zaxiralar front, okrug, flot, armiya va flotiliyaga mansub operativ zaxiralarga bo'linadi.

Harakatdagi zaxiralar. Shtatdagi transport vositalari, jangovar mashinalar (kemalar) va shaxsiy tarkib yonida saqlanib, qo'shinlarning qayta guruhlanishi va jangovar harakatlari davomida bo'linma, qism (kema), qo'shilma va birlashmalar bilan birgalikda ko'chirib yuriladi. Harakatdagi zaxiralar o'Ichamlari qo'shinlar (kuchlar) va front orti ta'minoti organlarining mexanizatsiyalashganlik va harakatchanlik saviyasiga bog'liq holda yuqori pog'onadagi boshliq buyrug'i bilan belgilanadi.

Yo'lda sarflanadigan moddiy vositalar zaxirasi. Temiryo'l va suv transportida tashib ketilayotgan qo'shilma, qism va bo'linmalarning qo'shinlarga mansub moddiy zaxiralarga qo'shimcha tarzda olinadi. Tashilayotgan qo'shinlar tomonidan yakuniy stansiyaga (manzilga) yetib borgunlariga qadar yo'lda sarflanishi uchun mo'ljallangan bo'lib, shu vaqt davomida ularning barcha ehtiyojlarini qondirishi lozim.

Sarflanadigan (joriy ta'minotga oid) zaxiralar. Qo'shinlar, operativ va strategik zaxiralar tarkibida saqlanadi.

Tinchlik davrida – qo'shinlarning (kuchlarning) jangovar tayyorgarlik va kundalik faoliyatlaridagi joriy ehtiyojlarini ta'minlash, urush davrida esa jangovar harakatlari, jangovar tayyorgarligi va kundalik faoliyatini ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Strategik zaxiralar qurolli kuchlarning markaziy aslahaxona, baza va omborxonalarida saqlanadi. Bundan tashqari, mazkur zaxiralarning muayyan qismi moddiy vositalarning turlariga ko'ra davlat zaxiralarning bazalarida saqlanishi mumkin. Strategik zaxiralar Oliy Harbiy

Qo'mondonlik ko'rsatmalariga binoan sarf etiladi.

MODIFIKATSIYA – qurol turi, o'zgargan shakli.

MORZE KODI – notekis telegraf kodi. Bunda har bir harf yoki belgiga tok impulslarining qisqa vaqtli (nuqta) va uch karra davomli (tire) jo'natmalarining muayyan kombinatsiyasi mos keladi. Radioaloqa, gidroakustik, yorug'lik va tovushli signalizatsiyalarda qo'llaniladi.

MOTOO'QCHI QO'SHINLAR – jangovar harakatlarni mustaqil tarzda yoki boshqa qo'shin turlari va maxsus qo'shinlar bilan birgalikda yuritish uchun mo'ljallangan quruqlikdagi qo'shinlar turi. Quruqlik va havodagi nishonlarga shikast yetkazish maqsadida qudratli qurol-aslaha bilan ta'minlangan. Tashkiliy jihatdan motoo'qchi qo'shilma, qism va bo'linmalardan iborat.

Motoo'qchi qo'shinlar nomi qo'shin sifatida 1963-yilda kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, asosan, motoo'qchi qo'shinlardan iborat.

MUDOFAA – 1) jangovar harakat turlaridan biri. Dushman kuchlari hujumini qaytarish, ularga jiddiy talafot yetkazish, jangovar pozitsiyani qo'lda tutib turish va shiddatli hujumga o'tish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida qo'llaniladi. Janglar va operatsiyalar shaklida olib boriladi; 2) harbiy harakat turi bo'lib:

- dushmanning son jihatdan ustun bo'lgan kuchlarining hujumini barbod etish yoki bartaraf qilish;

- yovga talafot yetkazish;

- egallangan hududni muhofaza etish;

- muhim bo'lmagan yo'nalishlardagi kuch va vositalarni tejash, bosh yo'nalishlarda dushman ustidan ustun kelish;

- qo'shinlarimizning hujumga o'tishi uchun sharoit yaratish maqsadida qo'llaniladi.

- Mudofaa dushmanga qarshi zarba berish uchun zaruriy vositalar majmui bo'lib, taktik, operativ va strategik miqyoslarda, majburan va atayin qo'llaniladi. Mudofaaning mazmuni:

- hujumga o'tmoqchi bo'lgan dushman qo'shinlariga dastlabki holat tomon yurishi, mudofaamizning oldingi chiziqlarini ataka qilishi mobaynida ushbu marralarini qo'lda tutib turishimiz uchun turli qurollarni qo'llab olovli zarba berish;

- qarshi olovli tayyorgarlik o'tkazish;

- hududimizni va egallangan muhim marrani sabot va matonat bilan qo'lda tutib turish;

– shiddatli qarshi atakalar o'tkazish va qarshi zarba berishdan iboratdir.

Mudofaa hujum bilan bir vaqtda yuzaga kelgan bo'lib, usullari – qurolli kurash vositalarining rivoji, shaxsiy tarkib va qo'shinlar tuzilishining sifat jihatdan takomillashib borishi ta'siri ostida o'zgarib borgan. Mudofaa amallari o'z ichiga:

- qo'shinlarning guruhlarga bo'linib, operativ jihatdan saf tortishini;
- tashkil etiladigan mudofaa hudud, marra va majmualari tizimini;
- tayyorlab qo'yilgan olovli zarbalarni;
- dushmanga olovli shikast yetkazish tizimini;
- havo hujumidan va tankka qarshi mudofaalarni;
- muhandislik to'siqlari tizimini oladi.

Mudofaa majmualarining tizimi – ta'minot chizig'i, mudofaaning bosh chizig'i, ba'zan mudofaaning 2-chizig'i va mudofaaning operativ sarhadlaridagi marralardan iborat.

Olovli va aviatsiya zarbalari – dushmanning jamlanish hududlari, yurish yo'llari va yoyilish marralarida mavjud asosiy guruhlariga qarshi, mudofaa chizig'imizni yorib o'tishi mobaynida tayyorlanadi hamda beriladi.

– Alohida fizik-geografik sharoitda mudofaani tashkil etish va yuritishning o'ziga xos farqlanib turuvchi xususiyatlari mavjud;

3) O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligi, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilishni ta'minlashning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborot, tashkiliy va boshqa tadbirlari majmui tushuniladi.

MUDOFAA VAZIRLIGI – o'z tasarrufidagi qo'shinlar boshqaruvini amalga oshiruvchi, mudofaa va harbiy qurilish sohasidagi davlat siyosatini yurituvchi vazirlik.

MUDOFAA INSHOOTLARI – joyda tashkil etilib, qo'shinlarning mudofaani yuritish, talafotlar hajmini qisqartirish va dushman tomonidan yuritiladigan hujumni qiyinlashtirish uchun mo'ljallangan fortifikatsiyali istehkomlar. Mudofaa inshootlari:

– minora, okop, o't ochish vositalari uchun maydonlarda turib o't ochish;

– tirqish, blindaj, pana va panagohlar, transheyalarning yopiq joylari kabilar yordamida – shaxsiy tarkib va harbiy texnikani oddiy va ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalash;

– transheya, aloqa yo'laklari va shu kabilar orqali yashirin manyovr

o'tkazish uchun mo'ljallangan. Mudofaa inshootlari:

- yer yuzasida;
- chuqur yer havzasida;
- yer ostida tayyorlanib, jihozlangan turlarga bo'linadi.

MUDOFAA ISHLARI BO'LIMI VA BOSHQARMASI – harbiy, safarbarlik, chaqiruv va hisob yuritish masalalarini idora etuvchi – mahalliy harbiy boshqaruv organi. Asosiy vazifalari:

- qo'shinlar safarbarligini tayyorlash va o'tkazish;
- odamlar va xalq xo'jaligi resurslarining hisobini yuritish;
- haqiqiy harbiy xizmatga chaqiruv tadbirlarini o'tkazish.

Mudofaa ishlari bo'limi mudofaa ishlarining tegishli viloyat boshqarmasi tomonidan boshqarilib, mazkur bo'limlar O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishiga muvofiq tashkil etiladi.

MUDOFAA MAYDONI – sarhadida brigada mudofaasi yaratilayotgan joy. Mudofaa maydonining o'lchami jangovar vazifa mazmuni, brigadaning imkoniyatlari, kuch va vositalar tarkibi va joy sharoitiga bog'liq. Mudofaa maydoni mudofaa marralari, zaxira kuchlar joylashtirilgan hudud, to'siq o'rnatuvchi harakatchan otryad, jangovar tartibga yoyilish chegarasi, minalashtirish chegarasi kabi joylardan tarkib topadi.

MUDOFAANING OLDINGI CHIZIG'I – shaxsiy tarkib va o't ochish vositalari, tanklar, piyodalar jangovar mashinalari, zirhli transportyorlar, 1-eshelon bo'linmalari uchun dushmanga yaqin qazilgan okoplarni tutashtiruvchi shartli chiziq.

Transheyalar mavjudligida mudofaaning oldingi chizig'i bo'lib, mudofaaning bosh chegarasi hududidagi birinchi marraning dushmanga yaqin joyda qazilgan transheyasi sanaladi.

Mudofaaning oldingi chizig'i – mudofaaning ikkinchi va keyingi chegaralaridagi oldingi chiziqlarga ham bo'linadi.

MUDOFAA SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK – O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning yakka tartibda va kollektiv tarzda mudofaalanishdan iborat bo'lgan huquqni mustahkamlovchi unume'tirof etilgan me'yorlari va tamoyillariga asoslanib, harbiy qurilish, tinchlik hamda xavfsizlikni saqlab turish sohasida boshqa davlatlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

MUDOFAA CHIZIG'I – birlashma yoki qo'shilma tomonidan mudofaa etilayotgan joy chegarasi. Hujumga o'tgan dushmanni daf etish va egallangan joyni qo'lda tutib turish maqsadida tashkil etiladi. Mudofaa

chizig'ida kuch va vositalar guruhlari joylashtirilib, o't ochish tizimi tashkil etiladi, fortifikatsiyali istehkomlar va to'siqlar tashkil etiladi. Mudofaa chizig'i:

- old tomondan - mudofaaning oldingi chizig'i;
- front ortidan - mudofaaga o'tgan qo'shinning operativ jihatdan tortilgan safi (jangovar tartibi);
- qanotlardan - chegaradosh birlashma yoki qo'shilma bilan tutashgan chiziqlar bilan chegaralanadi.

Dushman bilan bevosita to'qnash kelmay oldindan tayyorlangan mudofaaning birinchi chizig'i oldida, ba'zan esa mudofaa sarhadining ichidagi chiziqlar oldida ta'minot chegaralari tashkil etilishi mumkin.

MUDDATLI HARBIY XIZMAT - muddatli harbiy xizmat chaqirilish yoshidagi fuqarolarning oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida, shuningdek, muqaddam harbiy xizmatni o'tamagan ofitserlarning qonun hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida qurolli kuchlar safidagi majburiy xizmatidir. Muddatli harbiy xizmat muddati kalendar hisobida o'n ikki oy etib belgilanadi.

MUKOFOTLAR - urush va tinchlik davrida ko'rsatilgan alohida harbiy xizmatlari uchun harbiy xizmatchilar va, harbiy qismlarga (kemalarga) beriladigan ma'naviy yoki moddiy rag'batlantirishlar.

Mukofotlar jumlasiga: orden, medal, faxriy unvon, belgi, yorliq, diplom, faxriy nom, mukofotlanayotgan shaxs ismi yozilgan qimmatbaho sovg'a va qurol kabilar kiradi.

MUNTAZAM ARMIYA - 1) doimiy armiya bo'lib, shtatli qonuniy tashkilot, rusumli qurol-aslaha, butlanish usuli, xizmat o'tash tartibi, harbiy kiyim shakli, boshqaruv va ta'minotning markazlashtirilgan tizimiga ega. Muntazam armiya ilk bor G'arbiy Yevropaning aksariyat davlatlarida XVII-XVIII asrlarda vujudga kelgan; 2) doimiy tashkilot, butlanish, xizmat o'tash va ta'limotning muttasil tizimiga ega bo'lmagan nomuntazam qo'shinlardan farq qiluvchi, quruqlikdagi muntazam qo'shinlar nomi.

MUSTAHKAMLIK ZAXIRASI - qurol va harbiy texnika elementlarining ishchi yuklamalardan ortiq yuklamalarga qarshilik ko'rsata olish qobiliyati. Bardosh beriladigan eng katta yuklama kattaligining ishchi yuklama nisbatiga teng xavfsizlik koeffitsienti bilan belgilanadi.

MUHANDISLIK INSHOOTLARI - jangning turli ko'rinishlarida joyni muhandislik jihatidan jihozlash mobaynida tashkil etiladi.

Muhandislik inshootlari fortifikatsion istehkom, harbiy yo'l, ko'prik, aerodrom, soxta obyektlar maketi kabilardan iborat. Muhandislik inshootlari: mudofaa inshootlariga, maishiy-xo'jalik binolari, yo'l va ko'priklar kabi mudofaaga taalluqli bo'lmagan inshootlarga bo'linadi.

Qo'llaniladigan ashyolarga ko'ra temir-betonli, yog'och-tuproqli, zirhli kabi inshootlarga bo'linadi. Aksariyat muhandislik inshootlari qismlarga ajratiladigan va yig'iladigan konstruksiyalar ko'rinishiga ega. Mazkur inshootlar dushman harakatini qiyinlashtirib, shaxsiy tarkib, harbiy-texnika, transport va moddiy vositalarimizni uning qurollari ta'siridan himoya etish uchun imkoniyat yaratadi.

MUHANDISLIK MINALARI – jonli kuch va texnikani yo'q qilish, yo'l va inshootlarni vayron etish maqsadida mina portlovchi to'siqlar qo'yish uchun mo'ljallangan o'q-dorilar.

Muhandislik minalari portlovchi modda zaryadi, portlovchi qurilma va korpusdan tarkib topgan. Harakatga keltirilish usuliga ko'ra muhandislik minalari boshqariladigan va boshqarilmaydigan turlarga bo'linadi.

Boshqariladigan muhandislik minalarini jangovar harakatga keltirilishi va ishga tushirilishi masofadan turib amalga oshiriladi.

Boshqarilmaydigan muhandislik minalari bevosita ta'sir o'tkazilishi oqibatida yoki belgilangan vaqt o'tgach portlaydi. Muhandislik minalari:

– *portlatkichlarning tuzilishiga ko'ra* – kontaktli va kontaktsiz, oniy harakatga keluvchi va harakati kechiktirilgan;

– *o'rnatilish usuliga ko'ra* – chiqarib olinadigan, qo'zg'atib bo'lmaydigan, zararsizlantirilmaydigan;

– *vazifasiga ko'ra* – tanklarga qarshi, piyodalarga qarshi, desantga qarshi, daryo va obyektlarga o'rnatiladigan va maxsus turlarga bo'linadi.

MUHANDISLIK QO'SHINLARI – jangovar harakatlar yuritayotgan motoo'qchi va tank qo'shinlari kabi qo'shinlarni muhandislik jihatidan ta'minlash uchun mo'ljallangan maxsus qo'shinlar.

Muhandis-sapyor, yo'l-muhandislik, ponton kabi qism va bo'linmalardan tashkil topgan. Qurolli kuchlar va qo'shin turlariga mansub qo'shilma va harbiy qismlar tarkibiga kiradi. Muhandislik qo'shinlari jangda muhandislik ta'minotining ixtisoslik bo'yicha tayyorgarligi, texnikasi va o'q-dorilarini qo'llash talab etiladigan murakkab vazifalarni bajaradi.

Muhandislik qo'shinlarining asosiy vazifalari:

– qo'shinlarning olg'a ilgarihlashlari, yoyilishi va manyovri uchun yo'llar tayyorlash va zaruriy holatda tutib turish;

- suv to‘sig‘ini kechib o‘tishni ta‘minlash;
- qo‘shinlar egallagan hudud va marralarni fortifikatsion jihatdan jihozlash (istehkomlar yaratish);
- muhim inshootlarni niqoblash;
- ichimlik suvini chiqarish va tozalash;
- muhandislik razvedkasini yuritish;
- to‘siqlar orasidan o‘tish yo‘laklarini ochish;
- joy va obyektlarni minalardan tozalashdan iborat.

MO‘LJAL – joyning yaqqol ko‘rinib turuvchi, qo‘zg‘almas jismi yoki relyef elementi bo‘lib:

- *quruqlikda* – joyda mo‘ljallanish, qo‘shinlar harakati yo‘nalishini belgilash, jang olovini boshqarish, nishonni izlab topish kabi amallarga;
- *aviatsiyada* – samolyotlarni boshqarishga;
- *harbiy-dengiz flotida* – qirg‘oq yaqinida suzib yurgan kema joyini aniqlashga yordam beradi.

MO‘LJALGA OLISH – o‘q-dorining nishonga tegishini ta‘minlash uchun o‘t ochishdan oldin qurolni muayyan holatga keltirish. Nishonga olish – o‘t ochish uchun berilgan komandada ko‘rsatilgan burchaklarni nishonga olish moslamasida o‘rnatish va yo‘llashdir. Nishonga olish amali gorizontal (azimutal) va vertikal tekislikda bajariladigan amallarga bo‘linadi.

MO‘LJALGA OLISH MOSLAMALARI – o‘qotar yoki raketali qurolni nishonga yo‘llash, shu jumladan, jang maydonini kuzatib borish va nishon tanlash uchun mo‘ljallangan jihoz va mexanizmlar. Mo‘ljalga (nishonga) olish moslamalari *qurol turiga mansubligi* bilan farqlanib, quyidagi sinflarga bo‘linadi:

- artilleriyaning nishonga olish moslamalari;
- aviatsiyaning nishonga olish moslamalari;
- o‘qli qurolning nishonga olish moslamalari;
- tankda o‘rnatilgan nishonga olish moslamalari;
- raketa komplekslarida o‘rnatiladigan nishonga olish moslamalari.

Asosiy vizir qurilmasining *ishlash tamoyillariga* ko‘ra:

- mexanik nishonga olish moslamalari;
- optik nishonga olish moslamalari;
- elektron-optik nishonga olish moslamalari;
- radiolokatsion nishonga olish moslamalari;
- avtomatik nishonga olish moslamalari;
- avtomatlashtirilmagan nishonga olish moslamalari.

MO'LJALLOVCHI – artilleriya to'pi, minomyot va pulemyot raschyoti, tank va PJM ekipaji tarkibiga kiruvchi to'pni, qurolni nishonga yo'naltirish va o't ochish amalini bajaruvchi harbiy mutaxassis.

N

NAVBATCHI – harbiy qism (kema), bo'linma, garnizon, muassasa va harbiy o'quv yurtining sutkalik naryadi tarkibida navbatchilik xizmatini o'tayotgan harbiy xizmatchi. Navbatchining majburiyatlari tegishli nizom, qo'llanma va yo'riqnomalarda belgilanadi.

NAVBATCHI BO'LINMA – harbiy qismning (garnizonning) sutkalik naryadi tarkibiga kiruvchi bo'linma (guruh, vzvod). Qism komandiri yoki garnizon boshlig'i buyrug'i bilan qorovullar tarkibini kuchaytirish yoki yong'in chiqqan, tabiiy ofat ro'y bergan yoki boshqa baxtsiz hodisalar vujudga kelgan hollarda chaqirtirish uchun tayinlanadi. Qism bo'yicha navbatchiga (garnizon boshlig'i, garnizon harbiy komendanti va qorovullar bo'yicha navbatchiga) bo'ysunadi.

NAVBATCHI KUCH VA VOSITALAR – jangovar navbatchilik xizmatini o'tash uchun maxsus tayinlanadigan bo'linmalar.

Navbatchi kuch va vositalar raketa qo'shinlarida tinchlik davrida dushmanning kutilmagan atakalarini daf etish uchun tayinlanadi. Navbatchi kuch va vositalarning miqdori, tarkibi, jangovar shaylik darajasi va jangovar navbatchilik o'tash tartibi maxsus buyruq va yo'riqnomalar bilan belgilanadi.

NAVBATCHILIK – 1) harbiy qism sutkalik naryadi tarkibidagi harbiy xizmatchilar tomonidan jangovar shaylikning o'rnatilgan darajasi va ichki tartibni tutib turish, turli vositalarga xizmat ko'rsatilishini nazorat qilish borasida muayyan majburiyatlarning bajarilishi; 2) shtatga binoan navbatchi lavozimidagi shaxslarning (misol uchun, qo'mondonlik punktidagi jangovar hisob tarkibi) o'z xizmat majburiyatlarini bajarishi; 3) navbatchi bo'linmalar tomonidan xizmat majburiyatlarining bajarilishi.

NAVIGATSIYA ASBOBLARI – kema va samolyot kabi harakatlanayotgan obyektlarning harakat elementlarini o'lchash, joylashgan joyi va ularga qarata qurol qo'llash uchun birlamchi ma'lumotlarini aniqlash uchun mo'ljallangan qurilmalar.

Navigatsiya asboblari jumlasiga kompas (trokompas), avtoprokladchik, balandlik o'lchagich, chuqurlik o'lchagich, sekstant kabi asboblardan kiradi. Ishlash tamoyillariga ko'ra giroskopik, magnitli, gidravlik,

radiotexnik, gidroakustik, inersial, optik, infraqizil, mexanik navigatsiya asboblariga bo'linadi.

NAZORAT ORGANI – belgilangan qoidalarga rioya etilishi ustidan nazorat qiluvchi vakolatli organ.

NAYZA – multiq, avtomat va karabin stvolining uchki qismiga birlashtiriladigan qo'l jangi uchun mo'ljallangan, sanchiladigan va kesadigan sovuq qurol. Ilk bor Fransiyada XVII asrning o'rtalarida vujudga kelgan. Qirrali va tig'li nayzalar mavjudligi ma'lum.

Qurolga birlashtirilishiga ko'ra:

– *ajratib olinadigan*;

– *ajralmaydigan* – stvol yoniga bukib yotqizilib, qisqich bilan qistiriladigan turlarga bo'linadi. Zamonaviy qurol-aslaha tarkibida nayza-pichoq va ajralmaydigan tig'li nayza mavjud.

NAMOYISHKORONA HARAKATLAR – dushmani bo'lg'usi jangovar harakatlar va beriladigan asosiy zarba yo'nalishi bo'yicha chalg'itish, kuchlarini soxta yo'nalishga jalb ettirish borasida qo'shinlarimiz tomonidan amalga oshiriladigan jangovar va boshqa harakatlar.

Niqoblanish usullaridan biri sanaladi. Sir tutish, yolg'on xabarlar (ma'lumotlar) tarqatish, imitatsiyalash tadbirlari bilan bir vaqtda o'tkaziladi.

NAMUNALI MASHG'ULOT – qo'shinlar ta'limotidagi harakatlar namunasi va uslubiyatini namoyish etish maqsadida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlarning bir turi. Qo'shinlar ta'limotining taktik tayyorgarlik, otish tayyorgarligi, saf tayyorgarligi, jismoniy tayyorgarlik kabi fanlar bo'yicha o'tkaziladi.

NAMUNALI TAKTIK MASHQ – qo'shin ishtirokida o'tkaziladigan taktik (taktik-saf) mashqlar turlaridan biri. Ofitserlarga, komandir va shtablar ishining maqsadga muvofiq bo'lgan uslublarini ko'rsatish, qo'shin ishtirokida o'tkaziladigan o'xshash mashqni tashkil etish va o'tkazish uslubiyati bo'yicha yagona qarash va mulohazalarni belgilash maqsadida o'tkaziladi.

NARYADLAR VARAQASI – xizmatga oid hujjat bo'lib, harbiy xizmatchining ichki xizmat (kema naryadi xizmatiga) naryadiga tayinlanishining miqdori aks ettiriladi.

Muddatli harbiy xizmat askarlariga – vzvod komandirining moddiy ta'minot bo'yicha yordamchisi, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarga qism shtabi boshlig'i (komendant) tomonidan har oy uchun yuritiladi.

NEYTRON QUROL-YAROG'LAR – yadro qurol-yarog'lari turi, asosan, odamlarni qirib tashlashga mo'ljallangan. Ommaviy qirg'in qurollariga kiradi. Tinchliksevar davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi neytron qurol-yarog'larining yaratilishiga qarshi chiqmoqda.

NIZOMLARGA ZID MUNOSABATLAR – shaxsiy tarkibning turli toifalari va alohida harbiy xizmatchilar orasida harbiy nizomlar, Vatanga qasamyod, ma'naviy va axloqiy xulq me'yorlari talabini qo'pol ravishda buzishiga asoslangan munosabatlar.

Nizomlarga zid munosabatlarga, odatda, umumiy ma'lumoti va madaniy saviyasi past, oilasi va maktabda yetarlicha tarbiya ko'rmagan shaxsgina yo'l qo'yadi. Nizomlarga zid munosabatlarning vujudga kelishiga quyidagi omillarning harbiy qismda mavjudligi sabab bo'ladi:

- tashkiliy va tarbiyaviy ishlar saviyasining pastligi;
- shaxsiy tarkibning jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligi borasida amalga oshiriladigan tadbirlarning muayyan rejasi va ijrosi yo'qligi;
- serjantlar tarkibi tayyorgarligining sustligi;
- alohida ofitserlarning xizmat majburiyatini bajarishga vijdotsizlik bilan yondashishi, harbiy pedagogika asoslari borasida zaruriy bilimi yo'qligi;
- harbiy jamoat hayotida demokratiya elementlarining yo'qligi.
- Nizomlarga zid munosabatlarning keng tarqalgan ko'rinishlari quyidagilardir:
 - komandir va boshliqlar tomonidan intizomiy amaliyotning qo'pol tarzda buzilishi;
 - bo'ysunuvchilarning bevosita va to'g'ridan to'g'ri boshliqlarga komandirlik pog'onasi bo'yicha bo'ysunmasligi;
 - shaxs g'ururi va qadr-qimmatining ongli ravishda tahqirlanishi, kamsitilishi, haqoratlanishi va xo'rlanishi;
 - nisbatan ko'proq xizmat o'tab qo'ygan harbiy xizmatchilarning xizmatga yangi chaqirilgan harbiy xizmatchilarga nisbatan haqoratomuz, tahqirlovchi va qo'pol munosabatda bo'lishi, bo'linmalarda dimog'dorlik illati mavjudligi;
 - xizmatga yangi chaqirilgan harbiy xizmatchini, nisbatan ko'proq xizmat o'tab qo'ygan harbiy xizmatchi tomonidan o'z shaxsiga xizmat ko'rsatishiga majbur etish.

Bunday holatlar, odatda, serjantlarning jamoada sodir etilayotgan nojo'ya xatti-harakatlarga beparvoligi yoki ko'ra-bila turib yo'l qo'yishi,

vzvod komandirining moddiy-texnik ta'minot bo'yicha yordamchisi, vzvod komandiri, komandirning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari va batalyonlar komandiri tomonidan nazorat yo'qligi tufayli ro'y beradi.

Nizomlarga zid munosabatlarning harbiy jamoada hukm surishiga mazkur jamoa faollari ishining sust tashkil etilganligi, serjantlar va komandirning faoliyatsizligi, sovuqqonligi va loqaydsizligi, haqiqiy askariy o'rtoqlik hissiyotlarining yo'qligi sabab bo'ladi. Nizomlarga zid munosabatlar o'zbek xalqiga yot illatdir. Bunday munosabatlar harbiy do'stlik asoslariga putur yetkazib, Qurolli Kuchlarimiz jangovar shayligi va nufuzini zaiflashtiradi.

Nizomlarga zid munosabatlarga yo'l qo'ygan harbiy xizmatchi intizomiy tartibda ta'zirlanadi. Harbiy jamoada muhokama etiladi. Agar yo'l qo'ygan munosabati og'ir oqibatlarga olib kelgan bo'lsa, belgilangan tartibda jinoiy javobgarlikka tortiladi.

NIZOMLARGA OID MUNOSABATLAR – shaxsiy tarkibning turli toifalari va alohida harbiy xizmatchilar orasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Vatanga qasamyod, umumqo'shin nizomlari, tegishli qo'llanmalar, komandirlarning buyruq va ko'rsatmalari talablariga aniq va so'zsiz amal qilishga asoslangan, axloq va jamoatchilik ruhiga mos keladigan munosabatlar.

NISHON – yo'q qilinishi ko'zda tutilayotgan dushman obyekti. Nishon fazoda joylashishi, tarkibi, o'lchami, faoliyatining xususiyati, himoyalanganlik va muhimlik darajasi, uni kuzatish sharoiti, o'ziga xos farqlanuvchi alomatlari, shuningdek, harakatining tezligi, uni yo'q qiluvchi vositalardan uzoqligi kabi xususiyatlariga ko'ra farq qiladi.

Nishon ballistik, murakkab ballistik, havodagi, havoda pastlab uchayotgan, guruh tarkibida, chiziqli, dengizda joylashgan, keng maydonni egallayotgan, radiolokatsiyali, nuqtali bo'lishi mumkin.

NISHONLAR JURNALI – nishonlarni fosh etish va turgan joyni aniqlab, aks ettirish bo'yicha artilleriya razvedkasi bo'linmalarining jangovar ishi haqidagi hisobot-axborot mazmunidagi hujjat.

Nishonlar jurnaliga faqat fosh etilgan va kimga tegishli ekanligi aniq belgilangan nishonlarga kiritiladi.

Har bir nishonga navbatdagi raqam berilib, nomi, fosh etilgan vaqti, unga qadar mavjud masofa, turgan joyining koordinatalari va joyning o'ziga xos belgilari (mo'ljallar) ko'rsatib o'tiladi.

NISHONNI TUTISH – nishon fosh etilganidan so'ng u haqidagi ma'lumotlar qayta ishlanayotgan jarayonda amalga oshiriladi.

Nishonni tutish amali hududni (fazoni) radiolokatsion (optik) vositalar bilan ko'zdan kechirish, nishonni fosh etish va kuzatish, raketani (yoki boshqa qurolni) nishonga yo'naltirish va raketaning (qurolning) o'z-o'zini nishonga yo'naltirish qurilmalari yordamida, yarim avtomatik (operator ishtirokida) yoki avtomatik tarzda bajariladi.

Nishonni tutish davrida nishon kimga (dushmanga yoki qo'shinlarimizga) mansubligi aniqlanib, harakatlarining ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Nishon tutilgach, qurol qo'llanilishga to'la tayyorlanganiga qadar kuzatib boriladi.

NIQOBLANISH – qo'shin va obyektlarni dushman razvedkasi va zarbasidan yashirish hamda qo'shinlarimiz mavjudligi, joylashuvi, harakatlari va ko'zlayotgan maqsadi borasida raqibni chalg'itishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmui. Niqoblanish tadbirlari qo'shinlarning dushman uchun kutilmagan tarzda harakatlanishi, jangovar shayligi saqlanib qolishi va obyektlarning barhayotligiga imkon yaratadi. Niqoblanish xususan:

- *dushmanning turli ko'rinishlardagi razvedkasidan saqlanish*
- *usullariga ko'ra* – optik, issiqlik, radiolokatsion, radio, radiotexnik, tovush (akustik), yorug'lik, gidroakustik kabi;
- *niqoblanish tadbirlarining o'tkazilish ko'lamiga ko'ra* – strategik, operativ va taktik;
- *niqoblanish usullariga ko'ra* – yashirin, namoyishkorona, yolg'on xabarlar (ma'lumotlar) tarqatish turlariga bo'linadi.

NIQOBLASH VOSITALARI – harbiy obyektlarni niqoblash uchun foydalaniladigan anjom, texnika, o'q-dori va jihozlar. Vazifasiga ko'ra:

- *optik niqoblanish vositalari* – kiyim-kechak, yuz va tana niqoblari, rang-barang bo'yanishlar;
- *radiolokatsion niqoblanish vositalari* – nur qaytargichlar, radiosochuvchi va radiosingdiruvchi qoplamalar;
- *yorug'likni (shu'lani) niqoblovchi vositalar* – avtomobil chiroqlari, yoritgich va fonuslar uchun qopqoqlar, yorug'likni to'suvchi parda, eshik va qalqonlar;
- *issiqlikni niqoblovchi vositalar* – qizigan sirtlar haroratini pasaytiruvchi moslamalar, metallardan tayyorlangan issiqlik ekranlari, issiqlik taratuvchi soxta nishonlar;
- *tovushni niqoblovchi vositalar* – tovush filtri, so'ndirgich kabilar;
- *gidroakustik niqoblash vositalari* – gidrolokatsiyaga qarshi qoplama

kabilar;

– *tutunli vositalar* – tutun purkovchi shashka, snaryad kabilar;

– *pirotexnik vositalar* – o'q va portlash ovozlari imitatsiyalovchi pirotexnik patronlar va shashkalar, portlovchi moddalar, yonuvchi ashyolar, yorituvchi va signallovchi raketalar;

– *niqoblab bo'yash vositalari* – bo'yash stansiyalari, bo'yoq purkagichlar, mo'yqalam, cho'tka va rang tanlash asboblari.

NOQONUNIY QUROLI TUZILMALAR – milliy va xalqaro qonun hujjatlariga xilof ravishda shakllantirilgan, terrorchilik, ekstremistik, jinoiy yoki boshqa maqsadlarni ko'zlovchi qurolli birlashmalar, otryadlar, guruhlar.

NURLI QUROL – qurolning lazer nurlanishiga asoslangan ehtimoliy turi. Nurdagi energiyaning juda yuqori haroratda qizib ketish holatini keltirib chiqaruvchi to'yinishiga asoslangan.

Qurolning ta'sir o'tkazish obyektlari – inson va texnika bo'lishi mumkin. Katta quvvatga ega nur tutamlari ko'z qobig'i, teri kabilarning kuyishiga olib keladi. Texnikaga qarata qo'llanilganda metallning erishi, parchalanishi yoki bug'lanib ketishiga omil bo'ladi. Nurli qurol samolyot va raketalar hamda ular uchiriladigan marralarga qarata ham qo'llanilishi mumkin. Nurli qurolning nuri ko'rinmasligi (alangasi, tutuni va tovushi yo'q), o'ta aniqligi va deyarli oniy ta'siri bilan boshqa qurollardan farqlanib turadi. Dushmanga shikast yetkazuvchi ta'siri qor va yong'ir yog'ayotganda, tuman, chang va tutun mavjudligida zaiflashadi.

Matbuotda chop etilayotgan materiallarda bayon etilishicha, nurli qurol sifatida – o'ta quvvatli (gazodinamik, kimyoviy, gazrazryadli) lazerlardan foydalanish mumkin ekan.

O

OBOYMA – miltiq, karabin, avtomat, pistolet, yirik kalibrli pulemyot va kichik kalibrli to'plarni o'qlash (o'qdonni patronlar bilan anjomlash) amalini soddalashtirish va tezlatish uchun mo'ljallangan bir necha patronlarni (5 donadan 15 donagacha) muayyan tartibda joylashtirish uchun moslashtirilgan moslama. Qurolning ayrim namunalari oboyma, patronlarni o'qdondan patrondonga yuborilishi mobaynida tutib-yo'naltirib turuvchi qism sifatida qo'llaniladi.

OBTYURATOR – porox solingan xaltachalar qo'llanilib, o't ochish mobaynida porox gazlarining stvol kanali tubidan yorib chiqishining oldini

oluvchi artilleriya quroli zatvorining qismi. Obtyuratorlar muayyan shaklli yoki egiluvchan bo'ladi. Shu bilan birga "Obtyurator" atamasi o'xshash vazifani bajarish uchun mo'ljallangan ayrim pirotexnik vositalarning tarkibiy qismini nomlashda ham qo'llaniladi.

OBTYURATSIYA – o't ochilganda, porox gazlarining stvol kanali tubidan yorib chiqishining oldini olish.

OBYEKTIV – optik asbob ichidagi linza yoki linzalar tizimi. Ko'zdan kechirilayotgan obyektning kichraytirilgan, haqiqiy va to'ntarilgan aksini ko'rsatish uchun mo'ljallangan.

OBYEKTLAGA SHIKAST YETKAZISH – shikast yetkazishning turli vositalari bilan obyektlarga (nishonlarga) ta'sir o'tkazilib, jangovar vazifani bajarish qobiliyatini to'la-to'kis yoki qisman yo'qotish.

OB-HAVO RAZVEDKASI (meteorologik razvedka) – muayyan hududdagi ob-havoni belgilangan fursatda (vaqt oralig'ida) asbob-uskuna yordamida va ko'z bilan kuzatish.

Ob-havo razvedkasi qo'shinlar harakatiga ta'sir ko'rsatuvchi bulut qoplagan, yog'ingarchilik bo'ladigan, momaqaldiroq yuz berishi mumkin bo'lgan zonalar, atmosfera fronti oqimining yo'nalishi va tezligi hamda shu kabi boshqa tabiat hodisalarini aniqlash (aniqlik kiritish) maqsadida o'tkaziladi. Mazkur razvedka (alohida qo'shin turi manfaatlarida) radiolokatsiyali, havo, kema va maxsus razvedka turlariga bo'linadi.

OGNEMYOT – yonayotgan yonilg'i aralashmalari bilan dushmanning ochiq joyda, shu jumladan, dala istehkomlari, zirhli mashina, bino kabi panagohlarda joylashib olgan jonli kuchini qirib, moddiy xazira, tank va avtomashinalarini yoqib tashlash, shuningdek, uning yo'lida yong'in hosil qilish uchun mo'ljallangan qurol. Hujumda bo'linmalarga madad berish va mudofaada qudratlarini kuchaytirish uchun qo'llaniladi. Ognemyot tizillab purkagan olov oqimi 140-180 m naridagi nishonni yo'q qiladi.

Ilk bor 1915-yilda Germaniya qo'shinlari tomonidan Birinchi Jahon urushida qo'llanilgan. Ikkinchi Jahon urushi yillarida tomonlar og'ir va yengil ognemyotlardan keng foydalangan. Osma ognemyot tarkibiga miltiq, shlang, ballonlar joylashtirilgan to'rva va tirgaklar kirib, bir kishi tomonidan qo'llaniladi. Ognemyotlar:

- osma ognemyot;
- og'ir ognemyot;
- mexanizatsiyalashtirilgan ognemyot;

- tankka oʻrnatiladigan ognemyot;
- fugasli ognemyot;
- reaktiv ognemyot turlariga boʻlinadi.

OGNEMYOT OʻRNATILGAN TANK – asosiy qurol sifatida ognemyot bilan qurollangan va yonayotgan yonuvchi aralashmani 230 m ga qadar masofaga uloqtiradigan jangovar mashina. Toʻp va pulemyotlar – asosiy, ognemyot esa koʻmakchi qurol sanaladigan tanklar ham keng tarqalgan. Yonilgʻi aralashmasi solingan hajm tank ichida yoki korpusi ustida, yoxud bir oʻqli tirkamada joylashtirilishi mumkin. Tankka reaktiv ognemyot ham oʻrnatilishi mumkin.

ODDIY ASKAR – aksariyat davlatlar qurolli kuchlarida askarlar tarkibiga mansub harbiy xizmatchilar uchun belgilangan harbiy unvon.

Bugungi Qurolli Kuchlarimizda mavjud mazkur unvon 1946-yilda taʼsis etilgan. Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan shaxsga, harbiy qism shaxsiy tarkibi roʻyxatiga kiritilishi bilan oddiy askar unvonini bir vaqtda beriladi.

Harbiy-dengiz flotida oddiy askar unvoniga – matros unvonini toʻgʻri keladi.

ODDIY QUROL – ommaviy qirgʻin qurollar jumlasiga kirmaydigan qurol. Oddiy qurol jumlasiga oʻq-dorilar va ushbu oʻq-dorilarni nishonga (obyektga) qadar yetkazish uchun moʻljallangan vositalar kiradi. Oʻq-dorilar brizantli portlovchi moddalar va yonuvchi aralashmalar bilan anjomlanadi. Oʻq-dorilarni nishonga (obyektga) qadar yetkazish uchun moʻljallangan vositalar jumlasiga raketa qoʻshinlari, artilleriya, aviatsiya, tanklar, piyodalarning jangovar mashinalari, kemalar, oʻqli qurol-yarogʻlar kiradi.

OKOP – shaxsiy tarkib va jangovar texnika uchun oʻt ochish marrasi va oddiy panoh sifatida xizmat qiluvchi ochiq turdagi fortifikatsiyali istehkom. Okop:

- oʻqchi okopi;
- artilleriya, minomyot, pulemyot kabi qurol okoplari;
- tank va shunga oʻxshash texnika okoplariga boʻlinadi.

Oʻqchi okopi – yakka askar, harbiy xizmatchilar jufti va guruhi uchun moʻljallangan okoplarga boʻlinadi. Okop – oʻyilgan chuqur, oldiga uyilgan yasama doʻnglik va qurolni oʻrnatish uchun maydonchadan tarkib topadi. Hosil boʻlgan yakka okop motooʻqchi seksiya uchun okop hosil qiluvchi, uzunligi 50-60 m keladigan transheyaga ulanadi. Olov yuritilishining yoʻnalishlariga koʻra oʻqqa tutishning aylanali yoki cheklangan sohaga

mo'ljallab qaziladi va tevarak-atrofning asosiy rangiga monand niqoblanadi. Qazish amali ko'makchi asbob-uskuna yordamida bajariladi. Vaziyat yo'l qo'ygan joyda portlovchi moddalarning maxsus zaryadlari, yer qazish mashinalari, mashinaga birlashtirilgan buldozerlovchi asboblari kabi vositalar qo'llaniladi.

OKKUPATSIYA (lot. *occupatio* – egallash, bosib olish) – dushman hududining qurolli kuchlar tomonidan vaqtincha egallanishi.

Okkupatsiya mobaynida okkupatsiya etilgan davlat hukumati deyarli tugatiladi, ma'muriy boshqaruv, huquq me'yorlariga rioya etilgan holda, okkupatsiya etgan qo'shin qo'mondonligi tomonidan amalga oshiriladi. Okkupatsiya etilgan hududni okkupatsiya etgan davlat hududiga qo'shib olish man etiladi. Okkupatsiya etilgan hududning ma'muriy boshqariluvchi okkupatsiya etgan mamlakat tomonidan amalga oshiriladi.

OLDINGI MARRA – mudofaa chegarasining oldingi chizig'i oldidagi mudofaa marrasi. Mudofaamizning oldingi chizig'i borasida dushman tasavvurini chalg'itish, razvedka yuritishini murakkablashtirish, 1-eschelondagi qismlarimizni daf'atan ataka qilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida tashkil etiladi. Oldingi marrada tayanch punktlari tashkil etish va ushbu punktlarni dushman hujumining ehtimoliy yo'nalishlarida aylanasi yuritiladigan mudofaaga tayyorlash va jang yuritish uchun motoo'qchi yoki tank bo'linmalari ajratiladi.

OLDINGI QO'MONDONLIK PUNKTI – asosiy zarba yo'nalishidagi qo'shnlarga rahbarlik qilishning operativligini oshirish uchun, qo'shinlar qo'shilmalarining birinchi eschelondagi qo'shinlar guruhining bevosita ortida tashkil etiladigan boshqaruv punktlaridan biri. Oldingi qo'mondonlik punkti tarkibiga qo'shilma komandirining o'rinbosari, shtab, qo'shinlar turi, maxsus qo'shin va xizmatlar ofitserlari kiritilib, qo'mondonlik punkti, front orti ta'minoti boshqaruv punkti va qo'shilma qo'shinlari bilan ishonchli aloqa ta'minlanadi.

Zarurat tug'ilganida qo'shilma komandiri oldingi qo'mondonlik punktiga ko'chib o'tadi.

OLDINDAN BERILADIGAN KO'RSATMA – taxminiy vazifa ko'rsatilgan jangovar hujjat yoki og'zaki komanda. Ijrosiga shay turish lozim bo'lib, jangni tayyorlash muddati cheklangan vaqtda qo'llaniladi.

OLIY BOSH QO'MONDON – davlat, davlatlar ittifoqi qurolli kuchlarining, odatda, urush davridagi bosh rahbari.

Aksariyat davlatlarda Oliy Bosh Qo'mondon tinchlik davrida ham tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq (93-modda, 16-bandi) – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni sanaladi va u:

- O'zbekiston Respublikasi mudofaa siyosati va harbiy qurilishining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;

- O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati ta'minlanishi, uning suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligi muhofaza etilishi yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;

- Qurolli Kuchlarni qurish, qo'llash va rivojlantirish rejalarini, shuningdek, mudofaani tashkil etish yuzasidan davlatning boshqa reja va dasturlarini tasdiqlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa harbiy tuzilmalarining tinchlik va urush davriga mo'ljallangan tuzilishi, tarkibi va joylashuvini tasdiqlaydi;

- harbiy harakatlar olib borish to'g'risida, shu jumladan, xalqaro tinchlikparvarlik tadbirlarida qatnashish to'g'risida, shuningdek, Qurolli – Kuchlarni o'zlariga bevosita taalluqli bo'lmagan vazifalarni bajarishga jalb etish to'g'risida qaror qabul qiladi va Qurolli Kuchlarga buyruq beradi;

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan tartibda:

- O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zarurati tug'ilganda, urush holati, umumiy yoki qisman safarbarlik c'lon qiladi hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi;

- Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlarni beradi;

- qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

OLIIY BOSH QO'MONDONLIK – Odatda, urush davrida yaratiladigan va Oliy Bosh Qo'mondon tomonidan boshqariladigan davlat (davlatlar ittifoqi) qurolli kuchlarining bosh strategik rahbariyati.

OLIIY HARBIY AVIATSIYA BILIM YURTI – davlat ta'lim muassasasi bo'lib, unda 4 yillik o'qish rejasi asosida, belgilangan harbiy mutaxassislik va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha "bakalavr" akademik darajasiga ega, taktik bo'g'in boshqaruvi ofitser kadrlarini tayyorlaydi, Harbiy-havo kuchlarida belgilangan mutaxassislarni qayta tayyorlaydi va malakalarini oshiradi. U 1994-yilda Jizzax shahrida tashkil topgan va 2019-yilda Qarshi shahriga ko'chirilgan.

OLIS MASOFALARDA HARAKATLANUVCHI AVIATSIYA –

harbiy-havo kuchlarining tarkibiy qismi bo'lib, dushman ortidagi olis sarhadlarda mavjud harbiy obyektlarni yakson etish va havo razvedkasini yuritish uchun mo'ljallangan. Raketa tashuvchi, bombardimonchi va razvedkachi turlarga bo'linadi. Olis masofalarda harakatlanuvchi aviatsiyaning muhim jangovar xususiyatlari:

- olis masofalarda harakatlanishi;
- obyektlarga, shu jumladan, harakatchan nishonlarga qarata, ob-havoning har qanday sharoitida, kunduz kuni va tungi vaqtda qudratli va aniq zarbalar berish qobiliyati;
- zarbalarni qisqa muddatda, bir yo'nalishdan ikkinchi yo'nalishga olib o'tishga imkon beruvchi yuqori manyovrchanligidir.

Olis masofalarda harakatlanuvchi aviatsiyaning jangovar harakatlar sharoitida qo'llashning asosiy usuli – qisqa muddatda obyektlarni yo'q qilish yoki vayron etish maqsadida yopirilma zarbalar berishdir.

Olis masofalarda harakatlanuvchi aviatsiyaning qurol-aslahasi tarkibida ob-havoning barcha sharoitida olis masofalarga uchuvchi, strategik raketalarni tashuvchi, bombardimonchi samolyotlar mavjud.

Bosib o'tadigan masofasini oshirish uchun samolyotlar parvoz mobaynida yoqilg'i bilan to'latiladi.

Qo'llaydigan o'q-dorilar jumlasiga: "Havodan yerga" sinfiga mansub raketalar, oddiy va yadroviy kallakli, ko'p maqsadli aviatsiya bombalari kiradi.

1942-yilgacha uzoqqa uchadigan bombardimonchi aviatsiya, 1942-yil martidan uzoqqa boradigan aviatsiya, 1946-yildan olis masofalarda harakatlanuvchi aviatsiya deb atala boshlagan. Ikkinchi Jahon urushi yillarida quruqlik va dengizdagi muhim obyektlarga zarba bergan, dushman ortida havo razvedkasini olib borgan. Bombardimonchi, razvedkachi va maxsus turlarga bo'linadi.

OLIS YURISH – kemalarning to'la avtonom sharoitda, ekipajlarning dengiz taktikasi, ta'limoti va kasbiy mahoratini takomillashtirish, ruhiy, ma'naviy va jismoniy sifatlarini chiniqtirish maqsadida davomli yurishi.

OLOV – qurolning turli rusumlaridan quruqlik, dengiz va havoda o't ochib, raketalarni uchirib, dushmanni daf etish uchun mo'ljallangan asosiy vosita.

Zamonaviy qurol olovining qudrati: o'ta aniqligi, dushman uchun daf'atan ochilishi, muhim obyektlarga qarata yopirilib qo'llanishi, keng miqyosda manyovrlanishi, mohirona boshqarilishidan iborat. Olov

qo'yilgan vazifaga monand dushmani (nishonni):

- *yo'q qilish* – jangovar qobiliyatiga batamom barham berish;
- *vayron qilish* – kelgusida foydalanishga yaroqsiz holatga keltirish;
- *yanchish* – jangovar qobiliyatdan vaqtincha mahrum etish;
- *holdan toydirish* – jonli kuchiga axloqiy-ruhiy ta'sir o'tkazish,

tahlikaga solib, jonsarak etish maqsadida ochiladi. Olov:

- artilleriya olovi;
- tank va PJM olovi;
- o'qli qurol olovi;

aviatsiya aslahalari olovi turlariga, shuningdek, tez va ravon ochiladigan; xavotirga soluvchi; yaqindan, qiyalab, bir yerga g'uj yopirilib, rejali, bir necha tomondan, barcha qurollardan jamlanma ochiladigan; qanotlardan va ro'paradan ochiladigan olov turlariga bo'linadi.

OLOVLI DEVOR – 1) artilleriya olovi bilan bitta yoki bir vaqtning o'zida ikkita chiziqda tashkil etilgan yaxlit olovli parda bo'lib, dushmanning oldindan tayyorlab qo'yilgan mudofaasini yorib o'tish maqsadida atakaga ko'tarilgan qo'shinlarimiz fronti oldida, bo'linmalar olg'a siljib borgani sari, izchillik bilan olovni oldinga ko'chirib o'tish yo'lini qo'llab, dushmani yo'q qilish va daf etish usuli. Olovli devor bir qatlamli yoki ikki qatlamli bo'lishi mumkin.

Bir qavatli olovli devor – dushman mudofaasining bir chegarasiga qarata atakaga ko'tarilgan motoo'qchi bo'linmalar va tanklar frontining bevosita oldida tashkil etiladi.

Ikki qavatli olovli devor – ikkita artilleriya guruhi tomonidan bir vaqtda dushman mudofaasining barcha asosiy va oraliq chegaralarida tashkil etiladi.

Olovli devor uzoqligi – dushman mudofaasi xususiyati, jang g'oyasi, mavjud artilleriya qurollari va o'q-dorilar miqdoriga bog'liq; 2) qo'l ostida mavjud yonuvchi ashyolardan dushman tanklari atakasining ehtimoliy yo'nalishlarida tashkil etilgan olovli to'siq. Mazkur yonuvchi ashyolar, dushman atakasi boshlanishi bilan yonuvchi shisha va fugasli ognemyotlar (yoki boshqa usullar) yordamida o't oldiriladi.

OLOVLI SANCHQI – masofa bo'yicha otib ko'rish davomida ikki snaryadning nishonga nisbatan ustidan uchib o'tib va yetib bormay portlashi.

Olovli sanchqi keng yoki tor bo'lishi, amalga oshirilganidan so'ng esa ta'minlanmagan va ta'minlangan o't ochish amaliga o'tib, nishonni yakson

etishi mumkin.

Ta'minlanmagan o't ochish – bittadan nishon uzra o'tib va unga yetib bormay hosil bo'lgan portlashlar.

Ta'minlangan o't ochish – ikkitadan kam bo'lmagan tarzda nishon uzra o'tib va unga yetib bormay hosil bo'lgan portlashlar.

OLOVNI KETMA-KETLIKDA JAMLASH – artilleriya olovining turi. Atakaga ko'tarilgan qo'shinga artilleriya bilan ko'mak berish usuli. Bunda jamlangan artilleriya olovi, atakadagi qo'shin oldida mavjud nishonlarga qarata, o't ochish chegaralari bo'ylab ketma-ket ko'chirib o'tiladi.

Hujumda va mudofaamiz mobaynida, zarbamizga qarshi dushman zarba berganida qo'llaniladi. Izchillik bilan jamlanadigan olov bir va ikki qatlamli bo'lishi mumkin.

Olov bir qatlamli izchillik bilan jamlanganda, o't ochishning bitta chegarasida, atakaning bevosita old tomonida joylashgan nishonlarga qarata yuritilib, bo'linmalarimiz olg'a ilgarilagan va dushman nishonlarining joyi o'zgargan sari navbatdagi chegaraga ko'chirilib borilaveradi.

Olovni ikki qatlamda jamlash amali – artilleriyaning ikki guruhi tomonidan bir vaqtda o'tkaziladi, 1-artilleriya guruhi yaqin masofadagi chegarada joylashgan nishonlarga qarata, 2-guruh esa ikkinchi chegaradan boshlab, navbatdagi chegaralarda joylashgan nishonlarga qarata o't ochadi.

OMMAVIY-SPORT ISHLARI – harbiy xizmatchilarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlar tizimi. Ommaviy-sport ishlari jismoniy madaniyat va sportni tashkil etish va targ'ibot qilish, mashq va mashg'ulotlar, turli ko'rik va birinchiliklar o'tkazish kabi tadbirlardan iborat. Ommaviy-sport tadbirlari o'quv mashg'ulotlari vaqtidan tashqari, kun tartibida belgilangan vaqtda o'tkaziladi.

OMMAVIY-TARG'IBOT ISHLARI – qurolli kuchlarda mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy ishlarning muhim sohasi bo'lib, shaxsiy tarkibni g'oyaviy jihatdan tarbiyalash vositasidir. Uning asosiy vazifasi – jangchilar ongiga davlat qonunlari talablarini yetkazish, shaxsiy tarkibning muayyan harbiy, ijtimoiy-siyosiy vazifalarini hal etish, Vatanga qasamyod va umumqo'shin Nizomlar talablarini bajarishga safarbar etishdir.

Mazkur ishlar komandirlar, ularning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, harbiy xizmatchilarning jamoalari, targ'ibot-tashviqot

jamoalari va tashviqotchilar tomonidan yuritiladi.

Og'zaki (tezkor siyosiy axborot, suhbat, ma'ruza, muayyan mavzuga bag'ishlangan kecha va mitinglar, harbiy xizmatchilar majlisi kabi), nashr (gazeta, jurnal va varaqalar) va ko'rgazma (plakat, fotomontaj, rasmlar va hokazo) shaklida olib boriladi.

OMMAVIY QIRG'IN QUROLLAR – dushmanning jonli kuchlari, qurol-aslahalari va inshootlariga yalpi (ommaviy) talafot yetkazish xususiyatiga ega, qo'llanilishi natijasida jonli kuchning ommaviy tarzda qirilib, ulkan vayronaliklar olib kelishga mo'ljallangan jangovar vositalar, qirg'in qurollari. Jangovarlik (shikast yetkazish, qirg'in qilish) xususiyatlariga ko'ra, boshqa barcha jangovar vositalar, qurollardan samaraliroq sanaladi. Ommaviy qirg'in qurollarning talafot yetkazuvchi omillari dushmanga juda katta zarar yetkazib, kuchli axloqiy-ruhiy ta'sir o'tkazadi. Ommaviy qirg'in qurollar jumlasiga:

- yadro qurollari;
 - kimyoviy qurollar;
 - bakteriologik (biologik) qurollar;
- qudratli yondiruvchi qurollar kiradi.

Ommaviy qirg'in qurolini ishlatish sharoiti, hududi, miqyosi deyarli cheklanmagan. Hozircha ommaviy qirg'in qurollarning eng katta zaxirasi ikki yirik davlat – AQSH va Rossiya Federatsiyasida jamlangan. Pokiston, Eron, Hindiston, Shimoliy Koreya va ba'zi davlatlar ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqarish va zaxira hosil qilish harakatida.

Fan va texnika taraqqiyoti – sifat jihatidan yangi tamoyillarga asoslangan infratovushli, radiologik, nurli, lazerli, geofizik kabi ommaviy qirg'in qurollarni ishlab chiqish imkonini yaratadi.

OMMAVIY QIRG'IN QUROLLAR TA'SIRIDAN HIMOYA QILISH – qo'shin, aholi va xalq xo'jaligi obyektlarini dushmanning yadroviy, kimyoviy va bakteriologik (biologik) qurollarining xavfli (zararli) ta'sir o'tkazuvchi omillaridan himoyalash uchun ko'riladigan choralar majmui.

Bunda shaxsiy himoya vositalari, transheyalar, maxsus jihozlangan pana joylardan foydalaniladi, epidemiyaga qarshi va boshqa tibbiy tadbirlar, dezaktivatsiya, degazatsiya hamda umumdavlat mudofaa tadbirlari ko'riladi. Himoya vositalari quyidagi turlarga bo'linadi:

- *shaxsiy* – gazniqob, yopinchiq, kombinezon;
- *jamoaviy* – transheya, yerto'la, kommunal texnik inshoot va ko'chadagi yerostidan o'tish yo'llari, jihozlangan panagoh, metro kabilar.

OPERATIV BIRLASHMA – tarkibiga bir necha qo‘shilma yoki kichik birlashmalar, shuningdek, alohida qism va muassasalar kiritilgan yirik tuzilma. Tinchlik va urush davrida tashkil etilib, operativ va strategik vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan. Jahon tarixida qurolli kuchlar qurilishining armiya, flotiliya, eskadra, flot aviatsiyasi, taktik aviatsiya, turli qo‘mondonliklar kabi operativ birlashmalar tashkil qilangani ma‘lum.

OPERATIV BO‘YSUNISH – birlashma, qo‘shilma va qismlarning jangovar vazifa bajarilish davrida zimmasiga operatsiyani, ya‘ni jangni tayyorlash va yuritish yuklatilgan qo‘mondon, komandir ixtiyoriga vaqtincha o‘tkazilishi.

OPERATIV VAZIFA – o‘tkazilayotgan operatsiyaning belgilangan muddatida muayyan maqsadga erishish uchun yuqori pog‘onadagi boshliq tomonidan qo‘shilma oldiga qo‘yilgan vazifa.

Operativ vazifaning to‘la bajarilishi yalpi operatsiyaning muvaffaqiyatli o‘tkazilishiga omil bo‘la oladi (*Qarang: “Jangovar vazifa”*).

OPERATIV VAQTNING O‘ZGARTIRILISHI – operativ yoki taktik tayyorgarlik bo‘yicha o‘tkazilayotgan o‘quv tadbirlar mobaynidagi operativ vaqtning astronomik vaqtga nisbatan kechga surilishi.

Operativ vaqt bir yoki bir necha o‘quv savollari ko‘rib o‘tilganidan so‘ng mavzuning navbatdagi savoli yoki taktik mashqning keyingi bosqichiga o‘tish uchun o‘zgartiriladi.

OPERATIV GURUH – 1) muayyan operatsion yo‘nalishda harakat qiluvchi qo‘shinlarning vaqtincha birlashishi. Operativ guruh tarkibiga kiritilgan qo‘shinlarga rahbarlik qilish uchun qo‘mondon, komandir, boshliq tayinlanadi, boshqaruv organi sifatida esa, ushbu guruh tarkibiga kiritilgan birlashmalardan birining shtabidan foydalaniladi; 2) asosiy kuchlardan ajralib chiqib, alohida vazifa bajarayotgan qo‘shin faoliyatini muvofiqlashtirish, ushbu qo‘shin bilan aloqa o‘rnatish va umumiy vazifani bajarish mobaynida hamkorlikni tashkil etish uchun birlashma shtabi tomonidan yuboriladigan, aloqa vositalariga ega ofitserlar guruhi.

OPERATIV JANGOVAR TA‘MINOT – operatsiyani, ya‘ni jangni muvaffaqiyatli yuritish, qurolli kurash vositalarini samarali qo‘llash, qo‘shinlarning jangovar qobiliyatini yuksak saviyada tutib turish, dushmanning qo‘shinlarimiz ustiga daf‘atan hujum uyushtirishiga yo‘l qo‘ymaslik yoki oldini olish va bunday zarbalari unumini pasaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar majmui. Operativ jangovar ta‘minotning asosiy turlari:

- razvedka;
 - ommaviy qirg'in qurolidan saqlanish;
 - radioelektron kurash;
 - niqoblanish;
 - muhandislik, kimyoviy, topogeodezik, gidrometeorologik ta'minot;
- taktik pog'onada esa – bundan tashqari, qo'riqchilik xizmati.

Qurolli kuchlarning qator turlari o'ziga xos operativ, ya'ni jangovar ta'minotga ega.

OPERATIV SAN'AT – qurolli kuchlar turi qo'shilmalari tomonidan birgalikda yoki mustaqil tarzda umumqo'shin jangovar harakatlarni tayyorlash va yuritish nazariyasi bilan amaliyotini qamrab oladigan harbiy san'atning tarkibiy qismi bo'lib, strategiya bilan taktika o'rtasida oraliq o'rin egallaydi.

Aksariyat davlatlarning harbiy nazariyasida "Operativlik san'ati" atamasi o'rniga "Katta taktika" va "Kichik strategiya" atamalari qo'llaniladi. Operativlik san'ati nazariyasining asosiy vazifalari:

- zamonaviy operatsiyalarning qonuniyati, mazmuni va xususiyatlari hamda qo'shilmalarni operativlik jihatdan qo'llanilishining boshqa shakllarini tadqiq etish;

- jangovar harakatlarni tayyorlash va yuritish usullarini, hamkorlikni tashkil etish va saqlab turish, jangovar harakatlarda ishtirok etayotgan qo'shinlarni har tomonlama ta'minlash va boshqarish usullarini ishlab chiqish;

- urush maydonini operativlik jihatdan jihozlash borasida tavsiyalar ishlab chiqish;

- ehtimoliy dushmanlarning operativ miqyosda jangovar harakatlar yuritish borasidagi qarashlarini o'rganib chiqishdan iborat.

Operativlik san'ati amaliyoti jumlasiga birlashma qo'mondonligi, shtablari va qo'shinining operatsiyalarni tayyorlash va yuritish, qo'shinlarni boshqarish va jangovar harakatlarni har tomonlama ta'minlash borasidagi faoliyati kiradi. Zamonaviy operativlik san'ati jumlasiga:

- umumqo'shin operativlik san'ati;
- strategik maqsadli raketa qo'shinlarining operativlik san'ati;
- havo hujumidan mudofaa qo'shinlarining operativlik san'ati;
- harbiy-havo kuchlarining operativlik san'ati;
- harbiy-dengiz flotining operativlik san'ati;
- front orti ta'minotining operativlik san'ati;

– fuqaro muhofazasining operativlik san’ati kiradi.

Operativlik san’atining taraqqiyoti yadroviy va oddiy qurolning takomillashib borishi bilan bir vaqtda davom etmoqda. Bugungi kunda operativlik san’ati o’ta aniq harakatlanuvchi avtomatlashtirilgan va boshqariladigan qurolning qo’llanilishi nazarda tutilayotgan zamonaviy operatsiyalarni tayyorlash va yuritish usullari ishlab chiqilishi mobaynida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

OPERATIV MA’LUMOT – birlashmaning, odatda, o’tgan sutka borasidagi ma’lumotlarga ega jangovar, hisobot-axborot mazmunidagi hujjati. Operativ ma’lumotda quyidagilar bayon etiladi:

- birlashma harakatlari, egallagan vaziyati va yalpi holati;
- dushman qo’shinlari qay tarzda guruhlashganligi, holati va harakatlarining xususiyatlari;
- ikki pog’ona pastdagi qo’shilmalarning olib borgan jangovar harakatlari natijalari;
- ko’rilgan talafotlar va olingan o’ljalar;
- moddiy ta’minlanganlik holati;
- chegaradosh birlashmalar holati va harakatlari haqida qisqa ma’lumot hamda jangovar harakatlar davomida olingan shu kabi ma’lumotlar.

Operativ ma’lumot shtab boshlig’i va operativ boshqarma, bo’lim, bo’linma boshlig’i tomonidan imzolanadi.

OPERATIV MUVAFFAQIYAT – operativ mohiyatga ega va operatsiya davomiga sezilarli ta’sir o’tkazadigan qo’shinlar harakatidagi natija. Operativ muvaffaqiyatning ko’rsatkichlari sifatida:

- dushman qo’shinlari aviatsiyasi, flot kuchlari guruhining tor-mor etilishi va hujumkor qo’shinlarning operativ sarhadlarga chiqishi;
- zarbaga qarshi muvaffaqiyatli zarba berilishi;
- suv havzasining muvaffaqiyatli kechib o’tilishi;
- havo desanti yoki dengiz desanti operatsiyasi muvaffaqiyatli o’tkazilishi kabilar xizmat qilishi mumkin.

OPERATIV MUDOFAA – mudofaaning alohida turi hisoblanib, front, armiyalar guruhi, armiya, armiya korpusi tomonidan yuritilayotgan operativ miqyosdagi mudofaa harakatlari.

OPERATIV TAYYORGARLIK – general, admiral va katta ofitserlar hamda operativ pog’onadagi boshqaruv organlari tayyorgarligining asosiy turi. Operativ tayyorgarlik jumlasiga:

- strategiya va operativ san’atning nazariy asoslarini o’zlashtirish;

– ehtimoliy dushmanni va urush maydonidagi harbiy harakatlarning ehtimoliy xususiyatlarini o'rganish;

– boshqaruv organiga mansub mansabdor shaxslarning qo'shinlarni yuksak jangovar shay holatda saqlash, operatsiyani tayyorlash va yuritishga doir amaliy ko'nikma va mahoratlarini takomillashtirish;

– boshqaruv organi va yalpi qo'shilmaning hamkor harakatlarini mashq qilish amallari kiradi.

Operativ tayyorgarlik oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar jumlasiga:

– generallar, admirallar va katta ofitserlarning harbiy san'at sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish;

– qo'yilgan vazifani muvaffaqiyatli hal etishga oid asoslangan qaror qabul qilish, bo'ysunuvchilar oldiga tegishli jangovar vazifa qo'yish, hamkorlik va har tomonlama ta'minotni tashkil eta olish mahoratlarini shakllantirish;

– radioelektron kurash, mexanizatsiya, yangi aloqa va telekommunikatsiya vositalaridan keng foydalangan tarzda qo'shinlarni boshqarish borasida qo'mondonlik va shtablarning harakatini tartibga solish;

– mansabdor shaxslarga taktik mashqlar va operativ tayyorgarlikka doir boshqa tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish uslublarini o'rgatish kiradi.

Generallar, admirallar va katta ofitserlarning operativ tayyorgarligi nazariy va amaliy mashg'ulotlar hamda taktik mashqlar davomida olib boriladi. Boshqaruv organining hamkor harakatlari operativ tayyorgarlikning eng yuqori shakli bo'lmish harbiy mashqlar, shtab mashg'ulotlari, harbiy o'yinlar, shtab va qo'mondonlik-shtab mashqlari, operativ mashqlar va manyovrlar davomida tashkillashtiriladi.

Operativ tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulot va mashqlar davomida asosiy e'tibor qo'mondonlik va shtablar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarning tezkorligiga qaratiladi.

Strategiya va operativ san'atning nazariy asoslari ijodiy ravishda o'zlashtirilib, ilmiy izlanishlar, qurol-yarog' va harbiy texnikani qo'llash, operatsiyani tayyorlash va olib borish usullariga doir eng ilg'or usullarni ishlab chiqish va o'zlashtirish bilan bog'liqdir.

OPERATIV-TAKTIK TAYYORGARLIK – general, admiral va ofitserlar hamda qo'shilma va harbiy qismlar boshqaruv organlari tayyorgarligining asosiy turi. Operativ-taktik tayyorgarlik jumlasiga taktika va operativlik san'atini o'rganish kiradi.

OPERATIV TANAFFUS – izchillik bilan o'tkazilayotgan hujumkor

operatsiyalar orasidagi vaqt oralig'i.

Navbatdagi operatsiyani o'tkazish uchun qo'shinlar guruhini tashkil etish va moddiy vositalar zaxirasini to'latish bilan bog'liq. Tarixiy tajribalarga ko'ra hujumkor harakatlardagi uzil-kesil muvaffaqiyatlarga operativ tanaffuslar minimal darajada qisqa yoki umuman o'tkazilmagan hollarda erishiladi.

OPERATIV TO'SIQLAR – birlashma qo'mondonligining rejasiga binoan tashkil etiladigan g'ov va vayronaliklar tizimi.

OPERATIV HIMOYA – chegaraga tutash hududlarda dushmanning nogahon hujumini bartaraf etish, muhim obyektlarni qo'lda tutib qolish va qo'shnlarni jangovar shaylikning to'la darajasiga keltirish, saf torttirish va muhorabaga kiritishni ta'minlash maqsadida tashkil etiladi. Odatda, chegara qo'shinlari bilan birgalikda qurolli kuchlar va qo'shin turlari yoki maxsus qo'shnlarga mansub, maxsus ajratilgan jangovar shay holatdagi qo'shilmalar, harbiy qismlar tomonidan amalga oshiriladi.

OPERATOR – 1) ayrim texnik uskunalar – stansiyalar, yo'naltirish stansiyalari kabi qurilmalarda lavozimiga ko'ra majburiyatini bajarayotgan mansabdor shaxs – ofitser, serjant, askar; 2) operativ bo'linma, bo'lim va boshqarma ofitserlari mutaxassisligining norasmiy nomi.

OPERATSIYA – 1) urush maydoni, strategik yoki operatsion yo'nalishdagi, ya'ni muayyan hudud yoki zonadagi masalani belgilangan vaqt davomida hal etish uchun xilma-xil qo'shinlar tomonidan maqsad, vazifa, joy va vaqtga ko'ra o'zaro bog'lanib, muvofiqlashtirilgan tarzda bir vaqtda yoki ketma-ket o'tkaziladigan muhoraba, jang, zarba va manyovrlar majmui; harbiy harakatlar shakli. Operatsiya:

– *miqyosiga ko'ra* – strategik operatsiya, front, flot, havo hujumidan mudofaa okrugi, armiyalar guruhi operatsiyasi, armiya, flotiliya, korpus, eskadra operatsiyasiga;

– *jalb etilgan kuch va vositalarga ko'ra* – umumqo'shin, umumflot, hamkorlikda va mustaqil tarzda o'tkaziladigan operatsiyaga;

– *jangovar harakatlarning xususiyatiga ko'ra* – hujumkor va mudofaa operatsiyalariga;

– *o'tkaziladigan vaqtiga ko'ra* – dastlabki va navbatdagi operatsiyalarga;

– *jangovar harakatlar yuritiladigan sohaga ko'ra* – dengiz operatsiyasi, havo operatsiyasi, havo hujumidan mudofaa va quruqlikdagi qo'shinlar operatsiyasiga bo'linadi.

Strategik operatsiyada bir nechta front operatsiyalari, front

operatsiyalarida esa bir nechta armiya va korpus operatsiyalari o'tkazilishi mumkin. Hamkorlikda o'tkaziladigan operatsiyalar — o'ziga xos alohida operatsiyalar sanaladi. Har bir operatsiya o'ziga xos ko'rsatkichlarga ega. Ushbu ko'rsatkichlarning eng asosiylari quyidagilar sanaladi:

- operatsiyada ishtirok etayotgan qo'shinlar miqdori;
- operatsiya o'tkaziladigan sarhadlar kengligi, ya'ni harakat maydonining eni va bo'yi;
- operatsiya davomiyligi, rivoji, keskinligi;
- hujumkor operatsiyalarda esa, bundan tashqari, hujum chuqurligi va sur'ati.

Qator mamlakatlar qurolli kuchlarida yadro quroli va qurolli kurashning yangi vositalari mavjudligi — operatsiya tasnifi va usullariga bo'lgan qarashlarni mutlaq o'zgartirib, hal etuvchi o'rin yadroviy zarbalarga ajratilmoqda. Operatsiyalarning mazmuni, tayyorlash va yuritish usullariga:

- urushning siyosiy maqsadi;
- hal etiladigan strategik va operativ vazifalarning xususiyatlari;
- davlatning harbiy-iqtisodiy imkoniyatlari;
- qo'shinlarimiz va dushman qo'shinlarining jangovar imkoniyatlari;
- urush maydonining tabiiy va geografik xususiyatlari;
- mavjud boshqaruv tizimi;

qo'shinlarning ma'naviy-siyosiy holati, ularning operativ, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik saviyasi sezilarli ta'sir o'tkazadi; 2) muayyan vazifani bajarishga qaratilgan tugal harakat yoki harakatlar majmui. Masalan, bank operatsiyasi, jarrohlik operatsiyasi; 3) texnologik jarayonlarning bir qismi. Bir ish o'rnida bajariladi. Texnologik operatsiya mehnat unumdorligini belgilash, uskunalardan foydalanishni rejalashtirish va mehnatni texnik me'yorlashtirishning asosiy hisob birligidir; 4) hisoblash mashinasida dastur komandasi bo'yicha bittadan beriladigan dastlabki miqdorlar ustida (ularni uzatish bilan birga) biror amalni bajarish. Arifmetik, mantiqiy, boshqarish va boshqa operatsiyalarga bo'linadi.

OPERATSION YO'NALISH — strategik yo'nalishning muhim operativ obyektlar joylashgan joy chegaralarini suv va havo sathlari bilan birgalikda o'ziga mujassamlashtirgan qismi.

Operatsion yo'nalish chegaralarida qurolli kuchlar turlariga mansub birlashma, qo'shilma va harbiy qismlar joylashadi, yoyiladi, urush davrida esa operatsiyalar o'tkazadi.

OPERATSION CHIZIQ — qo'shinlar jangovar harakatiga taalluqli

asosiy g'oyaning, maqsad va yo'nalishlarning belgilanishi. Bitta yo'nalishdagi bitta obyektga qarshi harakatlar – oddiy operatsiya chizig'i, bir-biridan bir qancha uzoqlashgan yo'nalishlardagi bir necha obyektlarga qarshi harakatlar – murakkab operatsiya chizig'i deb ataladi.

OPTIK RAZVEDKA – razvedkaning optik-elektron vositalari yoki optik asboblari yordamida dushman obyektlari, nishonlari haqida ma'lumotlar qidirish. Jangovar harakatlarning barcha turlarida:

– qo'shin, artilleriya, havo va muhandislik razvedkasi kuchi va vositalari bilan;

– boshqaruv va kuzatuv punktlari, postlari, vertolyot, samolyot, suvosti va suvusti kemalaridan yuritiladi. Zamonaviy optik razvedkaning texnik vositalari jumlasiga binokl, periskop, stereotrubka va bussollar, razvedka teodolitlari, ko'rish maydoning barqarorlashtirgichiga ega kuzatuv asboblari, optik va lazerli masofa o'lchagichlar kiradi. Optik razvedkaning asosiy *afzalliklari* – nishon joyini tez va aniq belgilash, davomli va uzluksiz razvedka yuritish imkoni mavjudligi; *kamchiliklari* – atmosferaning holati, sutka vaqti, obyektning yoritilgan-yoritilmaganligiga bog'liqligidir.

ORDEN (lot. *ordo* – qator, daraja) – taqdirlash nishoni, ko'rsatilgan alohida xizmatlari uchun beriladigan davlatning faxriy mukofoti. Orden bilan alohida shaxslar, shu jumladan, harbiy xizmatchilar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek, korxona, muassasa, tashkilot va jamoat birlashmalari, ijodiy jamoalar, harbiy qism va qo'shimmalar, ma'muriy-hududiy birliklar mukofotlanadi. Har bir orden, odatda, o'z nizomiga ega bo'lib, unda mazkur orden bilan kim va qanday xizmatlari uchun mukofotlanishi ko'rsatib o'tiladi, ushbu orden bilan mukofotlash qoidalari hamda mukofotlanganlarning huquq va imtiyozlari belgilanadi. Ordenning taqdirlash nishoni sifatida kelib chiqishi XII asrda G'arbiy Yevropada bo'lgan ritsarlik ordeni bilan bog'liq. Mukofotlangan shaxsga orden topshiriladi va u ko'krakda, qadag'ichda yoki qadag'ichsiz to'g'nog'ichga taqilib yuriladi. Harbiy qism mukofotlangan taqdirda, orden mazkur qismning Jangovar Bayrog'iga taqib qo'yiladi.

ORDEN PLANKASI – orden va medallar o'miga taqib yurish uchun mo'ljallangan to'g'ri burchakli plastinka. Ko'krakning chap tomoniga taqib yuriladi.

OR-NOMUS SUDI – ofitser va serjantlar tarkibining or-nomusi va qadr-qimmatini saqlash uchun mo'ljallangan, armiya jamoatchiligining o'z nizomiga ega saylov organi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari

Intizom Nizomiga asosan ofitserlar va serjantlarning nojo'ya xatti-harakatlari o'rtoqlik nomus sudida ko'rib chiqiladi. O'rtoqlik or-nomus sudining faoliyati, vazifalari va vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining tegishli buyruqlari bilan belgilanadi.

OTISH TAYYORGARLIGI – jangovar tayyorgarlik tizimiga kiritilgan fan bo'lib, birlashtirilgan quroldan nishonni yo'q qilishni o'rgatadi. Mazkur fan quyidagi bo'limlardan iborat:

- qurolning moddiy qismlarini o'rganish;
- o't ochish asoslari, qoidalar va usullarini o'zlashtirish;
- nishonlarni razvedka qilish va ularga qadar masofani aniqlash;
- o't ochishni boshqarish;

ekipajning yoki raschyotning o't ochish mobaynidagi hamkor harakatlarini mashq qilish.

Otish tayyorgarligi taktik tayyorgarlik bilan uzluksiz bog'liq tarzda o'tkazilib, taktik mashg'ulot va mashqlar jarayonida takomillashtiriladi. Otish tayyorgarligi ta'limotining eng yuqori shakli – jangovar o't ochishdir.

OTISH QOIDALARI – qurol-yarog'ning turli rusumini o't ochishga hozirlash va o't ochish bo'yicha asosiy qoidalar va tavsiyalar. Shaxsiy tarkib va bo'linmani turli sharoitda turli nishonlarga qarata o't ochishga o'rgatish. Harbiy xizmatchilarni o't ochishga doir vazifani o'q-dori miqdori va o't ochishga sarflanadigan vaqtning tejagan holda ishonchli bajarishga o'rgatish borasidagi qo'llanma. O't ochish amallari bajarilayotganida otish qoidalariga rioya etish majburiydir. Otish qoidalarini qurol-yarog'ning har bir turi uchun chop etilib, odatda, umumiy qoidalar va muayyan qurol uchun xos bo'lgan barcha turkum holatlar bo'yicha tavsiyalar va ilovalardan iborat. Mazkur ilovalarda:

- qurol haqida xususiy ma'lumotlar;

o't ochish uchun chiqarilgan hisob va misollar kabi ma'lumotlar keltiriladi.

Otish qoidalarini quruqlik, qirg'oq va kemadan, zenit artilleriyasi, tank, uchish apparati, pulemyot, avtomat kabilardan o't otish uchun tavsiyalarga bo'linadi. Otish qoidalarida tog', tun va radioshovqinlar mavjud sharoitda, qo'shinlarimiz orasi va qanotlardan kabi alohida sharoitda o't ochish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

OTRYAD – 1) biror jangovar vazifa yoki maxsus vazifani bajarish uchun vaqtincha yoki doimiy tuzilgan qism va bo'limlar qo'shilmasi (misol uchun, razvedka otryadi); 2) ayrim davlatlar harbiy-havo kuchlarida

eskadrilya tarkibidagi shtatli bo'linma; 3) chegara qo'shinlarida – taktik birlashma.

OFITSER (nem. *offi zier*, lot. *offi ciaritis* – mansabdor shaxs) – 1) qurolli kuchlardagi va boshqa harbiylashgan idoralardagi komandir hamda boshliqlar tarkibiga mansub, harbiy yoki maxsus unvonga ega, lavozimiga binoan muayyan majburiyat bajaruvchi shaxs. Ilk bor ofitserlik unvonlari XVI asrning 70-yillarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida vujudga kelgan. Bugungi kunda mavjud ofitserlik unvonlari 1943-yilda ta'sis etilgan. Leytenant va undan yuqori harbiy unvonga ega fuqarolar – ofitserlar tarkibi deb ataladi; 2) kichik va katta ofitserlar tarkibiga mansub shaxslar tomonidan egallanadigan, shtab va muassasalardagi harbiy xizmatchilarning shtatli lavozimi. Masalan, bo'lim ofitseri, boshqarma katta ofitseri.

OFITSERLAR TARKIBI – harbiy yoki maxsus ma'lumot va shaxsan o'ziga berilgan ofitserlik unvoniga ega ma'muriy-huquqiy shaxslar toifasi. Harbiy kadrlarning asosiy qismi.

Ofitserlar tarkibiga mansub shaxs haqiqiy harbiy xizmatda, zaxira yoki iste'foda bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi ofitserlar tarkibi kichik, katta, oliy toifalarga bo'linadi.

P

PAYOK – muddatli harbiy xizmat askarlariga, serjant va ofitserlar tarkibiga ayrim hollarda ularning oila-a'zolariga beriladigan oziq-ovqat mahsulotlari. Payok belgilangan me'yorga ko'ra, muayyan vaqtga, ya'ni bir sutka, bir necha kun va bir oyga beriladi. Payok harbiy mehnat, axloqiy-ruhiy va jismoniy zo'riqish sharoitiga qarab taqsimlanadi. Shu bois harbiy xizmatchilarning ovqatlanishi:

- askar payogi;
 - matros payogi;
 - uchuvchi payogi;
 - kursant payogi;
 - gospital payogi kabi payoklar bo'yicha amalga oshiriladi.
- Payoklar:
- asosiy payok;
 - quruq payok;
 - bort payogi;

– avariya payogi turlariga bo‘linadi.

PANAGOH – qo‘shinlar shaxsiy tarkibi va aholini shikast yetkazuvchi barcha vositalardan himoya qilish uchun mo‘ljallangan yopiq turdagi maxsus inshoot. Panagohning blindaj, yerto‘la kabilardan farqi shundaki, unda odamlarning shaxsiy himoya vositalardan foydalanmay, davomli vaqt bo‘lishi ta‘minlanib, mebel, isitish va yoritish kabi jihozlar o‘rnatilishi mumkin. Vazifasiga ko‘ra qo‘shinlarga oid panagoh, fuqaro muhofazasiga oid panagohga bo‘linadi.

Qo‘shinlarga oid panagoh *yengil* va *og‘ir* turkumlarga bo‘linadi.

Fuqaro muhofazasiga oid panagohlar, odatda, yer ostiga chuqurlashtirilgan sanoat, ko‘makchi, istiqomat va jamoat binolari va xalq xo‘jaligi obyektlarida jihozlanadi.

PANA JOYLAR – shaxsiy tarkib va harbiy texnikani dushman kuzatuvi va turli zaharli moddalar, snaryad, aviatsiya bombasi, atom qurollari kabilardan himoya qilish va niqoblash uchun foydalaniladigan sun‘iy inshoot, relyef, ya‘ni dara va jarliklar va o‘simlik hamda daraxtzorlarning o‘ziga xos xususiyatlari. Pana joylar yog‘och, beton, temir-beton yoki toshdan quriladi. Qo‘shinlarning shaxsiy tarkibini himoya qilish uchun vzvod, artilleriya va minomyot batareyalari, kuzatish va tibbiy punktlar uchun kotlovan yoki yerosti pana joylar quriladi. Kotlovan tipidagi pana joylarning ustiga to‘kilgan tuproqning qalinligi 150 sm va undan qalin, yerosti tipidagi pana joy ustidagi tuproqning qalinligi 4 m va undan qalin bo‘lishi lozim. Pana joylar 20-30 kishi va undan ko‘proqqa mo‘ljallab quriladi.

PANORAMA (yun. *horama* – ko‘rinish) – artilleriya qurollari va baravariga o‘t ochuvchi reaktiv qurilmalarda mavjud zamonaviy nishonga olish moslamalarining vizirli va burchak o‘lchovchi optik asbobi. Joyni aylanisiga ko‘zdan kechirish, qurolni joyda o‘rnatish va tanlangan nuqtaga nisbatan yo‘llash uchun mo‘ljallangan. Vertikal korpus, buraluvchi kallak va okulyarli quvurdan tarkib topgan. Optik tizim elementlarining bir-biriga nisbatan o‘rnatilishi, shakl va o‘lchamlari joyni aylanisiga ko‘zdan kechirish imkonini beradi.

PARAD (frans. – *parade*, ispan. – *parade*, lot. – *rago* – tayyorlayman) – rasmiy bayram, davlat va harbiy mohiyatga ega tantanali kunlarda qo‘shinlarning jangovar texnika bilan birgalikda tantana bilan yurib o‘tishi. Paradga tayyorgarlik va o‘tkazish tartibi tegishli nizom va buyruqlar bilan tartibga solinadi.

PARASHUT (frans. chute – tushish) – havo muhitida

harakatlanayotgan obyektini to'xtatish uchun mo'ljallangan qurilma bo'lib, odam, yuk va kosmik apparatlarning balandlikdan yerga xavfsiz qo'nishi, samolyot qo'nishi mobaynida yerda yuradigan masofa qisqartirilishi uchun mo'ljallangan. Vazifasiga ko'ra parashut:

- odam uchun mo'ljallangan;
- yuklar uchun mo'ljallangan;
- maxsus parashutlarga bo'linadi.

Barcha parashutlarning umumiy tuzilishi va ishlash tamoyili deyarli bir xil bo'lib, gumbaz, arqonlar va taxlab qo'yish uchun mo'ljallangan to'rvadan tashkil topgan.

PARASHUT BILAN JANGOVAR SAKRASH – haqiqiy jangovar vaziyatda yoki mashqlar davomida harbiy xizmatchiga birlashtirilgan shaxsiy qurol-aslaha va anjomlar bilan sakrash.

PARVOZNING ENG YUQORI CHO'QQISI – samolyot va vertolyot parvozi mobaynidagi maksimal balandlik. Parvoznig yuqori cho'qqisi statik, dinamik va amaliy ko'rinishlarga bo'linadi.

PARK – 1) harbiy texnika saqlanishi va turishi, texnik xizmat ko'rsatilishi va ta'mirlanishi uchun jihozlangan hudud. Park quyidagi turlarga bo'linadi:

- doimiy park – harbiy qismning doimiy joylashgan joyi va o'quv markazida;

- dala parki – qo'shnlarning dala sharoitida vaqtincha joylashganlarida; 2) harbiy texnikaning bir turdagi vositalar majmui:

- avtomobillar parki;
- zanjirli mashinalar parki;
- artilleriya qurollari parki;
- samolyotlar parki va h.k.

PAROL – biror-bir shahar nomi ko'rinishiga ega, har kuni har bir qorovul uchun alohida o'rnatiladigan maxfiy so'z. Parol qorovulni almashtirgani kelgan yangi qorovul tarkibi haqiqatdan ham shu maqsadda tayinlanganligi, buyruq bilan kelgan shaxsga esa, haqiqatdan ham tegishli boshliq tomonidan vakolat berilganligini tasdiqlaydi. Parol harbiy qism shtab boshlig'i tomonidan belgilanib, bir oyga tuziladi va parollar kitobiga kiritiladi.

PAROM – quruqlikda yuradigan transport vositalari: avtomobillar, temiryo'l vagonlarini, yuk va yo'lovchilarni suv havzalari, ko'llar, daryolardan muntazam ravishda olib o'tish uchun mo'ljallangan suzuvchi inshoot, kema, sol. Harbiy maqsaddagi kechuv vaqtida ponton parklari va

mahalliy suzish vositalaridan iborat paromlardan foydalaniladi.

PARCHALANUVCHI-YORISHUVCHI SNARYAD – kichik kalibrli zenit artilleriyaning snaryadi bo'lib, parchalari bilan quruqlik va havodagi nishonlar, shuningdek, dengizdagi kichik qayiq, suzuvchi mina kabilarni yakson etish uchun mo'ljallangan. Snaryad parvozinig yo'nalishini kuzatish imkonini beruvchi trasser bilan anjomlangan.

PARCHALANUVCHI SNARYAD – asosiy artilleriya snaryadi bo'lib, nishon, snaryad korpusining parchalari, qisman portlash hodisasining mahsulotlari va zarbali to'lqin bilan yo'q qilinadi. Parchalanuvchi snaryad korpus, yoruvchi zaryad, ya'ni trotil, TEN, geksogen kabilardan hamda yetakchi bog'ich va portlatkichdan iborat. Ba'zi bir parchalanuvchi snaryadlar ichiga, korpusi parchalanib sochilishi uchun turli ashyolar, ya'ni sharcha va ignalar solingan bo'ladi. Dushmanning ochiq joy va yengil panalar ortida joylashgan kuchi va harbiy texnikasi, shu jumladan, uchish apparatlarini yo'q qilish uchun quruqlikdagi artilleriyada, zenit va dengiz artilleriyasida hamda aviatsiya o'q-dorilari tarkibida qo'llaniladi.

PARCHALANUVCHI-FUGASLI SNARYAD – dushmanning jonli kuchi va harbiy texnikasini yo'q qilish, dala mudofaa istehkomlarini vayron etish, to'siq va minalangan maydon orqali yo'l ochish kabi masalalarni hal etish uchun mo'ljallangan asosiy artilleriya snaryadi, minasi. Snaryadning parchalar yoki fugas bilan ta'sir o'tkazishi – vazifaning maqsadi va xususiyatiga hamda portlatkich o'rnatmasiga bog'liq. Portlatkich fugasli harakatga o'rnatilganda – snaryad to'siq ichiga botib kirganidan so'ng portlaydi. Nishon, portlash hodisasining mahsulotlari, zarbali to'lqin va snaryad zarbasidan vayron bo'ladi. Parchalanuvchi fugasli snaryad o'rta kalibrli quruqlikdagi artilleriya, minomyotlar, zenit, tank, aviatsiya va kema to'plari jangovar komplekti tarkibiga kiradi.

PAST UCHAYOTGAN NISHON – 10 metrdan 600 metrgacha balandlikda parvoz etayotgan uchuvchi boshqarayotgan yoki uchuvchisiz nishon. Past uchishi oqibatida uni o'z vaqtida fosh etish va urib tushirish choralari ko'rish murakkabdir. Past uchayotgan nishonlarga qarshi kurashish uchun maxsus vositalar qo'llaniladi.

PATRON (frans. *patron*) – o'qli qurol va kichik kalibrli, ya'ni 75 mm gacha zambarak o'q-dorisi. Unda o'q va snaryad, porox zaryadi va yondiruvchi vosita gilza yordamida bir butun mujassamlashtirilgan. Bunday patron – yaxlit, ya'ni unitar patron deb ataladi. Vazifasiga ko'ra

patronlar:

– *jangovar* – dushmannning jonli kuchi va harbiy texnikasini yo'q qilish uchun mo'ljallangan;

– *ko'makchi* – paxtavon, o'quv va qurolni sinash uchun mo'ljallangan patronlarga bo'linadi.

Dastlab qog'oz gilzali unitar patron XIX asrning 40-yillarida, metall gilzali unitar patron esa XIX asrning 60-yillarida vujudga keldi. Ikkinchi Jahon urushi yillarida oraliq patron, urushdan so'nggi yillarda esa kichik impulsli unitar patronlar ishlab chiqildi. Bugungi kunda gilzasiz patronlar yaratish ustida tadqiqotlar olib borilmoqda.

PATRONDON – o'qotar qurol stvoli kanalining otish uchun uzatilgan patron gilzasi joylashadigan qismi. Artilleriya qurollarida stvol kanalining ushbu qismi *o'qlash kamorasi* deb ataladi. Revolverlarda va aviatsiya to'plarining ayrimlarida aylanuvchan barabanda joylashgan bir nechta patrondonlar mavjud.

PATRUL – 1) dushmani kuzatib borish va muayyan hududni muhofaza etish, shuningdek, qorovul xizmatini o'tash davomida obyektlarni muhofaza va mudofaa etish uchun tayinlangan harbiy xizmatchilar guruhi (ba'zan esa kichik harbiy bo'linma); 2) harbiy xizmatchilar orasida tartib va harbiy intizomni tutib turish maqsadida garnizon yoki harbiy shaharchada patrul xizmatini o'tash uchun tayinlangan harbiy xizmatchilar guruhi. Garnizonda tayinlanadigan har bir patrul xizmati tarkibiga patrul boshlig'i va 2-3 nafar patrul kiradi.

Patrul xizmati obyektlar, harbiy texnika va mulkni qo'riqlash hamda mudofaa etish uchun tayinlanadi. Alohida joylashgan radiotexnik bo'linma kabi maxsus bo'linmalarda tayinlangan patrul, sutkalik naryad tarkibiga kirib, bo'linma komandiri, komandirning moddiy ta'minot bo'yicha yordamchisi va bo'linma bo'yicha navbatchiga bo'ysunadi.

PAXTAVON O'Q-DORILAR – ko'makchi o'q-dorilar jumlasiga kirib, mashqlar, manyovr va salyut otish mobaynida o'qotar quroldan o't ochilishini imitatsiya qilish va signallar uzatish uchun xizmat qiladi. Paxtavon o'q-dorilar gilza ichidagi porox zaryadi, kigiz bo'lagi, alanga oluvchi modda kabi vositalardan tarkib topgan. Paxtavon o'q-dorilar bilan ochilgan olov baland tovush va yorug'lik taralishi bilan kuzatiladi.

PERISKOP – 1) tank, suvosti kemalari va turli pana joylardan, ya'ni okop, blindaj kabilardan kuzatish uchun mo'ljallangan optik asbob. Periskop yordamida joyning gorizont va vertikal burchaklari o'lchanadi hamda kuzatilayotgan obyektgacha bo'lgan masofa aniqlanadi.

Periskopning piyodalar, okoplar, artilleriyachilar, tankchilar va dengiz qo'shinlariga mo'ljallangan turlari mavjud. Periskop prizmalı va oynalı turlarga bo'linadi. Ba'zi periskoplar aylanasi-ga kuzatish imkonini beradi; 2) fotoobyektiv, ikki linzadan iborat bo'lib, ular o'z o'rtasidagi diafragma tekisligiga nisbatan simmetrik joylashtiriladi. Periskopda distorsiya hodisasi, ya'ni tasvirning qiyshayishi bartaraf etilgan.

PIYODALAR – quruqlikdagi qo'shinlar turi bo'lib, umumqo'shin jangida dushman-ni yakson etish, hududini egallash va egallangan hududni mudofaa etish uchun mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida piyodalar – *motoo'qchi qo'shinlar* deb ataladi.

Ilk bor piyodalar qadimgi Gretsiyada vujudga kelgan bo'lib, jangovar harakatlarni tashkil etish va yuritish usullari hamda qurol-aslahaning rivojiga xos tarzda taraqqiy topgan.

Tank, aviatsiya, artilleriya, muhandis, kimyoviy va aloqa qo'shinlari kabi maxsus qo'shinlarning vujudga kelishi bilan piyodalarning solishtirma mohiyati pasaya bordi. Piyodalar rivojining asosiy mezon-i – olovining qudratini oshirish, motorlashtirish va mexanizatsiyalashni davom ettirish, tashkiliy jihatdan tuzilishini takomillashtirib borishdir.

PIYODALAR JANGOVAR MASHINASI – *motoo'qchi qo'shinlarning* zirhli, zanjirli, suzuvchi mashinasi bo'lib, shaxsiy tarkibni desantlash va jang qilish uchun mo'ljallangan.

Murakkab yo'llarda yura olishi va harakatchanligi bilan farqlanib turadi. Aviatsiya transportida tashiladi va parashutda desantlanadi. Filtrlash-shamollatish qurilmasi, tunda ko'rish asboblari, aloqa vositalari va boshqa jihozlar bilan uskun-alangan. O'q va o'q-dori parchalariga qarshi zirhlangan. Maksimal tezligi soatiga 65-75 km, suvda esa 6-10 km. Piyodalar jangovar mashinasi aslahasining tarkibiga 20-30 mm li avtomatik to'p, 1-2 dona pulemyotlar kirib, kalibri yanada yirikroq qurollarga ega bo'lishi mumkin. Ekipaji 2-3 kishi. Bundan tashqari, piyodalar jangovar mashinasiga o'qchilar seksiyasi, ya'ni 6-9 nafar jangchi joylashadi. 1960-yilda ishlab chiqarilgan.

PILTA MILTIQ – porox zaryadi pilta, ya'ni pilik bilan alanga oldiriladigan silliq stvolli miltiq. Dastlab, XII asrda arablarda paydo bo'lgan. XIX asr 2-yarmigacha O'rta Osiyoda jang va ov quroli sifatida ishlatilgan.

PIROTEXNIKA – portlovchi va yonuvchi aralashmalar tayyorlash hamda ularni amalda qo'llash bilan shug'ullanadigan texnika tarmog'i.

Harbiy maqsadlarda, sanoatda, qishloq xo'jaligida, bayramlarda mushakbozlik uchun qo'llaniladigan moddalar bilan shug'ullanuvchi turlari bor.

Harbiy maqsadlarda yorituvchi pirotexnik tarkiblar, signallovchi, yondiruvchi, yorug' iz qoldiruvchi, tutun hosil qiluvchi pirotexnik tarkiblar qo'llaniladi. Pirotexnik tarkibdan jang maydonida snaryadlar, bombaning portlashi kabi sun'iy portlashlarni hosil qilishda ham foydalaniladi.

PISTIRMA – 1) qo'shinlar harakatining dushmanni yakson etish, asirga olish, hujjatlar, qurol va texnika namunalarini qo'lga kiritish maqsadida yashirincha joylashib, dushman yaqinlashishini kutish va daf'atan hujum uyushtirish yo'li bilan amalga oshiriladigan usuli; 2) yaqinlashgan dushmanga to'satdan hujum qilish uchun shaylangan kuchlarning niqoblanib joylashishi.

PISTOLET – 1) shaxsiy o'qotar qurol. Dushmanning 50-70 m gacha masofadagi jonli kuchini shikastlantirishga mo'ljallangan. Undan bir qo'l bilan otish mumkin. Pistolet bilan ofitserlar, shuningdek, ayrim ixtisosliklarga mansub serjant va askarlar qurollantiriladi.

Yevropa va Osiyoda ilk bor XVI asrda vujudga kelgan. XVII asrdan boshlab turli armiyalarda chaqmoq zatvorli, XIX asrdan e'tiboran esa kapsulli pistoletlar qo'llanilgan. O'sha davr pistoletlarining tezotarliligini ta'minlash uchun ular 2 va undan ko'p stvolli ko'rinishda tayyorlangan. XIX asr o'rtalariga qadar pistoletlarning aksariyati silliq stvolli bo'lib, og'iz tomonidan o'qlangan. XIX asrning 50-yillariga kelib ancha takomillashgan kesma stvolli revolverlar paydo bo'lgan. Keyinchalik pistolet patronlari o't ochish jarayonida dasta ichiga joylashtirilgan o'qdondan ta'minlana boshlandi.

Pistoletlarning jangovar, signallovchi va sport turlari mavjud. Tuzilishiga ko'ra, avtomatik, yarim avtomatik (o'zini o'zi o'qlaydigan) va oddiy pistoletlarga bo'linadi.

Zamonaviy pistoletlar kalibri 7,62–11,43 mm, o'qdon sig'imi 5-20 dona patron, vazni 0,6-1,2 kg bo'lib, ayrimlari avtomatik tarzda bir bor qisqa o'q uzish imkonini beradi. O'qning boshlang'ich tezligi soniyada 250-420 m gacha. Pistoletdan o'qining uchi to'mtoq, nishonni to'xtatuvchi katta ta'sirga ega patronlar qo'llaniladi.

PISTOLET-PULEMYOT – yaqin jangda 300 m gacha uzoqlikdagi tirik nishonni shikastlashga mo'ljallangan, pistolet patroniga moslashtirib loyihalashtirilgan – shaxsiy avtomatik o'qotar qurol.

Pistolet-pulemyotda pistoletning ixchamligi va pulemyot olovining

uzluksizligi uyg'unlashtirilgan. Ilk namunasi 1915-yil Italiyada ixtiro etilgan. V. Tokarev namunasi 1927-yilda vujudga kelgan. Kalibri 7,62 mm dan 11,43 mm gacha, qutili: 25-35 dona patroni yoki barabanli: 71 dona patron o'qdoni bor. Bir daqiqada 450-1000 dona o'q otadi.

XX asrning 40-yillarida 1000 m gacha masofadagi nishonni shikastlantira oladigan T. Kalashnikov pistolet-pulemyoti qo'llana boshlangan. Bu pistolet-pulemyot maxsus almashtirgich yordamida bittadan yoki avtomatik o't ochish imkoniyatiga ega. O'qdoniga 20dan 71tagacha patronlar sig'adi. Tezotarliligi 1 daqiqada 80dan 140ta o'qqacha.

Rossiya armiyasida V. A. Degtyaryov (PPD-40), G. S. Shpagin (PPSH-41), A. I. Sudayev (PPS-43) pistolet-pulemyotlari, Germaniya armiyasida 1938-40-yillar namunasidagi (MR-40) pistolet-pulemyotlar, AQSH armiyasida MZ, inglizlar armiyasida "Sten", fin armiyasida "Suomi" pistolet-pulemyotlar mavjud bo'lgan. U Ikkinchi Jahon urushida qo'llanilib, avtomat deb atalgan. Urushdan keyingi davrda pistolet-pulemyot olovining amaliy ta'sir masofasi yetarlicha bo'lmaganligi sababli avtomatga almashtirilgan.

PLANSHET (frans. *planchette* – taxtach) – 1) harbiy-havo kuchlari, havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va harbiy-dengiz floti qo'mondonlik punktlarining jangovar axborot postlaridagi havo va dengiz vaziyatini aks ettirish uchun mo'ljallangan maxsus moslama. Ushbu planshet mexanizatsiyalashtirilgan yoki avtomatlashtirilgan bo'lishi mumkin; 2) uch oyoqqa mahkamlash uchun mo'ljallangan (tomonlari 40 sm dan 70 sm gacha keladigan) moslamaga ega yog'och taxta; 3) dalada o'tkazilayotgan topografik rejalashtirish amallari vaqtidagi xarita varag'ining asl nusxasi. Grafik yasashlar va hisoblar chiqarish uchun izo chiziqlarga (xaritalarda Gauss koordinatali to'ri – harorat, bosim, namlik kabilar bir xil bo'lgan joylarni birlashtiruvchi chiziqlarga) ega geografik xarita mustahkamlangan (yog'och yoki metallardan tayyorlangan) taxta.

PLASTIK PORTLOVCHI MODDA – brizantli portlovchi moddalarning me'yoriy quvvatga ega turiga mansub bir jinsli, och sariq zichligi 1,4 ga teng xamirga o'xshash massa ko'rinishidagi portlovchi modda.

U o'ziga suv singdirmaydi va suvda erimaydi. Shakli qo'l kuchi bilan yengil o'zgartirilishi mumkin. Ushbu xususiyatining mavjudligi undan turli shakllarga keltirilgan zaryadlarni tayyorlash mobaynida foydalanish imkonini beradi. Xamirsimonlik xususiyati – 30° C dan + 50° C gacha haroratda saqlanib qoladi. Biroq sovuqda uning ushbu xususiyati biroz

sustlashadi, + 25° C dan ortiq haroratda o'ta yumshoq bo'lib qoladi va undan tayyorlangan zaryadning mustahkamlik xossasi pasayadi.

Zarba, ishqalanish kuchi va issiqlik ta'siriga kam ta'sirchan. Unga qarata o'qli quroldan o'q uzilganida, odatda, yonmaydi va portlamaydi, ochiq olov tutilganida o't oladi. Vazni 50 kilogrammgacha bo'lgan plastik portlovchi modda portlamay faol yonadi. Metallar bilan reaksiyaga kirishmaydi. Yopishqoq jism xossalariga ega emasligi bois, portlatish ishlari amalga oshirilayotganida undan tayyorlangan zaryadlar obyektga ishonchli birikishi uchun gazlama yoxud plastik qoplamalar ichida qo'llanishi zarur. Plastik portlovchi moddalar oilasiga mansub Plastit-4 mahsuloti qo'shinlarga 70x70x145 bichimli, vazni 1 kg, qog'ozga o'ralgan presslangan g'isht shaklida beriladi.

PLATFORMA – 1) baland maydoncha, ko'prikcha; 2) temiryo'l yonida yo'lovchilarni tushirish yoki chiqarish uchun mo'ljallab jihozlangan kichikroq maydon (perron); 3) kichik bortli ochiq yuk vagoni.

PLATSDARM – 1) biror-bir davlat tomonidan boshqa davlat hududiga bostirib kirish maqsadida qurolli kuchlarni jamlash va yoyish, harbiy harakatlarni kengaytirish uchun baza sifatida foydalaniladigan hudud. Platsdarm operativ yoki strategik ahamiyatga ega bo'lishi mumkin; 2) qo'shinlar tomonidan hujumdagi kechuv davomida qarshi qirg'oqda egallab olgan yerlari yoki qarama-qarshi qirg'oqqa chekinish mobaynida tutib turiladigan quruqlik maydoni. Qulay sharoitda, keng platsdarmning mavjudligi, yangi hujum operatsiyasini o'tkazish uchun daryoni jang bilan kechib o'tish shart bo'lmay qo'shinlarning qudratli guruhlarini jamlash imkonini yaratadi; 3) dengiz desanti asosiy kuchlarining tushishi va yoyilishini ta'minlash maqsadida desant operatsiyasi o'tkazilib, sohil bo'yida egallangan quruqlik maydoni.

PNEVMATIK QUROL – o'q stvol kanalidan siqilgan havo bosimining kuchi ta'sirida uloqtirib chiqariladigan o'qli qurol turi.

Pnevmatik miltiqning ilk namunasi 1430-yilda ixtiro etilgan. Pnevmatik miltiq va pistoletlar ko'rinishidagi zamonaviy pnevmatik qurollar, asosan, otishni mashq qilish uchun va sport musobaqalarida qo'llaniladi. Pnevmatik qurol porshenli va ballonli turlarga bo'linadi. Pnevmatik quroldan o't ochish amali, qo'rg'oshindan tayyorlangan to'mtoq boshli kichik yoki o'tkir boshli po'latdan tayyorlangan dumli o'qlar bilan odatda, 10 m gacha (qo'shinlarda 10-20 m va undan ortiq) masofalarda mashqlar o'tkazilishi mobaynida amalga oshiriladi.

POGONLAR – deyarli barcha davlatlarning qurolli kuchlaridagi

harbiy kiyimning majburiy ashyosi sanaladigan, yelkaga taqiladigan farqlovchi nishonlar. Ko'rinishi, shakli, rangi, soni, sirtiga yuritilgan chiziq, qadaladigan yulduzcha yoki boshqa ramzlar soni va kattaligiga ko'ra, harbiy xizmatchining shaxsiy harbiy unvoni va qurolli kuchlarning u yoki bu turiga mansubligi bilinadi. Pogonlar:

- vazifasiga ko'ra – parad, kundalik va dala kiyimlariga taqiladigan;
- taqish usuliga ko'ra – tikiladigan va yechib olinadigan turlarga bo'linadi.

PODPOLKOVNIK (rus. *polkovnikdan quyi*) – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va aksariyat davlatlar armiyalari katta ofitserlari tarkibiga mansub harbiy unvon. Harbiy-dengiz flotida 2-rang kapitan unvoniga to'g'ri keladi. Farqlovchi nishonlari – pogondagi ikki chiziq ustiga qadalgan ikkita katta yulduzchalar. 1939-yil 1-sentabr kuni ta'sis etilgan.

POZITSIYA – 1) qo'shinlar tomonidan jangovar harakatlar yuritish uchun egallangan yoki egallanishi ko'zda tutilayotgan joy, suv sathining, havzasining muayyan qismi, marra.

Quruqlikdagi qo'shinlarda:

- mudofaa marrasi;
- payt poylash marrasi;
- dastlabki marra;
- o't ochish marrasi;
- raketa uchirish marrasi;
- texnik marralar mavjud.

Mudofaa marrasi motoo'qchi va tank bo'linmalarining jangovar tartibini joylash uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, zaxira va soxta marralar bo'lishi mumkin;

2) biror narsaning joylashishi, dastlabki o'rni. Masalan, shaxmat taxtasidagi donalar holati;

3) biror-bir masala yuzasidan bildirilgan fikr, nuqtayi nazar; dalil, voqea, hodisaning muayyan bahosi; shu bahoga muvofiq amalga oshirilgan xatti-harakat.

POLIGON – quruqlik yoki dengizning qurol-yarog' va harbiy texnikani sinash, qo'shinning jangovar tayyorgarligi bo'yicha tadbirlar va harbiy san'at borasida tadqiqotlar o'tkazish uchun havo bo'shlig'i bilan birgalikda ajratilgan va jihozlangan hududi. Poligonlar:

- doimiy yoki vaqtinchalik;
- vazifasiga ko'ra – o'quv umumqo'shin poligoni, zavod tasarrufidagi

poligon, ilmiy-tadqiqot poligoni mavjud;

– *sinovdan o'tkaziladigan vositalar turlariga ko'ra* – raketa, artilleriya, aviatsiya, dengiz poligoni kabi poligonlarga bo'linadi.

POLK (qad. slavyancha *p'lk* – qo'shin) – ayrim davlatlar qurolli kuchlari va qo'shinlar turidagi asosiy taktik va ma'muriy-xo'jalik birligi, harbiy qism. Polk – motoo'qchilar polki, tankchilar polki, artilleriya polki, zenit polki, aviatsiya polki, aloqachilar polki, parashut-desant polki, temiryo'lichilar polki, dengiz piyodalari polki kabi polklarga bo'linadi. Polk, odatda, boshqaruv organi (shtab), bir necha batalyon (divizion yoki eskadrilya), jangovar, moddiy va texnik ta'minot bo'linmalaridan tashkil topgan. Polk qo'shilma (diviziya, brigada) tarkibiga kiritilgan va har biri o'z raqami va Jangovar Bayrog'iga ega bo'ladi. Hozirgi aksariyat armiyalarda (AQSH va boshqa mamlakatlarda) polk o'rniida jangovar guruhlar mavjud.

POLKOVNIK (polyakcha *polkownik*) – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va aksariyat davlatlar armiyalaridagi katta ofitserlar toifasiga mansub harbiy unvon. Ilk bor "Polkovnik" iborasi XVI asrda, polkka rahbarlik qilgan shaxsning nomi sifatida kirib kelgan. XVII asrning 30-yillaridan boshlab, harbiy unvon sifatida polk komandiriga berib kelingan. Bugungi kundagi mazkur unvon 1935-yil 22-sentabr kuni ta'sis etilgan. Farqlovchi nishonlari – pogondagi ikki chiziq ustiga qadalgan uchta katta yulduzchalar. Boshqa davlatlarda o'zgacha ko'rinishga ega. Harbiy-dengiz flotida 1-rang kapitan unvoniga to'g'ri keladi.

PONTON – palubali yoki palubasiz o'zi yurmaydigan yassi tubli kema. Ponton:

- metall ponton;
- temir-betondan tayyorlanadigan ponton;
- havo bilan shishiriladigan ponton turlariga bo'linadi.

Suzib keltiriluvchi ko'priklarning suzuvchi tayanchlari, prichal, parom va pontonli ko'priklar tarkibiga kiruvchi elementlar sifatida foydalaniladi. Pontonlardan muhandislik qo'shinlarida daryoni kechib o'tish vositasi sifatida, ko'priklarni sozlashda, cho'kib ketgan kemalarni ko'tarishda, suvga chuqur botib suzuvchi kemalarni sayoz joylardan o'tkazishda ham foydalaniladi.

PORTLATKICHLAR – turli o'q-dorilarning zaryadlarini harakatga keltirish uchun mo'ljallangan mexanizmlar.

Yondiruvchi kapsyul o't oldirilganida, kapsyul-detonatorning portlashi ro'y beradi, bu esa, o'z navbatida detonator va zaryadning

portlashiga olib keladi. Portlatkichlar

– qo‘llanilishiga ko‘ra: artilleriya snaryad va minalari, reaktiv snaryad va raketalar, granatarlar, muhandislik mina va fugaslari, aviabombalar, dengiz minalari, chuqurlikda portlaydigan bombalar, torpedalar va shu kabilarga o‘rnatiladigan;

– harakatga kelishiga ko‘ra: kontaktli (zarbadan), masofada ishga tushuvchi va kontaktsiz turlarga bo‘linadi.

Portlatkichlar nishon bilan bevosita to‘qnash kelganida yoki nishon hududida, suv ostiga berilgan chuqurlikda va boshqa sharoitda ishga tushadi.

Kontaktli portlatkich snaryad, bomba va minaning biror narsaga urilishi natijasida harakatga keladi;

Distansion portlatkich yoki *distansion naycha* snaryad, bomba va raketalarining uchish trayektoriyasida muayyan vaqt o‘tgach, harakatga keladi;

Kontaktsiz portlatkich radiolokatsion, infraqizil, optik, akustik portlatkich, ya‘ni snaryad, bomba va mina nishonga tegmasdan, undan muayyan uzoqlikda harakatga keladi;

Ijrochi portlatkich kodlashtirilgan tashqi signalni qabul qilib, harakatga keladi.

Barcha turdagi portlatkich, umuman, detonatsiya zanjiri, portlatuvchi mexanizmlar: tepki, elektr kontakt, saqlagich va boshqa mexanizmlaridan iborat.

Portlatkichda detonatsiya mexanik tarzda-alangalatuvchi kapsyul, kapsyul-detonator tepki urilishi yoki ishqalanish natijasida ishlaydi, elektr toki, elektr detonator elektr vositasida ishlaydi; kimyoviy, singan ampuladan quyilgan reagent yonuvchi tarkibni alangalantirish usulda hosil qilinadi.

Nishonga tekkandan keyin portlash vaqtiga ko‘ra, portlatkich oniy va sekin harakatga keladigan turlarga bo‘linadi.

Artilleriya va aviatsiya portlatkichini oniy harakatga keltirish uchun snaryadni otishdan oldin uning saqlagich qopqog‘i buraladi yoki snaryad, bombaga o‘rnatilgan parrak aylanib, saqlagich qopqog‘ini buraydi.

Muhandislik minalaridagi portlatkichni oniy harakatga keltirish siquvchi, tortuvchi, bosuvchi yoki yukni yengillashtiruvchi moslamalar yordamida amalga oshiriladi.

Portlatkichning harakatga kelishini sekinlatish uchun detonatsiya zanjiriga sekinlatkich qo‘yiladi yoki soat mexanizmi, kimyoviy reagent

o'rnatiladi.

PORTLATISH VOSITALARI – portlatish ishlarini amalga oshirish uchun qo'llaniladigan portlovchi modda va portlatuvchi vositalar: kapsula, detonator, zapal, yondiruvchi naycha va portlatkichlar; tok manbalari – portlatuvchi uskuna, akkumulyatorlar va o'lchov asboblari.

PORTLATUV ISHLARI – portlatuvchi moddalar yordamida amalga oshiriladigan ishlar. Harbiy muhandis sohasidagi ishlardan biri. Qo'shinlarning jangovar harakatlarini muhandislik jihatidan ta'minlash bo'yicha asosiy tadbirlar jumlasiga kiradi.

POROX – snaryadni uloqtirish, raketani harakatlantirish kabi maqsad uchun foydalaniladigan, tashqaridan kislorod kirmagan tarzda parallel qatlamlar bilan muayyan qonuniyatga ko'ra, gazsimon mahsulot hosil qilib yonish qobiliyatiga ega ko'p komponentli portlovchi moddalarning zichlashtirilgan qattiq aralashmasi. Porox ikki turga bo'linadi:

- *tutunsiz* (nitrotsellyuloza asosidagi) piroksilinli porox, karbitlar va ballistitlarga;
- aralashmali porox – yoqilg'i va oksidlovchidan iborat, shu jumladan, *tutunli* porox – qora porox.

Raketa dvigatelida qo'llaniladigan porox – *raketaning qattiq yoqilg'isi* deb ataladi.

Ilk portlovchi modda – kaliyli selitra, ko'mir va oltingugurtning mexanik aralashmasidan iborat tutunli porox bo'lgan edi. Tutunli poroxning uloqtiruvchi xossasi kashf etilganidan so'ng – o'qotar qurol vujudga keldi. Porox XIII asrdan boshlab Yevropada mavjud bo'lganligi ma'lum. Zamonaviy tutunli porox:

- miltiq poroxi;
- shnur poroxi;
- yirik donli porox;
- sekin yonuvchi porox;
- minada qo'llaniladigan porox;
- ov poroxi turlariga bo'linadi.

PORTLATUVCHI SHASHKA – kapsul-detonator uchun zapal iniga ega, muayyan shakldagi portlovchi modda zaryadi. Portlatish ishlari va muhandislik minalarini butlash mobaynida qo'llaniladi.

PORTLASH – juda qisqa vaqtda chegaralangan hajmda katta miqdorda energiya ajralib chiqish jarayoni.

Ma'lum hajmni egallab turgan modda portlash natijasida energiya ajratib, atrofdagi muhitni juda katta kuch bilan harakatga keltiruvchi

yuqori bosimdagi qizigan gazga aylanadi.

Portlash qattiq jismda uning yemirilishi va parchalanishi bilan kuzatiladi. Muhitning harorati, zichligi, bosimining keskin ko'tarilishidan yuzaga kelgan harakat *portlash to'liqini* deyiladi. Bu to'liqin muhitda juda katta tezlik bilan harakatlanadi. Portlash vakuumda yuz bersa, portlash energiyasi turli tomonga katta tezlik bilan uchib chiqadigan portlovchi moddalarning kinetik energiyasiga aylanadi va atrofdagi turli obyektlarga nisbatan mexanik ta'siri yuzaga keltiradi. Portlash joyidan uzoqlashgan sari portlash to'liqinining ta'siri kuchsizlana boradi.

Energiya manbayining tabiati va u qanday yo'l bilan ajralib chiqishiga qarab portlash:

- kimyoviy energiya ajralishi (asosan, portlovchi moddalarda);
- yadroning ichki energiyasi ajralishi (yadro portlashida);
- elektr magnit energiya ajralishi (uchqunli razryad, lazer uchquni va boshqalarda);
- mexanik energiyaning ajralishi (Yer sirtiga meteoritlar tushganida, vulqon otilganda va boshqalar) hisobiga ro'y beradi.

Kimyoviy portlovchi moddalar kimyoviy bo'linish xossasiga ega; bunda molekulalararo bog'lanish energiyasi issiqlik energiyasi sifatida ajralib chiqadi. Portlovchi moddalar uchun harorat oshishi kimyoviy bo'linish tezligini ifodalaydi. Nisbatan past haroratda kimyoviy bo'linish juda sekin yuz beradi, natijada portlovchi modda bilan atrof muhit orasida issiqlik muvozanati yuzaga keladi.

Agar ajralib chiquvchi issiqlikning moddadan tashqariga chiqib ketmasligiga sharoit yaratilsa, harorat oshishi bilan kimyoviy bo'linish jarayoni tezlashadi, bunga *issiqlik ajratib portlash* deyiladi. Yana shunday portlash jarayoni borki, bunda kimyoviy o'zgarish portlovchi modda bo'ylab birin-ketin qatlamdan qatlarga to'liqin ko'rinishida tarqaladi. Moddaning oldingi holatidan juda yuqori bosimli va haroratli holatga keskin o'tishini ta'minlovchi bunday to'liqin *zarba to'liqidir*.

Moddalarning fundamental o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lgan *yadro portlashlari* ham mavjud. Bu portlash atom yadrosining tarkibiga kiruvchi elementar zarralarning (*proton, neytron*) bog'lanish energiyasi ajralib chiqishiga asoslangan. Modda atomi yadrosining parchalanishi natijasida nisbatan yengil yadroli elementlar hosil bo'ladi. Yadrolarning parchalanishi natijasida hosil bo'lgan yangi neytronlar boshqa yadrolarning parchalanishiga olib keladi va nihoyat, parchalanish soni juda tez o'sadi. Shunday o'z-o'zini tezlatuvchi jarayonga *zanjir reaksiyasi* deyiladi.

Boshqariladigan zanjirli yadro reaksiyasi yadro reaktorida amalga oshiriladi.

Katta miqdordagi energiya ajralib chiqadigan yadro reaksiyasining yana boshqa turi — *yengil yadrolar sintezi reaksiyasi*. Yuqori haroratda yuz beruvchi sintez jarayoni *termoyadro reaksiyasi* deyiladi.

Fokuslantirilgan *lazer* nurini jisimga ta'sir qildirish yo'li bilan ham portlash hodisasini hosil qilish mumkin.

Bitta yadro bombasining portlashidagi energiya 10 mln. t kimyoviy portlovchi moddaning energiyasiga muqobildir.

Oldindan rejalashtirilgan portlashlar, asosan sanoatda ishlab chiqariladigan portlovchi moddalar yoki yadro qurilmalari yordamida amalga oshiriladi va ko'plab texnologik jarayonlarda qo'llaniladi.

PORTLASH MARKAZI (yunon. *epi* – ga, ustiga, tepasiga va *lotin. centrum* – to'plangan joy, markaz) – yadroviy o'q-dori portlashi markazining yer yuzasiga tushirilgan aksi.

PORTLASH TO'LIQINI – portlash natijasida hosil bo'luvchi to'liqin. Juda kuchli siqilgan (gazsimon, suyuq yoki qattiq) muhit ko'rinishiga ega. Portlash to'liqini frontining harakati portlash markazidan boshlab, tovush tezligidan katta tezlikda boshlanadi.

PORTLOVCHI MODDALAR – muayyan tashqi muhit (zarba, qizish, elektr impulsi kabilar) ta'sirida reaksiyaga kirishish natijasida issiqlik ajratib, kuchli qizigan gaz hosil qilgan holda portlash xususiyatiga ega kimyoviy birikmalar yoki ularning aralashmasi. Bu reaksiyalar portlovchi moddalarning qizishi, unga berilgan zarb, ishqalanish, shuningdek, boshqa portlovchi moddalarning portlashi yoki qandaydir tashqi ta'sir natijasida sodir bo'ladi va zaryad bo'ylab issiqlik tashigich (*yonish*) yoki zarbli to'liqin (*detonatsiya*) yordamida energiya uzatish hisobiga tarqaladi.

Portlovchi moddalar qo'llanilishiga ko'ra:

- uloqtiruvchi (porox);
- brizantli (parchalovchi ta'sirga ega);
- initsiirlatuvchi (boshqa portlovchi moddalarni yondirish va detonatsiyalashtirish uchun);
- yorituvchi;
- signallovchi;
- yorishtiruvchi;
- yondiruvchi;
- tutun purkovchi turlarga;

– tarkibiga ko‘ra – portlovchi kimyoviy birikma va aralashmalarga bo‘linadi.

Ushbu birikmalarning (aralashmalar) kengayib borishi jarayonida mexanik ish paydo bo‘ladi. Portlovchi moddaning bunday kimyoviy o‘zgarishini – **portlash** deb atash qabul qilingan.

Portlash hodisasi portlovchi modda bo‘ylab, soniyada yuzlab yoki minglab metrda o‘lchanuvchi o‘zgaruvchan katta tezlik bilan tarqalishi bois portlovchi modda bo‘ylab zarbali to‘lqin o‘tishi va tovushdan ham yuqori doimiy tezlikda oquvchi portlash jarayoni – **detonatsiya** deb ataladi.

Yonish – portlash jarayoni bo‘lib, portlovchi moddaning bir qatlamidan ikkinchi qatlamiga issiqlikni o‘tkazish yo‘li bilan energiyani uzatish va gazsimon hosilalar bilan issiqlikni taratishdir.

Portlovchi moddaning yonish jarayoni nisbatan sekin, soniyaga bir necha metr tezlikdan oshmagan tarzda o‘tadi.

Yonish tezligi, asosan tashqi sharoitga va birinchi navbatda atrof muhitda mavjud bosimga bog‘liq. Bosim oshgan sari yonish tezligi ortadi, ayni paytda, ba‘zi holatlarda yonish, portlashga yoki detonatsiyaga aylanib ketishi mumkin. Brizantli portlovchi moddalarning yopiq hajm ichida yonishi, odatda, detonatsiyaga o‘tib ketadi.

Portlovchi moddaning portlashini qo‘zg‘atish **initsiirlash** deb ataladi.

Portlovchi moddaning portlashini qo‘zg‘atish uchun unga, quyida ko‘rsatilgan usullarning birini qo‘llagan holda uzatilishi mumkin bo‘lgan energiyaning (dastlabki impulsning) zaruriy miqdorini muayyan tezlikda uzatish talab etiladi:

- mexanik (zarba, sanchilish, ishqalanish);
- issiqlik bilan (uchqun, alanga, qizdirish);
- elektrli (qizdirish, uchqunli razryad);
- kimyoviy (muayyan tezlikda issiqlik chiqaruvchi reaksiya);
- boshqa portlovchi moddaning zaryadini portlatish (kapsyul-detonatorni yoki qo‘shni zaryadlarning portlashi).

O‘z tabiati va holatiga qarab, portlovchi moddalar muayyan portlash xususiyatlariga ega bo‘ladi. Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

- tashki muhit ta’sirlariga ta’sirchanligi;
- portlash energiyasi (issiqligi);
- detonatsiya tezligi;
- brizantlilik;
- fugalilik (ishchanlik qobiliyati).

Kondensatlangan qattiq va suyuq moddalar, gazlar, shuningdek, gazlardagi qattiq yoki suyuq moddalarning muallaq zaryadlari portlovchi modda bo'la oladi. Detonatsiyaga reaksiya shiddatli boradi va gazsimon mahsulotning harorati bir necha ming darajagacha ko'tarilib, hajmi zaryadning dastlabki hajmigacha siqiladi, bosimi bir necha yuz ming kg kuch/sm² gacha ko'tariladi. Siqilgan gaz tez kengayib, tevarakka kuchli zarb bilan tarqaladi – *portlash* yuz beradi. Portlay oladigan ko'pgina moddalardan 20-30ga yaqini portlovchi moddalar sifatida ishlatiladi. Shulardan asosiylari: trinitrotoluol, tetril, geksojen, oktogen, nitroglitserin, TEN (tetranitropentaeritrin) kabilardir.

PORTLATUVCHI QURILMA – o'q-dorini muayyan tashqi ta'sirlardan yoki zaruriy fursatda portlatish (ishga tushirish) uchun mo'ljallangan mexanizm.

Portlatkich va portlatkichning nishon datchigidan tarkib topgan. Shikast yetkaziladigan obyekt ta'sirini (bosimi, titrashi, magnit, issiqlik yoki boshqa maydonini) yoxud boshqaruv punktidan uzatilgan signalni o'ziga singdiradi va portlash jarayonini yuzaga keltiruvchi zanjirlarga signal uzatadi.

POSBON – vzvod, batareya, ekipaj va shu kabi bo'linmalardagi oddiy askarlar tarkibiga mansub sutkalik naryaddagi shaxs.

Posbon bo'linma bo'yicha navbatchiga bo'ysunib, belgilangan joyda xizmat o'taydi.

Odatda, qinga solingan nayza-pichoq bilan qurollanadi va ko'kraging chap tomonida belgilangan shakldagi nishonni taqadi. Bo'linma qurol-aslahasi, o'q-dorilari, mulki, askar, serjant va ofitserlarning shaxsiy buyumlari butligi va saqlanishiga javob beradi, xonalarda tozalik va tartib qoidalar, kun tartibi, bo'linma harbiy xizmatchilari belgilangan harbiy kiyim kiyganliklari va yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilayotganliklarini kuzatib boradi.

Safdoshtarini uyg'onish vaqti kelganda va tungi vaqtda trevoga (yig'in) signali berilganida uyg'otadi.

Begona shaxslarni xonaga kiritmaydi va shu kabi majburiyatlarni bajaradi.

Posbon majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat Nizomida belgilangan.

POST – 1) soqchi tomonidan qo'riqlanadigan va mudofaa etiladigan harbiy obyekt. Soqchi o'z majburiyatlarini bajaradigan joy yoki joy qismi; 2) maxsus vazifani bajarayotgan askar yoki harbiy xizmatchilar guruhi,

shu jumladan, mazkur vazifa bajarilayotgan joy; 3) kema naryadi xizmat o'taydigan – kema dagi joy.

POST QAYDNOMASI (VEDOMOSTI) – qorovulni tayyorlash va qorovul xizmatini o'tash davomida rasmiylashtiriladigan xizmatga oid hujjat. Post vedomostida:

- qorovul turi;
- qorovul raqami;
- xizmat o'tash sanasi;
- postlar jadvali ko'rsatib o'tiladi.

Post vedomostiga qorovulxona va qo'riqlanayotgan obyektga yo'l qo'yilgan shaxslar, qo'riqlanayotgan obyektlarni o'rab turuvchi to'siqlarda aniqlangan nosozliklar va ushbu nosozliklar bartaraf etilgan vaqt, qorovul xizmati tekshirilganligi, soqchilar almashtirilganligi haqida yozuvlar kiritiladi.

Post vedomostida eski va yangi qorovul boshliqlari, aniqlangan kamchiliklarni ko'rsatib o'tgan holda, qorovul almashganligini tasdiqlovchi imzo qo'yadi.

PULEMYOT – quruqlik, havo va suv yuzasidagi nishonlarni yakson qilish uchun mo'ljallangan avtomatik qurol. Pulemyot:

- qo'l pulemyoti – ayriga tirab qo'llaniladigan;
- tirgakli pulemyot – uch oyoqli tirgakka o'rnatilgan;
- asosiy kalibr pulemyotlari – 6,5-8,0 mm li;
- yirik kalibrli pulemyotlar – 12,7-15 mm li turlarga bo'linadi.

Birinchi pulemyot amerikalik X. Maksim tomonidan 1883-yilda ixtiro qilingan.

XX asrning boshida Madsen va Shoshning qo'l pulemyotlari ishlab chiqildi. 1918-yilda Gochkis, Vickers va Braunning yirik kalibrli pulemyotlari vujudga keldi.

Ikkinchi Jahon urushiga qadar qurol-aslaha tarkibida V. Degtyarev pulemyoti (DP, 1927), B. Shpitalniy va A. Komaritskiylarning aviatsiya pulemyoti (SHKAS, 1932), V. Degtyarev va G. Shpaginning yirik kalibrli pulemyoti (DSHK, 1938), Ikkinchi Jahon urushi yillarida esa P. Goryunovning tirgakli pulemyoti (SG-43), S. Vladimirovning yirik kalibrli pulemyoti (KPV) va M. E. Berezinning universal aviatsiya pulemyoti (UB) qo'llanilgan.

Bugungi kunda qurol-aslaha tarkibida M. T. Kalashnikovning qo'l pulemyoti va V. A. Degtyarevning umumiy pulemyoti mavjud.

QAYTA TAYYORGARLIK – qo‘shinlar harbiy texnikaning yangi namunasi bilan ta‘minlangan, qo‘shimcha harbiy qism va qo‘shilmalar tuzilgan, jangovar harakatlar olib borish borasidagi qarashlar o‘zgarganda – qurolli kuchlar shaxsiy tarkibi va harbiy xizmatga majbur fuqarolarning ixtisoslik bo‘yicha tayyorgarligini takomillashtirish yoki avvalgi harbiy mutaxassisligiga yondosh mutaxassislikka qayta o‘qitish jarayoni. Qayta tayyorgarlik jarayoni:

– *ofitserlar uchun* – harbiy ta‘lim muassasalari, harbiy okrug va birlashmalar shtablari tasarrufidagi qisqa muddatli kurslarda;

– *askarlar uchun* – harbiy o‘quv qismi (bo‘linma) yoki qismning jangovar tayyorgarligi mobaynida;

– *serjantlar uchun* – mutaxassisligiga ko‘ra tegishli serjantlar tayyorlash maktablarida amalga oshiriladi.

QAYTA QUROLLANTIRISH – qo‘shinlarni takomillashtirilgan, yangi qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta‘minlash. Texnikani to‘laligicha almashtirish davri taxminan 10 yil. Yangidan qurollantirish jarayoni tajriba-loyihalashtirish va ilmiy-tadqiqot ishlari, harbiy texnikani ishlab chiqish va foydalanishni mujassamlashtirgan dasturlar bo‘yicha rejalashtiriladi va amalga tatbiq etiladi.

Yangidan qurollantirish jarayoni texnikaning turkum ishlab chiqarilishi va harbiy qismlarga yetib kelishidan boshlanadi.

Texnikaning qo‘shinlarda almashtirilishi va o‘zlashtirilishi harbiy qismlarning jangovar shaylik darajasi pasaytirilmagan tarzda amalga oshiriladi.

QAYTUVCHI ALANGA – (artilleriya qurolida) (*обратное пламя (в артиллерийском оружии)*) – o‘t ochilganidan so‘ng zatvor ochilib, otilgan gilza uloqtirilishi mobaynida porox gazlarining yonuvchi tarkibi va yonilg‘i qoldiqlarining havo kislorodida o‘t olishi natijasida stvolning ortki tomonida hosil bo‘ladigan alanga.

Qaytuvchi alanga – zararli hodisadir. Uni istisno qilish uchun uloqtiruvchi zaryadlarga olov so‘ndiruvchi tarkib qo‘shiladi, o‘ziyurar qurollarda esa o‘t ochilganidan so‘ng stvol kanalini havo oqimi bilan tozalash amallari qo‘llaniladi.

QALQON – 1) jangchini, asosan, sovuq quroldan asrash uchun mo‘ljallangan saqlovchi aslaha elementi; 2) ayrim pulemyotlarda pulemyotchini va qurol mexanizmlarini o‘q va snaryadlardan saqlovchi,

nishonga olish moslamasi uchun tirqishga ega, zirhli po'lat taxtadan tayyorlangan moslama; 3) artilleriya qalqoni – dengizdagi amaliy o't ochish mashqida qo'llash uchun mo'ljallangan suzuvchi sun'iy nishon.

QAMAL – 1) *harbiy qamal* – harbiy harakatlar usuli bo'lib, mazmunan qurshab olinayotgan obyektni, mavjud tashqi aloqalarni izdan chiqarib izolyatsiya qilishdan, ya'ni yakka-latib ajratib qo'yishdan iboratdir.

Harbiy qamal – dushman qarshiligini sindirish, taslim bo'lishga majbur etish, raqib davlatning harbiy-iqtisodiy qudratiga putur yetkazish maqsadida o'tkaziladi. Harbiy qamal to'la yoki qisman bo'lishi, qurshab olinayotgan obyektning geografik holati, qamal uyushtirishga jalb etilayotgan kuchlar va vositalarga ko'ra – quruqlik, dengiz va havodagi yoki qo'shma kuchlar bilan o'tkaziladigan qamal bo'lishi mumkin. Zamonaviy sharoitda harbiy qamal, agar urush oddiy vositalar bilan, shuningdek, yadro qurolining cheklangan miqdori qo'llanilib yuritilgan hollardagina uyushtirilishi mumkin; 2) *siyosiy qamal* – biror davlatni muayyan talabni bajarishga majbur etish maqsadida uning tashqi aloqalariga putur yetkazishga qaratilgan siyosiy yoki iqtisodiy (iqtisodiy qamal) tadbirlar tizimi.

QAMALDAN QUTQARISH – dushman qamal etgan (qurshab olgan) qo'shinlar guruhi, flot kuchlari, muhim iqtisodiy hudud, operativ yoki strategik ahamiyatga ega harbiy baza, shahar, port yoki boshqa obyektlarni qurshovdan va yakka-latib qo'yilgan holatdan ozod etish maqsadida o'tkaziladigan jangovar harakatlar.

QAMAL HOLATI – harbiy holatning bir turi, alohida huquqiy rejim. Qamal holatida harbiy holatning barcha choralari saqlanib qoladi, biroq mudofaa uchun kuch va vositalarning maksimal safarbar etilishi, qamalda qolganlar belgilangan tartibga amal qilishlari va davlat xavfsizligini ta'minlash maqsadida ba'zi choralar kuchaytiriladi.

Qamal holati e'lon qilingan tarixiy misollar: 1918-yil Petrograd, Kiyev, Saritsin, 1919-yil Astraxan, 1941-yil Moskva, Tula, Qrim va 1942-yil Stalingrad.

QANOT – safning o'ng va chap tomonlari. Saf burilganida, qanotlar nomi o'zgaraydi. Qanot, odatda, jangovar tartibning eng zaif qismi hisoblanishi bois jangovar harakatlar davomida dushman qanotini o'rab olish va unga qarata zarba berishga harakat qilinadi.

Temur armiyasida o'ng qanot *barong'ar*, chap qanot *jarong'ar* deb atalgan.

QANOTLI RAKETA – uchuvchisiz uchish apparati. Parvoz etish trayektoriyasi – qanotning aerodinamik ko'tarish kuchi, reaktiv dvigatelning tortish quvvati va og'irlik kuchi bilan belgilanadi. Asosiy elementlari: uchish apparatlari, start va marsh dvigatellari, boshqaruv tizimi va raketaning jangovar qismi. Jangovar qism o'rniga razvedka yuritish yoki elektron jihatdan qarshi ta'sir o'tkazish uchun mo'ljallangan apparatlar joylashtirilishi ham mumkin. Qanotli raketalar qo'llanishiga ko'ra: "yuzadan yuzaga", "yuzadan havoga", "havodan havoga", "havodan yuzaga" sinflariga bo'linadi.

QARSHI HUJUM – mudofaadagi qo'shinlar tomonidan hujum qilayotgan qo'shinga qarshi, mudofaani yorib kirgan dushmanni tor-mor qilish va vaziyatni to'la-to'kis yoki qisman tiklash maqsadida o'tkaziladigan hujum.

Mazmunan dushman qo'shinlarining yorib kirgan turkumini aviatsiya va raketalar zarbasi, artilleriya va minomyotlar olovi, keyin esa ikkinchi eshelondagi zaxiradagi qismlarning muayyan sharoitlarda birinchi eshelondagi qismlar bilan birgalikda yo'q qilishdan iborat. Qarshi ataka, odatda, mudofaamizni yorib kirgan dushman to'xtatilgan, egallab olgan marralarida hali o'rnashib olishga ulgurmagan yoki harakati sustlashtirilgan paytda, zaxira kuchlarimiz qo'llanilgan yoxud zudlik bilan jangga kiritishning iloji bo'lmagan fursatda o'tkaziladi. Qarshi ataka belgilangan marrani egallash va qo'lda tutib qolish bilan yakunlanadi.

QAHRAMONLIK – jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega, ilg'or va yuksak maqsadga erishish uchun jasorat, mardlik, jonbozlik, fidokorlik ko'rsatgan, kerak bo'lsa hayotini ham ayamagan, ayni vaqtda ma'nan oqlangan vositalarni qo'llagan insonlar xatti-harakati va faoliyatining alohida shaklidir.

Askariy qahramonlik juda murakkab va xavfli vaziyatlar bilan bog'liq bo'lib, turli shakllarda namoyon bo'ladi va kuchli iroda, ruhiy va jismoniy kuchlarning mujassamlanishi hamda yuqori saviyadagi harbiy mahoratni talab etadi.

Haqiqiy qahramonlik soxta qahramonlikdan o'zining ijtimoiy jihatdan yo'naltirilganligi bilan farqlanib, Vatanga sodiqlik, siyosiy ong va boshqa yuksak ma'naviy-siyosiy sifatlarga asoslanadi. Qahramonlikni farqlab turuvchi xislat, shaxsiy botirlik, alohida guruhlarining mardonavor tashabbus bilan ommaviy qahramonlikni insonlar tomonidan urush davrida, g'alabaga bo'lgan bukilmas irodani namoyish etgan holda jonbozlarcha xatti-harakatlar bilan namoyon etiladi, tinchlik davrida esa

insonlarning fidokorona mehnatlarida, jangchilarning mashaqqatli harbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi davlati oldida ko'rsatgan qahramonlik bilan bog'liq xizmatlari uchun 1994-yil 5- mayda "O'zbekiston Qahramoni" unvoni ta'sis etilgan.

QIDIRUV – 1) qurol-aslaha namunasi, asir va hujjatlarni qo'lga kiritib, qo'shinlarimiz hududiga tez qaytish maqsadida, bo'linmaning ko'zlangan obyektga pinhona yaqinlashish va daf'atan hamla qilishidan iborat qo'shinlar razvedkasi usullaridan biri. Qidiruv, odatda, tungi vaqtda yoki ko'rinish cheklangan sharoitda (chang-to'zonli shamol esgan, kuchli yomg'ir va tumanda) o'tkaziladi; 2) qidiruv, harbiy-havo kuchlarida, yakka samolyot yoki samolyotlar guruhining dushman samolyotlari yoki quruqlikdagi obyektlarini fosh etish va daf etish borasidagi mustaqil harakatlari (ov) tushuniladi; 3) harbiy-dengiz floti va harbiy-havo kuchlarida – dushman tomonidan urib tushirilgan (shikastlangan) yoki halokatga uchragan kema va samolyotlarni, yordam ko'rsatish va ekipajni qutqarish uchun, qidiruv ishlari olib boriladi; 4) havo hujumidan mudofaa qo'shinlarida – havo nishonlarini fosh etish va kimga tegishli ekanligini aniqlash borasidagi amallar tushuniladi; 5) radiotexnik qo'shinlarda – dushman radio vositasini fosh etish va turgan joyini aniqlash amallari tushuniladi; 6) chegara qo'shinlarida – davlat chegarasi buzg'unchisini fosh etish va qo'lga olish borasidagi harakatlar tushuniladi.

QIRUVCHI-BOMBARDIMONCHI AVIATSIYA – harbiy aviatsiyaning bir turi bo'lib, dushman uchuvchisi boshqaradigan va uchuvchisiz havo vositalarini daf etish uchun mo'ljallangan. Shuningdek, quruqlikdagi (suvdagi) nishonlarni yakson qilish va havo razvedkasini yuritish uchun qo'llanilishi mumkin. Birinchi Jahon urushi yillarida vujudga kelgan bo'lib, harbiy-havo kuchlari, havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va harbiy-dengiz floti tarkibiga kiradi. Zamonaviy qiruvchi aviatsiya asosini havo dushmanini raketalar va to'p olovi bilan, parvozing barcha balandlik va tezliklar diapazonlarida yo'q qilish kabi jangovar qobiliyatlarga ega, uchuvchi boshqaradigan, ob-havoning barcha sharoitida reaktiv tovush tezligidan tez parvoz etadigan qiruvchi samolyotlar tashkil etadi.

QIRUVCHI SAMOLYOT – dushman uchuvchisi boshqaradigan va uchuvchisiz havo vositalarini daf etish, shu jumladan, uning quruqlikdagi (suvdagi) nishonlarini yakson qilish va havo razvedkasini yuritish uchun mo'ljallangan jangovar samolyot. Zamonaviy qiruvchi samolyotlar reaktiv,

tovush tezligidan tez (soatiga 2650 km gacha, parvoz balandligi 18-21 ming m, harakat radiusi 1500-2000 km), ob-havoning barcha sharoitida parvoz etadigan, raketa tashuvchi samolyotlardir. Zamonaviy qiruvchining asosiy elementlari jumlasiga: uchish apparati, bir yoki ikkita reaktiv dvigatellar, boshqariladigan va boshqarilmaydigan raketalar, aviatsiya bombalari va boshqa maxsus jihozlar kiradi. Qudratli o'qotar va to'p qurollariga ega.

QOROVUL – 1) Jangovar Bayroqni, harbiy va davlat ahamiyatiga molik obyektlarni qo'riqlash va mudofaa etish, gauptvaxta va alohida intizomiy vzvodda tutib turilgan shaxslarni qo'riqlash, shuningdek, harbiy ehtirom ko'rsatish uchun tayyorlangan, qurollangan bo'linma. Qorovullar:

- garnizon,
- lager;
- ichki (kema);
- faxriy qorovullar turlariga bo'linadi.

Qorovullikka Vatanga qasamyod keltirgan, xizmatga yangi chaqirilgan askarni tayyorlash dasturini to'la o'zlashtirgan va nojo'ya xatti-harakat sodir etmagan harbiy xizmatchilar tayinlanadi.

Qorovul tarkibi: qorovul boshlig'i, postlar va navbatchilar soniga ko'ra qorovul va tarqatuvchilar, zarurat bo'lsa, qorovul boshlig'ining yordamchisi, muhofazaning texnik vositalari bo'yicha qorovul boshlig'ining yordamchisi (operator) yoki operatorlarning almashinuvchi navbati (uch-to'rt kishi), qorovul boshlig'ining qo'riqchi itlar xizmati bo'yicha yordamchisi, gauptvaxtadagi qorovul tarkibida esa asirlarni tashqariga chiqaruvchilar va transport vositalarining haydovchilaridan iborat.

Obyektlarni bevosita qo'riqlash va mudofaa etish uchun qorovul tarkibidan soqchilar qo'yiladi.

Faxriy qorovullar harbiy ehtirom ko'rsatish uchun alohida hollarda tayinlanadi.

Qorovul xizmatini o'tash davrida qorovul tarkibi alohida huquq va vakolatlarga egadir;

2) obyektni (postni) qo'riqlash va mudofaa etish bo'yicha jangovar vazifani bajarayotgan qorovul tarkibidagi harbiy xizmatchi. Qorovul askar (matros) yoki serjantlar tarkibidan tayinlanadi.

Qorovul tarkibidagi harbiy xizmatchilar soni mazkur qorovul uchun o'rnatilgan postlar va har bir postdagi soqchilarning almashinuvchi navbati miqdoriga muvofiq belgilanadi.

Qorovulning soqchi maqomi va aks holga o'tishi ushbu qorovulning o'z tarqatuvchisiga (qorovul boshlig'i yoki uning yordamchisiga) postni qabul qilib olganligi (topshirganligi) haqida bildiruvi bilan belgilanadi.

QOROVULLAR TARQATUVI – qorovullarning qorovul xizmatini o'tashga kirishishidan oldin o'tkaziladigan kundalik ko'rigi.

Tarqatuv davomida qorovul tarkibining qorovullik xizmatini o'tashga shayligi tekshirilib, tegishli boshliqlar ixtiyoriga o'tkaziladi.

Qorovullar tarqatuvini o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomida belgilangan.

QOROVUL XIZMATI – harbiy qismning Jangovar Bayrog'i, shu jumladan, qurol-aslaha, harbiy texnika va shu kabi boshqa moddiy vositalar saqlanayotgan omborlari va mulk saqlash joylarini hamda harbiy obyektlar va davlat obyektlarini ishonchli muhofaza va mudofaa qilish, shuningdek, hibsga olinib, gauptvaxtaga qamalgan va alohida intizomiy vzvodda jazo o'tayotgan shaxslarni (mahbuslarni) qo'riqlash uchun mo'ljallangan harbiy xizmat turi. Qo'shinlar xizmatining tarkibiy qismi.

Qorovul xizmatini tashkil etish va o'tash qoidalari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovul xizmatlari Nizomida belgilab qo'yilgan.

Qorovul xizmati qo'shinlar hayoti va faoliyatida alohida o'rin tutib, tinchlik davridagi jangovar vazifa ijrosi sifatida ko'riladi va qo'shinlarning yuksak jangovar shayligi saqlab borilishiga omil bo'ladi. Shu bois shaxsiy tarkibdan nizom talablariga aniq va so'zsiz rioya etish, yuksak sergaklik, o'zaro yordam, mustahkam harbiy intizom, qurolni to'g'ri qo'llash, texnikadan puxta foydalana bilish talab etiladi.

Qorovul xizmatiga: garnizon miqyosida – garnizon boshlig'i; harbiy qism miqyosida esa – harbiy qism komandiri rahbarlik qiladi.

QOROVULXONA – qorovul shaxsiy tarkibini joylashtirish uchun mo'ljallangan, maxsus jihozlangan bino (xona).

Qorovul boshlig'ining ruxsatisiz qorovul tarkibidagi shaxslarning birortasi ham qorovulxonani tashlab ketish huquqiga ega emas.

Qorovulxonada O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomida belgilab qo'yilgan tartib va osoyishtalikka rioya etilishi shart. Qorovulxona quyidagilardan iborat:

- qorovul shaxsiy tarkibi uchun umumiy xona;
- qorovul boshlig'i va uning yordamchisi uchun, qorovul shaxsiy tarkibining umumiy xonasiga oynali eshik bilan bog'langan xona;

– dam oladigan navbat uchun dam olish xonasi.

Bulardan tashqari: ovqat isitadigan jihozlarga ega oshxona, yuvinish, tamaki chekish, qurol va poyabzal tozalash joylari (xonalari), kiyim quritish xonasi, maishiy xizmat burchagi, hojatxona, yoqilg'i quyiladigan omborcha bo'lishi kerak. Kam sonli qorovullarning qorovulxonasida oshxona bo'lmasligi mumkin. Bu holda qozon-tovoq va oziq-ovqatlarni saqlaydigan, ovqat isitadigan joy hozirlanadi.

Obyektlarni qo'riqlashning texnik vositalari bilan jihozlangan qorovulning qorovulxonasida operator uchun signallovchi pult xonasi bo'lishi kerak.

Qorovulxona oldida qorovul tarkibi saf tortishi uchun maydon, tungi vaqtda yoritish vositalariga ega, qurolni o'qlash va o'qsizlantirish uchun maxsus joy bo'lishi lozim.

Qorovulxonani qo'riqlash uchun kirish eshigi tashqarisida, qorovulning sergak navbati tarkibidan soqchi qo'yiladi.

Harbiy qism hududi tashqarisida joylashgan qorovulxonada kichik tuynukka ega, ichkaridan yopiladigan derazalar bo'lishi lozim.

QUROL – qurolli kurashda dushmanga shikast yetkazish uchun mo'ljallangan qurilma va vositalar. Odatda, dushmanga shikast yetkazuvchi vositalar va ushbu vositalarni nishonga yetkazuvchi vositalardan iborat. Nisbatan murakkab qurol tarkibiga, bundan tashqari, boshqaruvchi va yo'naltiruvchi jihoz va qurilmalar kiradi.

Zamonaviy qurol quyidagi turlarga bo'linadi:

- o'qotar qurol;
- mina, torpeda va raketali qurol;
- reaktiv qurol;
- yadro quroli;
- kimyoviy qurol;
- bakteriologik (biologik) qurol;
- sovuq qurol.

Talafot yetkazish xususiyatlariga ko'ra:

- ommaviy qirg'in quroli;
- shikast yetkazuvchi oddiy qurol.

Bajaradigan jangovar vazifalarning miqyosiga ko'ra:

- strategik;
- operativ-taktik;
- taktik qurol.

Qo'llash maqsadiga ko'ra:

– bir maqsadli – samolyotga qarshi, tankka qarshi, suvosti kemasiga qarshi;

– ko‘p maqsadli;

– majmuiy qurol.

Xizmat ko‘rsatadigan odamlar soniga ko‘ra:

– shaxsiy;

– guruh quroli.

O‘t ochish jarayonining avtomatlashtirilganlik darajasiga ko‘ra:

– avtomatik;

– yarim avtomatik;

– avtomatlashtirilmagan.

Bevosita shikast yetkazuvchi vositalarning nishon tomon harakati mobaynidagi trayektoriyani o‘zgartirish imkoniyati mavjudligiga ko‘ra:

– boshqariladigan;

– boshqarilmaydigan turlarga bo‘linadi.

Ilk qurollar jumlasiga gurzi cho‘qmoq, yog‘och nayza, toshlar kirib, keyinroq esa metallardan tayyorlangan nayza, uloqtiriladigan o‘q, palaxmon, sopqon, nayza uloqtirgich kabilar qo‘llanila boshlandi. Qurol taraqqiy etishiga himoya aslahasining vujudga kelishi sabab bo‘ldi. Bronza asrida bronza qilich, shamshir, tig‘, xanjar, nayza kabi maxsus harbiy qurollar (sovuq qurollar) vujudga keldi. Himoya inshootlarining paydo bo‘lishi uloqtiruvchi mashina va qamal qiluvchi texnikaning ixtiro etilishiga turtki bo‘ldi.

O‘qotar qurolning ilk namunasi XII asrdagi moldfa, ya‘ni o‘z tubiga ega metallardan tayyorlangan qisqa quvurcha edi. Ilk artilleriya quroli esa XIV asrda G‘arbiy Yevropada – yog‘och tirgakka o‘rnatilgan, metallardan tayyorlangan silliq devorli quvur ko‘rinishida tayyorlangan. Uning snaryadlari sifatida kamon o‘qi, daraxt tanasi, toshlar, keyinchalik toshdan tayyorlangan o‘qlar xizmat qilgan. O‘qotar qurollarning ilk namunalari qurilishi jihatidan artilleriya qurolidan kam farq qilar edi.

Sovuq qurol ham taraqqiy etib bordi. XIV asr oxirida shamshir o‘z o‘rnini qilich va qilichsimon nayzaga bo‘shatib berdi.

XV asrda pilik chaqmoqli miltiqlar, stvolining og‘zidan o‘qlanadigan silliq stvolli pistoletlar paydo bo‘ldi. Zarb bilan harakatga keluvchi kremniyli chaqmoq va miltiq nayzasi ixtiro qilingach (XVII asrda) stvolining og‘zidan o‘qlanadigan silliq stvolli piyodalar miltig‘ining rusumi shakllana boshlandi. Vintli kesmaga ega o‘qli qurolning dastlabki namunalari (ichi burama kertikli miltiq) XVI asrda ixtiro qilingan bo‘lib,

faqat XIX asrdagina keng tarqaldi. XVI – XVII asrlarda qurol-aslahalar tarkibida og'zidan o'qlanadigan miltiq, qisqa stvolli to'p, zambarak, sochma o'q otadigan miltiq kabilar bor edi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshida tutunsiz porox, o'qdonli qurol, avtomatik qurol, minomyotlar, aviatsiya va chuqurlik bombalari vujudga keldi.

Birinci Jahon urushi yillarida ognemyotlar va kimyoviy qurol, Ikkinchi Jahon urushida esa reaktiv qurollar ("Katyushalar") qo'llanila boshlandi. 1944-yilda fashistlar tomonidan ilk bor boshqariladigan samolyot-snaryad Fau-1 va ballistik raketa Fau-2 qo'llanildi. 1945-yilning avgust oyida esa AQSH hukumati tomonidan yadro quroli amalda qo'llanildi. Keyinchalik yadroviy o'q-dori bilan yadroviy raketa qurolining birligi yaratila boshlandi.

Eng qudratli strategik qurol – yaxlit blokli va ajraluvchi kallakli qit'alararo ballistik raketalar sanaladi. Bundan tashqari operativ-taktik va taktik-yadroviy raketalar ham mavjud. Qit'alararo ballistik raketalarining jangovar kallaklarini tutib olish uchun raketalariga qarshi mudofaaning raketaga qarshi o't ochuvchi komplekslari xizmat qiladi.

Qurolning zamonaviy taraqqiyoti – qurol avlodi tez-tez almashtirilib turilishi bilan tavsiflanadi. Bir namunaga mansub qurolning navbatdagi namunasiga almashtirilish vaqti XX asrning boshiga nisbatan 2-3 marotabaga qisqardi.

QUROL-ASLAHA – 1) turli qurollar va ularning qo'llanilishini ta'minlovchi vositalar majmui. Ular jumlasiga qurolli kuchlar turiga mansub bo'linma, harbiy qism va qo'shimchalar ta'minlanadigan qurol, uni yo'naltirish, qo'llash, uchirish, ishga solish, boshqarish tizimlari va boshqa texnik vositalar kiradi; 2) tank, jangovar mashina, samolyot va kemada o'rnatiladigan qurol va asboblari; 3) atamaning rus tilidagi mazmuni davlat harbiy texnikasining miqdoriy jihatdan o'sish, sifat jihatidan rivojlanish, qurolli kuchlarini ular bilan ta'minlash (ya'ni qurollanish) jarayonini anglatadi.

Qurol-aslahalar:

– *hal etadigan vazifalarning turiga ko'ra* – strategik, operativ-taktik va taktik turlarga;

– *qurolli kuchlar yoki qo'shin turida qo'llanilishiga ko'ra* – quruqlikdagi qo'shinlar, raketa qo'shinlari, havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, harbiy-havo kuchlari, harbiy-dengiz floti, artilleriya, kimyo qo'shinlari qurol-aslahalariga;

– *tashuvchi vositalar turiga ko'ra* – aviatsiya, kema va tank qurol-

aslahalariga bo'linadi.

QUROL-ASLAHA TIZIMI – muayyan jangovar vazifani bajarish uchun mo'ljallangan qurol-aslaha va boshqa harbiy texnika namunalarining majmui. Qurol-aslahaning bir yoki har xil turlaridan tashkil topgan bo'lishi mumkin (misol uchun artilleriya qurol-aslahasi tizimi). “Qurol-aslaha tizimi” atamasi, shuningdek, muayyan masalani hal etish uchun mo'ljallangan vositalar majmuining mazmunini ta'riflashda ham qo'llaniladi (misol uchun, suvosti kernasi, raketali kompleks hamda boshqaruv va ta'minot vositalaridan tashkil topgan suvosti raketa-yadroviy tizim).

QUROL KALIBRI – 1) o'qotar qurol stvoli kanalining diametri. Qurol kalibri qurol turiga ko'ra:

- *silliqliq stvolli qurol*da – stvolning ichki diametri bo'yicha;
- *kesma stvolda* – kesmalarning qarama-qarshi maydonlari orasidagi masofa bo'yicha;

- *snaryadlarda (minalarda)* – eng yirik ko'ndalang kesim bo'yicha belgilanadi. Qurol kalibri dyuymlar (25,4 mm) yoki millimetrlarda ifodalanadi; 2) snaryad, torpeda, mina kabilarning eng yirik ko'ndalang kesimi diametri bo'yicha o'lchami; 3) aviatsiya bombasining kilogrammda o'lchanadigan vazni.

QUROLI KUCHLAR – hujum yoki mudofaa urushlarini olib borish maqsadida davlat tomonidan ta'minlanuvchi qurollangan kishilarning uyushgan qo'shilmasi, siyosiy hokimiyatning eng muhim qurollaridan biri.

Qurolli Kuchlarning tashkil qilinishi kishilik jamiyatining sinflarga ajralishi va davlatning vujudga kelishi bilan bog'liq.

Qurolli Kuchlarning vazifasi, ularning qurilish tamoyillari, shaxsiy tarkibni o'qitish ijtimoiy va davlat tuzumi hamda davlat siyosati bilan belgilanadi.

XX asrga qadar qurolli kuchlar tarkibiga quruqlikdagi armiya va harbiy-dengiz floti kiritilgan.

Zamonaviy Qurolli Kuchlar:

- quruqlikdagi qo'shinlar;
- harbiy-havo kuchlari;
- harbiy-dengiz floti va boshqa turdagi qurolli kuchlar;
- bosh harbiy boshqaruv organlari;
- front orti organlari;
- davlatning ayrim harbiy tashkilotlaridan (masalan, Ichki va Chegara

qo'shinlari, Milliy gvardiya) tarkib topgan.

Qurolli Kuchlar tashkiliy jihatdan bo'linma, qism, qo'shilma, birlashmalardan iborat bo'lgan qo'shin turlari (kuch turlari) va maxsus qo'shinlarni o'z ichiga oladi.

Qurolli Kuchlarni butlash umumiy harbiy xizmat burchi asosida yoki umumiy harbiy xizmat majburiyati asosida amalga oshiriladi, aksariyat mamlakatlarda ko'ngillilarni yollash usulidan ham foydalaniladi.

Rivojlangan davlatlar qurolli kuchlarining o'ziga xos xususiyatlari jumlasiga:

- ommaviylik;
- qudratli kurash vositalariga egalik;
- yirik mamlakatlarda yadro qurolining mavjudligi;
- yuksak harbiy tayyorgarlik kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari – mamlakat milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish, urushlar va qurolli nizolarni qaytarish va oldini olish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo'shilmalar va qismlardir.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasida Mudofaa vazirligi tizimidagi qism va bo'linmalar, Ichki ishlar vazirligining ichki va qorovul qo'shinlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiylashtirilgan qismlari, Chegara qo'shinlaridan tashkil topgan.

Qo'shinlar qo'llanishining strategik va taktik jihatidan kelib chiqib, Qurolli Kuchlar tuzilishi asosi O'zbekiston Respublikasini himoya qila oladigan qo'shinlar va maxsus qo'shinlarni tuzishga qaratilgan. Bular Quruqlikdagi qo'shinlar, Harbiy-havo kuchlari va Harbiy-havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, Maxsus va muhandislik-quruvchilik qo'shinlari, Ichki ishlar vazirligining ichki va qorovul qo'shinlari, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiylashtirilgan qismlari va chegara qo'shinlari.

Quruqlikdagi qo'shinlar tarkibiga motoo'qchi, tankchi va artilleriya qo'shilmalar va qismlaridan, havo desanti, hujumchi-desant, havo hujumidan mudofaa bo'linmalari, tez harakat qiluvchi kuchlar qismlari, ta'minot qismlari va bo'linmalari kiradi.

Harbiy-havo kuchlari qurolli kuchlarning eng yuqori manyovrlangan qo'shin turlaridan biri sanaladi.

Maxsus qo'shinlar jangovar harakatlarni operativ ta'minlash masalalarini hal etish uchun mo'ljallangan.

Qo'shinlarning harakati va manyovri uchun yo'llarni tayyorlashda muhandislik bo'linmalarining tutgan o'rni alohida. Bu bo'linmalar g'ildirakli va zanjirli asoslardagi yo'lyotqizgich, minalardan tozalovchi muhandislik mashinalari, ko'priklar quruvchilar hamda o'ziyurar mexanizatsiyalashgan ko'priklar kabi maxsus texnika turlari bilan ta'minlangan.

Qo'shinlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan harbiy aloqa qo'shinlariga bog'liq. Ular qo'shinlar va qurollarni boshqarish tizimida axborotni almashtirish xizmatini bajaradilar. Aloqa qo'shinlari simli aloqa, radioaloqa, maxfiylashtirilgan aloqa vositalaridan foydalangan holda harbiy harakatlarning borishiga ta'sir o'tkazadilar.

Muhandislik-quruvchilik qo'shinlari qurolli kuchlar infratuzilmasi taraqqiyotini ta'minlash va davlat strategik-iqtisodiy dasturini bajarishga hissa qo'shib kelmoqda. Urush sharoitida mazkur qo'shinlarga mudofaa binolarini, kommunikatsiya qurilishlari va qutqaruv-avariya ishlarini bajarish yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Chegara qo'shinlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 24-martidagi farmoniga ko'ra tuzildi. Chegara qo'shinlariga O'zbekiston Respublikasi davlat chegaralarini, uning suverenitetini himoya qilish vazifasi qo'yilgan.

Ichki ishlar qo'shinlarining maxsus bo'linmalari muhim davlat obyektlarini qo'riqlash, maxsus harbiy operatsiyalarda qatnashish, terrorchilarga qarshi kurash kabi vazifalarni bajaradi.

Urush holatida O'zbekiston Qurolli Kuchlari o'z vazifalarini O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati qo'mitasi va Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda amalga oshiradi. Ularning birgalikdagi harakatini muvofiqlashtirish uchun 2000-yilda Mudofaa vazirligida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Birlashgan Shtabi tuzildi.

Qurolli Kuchlar o'z faoliyatini qonun ustunligi, markazlashgan rahbarlik va yakkaboshchilik, jangovar va safarbarlik jihatidan doimiy shaylik hamda harbiy intizomga rioya etish asosida quradi va amalga oshiradi.

Harbiy obyektlar, binolar va inshootlar, qurol-yarog', harbiy texnikaning barcha turlari, boshqa harbiy mol-mulklar davlat mulki sanaladi va Qurolli Kuchlar tasarrufida bo'ladi.

Qurolli Kuchlarning butlanishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qurolli Kuchlarga Oliy boshqaruvni Prezident amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq, Prezident Respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni sanaladi.

Urush davrida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri bir paytning o'zida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni o'rinbosari sanaladi.

Qurolli Kuchlarning kundalik faoliyatiga rahbarlikni o'z bo'ysunuvida Qurolli Kuchlarning tarkibiga kiradigan harbiy tuzilmalari bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning rahbarlari amalga oshiradilar.

Qurolli Kuchlar oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ularga operativ rahbarlikni Qurolli Kuchlar Birlashgan shtabining boshlig'i amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada qurolli kuchlarga ega.

QUROLLI KUCHLAR BOSH SHTABI – tinchlik davrida mamlakat mudofaasini rejalashtirishning va urush davrida Qurolli Kuchlarni tezkor boshqarishning asosiy organidir. Tinchlik davrida Qurolli Kuchlar Bosh shtabi tashkiliy jihatdan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tarkibiga kiradi va vazirga bo'ysunadi, urush davrida esa O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy bosh qo'mondonining ishchi organiga aylanadi.

QUROLLI KUCHLAR ZAXIRASI – haqiqiy harbiy xizmat yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan yoki harbiy xizmatdan ozod etilib, urush davrida haqiqiy harbiy xizmatga yaroqli deb topilgan, nomlari harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy hisobida qayd etilgan fuqarolar. Qurolli Kuchlar zaxirasi ro'yxatiga haqiqiy harbiy xizmatning belgilangan muddatini o'tab bo'lgan yoki oilaviy sharoiti, kasalligi kabi sabablarga ko'ra muddatidan oldin bo'shatilayotgan, shu jumladan, safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatini o'tagan fuqarolar va tibbiyot sohasidagi yoxud boshqa maxsus mutaxassislikni egallagan ayollar kiritiladi. Qurolli Kuchlar zaxirasi ro'yxatidagi fuqarolar turar joylarida harbiy hisobga olinadilar.

Qurolli Kuchlar zaxirasidagi fuqarolar vaqti-vaqti bilan o'quv yig'inlariga jalb etiladilar.

QUROLLI KUCHLAR SAFARBARLIGINI KUCHAYTIRISH BAZASI – davlat harbiy imkoniyatlarining tarkibiy qismi, tinchlik davrida safarbarlik zaxirasi tarzida tayyorlangan va to'plangan resurslarning

mavjudligi va balansi, harbiy jihatdan tayyorlangan zaxirada turuvchi fuqarolar va qurolli kuchlarni tinchlik davridan harbiy holatga o'tkazish lozim bo'lganida ularning rejali safarbarligini ta'minlaydigan va harbiy harakatlar uchun zarur qurol-aslaha va harbiy texnika, moddiy va moliyaviy vositalar, birinchi navbatda asqotadigan strategik zaxirani shakllantirish, urushning dastlabki davrida o'tkazilgan operatsiyalar davomida sodir bo'lgan shaxsiy tarkib, qurol-yarog' va harbiy texnikadagi yo'qotishlar hamda moddiy va boshqa vositalar bo'yicha sarf-xarajatlar o'rni to'ldirish. Qurolli Kuchlarning holati davlatning iqtisodiy, moliyaviy, demografik va hududiy imkoniyatlari, davlatlar koalitsiyasi hamda ma'lum muddat, masalan, hisob yili ichida zarur bo'lgan harbiy mahsulotni qisqa vaqt ichida ishlab chiqara oladigan iqtisodiy majmuaning qobiliyati bilan aniqlanadi.

QUROLLI KUCHLAR SAFIDA HARBIY XIZMATNI O'TAGAN REZERVCHILAR XIZMATI – rezervchilar xizmati haqiqiy harbiy xizmatni, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi rezervdagi xizmatni o'tagan oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar jumlasidan bo'lgan harbiy xizmatga majburlar uchun Qurolli Kuchlarning qo'shilmalari, qismlari va bo'linmalari safini urush davrida taqozo etiladigan shtatlar darajasiga qadar to'ldirish, shuningdek, urush davri taqozo etadigan tuzilmalarni kuchaytirish maqsadida umumiy harbiy majburiyat asosida joriy etiladigan harbiy xizmat turidir.

Rezervchilar sifatida xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatga majburlar tinchlik davrida, qoida tariqasida, qo'shinlarning jangovar tayyorgarligini saqlab turish, rezervchilarning harbiy hisobdagi ixtisoslik bo'yicha majburiyatlarni tinchlik va urush davrida bajarishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarini saqlab qolish va takomillashtirish maqsadida harbiy qismlar bazasida hududiy prinsip asosida tashkil etiladigan harbiy tayyorgarlik bo'yicha harbiy yig'inlarni o'tashga jalb etilishlari mumkin.

Harbiy yig'inlarni o'tash muddatlari "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida" Qonunning 32-moddasida belgilanadi. Rezervchilardan urush davrida ham, tinchlik davrida ham O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz tahdidi va mamlakat xavfsizligiga tahdid tug'ilganida, tabiiy ofatlar hamda favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan qo'shilmalar va qismlar tarkibida jangovar maqsadlar bo'yicha foydalanilishi mumkin.

Qurolli kuchlar rezervchilarining xizmatni o'tash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

QUROLLI KUCHLAR TURI – muayyan sohada (quruqlik, dengiz va havo bo'shlig'ida) harbiy harakatlar yuritish uchun mo'ljallangan davlat qurolli kuchlarining tarkibiy qismi.

Qurolli kuchlar turi jumlasiga Quruqlikdagi qo'shinlar, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy-dengiz floti kiradi.

Qurolli kuchlar turi tegishli qo'mondonlarga bo'ysunadi. Qurolli kuchlarning har bir turi qo'shinlar (kuchlar) turi, maxsus qo'shinlar va faqat o'ziga xos qurol-aslaha va harbiy texnikadan iborat.

QUROLLI KUCHLAR FRONT ORTI – qo'shinning front orti ehtiyojlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan kuch va vositalar. Qurolli kuchlarning davlat iqtisodiyoti bilan bog'lab turuvchi pog'onasi sanaladigan qismi. Asosiy vazifalari: qurolli kuchlardagi moddiy vositalar zaxirasini butlab, qo'shinnlarni uzluksiz ta'minlab borish; tashishlarning barcha turlari amalga oshirilishini ta'minlash; qo'shinlar uchun yurish yo'llarini tayyorlash va soz holda tutib turish; tibbiy, moliyaviy, maishiy, harbiy, savdo, uy-joy kabi ta'minotlarni amalga tatbiq etishdan iborat. Jahon mamlakatlari qurolli kuchlarining bugungi kundagi front orti muayyan davlatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitga bog'liq holda rivojlanadi. Uning tasarrufida turli maqsadda yig'ilgan moddiy zaxira bazalari va omborxonalar, avtomobil, yo'l va quvurlar yotqizuvchi kabi maxsus qo'shinlar, ko'makchi flot, muhandislik aerodromi, aviatsiya texnikasi, avariya qutqaruvchi, ta'mirlovchi, quruvchi, tibbiyot, veterinariya kabi bo'linma, qism, xizmat va muassasalar mavjud. Bajaradigan vazifalarining miqyosi va xususiyatiga ko'ra qurolli kuchlar front orti: qurolli kuchlarning strategik front orti; qurolli kuchlarning operativ front orti; qo'shin tasarrufiga mansub front orti turlariga bo'linadi. Qurolli kuchlarning har bir turi o'z front orti organlariga ega. Ularga Mudofaa vazirining front orti bo'yicha o'rinbosari rahbarlik qiladi.

QUROLLI KUCHLAR SHAXSIY TARKIBINING AXLOQIY-RUHIY HOLATI – xalq va armiyaning axloqiy-ruhiy kuchlari namoyon bo'lishi, ruhiy imkoniyatlarining amalga oshish darajasi, muayyan tarixiy sharoitda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va harbiy masalalarni hal eta olish qobiliyati.

Axloqiy-ruhiy holat davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumi, olib borayotgan ichki va tashqi siyosatiga bog'liq. Mamlakat aholisi, alohida guruhlar, qurolli kuchlar shaxsiy tarkibi va ayrim qismlariga

taalluqli axloqiy-ruhiy holatga bo'linadi. Axloqiy-ruhiy holat:

urush davrida – qurolli kuchlarning axloqiy-ruhiy holati, urushning siyosiy maqsadi va o'ziga xos xususiyatlari, frontlardagi ahvol, qo'shinlarning ta'minot darajasi, siyosiy va harbiy rahbarlarning urushda siyosiy va harbiy maqsadga erishishni ta'minlay olish qobiliyatlari, front ortidagi aholining turmush tarzi, shuningdek, dushman tomonidan o'tkazilayotgan mafkuraviy ishlarning o'tkazayotgan ta'siriga bog'liq bo'lib, qo'shinlarning jangovar qobiliyatlari va jangovar harakatlarining natijalarida namoyon bo'ladi;

tinchlik davrida – shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holati o'quv-jangovar vazifalarni bajarish, jangovar navbatchilikni sifatli o'tash, kundalik jangovar shaylik, uyushqoqlik va harbiy intizom, harbiy jamoadagi sog'lom muhit, komandirlarning nufuzi, qo'shinlarni boshqarishdagi mustahkam iroda va qat'iyliklarida namoyon bo'ladi.

QUROLLI KUCHLARNING ASOSIY VAZIFALARI – a) tinchlik davrida:

- harbiy-siyosiy vaziyatning rivojlanishini doimiy ravishda tizimli tahlil va prognoz qilish;

- harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo'lgan tahdidlar to'g'risida mamlakat mudofaa tizimining barcha kuchlari va vositalarini o'z vaqtida ogohlantirish, xabardor qilish;

- yuzaga kelayotgan harbiy-siyosiy vaziyatga va davlatning iqtisodiy imkoniyatlariga muvofiq Qurolli Kuchlarning qo'llanilishini batafsil va monand rejalashtirish;

- boshqaruv organlari va qo'shinlarning, kuchlar va vositalarning jangovar shayligini hamda jangovar qobiliyatini qurolli nizolarning oldi olinishini ta'minlaydigan darajada saqlab turish;

- urush boshlanishi xavfi tug'ilgan taqdirda Qurolli Kuchlarning strategik jihatdan yoyilishga shayligini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlash;

- muhim davlat, harbiy obyektlari va kommunikatsiyalarini qo'riqlash hamda mudofaa qilish;

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni tugatish;

- favqulodda holat rejimini saqlab turish;

- mamlakat hududini tezkorlik bilan jihozlashga va harbiy infratuzilmani rivojlantirishga doir tadbirlarni o'tkazish;

- hududiy mudofaa va fuqaro muhofazasi tizimlarini belgilangan muddatlarda yoyishga hamda tegishli vazifalarni samarali bajarishga shay holda saqlab turish;

- buzg‘unchi kuchlarning davlat hokimiyati va boshqaruvi asoslariga, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka qarshi yo‘naltirilgan hamda harbiy xavfsizlikka zarar yetkazishga qaratilgan qo‘poruvchilik faoliyatiga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko‘maklashish;

- boshqaruv organlari va qo‘shinlarning tezkor hamda jangovar tayyorgarlik rejalarini tashkil etish hamda bajarish;

- b) tahdid bo‘layotgan davrda:

- Qurolli Kuchlarni yuqori darajadagi jangovar shaylikka keltirish bo‘yicha kompleks tadbirlarni o‘tkazish;

- Qurolli Kuchlarni strategik jihatdan yoyish;

- hududiy mudofaa va fuqaro muhofazasi tizimlarini yoyish;

- harbiy holat rejimini saqlab turish;

- v) urush davrida:

- harbiy tajovuzni daf etish va tajovuzkorning qo‘shinlariga zarba berish;

- tajovuzkorni O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga zid bo‘lmagan shartlar asosida harbiy harakatlarni to‘xtatishga majbur qilish.

QUROLLI KUCHLARNING GARNIZON VA QOROVULLIK XIZMATLARI NIZOMI – garnizon va qorovul xizmatlarini tashkil etish va o‘tash tartibi, garnizondagi mansabdor shaxslar va garnizon xizmatini o‘tayotgan harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlarini, shuningdek, qo‘shinlar ishtiroki bilan o‘tkaziladigan garnizon tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilab beruvchi rasmiy me‘yoriy huquqiy hujjat.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining amaldagi Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan.

QUROLLI KUCHLARNING INTIZOM NIZOMI – rasmiy me‘yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, harbiy intizom mazmuni va asoslarini, harbiy xizmatchilarning harbiy intizomni tutib turish va mustahkamlash borasidagi majburiyatlari, rag‘batlantirish va intizomiy ta‘zir turlari hamda ularni qo‘llash tartibini belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan.

QUROLLI KUCHLARNING ICHKI XIZMAT NIZOMI – harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari va ular orasidagi munosabatlarni, brigadadagi asosiy mansabdor shaxslarning majburiyatlarini, qism va

bo'linmadagi ichki tartib qoidalari, vaqt taqsimoti, kundalik tartib kabi masalalarni belgilab beruvchi rasmiy hujjat. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining amaldagi Ichki xizmat Nizomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan.

QUROLI KUCHLARNING SAF NIZOMI – rasmiy hujjat bo'lib, unda:

- saf uslublari bajarilishi;
- harbiy bo'linma va qismlarning saf tortishlari, ularning turli sharoitda yurish va harakatlanish tartiblari;
- harbiycha salom berish tartibi;
- saf ko'rigini o'tkazish tartibi;
- Jangovar Bayroqning safdagi holati, uni olib chiqish va olib ketish tartibi;
- harbiy xizmatchining safga turishdan oldin va safdagi majburiyatlari kabi qoidalar belgilab beriladi.

Saf nizomi asosida saf tayyorgarligi tashkil etiladi va o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf nizomi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 1996-yil 14-oktabrdagi 238-sonli buyrug'iga binoan joriy etilgan. Mazkur nizom qo'shin tuzilishi va mavjud qurol-aslahasini hisobga olgan holda qo'shinlar ta'limotining ilg'or tajribalarini umumlashtiradi.

QUROLI NIZO – davlatlar o'rtasidagi (xalqaro qurolli nizo) yoki bir davlat hududi doirasidagi (ichki qurolli nizo) qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, milliy, etnik, diniy va boshqa ziddiyatlarni hal etish maqsadidagi miqyosi cheklangan qurolli to'qnashuv (harakat, janjal) bo'lib, bunda urush holati e'lon qilinmaydi;

QUROLI NIZOLAR – cheklangan doiradagi harbiy nizolar (harakatlar va qurolli to'qnashuvlar) qurolli nizolar deb sanaladi, bunda urush holati e'lon qilinmaydi.

Qurolli nizolar kelib chiqqan va O'zbekiston Respublikasi bu nizolarga tortilgan taqdirda Qurolli Kuchlar darhol ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'radilar.

QUROL RAQAMI – artilleriya quroli raschyoti tarkibiga kiruvchi, qurolga xizmat ko'rsatish, o't ochishga tayyorlash va olovni yuritish borasida muayyan majburiyatni ado etuvchi harbiy xizmatchi (askar, matros). Zamonaviy artilleriyada to'p raschyotining quyidagi raqamlari mavjud:

- birinchi – mo‘ljallovchi;
- ikkinchi – zatvorni ochib-yopuvchi (qulfchi);
- uchinchi – o‘qlovchi;
- to‘rtinchi – o‘rnatmalar o‘rnatuvchi;
- beshinchi va oltinchi – snaryad tayyorlovchilar;
- yettinchi – o‘qlovchi yordamchisi;
- sakkizinchi – snaryad keltiruvchi.

QURUQLIKDAGI QO‘SHINLAR – jangovar harakatlarni asosan quruqlikda bajarish uchun mo‘ljallangan qurolli kuchlar turi. Son jihatdan eng ko‘p, qurol-aslahasi va harakat usullari xilma-xil bo‘lgan qurolli kuchlar turi. Tashkiliy jihatdan bo‘linma, qism, qo‘shilma va birlashmalardan iborat. Quruqlikdagi qo‘shinlar tarkibiga:

- raketa qo‘shinlari;
- artilleriya;
- motoo‘qchi qo‘shinlar;
- tank qo‘shinlari;
- quruqlikdagi qo‘shinlarning havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari;
- maxsus qo‘shinlar;
- qurolli kuchlar front orti ta‘minotining turli xizmat, qism va muassasalari kiradi.

QURSHOV – dushman guruhini kelgusida qirib tashlash yoki asirga olish uchun qolgan qo‘shinlaridan ajratib yakka-latish. Qurshovga olinayotgan qo‘shin tarkibi, qurshovga olayotgan armiyaning kuch va vositalariga ko‘ra qurshov:

- operativ yoki taktik miqyosda;
- bir yoki bir necha armiyalar yoxud frontlar kuchi bilan amalga oshiriladi.

Ichki va faol harakatlanayotgan tashqi frontlarning, dushmanni havoda siquvga olinishi bilan bir vaqtdagi uzviy hamkorligi – qurshovga olish tadbirlarining muvaffaqiyatli o‘tkazilishiga shubhasiz omil bo‘ladi.

Yadro qurolli qo‘llanilganida dushman guruhini qurshovga olish amali hujum davomida bajarilib, qurshov maqsadiga – dushman chekinadigan asosiy yo‘llar qo‘lga kiritilishi bilan erishiladi. Qurshovga olish amali o‘tkazilayotgan operatsiyaning yakuniy maqsadiga erishish yo‘lida – oraliq zveno sifatida xizmat qiladi.

1942-1945-yillar davomida o‘tkazilgan bunday operatsiyalarning yaqqol tarixiy misollari: Stalingrad bo‘sag‘alaridagi jang, Korsun-

Shevchenko operatsiyasi, Yassi-Kishinyov operatsiyasi, Minsk operatsiyasi, Sharqiy Prussiya operatsiyasi, Berlin operatsiyasi.

QURSHOV GURUHI – qo‘riqlanayotgan hududga (obyektga) begona shaxslarning kirib kelishi yoki u yerdagi shaxslarning chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun tayinlanadigan harbiy xizmatchilar guruhi (komanda yoki bo‘linmasi). Qurshov guruhi:

- qurolning har qanday rusumidan amaliy o‘t ochish mashg‘uloti o‘tkazilayotganida;

- jangovar o‘t ochish, bomba uloqtirish va raketalar uchirish bosqichi bilan o‘tkaziladigan taktik mashqlar davomida;

- portlatish ishlari amalga oshirilayotganida;

- dala aerodromida aviatsiya parvozi tashkil etilganida tayinlanadi.

Shuningdek, qurshov guruhi o‘ta xavfli jinoyatchi va davlat chegarasi buzg‘unchisini qo‘lga olish mobaynida tayinlanishi mumkin

Qurshov guruhi obyektga olib boradigan yo‘llar yoki qurshab olingan obyektga (hududga) keltiruvchi yo‘llar yaqqol ko‘rinib turadigan joylarda postlar o‘rnatib, ushbu postlarning har biriga ikki nafardan kam bo‘lmagan harbiy xizmatchilar tayinlangan tarzda xizmat o‘taydi.

QURUQ PAYOK – harbiy xizmatchilarni issiq taom bilan ta‘minlash imkoni bo‘lmagan hollarda, iste‘mol qilish uchun shaxsiy tarkibga beriladigan oziq-ovqat mahsulotlarining to‘plami. Quruq payok tarkibiga qo‘shimcha issiq ishlov bermay iste‘mol qilishga yaroqli va uzoq vaqt saqlasa bo‘ladigan (misol uchun, konserva, qotgan non va konsentrantlar, muayyan miqdorda shakar, yog‘ kabi) mahsulotlar kiritiladi.

QO‘LLANMA – shaxsiy tarkib ta‘limoti va jangovar harakatlarini tashkil etish, tayyorlash, yuritish va ta‘minlash, qurol-aslaha va harbiy texnikani jangovar qo‘llash tartiblarini belgilab beruvchi nizomli hujjat. Qo‘llanma talablarning ijrosi – majburiydir.

QO‘L PULEMYOTI – avtomatik o‘qli qurol. Qo‘ndog‘ini yelkaga, ayrisini yerga tirab o‘t ochish uchun mo‘ljallangan. Qo‘l pulemyoti raschyoti ikki kishidan – mo‘ljallovcchi va mo‘ljallovcining yordamchisidan iborat.

Porox gazlarining stvol devorida mavjud yon teshiklar orqali chiqarish tamoyiliga ega qo‘l pulemyotlari keng tarqalgan.

QO‘MONDON – davlat qurolli kuchlaridagi mansabdor shaxs bo‘lib, okrug qo‘shinlari, birlashma, qurolli kuchlar yoki qo‘shin turini boshqaradi. Qo‘mondon zimmasiga bo‘ysunuvchi qo‘shinning (kuchning) jangovar shayligi, shaxsiy tarkib tarbiyasi va harbiy intizomi, qo‘shin va

shtablarning operativ, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligi tashkillanishi uchun mas'uliyat yuklatilgan.

Qo'mondon huquqi va majburiyatlari maxsus qaror, nizom va qo'llanmalarda belgilab beriladi.

QO'MONDONLIK PUNKTI – boshqaruvning zaruriy vositalari bilan jihozlangan joy.

Komandir mazkur joyda turib, bo'ysunuvchi bo'linmalar harakatlari va qurol qo'llanishini boshqaradi, shu jumladan, yuqori pog'onadagi komandir, birgalikda harakatlanayotgan boshqa qism va bo'linmalar bilan aloqa tutib turadi.

Zamonaviy armiyalarning barcha qism, qo'shilma va birlashmalarida tashkil etiladi. Qo'mondonlik punktlari ko'chma va ko'chmas bo'lishi mumkin.

– *ko'chma qo'mondonlik punktlari* – samolyot va vertolyotlarda, qo'mondonlik-shtab mashinasida va temiryo'l vagonlarida;

– *ko'chmas qo'mondonlik punktlari* – maxsus jihozlangan, ta'minlangan, odatda ishonchli himoyalangan va niqoblangan yer ostidagi inshootlarda joylashtiriladi.

Qo'mondonlik punktida komandir (qo'mondon) bilan birgalikda o'rinbosarlari, shtabning asosiy tarkibi, boshqarmalari bilan birgalikdagi qo'shin va xizmat boshliqlari bo'ladi. Ular boshqaruvning asosiy elementi, ya'ni qo'mondonlik punkti boshqaruv guruhi yoki boshqaruv guruhini tashkil etadi. Qo'shinni qayta guruhlash, yoyish yoki jangovar harakati mobaynida boshqarish uchun qo'mondonlik punkti tarkibidan qo'mondonlik punktning elementi sanaladigan – oldingi marraning boshqaruv punkti yoki havodagi boshqaruv punkti ajratiladi.

QO'PORUVCHILIK – 1) dushman ortidagi harbiy, sanoat va shu kabi obyektlarga zarar yetkazish, qo'shinlar boshqaruvini izdan chiqarish, aloqa yo'llari, tarmoqlari va majmualarini vayron qilish, jonli kuch va harbiy texnikani yo'q qilish, dushmanning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatish borasida ayrim guruh (bo'linma) yoki alohida shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar; 2) bir davlat razvedkasining ikkinchi davlat hududida tinchlik davrida yuritadigan buzg'unchilik faoliyati usullaridan biri; 3) "Mafkuraviy qo'poruvchilik" atamasi ham bugungi kun hayotida o'rin egallagan bo'lib, ushbu tushuncha ostida muayyan jaholatparast siyosiy maqsadga erishish uchun dushman kuchlari, razvedka va maxsus xizmatlari tomonidan amalga oshiriladigan buzg'unchilik, ig'vogarlik va shu ruhda boshqa g'alamis harakatlar nazarda tutiladi.

QO'RIQLOV POSTI – qo'riqlov zastavasi yoki joyda joylashgan bo'linmalardan ajratilib qo'yiladigan, odatda, seksiya (ekipaj) tarkibidan tashkil topgan qo'riqlov bo'linmasining organi.

QO'RIQCHILIK XIZMATI – qo'shinlarning jangovar harakatlarini ta'minlash uchun tashkil etiladigan tadbirlar majmui.

Jangning barcha turlari, olg'a ilgarilash va joyda turish mobaynida dushmanning daf'atan hujum uyushtirishi va razvedka bo'linmalarining asosiy kuchlarimiz tomon singib borishiga yo'l qo'ymaslik, jangga uyushgan tarzda kirishish uchun qo'shinlarimizga qulay sharoit yaratish maqsadida tashkil etiladi. Qo'riqchilik xizmati quyidagilarga bo'linadi:

- jangovar qo'riqchilik;
- yurish mobaynidagi qo'riqchilik;
- qo'riqlovchi qo'riqchilik.

QO'RQOQLIK – ayrim odamlar ruhiyatiga mansub xislat. Qo'rqqo odamda hayot uchun haqqoniy tahdid yoki xayoliy xavf mavjudligida, shaxsiy xavfsizlik hissiyoti har qanday boshqa hissiyotlarni yengib, bajarayotgan xatti-harakatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Odatda, bunday odam qo'rquvni yengish uchun yetarlicha ruhiy kuch va irodaga ega bo'lmay, shaxsiy xavfsizlik hissiyotidan kelib chiqqan holda axloqqa zid pastkashliklarga yo'l qo'yishi, jamoasi va sinfiga mansub g'oyalardan tez tonib yuborishi mumkin. Qo'rqqoqlik xislati xavfli daqiqada o'z postini tashlashi, jang maydonidan chiqib ketishi, majburiyatini pisand qilmasligi va vujudga kelgan vaziyatga kurashmay bo'yin egishi mumkin bo'lgan odamda ustuvor bo'lib, xoin, sotqin va dezertir tabiatiga mosdir. Qo'rqqoqlik xislati odam xatti-harakatiga oddiy sharoitda ham, g'ayrioddiy sharoitda ham ta'sir ko'rsatadi. Qo'rqqoqlikni maxsus mashg'ulotlar o'tkazish, mashq qilish, iroda kuchini chiniqtirish yo'li bilan yengish mumkin.

QO'SHILMA – tarkibiga bir necha harbiy qism yoki tarkibi oz qo'shilmalar kiradigan harbiy tuzilma.

Bajaradigan vazifasi va tarkibiga ko'ra: umumqo'shin qo'shilma; tank qo'shilmasi; artilleriya qo'shilmasi; aviatsiya qo'shilmasi kabi qo'shilma turlari hamda jangovar imkoniyatlari va bajaradigan vazifasining miqyosiga ko'ra: taktik qo'shilma va operativ-taktik qo'shilmalarga bo'linishi mumkin.

QO'SHIN TURI – tarkibida harbiy qismlar, faqat o'ziga xos qurol-yarog', jangovar texnika va ularni jangovar jihatdan qo'llash usullariga ega – qurolli kuchlar turining tarkibiy qismi.

XX asrga qadar qo'shinlarning faqat 3 turi: piyodalar, otliqlar va artilleriya bo'lgan. XX asrda yangi qurol-yarog' va harbiy texnika rusumlari yaratilgach qo'shinlarning yangi turlari vujudga kela boshladi, otliq qo'shinlar esa o'z ahamiyatini yo'qota bordi. Bugungi kunda aksariyat davlatlar qurolli kuchlarida quyidagi qo'shin turlari mavjud:

– *quruqlikdagi qo'shinlarda* – motoo'qchi, tank, raketa, artilleriya va havo-desant qo'shinlari;

– *havo hujumidan mudofaa qo'shinlarida* – zenit-raketa qismlari, aviatsiya, radiotexnik qismlar.

– *harbiy-havo kuchlarida* – bombardimonchi, qiruvchi, razvedkachi va transport aviatsiyalari;

– *harbiy-dengiz floti tarkibida* – suvusti kemalari, suvosti kemalari, qirg'oq qismlari va dengiz piyodalari.

Qo'shin turiga, odatda, qo'mondon (boshliq) rahbarlik qiladi. Qo'shin turining jangovar faoliyatini ta'minlash uchun qurolli kuchlarning maxsus qismlari mavjud. Jang va operatsiyada qo'shin turlari uzviy hamkorlikda harakat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, har bir qo'shin turidan samarali.

QO'SHINLAR – qurolli kuchlarning bir qator turlariga mansub harbiy qism, qo'shilma va operativ birlashmalarning umumlashgan nomi (harbiy-havo kuchlari va harbiy-dengiz floti bundan mustasno). Rasmiy hujjatlar va adabiyotda qo'llaniladi. "Qo'shinlar" atamasi qurolli kuchlar turi, qo'shinlar turi va maxsus qo'shinlarni, shuningdek, operativ va mintaqaviy birlashmalar kuchi va vositalarini umumiy nomlashda qo'llaniladi.

QO'SHINLAR ARTILLERIYASI (xorijiy armiyalarda "Dala artilleriyasi" deb ataladi) – umumqo'shin bo'linma, qism va qo'shilmalar tarkibiga kirgan artilleriya, motoo'qchi va tank qo'shinlarining jangovar harakatlariga muntazam madad berish uchun mo'ljallangan.

Qo'shinlar artilleriyasi batalyon, polk, divizion, korpus, armiya artilleriyasiga bo'linadi. Aslahalari tarkibiga to'p (gaubitsa), zambarak, zambarak-to'p, to'p-zambarak va minomyotlar, shuningdek, reaktiv artilleriyaning jangovar mashinalari hamda tankka qarshi boshqariluvchi raketalar qurilmalari kiradi.

QO'SHIN (KUCH)LARNI BOSHQARISH – qo'mondon (komandir, boshliq)lar, shtablar va boshqa boshqaruv organlarining qo'shin (kuch)larni jangovar shay holatda ushlash, operatsiya (jangovar harakat)larni tayyorlash, qo'shin (kuch)lar tomonidan ularga qo'yilgan topshiriqlarning bajarilishini tashkil qilish va ularga operatsiya (jangovar

harakat)lar davomida rahbarlik qilishdan iborat maqsadga yo'naltirilgan faoliyat. Boshqaruv vaziyatni tahlil qilish va baholash uchun uzluksiz ravishda ma'lumotlar topish, yig'ish, o'rganish va aks ettirishni; qaror qabul qilish, uni bo'ysunuvchilarga yetkazishni; operatsiya (jangovar harakat)larni rejalashtirishni; hamkorlikdagi harakatlarni tashkil qilish va qo'llab quvvatlashni; operatsiya (jangovar harakat)larda qo'shin (kuch)larni har tomonlama ta'minlash bo'yicha tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishni; boshqaruv tizimining barqaror ishlashini tashkil qilishni va ta'minlashni; qo'shinlar tomonidan jangovar vazifani bajarishlari mobaynida ularning harakatlarini boshqarishni, bo'ysunuvchi boshqaruv organlarni tayyorlashga rahbarlikni; nazoratni tashkil qilish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

QO'SHINLAR GURUHI – qurolli kuchlarning vaqtinchalik operativ-strategik, operativ yoki operativ-taktik birlashmasi.

Harbiy harakatlar jarayonida jangovar vazifalarni strategik mudofaa yuritish sharoitida bajarish uchun tashkil etiladi. Shuningdek, qo'shinlar guruhi, urushda yengilgan davlatlar hududlarida istilo qilish rejimini amalga tatbiq etish uchun ham tuzilishi mumkin. Tinchlik davrida qo'shinlar guruhi ittifoqdosh davlatlar hududlarida ittifoqchilik majburiyatlarini bajarish uchun tashkil etilishi mumkin. Qo'shinlar guruhini bosh qo'mondonlar ularga bo'ysunuvchi shtablar bilan birgalikda boshqaradilar.

Tinchlik davrida mavjud qo'shinlar guruhi urush boshlanishi bilan tegishli operativ va operativ-strategik birlashmalarga aylantirishlari mumkin.

QO'SHINLAR JAMLANISHI – harbiy qism va qo'shilmalarning tayinlangan hududda navbatdagi harakatlarni bajarish uchun joylashishi. Qo'shinning qo'zg'alishi, aviatsiya va flot kuchlari o'z bazasini almashtirishi, qo'shinlarni qayta guruhlash va belgilangan hududga joylashtirish yo'llari bilan amalga oshiriladi. Qo'shinlar jamlanishi miqyosiga ko'ra:

- strategik;
- operativ;
- taktik ko'rinishlarga ega.

QO'SHINLAR JOYLASHUVI – tinchlik davrida quruqlikdagi qo'shinlarni maxsus harbiy shaharcha, lager va shu kabi joylarga joylashtirish, aviatsiyani aerodromlarda, harbiy-dengiz floti kemalarini port va harbiy dengiz bazalariga taqsimlash.

Urush davrida qo'shinlar joylashuvi atamasi, odatda, mamlakat ichkarisida joylashgan va harakatdagi armiyalar tarkibiga kirmaydigan harbiy qismlarga nisbatan qo'llaniladi.

Qo'shinlar joylashuvini belgilash mobaynida mamlakatni mudofaa etish borasidagi vazifalar, ularni jangovar shaylikning yuqori darajalariga tez keltirish nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda ish ko'riladi.

QO'SHINLAR KO'RIGI – harbiy qism va ushbu qismdagi ishlar holatini o'rganib chiqish, jangovar shaylik darajasini oshirish maqsadida katta boshliq tomonidan o'tkaziladigan nazorat (tekshiruv) shakli. Qo'shinlarni tekshirish jarayonida va qo'shinlar mashqi (manyovri) yakunlanganidan so'ng saf ko'riklari o'tkazilishi nazarda tutiladi.

QO'SHINLAR KO'CHISHI – qo'shinlarning bir hududdan boshqa hududga piyoda (marshda), temiryo'l, havo, dengiz, daryo transportida yoki qurama usulda ko'chib o'tishi. Qo'shinlar ko'chishining usuli qo'shinlar soni, mavjud transport, ko'chib o'tish masofasi kabi shart-sharoitga bog'liq holda tanlanadi.

Qo'shinlar ko'chishi oldiga yangi hududga pinhona yetib borish va jangovar vazifani bajarish uchun qo'shinlarning doimiy shayligini ta'minlash talabi qo'yiladi.

QO'SHINLAR MASHQI – Qo'shinlar dala, dengiz, havo ta'limotining eng oliy va samarali shakli. Qo'shinlarning dala, dengiz, havo mashqlari:

- *miqyosiga ko'ra* – strategik, operativ va taktik;
- *maqsadli vazifasiga ko'ra* – oddiy, nazorat-sinov, namunali, maxsus, tadqiqot va tajribaga oid;
- *qurolli kuchlar, qo'shin va xizmatlar turiga oid*;
- *tahsil ko'rayotganlar tarkibi, tomonlar soniga ko'ra* – bir tomonlama, ikki tomonlama o'tkaziladigan mashqlarga bo'linadi.

Qurolli kuchlarning barcha turlari, qo'shin turlari va maxsus qo'shinlar bilan o'tkaziladigan dala, dengiz, havo mashqlari Mudofaa vazirining buyruqlari, amaldagi nizom va qo'llanmalar talablari asosida tashkil etilib, qo'shinlar jangovar shayligini oshirishning muhim vositasi sanaladi.

QO'SHINLAR RAZVEDKASI – taktik razvedka turi.

Asosiy usullari – kuzatuv, qidiruv, yopirilish, pistirma va jang bilan yuritiladigan razvedka.

Qo'shinlar razvedkasini yuritish uchun kuzatuv postlari, qidiruv, yopirilish, jang bilan yuritiladigan razvedka va pistirma uyushtirish uchun

bo'linmalar (guruhlar) yoki dozor bo'linmalar yoxud dushman ortida harakatlanish uchun mo'ljallangan otryad va guruhlar tashkil etiladi.

QO'SHINLAR TA'MINOTI – qo'shinlarning moddiy vositalarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va maishiy xizmat ko'rsatish borasidagi tadbirlar tizimi.

QO'SHINLAR XIZMATI – harbiy qism (muassasa) va garnizonlarning jangovar shayligi saqlab turilishini, ularda ichki tartib saqlanishini, harbiy xizmat xavfsizligi, harbiy intizom hamda qonunlar, umumqo'shin nizomlar, buyruq, direktiva va qo'llanmalar orqali belgilangan me'yorlarga amal qilinishini ta'minlaydigan kundalik harbiy xizmatdir.

Qo'shinlar xizmati o'z ichiga ichki, qorovul va garnizon xizmatlarini, harbiy taomillarga amal qilinishini, harbiy qismlarning Jangovar Bayroqlari saqlanishi, davlat mukofotlari va faxriy nomlarining hisobi yuritilishini mujassam etadi.

QO'SHINLARNI JANGOVAR TOPSHIRIQNI BAJARISHGA TAYYORLASH – qo'shinlarning jangovar harakatlarni kechikmay bajarishga shayligini ta'minlovchi tadbirlar majmui. Operatsiyani (jangni) tayyorlash tadbirining bir qismi. Mazmunan:

- shaxsiy tarkib, qurol-yarog' va texnika bilan butlash;
- moddiy vositalar zaxirasini belgilangan me'yorlarga qadar to'latish;
- qurol-yarog' va texnikani jangovar harakatlarga tayyorlash;
- jangovar vazifalarni shaxsiy tarkibga yetkazish kabi tadbirlar o'tkazishdan iborat.

QO'SHINLARNI OPERATIV JIHATDAN JOYLASHTIRISH – urush maydoni, strategik va operativ yo'nalishlarda operativ qo'shinlar (kuchlar) turkumini tashkil etish. Qo'shinlarni (kuchlarni) operativ jihatdan yoyish mobaynida amalga oshiriladigan tadbirlar:

- qo'shinlarning guruhlarga qayta bo'linib, hujum uchun dastlabki hududlarni yoki mudofaa chegaralari, start va o't ochish marraalarini egallashi;

- aviatsiya bazalarini o'zgartirish;
- boshqaruv va aloqa tizimlarini tashkil etish;
- ta'minotning barcha turlarini tashkil etish va h.k.

Qo'shinlarni (kuchlarni) operativ jihatdan yoyish amallari vaziyatga bog'liq holda bir vaqtda yoki ketma-ket bajarilishi mumkin.

QO'SHINLARNING MAXSUS HARAKATLARI – suveren davlatning chegaraga yaqin tumanlarida yoki ichki hududida umumiy

siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish yoki ichki qurolli nizoni keltirib chiqarish maqsadida harakat qilayotgan terrorchi tashkilotlarning qurolli tuzilmalarini tor-mor qilish maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu harakatlar qurolli tuzilmalarning terrorchi, qo'poruvchi va jangovar guruhlarini bartaraf etish (qo'lga olish, yo'q qilish) hamda mazkur tuzilmalarning yashirin joylashgan tayanch bazalari, omborlari (saqlash joylari) va boshqaruv punktlarini aniqlash va yakson qilishdan iborat.

QO'SHINLARNING TASHKILIY TUZILISHI – harbiy qismlarning samarali tarkibi, jangovar shayligining yuqori darajasi, jangovar faoliyatni muvaffaqiyatli yuritish qobiliyati hamda qo'shin turi va qurol rusumi maqsadga muvofiq tarzda uyg'unlashishi va nisbatini ta'minlovchi tashkiliy tuzilishi. Jahon mamlakatlarining o'z qurolli kuchlarini qurish amaliyotida qo'shinlarning tashkiliy tuzilishi quyidagi shakllarga ega bo'lib kelmoqda:

– *quruqlikdagi qo'shinlarda* – bo'linma, guruh, vzvod, rota, batareya, batalyon, divizion, polk, brigada, diviziya, korpus, armiya;

– *harbiy-havo kuchlarida* – aviatsiya zvenosi, eskadrilya, polk, diviziya, korpus, havo armiyasi;

– *harbiy-dengiz flotida* – kema, kemalar divizioni, kemalar brigadasi, eskadra, flotiliya, flot.

Batalyon, batalyonga tenglashtirilgan va undan yuqori pog'onalarga mansub zamonaviy harbiy tuzilmalar, odatda, shtab, jangovar bo'linmalar, qism va qo'shimmalar, ta'minot va xizmat ko'rsatuvchi qismlardan tashkil topgan.

Tuzilayotgan har bir qo'shilma, harbiy qism va bo'linmaga raqamlardan iborat shartli nom va tegishli qo'shin turiga muvofiq haqiqiy yoki maxfiy nom beriladi.

QO'SHINLARNI QAYTA JOYLASHTIRISH – mazkur atama:

– *tinchlik davrida* – harbiy qism va muassasalar yoki harbiy ta'lim muassasalari joylashgan joylarni o'zgartirish, ko'chirib o'tish ma'nosini anglatadi;

– *urush davrida* – harakatdagi qo'shinlar tarkibiga kirmagan qo'shin va muassasalarga nisbatan qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi qo'shinlarini qayta joylashtirish tartibi – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Birlashgan shtabi tomonidan belgilanadi.

QO'SHINNI JANGOVAR SHAY HOLATGA KELTIRISH – qo'shinning harbiy harakatlarni belgilangan muddatda boshlay olish

qobiliyatini ta'minlovchi, shaxsiy tarkib va harbiy texnika tayyorgarligiga yo'naltirilgan tadbirlar majmui.

QO'SHINNING OPERATSIYADA BAJARADIGAN HARAKAT USULLARINI REJALASHTIRISH – operatsiyani rejalashtirish amallarining tarkibiy qismi bo'lib, bajariladigan vazifalar mazmuni, qo'shinlar turi, qo'shilmalar, harbiy qismlar, qo'shimcha va madad uchun berilgan kuch va vositalarni operatsiyada uyg'unlashtirib qo'llash usullarini, ushbu kuch va vositalarni harakat yo'nalishlari, hududlari bo'yicha taqsimlash, hamkorlikni tashkil etish, har tomonlama ta'minot va boshqaruv amallarini barcha tafsilotlari bilan ishlab chiqishdan iborat.

QO'SHINNI HAVO HUJUMIDAN MUDOFAA QILISH – havodagi dushman hujumini qaytarish, qo'shinimiz guruhleri va front ortidagi obyektlarimizni havodan beriladigan zarbalardan himoya qilish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar majmui va jangovar harakatlar. Qo'shinni havo hujumidan mudofaa qilish amallari jangning barcha turlarida, ko'chib o'tish va joyda turish mobaynida tashkil etilib, quruqlikdagi qo'shnlarning havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va front aviatsiyasi tomonidan mamlakat havo hujumidan mudofaa qo'shinlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi va havodagi hukmronlikni qo'lga kiritish va tutib turishga ko'mak beradi. Qo'shinlarni havo hujumidan mudofaa etuvchi kuch va vositalar:

- dushmanning havodan hujum qilish vositalarini daf etadi;
- dushmanning havo desanti va aeromobil qo'shinlariga qarshi kurash olib boradi;
- dushmanga havo razvedkasini yuritishga to'sqinlik qiladi.

Qo'shinlarni havo hujumidan mudofaa etish tadbirlari quyidagilardan iboratdir:

- havodagi dushmanni razvedka qilish, u haqda qo'shinlarimizga xabar berish;
- zenit-raketa qismlari, zenit artilleriya va qiruvchi aviatsiyaning jangovar faoliyati;
- motoo'qchi, tankchi bo'linmaning zenit vositalari va o'qli qurol olovini tashkil etilgan tarzda yuritish.

R

RADAR (ingliz. *radar – radio defecting and ranging* so'zlaridan) – radioto'lqinlar yordamida obyektni aniqlash va ungacha masofani o'lchash

– radiolokatsion stansiyalarni anglatadigan qurilma.

RADIATSIYA (lot. *radiatio* – nurlanish) – yadroviy o‘zgarishlar oqibatida vujudga keladigan elektr magnit va korpuskulyar nurlanishlar, Quyosh nurlanishi, kosmik nurlar oqimlari. Radiatsiyaning tirik organizmiga ta’siri radiatsiya dozasi bilan belgilanadi. Rentgen (R) bilan o‘lchanadi. Radiatsiya miqdori singuvchi radiatsiya va boshqa nurlanishlarning shikastlovchi ta’siriga bog‘liq. Bir kunda 20 r gacha radiatsiya kishi organizmi uchun xavfsiz, bundan ortiq miqdordagi radiatsiya xavfli sanaladi.

RADIATSIYA DARAJASI – ionli nurlanish dozasining vaqt birligi hisobidagi quvvati. Joy va turli buyumlarning, shu jumladan, insonning radioaktiv zararlanganlik darajasini tavsiflaydi. Radiatsiya darajasi doza quvvatini o‘lchovchi asbob yordamida aniqlanadi. O‘lchov birligi – soatiga rentgen.

RADIATSIYALI VAZIYAT – yadroviy va neytron qurollar qo‘llanilishi natijasida vujudga keladigan sharoit. Joy, havo bo‘shlig‘i va obyektlarning qo‘shinlar harakati va jangovar qobiliyati, aholining hayotiy faoliyati hamda sanoat obyektlarining ishiga ta’sir ko‘rsatuvchi radioaktiv zaharlanish miqyosi va darajasi bilan belgilanadi. Radiatsiyali vaziyat yadroviy portlashlar soni, markazlar holati, quvvati, turi, vaqti, meteorologik sharoit va joyning himoya etuvchi xususiyatlariga bog‘liq.

RADIATSIYALI (RADIOAKTIV) NURLANISH – ionlashtirilgan nurlanishning turli obyektlarga ta’siri. Radiatsiyali nurlanish manbalari yadroviy portlash, yadroviy reaktor kabilar bo‘lishi mumkin. Inson organizmi radiatsion jihatdan tashqi, ichki va kontaktli nurlanishi mumkin.

– *Tashqi nurlanish* – yadroviy portlashning singuvchi radiatsiyasi bilan yalpi organizmga ta’sir o‘tkazadi.

– *Ichki radiatsiyali nurlanish* – radioaktiv mahsulotlarning inson organizmi ichiga nafas olish orqali, zaharlangan oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish va yaralar orqali singib kirishi natijasida vujudga keladi.

– *Kontaktli radiatsiya nurlanishi* – tananing kiyim bilan himoyalangan qismlari nurlanishi mobaynida vujudga keladi.

Radiatsiyali nurlanish, organizmdagi moddalarning me’yoriy almashinuvi va hujayralarning hayotiy faoliyatini izdan chiqarib, oqibatda nurlanish kasalligini vujudga keltiradi.

RADIATSIYALI XAVFSIZLIK – ionlashtiruvchi nurlanishga yo‘l qo‘ymaslik yoki ta’sirini maksimal sustlashtirishga yo‘naltirilgan tadbirlar majmui.

Nurlanishning dozali chegaralari radiatsiyali xavfsizlikning amaldagi me'yorlari bilan tartibga solinadi. Radiatsiyali xavfsizlik borasidagi tadbirlar radioaktiv (ochiq yoki yopiq turdagi) va radioaktiv bo'lmagan turdagi nurlanish shakliga bog'liq. Radiatsiyali xavfsizlik me'yorlarga rioya etilayotganligini nazorat qilish maqsadida radiatsiyali nazorat amali bajariladi. Ionli nurlanish manbayi bilan ish olib boruvchi shaxslar uchun nurlanish dozasining so'nggi yo'l qo'yiladigan chegaralari bir yilga 5 bor, ish olib bormaydigan shaxslar uchun 10 karra kam doza belgilangan. Radiatsiyali xavfsizlik me'yorlarining ma'lumotlariga muntazam aniqlik kiritilib, takomillashtirilib boriladi.

RADIATSIYALI HIMOYA – nurlanishning odamlar, moddiy vositalar va joyga ta'sirining oldini olish va sustlashtirish uchun qo'shinlar va aholi orasida o'tkaziladigan tadbirlar tizimi. Turli vosita va dezaktivatsiya mashinalaridan foydalaniladi. Radiatsiyali himoyaning asosiy maqsadi – biosferaning radioaktiv moddalar bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, odam va hayvonlar organizmini zararli nurlanishlardan asrashdir.

RADIOAKTIVLIK (Radioaktiv faollik) – yadroviy nurlanishning ufurishi bilan kuzatiladigan noturg'un atom yadrolarining beixtiyor boshqa elementlar yadrolariga aylanib ketishi. Harbiy sohada "Radioaktivlik" tushunchasi singuvchi radiatsiya va radioaktiv zaharlanishning qo'shinlar harakatiga o'tkazadigan ta'sirini hisobga olish zarurati bilan bog'liq.

RADIOAKTIVLIK INDIKATORI (Radioaktiv faollik indikatori) – joyning radioaktiv jihatidan zararlanganligini fosh etish va ionlovchi nurlanish dozasini taxminan aniqlash uchun mo'ljallangan dozimetrik asbob.

Ko'chmas va ko'chma turlarga bo'linadi. Mazkur indikatorlar bilan kimyo va radiatsion razvedka bo'linmalari, razvedka dozorlari, kuzatuv postlari hamda barcha qo'shin turlaridagi kuzatuvchilar, shuningdek, Favqulodda vaziyatlar vazirligining tegishli bo'linmalari ta'minlanadi.

RADIOALOQA – ikki yoki bir necha punktlar yoki harakatlanayotgan obyektlar: kosmik kema, samolyot, jangovar mashina, kema kabilar orasida radioto'lqinlar vositasida amalga oshiriladigan elektr aloqa. Axborot radiouzatkich (uzilayotgan informatsiyani radiosignalga aylantiradigan qurilma) va uzatuvchi antenna (radiosignalni fazoga tarqatadigan qurilma) yordamida uzatiladi. Radiosignallar esa qabul qilish antenasi (radiosignalni tutuvchi) va radioqabulqilgich (signalni kuchaytiruvchi va uni dastlabki signalga mos signalga aylantirib beruvchi

qurilma) yordamida qabul qilinadi.

Ilk marotaba A. S. Popov 1895-yil 7-mayda ishlatib ko'rsatgan. Radioaloqa majmualaridan telefon (nutq) axboroti, telegrammalar, faksimil, raqamli ma'lumotlar, radioeshittirish va televideniya dasturlarini uzatishda ham foydalaniladi.

RADIOLOKATSIYA – obyekt (nishopni) radiotexnik usullar bilan sirtidan aks etib qaytayotgan radioto'lqinlar yordamida fosh etish, kuzatish, koordinatalari va kimga tegishligini aniqlash bilan shug'ullanadigan fan va texnika sohasi. Radiolokatsiya ma'lumotlar olinishida qo'llaniladigan usullarga bog'liq holda:

- faol (passiv yoki faol javob bilan birgalikda) radiolokatsiya;
- yarim faol radiolokatsiya;
- passiv radiolokatsiya turlariga bo'linadi.

Harbiy soha, dengiz, havo va kosmik navigatsiya, astronomiya, meteorologiya kabi sohalarida keng qo'llaniladi.

Ilk stansiyalar 1936-1938-yillarda vujudga kelgan.

RADIOLOKATSIYA STANSIYASI (RLS) – turli obyektlarni (nishoplarni) radiolokatsiya usullari bilan fosh etish, kimga tegishli ekanligi va koordinatalarini aniqlash va ushbu obyektlar haqida boshqa ma'lumotlarga ega bo'lish uchun mo'ljallangan radiotexnik qurilma.

Radiolokatsiyali stansiyaning asosiy elementlari jumlasiga: antennalar tizimi, radiouzatkich, radioqabulqilgich, shovqinlardan himoya qilish apparatlari, chiqishdagi qurilmalar, radiolokatsiyali stansiya ishini boshqarish va signallarni qayta ishlash uchun EHM, elektr ozuqa manbalari kiradi. Radiolokatsiyali stansiya harakatining maksimal masofasi, asosan radiouzatkich quvvati, antenning o'lchamlari va o'rnatilgan balandligi, radioqabulqilgichning signalga sezgirliigi, ishchi to'lqin uzunligi va nishopning to'lqinni aks ettiruvchi samarali yuzasiga bog'liq holda belgilanadi.

Burchakli koordinatalarning aniqligi – koordinatalarni belgilash usuli va antenning yo'naltirilgan diagrammasi o'lchamlariga, nishopgacha belgilanayotgan masofa aniqligi esa – impuls davomiyligi, shakli va indikatsiyalash usuliga bog'liq. Stansiyaning imkoniyatlari, asosan, ikki ko'rsatkichga, jumladan, yo'naltirilgan diagrammaning eni va impulsining davomiyligi bilan belgilanadi. Radiolokatsiyali stansiyalar:

- lokatsiya usuliga ko'ra – faol, yarim faol, passiv;
- o'rnatilish joyiga ko'ra – quruqlik, kema, aviatsiya va sun'iy yo'ldoshlarda o'rnatiladigan;

– *nurlanishiga ko'ra* – impulsli va uzluksiz nur taratuvchi;
– *to'liq uzunligining ishchi diapazoniga ko'ra* – metrli, detsimetrli, santimetrli kabi diapazonlar;

– *vazifasiga ko'ra* – nishonni fosh etish, razvedka o'tkazish, qurolni boshqarish, parvozlarni ta'minlash, meteorologik va navigatsiyali ta'minot turlariga bo'linadi.

Radiolokatsiyali stansiyalar, shuningdek, raketaning o'z-o'zini yo'naltirish kallaklari va portlatkichlarda qo'llaniladi.

RADIOLOKATSIYALI MAYOQ – ma'lum joyga o'rnatilgan qabul qiluvchi-uzatuvchi radiostansiya. Samolyot (kema) bortiga o'rnatilgan radiolokatsiyali stansiya signallari ta'sirida ishlaydi va radio signallarni tarqatadi. Shu radiosignallarga ko'ra radiolokatsiyali mayoqqa tomon yo'nalish va ungacha bo'lgan masofa aniqlanadi.

RADIOMAYOQ – o'rnatilgan joyi ma'lum bo'lgan uzatuvchi radiostansiya, maxsus radiosignallarni tarqatadi.

Kema yoki samolyot bortida bu signallarni qabul qilib, radiomayoqqa bo'lgan yo'nalish pelengini aniqlash mumkin.

Radiomayoq radionavigatsiya qurilmasi sifatida ishlaydi yoki uning tizimiga kiradi. Yo'naltirilgan va yo'naltirilmagan radiomayoqlar bo'ladi. Yo'naltirilgan radiomayoq faqat ma'lum yo'nalishda (kurs, zona bo'yicha), yo'naltirilmagan radiomayoq xohlagan yo'nalishda pelenglanadi.

RADIOMETR – 1) radioaktiv manbalarning faolligiga ko'ra turli yuzalarning radioaktivlik jihatdan zararlanganlik darajasini o'lchash uchun mo'ljallangan asbob; 2) qizdirilgan jismlar ufurayotgan elektr magnit energiyani fosh etish va o'lchash uchun mo'ljallangan asbob; 3) radioteleskopning qabul qilish qurilmasi, antenna bilan birgalikda radiodiapozondagi astronomik obyektlarning nurlanishini o'rganishga imkon beradi; 4) optik diapazondagi elektr magnit nurlanish energiyasini uning issiqlik ta'siriga asoslanib, o'lchaydigan asbob; 5) tovushli nurlanish bosimini o'lchash uchun mo'ljallangan akustik asbob.

RADIOMETRIK RAZVEDKA – atmosfera, quruqlik va suvda mavjud radioaktiv elementlarning nurlanish jadalligi borasidagi ma'lumotlarni kamera, gazrazryadli hisoblagich kabi asboblardan yordamida izlab topish.

RADIONAVIGATSIYA – radiotexnika bo'limi. Samolyot va boshqa harakatlanuvchi obyektlarni boshqarishda radiotexnika usullari va vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Asosiy vazifasi – obyektning

to'g'ri kursini (yo'nalishini) tanlash va geografik koordinatalarini aniqlash. Radionavigatsiyada turli radionavigatsiyali qurilmalar (radiokompas, radio masofa o'lchagich, radiomayoq) hamda tizimlardan foydalaniladi.

RADIOPELENGATOR – uzatuvchi radiostansiya yo'nalishini aniqlashga (pelenglashga) imkon beradigan radioqabulqilgich qurilmasi. Radiopelengator pelenglanayotgan obyektдан tarqalayotgan radioto'lqinlarni qabul qiluvchi antenna-fiderli tizim va qabul qiluvchi indikatorдан iborat. Radiopelengatsiyada qo'llaniladi.

RADIOPORTLATKICH – nishon nurlanayotgan yoki nishondan aks etib qaytayotgan radioto'lqinlar energiyasining ta'siri ostida ishga tushuvchi kontaktsiz portlatkich. Artilleriya snaryadlari, bomba, raketa, mina va fugaslarda qo'llaniladi. Radioportlatkichlarning tuzilishi turli ko'rinishlarga ega.

RADIOSTANSIYA – ma'lumotlarni radioto'lqinlar orqali uzatish va qabul qilish uchun mo'ljallangan qurilmalar va apparatlar majmui. Radiostansiyada radiouzatkich, radioqabulqilgich, antennalar, tok manbayi va sovutish qurilmalari, kabel yoki havo yo'llari, boshqarish pultrlari kabi tarkibiy qismlar bo'ladi. Uzatuvchi, qabul qiluvchi va qabul qiluvchi-uzatuvchi radiostansiyalar bor. Qurolli Kuchlarning barcha turida, tinchlik va urush davrida qo'shin va qurolni boshqarish uchun qo'llaniladi. Flotda yoki harbiy-havo kuchlari va tank qo'shinlarida radiostansiya aloqa va boshqaruvning asosiy (ko'p hollarda yagona) vositasi sanaladi. Harbiy radiostansiyalar:

- vazifasi va qo'llanish sharoitiga ko'ra – *olib yuriluvchi, harakatchan, bortga o'rnatiladigan va ko'chmas*;

- aloqa o'rnatiladigan radioto'lqinlarga ko'ra – *o'ta uzun to'lqinli, uzun to'lqinli, o'rta to'lqinli, qisqa to'lqinli va ultra qisqa to'lqinli*;

- uzatiladigan signal turiga ko'ra – *telefonli, telefon-telegrafli, telegrafli*;

- quvvatiga ko'ra – *kichik quvvatli (100 vatt gacha), o'rta quvvatli (1 kilovattgacha), quvvatli (1 kilovattдан ortiq), o'ta quvvatli (1 megovattдан yuqori)* turlariga bo'linadi.

Radiostansiya ishining masofasi, asosan, chastotalar diapazoni, uzatkich quvvati, qo'llanilayotgan qabul qilish va uzatish antennalari va qabulqilgichining signalga sezgirligi bilan belgilanadi. Ilk harbiy radiostansiyalar A. Popov tomonidan 1898-1904-yillarda ishlab chiqilgan.

RADIOTELEFON ALOQASI – so'zlashuvchilarning telefon axborotini, nutqlarini kabelsiz radioto'lqinlar vositasida uzatiladigan elektr

aloqa. Axborot mikrofon orqali, undan esa odatdagidek, telefon orqali radiotelefon aloqa yo'llariga tushadi. Mikrofon va telefon radiostansiyalarga bevosita ulanadi yoki ularga telefon majmualari bilan bog'lanadi. Bir necha turlari mavjud:

- *shaxsiy radiotelefon* – uzatish uzoqligi 150 – 200 m gacha;
- *simsiz radiotelefon* – telefon apparatidan bir necha yuz metr masofa narida ishlashi mumkin;
- *radiouzeytirgichlar* – biri so'zlashuvchida, ikkinchisi avtomatik telefon stansiyasida bo'lgan ikkita qabul qiluvchi – uzatuvchi qurilmalar;
- *uyali telefon tarmoqlar* – bunda so'zlashuvchi uzatuvchi – qabul qiluvchi jamoa tarmog'i qamrab olgan barcha hudud bo'yicha aloqa qila oladi.

RADIOTEXNIK QO'SHINLAR – havodagi dushmani razvedka qilish va u haqidagi ma'lumotlar bilan boshqaruv punktlari, havo hujumidan mudofaa qo'shini qismlari va qurolli kuchlarning boshqa turlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan, radiolokatsiyali stansiyaning turli ruxumlari bilan ta'minlangan qo'shinlar.

Dushmani radiotexnik razvedka qilish, uning radiotexnik vositalariga xalaqit berish hamda qurol, jangovar texnika va uchuvchi apparatlarni boshqarish uchun mo'ljallangan. Tashkiliy jihatdan radiotexnik bo'linma va harbiy qismlardan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ham mavjud. Havo hujumidan mudofaa qo'shinarida qo'shin turi sanaladi. Radiotexnik qism va bo'linmalar qurolli kuchlarning boshqa turlarida ham mavjud bo'lib, radiotexnik razvedka yuritish, parvozlarni radiotexnik jihatdan ta'minlash, nishon ko'rsatish va turli jangovar vositalarni boshqarish uchun foydalaniladi.

RADIO XABARLARNI TUTISH – radioelektron vositalar, manbalar ishini tutish, dushman haqida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni nurlanayotgan to'lqinlarida qabul qilish va qayd etish, shuningdek, razvedka manbalarining texnik xususiyatlarini, kimga tegishli ekanligini aniqlashdan iborat amallar.

RADIOTO'LQINLAR – chastotasi 6000 gGs dan past to'lqin uzunligi λ 100 mkm dan katta bo'lgan elektr magnit to'lqinlar. Turli to'lqin uzunligidagi radioto'lqinlar. Yer atrofidagi fazoda tarqalish xususiyatlari, ularni generatsiyalash, kuchaytirish va nurlanish usullari bilan farq qiladi. Radioto'lqinlar:

- o'ta uzun ($\lambda > 10$ km);
- o'rta (1000 – 100 m);

- qisqa (100 – 10 m);
- ultraqisqa ($\lambda < m$) to‘lqinlarga, ultraqisqa to‘lqinlar bo‘lsa, o‘z navbatida:

- metrli;
- detsimetrli;
- santimetrli;
- millimetrli;
- submillimetrli to‘lqinlarga bo‘linadi.

RADIOTO‘LQIN O‘TKAZGICH – radioto‘lqinlarni yo‘naltirib tarqatuvchi kanal – ichi kovak, bo‘sh metall quvur yoki dielektrik o‘zak.

Kanal ichida radioto‘lqinlar uning ichki devorlariga urilib qaytishi va qaytgan to‘lqinlar interferensiyasi natijasida uzunasiga yo‘naladi. To‘lqinlar radioto‘lqin o‘tkazgichda faqat radioto‘lqin o‘tkazgichning ko‘ndalang kesim o‘lchamlari to‘lqin uzunligiga yaqin yoki undan katta bo‘lgandagina tarqaladi, bundan radioto‘lqin o‘tkazgichni, asosan, o‘ta yuqori chastotalar diapazonidagina ishlatishi mumkin degan xulosa kelib chiqadi.

Radioto‘lqin o‘tkazgich radiolokatsiyali va boshqa stansiyalarda energiyani uzatkichdan antennaga va antennadan radioqabulqilgichga uzatishga xizmat qiladi. Antennalar va boshqalarda nurlanuvchi elementlar sifatida ishlatiladi.

RADIOUZATKICH – antenna bilan birga radioaloqa, radioeshittirish tizimlari va boshqalarda radiosignallarni uzatishga xizmat qiladi. Asosiy elementlari:

- yuqori chastotali elektr tebranishlar generatori;
- uzatilayotgan ma‘lumotga muvofiq shu tebranishlar parametrlarini boshqaradigan modulyator.

RADIOLOGIK QUROL – ommaviy qirg‘in qurolining ehtimoliy turlaridan biri bo‘lib, insonni ionlovchi nurlar bilan jarohatlash, tevarakatrof va jangovar texnikani zaharlash uchun radioaktiv moddalardan foydalanishga asoslangan.

RADIOELEKTRON KURASH – dushmanning o‘z qo‘shinlari va qurol-yarog‘ini boshqarish vositalari va tizimlarini aniqlash, ularni radioelektron jihatdan bostirish, shuningdek, qo‘shinlarimiz va qurol-yarog‘imizni boshqarish vositalari va tizimlarini radioelektron jihatdan himoya etish, xorijiy texnik razvedka ta‘siriga qarshilik ko‘rsatish uchun maqsadi, bajariladigan vazifalari, o‘tkaziladigan joyi va vaqti bo‘yicha muvofiqlashtirilgan tadbirlar hamda qo‘shinlar harakatining majmui.

RADIOELEKTRON BOSTIRISH – dushmanning qo‘shinlarni va qurol-aslahani boshqarish tizimida tarqoqlikni vujudga keltirish maqsadida uning qo‘shinlarni, qurol-aslaha va razvedkani boshqarish vosita va tizimlariga radioelektron xalaqit berish, o‘zini yo‘naltiradigan va boshqariladigan talafot yetkazish vositalarini yashirin obyektlardan chalg‘itish, yolg‘on xabarlar tarqatish, shuningdek, elektrmagnit to‘lqinlarni tarqalish sharoiti va joyning radiolokatsiyali ko‘rinish xususiyatini o‘zgartirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

RADIOELEKTRON VAZIYAT (REV) – qo‘shinlar va qurol-yarog‘ boshqariluvining qo‘shinlarimiz va ehtimoliy dushman faoliyatini ta‘minlash manfaatlarida ishlab turgan radioelektron tizim va vositalar majmui.

Radioelektron vaziyat radioelektron vositalarning joylashtirilgan joyi, soni, qo‘llanilayotgan rusumi, ishchi diapazoni va rejimlari, imkoniyatlari, kimga tegishli ekanligi, elektr magnit jihatdan tushunilishining qiyin yoki osonligi va ushbu vositalar bir-birining ishiga xalaqit berish-bermasligi bilan tavsiflanadi.

Radioelektron vaziyat operativ vaziyatni kelgusida tahlil etish va baholash uchun xizmat qiladi.

RAZVEDKA AVIATSIYASI – havo razvedkasini yuritish uchun mo‘ljallangan jangovar aviatsiya turi. Tashkiliy jihatdan taktik, strategik va harbiy-dengiz floti aviatsiyasi tarkibiga kiruvchi, razvedka aviatsiyasining qism va alohida bo‘linmalaridan iborat.

RAZVEDKA GURUHI – dushman fronti ortida razvedka yuritish uchun yuboriladigan taktik razvedka organi.

Razvedka guruhi oldiga qo‘yiladigan asosiy vazifalar jumlasiga: dushman qo‘shini joylashgan hududdagi yadro quroli, aerodrom, boshqaruv punkti kabi muhim obyektlar va shikast yetkazuvchi oddiy vositalar joyini fosh etish amallari kiradi.

Razvedka guruhining odatdagi tarkibi – razvedka seksiyasidir. Razvedka guruhi dushman fronti ortiga vertolyot yoki mashinalarda tashlanadi yoxud piyoda yuboriladi.

Artilleriya va muhandislik razvedkasida mazkur razvedkalarining tegishli guruhlar mavjud.

RAZVEDKA DOZORI – dushman va joy haqida ma‘lumotlar izlab topish uchun mo‘ljallangan qo‘shinlar razvedkasining organi. Razvedka dozori:

– alohida razvedka dozori;

- jangovar razvedka dozori;
- ofitserlar tarkibidan tuzilgan razvedka dozoriga bo‘linadi.

RAZVEDKA OTRYADI – asosan, hujumda va to‘qnashma jang bo‘lishi kutilayotgan marsh mobaynida dushman va joy haqida ma‘lumotlar izlab topish uchun umumqo‘shin qo‘shilmalar (qismlar) tarkibidan tayinlanib, muhim yo‘nalish tomon yuboriladigan taktik razvedka organi.

Mudofaa mobaynida razvedka otryadi, odatda, dushman bilan to‘qnash kelmagan paytda yuboriladi. Razvedka otryadi, odatda, razvedka vzvodi, motoo‘qchi vzvod yoki artilleriya va tanklar bilan kuchaytirilgan batalyondan iborat.

RAZVEDKANING OPTIK-ELEKTRON VOSITALARI – obyektlarni fosh etish va kimga tegishli ekanligini aniqlash, zarur bo‘lsa, koordinatlarini belgilash maqsadida obyektning o‘zidan taralgan yoki obyektidan aks etib qaytgan optik va issiqlik nurlarini qabul qilish va qayta ishlash uchun mo‘ljallangan asboblardir. Razvedkaning optik-elektron vositalari jumlasiga:

- razvedkaning optik vositalari – binokl va teodolitlar, optik masofa o‘lchagichlar, artilleriyaning stereotrubalari, periskop va bussollar;
- tunda ko‘rish asboblari;
- infraqizil projektor va lazer vositalarini razvedka qilish uchun masofa o‘lchagichlar, teodolitlar uchun tungi qopqoqlar, lazerli masofa o‘lchagichlar, lazer bilan masofa o‘lchab-nishon ko‘rsatkichlar;
- issiqlik manbayini ko‘rsatuvchi vositalar – teplovizor va teplopelengatorlar;
- razvedkaning televizion vositalari kiradi.

RAZVEDKA MA‘LUMOTLARINI TEKSHIRISH – yuzaga kelgan vaziyat haqida mavjud muhim, ammo bir-biriga zid kelayotgan ma‘lumotlarni tekshirish, shuningdek, dushman holati, harakatlari va ko‘zlayotgan maqsadi borasida to‘la va ishonchli ma‘lumotlarni qo‘lga kiritish.

Razvedka ma‘lumotlari, asosan, ilgari hududlarda oldin razvedka qilingan obyektlar mavjudligini tasdiqlash yoki ularga zarba berishdan oldin koordinatalariga aniqlik kiritish maqsadlarida tekshiriladi.

Razvedka ma‘lumotlarini tekshirish uchun birinchi navbatda razvedkaning texnik kuch va vositalaridan foydalaniladi. Mazkur kuch va vositalar dushman obyektining unga zarba berilgunga qadar o‘z holatini o‘zgartirishga ulgurmaydigan muddatda, yetarlicha aniq ma‘lumotlarni

izlab topish va mavjud ma'lumotlarga aniqlik kiritish xususiyatiga ega.

RAZVEDKACHI – dushman haqida ma'lumotlarni izlash, o'rganib chiqish va umumlashtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs. Bajarayotgan vazifasining xususiyati va razvedka yuritishning usuliga ko'ra razvedkachi:

- qo'shin razvedkachisi;
- razvedkachi agentga bo'linadi.

RAKETA (ital. *rocchetta* – pirpirak) – maxsus raketa yonilg'isi yonganda paydo bo'ladigan kuch ta'sirida harakatlanadigan uchuvchi apparat. Raketa yonilg'isi turiga ko'ra, qattiq yonilg'ili va suyuq yonilg'ili xillarga bo'linadi. Boshqariladigan va boshqarilmaydigan xillari bor.

RAKETADAGI JANGOVAR KALLAK – raketaning bosh qismi bo'lib, unda:

- jangovar qism;
- portlatkich (portlatish tizimi);
- saqlagich-ijrochi mexanizm joylashadi.

Korpus va jangovar yadro zaryadidan iborat jangovar qismi, asosan, vayron qiluvchi kuchga ega.

RAKETA DVGATELI – ishlayotganda atrofdagi muhitdan (havo yoki suvdan) foydalanmaydigan reaktiv dvigatel. Kimyoviy raketa dvigateli keng tarqalgan (elektr, yadro va boshqa raketa dvigatellar ishlab chiqarilmoqda va sinarmoqda). Eng oddiy raketa dvigateli siqilgan gazda ishlaydi. Vazifasiga ko'ra tezlanish beradigan, tormozlaydigan, boshqaradigan kabilarga bo'linadi. Raketa, samolyot kabilarga o'rnatiladi. Kosmonavtikada raketa dvigateli asosiy dvigatel sanaladi.

RAKETA YONILG'ISI – raketa dvigatellarida harakatlantiruvchi kuchni vujudga keltiradigan energiya manbai va ish jismi sifatida foydalaniladigan modda yoki moddalar majmui. Asosan, suyuq va qattiq raketa yonilg'isi bo'ladi. Suyuq raketa yonilg'isida yonilg'i sifatida vodorod, kerosin yoki dimetilgidrazin, oksidlovchi sifatida suyuq kislorod yoki azot (IV) – oksid ishlatiladi. Qattiq raketa yonilg'isi tarkibiga, asosan, nitrotsellyuloza asosidagi porox (yonilg'i) va ammoniy perxlorat (oksidlovchi) kiradi.

RAKETA KOMPLEKSI – raketani uchirish, parvozini boshqarish kabi vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan, ishi va harakati o'zaro bog'liq vosita va tizimlar majmui. Tarkibi: raketalar va quruqlikdagi uskunalar, harbiy-dengiz floti va harbiy-havo kuchlarida esa – kema va samolyotlarning (vertolyotlarning) maxsus uskunalaridan iborat. Raketa

kompleksining jangovar imkoniyatlari:

- raketa parvozinining olisligi;
- nishonga tegish aniqligi;
- shikast yetkazish qudrati.

Raketa kompleksining tarkibi – vazifasi, qo'llanish sharoiti va raketalar tuzilishining o'ziga xosligiga bog'liq bo'lib, vazifasiga ko'ra:

- *jangovar* – strategik, operativ-taktik kabi;
- *o'quv*;
- kosmik, geofizik, meteorologik kabi tadqiqotlar o'tkazish uchun mo'ljallangan – *tadqiqotga oid* turlarga;
- joylashtirilishiga ko'ra:
- *yerd*da joylashtirilgan;
- *kemada* (suvosti va suvusti kemalarda) *joylashtirilgan*;
- *aviatsiyada* (samolyot va vertolyotlarda) *joylashtirilgan* turlarga bo'linadi.

RAKETALAR – reaktiv dvigatel tomonidan ishchi jismini uloqtirish mobaynida hosil bo'ladigan reaktiv tortish kuchi ta'siri ostida harakatlanadigan uchuvchisiz uchish apparatlari. Raketalar boshqariladigan va boshqarilmaydigan, bir yoki ko'p pog'onali, startdagi vazni bir necha kilogrammdan bir necha ming tonnagacha bo'ladi. Har qanday raketaning asosiy qismlari jumlasiga korpus, bir yoki bir necha raketa dvigatellari, yoqilg'ili hajmlar va foydali yuk (jangovar kallak, kosmik apparat kabilar) kiradi. Vazifasiga ko'ra:

- jangovar – taktik, operativ-taktik va strategik;
- tadqiqotlarga oid;
- xalq xo'jaligiga oid;
- o'quv raketalar turlariga bo'linadi.
- “Yerdan yerga” sinfiga mansub raketalar:
- yaqin masofalarga parvoz etuvchi (500 km gacha);
- kichik masofalarga parvoz etuvchi (1000 km gacha);
- o'rta masofalarga parvoz etuvchi (5000 km gacha)
- qit'alararo parvoz etuvchi (5000 km dan yuqori) turlarga bo'linadi.

RAKETALAR ZARBASIDAN MUDOFAA – ballistik raketa yoki parvoz trayektoriyasidagi jangovar yadroviy kallaklarni yakson etish yo'li bilan dushmanning raketali-yadroviy zarbasini qaytarish bo'yicha o'tkaziladigan tadbir, jangovar harakat, kuch va vositalar majmui. Raketalar zarbasidan mudofaa tarkibiga:

- uzoq masofalardagi nishonlarni fosh etish vositalari;

– turli masofalarda parvoz etayotgan raketalar qarshi qo'llaniladigan komplekslar;

– hisoblash vositalarining komplekslari;

– ma'lumotlarni uzatish vositalari kiradi. Raketalar zarbasidan mudofaa:

– mamlakatning yalpi hududini mudofaa etish uchun – hududiy;

– yirik maydonlarni mudofaa etish uchun – zonal;

– o'ta muhim ma'muriy, ishlab chiqarish va harbiy obyektlarni mudofaa etish uchun – obyektli mudofaa turlariga bo'linishi mumkin.

RAKETALI QUROL – raketalar yordamida shikastlash vositalari nishon ustiga yetkaziladigan qurol.

Raketali qurol kompleks bo'lib, tarkibiga yadroviy yoki oddiy zaryadga ega raketalar uchirish qurilmasi, nishonga yo'llash vositalari, tekshiruvchi-uchiruvchi moslamalar, raketa parovozini boshqarish vositalari, transport vositalari kabi qurilmalar kiritilgan. Bajaradigan vazifalarining xususiyatlariga ko'ra raketali qurol:

– strategik;

– operativ-taktik;

– taktik turlarga bo'linadi.

Strategik raketali qurol – dushmanning muhim strategik obyektlarini yakson etish uchun mo'ljallangan.

Operativ-taktik va taktik turlarga mansub raketali qurol – dushmanning operativ va taktik sarhadlaridagi nishonlarga, ya'ni yirik qo'shinlar to'plangan joylari, qo'mondonlik punktlari aerodromlari, temiryo'l tarmoqlari kabi obyektlariga qarata qo'llash uchun mo'ljallangan.

Raketalar quruqlikdagi ko'chmas va ko'chma uchirish qurilmalari, raketa tashuvchi, bombardimonchi, qiruvchi samolyotlar, vertolyot, kema va atomli suvosti kemalardan uchirilishi mumkin.

Uchiriladigan joy va nishonning joylashgan joyiga ko'ra raketalar:

– “yerdan yerga”;

– “yerdan havoga”;

– “yerdan kemaga”;

– “havodan yerga”;

– “havodan havoga”;

– “havodan kemaga”;

– “kemadan yerga”;

– “kemadan kemaga”;

– “kemadan havoga” sinflariga bo‘linadi.

Shikastlash vositasini nishonga yetkazish uzoqligi bo‘yicha ancha yaqin (10 km gacha), yaqin (10 – 100 km gacha), o‘rtacha yaqin (100 – 500 km), ancha uzoq (qit‘alararo, 5500 km gacha) raketali qurolga farqlanadi.

XX asrning 50 – 70 yillarida keng rasm bo‘ldi.

RAKETA TASHUVCHI AVIATSIYA – raketa tashuvchi samolyotlar bilan qurollangan, “havodan yerga”, “havodan havoga” va “havodan kemaga” sinfiga mansub boshqariladigan va boshqarilmaydigan raketalarni qo‘llash qobiliyatiga ega harbiy aviatsiya.

RAKETA-YADRO QUROLI – dushmanga qirg‘in keltiruvchi vosita sifatida yadro va termoyadro zaryadli o‘q-dori, uni nishonga eltuvchi vosita sifatida esa – raketa xizmat qiluvchi qurol. Yadroviy urush davomida dushmanga qirg‘in keltiruvchi asosiy vosita. Vazifalarining xususiyatlariga ko‘ra:

- strategik;
- operativ-taktik;
- taktik turlarga bo‘linadi.

Yerda (shu jumladan, quruqlikdagi jangovar transportlarda), havo va dengizdagi jangovar texnikada joylashtiriladi. Qo‘llanilishining asosiy usullari – raketa-yadro zarbalarini qo‘llash. Asosiy jangovar xususiyatlari jumlasiga:

- parvoz masofasining cheklanmaganligi;
- shikast yetkazish qudratining kattaligi;
- daf‘atan qo‘llash imkoniyati;
- o‘ta aniq shikast yetkazishi;
- tezligining kattaligi;
- deyarli shikastlanmasligi kiradi.

Raketa-yadro qurollarini ommaviy sur‘atda qo‘llash jang maydonida qisqa muddat ichida dushmanga hal qiluvchi zarba berish va kuchlar nisbatini o‘z foydasiga tubdan o‘zgartirish imkonini beradi. Raketa-yadro quroliga AQSH, Rossiya, Angliya, Fransiya va Xitoy davlatlari ega. Raketa-yadro quroli – yadroviy yoki ommaviy qirg‘in qurollarning asosiy tarkibiy qismidir.

RAKETA QO‘SHINLARI VA ARTILLERIYA – Qurolli Kuchlardagi qo‘shin turi. 1960-yillar boshida tashkil etilgan. Jangda va operatsiya jarayonida dushmanga qarata yadro qurolini qo‘llash va o‘t ochish bilan zarba berishga mo‘ljallangan.

RAMZ – muayyan tushunchani aks ettiradigan, harbiy xizmatchilar va harbiy mulkning tegishli qurolli kuchlar turi, qo‘shin (kuch), maxsus qo‘shin va xizmat turlariga mansubligini bildiradigan shartli ramziy tasvir. Ayrim hollarda ramz qurolli kuchlarning qaysi davlatga mansubligini ham bildiradi. Masalan, o‘zbek jangchilari bosh kiyimiga taqiladigan sakkiz qirrali yulduz ichiga tasvirlangan yarim oy bilan yulduz, qanotlarini yozib turgan humo qushi, ikki daryo o‘rtasidagi mamlakat uzra barq urib turgan quyosh – O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining belgisidir. Ramz harbiy xizmatchilarning farqlovchi nishonlari tarkibiga kiritilgan elementlarning biri sifatida harbiy kiyimda belgilangan joylarga taqiladi (tikiladi). Shuningdek, ramz bayroq, harbiy texnika, harbiy hujjat kabilarda tasvirlanishi mumkin.

Qadimda qo‘llanilgan ramzlar qo‘shinlarni aniqroq tanish va jangni boshqarishni yengillashtirish uchun xizmat qilgan.

RASCHYOT – to‘p, pulemyot kabi qurol-yarog‘ va texnikaning boshqa turlariga bevosita xizmat ko‘rsatuvchi harbiy xizmatchilar guruhi. Artilleriya, aloqa qo‘shinlari kabilarda bo‘linmaning birlamchi (past pog‘onadagi) tashkiliy birligi. Raschyotni raschyot komandiri (ofitser yoki serjant) boshqaradi.

Raschyotning miqdoriy tarkibi qurol turiga bog‘liq.

RATSIYA – ommabop adabiyotda olib yuriladigan qisqa to‘lqinli qabul qilish-uzatish radiostansiyalarning nomi. Masalan, Motorola, Hytera va boshqalar. (*Qarang: "Radiostansiya"*).

RAG‘BATLANTIRISH – harbiy xizmatchining xizmat o‘tash va harbiy burchni ado etish mobaynida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini tan olish shakli. Intizomiy amaliyotning tarkibiy qismi.

Intizom nizomiga muvofiq rag‘batlantirish – harbiy xizmatchilar tarbiyasi va harbiy intizomni mustahkamlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchi yoki bo‘linmaning rag‘batlantirilishi saf oldida yoki harbiy xizmatchilarning majlisida og‘zaki yoki yozma buyruqda e‘lon qilinadi. Rag‘batlantirish to‘g‘risidagi buyruqning e‘lon qilinishi, shuningdek, alohida xizmat ko‘rsatgan harbiy xizmatchiga mukofot topshirilishi, odatda, tantanali vaziyatda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlati va Qurolli Kuchlari oldida alohida xizmat ko‘rsatgan, harbiy burchni ado etish mobaynida mardlik va jasorat namoyon etgan, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlikda a‘lo ko‘rsatkichlarga ega harbiy xizmatchilar O‘zbekiston Respublikasi orden

va medallari bilan taqdirlanishi uchun taqdim etiladi.

REAKTIV ARTILLERIYA — reaktiv snaryadlarni, minalarni qo'llash uchun mo'ljallangan artilleriya turi.

O'q-dori nishonga qadar snaryaddagi reaktiv dvigatelning tortish kuchi hisobiga yetkaziladi. Dushmanning jonli kuchi, jangovar texnikasi, yadroviy vositalariga shikast yetkazish, mudofaa istehkomlarini vayron qilish maqsadida 6, 8, 10, 12, 16, 32 va h.k. dona snaryad zalp bilan (birdaniga) qo'llaniladi.

Reaktiv artilleriya Quruqlikdagi qo'shinlar, Harbiy-havo kuchlari va Harbiy-dengiz floti tarkibiga kiradi. Reaktiv artilleriyaga mansub bo'linma va qismlarning qurol-aslahasi tarkibida, asosan, baravariga o't ochadigan reaktiv tizimlar mavjud.

Reaktiv qurilmalar tank, zirhli transportyor va avtomashinalarga o'rnatiladi.

Reaktiv artilleriyada stvolli va stvolsiz artilleriya tizimlaridan foydalaniladi, xususan:

stvolli artilleriya tizimida stvollar soni 10-45ta bo'lib, snaryadlar, *stvolsiz artilleriya tizimida* tutunsiz porox bilan to'ldirilgan snaryadlar qo'llaniladi. O'xshash dala reaktiv artilleriyasining stvolsiz (snaryadni yo'naltiradigan moslamalarga ega) tizimi Ikkinchi Jahon urushi yillarida "Katyusha" nomini olgan. Bunday tizimning ilk namunasi XX asrning 30-yillari xotimasida yaratilgan bo'lib, urushdan keyingi davrlarda keng tarqalgan.

Snaryadning, minaning nishonga qadar to'g'ri yetib borishini, unda mavjud stabilizator ta'minlaydi. Har bir snaryadda reaktiv dvigatel bo'lgani bois, uni qo'llash uchun artilleriya tizimining murakkab, yirik bo'lishiga ehtiyoj bo'lmaydi. Reaktiv artilleriya qurolidan qo'llaniladigan snaryad kalibri 375 mm gacha bo'lib, 45 kilometr va undan olis masofalarga qo'llaniladi. Qurolidagi snaryadni yo'naltiradigan moslamalar soni 45-50taga yetadi.

REAKTIV ARTILLERIYANING JANGOVAR MASHINASI (RAJM) — ko'p zaryadli o'ziyurar uskuna. O't ochish amali, odatda, qisqa vaqt oralig'ida baravariga bajariladi. Tarkibiga artilleriyaga oid aslaha va murakkab yo'llarda yurishga qodir o'ziyurar shassi kiradi.

Artilleriyaga oid aslaha tarkibiga: snaryadlarni joylash va parvozini yo'naltirish uchun mo'ljallangan — yo'naltiruvchilar (reislar va yupqa devorli quvurlar) yig'masi, ushbu yig'mani gorizontal tekislikda burish uchun mo'ljallangan burilma rama, yo'naltiruvchi mexanizmlar,

muvozanatda tutib turuvchi mexanizm, nishonga olish moslamalari va o't ochuvchi jihozlar kiradi. Artilleriya qurol-aslahasi tarkibiga 1941-yilda qabul qilingan.

REAKTIV SNARYAD – quruqlikdagi qo'shinlar, aviatsiya va flotda qo'llaniladigan baravariga o't ochishning reaktiv tizimlariga mansub, parvozi boshqarilmaydigan snaryad. Reaktiv snaryad nishon ustiga reaktiv dvigatelning tortish kuchi hisobiga yetkaziladi. Reaktiv snaryad:

– *jangovar vazifasiga ko'ra* – parchalanuvchi-fugasli, fugasli, kumulyativ, kassetali, hajmiy portlovchi, yondiruvchi, tutun purkovchi kabi turga mansub;

– *parvozinig barqarorlashtirilish usuliga ko'ra* – aylanmaydigan (qanotli) va aylanib boruvchi (turboreaktiv) bo'lishi mumkin.

Ilk bor 30-yillarda yaratilgan.

REAKTIV QUROL – shikast yetkazish vositalari, dvigatelning reaktiv tortish kuchi hisobiga nishon ustiga yetkazib boriladigan qurol turi.

Reaktiv qurol jumlasiga baravariga o't ochuvchi, quruqlikdagi qo'shinlar, aviatsiya va flotda qo'llaniladigan reaktiv tizimlar kiradi. Reaktiv tizimlarning ko'p zaryadligi olov samaradorligining yuksakligi va keng maydondagi nishonlarni bir vaqtda yo'q qilish imkoniyatini belgilaydi. Baravariga ochilgan olov esa dushman uchun nogahonlik va o'tkaziladigan ta'sirning yuksak unumdorligini ta'minlaydi.

REZERV – 1) yangi vujudga kelgan vazifalarni hal etish, harakatdagi armiya va flotni urush, operatsiya davomida butlab, ta'minlab borish uchun mo'ljallangan qurolli kuchlar turlarining tuzilmalari, odam resurslari va moddiy vositalar; 2) operatsiya (jang) davomida daf'atan vujudga kelgan masalalarni hal etish uchun mo'ljallangan operativ jihatdan tortilgan saf (jangovar tartib) elementi; 3) tinchlik davrida qisqartirilgan tarkibda saqlanib, urush davrida tarkibi kengaytirilgan qo'shinlar toifasi. XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshida Rossiya, Fransiya, Avstro-Vengriyada mavjud bo'lgan. AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarning hozirgi qurolli kuchlarida bor.

RESPIRATOR – insonning nafas olish organlarini radioaktiv chang va zararli moddalardan himoya etish uchun mo'ljallangan shaxsiy moslama. Respirator:

– vazifasiga ko'ra – gazga qarshi, changga qarshi, universal;

– rusumiga ko'ra – izolyatsiyalovchi, filtrlovchi turlarga bo'linadi.

ROTATSIYA (lot. *rotatio* – doira shakldagi harakat, aylanish) – murakkab bo'lgan va og'ir, noqulay sharoitlarda vazifa o'tayotgan shaxsiy

tarkibni, bo'linmalar va harbiy qismlarni ma'lum bir vaqtdan keyin muntazam ravishda almashtirib turish. Jangovar harakatlar olib borish sharoitlarda keng qo'llaniladi.

RUXSATNOMA – kirib-chiqish rejimi qat'iy belgilangan harbiy qism, qo'riqlanayotgan obyekt, korxona, muassasa hududiga kirishga huquq beradigan shaxsni tasdiqlovchi fotosuratli hujjat. Ruxsatnoma:

- bir marotaba kirib-chiqishga huquq beradigan;
- vaqtinchalik ruxsatnoma;
- doimiy ruxsatnoma;
- ashyoviy mulkni olib kirishga, olib ketishga huquq beradigan ruxsatnoma;
- avtotransportda kirishga ruxsat beradigan turlarga bo'linadi.

RUXSATSIZ KETIB QOLISH – muddatli harbiy xizmat askarining harbiy qism hududini yoki xizmat joyini tegishli ruxsat olmay tashlab ketishi, uzrli sabablarsiz shahar ta'tili, xizmat safari, qisqa ta'til, davolanish maskani kabilardan xizmatga bir sutkadan ortiq (biroq uch sutkadan oshmagan tarzda) yoki bir sutkadan kam, ammo 3 oy davomida takror kechikib qaytishi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq ruxsatsiz ketib qolgan harbiy xizmatchi jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Tinchlik davrida aybdorning gunohini yengillatuvchi omillar mavjudligida intizomiy ta'zir choralari ko'rilishi mumkin.

RUHIY (PSIXOLOGIK) XURUJ – mudofaadagi dushmanni dahshatga solish, irodasini sindirish va ruhini tushirish maqsadida tashqi ta'sir elementlarini mujassamlashtirgan xuruj.

S

SALYUT – artilleriya quroli yoki o'qli quroldan zalp berib (harbiy-dengiz flotida – bayroqlar ko'tarilib) qutlash yoxud ehtirom ko'rsatishning tantanali shakli. Mushak quyidagi hollarda otiladi:

- davlat (millat) ahamiyatiga ega bayram kuni – *bayram salyuti*;
- muhim hodisalar sharafiga – *tantanali salyut*;
- davlat va harbiy arboblarning sharafiga – *shaxsiy salyut*;
- dafn marosimida – *motam salyuti*;
- davlat va hukumatlar rahbarlari sharafiga – *millat salyuti*.

SAMOLYOT – dvigatel va qanotlar yordamida atmosferada parvoz etish uchun mo'ljallangan havodan og'ir uchish apparati. Samolyot vazifasiga ko'ra fuqarolik va harbiy turlarga bo'linadi.

Fuqarolik samolyotlari jumlasiga: transport – yuk tashish, yo‘lovchi tashish, yuk-yo‘lovchi tashish samolyotlari; sportga oid samolyotlar; o‘quv-mashq samolyotlari; maxsus-sanitar, xalq-xo‘jalik, yong‘inga qarshi kurash kabi samolyotlar kiradi.

Harbiy samolyotlar jumlasiga: qiruvchi, qiruvchi-qo‘riqchi, qiruvchi-bombardimonchi, hujumchi, razvedkachi, suvosti kemalariga qarshi, harbiy transport, aloqachi, sanitar kabi samolyotlar kiradi.

Samolyotning asosiy qismlari jumlasiga qanot, fyuzelyaj, dum-qanot, uchiruvchi-qo‘ndiruvchi qurilmalar, elektr kuchlanish qurilmasi, boshqaruv tizimi va uskunalari kiradi. Harbiy samolyotlar bundan tashqari qurol-aslaha va maxsus uskunalariga ega.

SANITAR AVIATSIYA – harbiy-transport aviatsiyasiga mansub qismlar bo‘lib, yarador va bemorlarni evakuatsiya qilish, shifokorlarni tashish va dori-darmonlar yetkazish uchun mo‘ljallangan.

SAPYORLAR – muhandislik qo‘shinlarining sapyor (muhandis sapyor) bo‘linma va qismlari harbiy xizmatchilari. Joylarni minalardan tozalash, kechuv joylarini jihozlash, minali-portlovchi to‘siqlar o‘rnatish, qo‘shin harakati uchun yo‘l ochish kabi ixtisoslik bo‘yicha tayyorgarliklarni talab etuvchi ishlar bilan shug‘ullanadi.

SAF – harbiy xizmatchi, bo‘linma va qismlarning birgalikda harakatlanishlari uchun nizomda belgilangan tarzda joylashuvi. Saf quyidagi elementlardan iborat:

- *qanot* – safning o‘ng va chap tomonlari;
- *old* – harbiy xizmatchilar yuzlari, mashinalar esa old tomoni bilan yuzlanib turgan tomon;
- *ort* – oldga qarama-qarshi tomon;
- *en* – qanotlar orasidagi masofa;
- *bo‘y* – harbiy xizmatchilarning birinchi sherengasidan oxirgi sherengasiga, mashinalarning birinchi chizig‘idan so‘nggi chizig‘igacha bo‘lgan masofa.

Ko‘rinishiga ko‘ra: yurish safi, yoyiq saf, orasi ochiq saf, jips saf, tarqatilgan saf turlari farq qiladi.

SAF QADAMI – piyodalar harakatlanishi usullaridan biri. U quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

- bo‘linma va qismlar tantanali marsh bilan o‘tayotganida;
- yurish davomida harbiycha salom berilganida;
- harbiy xizmatchining boshliq oldiga yaqinlashishi va uning oldidan nari ketishi mobaynida;

- safdan chiqayotganda va safga qaytayotganda;
- saf tayyorgarligi mashg'ulotlarida.

Shaxdam qadam bilan yurish tartibi Saf Nizomida belgilab berilgan.

SAFARBARLIK – urush holati e'lon qilinishi yoki favqulodda holat joriy etilishi bilanoq umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilinishi mumkin. Safarbarlik tadbirlarini tayyorlash va o'tkazish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

SAFARBARLIK CHAQIRUVI REZERVIDAGI HARBIY XIZMAT – harbiy xizmatga yaroqli, shu jumladan, cheklovlar bilan yaroqli bo'lgan hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo'lmagan, biroq Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi muddatga chaqirilmagan shaxslar safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinadilar.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat hududiy prinsip asosida oylik yig'inlar tarzida tashkil etiladi hamda chaqiriluvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining maxsus hisob varag'iga pul badallari kiritilishini nazarda tutadi.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat safiga shaxslar yigirma yetti yoshga to'lgunga qadar olinadilar va har yilgi harbiy yig'inlarga jalb etilishlari mumkin, favqulodda vaziyatlar yoki O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz ro'y bergan taqdirda esa haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladilar. Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan fuqarolar yigirma yetti yoshga to'lganlaridan keyin Qurolli Kuchlar rezervi tarkibiga o'tkaziladilar.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat safiga olingan shaxslar to'laydigan pul badallari miqdori va ularni to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan alohida Nizom bilan belgilanadi. Bu mablag'lar safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatchilar bilan yig'inlarni o'tkazishga bog'liq xarajatlarning o'rmini qoplashga, qaysi tegishli vazirliklar va idoralarda muddatli harbiy xizmat nazarda tutilgan bo'lsa, o'sha vazirliklar va idoralarning muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilari harbiy xizmatdan bo'shatilganida xizmatdan bo'shatish nafaqasini to'lashga, yig'inlar ma'muriyatining ta'minotiga, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish hamda mustahkamlashga, shu jumladan, binolarni ta'mirlash va qurishga, mudofaa ishlari organlaridagi safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatchilarni hisobga oluvchi xodimlarning ta'minotiga, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi ehtiyojlari uchun

qurol-yarog', harbiy-texnika mol-mulki va o'q-dorilarni xarid qilishga maqsadli tartibda yo'naltiriladi.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni tashkil etish va o'tash tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

SAF TAYYORGARLIGI – jangovar tayyorgarlik tizimidagi majburiy fanlardan biri. Saf tayyorgarligi harbiy xizmatchilarning qadrostligi, batartibligi, chidam-bardoshi hamda komandalar, qurol bilan va qurolsiz bajariladigan usullarni to'g'ri va tez bajara olish qobiliyatini shakllantirish, bo'linma va qismlarni turli saflarda murakkab harakatlar bajarishga tayyorlash maqsadida o'tkaziladi. Saf nizomiga muvofiq saf tayyorgarligi:

- harbiy xizmatchining yakka tartibdagi tayyorgarligi;
- bo'linma va qismlarning hamjihatligi mashq qilishi;
- saf ko'riklari o'tkazilishidan iborat.

Saf tayyorgarligi mashg'ulotlarida harbiycha salom berish, safdan chiqish, boshliq oldiga kelish kabi amallar ijrosi mashq qilinadi. Saf tayyorgarligi mashqlari, harbiy xizmatga majbur fuqarolar ta'limoti va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimida ham o'tkaziladi.

SAF QAYDNOMASI – bo'linmaning, qismning ro'yxati bo'yicha, safda turgan va ma'lum sabablarga ko'ra safda yo'q bo'lgan shaxsiy tarkib, qurol-yarog', harbiy texnika soni to'g'risidagi hujjat. Saf ko'rigidagi harbiy xizmatchilar soni hisobini yuritish shakli.

SAF QO'SHIG'I – musiqiy-she'riy ijod turlaridan biri bo'lib, kuyining soddaligi, maromining aniqligi, adabiy asosining qat'iyligi, band va naqarotlardan iboratligi bilan farq qiladi. Bo'linma odimlab borayotganida ijro etadi.

SAQLAGICHLAR – qurol-yarog' va boshqa harbiy texnikaning ish rejimidagi buzilish yoki noto'g'ri harakatlar sababli ro'y beruvchi beixtiyor va xavfli harakatlarning oldini olish uchun mo'ljallangan moslamalar. Asosiy vazifasi: shaxsiy tarkib xavfsizligi va harbiy texnika soz holatda saqlanishini ta'minlash. Qurol-yarog'ning barcha turi va elektrotexnik qurilmada qo'llaniladi.

SERJANT (lot. *serviens* – xizmatchi) – kichik komandirlar tarkibining, odatda, quyi pog'onadagi bo'linma, ekipaj, raschyot, seksiya, guruh komandirining harbiy unvoni.

Ilk bor XV asrda fransuz, so'ngra nemis va ingliz armiyalarida paydo bo'lgan. Bugungi kunda mavjud mazkur unvon 1940-yilda ta'sis etilgan.

Harbiy-dengiz flotida 1-darajali starshina unvoni to'g'ri keladi.

SIGNALIZATSIYA – diqqatni jalb qilish, xabar yoki buyruq berish va ikki tomonlama gaplashishda signal uzatish uchun ishlatiladigan shartli belgi, qurilma va moslamalar majmui. Vazifasiga qarab, avariyaning oldini olish, chaqirish, buyruq berish, o't o'chirish, qidirish, ogohlantirish uchun mo'ljallangan signalizatsiyalarga bo'linadi. Signal qurilmalari, mexanik, gidravlik, pnevmatik, elektr va radio tizimlar bilan ishga tushiriladi. Signallarni elektr orqali uzatish usuli keng tarqalgan. U avtomatik vositalar bilan bajariladi; vizual yoki akustik turlari mavjud. Vizual signalizatsiyaga chiroqchali tabloning yonishi, mnemosxemada avariya yuz berishi mumkin bo'lgan uchastka tasvirining yoritilishi va boshqalar kiradi. Avariyaning oldini olish uchun, ko'pincha, yonib-o'chadigan qurilmalardan foydalaniladi. Akustik signallar sifatida sirena, qo'ng'iroq, gudok ishlatiladi.

SIGNALLAR – komanda, ko'rsatma, bildiruv kabi ma'lumotlarni uzatish uchun mo'ljallangan shartli belgilar. Qo'llaniladigan signallovchi vositalarning xususiyatlariga ko'ra signallar:

- tovushli signallar;
- yorug'li (nurli) signallar;
- ko'z bilan ko'rinuvchi signallar;
- radiosignallarga bo'linadi.

SIGNALCHI – majburiyatiga turli belgilangan signallarni uzatish kiradigan harbiy xizmatchi (odatda, askar). Qism bo'yicha navbatchi va uning yordamchisiga bo'ysunadi.

SIKL (yun. *kyklos* – doira) – 1) ma'lum vaqt ichida takrorlanib turadigan hodisa, jarayon va b.ning har bir davrasi (mas, yillik S.); 2) muayyan fanlar guruhi (mas, tarixiy S.); 3) bir butunni tashkil etuvchi bir qancha asar, ma'ruza, konsert va sh.k. majmui; 4) badiiy adabiyotda – turkum; 5) musiqada – turkumli musiqa shakli; 5) oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi kafedralar tarkibidagi fanlar yo'nalishi bo'yicha alohida bo'linma.

SIRKUL (lot. *cirkulus* – doira, aylana) – topografik kartalar bilan ishlash jarayonida foydalanadigan o'lchov va shakl hosil qiluvchi asbob.

SIYOSIY XAVF – shaxs, jamiyat, davlatning mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan real hodisa, jarayon, xatti-harakat. Siyosiy xavf siyosatda gegemonizm, dushmanlik, betartiblik, diktat, volyuntarizm va ekstremizm elementlarida; turli davlat hokimiyati tarmoqlarining qarama-qarshiligida;

siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari hamda boshqalarning beqarorlashtiruvchi faoliyatlarida namoyon bo'lishi mumkin. Siyosiy xavf turlicha zamon va makon xususiyatlariga egadir.

SIYOSIY XAVFSIZLIK – jamiyat siyosiy tizimining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganligidir. Siyosiy xavfsizlik xalqaro munosabatlar tizimi doirasida barqaror siyosiy suverenitetni ta'minlash, millatning, davlat institutlarining davlat tuzilishi masalasini mustaqil hal eta olish, erkin ichki va tashqi siyosat yuritish imkoniyatlarini, shuningdek, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari muvozanatiga asoslangan siyosiy barqarorlikni nazarda tutadi.

SILLIQ STVOLLI QUROL – stvolining kanali kesmalarga ega bo'lmagan o'qotar qurol. XIX asrning o'rtalariga qadar o'qotar qurol (pistolet, miltiq va to'plar) stvolining kanali silliq bo'lgan. XX asrning boshlariga kelib, kesmalarga ega ilk miltiq va to'plar vujudga kela boshladi. Stvol kanalidagi kesmalar o'qqa yoki snaryadga aylanma harakat berib, holati va parvoz trayektoriyasini barqarorlashtiradi. Reaktiv dvigatel yaratilganidan so'ng silliq stvolli to'plar qayta tiklandi. Ayni paytda snaryad (granata, raketa) parvozining boshlang'ich tezligi keskin ortib, trayektoriyadagi turg'unligi, snaryadga o'rnatilgan maxsus qurilma – stabilizator yordamida ta'minlanadi. Ushbu stabilizatorning qanotlari, snaryad stvol kanalini tark etib chiqqanidan so'ng yoziladi.

SNARYADNING YORIB O'TISH KUCHI – snaryadning turli sharoitda u yoki bu qalinlikdagi zirhni yorib o'tish qobiliyati. Zirhyorar poynak bilan jihozlangan zamonaviy zirhyorar snaryad, qulay sharoitda, o'zining 1-1,2 kalibriga teng zirhni 15-18 km dan uchib kelib yorib o'tishi mumkin.

SNARYADNING TA'SIR KUCHI – snaryadning teshib o'tish va yorib yuborish ta'siri bilan nishonga shikast yetkaza olish qobiliyati. O'qotar qurol qudratining elementlaridan biri sanaladi. O'xshash ma'nodagi tushunchalar raketa, mina, torpeda va aviabombalarni tavsiflashda ham qo'llaniladi.

SOQCHI – topshirilgan postni, obyektни qo'riqlash va mudofaa etish bo'yicha jangovar vazifani ado etayotgan qurollangan qorovul.

Soqchi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomiga muvofiq daxlsiz shaxs bo'lib, huquq va qadr-qimmatini qopun tomonidan alohida muhofaza etiladi.

Soqchi qorovul boshlig'i, qorovul boshlig'ining yordamchisi va o'z tarqatuvchisiga bo'ysunib, avtomat bilan qurollanadi.

Har qanday shaxs soqchining xizmati doirasida belgilangan talablarini soʻzsiz bajarishga majburdir. Soqchiga Nizomda belgilangan hollarda qurol qoʻllash huquqi berilgan.

Soqchiga postda hushyor holda xizmat oʻtashdan chalgʻituvchi barcha amallar – uxlash, oʻtirish, biror-bir narsaga suyanish, yozish, mutolaa qilish, qoʻshiq aytish, suhbatlashish, ovqatlanish, ichish, chekish, biror-bir ashyoni biror-bir kimsadan uning kim boʻlishidan qatʻi nazar, olish va biror-bir kimsaga uning kim boʻlishidan qatʻi nazar, uzatish man etiladi.

Soqchini faqat soqchi boʻysunadigan muayyan shaxslargina almashtirishi yoki olishi mumkin.

Soqchining majburiyatlari va soqchilik xizmatini oʻtash tartibi Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomida belgilangan boʻlib, ushbu tartib va majburiyatlarga "Postlar jadvali"da aniqlik kiritiladi.

STABILIZATOR – uchish apparatining gorizontaal qanotidagi qoʻzgʻalmas qism, uchish paytida uning boʻylama turgʻunligini taʼminlaydi. Tovush tezligidan tez uchar samolyotlarga, baʼzan qoʻzgʻaluvchan stabilizator oʻrnatiladi.

STVOL – snaryadni (oʻqni, granatani, minani) uloqtirish va unga maqsadli yoʻnalishda barqaror parvoz etish imkonini berish uchun moʻljallangan – oʻqotar qurolning asosiy qismi. Ichki qismi *kanal* deb ataladigan quvur koʻrinishiga ega.

STRATEG – (yunonchadan stratos – qoʻshin va ago – boshlab boraman) - Yunonistonda katta harbiy va siyosiy vakolatlarga ega boʻlgan lashkarboshi. Hozirgi maʼnosi – sarkarda, yirik harbiy operatsiyalar rahbari, strategiyani yaxshi bilgan mohir lashkarboshi, ijtimoiy va siyosiy kurashni mahorat bilan boshqaruvchi arbob.

STRATEGIYA – bu harbiy sanʼatning tarkibiy qismi va yuqori pogʻonasi boʻlib, u davlat va qurolli kuchlarni urushga tayyorlash nazariyasi va amaliyotini, strategik operatsiyalarni va umuman urushlarni rejalashtirishni qamrab oladi. Strategiya urush olib borish usullari va shakllarini ishlab chiqadi, unga rahbarlik qiladi hamda urush harakatlarini moddiy vositalar bilan taʼminlash masalalari bilan shugʻullanadi. Harbiy strategiya urush rejasini ishlab chiqadi, bu urushda qurolli kuchlar va qoʻshin turlarining oʻmini belgilaydi, urush davrida ular oʻrtasidagi yaqin oʻzaro hamkorlikni tashkillashtiradi, alohida harbiy harakatlar maydonlarida qurolli kuchlar harakatlarini va koalitsiya urushlarida ittifoqchilar qurolli kuchlari harakatlarini muvofiqlashtiradi. Ushbu vazifalardan davlat oliy harbiy idorasining tutgan oʻrni va ahamiyati kelib

chiqadi. Mohirona strategik rahbarlik qurolli kurashda hamma imkoniyatlardan, birinchi navbatda qurolli kuchlardan to'raligicha foydalanishni ta'minlaydi.

SUV TO'SIG'INI YENGIB O'TISH – hujumdagi qo'shinning qarama-qarshi qirg'og'ini dushman mudofaa etayotgan suv to'sig'ini yengib o'tishi. Suv to'sig'ini yengib o'tish amallari hujum to'xtatilmay yoki rejali tarzda bajariladi. Suv to'sig'ini jang bilan jadal yengib o'tishi uchun qo'shilma, qism va bo'linmalar suzuvchi zirhli transportyor, piyodalarning jangovar mashinalari va tanklar, shuningdek, turli suzuvchidesant vositalariga ega.

SUV HAVZASI RAZVEDKASI – suv havzasi va tevaragi xususiyatlari haqida ma'lumotlar izlash, yig'ish va umumlashtirish. Suv havzasi razvedkasining maqsadi – suv havzasiga pinhona yaqinlashish, kechuv joylarini jihozlash va kechib o'tish uchun joy tanlashdan iborat. Razvedkaning mazkur turi qo'shinlar yoki muhandislik razvedkasi zimmasiga yuklanadi. Suv havzasi razvedkasi suv havzasiga olib keluvchi yo'llar mavjudligi, ushbu yo'llarning yurishga yaroqliligi, niqoblovchi xususiyatlari, ularda to'siqlar va zararlangan zonalar mavjudligi; suv havzasi qirg'oqlarining xususiyatlari: eni, chuqurligi, oqimining tezligi, to'lqinlar shiddati, tubining qattiqligi, tubi va qirg'oqlarining shakli, kechuvga yaroqli joylar, muz (muz parchalari oqimi), qor, to'siqlar mavjudligi va xususiyatlari; kechuv joylarini jihozlash va saqlab qolish uchun qulay joylar mavjudligi, mavjud ko'priklar, kechuv joylari, gidrotexnik inshootlar, mahalliy kechib o'tish vosita va ashyolarning holatini aniqlaydi. Suv havzasi razvedkasi uchun muhandislik razvedka mashinalari, suzuvchi transportyorlar, katerlar, qayiqlar, suvosti shataklari, kuzatuv va masofa o'lchash uchun mo'ljallangan asboblari, exolotlar, nishablikni o'lchash asboblari, fotoapparatlar, minali-portlovchi to'siqlar mavjudligi va zararlangan joylarni aniqlovchi vositalardan foydalaniladi. Suv havzasi razvedkasi qo'shilma, harbiy qism (bo'linma) komandiri va shtabi, shuningdek, qo'shin turi, maxsus qo'shin va xizmat boshliqlari tomonidan tashkil etiladi.

SUZUVCHI MASHINALAR – oldindan tayyorgarlik ko'rmasdan suv to'sig'ini yengib o'tish qobiliyatiga ega g'ildirakli va zanjirli jangovar mashinalar va transport vositalari. Suzuvchi mashinalar suv singmas korpus, suvda yurituvchi (kurak parrakli, rotor-parrakli, suv purkovchi) zanjirli va g'ildirakli dvijitellar, suvda boshqarish mexanizmi, suvni haydab chiqarish tizimi kabilarga ega.

Suzuvchi mashinaning suvdagi tezligi soatiga 10 – 16 km, suvda sirpanib yuruvchi mashinaning tezligi soatiga 50 km va undan yuqori, suvosti qanotiga ega mashinalarda – soatiga 70 km. Vazifasiga ko'ra suzuvchi mashinalar:

– *jangovar mashina*;

– *desant tashuvchi transport mashinalari* – shaxsiy tarkib, texnika va qurol-aslahani tashish uchun suzuvchi avtomobil va transportyorlar;

– *yuklarni tushirib oluvchi mashinalar* – dengiz prichal bo'lmagan joylarda kemadagi yukni tushirish uchun;

– *maxsus mashinalar* – paromlar, suzuvchi ko'priklarning o'ziyurar tayanchlari, ko'priklar qurish uchun suzuvchi qurilmalar va suvda ishlash uchun mo'ljallangan boshqa mashinalarga bo'linadi.

SUZUVCHI TANK – zirhlangan, zanjirli va suv to'sig'ini qo'shimcha jihozlarsiz yengib o'tish va suzish davomida o't ochish qobiliyatiga ega jangovar mashina. Suzish qobiliyatini ta'minlovchi suv singdirmas korpus va suvda suzdiruvchi (suv purkovchi) qo'shimcha dvijitelga ega.

SUN'IY NISHON – haqiqiy nishonning bitta, bir necha yoki o'ziga xos alomatlarini, ya'ni shakli, rangi, harakatlanish usullari kabi xususiyatlarini ramzlovchi sun'iy nishon. Sun'iy nishon sifatida harbiy texnika maketlari yoki haqiqiy namunalaridan foydalanish mumkin. Sun'iy nishon:

– *vazifasiga ko'ra* – o'quv va sinov amallarini bajarish uchun mo'ljallangan;

– *shakli va tasvirining bo'rttirilganligiga ko'ra* – shaxsiy o'qotar quroldan o't ochishda foydalaniladigan yassi, shakldor, yumaloq;

– *joylashtirilgan joyi va ramzlanayotgan nishon xususiyatiga ko'ra* – quruqlik, havo va suvda o'rnatiladigan, sportga oid, ballistik kabi turlarga bo'linadi.

Sun'iy nishon bir va ko'p marotaba foydalaniladigan bo'ladi.

SUN'IY NISHONLAR VAZIYATI – sun'iy nishon, maket, haqiqiy harbiy texnika kabi vositalar bilan ramzlanayotgan dushman qo'shinlari turkumi va harakatlari.

Sun'iy nishonlar vaziyati jangovar o't ochish bosqichi bilan o'tkaziladigan jangovar mashqlar, imtihonlar, mashqlar va taktik mashg'ulotlarda tashkil etiladi.

SUN'IY NISHONLAR MAYDONI – jangovar o't ochish va boshqa taktik mashg'ulotlar o'tkazish maqsadida tayyorlab qo'yilgan joy hududi.

Ushbu hududda sun'iy nishonlar vaziyati tashkil etilib, unda:

- sun'iy nishonlarni namoyish etish (harakatini ko'rsatish) va go'yo ushbu nishonlar ochgan o'tni imitatsiyalash uchun qurilmalar;
- sun'iy nishonlarni tunda yoritish moslamalari;
- elektr ta'minot va aloqa yo'llari;
- elektr agregatlari va operatorlar uchun panagohlar;
- dekorativ inshootlar va mo'ljallar o'rnatiladi.

SUTKALIK PAYOK – oziq-ovqat mahsulotlarining bir nafar harbiy xizmatchi sutka davomida ovqatlanishi uchun belgilangan me'yorlar bo'yicha miqdori. Bo'linma, qism (kema), qo'shilma va birlashma uchun sutkalik payok harbiy xizmatchilarning ro'yxatdagi soniga ko'ra hisoblab chiqariladi. Sutkalik payok vazni oziq-ovqatning bir sutkaga belgilangan me'yorlar bo'yicha barcha mahsulotlari vaznining yig'indisi bilan aniqlanadi.

SUTKALIK VEDOMOST – harbiy qism (kema), muassasa shaxsiy tarkibining miqdoriy hisobini yuritish uchun mo'ljallangan hujjat. Bir kecha-kunduzda, o'rnatilgan shakl bo'yicha, odamlarning shtat, ro'yxat va haqiqatda mavjud soni va o'tgan sutka davomida odamlar sonida ro'y bergan miqdoriy o'zgarishlar ko'rsatilgan tarzda tuziladi.

SO'ZLASHUV QURILMASI – ma'lumotni tezkor uzatish va qabul qilish uchun mo'ljallangan simli yoki radio qurilma.

So'zlashuv qurilmasining quyidagi turlari mavjud:

- ko'chmas obyektning so'zlashuv qurilmasi – yirik shtablardagi karnayli tezkor aloqa apparati;
- ko'chma obyektidagi so'zlashuv qurilmasi – tank, samolyot, kema kabilarda o'rnatilgan aloqa apparati.

Aksariyat so'zlashuv qurilmalar obyekt tashqarisidagi simli va radioaloqaga ulanish imkonini beradi. So'zlashuv qurilmasi tarkibiga mikrofon, telefonlar, tovush chastotasi elektr signalining kuchaytirgichi, kommutatsiya uskunasi, bog'lovchi kabellar kiradi.

T

TAJOVUZ (AGRESSIYA) – xalqaro huquqdagi tushuncha, BMT Nizomi nuqtayi nazaridan bir davlat qurolli kuchlarining boshqa davlat yoki xalq (millat) suvereniteti, hududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi g'ayriqonuniy har qanday kuch ishlatish.

TAKTIKA (yunon. *tasso* – qo‘shinni saflayman so‘zidan olingan) – qo‘shinni saflash san‘ati. U harbiy san‘atning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘z ichiga qurolli kuchlar va maxsus qo‘shinlarning qo‘shilma, harbiy qism va bo‘linmalari tomonidan quruqlik, havo va dengizda jangni tayyorlash, yuritish nazariyasi va amaliyotini qamrab oladi.

Taktika nazariyasi:

- jangning qonuniyati, xususiyatlari va mazmunini tadqiq etadi;
- jangni tayyorlash va yuritish usullarini ishlab chiqadi.

Taktika amaliyoti esa komandir, shtab va qo‘shinlarning (kuchlarning) jangni tayyorlash va yuritish borasidagi faoliyatlarini o‘z ichiga qamraydi va mazmunan:

- vaziyat haqidagi ma‘lumotlarga muntazam aniqliklar kiritib borish;
- qaror qabul qilish va bo‘ysunuvchilar oldiga vazifalar qo‘yish;
- jangni rejalashtirish va qo‘shinlarni tayyorlash;
- jangovar harakatlar yuritish, bo‘linma va qismlarni boshqarish;
- jangovar harakatlarni ta‘minlab borishdan iborat.

Taktika operativlik san‘ati va harbiy strategiya bilan dialektik jihatdan bog‘liq bo‘lib, ularning qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Taktikaning taraqqiyoti qurolli kuchlarning rivojlanib borayotganligini amalda aks ettirib boradi. Qurolli Kuchlarning (qo‘shinlarning) yangi turlari vujudga kela boshlashi bilan har bir qo‘shin turining taktikasi ham paydo bo‘lib, bugungi taktika:

- umumiy taktikaga;
- qurolli kuchlar turi taktikasiga;
- qo‘shinlar turi (flot kuchlari) taktikasiga;
- maxsus qo‘shinlar taktikasiga bo‘linadi.

Qurolli kuchlar turi taktikasida (harbiy-havo kuchlari, havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari, harbiy-dengiz floti) tarkibiga kiruvchi qo‘shinlarning (kuchlarning) barchasi uchun umumiy qoidalar alohida bayon etiladi.

TAKTIK MASHQ – bo‘linma, qism, qo‘shilma va shtablarni jang yuritish usullariga o‘rgatish shakli. Taktik mashq muayyan joyda taktik vazifalarni bajarish yo‘li bilan o‘tkaziladi. Taktik mashq umumqo‘shin taktik mashq va maxsus-taktik (muhandislik, aloqa kabi) mashqlarga bo‘linadi.

Taktik mashq vzvod, batalyon, brigada va birlashma miqyosida o‘tkaziladigan taktik mashqlarga bo‘linadi. Taktik mashqni tashkil etish va o‘tkazish uchun rahbariyat tuzilib, vositachi, tadqiqot etuvchi va zarur bo‘lsa nazorat etuvchi guruhlar tayinlanadi.

TAKTIK MASHG'ULOT – shaxsiy tarkib, bo'linma va komandirlarni jangni tayyorlash va yuritishga o'rgatish shakli. Mashg'ulotlar hajmi va mazmuni jangovar tayyorgarlik dasturida belgilab beriladi.

TAKTIK TAYYORGARLIK – bo'linma, qism, kema va qo'shilmalar shaxsiy tarkibini jangovar harakatlarni tayyorlash va yuritishga o'qitish. Jangovar tayyorgarlik tizimidagi muhim fanlardan biri. Taktik tayyorgarlik mazmuni:

- jang nazariyasini o'rganish;
- qo'shinlarimiz va ehtimoliy dushman qo'shinining qurol-aslahasi tuzilishi, jangovar imkoniyatlari va jangdagi harakatlarining usullarini o'zlashtirish;
- jangni (jangovar harakatlarni) tashkil etish mahoratlarini takomillashtirish;
- joyning turli sharoitidagi murakkab vaziyatda kunduz kuni va tungi vaqtda qurol-yarog' va harbiy texnikani qo'llashni o'rganish;
- jangning turli ko'rinishlarida harakatlar bajarish uchun alohida qo'shnlarga (kuchlarga) mansub bo'linma va qismlar harakatlarining hamkorligini shakllantirishdan iborat.

TAKTIK YADRO QUROLI – dushmanning taktik sarhadlarida joylashgan nishonlarni yakson etish uchun mo'ljallangan yadro qurolining shartli nomi. Quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy havo va harbiy dengiz kuchlari qurol-aslahasi tarkibiga kiritilgan. 500 km dan kam masofada ta'sir etuvchi raketali kompleks ko'rinishiga ega.

TANIB OLISH – fosh etilgan samolyot, kema kabi obyekt qaysi davlat va muassasasiga tegishli ekanligini aniqlash amali.

Tanib olish amali bevosita ko'z bilan yoki maxsus radioelektron tizimlar yordamida bajariladi. Ko'z bilan tanib olish amallari bevosita ko'z yoki optik asboblardan yordamida obyektning qaysi davlatga mansub ekanligini aks ettirayotgan tanituvchi belgisi yoki o'ziga xos alomatiga (shaxsiy tarkib kiyimining rangi va bichimi, samolyot, kema kabilarning sirtqi ko'rinishiga) ko'ra amalga oshiriladi. Qo'shinlarimizning bir-birini tanib olish amali (signallovchi raketa, fonus, proyektor, rangli tutun kabi) shartlashilgan signallar yordamida amalga oshiriladi. Mazkur signallar bitta jang o'tkazish vaqti yoki operatsiyaning muayyan davriga belgilanadi.

Obyektimizni radiolokatsion jihatdan tanib olish mobaynida maxsus so'roqlovchi va tanib oluvchi qurilmalardan iborat tizimdan foydalaniladi.

Tanib olishning bunday tizimlari quruqlikdagi kuzatuv punktlari, samolyot, kema borti kabi obyektlarda oʻrnatiladi.

TANITUVCHI BELGILAR – harbiy texnika va qoʻshinning qaysi davlatga (millatga) mansubligi, shuningdek, harbiy xizmatchi va texnik vositaning muayyan qurolli kuchlari, qoʻshin turi, birlashma, qoʻshilma yoki harbiy qismga (boʻlinmaga) tegishli ekanligini aniqlash imkonini yaratuvchi belgilar. Tanituvchi belgilar jumlasiga tasvir, raqam, harf va maxsus nishonlar kiradi. Har bir mamlakat qurolli kuchlarining tanituvchi belgilari oʻzining muayyan tizimiga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tanituvchi belgilari – sakkiz qirrali yulduz va davlat bayrogʻidir. Harbiy texnikaning qurolli kuchlar turiga mansubligi – tegishli tasvirlarda aks ettirilgan.

TANITUVCHI SIGNALLAR – bevosita koʻz bilan koʻrinadigan, signallovchi va radioaloqa vositalari orqali uzatiladigan shartli signallar. Havodagi samolyotlar (dengizdagi kemalar) bir-birini tanish va qaysi davlatga mansubligini aniqlash uchun xizmat qiladi. Uchish apparatlari va kemalarda radiolokatsion stansiyadan kodlashtirilib, nurlangan soʻroqlovchi signalga kodlashtirilgan javob signalini qaytaruvchi avtomatlashtirilgan radiotexnik apparatlar mavjud. Urush davrida bunday soʻroqlovchi signalga tegishli javob qaytarmagan samolyot (kema) dushman deb qabul qilinadi.

TANK (ingliz. *tank* – sisterna, bak) – zanjirli, zirhlangan va murakkab yoʻllarda yura oladigan jangovar mashina. Tankning jangovar xususiyatlari: olovli qudrat; ekipajni ishonchli himoyalash; zirhli himoya va tez harakatchanlik; uzoq masofalarga marshda yura olish; toʻsiqlarni yengib oʻta olish qobiliyati.

Tankning asosiy qismlari: zirhli korpus, minora, qurol-yarogʻ kompleksi: asosiy va yordamchi qurollar, oʻq-dori; kuzatish asboblari, nishonga olish va boshqa moslamalar, kuch (motor) qurilmasi, kuch uzatkichi (transmissiya), yurish qismi, elektr jihozlar, aloqa tizimi, yongʻinga qarshi jihozlar, ommaviy qirgʻin qurollarning shikastlovchi omillariga qarshi himoya tizimlari va boshqalar. Korpus va minora, tankning barcha tarkibiy qismlarini birlashtiradi hamda ekipaj, agregatlar va yonilgʻini shikastlanish va zararlanishdan saqlaydi. Minora qoʻlda, elektr yoki elektr-gidravlik yuritmalari yordamida aylantiriladi. Tankning korpusi va minorasi legirlangan zirh poʻlati listlarini bir-biriga payvandlab yasaladi, baʼzan, yaxlit quyma korpusli tank ham uchraydi. Minora, odatda, quyma holda boʻladi (baʼzi hollarda payvandlab yasaladi).

Tanklar snaryadga qarshi, yengil tank esa o'qqa qarshi zirhlanadi. Hozirgi tanklar korpusining ichki qismi boshqaruv bo'lmasi (unga mexanik-haydovchi joylashadi), jangovar bo'lma (unga tank komandiri, to'p otuvchi, o'qlovchi joylashadi, agar o'qlovchi-avtomat mavjud bo'lsa o'qlovchi bo'lmaydi), shuningdek, motor-transmissiya bo'lmasiga ajraladi. Yonilg'i, odatda, hamma bo'lmalarga o'rnatilgan baklarda, ba'zan korpusdan tashqaridagi baklarda saqlanadi.

Tank yengil, o'rta va og'ir turlarga bo'linadi. Asosiy quroli – maxsus to'p, ko'makchi quroli – pulemyot va zenit pulemyoti sanaladi. Asosan, tankka kesmali yoki silliq stvolli to'plar o'rnatiladi.

O'q-dorilar komplektiga zirhyorar, kumulyativ (nishonga yo'naltirilgan) oddiy snaryadlar va plastik portlovchi moddali snaryadlar (inshootlarni buzish va jonli kuchlarga shikast yetkazish uchun) kiradi. Aniq o'q (snaryad) otish quroli stabilizatorlari, ballistik hisoblagichlar, otish uchun ma'lumotlarni avtomatik sur'atda tayyorlaydigan qurilmalar, tunda otish asboblari yordamida amalga oshiriladi.

Tanklarga to'rt yoki ikki taktli, porshenli; suyuqlik yoki havo bilan sovutiladigan maxsus dvigatel o'rnatiladi. Burish mexanizmlari sifatida katta tezlikda ketayotgan tankning burilishini osonlashtiradigan ko'p radiusli mexanizmlardan, transmissiya apparatlarini boshqarish moslamalari sifatida foydalaniladi.

Tank yuqori tezlikda ham bir maromda ketishi uchun unga kuchli gidravlik demperlar (amortizatorlar) o'rnatilgan. Tank germetiklanganligi uchun 2 m gacha chuqurlikdagi kechuvlardan o'ta oladi (agar tank suv tagida yurish uchun mo'ljallangan maxsus moslamalar bilan jihozlangan, 4-5 m chuqurlikdagi suvlardan o'ta oladi).

Tankda elektron – hisoblash, yo'l ko'rsatuvchi va avtomatik yo'l topuvchi apparatlardan iborat navigatsiya tizimidan foydalaniladi.

Tank raketa, to'p qurollarini qo'llash, boshqariladigan snaryadlardan (raketalardan) foydalanishini hisobga olgan holda ishlab chiqariladi: zirh detallari qalinlashtiriladi, snaryad tegish ehtimoliga qarab korpusning tegishli joylariga qalin zirhlar o'rnatiladi; harakat tezligi oshiriladi, quvvati kuchaytiriladi va yonilg'ini bir muncha tejab sarflashni ta'minlaydigan dizel dvigatellaridan foydalaniladi.

Zamonaviy tank ekipaji 3-4 kishidan iborat, to'pining kalibri 105 mm dan 152 mm gacha, yurish tezligi – soatiga 41-70 km, vazni 35-55 t. Bir qancha mamlakatlarda samolyotda tashiladigan, suvda suzadigan yengil tanklar ishlab chiqariladi.

Ilk bor Angliya qo'shinlari tomonidan Birinchi Jahon urushi yillarida (1916) qo'llanilgan. XX asrning 60-yillaridan ko'pgina mamlakatlarda turli jangovar vazifalarni bajarishga mo'ljallangan, yagona asosiy tank ishlab chiqarila boshlangan.

TANKDAN OTISHNI MASHQ QILISH – tankchilarni tankdan o't ochishni o'rgatish mashg'ulotlarining asosiy shakli. Mazkur mashq tankchilar vzvodi tarkibida tanklar uchun jihozlangan o't ochish shaharchasida o'tkaziladi. O'quv joylari minoralar, trenajorlar, nishonga olish moslamalari o'rnatilgan dastgohlar bilan jihozlanib, qarshisida sun'iy nishonlar maydoni tashkil etiladi.

TANK DESANTI – tankda tashilib, tank bilan birgalikda jangovar harakat yurituvchi o'qchilar bo'linmasi. Asosan hujumni avj oldirish uchun qo'llaniladi. Tanklar ustida odatda, 8-10 kishi joylashadi. Qo'shinlarning qurol-aslahasi tarkibida zirhli transportyorlar va piyodalarning jangovar mashinalari mavjudligi bois tankdagi desant o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda.

TANKKA QARSHI RAKETA KOMPLEKSI – zirhlangan obyektning yakson etilishini ta'minlovchi jangovar va texnik vositalar majmui. Tankka qarshi raketali kompleks tarkibiga:

- uchirish qurilmasi;
- raketani yo'llash;
- nishonga olish;
- uchirish apparati mujassam etilgan. Tankka qarshi raketali kompleks:
- *harakatlanishiga ko'ra* – olib yuriluvchi, o'ziyurar va vertolyotga o'rnatiladigan;
- *raketa parvozinin tezligiga ko'ra* – tovush tezligidan past va tovush tezligidan yuqori turlarga bo'linadi.

Parvoznin eng olis masofasi – 4 km gacha, zirhni teshib o'tish qobiliyati – 550 mm gacha.

TANKKA QARSHI XANDAQ – quruqlikda eni keng (5-7 m), chuqurligi taxminan 2 m qazilgan xandaq ko'rinishidagi tankka qarshi sun'iy to'siq. Mudofaa marrasi oldida, tanklar hujumi tahdid solgan yo'nalishlarda qaziladi.

TANKKA QARSHI QUROL-ASLAHA – tank va shu kabi zirhlangan nishonlarni yakson etish uchun mo'ljallangan qurol va qo'llanishini ta'minlovchi vositalarning turli rusumi. Tankka qarshi qurol-aslaha jumlasiga:

- qo‘l granatasi;
- tankka qarshi qurol;
- tankka qarshi mina kabilar kiradi.

TANKLAR Hujumidan Mudofaa – dushman tanklari atakasini qaytarish, yakson etish bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlar va qo‘shinlarning jangovar harakatlari. Tanklar hujumidan mudofaa tizimi aviatsiya va raketalarining oldindan tayyorlab qo‘yilgan zarbalari, artilleriya va tankka qarshi vositalar olovi, tankka qarshi zaxiralar va to‘siq o‘matuvchi otryadlardan tashkil topgan.

TANKNI SUV OSTIDA BOSHQARISH USKUNALARI – tankning suv to‘sig‘i havzasini 5 m gacha chuqurlikdagi tubi bo‘ylab yengib o‘tishi uchun mo‘ljallangan uskunarlar komplekti. Tarkibiga:

- havo bilan ta‘minlash quvuri;
- zichlagichlar;
- chiqarish klapanlari;
- havo tozalagich qopqoqlari;
- girokompas kabilar kiradi.

Bundan tashqari mazkur uskunarlar tarkibiga izolyatsiyalovchi nafas olish apparatlari va qutqaruv kamzullari kiradi.

TANKODROM – joyning jangovar mashinalarni (yakka va bo‘linmalar tarkibida) boshqarishga o‘rgatish uchun maxsus jihozlangan murakkab relyefli maydoni.

TANK QO‘SHINLARI – quruqlikdagi qo‘shinlar turining biri bo‘lib, mustaqil tarzda hamda qo‘shinning boshqa turlari va maxsus qo‘shinlar bilan hamkorlikda jangovar harakatlar yuritish uchun mo‘ljallangan. Tank qo‘shinlarining asosini turli rusumdagi tanklar tashkil etadi. Tank, motoo‘qchi (mexanizatsiyalashtirilgan, motopiyoda), raketa, artilleriya va boshqa bo‘linma, qism, qo‘shilmalardan tashkil topgan.

Tank qo‘shinlari qudratli o‘t ochish, kuchli zarba berish va tez harakat qilish imkoniyatiga hamda ishonchli zirhli himoyaga ega. Asosan uzoq masofadagi dushmanga qarata qudratli zarbalar berish uchun qo‘llaniladi.

Dushman mudofaasini yorib o‘tish, yuksak manyovrli jangovar harakatlar olib borish, hujumni yanada ichkariga davom ettirib borish, dushman mudofaasi ortida harakat qilib, uning zaxiralarini tor-mor etish, eng muhim marralarni egallash va qo‘lda tutib turish, jang va operatsiya maqsadiga tezlik bilan erishishni ta‘minlashga qodir.

1942-yilgacha avtobronetank qo‘shinlari deb atalgan. 1960-yildan boshlab esa *tank qo‘shinlari* deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tank qo'shinlari mavjud.

TANTANALI MARSH –1) Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun jon fido qilganlar xotirasiga o'rnatilgan yodgorlik poyiga yoki mozoriga gulchambar qo'yilayotgan hollarda, qismga Jangovar Bayroq berilayotganda, harbiy qism taqdirlangan orden qismga topshirilganida, parad va saf ko'rigida harbiy qismning (bo'linmaning) musiqa sadolari ostida o'tishi.

Tantanali marsh shaxdam qadamlar bilan mashinalarda esa, cheklangan tezlik bilan amalga oshiriladi. Tantanali marsh o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf nizomida belgilangan bo'lib, tegishli komandirning (boshliqning) buyrug'ida e'lon qilinadi; 2) tantanavor va qahramonona ruhdagi ohangda yaratilgan musiqiy asar.

TARBIYAVIY ISHLAR TIZIMI – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari jangchilarida mustaqil Vatanning qurolli himoyasi uchun zarur bo'lgan dunyoqarash, ong, ma'naviy-siyosiy va ruhiy barqarorlik va yuksak jangovar sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan, harbiy kengash va komandirlar, tarbiyaviy ishlar organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining tarkibiy qismi. Tarbiyaviy ishlar avlod-ajdodlarimizning mustaqil yurtimiz yutuqlarini qurolli himoyasi borasida qoldirgan nazariy meroslari, urush va armiya to'g'risidagi ta'limot muammolari, Qurolli Kuchlarimiz hayotida ro'y berayotgan yangi jarayon va hodisalar, jahonning bugungi kunida ro'y berayotgan harbiy-siyosiy vaziyat rivoji tadqiqotlariga tayangan holda yuritiladi.

Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari, oila a'zolari tarbiyasi armiya hayotining yalpi turmush tarzi, jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik jarayoni, targ'ibot, tashviqot va madaniy-ma'rifiy ishlari davomida amalga oshiriladi.

TARBIYAVIY VA MAFKURAVIY ISHLAR – bu harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik, fidoiylik, o'z burchiga sadoqat, Vatan va millat taqdiriga daxldorlik, yuksak estetik did va keng dunyoqarash kabi axloqiy fazilatlar va professional ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz va tizimli ravishda amalga oshiriladigan faoliyatdir.

TARBIYAVIY VA MAFKURAVIY ISHLARNING STRATEGIK MAQSADLARI – harbiy xizmatchilarni O'zbekiston Respublika Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoniga, Vatanning mustaqillik timsollariga sadoqat, faol fuqarolik pozitsiyasi va yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

– harbiy xizmatchilarda milliy armiyamizning qudratiga, xalqimizning

tinchligini va osoyishtaligini ishonchli himoya qilishga qodir ekanligiga qat'iy ishonchini shakllantirish;

– harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini ko'tarish va doimiy ravishda uni qo'llab-quvvatlab turish.

Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarning asosiy yo'nalishlari:

- ma'naviy;
- ma'rifiy;
- madaniy;
- axloqiy-ruhiy.

Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarning shakllari:

- ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik;
- ma'naviyat soati;
- tezkor axborot;
- kitob mutolaasi;
- savol-javob kechalari;
- viktorinalar;
- ekskursiyalar;
- mavzuviy kechalar;
- “Mardlik va jasorat” darslari;
- shoir va yozuvchilar, fan va madaniyat arboblari, faxriylar va yoshlar bilan uchrashuvlar;

- harbiy-vatanparvarlik aksiyalari;
- muzey va teatrlarga tashriflar;
- teleko'rsatuvlar tomoshasi va muhokamasi;
- yakka tartibdagi suhbat;
- umumiy yig'ilishlar;
- sport va intellektual o'yinlar;
- ko'rik-tanlovlar;
- yakunlar, tahliliy ishlarni o'tkazish;
- axloqiy-ruhiy tayyorgarlik mashg'ulotlari va mashqlari.

Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarning usullari:

- ishontirish;
- rag'batlantirish;
- namuna;
- mashq;
- musobaqa;
- tanqid, o'z-o'zini tanqid qilish;
- majburlash.

TARQATUVCHI – zimmasiga soqchilarni joylarga qo'yib chiqish, almashtirish, xizmat o'tashlarini tekshirish kabi mas'uliyatlar yuklatilgan qorovul tarkibidagi harbiy xizmatchi. Tarqatuvchi serjantlar yoki yaxshi tayyorgarlik ko'rgan askarlar tarkibidan tayinlanadi. Qorovul boshlig'i va uning yordamchisiga bo'ysunadi va faqat ularning buyruqlarini bajaradi.

Tarqatuvchining majburiyat va huquqlari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovul xizmatlari Nizomida belgilangan.

TA'MINOT CHIZIG'I – dushmanni front bo'ylab oldingi haqiqiy mudofaa chizig'imiz borasidagi tasavvurini chalg'itish, raqib kuchi va vositalarining miqdori, harakatining yo'nalishi va xususiyatlarini o'z vaqtida aniqlash maqsadida, birinchi eshelonda mudofaaga o'tgan qo'shinlarimiz fronti oldida jihozlangan joy chegaralari. Ta'minot chizig'i jumlasiga bir necha mudofaa tarmoqlari va to'siqlar tizimi kiradi. Ta'minot chizig'i himoya qiluvchi harbiy qism yoki ilg'or otryadlar tomonidan mudofaa etiladi.

TA'TIL – dam olishi, davanishi, shaxsiy yoki oilaviy muammolarini hal etishi uchun harbiy xizmatchiga taqdim etiladigan vaqt. Mazkur vaqt davomida uning oylik maoshi va boshqa ta'minoti saqlanib qolib, xizmat majburiyatini ado etishdan vaqtincha ozod etiladi. Ta'til davomiyligi ta'tilga chiqishdan maqsad, harbiy xizmatchi o'tagan xizmat muddati kabi shartlarga bog'liq bo'lib:

- navbatdagi ta'til – 30-45 sutka;
- qisqa muddatli va oilaviy sharoitiga ko'ra taqdim etilgan ta'til – 10 sutkagacha;
- kasalligi tufayli taqdim etilgan ta'til kabi turlarga bo'linadi. Bundan tashqari harbiy xizmatchiga:
 - oliy harbiy ta'lim o'quv yurtini yakunlagani munosabati bilan taqdim etiladigan yoki ushbu bilim yurtida tahsil ko'rish davomida taqdim etiladigan kanikulyar ta'til;
 - tahsil ko'rish maqsadida kirish imtihonlarini topshirish uchun taqdim etiladigan ta'til;
 - jangovar harakatlarda ishtirok etgani va favqulodda holatlar oqibatlarini bartaraf etish tadbirlarida ishtirok etgani uchun qo'shimcha ta'til;
 - ijodiy faoliyat uchun ta'til taqdim etiladi.

Muddatli harbiy xizmat askariga ta'til rag'batlantirish sifatida taqdim etilishi mumkin. Shuningdek, harbiy xizmatchi ayolga homiladorlik va

ko'z yorish munosabati hamda bola parvarishi uchun ta'til taqdim etiladi. Amaldagi qonunchilikda belgilangan alohida holatlarda bola parvarishi bo'yicha ta'til erkak harbiy xizmatchiga ham taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa asoslarga muvofiq ham harbiy xizmatchiga ta'til taqdim etilishi mumkin.

TA'TIL GUVOHNOMASI – ta'tilga chiqayotgan harbiy xizmatchiga beriladigan, belgilangan shakldagi hujjat. Shaxsiy guvohnoma bilan birgalikda taqdim etilgandagina haqiqiy sanaladi. Harbiy xizmatchi ta'tildan qaytgach mazkur guvohnoma shtabga (saf, kadrlar bo'linmasiga) topshiriladi.

TA'QIB ETISH – chekinib borayotgan dushmani oxirigacha tormor etish (asir olish) maqsadida uyushtiriladigan hujum. Ta'qib etish amali frontal yoki parallel tarzda yuritilishi mumkin.

Frontal ta'qib etish – dushman qo'shinining harakatini cheklab, muntazam zo'riqqan holatga solib qo'yadi, erkin manyovr o'tkazishdan mahrum etib, noqulay sharoitda jang olib borishga majbur qiladi va asosiy kuchining chekinishini murakkablashtiradi.

Parallel ta'qib etish – bo'linmalarimiz yuqori sur'atlarda olg'a ilgarilab, samarali chegaralar egallanadi.

Frontal va parallel ta'qib mohirona uyg'unlashtirilganida hal etuvchi uzil-kesil natijalarga erishiladi.

TAYANCH PUNKTI – guruh yoki vzvod tomonidan mudofaa etilayotgan, o't ochish vositalari va to'siqlar bilan to'la-to'kis butlangan, aylana mudofaaga hozirlab qo'yilgan joy maydoni.

TAHDID SOLUVCHI DAVR – vaqtning turli muddat davom etadigan, qoida tariqasida, harbiy nizo boshlanishidan oldinga to'g'ri keladigan hamda harbiy-siyosiy vaziyat o'ta keskinlashganligi bilan tavsiflanadigan davri.

TAQIQLANGAN ZONA – mintaqa hududi va havo bo'shlig'ining sarhadlariga tegishli organ ruxsatnomasiga ko'ra kirish va istiqomat qilishning maxsus rejimi o'rnatilgan maydoni. Taqiqlangan hudud chegaralari joylarda aniq ko'rinadigan yozuv va ko'rsatkichlar bilan belgilanadi.

TEZKOR AXBOROT – ommaviy-tashviqot ishlari shakllaridan biri.

Shaxsiy tarkibga mamlakatimiz va xorijda ro'y bergan siyosiy, iqtisodiy va jamoat yangiliklari voqea va hodisalarni tez yetkazish usuli.

O'tkazilish vaqti qism komandiri tomonidan harbiy qismning kun

tartibiga muvofiq o'rnatiladi.

TEZKOR NAVBATCHI – harbiy qism, qo'shilma va birlashmaning qo'mondonlik punktidagi navbatchiligi vaqtida qo'shinlar boshqaruvini ta'minlash borasida muayyan majburiyatlarni bajarayotgan ofitser. Odatda, tayyorgarlik ko'rgan shtab ofitserlari hamda qo'shin turi va turli xizmatlarga mansub ofitserlar tarkibidan bir sutkaga tayinlanadi.

Tegishli komandir, shtab boshlig'i va maxsus Yo'riqnomada ko'rsatilgan shaxslarga bo'ysunadi.

TEMIRYO'L QO'SHINLARI – ayrim davlatlarning front orti ta'minoti tarkibiga maxsus qo'shinlar sifatida kiritilgan, maxsus mashina va mexanizmlar komplekslari bilan ta'minlangan, harbiy tashishlar uchun foydalanadigan, temiryo'llarni yotqizish va xizmat ko'rsatish bilan mashg'ul bo'ladigan qo'shinlar.

"TEMURBEKLAR MAKTABI" – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh. Mirziyoyevning tashabbusi bilan harbiy xizmatchi uchun zarur bo'lgan boshlang'ich kasbiy bilim va ko'nikmalar, yuqori vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan intellektual salohiyatli va jismonan rivojlangan yoshlarni shakllantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizligi xizmati va Milliy gvardiya tarkibida "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari tuzildi.

Quyidagilar Temurbeklar maktablarining asosiy vazifalari etib belgilandi:

- umumta'lim maktablarining eng iste'dodli o'quvchilarini tanlash, ularning intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirish va o'qishni oliy harbiy ta'lim va oliy ta'lim muassasalarida davom ettirishga maqsadli chuqur tayyorlash;

- Vatanga sadoqat, yuksak fuqarolik hamda demokratiya, mustaqillik g'oyalarga, o'z xalqining ma'naviy va tarixiy qadriyatlariga sodiqlik ruhida tarbiyalangan yoshlarni tayyorlash;

- litsey ixtisosligiga muvofiq ravishda o'quvchilarning tegishli mutaxassisliklar bo'yicha oliy, shu jumladan oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirishlari uchun zarur va yetarli bo'lgan chuqurlashtirilgan nazariy va kasbiy tayyorgarligini ta'minlash;

- o'quvchilarga qonunchilikni to'g'ri tushunishni va ularga ongli rioya qilishni ta'minlaydigan yuksak madaniyatni, faol ijtimoiy-fuqarolik xulq-atvorini singdirish;

– o‘quvchilarda jismoniy chidamlilik, kuch, chaqqonlik va tezkorlikni rivojlantirish.

“Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseylari o‘quvchilarni harbiy mutaxassislik bo‘yicha yo‘naltiruvchi o‘quv programma va rejalari asosida o‘qitadi hamda Respublika oliy harbiy maxsuslashtirilgan va oliy ta‘lim muassasalariga tayyorlaydi. “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyiga umum ta‘lim muassasalarining 9-sinfini tamomlagan va tanlovdan o‘tgan yoshlar qabul qilinadi. O‘qish davri – ikki yilni tashkil etadi.

TEXNIK KUZATUV PUNKTI – jang davomida tashkil etiladigan, qo‘shinni texnik ta‘minlash organi. Tank va motoo‘qchi batalyonlarda, nosoz va ishdan chiqarilgan mashinalarga o‘z vaqtida texnik yordam ko‘rsatish maqsadida jang maydonidagi zirhli obyektlarni kuzatib turish uchun tashkil etiladi.

Murakkab yo‘llarni bosib o‘tish qobiliyatiga ega zirhli mashina, aloqa vositalari, kuzatish va tunda ko‘rish asboblari, zarur bo‘lganda navigatsiya apparatlari bilan ta‘minlanadi.

Batalyonning qo‘mondonlik-kuzatuv punkti, ta‘mirlash guruhi, texnik ta‘minot bo‘yicha katta boshliq va ishdan chiqqan mashina ekipaji bilan aloqa tutib turadi. Mazkur punktda kuzatuv jurnali yuritiladi.

TEXNIK RAZVEDKA – qo‘shinlarning texnik ta‘minotini tashkil etish va amalga oshirish maqsadida zaruriy ma‘lumotlarni izlab topish. Jang maydoni va front ortida ishdan chiqqan, botib qolgan harbiy texnika mavjudligi, joylashgan joyi, holati va ishdan chiqqan mashinalar yig‘iladigan punktga qadar uni evakuatsiya qilish imkoni bor-yo‘qligi, mahalliy joylarda ta‘mirlash vosita va ashyolari bor-yo‘qligi kabi ma‘lumotlarni izlaydi va aniqlaydi.

TEXNIK TAYYORGARLIK – shaxsiy tarkibni harbiy texnikani boshqarishga o‘rgatish, undan texnik jihatdan to‘g‘ri foydalanish va jangda mohirona qo‘llash uchun harbiy xizmatchilarga zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarning shakllantirilishi. Texnik tayyorgarlik mazmunan:

– moddiy qismning tuzilishi va ishlash tamoyili hamda harbiy texnikadan foydalanish qoidalarini o‘rganish;

– ekipaj kuchi bilan harbiy texnikaga texnik xizmat ko‘rsatish, nosozliklarni bartaraf etish va kundalik ta‘mir ishlarini bajarish texnologiyalarini o‘zlashtirib olishdan iborat. Texnik tayyorgarlik mashg‘ulotlari o‘tkaziladigan sinflar kesilgan o‘quv agregati, harakatlanuvchan dastgoh, model va plakatlar bilan jihozlanadi.

TEXNIK TA'MINOT – qo'shnlarni harbiy texnika, o'q-dori va harbiy-texnik anjomlar bilan ta'minlash, harbiy texnikaning samaradorligi va foydalanishdagi ishonchligini oshirish, tez muddatda tiklab (ta'mirlab) safga qaytarish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar majmui. Maxsus texnik ta'minot turi. Texnik ta'minot harbiy texnika turiga ko'ra o'tkazilib:

- muhandis-raketa ta'minoti;
- muhandis-radioelektron ta'minot;
- muhandis-aviatsiya ta'minoti;
- muhandis-artilleriya ta'minoti;
- tank texnik ta'minoti;
- muhandis-texnik ta'minot;
- kimyoviy texnik ta'minot;
- aloqani texnik ta'minlash;
- front orti ta'minotiga mansub xizmat turlari bo'yicha texnik ta'minot turlariga bo'linadi.

Texnik ta'minot manfaatlarida texnik razvedka tashkil etiladi.

Aloqani texnik ta'minlash – qo'shinlar tasarrufidagi aloqa vositalari va boshqaruvning avtomatik tizimlarini doimiy shay holatda tutib turish, ishining ishonchligi va uzluksizligini ta'minlash, ishdan chiqqan hollarda ta'mirlash, qo'shnlarni aloqa texnikasi va anjomlari bilan o'z vaqtida ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Front orti ta'minoti xizmatlari bo'yicha texnik ta'minot – yo'llar, temiryo'llar va muhandislik-aerodrom texnikasi, yoqilg'i tashish va quyish vositalari, tibbiyot apparatlari, taom tayyorlashga mo'ljallangan texnik vositalar kabi front orti ta'minoti texnikasining sozligi, doimiy shay holati, ishining ishonchligi, o'z vaqtida xizmat ko'rsatilishi va zarurat tug'ilganida ta'mirlanishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASH PUNKTI – harbiy qism parkingi elementi. Mashinalarga navbatdagi (raqamli) texnik xizmat ko'rsatish (1-texnik xizmat ko'rsatish, 2-texnik xizmat ko'rsatish) va kundalik ta'mir bo'yicha ishlarni bajarish uchun mo'ljallangan. Mazkur punkt texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash postlari, maxsus ishlarni amalga oshirish joylari va maishiy xonalardan tashkil topgan.

TEXNIK HUJJATLAR – harbiy texnika to'g'risida matn va grafik ko'rinishdagi ma'lumotlar kiritilgan hujjatlar tizimi. Texnik hujjatlar jumlasiga:

- *konstruktorlik mazmunidagi hujjatlar* – bunda jihozning ko'rinishi, tuzilishi, tarkibi belgilab beriladi, uni ishlab chiqish, tayyorlash,

nazoratdan o'tkazish, qabul qilish, foydalanish va ta'mirlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar kiritiladi;

– *texnologik mazmundagi hujjatlar* – bunda jihozni tayyorlash yoki ta'mirlash, detallarini butlash kabi amallarning texnologik jarayoni belgilab beriladi;

– *foydalanishga oid hujjatlar* – bunda jihozdan vazifasiga muvofiq foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish, transportda tashish va saqlash qoidalari belgilab beriladi;

– *me'yoriy-texnik mazmundagi hujjatlar* kiradi.

TIBBIYOT KITOBCHASI – Qurolli Kuchlarda belgilangan tibbiy hisob yuritishning asosiy hujjati.

Har bir harbiy xizmatchining tibbiy ko'rikdan o'tganligi, tekshiruvi va sog'lig'ini saqlash borasida o'tkazilgan tadbirlar natijalari qayd etib borilishi uchun mo'ljallangan bo'lib, barcha qism (kema) va harbiy ta'lim muassasalarining tibbiyot xizmati xodimlari tomonidan yuritiladi.

Harbiy xizmatchi haqiqiy harbiy xizmatini boshqa qismda davom ettirish uchun yuborilganida uning tibbiyot kitobchasi yangi xizmat joyiga jo'natiladi.

TIBBIYOT PUNKTI – yarador va bemorlarni qabul qilish, ambulator va statsionar yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan harbiy qism (kema) tibbiyot xizmatining bo'linmasi.

Sog'liqni saqlash vazirligiga mansub davolash shifoxonalari va muassasalari bo'lmagan joylarda, harbiy qism tibbiyot punktida, Qurolli Kuchlar ishchi xizmatchilari va oila a'zolariga ham tibbiy yordam ko'rsatiladi. Shtatida tibbiyot xizmati ko'zda tutilgan barcha harbiy qismlarda tibbiyot punkti tashkil etiladi. Tibbiyot punkti odatda, ambulatoriya, statsionar va dorixonadan tashkil topgan.

Tibbiyot punkti holati va faoliyati uchun harbiy qism (kema) tibbiyot xizmati boshlig'i javob beradi.

TIBBIY KO'RIK – harbiy xizmatchilar sog'lig'ining tibbiy nazorati tizimidagi asosiy tadbirlardan biri. Shaxsiy tarkibning sog'lig'i va jismonan rivojlanish holatlariga baho berish, dispanserizatsiya etish, kuzatuv ostiga olish va davolash zarur bo'lgan shaxslarni o'z vaqtida aniqlash maqsadida tashkil etiladi va o'tkaziladi. Tibbiy ko'rik quyidagi davrlarda o'tkaziladi:

– birlamchi tibbiy ko'rik – harbiy xizmatchi bevosita harbiy qismga ilk bor kelganida;

– navbatdagi – odatda, yilda 2 marotaba, yozgi va qishki o'quv

mavsumlari boshlanishidan oldin;

– nazorat tibbiy ko'rigi.

Tibbiy ko'rik mobaynida harbiy xizmat o'tashga to'sqinlik qiluvchi kasallik yoki jismonan rivojlanishida nuqson aniqlangan harbiy xizmatchi davolash muassasalarida batafsil tibbiy ko'rikdan o'tadi va tibbiy (shifokorlik) tekshiruvga (xulosa chiqarish uchun) yuboriladi.

TINCHLIK – davlatlarning o'zaro tinch-totuv yashashlari uchun hayotiy jihatdan zarur bo'lgan shart-sharoitlarni belgilab beradigan hamda xalqlar va davlatlar, davlatlar ittifoqlari o'rtasida milliy manfaatlar inobatga olinishiga, tashqi siyosatning zo'ravonlik vositalarisiz olib borilishiga, ochiqdan ochiq harbiy to'qnashuvlar, qurolli kurashlar yo'q bo'lishiga va imzolangan shartnomalarga muvofiq zimmaga olingan majburiyatlarning to'la-to'kis bajarilishiga asoslanadigan munosabatlar xususiyatini belgilab beradigan tushuncha. Tinchlik qator obyektiv va subyektiv siyosiy, iqtisodiy va boshqa sabablar tufayli urushlar bilan tez-tez buzilib boradi.

Urush boshlanishidan oldingi tinchlik – bo'lajak harbiy to'qnashuvga ochiqdan ochiq va yashirin tayyorgarlik elementlaridan iboratdir. *Urush o'tganidan so'ng hukm suradigan tinchlik* esa – urush davomida olib borilgan siyosatning davomi sanalib, o'tgan harbiy harakatlar oqibatida urishgan tomonlarning hayotida (loaqa bittasida bo'lsa ham) yuz berayotgan o'zgarishlardan iborat bo'ladi.

TIRGAKLI PULEMYOT – quruqlik va havodagi nishonlarga qarata o't ochishning o'ta aniqligi, qurolni nishonga yo'llash qulayligi va turg'unligini ta'minlash uchun maxsus tirkakka o'rnatilgan pulemyot. Olib yurish qulay bo'lishi uchun bir necha qismlarga bo'linadi. Tirkakli pulemyotlar uch oyoqli va g'ildirakli ko'rinishlarga ega. Taktik va texnik xususiyatlari:

– *patronlar bilan ta'minlanishi* – tasmali. Tasmaga 250-300 dona patron anjomlanadi;

– *otish tezligi* – daqiqada 250-300 dona patron;

– *o'qlarning ta'sirli masofasi* – 1000 metrgacha;

– *pulemyotning tirkagi bilan birgalikdagi vazni* – 40-65 kg.

TOVUSHNI NIQOBLASH – taktik niqobni ochib tashlaydigan shovqinlar darajasini susaytirish, shuningdek, dushman tomonidan tovush razvedkasi olib borilishini qiyinlashtiruvchi shovqinlar yaratishga qaratilgan tadbirlar majmui; taktik niqoblanish turlaridan biri.

Tovushni niqoblash tadbirlari qo'shinlarni qayta guruhlash, almashtirish, manyovr o'tkazishi va jangovar harakatlarga tayyorgarlik

ko'rish tadbirlarini dushmandan yashirish uchun o'tkaziladi.

TOVUSH RAZVEDKASI – tovush o'lchovchi asboblari yordamida otishma tovushi bo'yicha dushmanning kuzatilmaydigan (boshqa ko'rinmaydigan) batareyalari (artilleriya qurollari, minomyotlari, pulemyotlari, raketalarni uchirish qurilmalari) haqida ma'lumotlarga ega bo'lish.

Tovush razvedkasi vazifasiga, shuningdek, o'z artilleriyasining otishmasiga xizmat ko'rsatish (snaryadlarning, minalarning) mo'ljaldan og'ib portlashini, tovush reperlarining koordinatalarini, otishmaning mo'ljalga tegayotganligini nazorat qilish) ham kiradi.

Tovush razvedkasi tevarak atrofning ko'rinish holatiga bog'liq bo'lmay, yilning har qanday faslida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatadi, dushman razvedkasi tomonidan fosh etilishi qiyin kechadi.

TOKSINLAR – o'simlik va hayvonot dunyosidan kelib chiqqan yoki bakterial yo'l bilan vujudga kelgan, organizmga kichik dozada bo'lsa ham singib kirganida undagi fiziologik jarayonlarning buzilishi, oqibatda insonning kasallanishi yoki o'limiga olib keluvchi moddalar.

Toksinlar:

– *oqsilli* – eng zaharli turi bo'lib, asosan, asab tizimining jarohatlanishiga olib keladi;

– *oqsilsiz* turlariga bo'linadi.

Toksinlarni zararsizlantirish maqsadida, emlash uchun mo'ljallangan tegishli dori-darmonlar qo'llaniladi.

TORMOZLOVCHI PARASHUT – samolyotning havoga ko'tarilishi uchun tezlashish mobaynida sodir bo'lgan avariya holatida (dvigatelning o'chib qolishi) va yerga qo'nish davomida bosib o'tadigan yo'l uzoqligini qisqartirish (tezlikni so'ndirish) uchun qo'llaniladigan vosita. Ochilishi mobaynida dinamik kuchining kichikligi bilan boshqa parashutlardan farqlanib turuvchi tasmali gumbazga ega tormozlovchi parashutlar keng tarqalgan.

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QOSHIDAGI HARBIY-TIBBIYOT FAKULTETI – davlat oliy harbiy ta'lim muassasalari tarkibiy qismlaridan biri, unda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tibbiyot xizmatining mutaxassis kadrlari, xaxira va iste'fodagi ofitserlari tayyorlanadi. Mazkur fakultetda soha xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari ham faoliyat yuritadi. Ushbu fakultet 2010-yilda tashkil topgan.

TOG' ARTILLERIYASI – tog'larda foydalanish uchun

mo'ljallangan, quruqlikda qo'llaniladigan artilleriya turlaridan biri. Qurol-aslahasi tarkibiga tog' to'plari (yengil to'p, zambarak va minomyotlar) hamda reaktiv artilleriya qurilmalari kirib, ular tirkamada, shatak kuzovida va yuk tashuvchi hayvonlar yordamida tashiladi. Tog' artilleriyasining to'plari yopiq o'q ochish marrasidan katta ko'tarilish burchaklari ostida va to'g'ridan to'g'ri yo'nalishda o't ochishga qodir.

TOG' QO'SHINLARI – tog'li joylarda harbiy harakatlar olib borish uchun maxsus o'qitilib tayyorlanadigan quruqlikdagi qo'shinlarga mansub (motoo'qchi, artilleriya va shu kabi) qismlar. Asosiy qo'shin turlari va maxsus qo'shnlardan tashqari tarkibiga tog'-chang'ili, qoyaga chiquvchi, ot-ulovga ega bo'linmalar kirishi mumkin. Qurol-aslahasi tarkibida, tog'da yurish va o't ochishga moslashtirilgan to'p va minomyotlar mavjud. G'arbiy Yevropadagi bir qator davlatlarda tog' qo'shinlarini *Alp tog'lari qo'shinlari* deb atash qabul qilingan.

TRAYEKTORIYA – 1) koordinatalarning tanlangan tizimiga nisbatan fazoda harakatlanayotgan jism (o'q, snaryad) tasvirlayotgan uzluksiz chiziq.

Koordinatalarning harakatsiz tizimiga nisbatan tasvirlangan trayektoriya – mutlaq trayektoriya, harakatchan tizimiga nisbatan tasvirlangan trayektoriya – nisbiy trayektoriya deb ataladi; 2) nuqta o'z harakatida chizadigan chiziq. Trayektoriya to'g'ri chiziq bo'lsa, harakat to'g'ri chiziqli, aks holda egri chiziqli harakat deyiladi; 3) tashqi ballistikada – snaryad (raketa, o'q) massasi markazining harakat chizig'i. Trayektoriya o't ochish quroli stvoli (yo'naltiruvchi yoki ishga tushirish stvoli) og'zidagi nuqtadan nishon bilan uchrashish nuqtasigacha (portlash nuqtasigacha) bo'lgan egri chiziqdan iborat.

TRANSPORTYOR – shaxsiy tarkib, harbiy texnika va moddiy vositalarni tashish uchun mo'ljallangan zanjirli yoki g'ildirakli mashina.

Zirhlangan bo'lsa zirhli transportyor deb ataladi. Dvijitelining rulumiga ko'ra g'ildirakli va zanjirli turlarga farq qiladi. Transportyor suzuvchi bo'lishi ham mumkin. Transportyorlarning quyidagi turlari ma'lum:

- *ko'p maqsadli* transportyor va *shatakchi* transportyor;
- *muhandislik* transportyori – suzuvchi avtomobil;
- *desant* transportyori – shaxsiy tarkib, qurol-aslaha kabilarni kemadan qirg'oqqa olib o'tish uchun mo'ljallangan, og'ir yuk bilan suzuvchi mashinalar;
- *har qanday joyda yura oladigan* transportyor – keng yuzali shinaga

ega g'ildirakli mashinalar.

TRANSHEYA – o't ochish va dushman nazaridan pinhon yurish uchun mo'ljallangan, o'qchi va pulemyotchilar joylashadigan uyalar va brustverga ega xandaq (zovursimon chuqurlik). Shu bilan birga shaxsiy tarkib va qurol-aslahani dushmanning shikast yetkazuvchi vositalaridan himoya qilish uchun ham xizmat qiladi.

TREVOGA – 1) jangovar vazifani bajarish va favqulodda vaziyatda harakatlanish uchun shaxsiy tarkib va texnikani zudlik bilan tayyor holatga keltirish maqsadida Qurolli Kuchlarda o'tkaziladigan tadbirlar majmui. Jangovar trevoga, havo trevogasi, o'quv trevogasi, yong'in trevogasi, kimyoviy trevoga kabi trevogalar e'lon qilinishi ko'zda tutiladi; 2) qo'shnlarni trevoga turiga bog'liq holda jangovar shaylikning u yoki bu darajasiga keltirish xususidagi signal (komanda). Turli texnik vositalar yordamida (bo'linmada – ovoz bilan) uzatiladi.

TRENAJOR – obyekt (kema, samolyot, tank kabilarni) turli sharoitda boshqarish bo'yicha shaxsiy tarkib ko'nikmasi va mahoratini shakllantirish uchun mo'ljallangan o'quv-mashq qurilmasi.

Harbiy trenajor harbiy texnikani boshqarish va jangovar qo'llash jarayonida kuzatiladigan, mashina va qurilmalarning statik va dinamik xususiyatlarini, boshqa ko'rinadigan vaziyatni va boshqa jismoniy omillarni (shovqin, tebranish, zo'riqish kabilarni) asl holatiday aks ettiradi. Vazifasi va rusumiga ko'ra trenajorlar:

- avtomobil trenajori;
- tank trenajori;
- aviatsiya trenajori;
- kosmik trenajor kabi trenajorlarga farq qiladi.

Trenajorlardan foydalanish natijasida:

- harbiy texnikani o'zlashtirish muddati qisqaradi;
- ta'limot narxini tushirishga erishiladi;
- shaxsiy tarkibning jangovar ta'limot samarasi oshadi.

TROTIL – trinitrotoluol. Brizentli portlovchi moddalarga mansub me'yoriy quvvatga ega asosiy portlovchi modda hisoblanib, undan portlatish ishlari va ko'plab o'q-dorilar tayyorlash jarayonida foydalaniladi.

Trotill kristall modda ko'rinishida bo'lib, yorqin sariq rangdan yorqin jigarrangacha uchraydi. Ta'mi achchiqroq. Trotill o'ziga suv singdirmaydi, suvda umuman erimaydi. Sanoatda kukunsimon (kukunsimon trotill), mayda tangachalar (tangachasimon trotill) va

sharchasimon (granulalashtirilgan trotil) ko'rinishlarda ishlab chiqariladi.

Tangachasimon trotil 1,6 zichlikka qadar presslanadi. Trotil 81⁰ C haroratda parchalanmasdan eriydi, eritilganidan so'ng qotib qolgan (quyilgan) trotil zichligi 1,55 / 1,660.

Chaqmog'ining harorati 310⁰ C atrofida. Ochiq havoda trotil sariq tusdagi alanga bilan ko'p qurum qoldirib portlamay yonadi. Yopiq hajm ichida yonayotgan trotil detonatsiyaga uchraydi. Zarba, ishqalanish kuchi va issiqlik ta'siriga trotil kam ta'sirchandır.

Presslangan va quyilgan trotilga qarata o'qli qurolning oddiy o'qi bilan o'q uzilganda portlamaydi ham, yonmaydi ham.

Metallar bilan kimyoviy reaksiyaga kirishmaydi. Trotilning detonatsiyaga ta'sirchanligi uning holatiga bog'liq. Presslangan va kukunsimon trotil 8-kapsyul-detonatordan inkorsiz portlaydi.

Quyilgan, tangachasimon va granulalashtirilgan trotil esa – faqat presslangan trotildan yoki boshqa brizantli portlovchi moddadan tayyorlangan oraliq detonatordan detonatsiya oladi. Trotilning kimyoviy jihatdan turg'unligi juda yuqori, 130⁰ C gacha haroratda davomli vaqt qizdirilganida ham uning portlash xususiyati deyarli o'zgarmaydi. U mazkur xususiyatini uzoq vaqt suvda bo'lganidan so'ng ham o'zgartirmaydi. Quyosh nuri ta'siri ostida o'z rangini o'zgartiradigan va tashqi ta'sirlarga ta'sirchanligi bir oz oshgan holda, bir necha kimyoviy-fizikaviy o'zgarishlarga duch keladi. Toluolga (koksokimyo va neftni qayta ishlash sanoatining suyuq mahsuloti) azot va oltingugurt kislotasi aralashmasi bilan qayta ishlov berilganida trotil hosil bo'ladi. Uni presslash va quyish usuli bilan turli shakldagi portlovchi zaryadlar va shashkalar tayyorlanadi. O'q-dorilar tayyorlash uchun trotil nafaqat sof holda, balki boshqa portlovchi moddalar (geksogen, tetrit kabilar) bilan qorishma ko'rinishida ham qo'llaniladi. Kukunsimon trotil portlash quvvati kam bo'lgan ba'zi bir portlovchi moddalar (misol uchun ammonitlar) tarkibiga kiritiladi. Portlatish ishlarini amalga oshirish uchun trotil shashkalari, odatda: yirik (400 g, 50x50x100 mm); kichik (25x50x100 mm, 200 g); silindrsimon (75 g, uzunligi 70 mm, diametri 30 mm) o'lcham va shakllarda tayyorlanadi.

TROTIL EKVIVALENTI – yadro quroli portlashining quvvatiga oid ko'rsatkich bo'lib, portlash energiyasi yadroviy zaryad portlashining energiyasiga teng bo'lgan trotil massasiga teng.

Trotil ekvivalenti tonna, kilotonna va megatonnada o'lchanadi, jumladan:

– *kilotonna* – yadro zaryadi quvvatining shartli o'lchov birligi bo'lib, ming tonna trinitrotoluol zaryadining portlash kuchiga teng;

– *megatonna* – yadro quroli portlash kuchini o'lchash uchun qabul qilingan shartli birlik bo'lib, bir million tonna trinitrotoluolning portlash kuchiga teng.

Zamonaviy yadroviy o'q-dorilarning trotil ekvivalenti bir necha o'nlab tonnadan bir necha o'nlab megatonnaga yetadi. "Trotil ekvivalenti" atamasi turli kimyoviy portlovchi tizimlarni trotilga nisbatan tavsiflash uchun qo'llaniladi.

TUZILMA – obyektning yaxlitligi va aynan o'zligini ta'minlaydigan, ya'ni turli tashqi va ichki o'zgarishlarda asosiy xususiyatlarini saqlab qoladigan barqaror aloqalar majmui.

TUTUNLI PARDA – tutun yoki tumanning sun'iy tarzda yaratilgan buluti.

Dushmanning ko'rish imkoniyatini sustlashtirish, qo'shin va obyektlar harakatlarini niqoblash hamda imitatsiyalash uchun qo'llaniladi.

Tutunli parda – tutun purkovchi shashka, granata, mina, snaryad va bombalar hamda tutun purkovchi apparatlar yordamida yaratiladi. Tutunli pardaning samaradorligi tutun purkovchi vosita rusumi va sarfiga, meteorologiya sharoiti, joy relyefi va tutun taraladigan yuzaga bog'liq. Tutunli parda qo'yilishi mobaynida shamol yo'nalishi va kuchi hisobga olinadi.

TUTUNLI POROX – uloqtiruvchi portlovchi moddalar turiga mansub portlovchi modda.

Tarkibi kaliyli selitra (75 %), pista ko'mir (15 %) va oltingugurtning (10 %) mexanik aralashmasidan iborat. Zarralarining kattaligiga ko'ra, mayin donli va yirik donli turlarga bo'linadi. Parchalanuvchi va signallovchi minalar, yonib boruvchi shnurlar va reaktiv zaryadlar kabellarini ishlab chiqishda foydalaniladi. Tutunli porox o'ziga namlikni ko'p shimib olish xususiyatiga ega bo'lib, 2 % namlanganida qo'llashga yaroqsiz holatga keladi. Namlanganidan so'ng, quritilgan tutunli porox xususiyati sustlashadi.

TUTUN PURKOVCHI VOSITALAR – tutun parda hosil qiluvchi o'q-dori, jihoz va mashinalar. Tutun purkovchi vositalarga:

– *portlovchi vositalar* – artilleriya va aviatsiyaning tutun purkovchi o'q-dorilari va tutun purkovchi signallovchi raketalar;

– *suuq moddalarning sepilishiga asoslangan vositalar* – ko'chmas va harakatchan mashinalar va aviatsiyaning tutun taratuvchi jihozlari;

– *issiq harorat ta'sirida tutun taratuvchi vositalar* – maxsus shashkalar, ko'chirilib yuriladigan generatorlar, shuningdek, kema, tank kabi jangovar mashinalar bortlariga o'rnatilgan tutun purkovchi apparatlar;
– *tutun purkovchi vositalar* – tutun purkovchi shashka, granata va aviabombalar kiradi.

Tutun purkovchi vositalar quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy havo va harbiy dengiz kuchlarining qurol-aslahasi tarkibiga kiradi.

TUTUNSIZ POROX – uloqtiruvchi portlovchi moddalar turiga mansub portlovchi modda.

Turli reaktiv uloqtiruvchi moslamalar, artilleriya snaryadlari va o'qli qurollarga mo'ljallangan o'q-dorilar tayyorlash mobaynida foydalaniladi. Portlatish ishlari olib borilganda, shuningdek, brizantli portlovchi moddalar o'rni (ular yo'q bo'lsa) ichki zaryadlar sifatida qo'llaniladi.

TO'LIQLAR – fazoda chekli tezlik bilan tarqaluvchi, moddasiz va faqat energiyani eltuvchi g'alayonlanishlar. To'liqlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- gektometrli to'liqlar (100-1000 m) yoki (300-3000 kGs);
- dekametrli to'liqlar (10-100 m) yoki (3-30 MGs);
- detsimetrli (10-100 sm) yoki (300-3000 MGs);
- detsomillimetrli to'liqlar (0,1-1 mm) yoki (300-3000 GGs);
- tovush to'liqlari (16-20 to'liqlar 000) Gs;
- kilometrli (10-100 m) yoki (3-300 kGs);
- metrli to'liqlar (1-10 m) yoki (30-300 GGs);
- millimetrli to'liqlar (1-10 mm) yoki (30-300)GGs;
- santimetrli to'liqlar (1-10 sm) yoki (3-30 GGs);
- elektr magnit to'liqlar.

TO'P – to'siq ortidagi nishonlar ustiga (70° gacha ko'tarilish burchagi ostida), snaryadlarni tikka otib yuqoridan yog'dirish uchun mo'ljallangan artilleriya quroli. Kalibri 105-203 mm, stvol uzunligi 15-30 kalibr, o't ochish masofasi 24 km gacha. Zamonaviy to'plar shatakka olinuvchi va o'ziyurar bo'lishi mumkin. To'plar Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlarida keng qo'llanilgan.

TO'PLANISH PUNKTI – alohida harbiy xizmatchi yoki harbiy xizmatga majbur fuqarolar, harbiy bo'linmalar, harbiy mulk va jangovar texnika kabilarning to'planish (to'plash) joyi. Yig'in punkti:

- jangovar trevoga bo'yicha yig'in punkti;
- yong'inni o'chirish va tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish uchun yig'in punkti;

– jangovar vazifani bajarishga kirishishdan oldin, bajarish davomida yoki bajarilganidan so‘ng, harbiy xizmatchi-mutaxassislarning (razvedkachi, sapyor, minyor kabilarning) to‘planish punkti kabi turlari mavjud.

TO‘PNI YO‘NALTIRISH – to‘p stvolini, snaryad parvozinig trayektoriyasi nishon orqali o‘tadigan holatga keltirish.

To‘p to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki to‘g‘ri bo‘lmagan holatga (yopiq o‘t ochish marasidan o‘t ochish mobaynida) yo‘naltiriladi.

To‘p avtomatik, yarim avtomatik va dastaki yo‘naltirilishi mumkin.

TO‘SIQ – qo‘shinning yurishini sekinlashtiruvchi, to‘xtatib turuvchi to‘siqdir. To‘siqlar tabiiy (daryolar, kanallar, ko‘llar, botqoqlik, tog‘lar, jarliklar, o‘rmonlar va hokazo) va sun‘iy (har xil to‘siqlar) bo‘ladi.

TO‘SIQDAN TOZALOVCHI OTRYAD – to‘siq va vayronaliklardagi yo‘laklarni tozalash, joyni minalar, portlamay qolgan snaryadlar, aviabombalar, fugaslar kabi portlash xavfi bor moddalardan tozalash uchun tashkil etiladigan vaqtinchalik tuzilma. To‘siqdan tozalovchi otryad asosini, odatda, to‘siqlarni razvedka qilish va tozalash vositalariga ega muhandislik qo‘shinlarining bo‘linmasi tashkil etadi. Tarkibiga kimyoviy va radiatsion razvedka bo‘linmasi, motoo‘qchi va tankchi bo‘linmalar kiritilishi mumkin.

TO‘SIQLAR – dushman harakatlanayotgan yo‘llarda unga shikast yetkazish, ko‘zlagan manziliga yetib borish vaqtini kechiktirish, harakatlarini murakkablashtirish, manyovrini siqib qo‘yish yoki qo‘shinlarimiz uchun manfaatli yo‘nalishda harakatlanishga majbur qilish maqsadida, tashkil etiladigan sun‘iy to‘siq, g‘ov, to‘g‘onoq va vayronaliklar.

To‘siqlar:

– *ta’sirchanlik xususiyatlariga ko‘ra* – portlovchi (mina portlovchi yoki yadroviy portlovchi), portlamaydigan va qurama turlarga;

– *qo‘yiladigan joyi va vazifasiga ko‘ra* – quruqlik (shu jumladan suv havzasi), dengiz va havodagi (samolyotlarga qarshi) to‘siqlarga;

– *miqyosiga ko‘ra* – operativ va taktik turlarga bo‘linadi.

To‘siqlar o‘t ochish tizimi, yadroviy zarbalar va aviatsiya zarbalari bilan uzviy uyg‘unlashtiriladi.

TO‘SIQLAR DOIRASI – dushman hujumini to‘xtatish maqsadida, sarhadida turli to‘siqlar o‘rnatiladigan joy chegarasi. To‘siqlar har tomonlardan o‘t ochish bilan himoya qilinib, portlatishga tayyorlab qo‘yiladi.

TO'SIQLAR YO'LAGI – harbiy xizmatchini jang maydonida duch kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni yengib o'tishga o'rgatish uchun jihozlanadigan joy maydoni. To'siqlar yo'lagi:

- barchaga taalluqli yagona to'siqlar yo'lagi;
- maxsus to'siqlar yo'lagi turlariga bo'linadi.

To'siqlar yo'laklarida qurolli kuchlarning barcha turiga mansub harbiy xizmatchilar ta'limoti va mashqi o'tkaziladi. Barchaga taalluqli yagona to'siqlar yo'lagi, chuqurlik (xandaq), labirint, qiya o'rnatilgan taxtaga ega devor, vayron zina, deraza tuynuklariga ega g'ishtli devor, quduq va yurish yo'laklariga ega transheyadan iborat. Barchaga taalluqli yagona to'siqlar yo'laging uzunligi 100 m. Maxsus to'siqlar yo'lagi muayyan qo'shinlarga mansub jangchilarni mashq qildirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha inshootlar bilan jihozlanadi.

TO'SIQ O'RNATUVCHI OTRYAD – dushman hujumi yo'nalishida to'siqlar o'rnatish va vayronalik barpo etish uchun mo'ljallangan muhandislik qo'shinlari bo'linmasidan tashkil topgan vaqtinchalik tuzilma. “To'siq o'rnatuvchi otryad” 1943-yildan e'tiboran qo'shinlar jangovar tartibining majburiy elementi sifatida kiritilgani bois, ushbu atama bugungi kunda qo'llanilmaydi.

TO'QNASHUV – cheklangan maydonda uzil-kesil hal etuvchi, ommaviy tarzda ko'p qon to'kiladigan, nisbatan tez kechadigan, dushmanni tor-mor etish maqsadida sodir etiladigan – kurashayotgan tomonlarga mansub asosiy kuchlarning to'qnashuvi.

Urushda strategik natijalarga erishish maqsadida, muhim yo'nalishlar yoki harbiy harakatlar (urush) maydonidagi yirik guruhlar tomonidan bir vaqtda va ketma-ket o'tkaziladigan hujum va mudofaa janglari.

U

UZOQ MUDDATLI O'T OCHISH ISTEHKOMI – o't ochish uchun mo'ljallangan, o'ta pishiq ashyolardan oldindan quriladigan muhandislik inshooti. To'p, zambarak, minomyot, pulemyot kabi o't ochish vositalari bilan ta'minlanadi. Uzoq muddatli o't ochish istehkomlari tizimi mustahkamlangan hudud yoki mustahkamlangan mudofaa chizig'ini tashkil etadi. Tinchlik davrida navbatchilik xizmatini o'tash uchun oz miqdorli bo'linmalar joylashadi.

UZOQQA OTADIGAN ARTILLERIYA – olovi olis masofalarga yetadigan artilleriya.

Uzoqqa otadigan artilleriyaga – zambaraklar va ayrim reaktiv tizimlar mansub. Uzoqqa otadigan artilleriya to'p va minomyotlar olovi yetib bormaydigan masofadagi dushman obyektlarini yakson etish uchun qo'llaniladi.

UMUMIY HARBIIY MAJBURIYAT – fuqarolarning O'zbekiston Respublikasini himoya qilishga majburiy harbiy tayyorgarligidan iborat bo'ladi hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safini to'ldirishni va ularning rezervini tayyorlashni ta'minlash maqsadida joriy etiladi.

Umumiy harbiy majburiyat fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlashni, harbiy xizmatga chaqirishni, chaqiruv yoki kontrakt bo'yicha harbiy xizmat o'tashni, rezervdagi xizmatni, muqobil xizmatni, harbiy ro'yxatdan o'tish qoidalariga rioya etishni, favqulodda vaziyatlarda yoki O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz bo'lgan taqdirda aholini muhofaza etish tadbir-choralarini qamrab oladi.

UMUMQO'SHIN KOMANDIRI – umumqo'shin qo'shilmalari, qism va bo'linmalarni boshqaruvchi, ofitserlar tarkibiga mansub mansabdor shaxslar mutaxassisligining qator davlatlar armiyalarida qabul qilingan nomlanishi.

Umumqo'shin komandiri turli qo'shinlar turi, maxsus qo'shinlar ishtirokida o'tkaziladigan umumqo'shin jangining (operatsiyaning) tashkilotchisi hisoblanib, harakatlarni muvofiqlashtiradi va jangovar harakatlar davomida boshqaradi.

Umumqo'shin komandirlari oliy harbiy bilim yurtlarida va harbiy akademiyalarda tayyorlanadi.

UMUMQO'SHIN TAYYORGARLIK – Qurolli Kuchlarning barcha turidagi bo'linma, qo'shin turi, maxsus qo'shin va xizmatlarida xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchilarning umumqo'shin fanlar bo'yicha ta'limoti. Umumqo'shin tayyorgarligi dasturiga quyidagi fanlar kiritilgan:

- taktik tayyorgarlik;
- otish tayyorgarligi;
- ommaviy qirg'in qurollarni o'rganish va ulardan saqlanish;
- umumqo'shin nizomlar;
- harbiy topografiya;
- saf tayyorgarligi;
- jismoniy tayyorgarlik;
- harbiy-tibbiy tayyorgarlik.

Umumqo'shin tayyorgarligi – talaba va o'quvchilar, chaqiruvga qadar

boshlang'ich tayyorgarlik dasturida ham ko'zda tutilgan.

UMUMQO'SHIN TAKTIK MASHQ – qo'shinlar, komandir va shtablarning dala ko'nikmasi va zamonaviy jang yuritish tayyorgarligini takomillashtirishning asosiy shakli.

Umumqo'shin taktik mashqi motoo'qchi va tankchi bo'linma, qism va qo'shilmalar bilan boshqa qo'shin turi va maxsus qo'shinlar bo'linmasi, qism va qo'shilmalari ishtirokida, jangovar vaziyatga maksimal yaqinlashtirilgan sharoitda o'tkaziladi.

URUSH – ijtimoiy guruhlar, millat (xalq)lar, davlatlar o'rtasidagi nizolarning kuch, odatda, qurolli kuchlar yordamida hal qilinishi. Urushda asosiy va hal qiluvchi vosita sifatida qurolli kuchlardan, shuningdek, kurashishning iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy va boshqa vositalaridan foydalaniladi. Urushlar davlatlar olib boradigan ichki va tashqi siyosat natijasidir.

Urushlarni ularda ishtirok etuvchi davlatlar tarkibiga ko'ra – davlatlararo va koalitsion; tarqalgan qamroviga ko'ra – jahon, regional va lokal (jahon va ayrim regional urushlarni keng qamrovli urushlar deb ham tasniflash qabul qilingan); qurolli kurash qizg'inligi bo'yicha – yuqori, o'rtacha va kam intensivlikdagi; hal qilinishi lozim bo'lgan ziddiyatlar tipi bo'yicha – davlatlararo va davlat ichidagi; urishayotgan tomonlarning maqsadlari bo'yicha – bosib olish, mudofaa, ozodlik va boshqalar; davom etish vaqti bo'yicha – tezkor va uzoq davom etadigan; urushni olib borish vositalariga ko'ra – yadro quroli va boshqa ommaviy qirg'in qurollari va oddiy urush vositalarini qo'llagan holda olib boriladigan turlarga bo'linadi.

URUSH DAVRI – urush holati e'lon qilingan vaqtdan yoki harbiy harakatlar amalda boshlanib ketgan paytdan e'tiboran boshlanadi hamda harbiy harakatlar to'xtatilganligi e'lon qilingan vaqtdan e'tiboran, lekin bunday harakatlar amalda to'xtatilganidan keyin tugaydi.

Urush davri sharoitida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan Qurolli Kuchlar va manlatkat iqtisodiyotiga rahbarlik qiladigan vakolatli organ tuzilishi mumkin.

URUSH MAYDONI – 1) sarhadlarida strategik miqyosdagi harbiy harakatlar yuritilishi mumkin bo'lgan quruqlik hududi, okean sathining chekli qismi va ustidagi fazo. Qat'iy belgilangan chegaralarga ega bo'lmaydi va odatda, tarkibiga bitta qit'a va unga yaqin suv sathining chekli qismi yoki bitta okean va unga yaqin qirg'oqlar o'z orollari va orollar guruhi bilan birgalikda kiradi. Urush maydoni tarkibiga harbiy harakatlarning bir necha (urush) maydonlari kirishi mumkin; 2) urush

maydoni xalqaro huquqda – qarshi urushayotgan davlatlarning quruqlikdagi hududi, dengiz sathining chekli qismi va fazo, shu bilan birga sarhadlarida qarshi kurashayotgan tomonlar jangovar harakat yuritishi mumkin bo'lgan yoki yuritayotgan ochiq dengiz va uning ustidagi fazo tushuniladi.

URUSHLAR TARIXI – harbiy tarixning tarkibiy qismi. Urushlar tarixi:

- o'tmishda bo'lib o'tgan har bir urush, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va o'ziga xos jihatlarini muayyan xronologik izchillikda o'rganib boradi;

- muayyan davrda bo'lib o'tgan har bir urushning yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, ko'zlangan siyosiy maqsadlar, urush xususiyati, olib borilishi va asosiy qonuniyatlarini tadqiq etadi;

- eng muhim kompaniyalar, operatsiyalar, muhorabalar va janglar mazmunini qayd etadi;

- urush rivojini belgilab bergan omillar va ular yuzasidan chiqarilgan xulosalarni, urushda mag'lub bo'lish va g'alaba qozonish sabablarini tahlil qiladi;

- urush tajribasidan zaruriy xulosalar chiqarib, saboq oladi.

Urushlar tarixi urush qonunlarini, ijtimoiy tizimlar, ittifoqlar va davlatlarning harbiy qarama-qarshiligi va bir-biriga qarshi kurashiga, shuningdek, urushning boshlanish sababi va oldini olish imkoniyatiga doir qonunlarni aniqlash uchun eng muhim manba sanaladi.

UCHISH APPARATI – yer atmosferasi yoki koinot bo'shlig'ida parvoz etish uchun mo'ljallangan texnik qurilma. Uchish apparatlari:

- *havodan yengil* – dirijabl;

- *havodan og'ir* – aviatsiya, kosmik, aviatsiya-kosmik apparat va raketalar;

- *uchuvchi boshqaradigan*;

- *uchuvchisiz*;

- *bir va ko'p marotaba foydalaniladigan* apparatlarga bo'linadi.

UCHUVCHILIK SAN'ATI – uchish apparatini boshqarish harakati. Bajariladigan harakatlarning (shakllarning) murakkablik darajasiga qarab uchuvchilik san'ati oddiy, murakkab va oliy turlarga farq qiladi.

UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATI – oddiy so'zlashuvda, uning "dron" nomli atamasi ham bor. Bortida ekipaj a'zolari bo'lmaydigan uchish apparati. Uchuvchisiz uchish apparatlarining uchuvchisiz-boshqarilmaydigan, uchuvchisiz-avtomatik, uchuvchisiz distansion

boshqariladigan uchish apparatlari farq qilinadi. Uchuvchisiz distansion boshqariladigan uchish apparatlarini massa, vaqt, uchishning uzoqligi va balandligi kabi o'zaro bog'langan parametrlar orqali farqlash qabul qilingan. Apparatlarning quyidagi sinflari farq qilinadi: "mikro" – massasi 10 kilogramgacha, uchish vaqti 1 soat atrofida va uchish balandligi 1 kilometrgacha; "mini" - massasi 50 kilogramgacha, uchish vaqti bir necha soat va uchish balandligi 3-5 kilometr; "midi" – massasi 1000 kilogramgacha, uchish vaqti 10-12 soat va uchish balandligi 9-10 kilometr; og'ir – uchish balandligi 20 kilometrgacha va uchish vaqti 24 soat va undan ko'proq.

V

VAZIR – 1) vazirlikni boshqarayotgan hukumat a'zosi. 2) ko'chma ma'noda – aqlli, tashkilotchilik xususiyatlariga ega inson. 3) muayyan davlatning hukumat a'zosi maqomidagi diplomatik vakilining mansabi, shunday mansabga ega bo'lgan shaxs.

VAKOLAT – 1) mansabdor shaxsga beriladigan huquq va majburiyatlarning qat'iy ko'rsatgan ro'yxati va ularni amalga oshirish usuli; 2) mansabdor shaxsga, mansabdor shaxslarning bir guruhiga yoki jamoat tashkilotlari a'zolariga beriladigan aniq topshiriq. Ayrim davlat va jamoat institutlari tomonidan beriladigan vakolat maxsus hujjatlar bilan (masalan, diplomatiya sohasida ishonch yorlig'i) tasdiqlanadi.

VATAN (arabcha: وطن - "Tug'ilgan joy; ota yurt") – 1) kishilarning tug'ilib o'sgan joyi, yurti, mamlakati. Tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o'ziga xos tarixiy taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmui; 2) tor ma'noda – biror narsaning, masalan, o'simlikning yuzaga kelgan joyi.

Vatan bir-birini taqozo etuvchi tashqi muhit va ichki kechinmalar hamda tushunchalarni o'z ichiga oladi. Tashqi muhit nuqtayi nazaridan Vatan kishi yoki avlodlar tug'ilib o'sgan va kamol topgan joy, zamin, o'lkadir. Biroq kishi ulg'aygan sayin uning Vatan haqidagi tushunchasi ham kengayadi. Natijada tili, e'tiqodi, urf-odatlari va milliy sifatleri bir bo'lgan avlodlar yashagan va yashayotgan jug'rofiy muhit Vatanni ifoda etadi.

Millat va elatlar o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning o'sishi bir elat yoki millat uchun V. bo'lgan o'lkani, bu o'lkada yashab turgan barcha elat va millatlar uchun Vatanga aylantiradi.

Respublikamizda hozir yashayotgan yuzdan ziyod millat va elatlarning O'zbekistonni o'z Vatani deb bilishi ana shunday jarayonlar natijasidir. Shu boisdan, Vatan tushunchasi u bir joy, zamin, o'lkada yashayotgan kishilarni, ularning millatidan qat'i nazar, birlashtiruvchi ijtimoiy tuyg'udir.

1920-yillarda yurtimizdan chet ellarga ketishga majbur bo'lgan vatandoshlarimizning farzandlari va nevaralari ham O'zbekistonni o'z Vatanimiz deb ataydilar. Bu o'rinda milliy-ma'naviy tushunchalar va an'analar ko'proq ta'sir qilayotgani ayondir.

Vatan obyektiv muhit, borliq, zamin bilan bog'liq bo'lgani uchun kishi ongida aniq tasvir, qiyofa, siymolar tarzida shakllanadi. Mavhum V. yo'q. V. har doim aniq ko'rinishga ega bo'ladi. Shuning uchun ham u kishidan aniq va maqsadli munosabatlarni talab etadi. O'zaro bir-birimizga, ota-bobolarimizga, tariximizga, yon-atrofimizni qurshagan tabiatga va farzandlarimizga bo'lgan munosabatlar, oxir natijada Vatanga bo'lgan munosabatlarimizdir. Xalq madaniyati, an'analari, urf-odatlar, milliy ong ham V. tushunchasi bilan mustahkam bog'liq. Kishining shakllanishida ushbu qadriyatlar yetakchi o'rin tutgani sababli, ular V. tushunchasiga bog'lanib qolishi tabiiydir. Demak, V. kishining, avlodlarning butun hayoti, turmush tarzi, ongi, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq keng qamrovli tushunchadir. V. tushunchasi mustaqillik sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, istibdod yillarida hukmron mafkura kishilarimizning ongidagi V. tushunchasini buzib, uning o'miga mavhum, keng va umumiy V. tushunchasini singdirmoqchi bo'ldi, ya'ni masalan, o'zbek uchun go'yo Kareliya ham, Yoqutiston ham, O'zbekiston bilan bir qatorda V. edi. "O'zbekiston – Vatanim manim" yoki "o'zbekim" deyish millatchilik, milliy cheklanganlik deb baholanar edi. Mustaqillik xalqimizda haqiqiy vatan hissini, tushunchasini mustahkamladi. O'zbekistonning har bir fuqarosida Vatanni sevmok, V. uchun butun kuch-g'ayratini bag'ishlamok, V.ning sha'n-shavkati, nomi bilan faxrlanish xislatlari mavjud.

VATAN MUSTAQILLIGINI HIMOYA QILISH – mustaqil davlat va xalqning o'z yutuqlarini asrash va mustahkamlash, chegaralari, hududiy yaxlitligi, suvereniteti va manfaatlarini muhofaza etish borasidagi faoliyati. Vatan mustaqilligi himoyasida harbiy, iqtisodiy, siyosiy va diplomatik vositalar qo'llanilib:

– *tinchlik davrida* – mustaqillik asoslarini qo'porishga yo'naltirilgan har qanday harakatlarning oldini olish va dushman tajovuzini bartaraf

etishga mamlakatni har tomonlama tayyorlash tadbirlari shaklida;

– *urush davrida* – dushman bilan qurolli kurash shaklida amalga oshiriladi.

Vatan mustaqilligini himoya qilish – mustaqil mamlakat fuqarosining muqaddas burchi, huquqiy va ma'naviy majburiyatidir.

VATANGA QASAMYOD – ont. O'zbekiston Respublikasi fuqarosining Qurolli Kuchlar safiga kirish mobaynidagi Vatanni himoya qilishdek muqaddas majburiyatni bajarishga bergan tantanali va'dasi.

Harbiy xizmatga birinchi marta chaqirilgan yoki ixtiyoriy ravishda, kontrakt bo'yicha kirgan fuqarolar O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i oldida quyidagi mazmunda Vatanga qasamyod qabul qiladilar:

“Men, (familiyasi, ismi, otasining ismi), O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga kirar ekanman, davlatim timsoli bo'lmish muqaddas bayroqni o'pib, buyuk ajdodlarimning pok ruhlari oldida, vatanim oldidagi burchimni halol bajarishga bel bog'lab, vijdonim, ornomus va sha'nimni o'rta qo'yib:

O'zbekiston Respublikasiga, xalqimga va Prezidentimga bir umr sodiq bo'lishga,

Vatanimning mustaqilligini, uning sarhadlarini, ona xalqimning tinchligi va osoyishtaligini, milliy manfaatlarini so'nggi nafasimgacha himoya qilishga,

O'zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan har qanday tajovuz va g'arazli harakatlarga qarshi ayovsiz kurashishga,

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlari va umumharbiy Nizomlarga qat'iy amal qilishga, davlat va harbiy sirlarni saqlashga,

Quruqlikda, suvda, havoda – har qanday sharoitda ham o'z burchimni vijdonan bajarishga,

Har qanday mashaqqatli sinov va qiyinchiliklarda ham el-yurtimning yuksak ishonchini oqlashga tantanali ravishda qasamyod qilaman!”.

Vatanga qasamyod qabul qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat Nizomi bilan belgilanadi.

VATANPARVARLIK – odamlarning mamlakatiga bo'lgan munosabati va harakati bilan Vatan manfaatiga xizmat qilish va dushmandan himoya qilishga intilishini namoyish etuvchi ijtimoiy va axloqiy tamoyil.

O'zbekistondagi vatanparvarlik – ko'p millatli Vatanga muhabbat va sadoqatni ifodalovchi vatanparvarlikdir. Vatanparvarlik tushunchasida

Vatanga va mustaqillik yutuqlariga muhabbat, qardosh xalqlarga do'stona munosabat, Vatanning gullab yashnashi yo'lidagi ijtimoiy faollik, uni himoya qilish, milliy xudbinlik va takabburlikka xiloflik va baynalmilallik xislatlari mujassamdir. Vatandarparvarlikni shakllantiruvchi muhim omillardan biri – Qurolli Kuchlarning jangovar qudratini mustahkamlash va shaxsiy tarkibning uyushqoqligiga yo'naltirilgan vatarparvarlik ruhidagi tarbiyadir.

VATANPARVARLIK RUHIDAGI TARBIYA – harbiy xizmatchilarda huquqiy ong, harbiy burchni ado etish mas'uliyati vatarparvarlik va baynalmilallik sifatlarini shakllantirish bo'yicha tashkiliy va mafkuraviy tadbirlar tizimi. Vatarparvarlik ruhidagi tarbiya jangchining butun xizmati davomida komandirlar, tarbiyaviy ishlar organlari, jamoat tashkilotlari tomonidan olib boriladi.

Ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik, tashviqot va targ'ibot, madaniy-ma'rifiy ishlarning turli shakllaridan vatarparvarlik ruhidagi tarbiya manfaatlarida foydalaniladi.

VATAN HIMOYACHILARI KUNI – 14-yanvar. O'zbekiston Respublikasida har yili keng nishonlanadigan bayram.

Bayram sanasi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarixidagi quyidagi muhim voqealar bilan bog'liqdir:

1991-yilning 31-avgust kuni "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, bu muhim hujjat yosh respublikamizda harbiy siyosatni amalga oshirish huquqini berdi va "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida"gi bayonot o'z Qurolli Kuchlarimizni tashkil etish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

1991-yilning 6-sentabridagi "Mudofaa ishlari vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmon bu sohadagi ilk poydevor sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga aylantirildi.

1992-yilning 14-yanvar kuni Respublika Oliy Kengashining "O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o'quv muassasalari to'g'risida"gi Qarori juda muhim tarixiy ahamiyatga egadir. Mazkur qarorga ko'ra mamlakatimiz hududidagi harbiy tuzilmalar respublika tasarrufiga olindi.

Oliy Kengashning 1993-yil 29-dekabr kungi qarori bilan 14-yanvar –

Vatan himoyachilari kuni deb belgilandi.

Vatan himoyachilari kuni faqat harbiy xizmatchilar emas, ayni vaqtda armiya saflarida o'z burchini o'tab qaytgan vatandoshlarimiz va ertaga xizmatga boradigan ming-minglab navqiron yigitlarning bayrami deb qabul qilingan. Ushbu bayram munosabati bilan har yili tantanali majlislar, kechalar, suhbatlar, Qurolli Kuchlar faxriylari bilan uchrashuvlar, yodgorliklar poyiga gulchambarlar qo'yish va shu kabi tadbirlar o'tkaziladi.

Bayram munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining Vatan himoyachilariga yo'llagan bayram tabrigi chop etiladi.

VAHIMA – tashqi sharoitning tahlikali ta'siri ostida qo'zg'atilgan bo'lib, shaxs yoki odamlarning xavfli vaziyatdan o'zini chetga olish maqsadida to'xtatib bo'lmas, nazoratsiz intilishida namoyon bo'luvchi ruhiy holat. Jangchilarning jangovar jihatdan chiniqqanligi, g'oyaviy komilligi va yuksak intizomi, shu jumladan, komandirlarning jangdagi to'g'ri harakatlari – vahimaning oldini oluvchi dastlabki shartdir.

VERIFIKATSIYA (lot. *verus* – haqiqiy va *facio* – bajaraman) qurolsizlanish masalalari yuzasidan xalqaro shartnomalarda belgilangan majburiyatlarga rioya etilayotganlikni tasdiqlash bo'yicha amalga oshiriladigan texnik, texnologik va tashkiliy chora-tadbirlar tizimi.

VERTOLYOT – havodan og'ir uchish apparati bo'lib, parvozga ko'tarilishi va qo'nishi vertikal kechadi. Ko'tarilish kuchi bitta yoki bir nechta yetakchi vintlar bilan yaratiladi. Vertolyotning uchish tezligi soatiga 350, qo'shimcha dvigatel bilan 510 kilometrgacha, yuk ko'tarish qobiliyati esa 40 tonnagacha bo'ladi. Texnika va qo'shinlarni manzilga yetkazish, havo desantini tushirish, quruqlikdagi nishonlarni yo'q qilish, suvosti kemalariga qarshi kurash, dengizdagi minalarni zararsizlantirish, elektr aloqa yo'llarini yotqizish, radiatsion va muhandislik razvedkasini yuritish, artilleriya olovi yo'nalishiga tuzatishlar kiritish va qo'mondonlikni havodagi qo'mondonlik punkti sifatida radioaloqa bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Vertolyotlar:

– *jangovar* – o't ochib, qo'shinlarga madad berish, suvosti kemalariga qarshi kurash, odam tashish-desantlash;

– *jangovar ta'minot* – razvedka, aloqa, minali to'siqlar o'rnatish;

– *ko'makchi* – sanitar, yuk ko'tarish va o'quv vertolyotlariga bo'linadi.

VETERINARIYA TA'MINOTI – Qurolli Kuchlar front orti ta'minotining tarkibiy qismi bo'lib, veterinariya xizmati tomonidan shaxsiy tarkibni inson va hayvonlar uchun birday xavfli bo'lmish yuqumli va invazion kasalliklardan, shuningdek, sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish oqibatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan kasalliklardan saqlash, harbiy qism, muassasa va xo'jaliklardagi hayvonlarni (parrandani) yuqumli va boshqa kasalliklar bilan kasallanishining oldini olish va qo'zg'algan kasalliklardan davolash maqsadlarida o'tkaziladigan chora-tadbirlar majmui.

Veterinariya xizmatining shtatli xodimlariga ega bo'lmagan harbiy qism va xo'jaliklarning veterinariya ta'minoti – tegishli ma'lumotga ega muddatli xizmat askarlari va kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar tarkibiga mansub, buyruq bilan rasmiylashtirilgan – shtatdan tashqari veterinariya mutaxassislari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

VETERINARIYA XIZMATI – qo'shinlarning veterinariya ta'minoti uchun mo'ljallangan boshqaruv organlari va muassasalar tizimi.

Veterinariya xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsiy tarkibni inson va hayvonlar uchun birday xavfli bo'lmish yuqumli kasalliklardan muhofaza etish xususidagi veterinariya tadbirlarini amalga oshirish;

- qo'shinlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash amallari ustidan veterinariya-sanitar nazoratini yuritish;

- harbiy qismlarda mavjud xizmat itlari va yuk tashish hayvonlari, Mudofaa vazirligi tasarrufidagi ko'makchi xo'jaliklar va harbiy xo'jaliklardagi qishloq xo'jalik hayvonlariga (parrandaga) veterinariya xizmatini ko'rsatish;

- harbiy qism, muassasa va xo'jaliklarning chorvachilikni rivojlantirish rejalari amalga oshirilishini ta'minlash, chorva (parranda) mahsuldorligini oshirish va sifatli mahsulot yetishtirishga qaratilgan veterinariya tadbirlarini o'tkazish;

- harbiy okrug, qo'shilma, qism va muassasalarda, oziq-ovqat mahsulotlarining omborxona va bazalari hamda harbiy savdo korxonalarida faoliyat yuritayotgan veterinariya xodimlarining ixtisoslik bo'yicha tayyorgarlik saviyasini oshirish;

- harbiy qism, muassasa va xo'jaliklarni veterinariya anjomlari bilan ta'minlash.

VIZA (lotin. *visits* – ko'rib chiqmoq, qarab chiqmoq, ko'zdan kechirmoq) – 1) davlat hududiga kirish, chiqish, yashash yoki hududidan

o'tishga maxsus ruxsat berilganligini ko'rsatuvchi belgining pasportda qo'yilishi. Diplomatiya vakilligi a'zolariga, xalqaro anjumanlar delegatlariga va boshqa shaxslarga maxsus diplomatik vizalar beriladi. V. ma'lum muddatga beriladi. V. tizimi davlat hududiga chet el fuqarolarining kirib kelishi va davlat hududidan chet el fuqarolarining chiqib ketishini tartibga solish, nazorat qilish maqsadida amalga oshiriladi. Hozirgi davrda davlatlarning o'zaro kelishuviga muvofiq davlat hududidan V.siz chiqib ketish ham qo'llanilmoqda; 2) hujjatning aniq nusxa ekanligini tasdiqlovchi yozuv.

VZVOD (rus. – *rota, batareya tarkibiga kiradigan harbiy bo'linma*.) – batalyon tarkibiga kiradigan, bir nechta guruh, seksiya, raschyot yoki ekipajlardan tashkil topgan harbiy bo'linma.

Vzvod bo'linmasi barcha qo'shin turlarida mavjud bo'lib, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarning, odatda, kichik ofitserlar, ba'zan serjantlar tarkibiga mansub komandir tomonidan boshqariladi. Vzvod komandirining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari va moddiy-texnika ta'minot bo'yicha yordamchisi bo'lishi mumkin.

VIZUAL (lot. *visualis* – ko'rish...) – ko'rinuvchi, ko'rinib turgan. Vizual kuzatish – bevosita ko'z bilan yoki optik asbob, masalan, binokl yordamida kuzatish demakdir.

VODOROD BOMBASI – vayron qiluvchi katta kuchga ega bo'lgan bomba, portlashi yengil yadrolarning sintezlanish reaksiyasiga asoslangan. Birinchi marta vodorod bombasi sobiq Sovet Ittifoqida 1953-yilda sinab ko'rilgan.

X

XABAR (arabcha. خبر – ma'lum qilish) – biror-bir hodisani, voqeani yetkazish degan ma'nolarni bildiradi. Maishiy va kasbiy muloqotlarda xabar berish, xabardor bo'lish, xabar topish kabi tushunchalar voqea-hodisalarni ma'lum qilish, ya'ni xabarni "A" nuqtadan "B" nuqtaga yetkazish uchun qo'llanadi.

XABAR QILISH – qo'mondonlikning qo'shinlarimiz harakati va dushman to'g'risidagi ma'lumot, ko'rsatma va buyruqlari, shu jumladan, belgilangan signallarni qo'shinlar boshqaruvi organlari va shaxsiy tarkibga qisqa muddatda yetkazish amali. Xabar qilish, odatda, quyidagi alohida vaziyatlarda amalga oshiriladi:

– qo'shinlarni jangovar shaylikning turli darajalariga keltirish

- (o'tkazish), shu jumladan, jangovar trevoga bo'yicha ko'tarish;
- havo hujumi tahdidi mavjudligida yoki boshlanganida;
 - yong'inni o'chirish uchun shaxsiy tarkibni yig'ish zarurligida.

Davlat boshqaruvining oliy organi tomonidan urush e'lon qilish qarori qabul qilingan, safarbarlik boshlangan va tabiiy ofatlar sodir bo'lganida mamlakat aholisiga xabar qilinadi. Xabar qilish amallari radio, telefon, avtomatlashtirilgan signalli aloqa va signallovchi vositalar orqali amalga oshiriladi.

XAVF – 1) shaxs, jamiyat va davlatga to'liq anglangan, ammo muqarrar bo'lmagan, moddiy, ma'naviy yoki jismoniy zarar yetkazilishi ehtimoli; 2) biror-bir obyektning boshqa obyektlarga turli xildagi zarar yoki ziyon yetkazish imkoniyatini aks ettiruvchi xususiyati. Xavf – milliy xavfsizlikda xatar va tahdid oralig'idagi joyni egallovchi asosiy tushunchalardan biridir. Xavf sohalarga yo'naltirilganligi asosida ham ajratiladi. Masalan, axborot va siyosiy xavf. Axborot xavfi – 1) obyektga uning axborot sohasiga ta'sir etish orqali zarar yoki ziyon yetkazish imkoniyati; 2) biror-bir obyektning boshqa obyektga, uning axborot sohasiga ta'sir etish orqali, zarar yoki ziyon yetkazish imkoniyatini aks ettiruvchi xususiyati.

XAVFSIZLIK – 1) xatar va tahdidlardan himoyalanganlik holati; 2) obyekt, holat va jarayonlarga boshqa obyekt, holat va jarayonlar salbiy ta'sir ko'rsatganda, o'zining asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi; 3) obyektning shunday holatiki, bunda unga katta ziyon yoki zarar yetkazib bo'lmaydi; 4) obyektning barqaror rivojlanish holati, bunda obyektning hayotiy faoliyati xususiyatlarida qandaydir kutilmagan o'zgarishlar ehtimoli uncha katta bo'lmaydi; 5) obyektning boshqa obyektlarga katta ziyon yetkazmaydigan xususiyati. Xavfsizlik tushunchasining turlicha tasniflanishi uning inson hayot faoliyatining ko'plab obyektlari, jarayonlari va hodisalariga nisbatan qo'llanishi bilan izohlanadi.

XAVFSIZLIK TEXNIKASI – sog'lom va xavfsiz xizmat (mehnat) sharoitlarini ta'minlaydigan texnik tadbirlar tizimi. Xavfsizlik texnikasi bo'yicha qoidalar butun harbiy qism, muassasa, korxona, ishlab-chiqarish xonalari, asbob-uskuna va texnologik jarayonlarning barcha turlarini xizmat (mehnat) xavfsizligi nuqtayi nazaridan ta'minlaydigan majburiy talablardan iborat.

XAYTEK (inglizchadan: *high-tech*, ya'ni “yuqori texnologiyalar”) – fan, axborot va u bilan bog'liq yuqori texnologiyalar, shuningdek, unga

mos keluvchi tuzilmalar (muhim mezonlar sifatida) jamiyatning sivilizatsiyalashgan rivojlanishi va uning global munosabatlar tizimiga jalb etilganligi darajasini belgilab turgan bir sharoitda zamonaviy texnologiyalar va ilm sig'imi yuqori bo'lgan ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi. Mikroelektronika va eng yangi texnologiyalarning miniatyuralashtirilishi, avtomatlashtirilishi, kompyuterlashtirilishi va robotlashtirilishi orqali, aytish mumkinki, yengib bo'lmaydigan, jumladan, global xususiyatga ega muammolarni hal etish imkoniyatini berib, dunyoni tubdan o'zgartiradi. Natijada yetakchi o'rinlarga industrilashgan ishlab chiqarish o'rniga xizmat ko'rsatish, ta'lim, boshqaruv sohalari chiqib, ular zamonaviy hisoblash mashinalariga tayangan holda mehnat xususiyatlarini va insonlarning turmush tarzlarini ham muqarrar ravishda o'zgartirmoqda. Ba'zan mavjud hamda samarali texnologiyalar asosida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgandek tuyilayotgan butun boshli ishlab chiqarishlar bankrotlik yoqasiga kelib qoladi, chunki ular undan ham mukammalroq bo'lgan yangilanishlarga o'z vaqtida javob berishga ulgurmay qoladi. Masalan, shunday holat rivojlangan vinil disklari ishlab chiqarish industriyasi xomashyo sig'imi kamroq bo'lgan kompakt disklar kashf qilinganidan so'ng muvaffaqiyatsizlikka uchradi yoki gullab yashnayotgan "Polaroid" kompaniyasi raqobat kurashida raqamli fotoapparat va videokomera ishlab chiqaruvchilariga yengilganda yuz berdi. Umuman, xaytek texnologiyalariga u yoki bu nazariy yangilik, kashfiyot va uning ro'yobga chiqarilishi (amaliyotda qo'llanishi) orasidagi muddatlarning qisqarib borishi xosdir.

XALQARO XAVFSIZLIK – xalqaro munosabatlar tizimi, barcha davlatlar tomonidan rioya qilinadigan xalqaro huquqlarning tamoyil va me'yorlari, davlatlar o'rtasidagi janjalli masalalarni va kelishmovchiliklarni kuch yoki kuch ishlatish xavfi bilan bartaraf etishni istisno qilishga asoslangan.

Xalqaro xavfsizlikning taklif etgan tamoyillari davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda universal tamoyil sifatida tinch-totuv yashashni qaror toptirish, hamma davlatlar uchun bab-baravar xavfsizlikni ta'minlash, harbiy, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalarida amaliy kafolatlar yuzaga keltirishni nazarda tutadi.

Xalqaro xavfsizlikning ajralmas qismi BMT Nizomi bilan mustahkamlangan amaldagi kollektiv xavfsizlik mexanizmidir.

XALQARO XAVFSIZLIK TIZIMI – davlatlar va xalqlarning kollektiv xavfsizligini ta'minlaydigan o'zaro muvofiqlashtirilgan

davlatlararo munosabatlar, tashkilotlar, siyosiy-diplomatik, iqtisodiy, harbiy va ijtimoiy tadbirlar va harakatlar kompleksi.

Xalqaro xavfsizlik tizimi global yoki mintaqaviy miqyosga ega bo'lishi mumkin bo'lib, xalqaro munosabatlar amaliyotining ravnaqi, bu sohada to'plangan tajriba va erishilgan kelishuvlar zahirida shakllanadi.

XALQARO SHARTNOMA – davlatlar yoki xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa masalalarda o'zaro huquq va majburiyatlarni belgilab beruvchi bitim. Xalqaro shartnomalar:

- ikki tomonlama va ko'p tomonlama;
- qisqa muddatli, uzoq muddatli va muddatsiz;
- boshqa davlatlarning ushbu shartnomaga a'zo bo'lishi uchun ochiq va yopiq;

– maxfiy va ochiq shartnomalarga farq qiladi.

Xalqaro (shu jumladan, harbiy) shartnomalar, xususan, shartnoma, bitim, konvensiya, protokol, pakt, qo'shma deklaratsiya kabi shakllarda rasmiylashtirilishi mumkin.

XALQARO HARBIY NAZORAT – o'zaro ishonch, qurol-aslaha va qurolli kuchlar sonini qisqartirish, ushbu kuchlar faoliyatini ma'lum ma'noda cheklash borasida shartlashilgan to'xtamlar ijrosini xalqaro bitimlarda belgilangan tarzda nazorat qilish tartibi.

Xalqaro harbiy nazorat texnik vositalar yordamida fazo va kosmosdan, shuningdek, nazorat guruhlaridan tomonidan tegishli bitimga a'zo davlatlarning bevosita hududlarida amalga oshiriladi.

Mazkur nazorat tartibiga XX asr so'ngidan NATO davlatlari va Sharqiy Yevropa davlatlari o'rtasida keng amal qilinib kelinmoqda.

XALQARO HARBIY HAMKORLIK – do'stona davlatlarning mudofaa masalalarini birgalikda hal etishga qaratilgan munosabatlari.

Mazkur hamkorlik xususiyatlari xalqaro va milliy xavfsizlik ta'minlanishida davlatlar manfaatlarining mos kelishi, tanlagan siyosiy yo'llarining uyg'unligi, o'zaro manfaatdorliklari bilan belgilanadi.

Harbiy hamkorlikning uchta shakli mavjud: harbiy-siyosiy, harbiy-strategik va harbiy-texnik.

Yagona mudofaa ittifoqiga (blokiga) birlashgan do'stona davlatlar orasidagi harbiy hamkorlik yuksak, betaraf davlatlar bilan esa nisbatan past saviyada kechadi.

Harbiy-siyosiy hamkorlik davlatlarning harbiy doktrinalari, harbiy siyosatlarining maqsad va yo'nalishlarini mos keltirish, xalqaro

barqarorlikni saqlab turish bo'yicha o'tkaziladigan qo'shma tadbirlarni muvofiqlashtirish va amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Harbiy-strategik hamkorlik – harbiy rejalar va qurolli kuchlar qurilishining yo'nalishlarini muvofiqlashtirish, harbiy harakatlarning barcha turlari, razvedka usullari va vositalari yuzasidan kelishib olish, raketalar qarshi mudofaa va havo hujumidan mudofaa tizimlarining o'zaro hamkorligi borasida bir bitimga kelishni nazarda tutadi. Harbiy nizolarning keskin tus olib ketishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan hamkor harakatlar tashkil etilib, amalga oshiriladi. O'zaro yordam ko'rsatish, kollektiv mudofaani takomillashtirish, qurolli kuchlarni qurish va rivojlantirish, harbiy kadrlar tayyorlash, qurolli kuchlarni boshqarish va ta'minlashning qator tizimlarini birlashtirish bo'yicha tadbirlar o'tkaziladi.

Harbiy-texnik hamkorlik – tomonlarning harbiy-texnik siyosatini muvofiqlashtirish, qurol-aslaha ayirboshlash, qurol-yarog' va harbiy texnika namunalarini hamkorlikda ishlab chiqarish yoki ishlab chiqariladigan qurol rusumlari borasida kelishib olish, strategik va ekologik jihatdan xavfli texnologiyalar taraqqiy etib ketishining oldini oluvchi choralarni birgalikda ko'rish, harbiy sohadagi yangiliklarni joriy etishda o'zaro yordam ko'rsatilishini nazarda tutadi.

Xalqaro harbiy hamkorlikning barcha shakllarida harbiy-siyosiy, harbiy-strategik va harbiy-texnik ma'lumotlar bilan o'rtoqlashish, jahonda va uning ayrim mintaqalarida harbiy-siyosiy va strategik vaziyatga beriladigan baho va ushbu vaziyatning taraqqiyotini oldindan ko'ra bilish amaliyotlarini muvofiqlashtirish ko'zda tutilgan.

XANDAQ – shaxsiy tarkibni o'q, snaryad, mina va aviabombalar parchalari, shuningdek, yadro qurolining qirg'in keltiruvchi omillaridan saqlash uchun mo'ljallangan, uzunligi 3-6 m, chuqurligi 1,5-1,8 m keladigan tor xandaq. Xandaq usti ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin. Usti yopiq xandaqning kirish qismi xodalardan tayyorlangan qo'shimcha qalqon bilan yopiladi.

XARITALAR – 1) quruqlik yuzasi, yulduzlar osmoni yoki ulardan bir qismining kichraytirilgan, matematik muayyanlikka ega va umumlashtirilgan tasviri. Xaritada ma'lumotlar uning mazmuni va vazifasiga qarab turlicha bo'ladi (masalan, geografik xaritalar); 2) harbiy va geografik xaritalar bo'lib, qurolli kuchlarda quruqlik, dengiz va havoda o'tkaziladigan jangovar harakatlarni rejalashtirish va yuritish uchun qo'llaniladi. Xaritalar:

– *miqyosi va qamrab olingan hududga ko'ra* – umumiy va alohida;

– *tasviriga ko'ra* – topografik, daryo va dengiz xaritalari turkumiga bo'linadi; 3) muayyan ma'lumotlar berilgan blank.

XIZMAT ITLARI – qo'riqchilik xizmatini o'tash, portlovchi va giyohvand moddalarni izlab topish kabi amallarni bajarishga maxsus o'rgatilgan itlar. Xizmat turi va tayyorgarlik xususiyatiga ko'ra: iskovuch, qo'riqchi, aloqachi, chana tortuvchi, sanitar, qo'poruvchi kabi itlar mavjud.

Xizmat itlarini harbiy maqsadda qo'llanilishi ibtidoiy zamonlardan ma'lum. Ikkinchi Jahon urushi yillarida xizmat itlari 300dan ortiq tank portlatishgani, 200dan ortiq jangovar ma'lumotlar yetkazgani, 680 mingdan ortiq og'ir yaradorlarni jang maydonidan olib chiqqanlari qayd etilgan.

Xizmat itlari harbiy qism, maxsus maktab va markazlarda o'rgatiladi. Ushbu tadbirda MK “Vatanparvar” tashkilotlarining tegishli klublari ham faol ishtirok etadi.

XOIN – dushman joylashgan hududga ataylab qochib o'tgan va unga asir bo'lgan harbiy xizmatchi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 157-moddasiga ko'ra: Davlatga xoinlik qilish O'zbekiston Respublikasining fuqarosi tomonidan josuslik, chet el davlatiga, chet el tashkilotiga yoki ularning vakillariga davlat sirlarini yetkazish yoxud O'zbekiston Respublikasiga qarshi dushmanlik faoliyati olib borishda boshqacha yordam ko'rsatish yo'li bilan davlatga xoinlik qilish, ya'ni O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi, mudofaa salohiyati, iqtisodiyotiga zarar yetkazgan holda qasddan sodir etilgan qilmish bo'lib, o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

XUFIYA NARYAD – uch va undan ortiq kishidan iborat, ichki qo'shinlar, chegara qo'shinlari va front ortini muhofaza etish qismlarida tayinlanadigan qo'shin naryadining turi. Muayyan vaqtga davlat chegarasi buzg'unchisi, qo'poruvchi va adovat ruhidagi shaxslarni fosh etish va qo'lga olish maqsadida qo'yiladi.

Y

YAGONA AVTOMATLASHTIRILGAN ALOQA TIZIMI – Barcha turdagi axborotni (telefon, telegraf va fototelegraf xabarlar, radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlar, raqamli, belgili va uzluksiz ma'lumotlarni) uzatishga mo'ljallangan aloqa yo'llari, tarmoqlari va

stansiyalarining birlashgan tarmog'i.

YADRO QUROLI – shikast yetkazish ta'siri yadro reaksiyasi natijasida vujudga keladigan portlash (ya'ni, atom yadrosining zarrachalarga bo'linishi) va zarrachalar sintezi yoki ikkala jarayonning bir vaqtda sodir bo'lishi vaqtida ajralib chiqadigan, ichki energiyadan foydalanishda, *boshqacha qilib aytganda*, uran va plutoniy izotoplarining og'ir yadrolari ajrab chiqadigan yoki vodorod izotoplarining yengil yadrolari (deyteriy va tritiy) sintezi ro'y beradigan, portlash jarayonida vujudga keladigan, yadro ichidagi energiyadan foydalanishga asoslangan jangovar vosita. Yadro quroli jumlasiga:

– *yadroviy o'q-dorilar* – yadro zaryadiga ega raketa va torpedalarning jangovar qismlari, aviatsiya va chuqurlik bombalari, yadro zaryadiga ega qurilma joylangan artilleriya snaryadlari va fugaslar (minalar);

– *yadroviy o'q-dorilarni nishonga eltuvchi vositalar* – raketa, torpeda, samolyot, artilleriya qurollari;

– *yadro qurolini boshqarish qurilmalari* – yadroviy o'q-dorining nishonga aniq yetib borishini ta'minlaydigan boshqarish qurilmalari kiradi.

Yadro quroli yadro energiyasining hosil bo'lish usuliga ko'ra, yadro va termoyadro (vodorod) qurollariga farq qiladi.

Raketalar, aviatsiya, artilleriya va minalar yadroviy o'q-dorilarni qo'llash vositalari sanaladi. Raketalar, o'z navbatida:

– *operativ-taktik* – o'rta va yaqin masofalarga ta'sir o'tkazish radiusiga ega raketalar;

– *strategik raketalar*ga farq qiladi.

Operativ-taktik raketalar jumlasiga 120 km masofaga ta'sir o'tkazadigan raketalar kiradi.

Strategik raketalar jumlasiga esa boshqariladigan, ta'sir o'tkazish masofasi 13000 km ni tashkil etadigan quruqlikda joylashtiriladigan raketalar hamda ta'sir o'tkazish masofasi 4000 km ni tashkil etadigan dengiz kemalariga joylashtirilgan raketalar kiradi.

Aviatsiya – yadroviy o'q-dorilarni nishonga eltuvchi asosiy vositalardan biri sanaladi. Aviatsiyaning shikast yetkazuvchi vositalari tarkibida turlicha qudratga ega yadroviy va termoyadroviy bombalar mavjud.

Artilleriya – kalibri 155 va 203,2 mm li, 29 km ga qadar o't ochadigan gaubitsa to'plaridan qo'llaniladigan yadroviy va neytron o'q-dorilarga ega.

Bundan tashqari, quruqlikdagi qo'shinlarning qurol-aslahalari tarkibida ko'pri, to'g'on, tunnel va shu kabi boshqa inshootlarni vayron

qilish, shu jumladan, tabiiy joyda vayronalik zonolari va radioaktiv zararlangan zonalar yaratish uchun mo'ljallangan yadroviy minalar mavjud.

Yadro quroli portlashining shikast yetkazuvchi ta'siri, asosan, o'q-dori quvvati va yadro quroli portlashining turiga bog'liq.

Yadroviy o'q-dorilar qo'llanilganida yadroviy portlash ro'y berib, g'oyat katta miqdordagi (trotil portlashiga nisbatan 20-80 karra ko'p) energiya ajralib chiqadi. Yadro quroli portlashining quvvati *trotil ekvivalenti* bilan tavsiflanadi.

Yadro qurolining asosiy shikast (talafot) yetkazuvchi omillari jumlasiga:

- zarbali to'lqin;
- yorug'lik nurlanishi;
- singuvchi radiatsiya;
- radioaktiv zararlantirish;
- elektromagnitli impuls kiradi.

Yadro quroli va uni nishonga eltuvchi yangi vositalarning yaratilishi zamonaviy harbiy san'atga juda jiddiy ta'sir o'tkazdi. Rossiya va AQSHdan tashqari, Buyuk Britaniya, Fransiya va Xitoy Xalq Respublikasi ham yadro quroliga ega.

Yadro qurolining qo'llanishi borliq bashariyat uchun fojiali halokat oqibatlariga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi ham taraqqiyparvar davlatlar qatorida yadro qurolining butkul man etilishi va mavjud zaxiralari tamomila yo'q qilinishi uchun sabot bilan uzluksiz kurash olib bormoqda.

YADRO QUROLINING YO'Q QILISH OMILLARI – yadro quroli portlatilganida ro'y berib, uning shikast (talafot) yetkazish ta'sirini belgilab beradigan jismoniy jarayon va hodisalar.

Yadro qurolining talafot yetkazuvchi omillari jumlasiga: zarbali to'lqin, yorug'lik nurlanishi, singuvchi radiatsiya, radioaktiv zararlantirish va elektromagnitli impuls kiradi.

Zarbali to'lqini (ударная волна) – muayyan muhitning keskin va juda kuchli siqilgan, portlash markazidan har tomonga tovush tezligidan tez tarqaladigan sohasi. Zich siqilib, harakatlanayotgan muhitning old chegarasi *zarbali to'lqin fronti* deb ataladi. Zarbali to'lqin havo, suv va yerda tarqalishi mumkin. Shu bois ham ushbu to'lqin tegishli *zarb beradigan havo to'lqini*, *zarb beradigan suv to'lqini* yoki *yerning zilzilaporilash to'lqini* deb nomlanadi.

Zarbali to'liqinda moddalar zichligi, bosimi va harorati keskin oshib ketadi. Portlash paytida, jismlar tovushdan tez uchganida va lazer nuri fokusida hosil bo'ladigan zarbali to'liqlar o'ziga xos misollardir.

Zarbali to'liqinning asosiy ko'rsatkichlari *to'liqin frontidagi ortiqcha bosim*, ushbu bosim ta'sir o'tkazadigan *vaqt davomiyligi* va muayyan obyektning portlash ro'y bergan tomondagi yuzasiga bosim ta'sir o'tkazadigan *siquv tezligi* sanaladi.

Yadro quroli portlatilganida hosil bo'ladigan zarbali to'liqin odamlar va jonzodlarga shikast yetkazishi, fortifikatsion inshootlar va mol-mulkni vayron qilib yuborishi, qurol-aslaha va harbiy texnikani ishdan chiqarishi mumkin. Talafot va vayronagarchiliklar zarbali to'liqinning bevosita va bilvosita ta'siri bilan yuz beradi. Bilvosita ta'sir jumlasiga vayron bo'lgan bino va inshootlarning parchalanib, tevarak atrofga katta tezlik bilan uchib ketadigan bo'laklari, ildizi bilan qo'porilib ketgan daraxtlar, ularning shox-shabballari va shu kabi boshqa jismlar ta'siri kiradi. Shu bilan bir vaqtda, inson siquv tezligining ta'sirini ham his etadi. Bu esa, o'z navbatida, qo'shimcha yuklama hosil bo'lib, insonning uloqtirib yuborilishiga olib keladi. Zarbali to'liqin ta'siri oqibatida inson organizmining faoliyati turli xil ko'rinishda izdan chiqadi, mexanik (xususan: to'qimalar yirtilishi, qon tomirlarining uzilishi, miyaga qon quyilishi, bosh va orqa miya chayqalishi, quloq pardalarining yorilishi va shu kabi) jarohatlar ko'radi.

Zirhli-tank texnikasi, blindajlar, panagohlar va shu kabi boshqa inshootlar ichidagi shaxsiy tarkib ko'radigan shikast darajasi, asosan, zarbali to'liqinning bilvosita ta'siri ya'ni, ularning ag'darilishi va vayron bo'lishi oqibatida ko'riladigan shikast darajasi bilan belgilanadi.

Ta'kidlab o'tish joizki, zarbali to'liqin ta'sirida fortifikatsion inshootlar, qurol-aslaha va harbiy texnika ichida juda kuchli akustik to'liqlar (tovush to'liqlari) yuzaga keladi. Buning oqibatida shaxsiy tarkibning eshitish apparati jarohatlanadi (quloqda og'riq sezadi), yurak faoliyati izdan chiqadi. Bunday jarohatlar shaxsiy tarkibning (asosan, maxsus fortifikatsion inshootlar ichidagi operatorlarning) o'z jangovar qobiliyatini yo'qotib qo'yishiga olib keladi.

Shaxsiy tarkibga zarbali to'liqin vositasida yetkazilgan jarohat to'rt darajaga bo'linadi, jumladan:

- *birinchi darajali* – yengil jarohat;
- *ikkinchi darajali* – o'rtacha og'ir jarohat;
- *uchinchi darajali* – og'ir jarohat;
- *to'rtinchi darajali* – o'ta og'ir jarohat.

Zarbali to'liqin qurol-aslaha va harbiy texnikaga ta'sir o'tkazganida, ushbu obyektlar to'la-to'kis majaqlanib ketishi yoki turli ko'rinishda ishdan chiqishi mumkin. Qurol-aslaha va harbiy texnikaning ishdan chiqishi to'rt darajaga bo'linadi, jumladan:

– *birinchi darajali (to'la-to'kis ishdan chiqishi)* – obyektни tiklash amallari iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq kelmaydi;

– *ikkinchi darajali (kuchli ishdan chiqishi)* – obyektни zavod sharoitlarida kapital ta'mirlash talab qilinadi;

– *uchinchi darajali (o'rtacha ishdan chiqishi)* – obyektни markazga bo'ysunadigan ta'mirlash ustaxonalarida ta'mirlash zarur bo'ladi;

– *to'rtinchi darajali (yengil ishdan chiqishi)* – obyektни dala sharoitlarida ekipaj (raschyot) kuchi bilan ta'mirlash mumkin bo'lgan buzilishlar.

0,3–0,5 kgs/sm² bosimga ega zarbali to'liqin ta'sirida qolgan tanklarga nisbatan yengil zarar yetadi (antenna, fara va shu kabi boshqa tashqi jihozlari sinadi, ishdan chiqadi). Ularning to'la-to'kis ishdan chiqishi 10-20 kgs/sm² bosim ta'sir o'tkazganida ro'y beradi. Artilleriya to'plari 0,4-0,5 kgs/sm² bosim ta'sirida o'rtacha, 2-10 kgs/sm² bosim ta'sirida esa to'la-to'kis ishdan chiqadi. Samolyot, vertolyot va raketalar bu masalada zaif sanaladi. Bunday obyektlar 0,1-0,3 kgs/sm² bosim ta'sirida to'la-to'kis ishdan chiqadi. Yer yuzasida barpo etilgan fortifikatsion inshootlarga nisbatan yer ostida qurilgan inshootlar zarbali to'liqinga kam ta'sirchan sanaladi.

Shaxsiy tarkib, qurol-aslaha va harbiy texnikani zarbali to'liqin ta'siridan saqlashning asosiy usuli – ularni zarbali to'liqin frontidagi ortiqcha bosim va siquv tezligi ta'siridan izolyatsiya qilishdir. Bunga esa, yer ostida qurilgan turli-tuman fortifikatsion inshootlarni qo'llash orqali erishiladi. Shuningdek, shaxsiy tarkibni zarbali to'liqin ta'siridan himoya qilish uchun panogoh ichiga o'rnatilgan qurol-aslaha va harbiy texnikadan (ZTR, PJM, tank kabilardan) to'g'ri foydalanish zarur.

Yorug'lik nurlanishi (*свemosoe излучение*) – yadro quroli portlashining sfera (shar) ko'rinishidagi yorishuvchi sohasi taratadigan nurli energiya oqimidan iborat.

Yadro qurolining shikast yetkazuvchi ushbu omili deyarli bir zumda (soniyada 300 000 km tezlikda) taralib, portlash quvvatiga bog'liq holda bir soniyadan bir necha soniyaga qadar davom etishi mumkin. Yadro quroli portlashi natijasida hosil bo'ladigan yorug'lik nurlanishining shikast

yetkazish ta'sirini belgilovchi asosiy ko'rsatkich *yorug'lik impulsi* sanaladi.

Yorug'lik impulsi (световой импульс) – yorug'lik nurlanishi taraladigan yo'nalishga perpendikulyar ravishda yadro quroli portlashining sfera (shar) ko'rinishidagi yorishuvchi sohasidan, ushbu soha mavjud bo'lgan vaqt davomida har bir kvadrat santimetr yuzaga tushadigan yorug'lik energiyasining miqdori.

Yorug'lik impulsi bir kvadrat santimetr yuzaga kaloriya o'lchov birligi bilan o'lchanadi. Yorug'lik impulsining ta'sir ko'rsatish kuchi portlash quvvati, turi, portlash markazidan uzoqlik va atmosfera holatiga bog'liqdir.

Yog'ayotgan qor va yomg'ir, tevarak-atrofni qoplagan chang yoki tuman yorug'lik nurlanishini o'ziga singdirib olgan tarzda, uning shikast yetkazish ta'sirini bir necha barobar susaytiradi.

Shaxsiy tarkibning yorug'lik nurlanishi bilan jarohatlanishi tananing ochiq va harbiy kiyim bilan himoyalangan joylari turli darajada kuyishi, shu jumladan, ko'rish qobiliyatiga ta'sir o'tkazishi bilan tavsiflanadi. Bunday kuyishlar bevosita yorug'lik nurlanishi ta'siri yoki uning ta'sirida chiqadigan yong'inlardan ro'y berishi mumkin.

Teri qoplamasi qatlamlariga yetgan jarohatga ko'ra kuyishlar to'rtta darajaga farq qiladi, jumladan:

– *birinchi darajali kuyish* – teri qoplamasining og'riq bilan kechadigan qizarishi va ayrim joylarining shishishi. Teri qoplamasining bunday kuygan joylari nisbatan tez tuzalib ketadi;

– *ikkinchi darajali kuyish* – teri qoplamasida pufakchalar paydo bo'lib, maxsus davolash muolajalari talab etiladi;

– *uchinchi darajali kuyish* – teri qoplamasida yaralar paydo bo'lib, to'qimalarning qisman o'lishi kuzatiladi. Davolash muolajalari uzoq vaqt davom etadi;

– *to'rtinchi darajali kuyish* – teri qoplamasi va uning ostidagi to'qimalarning o'lishi (kuyib ko'mirga aylanishi).

Shaxsiy tarkibning yorug'lik nurlanishi bilan jarohatlanishi nafaqat kuyish darajasi, balki kuygan teri qoplamasining katta-kichikligi bilan ham belgilanadi. Shaxsiy tarkibning safdan chiqishi teri qoplamasining ochiq joylari ikkinchi va uchinchi darajada kuyganda kuzatiladi.

Ko'zning yorug'lik nurlanishi ta'siridan jarohatlanishi uch turga bo'linadi, jumladan:

– *vaqtincha ko'rmaslik* – 5 daqiqadan 30 daqiqaga qadar kechadi;

– *ko'z tubining kuyishi* – yadro quroli portlashining sfera (shar) ko'rinishidagi yorishuvchi sohasiga uzoq masofada turib tik qarash oqibatida yuz beradi;

– *ko'z muguz pardasi va qovoqlarining kuyishi* – teri qoplamasi kuyadigan masofalarda yuz beradigan jarohat.

Yorug'lik nurlanishining qurol-aslaha, harbiy texnika va inshootlarga ko'rsatadigan ta'siri, ularni tayyorlashda qo'llanilgan material turiga bog'liq. Bunda, yonmaydigan materiallar shakli o'zgarib ketishi, erishi va mustahkamlik xususiyatini yo'qotishi, yonadigan materiallar esa ko'mirga aylanishi, yonib ketishi va yong'in chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yadro quroli portlashi natijasida hosil bo'ladigan yorug'lik nurlanishining shaxsiy tarkib va turli-tuman obyektlarga shikast yetkazish ta'siri bir qator chora-tadbirlar ko'rilishi (amalga oshirilishi) orqali sezilarli darajada susaytirilishi yoki umuman bartaraf etilishi mumkin. Bunday chora-tadbirlar jumlasiga:

– jarlik, dara va mahalliy jismlarning himoya qiluvchi xossalari, himoya inshootlari, terini himoya qilish vositalari va niqoblash tutunlarining keng ko'lamda qo'llanilishi;

– materiallarning nur qaytarish xossalarini oshirish (yuzasini bo'r bilan oqlash, yorug' tusli bo'yoqlar bilan bo'yash);

– materiallarning yorug'lik nurlanishi ta'siriga chidamligini oshirish (yuzasiga loy surtish, tuproq sepish, qor tashlash);

– yong'inga qarshi choralar ko'rish (yonadigan materiallarni chiqarib tashlash, mavjud kuch va vositalarni yong'in o'chirish tadbirlariga tayyorlash);

– ko'zni vaqtincha ko'rmay qolishdan asraydigan himoya vositalaridan foydalanish (yorug'likdan asraydigan ko'zoynaklar taqish va yorug'lik o'tmaydigan materialdan tayyorlangan soyabonli bosh kiyimlar kiyish) kiradi.

Qo'shinlar tomonidan amalga oshiriladigan jangovar harakatlarning har qanday turida shaxsiy tarkibni yorug'lik nurlanishining shikast yetkazuvchi ta'siridan himoya qilish uchun, birinchi navbatda, shtatda ko'zda tutilgan qurol-aslaha va harbiy texnika, shu jumladan, shaxsiy himoya vositalari qo'llanilishi shart.

Singuvchi (o'tuvchi) radiatsiya (*проникающая радиация*) – yadro quroli portlatilgan zona hamda bunday qurolning havodagi portlashi mobaynida hosil bo'ladigan bulutdan tevarak-atrofga ufuliriladigan gamma-nurlar va neytronlardan iborat oqim.

Singuvchi radiatsiyaning ta'sir o'tkazish davomiyligi atigi bir necha soniyadan tashkil topadi. Biroq, shunga qaramay, yadro qurolining shikast yetkazuvchi ushbu omili shaxsiy tarkibga, ayniqsa ochiq joyda joylashgan odamlar va jonzodlarga juda og'ir jarohat yetkazadi. Gamma nurlar va neytronlar oqimi turli-tuman materiallarning turlicha qalinlikdagi qatlamlari orqali singib o'tib, tobora sustlashib boradi.

Yarim hissa sustlashtirish qatlami tushunchasi materialning gamma-nurlar va neytronlar oqimini 2 chandon sustlashtiradigan qalinligini anglatadi. Gamma-nurlar og'ir materiallar bilan, neytronlar esa atom yadrolarining massasi neytron massasi bilan o'lchovdosh bo'lgan yengil materiallar bilan yaxshi sustlashadi.

Material qalinligi yarim hissa sustlashtirish qatlaminig ikki barobariga oshirilganida nurlanish dozasi 4 chandon, uch barobariga oshirilganida esa — 8 chandon va h.k. ortib boradi.

Harakatchan zirhli obyektlar tayyorlanayotganida singuvchi radiatsiya ta'siridan himoya qilish uchun tarkibida vodorod bo'lgan yengil moddalar hamda yuqori zichlikka ega (xususan, qo'rg'oshin aralashmasiga ega polietilen) materiallar qo'llanilgan tarzda kombinatsiyalangan himoya chorasi ko'riladi.

Singuvchi radiatsiyaning qurol-aslaha va harbiy texnikaga o'tkazadigan ta'siri, ulardagi yarimo'tkazgich materiallar asosida tayyorlangan radiotexnik qurilmalar, boshqaruvning elektron tizimlari, akkumulyator batareyalari va optik moslamalarning ishdan chiqishi bilan kuzatiladi.

Neytronlar ta'siri oqibatida qurol-aslaha va harbiy texnikada elektron faollik hosil bo'lishi mumkin. Bunday faollik ekipaj (raschet) a'zolari hamda ta'mirlash-evakuatsiya qilish bo'linmalari shaxsiy tarkibining jangovar qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Singuvchi radiatsiyaning shaxsiy tarkib va uning jangovar qobiliyatiga ko'rsatadigan shikast yetkazuvchi ta'sir kuchi nurlanish dozasi va yadro quroli portlaganidan so'ng o'tgan vaqtga bog'liq. Bunday ta'sir gamma-neutron nurlanishning umumiy dozasi, ya'ni biologik to'qima massasining birligi o'ziga singdirib olgan nurlanish energiyasi bilan baholanadi. Nurlanish dozasi rad o'lchov birligida o'lchanadi. Rad — singib o'tgan ion hosil qiluvchi nurlanishlar dozasining tizimga kirmagan birligi bo'lib, vazni bir gramm keladigan modda tomonidan singdirib olingan nurlanish energiyasining 100 erg siga teng. $1 \text{ rad} = 0,01 \text{ Dj/kg} = 2,388 \cdot 10^{-6} \text{ kal/g}$.

Nurlanish dozasiga bog'liq holda nur kasalligi to'rtta darajaga bo'linadi, jumladan: birinchi (yengil), ikkinchi (o'rta), uchinchi (og'ir) va to'rtinchi (juda og'ir) darajalar.

Neytron quroli (o'q-dori) portlash quvvati 10 ming tonnadan oshmaydigan kichik o'lchamli termoyadro zaryadi bo'lib, energiyasining asosiy miqdori vodorod izotoplaridagi yengil yadrolarning (deyteriy va tritiyning) sintez reaksiyasi evaziga ajralib chiqadi.

Quvvati yuqorida zikr etilgan darajada kam bo'lgan portlash natijasida hosil bo'ladigan singuvchi radiatsiyaning neytron oqimi shaxsiy tarkibga shikast yetkaziladigan asosiy omil sanaladi.

Portlash quvvati 1 ming tonna keladigan neytron o'q-dorisi portlagan holatda portlash markaziga nisbatan 170 m naridagi tanklar, ularga kombinatsiyalangan shikast yetkazilgani oqibatida ishdan chiqadi, ekipaj a'zolari esa 850 m va undan ham nari masofada singuvchi radiatsiya ta'siridan o'z jangovar qobiliyatlarini yo'qotishadi. Shu tariqa, ekipajlar orasidagi talafotlar miqdori qurol-aslaha va harbiy texnika orasidagi yo'qotishlarga nisbatan sezilarli darajada ko'p bo'ladi. Neytron qurolining o'ziga xos xususiyati ayni shunday izohlanadi.

Yadro quroli portlatilganida tabiiy joy, atmosferaning yer yuzasiga yaqin qatlami, havo bo'shlig'i, suv havzasi va boshqa obyektlarning **radioaktiv zaharlanishi** yuzaga keladi.

Bunday zararlanishning asosiy manbayi yadro yonilg'isi parchalanishining radioaktiv hosilasi (parchalari) sanaladi. Bundan tashqari, yadro quroli portlagan hududda tabiiy joyning radioaktiv moddalar bilan zararlanishi neytron oqimlarining tuproqdagi alyuminiy, marganets va natriy kabi kimyoviy elementlarga ta'sir o'tkazishi oqibatida qo'shimcha hosil bo'ladigan radioaktiv faollik natijasida ham ro'y beradi. Yadro yonilg'isining ta'sirlanmagan qismi va neytronlar ta'siri ostida havoda hosil bo'ladigan radioaktiv uglerod ham radioaktiv zararlanish manbayi sanaladi. Biroq ularning faolligi yadro yonilg'isi parchalanishi natijasida hosil bo'ladigan parchalarga nisbatan sust bo'ladi.

Radioaktiv mahsulotlar yadro qurolining havodagi portlashi mobaynida hosil bo'ladigan bulut bilan birga yuqoriga ko'tarilar ekan, tuproq zarralari bilan aralashib, ularga o'tirib qoladi va portlash ro'y bergan hamda bulut harakatlanayotgan hudud ustiga, bulut harakatining izini hosil qilgancha asta-sekin to'kilib boradi.

Yadro qurolining shikast yetkazuvchi omillaridan biri sanaladigan radioaktiv zararlanishning ahamiyati shundan iboratki, radiatsiyaning

yuqori darajalari nafaqat yadro quroli portlagan joyga chegaradosh hududda, balki undan o'nlab, hatto yuzlab kilometrlar narida ham kuzatilishi mumkin. Bunday qurolning shikast yetkazuvchi boshqa omillari o'q-dori portlaganidan so'ng nisbatan qisqa muddat ta'sir o'tkazsa, radioaktiv zarar portlash hodisasidan so'ng bir necha sutka va haftalar davomida xayfli bo'lib qolaveradi.

Yadro quroli yer yuzasida portlatilganida, tabiiy joyning radioaktiv zararlanishi kuchli kechadi. Negaki bunda, radiatsiyaning xavfli darajalari bilan zararlangan hudud maydoni zarbali to'lqin, yorug'lik nurlanishi va singuvchi radiatsiya bilan zararlangan hudud maydonidan bir necha karra katta bo'ladi. Xususan, radioaktiv moddalar va ulardan ufuliladigan ionlovchi nurlar biror-bir rang yoki hidga bo'lsin ega bo'lmaydi. Ularning parchalanish tezligini esa fizika yoki kimyoga oid biror-bir usul bilan o'zgartirib bo'lmaydi. Bulut izining har bir nuqtasiga, aytaylik, yadro qurolining portlash markaziga nisbatan R masofada bo'lgan A nuqtasiga turli o'lchamli radioaktiv zarralar to'kiladi. Ushbu zarralarning o'rtacha o'lchami portlash ro'y bergan joydan uzoqlashgan sari kichrayib boradi. Radioaktiv jihatdan zararlangan joyda ikkita maydon: yadro quroli portlagan hudud va bulut izi hosil bo'ladi.

Tabiiy joyni bulut izi bo'yicha xavflilik darajasiga ko'ra to'rtta (A , B , V va G) zonaga bo'lish qabul qilingan, jumladan:

A – mo'tadil zararlangan zona;

B – kuchli zararlangan zona;

V – xavfli zararlangan zona;

G – favqulodda xavfli zararlangan zona.

Yadro qurolining havodagi portlashi mobaynida hosil bo'ladigan bulut va ko'tariladigan chang ustunidan radioaktiv zarralar yog'iladigan havo bo'shlig'ining hajmi *bulut sudratmasi* (shleyfi) deb ataladi. Sudratma obyektga yaqinlashgan sari, uning tarkibidagi radioaktiv moddalarning gainma nurlanishi oqibatida radiatsiya darajasi ortib boradi. Dastlab bulutdan faolligining darajasi yuqori bo'lgan yirik zarralar to'kiladi, portlash yuz bergan joydan uzoqlashgan sari zarralar mayinlashib, radiatsiya darajasi pasayib boradi.

Zararlangan joydagi nurlanish dozalarining sustlashish karrasi fortifikatsion inshootlar, qurol-aslaha va harbiy texnikada turlicha bo'ladi.

Tepalik va do'ngliklarning shamolga ro'para tomonida nisbatan kuchli radioaktiv zararlanish kuzatiladi. Shamol bo'ylamasiga esayotgan jar va daralar ham ko'proq zararlanadi. Kuchli yomg'ir yog'gan hollarda

radioaktiv moddalarni suv oqimlari qisman yuvib ketadi. Shu bois ham jar va daralardagi radioaktiv zararlanganlik darajasi ortib boradi. Qor va yomg'ir havodagi radioaktiv moddalarning yerga tushishini tezlatadi. Natijada havo nisbatan tozalanadi, biroq ayni vaqtda joyning zararlanish darajasi ortadi.

Yadro quroli balandda portlatilganida tabiiy joy va turli obyektlarning radioaktiv zararlanishi portlash ro'y bergan hududda ham, bulut izida ham sezilarli darajada kuchli bo'lmay, qo'shinlarga nisbatan katta xavf tug'ilmaydi.

Elektromagnitli impuls (EMI) – yadro quroli portlaganida ufuradigan gamma nur va neytronlarning tevarak-atrof atomlari bilan o'zaro ta'siri natijasida qisqa muddat ro'y beradigan kuchli elektromagnit maydon.

Yadro quroli yer yuzasi va havodagi kichik balandda portlatilganidan so'ng yadroviy reaksiyalar zonasidan ufuriladigan gamma-kvantlar tomonidan urib chiqarilgan havo atomlaridagi tez harakatlanuvchi manfiy elektronlar, ushbu gamma-kvantlar harakatlanayotgan yo'nalishda yorug'lik tezligiga yaqin tezlikda harakatlanadi. Havoning musbat ionlari esa (atom qoldiqlari) o'z joyida deyarli muallaq qolganicha juda sekin harakatlanadi. Elektr zaryadlarning bunday bo'linishi natijasida fazoda elektr va magnit maydonlari hosil bo'ladi.

Yadro quroli yer yuzasi va havodagi kichik balandda portlatilganida EMining shikast yetkazuvchi ta'siri portlash markazidan bir necha kilometr narida kuzatiladi. Bunday qurol balandda portlatilganida esa EMI maydonlari portlash zonasi va yer yuzasiga nisbatan 20-40 km balandda hosil bo'ladi.

Shikast yetkazuvchi omil sifatida ta'sir o'tkazadigan elektr va magnit maydonlar kuchlanganlik darajasi bilan tavsiflanadi. Ushbu maydonlarning kuchlanganlik darajasi yadro quroli portlashining quvvati, portlash hosil bo'lgan balandlik, portlash markaziga nisbatan mavjud masofa va tevarak-atrof xususiyatlariga bog'liq.

EMining shikast yetkazuvchi ta'siri birinchi navbatda qurol-aslaha, harbiy texnika va boshqa obyektlarga o'rnatilgan radioelektron va elektrotexnik apparatlar ishida namoyon bo'ladi. Zikr etilgan apparatlarning elektr zanjirlarida EMI ta'sirida qo'shimcha hosil bo'lgan tok va kuchlanishlar radioelementlar izolyatsiyasi buzilishi, transformatorlar hamda yarimo'tkazgich elementlar asosida yaratilgan

asboblar ishdan chiqishi, eruvchan saqlagichlar va shunga o'xshash boshqa radiotexnik qurilmalar kuyishiga sabab bo'ladi.

YADRO QUROLIDAN XOLI ZONA – kelishuv tartibida hududida yadro quroli, uni nishonga yetkazish vositalarini joylashtirish, yadroviy o'q-dorilarni ishlab chiqish va ularni sinovdan o'tkazish taqiqlangan zona, mintaq. Shu bilan birga, yadro quroliga ega davlatlar boshqa davlatlar va yadro qurolidan xoli zonaga kiritilgan o'zlarining hududlariga nisbatan ham ma'lum xalqaro-huquqiy majburiyat va kafolatlarni o'z zimmalariga oladilar.

Yadro qurolidan xoli zonaga kiruvchi davlatlarga nisbatan yadro qurolini qo'llamaslik, bu davlatlarga yadroviy o'q-dorilar va yadroviy energetik qurilmalar bilan jihozlangan kemalar va qismlarni olib kirmaslikka, ushbu zonalarda ishtirok etuvchi davlatlarga yadro qurolini bermaslikka, ularga o'z yadroviy salohiyatini yaratishda yordam bermaslik bo'yicha majburiyat oladilar.

2009-yil holatiga ko'ra quyidagi hududlar yadro qurolidan xoli zona deb e'lon qilingan:

- Antarktika hududi (1959-yil shartnomasi);
- Lotin Amerikasi (1967-yildagi Tlatelolko shartnomasi);
- Tinch okeanining janubiy qismi (1985-yildagi Rarotonga shartnomasi);
- Janubiy-Sharqiy Osiyo (1995-yildagi Bangkok shartnomasi);
- Afrika (1996-yildagi Pelindaba shartnomasi);
- Markaziy Osiyo (2007-yildagi Semipalatinsk shartnomasi (O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimovning tashabbusi bilan tuzilgan));
- Mongoliya va Belorussiya yadrosiz davlatlar maqomiga ega.

Yadro qurolidan xoli zonalarini tuzish davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni mustahkamlashga, xavfsizlikni ta'minlashga, yadro qurolini tarqatmaslik rejimiga rioya etishga ko'maklashadi.

YADROVIY PORTLASH – zanjirli yadro reaksiyasi yoki *termoyadro reaksiyalari* natijasida juda katta energiyaning nihoyatda tez ajralib chiqishi tufayli sodir bo'ladigan portlash.

Og'ir yadrolarning bo'linishi bilan kechadigan zanjir reaksiyasi yoki yengil yadrolarning (masalan, geliy yadrosi) sintez reaksiyasi termoyadro reaksiyasini vujudga kelib, yadroviy portlashga olib keladi. Bunday portlashning shikast (talafot) yetkazish va vayron qilish ta'siri bir vaqtda

zarbali to'liqin, yorug'lik nurlanishi, singuvchi radiatsiya, radioaktiv zararlanish va elektrmagnitli impuls orqali vujudga keladi (*tegishli izohlarga qarang*).

Yadro qurolining portlashi boshqa har qanday o'q-dori portlashidan:

- ajralib chiqayotgan energiyaning haddan ortiq zichligi;
- ushbu energiya nihoyatda oz vaqt ichida ajralib chiqilishi;
- shikast yetkazuvchi omillarning turli-tumanligi bilan farq qiladi.

Ichki yadroviy energiyaning aksariyat qismi yadroviy reaksiya hamda neytron va gamma nurlanishlar mahsulotlarining kinetik energiyasi ko'rinishida ajralib chiqadi.

Yadro quroli portlagan zonadagi harorat 10 million gradus, havo bosimi esa 100 million megapaskalga borib yetadi.

YADROVIY PORTLASH TURLARI – yadro quroli vositasida hal etiladigan vazifalar tavsifi, yadroviy zarba beriladigan obyektlar turi va joylashgan joyi, shuningdek, qo'shinlar tomonidan amalga oshiriladigan bo'lg'usi harakatlar tavsifiga bog'liq holda yadro quroli: havoda (turli balandliklarda); yer (suv) yuzasiga yaqin masofada; yer (suv) ostida portlatilishi mumkin.

Shunga muvofiq yadro qurolining portlatilishi:

- balanddagi portlash;
- havodagi balandda portlash;
- havodagi kichik balandda portlash;
- yer (suv) yuzasidagi portlash;
- yer (suv) ostidagi portlash turlariga farq qiladi.

Yadro qurolining havodagi portlashi jumlasiga bunday o'q-dori portlashining yorishuvchi sohasi yer (suv) yuzasiga tegmay portlagan turi kiradi. Havodagi portlash katta va kichik balandliklarda yuz berishi mumkin. Portlash kichik balandlikda yuz berganida yerdan ko'tarilgan chang ustuni portlash buluti bilan qo'shilib ketadi. Natijada qo'ziqorin ko'rinishidagi portlash buluti paydo bo'ladi. Portlash katta balandlikda yuz berganida esa chang ustuni, odatda, portlash bulutiga qo'shilmaydi.

Yer (suv) yuzasining portlash yuz bergan joy markazidagi nuqtasi **portlash markazi** (epitsentr) deb ataladi.

Yadro qurolining havodagi portlashi ko'zni qamashtiradigan qisqa muddatli chaqnashi bilan kechadi. Shundan so'ng, harorati o'n millionlab gradusga qadar qizigan sfera (shar) ko'rinishidagi yorishuvchi soha hosil bo'ladi. Ushbu soha yorug'lik nurlanishining qudratli manbayi sifatida xizmat qiladi. Yuqoriga ko'tarilib borar ekan, olovli shar asta-sekin sovib,

o'ralib (to'planib) qolgan bulutga aylanadi. Bunda havoning yuqoriga yo'nalgan qudratli oqimi yuzaga kelib, portlash oqibatida yerdan ko'tarilgan changni o'z girdobiga tortib ketadi. Portlash quvvati qanchalik yuqori bo'lsa, yadroviy portlash bulutining o'lchamlari, yuqoriga ko'tarilish tezligi va balandligi shu qadar katta bo'ladi. Ushbu bulut shamol yo'nalishida harakatlanib, o'z shaklini yo'qotgancha, tarqalib ketadi. Yadro qurolining portlashi momaqaldiroqning bir necha o'nlab kilometr narigacha eshitaladigan kuchli gumburlashiga o'xshash kechadi. Bunday turdagi portlash dushman tomonidan quruqlikdagi qo'shinlar va harbiy aviatsiyaga shikast yetkazish, mudofaa inshootlari, shahar va sanoat binolarini vayron qilish maqsadida qo'llaniladi.

Yadro qurolining balanddagi portlashi yer yuzasiga nisbatan 10 km va undan ham yuqori balandliklarda amalga oshirilib, havodagi portlash turidan sezilarli farq qiladi. Balanddagi portlash mobaynida sharsimon yorishuvchi soha paydo bo'lib, uning o'lchamlari atmosferaning yer yuzasiga yaqin qatlamida xuddi shunday quvvatga ega qurol portlashida paydo bo'ladigan sharga nisbatan katta bo'ladi. Soviganidan so'ng yorishuvchi soha o'ralib (to'planib) qolgan halqasimon bulutga aylanib qoladi. Yadro qurolining balanddagi portlashi mobaynida chang ustuni va chang buluti hosil bo'lmaydi. 25-30 km balandlikda hosil bo'lgan yadro portlashining shikast yetkazuvchi omillari zarbali to'lqin, yorug'lik nurlanishi va singuvchi radiatsiya sanaladi. Portlash balandligi ko'tarilgan sari, atmosferaning siyrak bo'lishi bois, zarbali to'lqinning shikast yetkazish ta'siri sezilarli darajada sust kechadi. Biroq, yorug'lik nurlanishi va singuvchi radiatsiya ta'siri oshib boradi. Balanddagi portlash amalga oshirilganida, yer yuzasining radioaktiv zararlanishi deyarli ro'y bermaydi. Portlashning bunday turi havo va kosmosda parvoz qilayotgan (uchib borayotgan) nishonlarni (xususan: samolyotlar, qanotli raketalar, ballistik raketalarining bosh qismi va boshqa turdagi uchish apparatlarini) yo'q qilish uchun qo'llanilishi mumkin.

Yadro qurolining yer yuzasidagi portlashi deb portlashning yer yuzasi yoki havodagi kichik balandlikda amalga oshirilgan, hosil bo'lgan yorishuvchi soha bevosita yer yuzasiga daxl qiladigan turiga aytiladi. Yer yuzasida portlash yuz berganida, yorishuvchi soha, asosi yerga tegadigan yarim sfera shaklini kasb etadi. Agar, portlashning bunday turi yer yuzasida (yerga tegib portlash) yoki ushbu yuzaning bevosita yaqinida ro'y bersa, yerda, atrofini tuproq uyumi o'rab olgan ulkan voronka (chuqurlik) hosil bo'ladi. Ushbu voronka o'lchamlari va shakli portlash

quvvatiga bog'liq bo'lib, diametri bir necha yuzlab metrga yetishi mumkin.

Yer yuzasidagi portlash jarayonida qo'ziqorin ko'rinishidagi chang buluti va chang ustuni havodagi portlashga nisbatan sezilarli darajada kuchli bo'ladi. Ayni vaqtda chang ustuni ko'tarilishi bilan portlash bulutiga qo'shilib ketadi. Buning natijasida portlash bulutiga tuproqning nihoyatda katta miqdori kirib borib, bulut qoramtir tusga ega bo'lib qoladi. Portlashning radioaktiv hosilasi bilan aralashib ketar ekan, tuproq, ushbu hosilalarning bulutdan yerga ko'p miqdorda jadal tushishiga omil bo'ladi. Yer yuzasidagi portlash oqibatida hosil bo'ladigan radioaktiv zararlantirish portlash joyida ham, bulut harakati yo'nalishida ham havodagi portlashga nisbatan sezilarli ravishda kuchli ro'y beradi.

Yer yuzasidagi portlash turi mustahkam inshootlarni vayron qilish, pishiq materiallardan qurilgan panagohlar ichidagi qo'shinlarga shikast (talafot) yetkazish, portlash hosil qilingan yoki bulut yo'nalishida bo'lgan hudud va undagi obyektlarni radioaktiv jihatdan kuchli zararlantirish, tabiiy joyni shu tarzda zararlantirish yo'li orqali ochiq joylashgan qo'shinlarga talafot yetkazish maqsadlarida qo'llaniladi.

Yadro qurolining yer ostidagi portlashi deb yer ostida, muayyan chuqurlikda amalga oshirilgan portlashga aytiladi. Portlashning bunday turida yorishuvchi soha kuzatilmasligi mumkin bo'lib, yerga nisbatan katta bosim hosil bo'ladi. Buning oqibatida yuzaga kelgan zarbali to'lqin yerni zilzilaga o'xshash tarzda tebratib yuboradi. Portlash yuz bergan joyda o'lchamlari portlash kuchi va yer qatlamining turiga bog'liq bo'lgan voronka hosil bo'ladi. Ushbu voronka ichidan tuproqning radioaktiv moddalar bilan aralashgan katta miqdori ustun ko'rinishida otilib chiqadi. Bunday ustun balandligi bir necha yuz metrga qadar yetishi mumkin. Yer ostidagi portlash mobaynida, odatda, qo'ziqorin ko'rinishidagi bulut hosil bo'lmaydi. Hosil bo'lgan ustun yer yuzasida hosil bo'lgan portlashga nisbatan ancha qoramtir tus kasb etadi. Maksimal balandlikka yetib borgan ustun vayron bo'la boshlaydi va yerga tushgan radioaktiv chang portlash yuz bergan hududdagi tabiiy joyni kuchli zararlantiradi. Portlashning bunday turi o'ta muhim yerosti inshootlarini vayron qilish, tog'li joylarda uyumlar hosil qilish, joy va obyektlarni radioaktiv jihatdan zararlantirish uchun qo'llaniladi.

Yadro qurolining suv yuzasidagi portlashi tashqi alomatlariga ko'ra yer yuzasidagi portlash turi singari kechib, o'xshash shikast yetkazish omillariga ega bo'ladi.

Yadro qurolining suv ostidagi portlashi deb suv ostida, muayyan chuqurlikda amalga oshirilgan portlashga aytiladi. Portlashning bunday turida chaqnash va yorishuvchi soha, odatda, ko'rinmaydi. Suv havzasining sayoz joyida portlash yuz berganida cho'qqisida portlash jig'asi deb nomlanadigan qo'ziqoriga o'xshash bulutga ega, balandligi bir kilometrdan oshadigan suv ustuni ko'tariladi. Suvning pastga tushishi, ushbu jig'a asosida tomchilar va suv qatralaridan iborat radioaktiv tuman hamda girdobli halqa, ya'ni bazis to'lqini hosil bo'lishiga olib keladi. Shundan so'ng, portlash jig'asi va bazis to'lqinidan radioaktiv yomg'ir yog'adigan suv bulutlari hosil bo'ladi.

YADROVIY BOMBA – yadroviy zaryadga ega aviatsiya bombasi. Yadroviy o'q-dori turlaridan biri.

Ilk bor 1945-yil Amerika Qo'shma Shtatlari harbiy aviatsiyasi tomonidan trotilli ekvivalenti taxminan 20 ming tonnaga teng bo'lgan yadroviy bombalar Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlari ustiga tashlangan.

Zamonaviy yadroviy bombalarning trotilli ekvivalenti 1 mln tonnaga yetadi. Yadroviy bomba qiruvchi-bombardimonchi va bombardimonchi samolyotlarda tashiladi. Yadroviy bombalar kichik balandlikda uloqtirilishi mobaynida tashuvchi samolyot xavfsizligini ta'minlash maqsadida parashutlar (tormozlovchi uskunalar) bilan jihozlanadi.

YADROVIY ZARARLANISH MARKAZI – yadroviy zarba natijasida muayyan sarhadda mavjud inson, hayvon va o'simliklarning ommaviy qirilishi, qurol-yarog', jangovar texnika va turli inshootlarning yakson bo'lishi (ishdan chiqishi) ro'y bergan, radioaktiv zaharlanib, vayronalik va uyumlar hosil bo'lgan hudud.

Ushbu hudud o'lchamlari yadroviy portlashning turi va qo'llanilgan qurol quvvati, harbiy texnika va insonlarning himoyalanganlik darajasi, inshootlarning mustahkamligi, joy relyefi, meteorologiya sharoiti kabi mezonlarga bog'liq.

YADROVIY ZARYAD – yadroviy energiyaning portlash ko'rinishida xalos bo'lish jarayoni ichida ro'y beradigan qurilma. Yadroviy zaryad yadroviy o'q-dorilar jumlasiga kirib, atomli va termoyadroli turlarga bo'linadi.

Atomli yadroviy zaryadning portlash energiyasi parchalanishning zanjirli yadroviy reaksiyalariga bog'liq bo'lsa, termoyadro zaryadining portlash energiyasi sintezli termoyadro va parchalanish reaksiyalariga bog'liqdir.

YADROVIY RAKETA – kosmik parvozlar uchun mo'ljallangan yadroviy raketa dvigateliga ega raketa.

Yadroviy raketaning jangovar qismi yadroviy o'q-dori bilan ta'minlangan.

YADROVIY O'Q-DORILAR – qirg'in keltirish ta'siri yadroviy portlash energiyasidan foydalanishga asoslangan o'q-dorilar. Yadroviy o'q-dorilar jumlasiga yadroviy zaryadga ega raketa va torpedalarning jangovar qismlari, aviatsiya va chuqurlik bombalari, artilleriya snaryadlari va fugaslar kiradi. Yadroviy o'q-dorilarning asosiy elementlari jumlasiga:

- korpus;
- yadroviy zaryad;
- avtomatika tizimi;
- elektr ta'minot manbalari kiradi.

Yadroviy o'q-dorilarning quvvati trotilli ekvivalent bilan tavsiflanadi. Yadroviy o'q-dorilar nishon ustiga raketa, torpeda, samolyot yoki artilleriya qurollari yordamida yetkazilishi yoxud yer yoki suv ostiga o'tatilishi mumkin.

YAKKABOSHCHILIK – harbiy qurilish va rahbarlikning muhim tamoyili bo'lib, ushbu tamoyilga binoan, komandir (boshliq) idora qilishning to'la hukmronlik vakolatiga ega bo'lib, tasarrufidagi qo'shinning jangovar va safarbarlik darajasi muntazam tutib turilishiga shaxsan va to'la javob beradi.

YAKKA TARTIBDAGI TAYYORGARLIK – xizmatga yangi chaqirilgan, Qurolli Kuchlarning barcha turiga mansub harbiy xizmatchilarga qurol va texnika bilan muomala qilish, kundalik xizmat o'tash va jangda zarur bo'ladigan bilim berish, ularning mahorat va ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida, belgilangan bo'linmaga yetib kelishgandan so'ng o'tkaziladigan ta'lim berish jarayoni.

Yakka tartibdagi tayyorgarlik: ijtimoiy-siyosiy, taktik, otish, saf, jismoniy tayyorgarliklar, umumqo'shin nizomlarining talablari, qurol va harbiy texnikani o'rganib chiqish kabilardan iborat.

Harbiy xizmatchilarning ixtisoslariga ko'ra yakka tartibdagi tayyorgarlik 3-8 hafta davom etishi mumkin.

YALPI O'T OCHISH – artilleriya olovining turi. Umumqo'shin artilleriya qurolining barcha rusumi yoki aksariyat qismidan dushman obyektiga qarata qisqa muddatda yo'q qilib tashlash maqsadida bir vaqtda yuritiladi.

YEGULIK – 1. Muddatli harbiy xizmat askarlariga, serjant va

ofitserlar tarkibiga ayrim hollarda ularning oila-a'zolariga beriladigan oziq-ovqat mahsulotlari; 2. Payok. Payok belgilangan me'yorga ko'ra muayyan vaqtga, ya'ni bir sutka, bir necha kun va bir oyga beriladi. Payok harbiy mehnat, axloqiy-ruhiy va jismoniy zo'riqlash sharoitiga qarab taqsimlanadi. Shu bois harbiy xizmatchilarning ovqatlanishi:

- askar payogi;
- matros payogi;
- uchuvchi payogi;
- kursant payogi;
- gospital payogi kabi payoklar bo'yicha amalga oshiriladi.

Payoklar:

- asosiy payok;
- quruq payok;
- bort payogi;
- avariya payogi turlariga bo'linadi.

YER QAZIB, O'Z ATROFINI O'RASH – jangovar harakatlarga tayyorgarlik ko'rish va ushbu harakatlar davomida alohida harbiy xizmatchi, ekipaj va raschyotlar tomonidan o't ochish, kuzatuv yuritish va shikast yetkazuvchi vositadan himoyalaniish uchun okop qazish jarayoni. Yer qazib, o'z atrofini o'rash jarayonida jangovar texnikaga biriktirilgan uskuna va yer qazish asboblari qo'llaniladi.

YIG'IN – 1) qo'shinning tayinlangan hududga jamlanish jarayoni bo'lib, qismning (bo'linmaning) mashq qilish, yong'inni o'chirish, tabiiy ofatlar oqibatini bartaraf etish, jangovar trevoga bo'yicha mashq qilish kabi boshqa masalalarni hal etish mobaynida amalga oshiriladi; 2) qo'shinlarning jangovar (operativ) tayyorgarlik tizimidagi tadbir; 3) safni boshqarish uchun nizomda belgilangan signal.

YOLG'ON MA'LUMOTLAR – mazmunan qo'shinlar guruhi, tarkibi, qurol-aslahasi kabilar haqida soxta ma'lumotlar tarqatish. Bu bilan dushmanni chalg'itib, muvaffaqiyat qozonish uchun samarali sharoitni yuzaga keltirishdan iborat. Yolg'on ma'lumotlarni tarqatish uchun aloqaning turli vositalari: matbuot, radioeshittirishlar, televizion ko'rsatuvlardan keng ko'lamda foydalaniladi.

YON SAFAR ZASTAVASI – marshda qo'shinlarni safar qo'riqlov organi hisoblanadi. Qo'shilma yoki bevosita mustaqil ravishda harakatlanayotgan asosiy kuchlar kolonnasidan yoki ilg'or otryad, avangard tarkibidan bir yoki ikkala qanotlar bo'ylab yuboriladi. Uning vazifasi – dushmanning qo'qqidan hujumiga, shuningdek,

qo'riqlanayotgan kolonnaga uning yerusti razvedkasini kirib kelishiga yo'q o'ymaslik va asosiy kuchlarni yoyilishi va jangga kirishiga sharoit yaratib berishdir.

YONDIRUVCHI MODDALAR – yonish mobaynida 3000° C gacha yuqori haroratli issiqlik ajratuvchi maxsus kimyoviy aralashmalar. Turli rusumdagi o'q-dori, aviabomba, snaryad, mina, o'q va granatomyotlarni anjomlash uchun qo'llaniladi. Yondiruvchi moddalar suyuq va quyuq bo'ladi. Kimyoviy tarkibi bo'yicha:

- havodagi kislorod yordamida yonuvchi napalm, oq fosfor va hokazolarga;

- havosiz ham yonishi mumkin bo'lgan, oksidlarga ega moddalar, masalan: termit kabilarga bo'linadi.

Yondiruvchi moddalar qadimdan ma'lum bo'lgan, lekin keng ko'lamda kimyo sanoati rivojlana boshlagach, ya'ni XX asrdan qo'llanilib kelinmoqda.

Yondiruvchi moddalardan himoya qilish – shaxsiy tarkib, jangovar texnika, qurol-aslaha kabilarni yondiruvchi moddalar ta'siridan himoyalash yoki ushbu ta'sir kuchini susaytirish, shuningdek, qo'llanilishi natijasida hosil bo'ladigan yong'inning oldini olish va o'chirish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar majmui. Mazkur tadbirlar quyidagi amallardan iborat:

- yong'in chiqishi taxmin qilinadigan hudud, yong'in qamrab oladigan miqyos va tarqaladigan yo'nalishlarni oldindan o'rganib chiqish;

- yong'in qamragan hududlarni razvedka qilish va dushman tomonidan yondiruvchi moddalarning qo'llanilayotganligini kuzatib borish;

- shaxsiy tarkib, qurol-yarog', texnika, yoqilg'i-moy mahsulotlari, raketa yonilg'isi va boshqa moddiy vositalarni panalash;

- jarohatlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish va evakuatsiya qilish, qurol-aslaha, jangovar texnika, oziq-ovqat va harbiy mulkni saqlab qolish;

- birinchi navbatda odamlar va texnikaga xavf tug'dirayotgan yong'inni bartaraf etish;

- qo'shinlarni o't o'chirish vositalari bilan ta'minlash.

Yondiruvchi moddalardan himoya qilish choralari jangga tayyorgarlik ko'rish davomida, jang jarayonida, marsh vaqtida va qo'shinlar biror joyda to'xtab joylashganda, ommaviy qirg'in qurollardan saqlanish choralari bilan bir vaqtda ko'riladi. Asosiy vazifa – shaxsiy tarkibni saqlab qolishdir.

YONDIRUVCHI SNARYAD – yondiruvchi moddalar bilan to‘latilgan artilleriya snaryadi. Dushman joylashgan hududdagi binolar, yonilg‘i-moy va o‘q-dori omborlarini yondirish, shuningdek, jonli kuchi va texnikasining ba’zi bir rusumlarini yo‘q qilish uchun mo‘ljallangan. Yondiruvchi snaryad portlaganida joydagi harorat 3000⁰ C ga qadar ko‘tariladi. Yondiruvchi snaryad parchalanuvchi fugas snaryadlar bilan uyg‘unlashtirilgan tarzda qo‘llaniladi.

YONDIRUVCHI O‘Q-DORILAR – yondiruvchi moddalar bilan anjomlangan o‘q-dorilar. Ular jumlasiga: yondiruvchi aviabomba, yondiruvchi mina, yondiruvchi o‘q hamda raketalarining yondiruvchi baklari va yondiruvchi moddalar bilan anjomlangan jangovar qismlari kiradi.

YONG‘INGA QARSHI MUHOFAZA – yong‘in xavfini oldindan aytib berish, yong‘inning oldini oluvchi choralar ko‘rish, yong‘inli vaziyatni kuzatib borish va baho berish amallaridan iborat tadbirlar majmui. Yong‘inga qarshi kurashuvchi komanda tomonidan amalga oshirilib, yong‘in chiqishiga qarshi tadbirlarning muttasil o‘tkazilishi, yong‘in xavfsizligi qoidalariga qat’iy amal qilinishi va yong‘inga qarshi kurash xizmati sifatli va to‘la-to‘kis o‘talishi bilan ta‘minlanadi. Har bir harbiy qismda yong‘inga qarshi muhofaza rejasi ishlab chiqilib, mazkur reja unda ko‘zda tutilgan barcha kuch va vositalar jalb etilgan holda hayotga muntazam tatbiq etiladi.

YORITUVCHI VOSITALAR – tungi vaqtdagi jangovar harakatlar mobaynida joyni yoritish uchun mo‘ljallangan maxsus qurilma va moslamalar. Yorituvchi vositalar sifatida projektor, yorishuvchi aviabomba, yorituvchi snaryad (mina), maxsus pistoletdan otiladigan patron va maxsus moslamasiz uchiriladigan reaktiv patron kabilar qo‘llaniladi. Joyni yoritish davomiyligi inson ko‘zining fiziologik xususiyatini hisobga olgan holda nishonni fosh etish va kimga tegishli ekanligini aniqlash uchun zarur bo‘lgan vaqt bilan belgilanadi.

YORITUVCHI SNARYAD – 1) tungi vaqtda joy va nishonlarni yoritish uchun qo‘llaniladigan artilleriya snaryadi (minasi). Yorituvchi snaryad metall (magniy, alyuminiy va ularning qorishmalari) kukuni va oksidlardan iborat. Yorituvchi snaryad parashutli va parashutsiz rusumlarga bo‘linadi. Joyni yoritib turish vaqti: *parashutli* snaryadda – 40-120 soniya; *parashutsiz* snaryadda – 20-30 soniya; 2) Nishonga qadar masofa davomida snaryad trayektoriyasining boshqa ko‘rinib turishini ta‘minlovchi, yonib boradigan maxsus tarkibga ega snaryad (o‘q). Otib

ko'rish va nishonni ko'rsatish amallarini yengillashtirib, signal berish uchun ham qo'llaniladi. Yorishuvchi izning rangi yonuvchi tarkibda qo'llanilgan yonuvchi modda tarkibiga bog'liq. Qizil va sariq tus berib yonuvchi tarkiblar ko'proq qo'llaniladi.

YORLIQ – 1) Oltin O'rda va O'rta Osiyo xonlari tomonidan xalqqa ma'lum qilish uchun berilgan yozma buyruq; 2) shu xonlarning o'z qo'l ostidagi feodal va ruhoniylarga bergan imtiyozli hujjati; 3) biror xalqaro bitimni tasdiqlovchi yoki biror huquqiy munosabatlarni o'rnatuvchi rasmiy yozma hujjat, masalan, ishonch yorlig'i; 4) biror sohada erishilgan yutuqlar uchun mukofot qilib beriladigan hujjat, masalan, faxriy yorliq.

YOQILG'I – yondirilganida texnologik jarayonlarda foydalaniladigan yoki energiyaning boshqa turiga aylantiriladigan issiqlik energiyasini ajratuvchi yonilg'i moddalar. Yoqilg'i shaklan:

- *qattiq* – ko'mir, torf, o'tin, yonuvchi tog' jinslari;
- *suyuq* – motorni harakatga keltiruvchi, bug' qozonga oid;
- *gazsimon* – tabiiy va sanoat gazlari kabi turlarga bo'linadi. Shu bilan birga "Yoqilg'i" atamasi energiya manbayi sifatida xizmat qiluvchi boshqa ashyolar – yadro yoqilg'isi, raketa yoqilg'isi kabilarga nisbatan ham qo'llaniladi.

YOQILG'I QUYISH TEXNIKASI – quruqlikda va aviatsiyada ishlatiladigan texnikaga mexanizatsiyalashtirilgan tarzda yoqilg'i quyish uchun mo'ljallangan maxsus mashina (qurilma). Yoqilg'i quyish texnikasi:

- bir vaqtning o'zida 1dan 4tagacha mashinalarga yoqilg'i quyishi;
- bir hajmdagi yoqilg'ini ikkinchi hajmga tortib chiqarishi;
- chuqurga joylashtirilgan hajmdagi yoqilg'ini nasosi bilan o'z sisternasiga so'rib olishi;
- o'zi ishlab chiqarayotgan chiqindi gaz bilan yoqilg'ini isitishi;
- yoqilg'i aralashmalarini tayyorlashi mumkin.

YOQILG'I QUYUVCHI SAMOLYOT – fazodagi uchish apparatini yoqilg'i bilan qo'shimcha ta'minlash uchun mo'ljallangan samolyot. Yoqilg'i quyuvchi samolyot: qo'shimcha yoqilg'i baklar, yoqilg'ini tortib o'tkazish nasosi, konusli egiluvchan shlang, uchida yonilg'i hisoblagichi mavjud qattiq teleskopik shtanga (quvur) kabi maxsus uskunalarga ega. Yoqilg'ini tortib o'tkazish tezligi daqiqada 4,5 tonnagacha.

YURISHDAGI QO'RILQLOV – qo'riqlanayotgan qo'shin (kuch) yaqiniga dushman razvedkasining singib kirishiga yo'l qo'ymaslik, dushmanning daf'atan hujum uyushtirishidan himoya etish va bo'linmalarimiz yoyilib, jangga kirishish uchun qulay sharoit yaratish

maqsadida tashkil etiladigan – marshdagi qo‘shinni muhofaza etishning bir turi. Yurishdagi qo‘riqlov organlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- avangard;
- oldingi zastava;
- yon tomonlardagi zastavalar;
- ortda keladigan zastava;

YURISH YO‘LAGI – jangchilarning transheyalar va boshqaruv punktlari orasida pinhona yurishi, front orti bilan aloqa bog‘lashi uchun mo‘ljallangan brustverga ega tor xandaq ko‘rinishidagi ochiq inshoot.

Yurish yo‘lagi tubining eni 40-70 sm, yuqori qismi esa – 90-110 sm o‘lchamlarida transheya qazish mashinasi bilan yoki qo‘lda:

- emaklab yurish uchun 60 sm;
- egilib yurish uchun 110 sm;
- tik yurish uchun 150 sm chuqurliklarda qaziladi.

YURISH KOLONNASI – qism va bo‘linmalarining bir yo‘nalishdagi marshda yurishlari uchun saf tortishi.

YURISH SAFI – bo‘linmalarining nizom yoki komandir tomonidan belgilangan distansiyada kolonnaga birin-ketin saf tortishi. Yurish safi:

- *seksiyada* – bir yoki ikki kolonnali;
- *guruhda* – uch kolonnali (to‘rtta seksiyaga ega guruhning safi – to‘rt kolonnali);

– *vzvodka* – uch (to‘rt) yoki ikki kolonnali;

– *batalyonda* – vzvodlar, artilleriya, maxsus va front orti ta‘minoti bo‘linmalarining uch (to‘rt) kolonnasidan iborat, oldinda borayotgan bo‘linmaning so‘nggi sherengasidan ortda kelayotgan vzvodning komandiriga qadar ikki qadamli distansiyada birin-ketin saf tortgan yurish safidan tashkil topgan.

YURISH TARTIBI – bo‘linma, qism va qo‘shilmalarning kuchaytirish vositalari bilan birgalikda, marshda yurish uchun tortgan safi. Yurish tartibi:

- qo‘shinlar harakatining katta tezligi;
- jang oldi va jangovar tartibga zudlik bilan yoyilishi;
- ommaviy qirg‘in qurol va aviatsiya zarbasiga bardoshli bo‘lish;
- shaxsiy tarkib va harbiy texnika asralishi;
- qo‘shinlarning ishonchli boshqariluv va barqarorligini ta‘minlaydi.

Yurish tartibi, aviatsiya harbiy qism va qo‘shilmalaridan tashqari, qurolli kuchlarning barcha turida qo‘llaniladi. Yurish tartibining tarkibiga:

- ilg‘or otryad;

- yurishdagi qo‘riqlov bo‘linmasi;
- asosiy kuchlar kolonnalari;
- front orti ta‘minoti qismlari va texnik ta‘minot bo‘linmalari kolonnalari kiradi.

YO‘L-KOMENDANTLIK XIZMATI – 1) maxsus xizmat bo‘lib, operativ birlashinalarning yo‘l-komendantlik qism va bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Yo‘l-komendantlik xizmati vazifalariga:

- yo‘llardagi qatnovlarni tartibga solish va dispetcherlik nazoratini o‘tkazish;

- qatnov va niqoblanish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish;
- kolonnalar boshliqlarini radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat haqida xabardor qilish;

- yo‘llarni soz holda tutish kabi tadbirlarni amalga oshirish kiradi.

Yo‘l komendantlik xizmati operativ birlashma shtabi tomonidan tashkil etiladi; 2) avtomobil yo‘llarida qo‘shin va transport kolonnalarining harakati tartibini ta‘minlash, yo‘llar holatiga qarab turish, ulardagi muhim obyektlarni qo‘riqlashga mo‘ljallangan. Yo‘l qo‘shinlari tomonidan tashkil etiladi.

YO‘L XIZMATI – front orti ta‘minoti xizmatlaridan biri bo‘lib, qo‘shinlarning urush va tinchlik vaqtidagi qatnovini tartibga solish va uzluksizligini ta‘minlash uchun mo‘ljallangan.

Tayyorgarlikdan o‘tgan bo‘linma va qismlar, boshqaruv organlari va turli moddiy-texnik vositalardan tashkil topgan. Yo‘l xizmatining vazifalariga:

- urush davrida – asosiy harbiy avtomobil yo‘llarini razvedka qilish, ta‘mirlash, tiklash, yotqizish va samarali foydalanilishini ta‘minlash;

- tinchlik davrida – harbiy jihatdan muhim sanaladigan avtoyo‘llarning texnik holatini nazorat qilib, harbiy qismlarga yaqinlashish yo‘llarini takomillashtirish, qayta qurish, ta‘mirlash, soz holda tutish va mazkur ishlarni moliyalashtirish kabi tadbirlar kiradi.

YO‘L QO‘SHINLARI – front orti ta‘minoti tarkibidagi maxsus qo‘shinlar. Avtomobil yo‘llari va ko‘priklar qurish, ta‘mirlash hamda ularda yo‘l-komendantlik xizmatini o‘tash uchun mo‘ljallangan. Yo‘l qurish, ko‘priksizlik, yo‘l-komendantlik qismlari va boshqalardan iborat.

YO‘NALISH – qo‘shin harakatining yo‘nalishi yoki borishi nazarda tutilgan yo‘l. Yo‘nalish xaritada, azimut yoki qo‘shin oshib o‘tadigan asosiy punktlar ko‘rsatib o‘tilgan holda belgilanadi.

Aviatsiyada yo‘nalish nishon tomon parvoz mobaynida mo‘ljallarga

qarab uchish hamda zarbaning dushman uchun nogahon bo'lishi, nishon ustiga aniq bostirib borishi va vazifa bajarilgach chekinishni ta'minlash zaruratidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

YO'NALTIRISH NUQTASI – yopiq o't ochish marrasidan o't ochish mobaynida qurolni gorizontal tekislikda yo'naltirish uchun foydalaniladigan joydagi muayyan nuqta.

Yo'naltirish nuqtasi sifatida 200 m dan kam bo'lmagan masofada joylashgan, muayyan o't ochish marrasida joylashtirilgan barcha to'plardan aniq ko'rinuvchi va atrofidagi jismlardan keskin farqlanib turuvchi mahalliy jism tanlanadi.

YO'RIQNOMA – 1) qonun yoki boshqa me'yoriy akti tushuntirish maqsadida chiqariladigan yuridik hujjat; 2) muayyan ishni bajarish, mashinalar, asboblardan foydalanish to'g'risidagi yo'l-yo'riq.

YO'RIQNOMA BERISH – harbiy xizmatning muayyan majburiyatlarini bajarishga shaxsiy tarkibni tayyorlash shakli. Katta boshliq yoki uning topshirig'iga binoan, mas'ul shaxs tomonidan suhbat o'tkazish, namoyish etish, tushuntirish yo'l-yo'riq ko'rsatish shaklida o'tkaziladi.

Z

ZALP – 1) yalpi o't ochish tartibi. Bunda bir necha to'p va minomyotlar (reaktiv uchirish qurilmalari) kabi qurol-yarog'lardan o't ochish (uchirish) amallari bir vaqtda, yagona komandaga ko'ra bajariladi. Baravariga o't ochish usuli nishonlarni daf etish hamda bayram salyutlarini otish uchun qo'llaniladi; 2) qo'shilma, qism yoki kemandagi bir vaqtda o't ochish mobaynidagi imkoniyatlarini aniqlash yoxud artilleriya, raketa, o'qotar kabi barcha qurol-yarog'larga mansub o'q-dorilarning umumiy massasini o'lchash uchun shartli birlik; 3) reaktiv artilleriyada "zalp" atamasi ostida nishonni yakson etish uchun o'q-dorilar sarfi ham tushuniladi. Ushbu sarf bo'linma yoki qism zalpidagi snaryadlar soniga ko'ra zalp birligi yoki zalp ulushlarida ifodalanadi.

ZAMBARAK – quruqlikdagi, suv yuzasidagi nishonga qarata yer bag'irlab, havodagi nishonlarga qarata esa yuqoriga qaratib o't ochish uchun mo'ljallangan artilleriya quroli. Zambarak uzun stvol va snaryadning katta boshlang'ich tezligiga ega bo'lganligi bois o't ochish masofasi uzoqligi bilan artilleriya qurollarining boshqa rusumlaridan ustun turadi. Tuzilishi va harakatlanish usuliga ko'ra – shataikka olinadigan,

o'ziyurar, o'zi harakatlanuvchi va tashuvchiga: tank, samolyot, kemaga o'rnatiladigan turlarga bo'linadi. Zambarak kalibri 20dan 210 mm gacha, o't ochish masofasi 35 km gacha, snaryadining vazni 0,1 kg dan 130 kg gacha bo'ladi.

ZAPAL – 1) muhandislik minalari va qo'l granatalarining yorib yuboruvchi zaryadlari portlashini qo'zg'atish uchun mo'ljallangan vosita. Metall yoki plastmassadan tayyorlangan gilza ichiga joylashtirilgan yondiruvchi kapsul va kapsul-detonatordan tarkib topgan. Parchalanuvchi qo'l granataning zapali, bundan tashqari, poroxli kechiktirgich va yondiruvchi kapsulni o't oldirish uchun mo'ljallangan zarb beruvchi mexanizmdan iborat; 2) elektr toki yordamida portlatish uchun mo'ljallangan qurilma.

Bugungi kunda bunday zapal elektrodetonator deb ataladi.

ZARARLANGAN MAYDON – zaharli va radioaktiv moddalar hamda biologik vositalarning zararli ta'siri namoyon bo'layotgan joy. Zararlangan hudud o'lchami zahar turi va zichligi bilan tavsiflanadi.

ZARBA – dushmani tor-mor qilish maqsadida unga harbiy kuch bilan bevosita ta'sir etish.

Zarba quruqlikdagi qo'shin, raketa, aviabombardimon qilish, bomba tashlab shturm qilish, artilleriya, torpeda zarbalariga bo'linadi, yadro quroli qo'llangan taqdirda esa yadroviy, raketa-yadroviy zarbasi berilishi mumkin.

ZARYAD – 1) portlovchi modda zaryadi – maxsus bo'lmaga joylashtirilgan, vazni va o'rnatiladigan joyi oldindan hisoblangan hamda portlatishga tayyorlangan portlovchi modda. Zaryadlar – uloqtiruvchi, turtib chiqaruvchi, yorib tashlovchi, qo'porib yuboruvchi, qattiq yoqilg'ili va yadroviy turlariga bo'linadi; 2) uloqtiriladigan porox zaryadi – stvol kanalida snaryadni (mina yoki o'qni) harakatga keltirish va kerakli tezlikda otishga zarur bo'lgan, gilza yoki alohida qopchiqlarga (kartuzlarga) joylashtirilgan ma'lum miqdordagi porox; 3) raketaning qattiq yoqilg'isi zaryadi – dvigatel kamerasiga joylashtirilgan va yonish mahsulotlari reaktiv dvigatel soplosidan chiqayotganda raketani harakatlantiruvchi reaktiv kuch hosil qiladigan bir yoki bir necha qattiq yoqilg'i bloki (shashkasi).

ZARYADLASH QURILMASI – akkumulyatorlar va kondensatorlar batareyalariga elektr zaryad beruvchi qurilma. Eng oddiy zaryadlash qurilmasi yarim o'tkazgichli to'g'rilagich va generator-dvigatel.

ZASTAVA – 1) davlat chegarasining muayyan qismida davlat

chegarasini muhofaza etayotgan chegara qo'shinlari bo'linmasi; 2) urushda yoki tinchlik davrida marshda borayotgan yoki hordiq chiqarayotgan qo'shnlarni mashg'ulotlar va mashqlar davomida qo'riqlash uchun tayinlangan bo'linma.

ZATVOR – patronni, artilleriya snaryadini patrondonga yuborish, stvol kanalini yopish, o't ochish, kanalni ochish va kanaldagi gilzani yoki (patronni stvolning ortki uchi orqali chiqarib ulotqirish uchun mo'ljallangan quroldagi moslama. Zatvorlar:

- tuzilishiga ko'ra artilleriyada – porshenli, ponali; o'qotar qurollarda esa – sirpanuvchan, chayqaluvchan, ko'ndalang harakatlanuvchan turlarga;

- ishlash tamoyillariga ko'ra – avtomatik, yarim avtomatik, avtomatlashtirilmagan turlarga bo'linadi.

ZAXIRA QO'MONDONLIK PUNKTI – asosiy qo'mondonlik punkti ishdan chiqqan yoki ushbu punktdan qo'shnlarni boshqarishning iloji bo'lmay qolgan hollarda foydalanish uchun tayyorlab qo'yilgan boshqaruv punkti. Birlashma va qo'shilma miqyosida tashkil etiladi. Qo'mondon yoki komandir tayinlagan ofitser tomonidan boshqariladi.

Zaxira qo'mondonlik punkti asosiy qo'mondonlik punkti, bo'ysunuvchi boshqaruv punktlari, hamkor qo'shinlar, kuchlar boshqaruv punktlari bilan uzluksiz aloqa tutib turadi.

Asosiy qo'mondonlik punkti ko'chirib o'tkazilayotganida qo'shnlarni boshqarish amallari zaxira qo'mondonlik punktida bajariladi, shuningdek, unda qo'shnlarni boshqarish borasida qo'yilgan alohida vazifalar bajariladi.

Zaxira qo'mondonlik punkti faoliyati manfaatlarida shtab, boshqaruv organi, aloqa va xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar tarkibidan tegishli kuch va vositalar ajratiladi.

Zaxira qo'mondonlik punktining mavjudligi qo'shinlar boshqaruvining turg'unligi va uzluksizligini oshiradi.

ZAXIRA HUDUDI – bo'linma, qism, qo'shilma, harbiy obyekt tomonidan joylashgan joyini o'zgartirish zarurati tug'ilgan hollarda egallash uchun tayyorlab qo'yilgan yoki egallash ko'zda tutilayotgan joy hududi.

Zaxira hudud qo'shinni dushman zarbasi ostidan chiqarish maqsadida egallanadi.

ZAHARLOVCHI MODDALAR – kimyoviy qurol asosini tashkil etib, jangovar jihatdan qo'llanilganda dushmanning jonli kuchini ommaviy qirilib ketishiga olib keluvchi – o'ta zaharli birikmalar.

Ilk bor Birinchi Jahon urushi yillarida Germaniya hukumati tomonidan qo'llanilgan.

Zaharlovchi moddaning shikast yetkazuvchi ta'siri inson organizmining hayotiy faoliyatidagi asosiy biokimyoviy jarayonlar izdan chiqishida namoyon bo'ladi. Zaharlovchi modda organizmga nafas olish, hazm qilish organlari, teri qoplamalari va yaralar orqali singib kiradi. Zaharlovchi modda samaradorligining asosiy mezonlari – tez ta'sir o'tkazishidir. Zaharlovchi modda shartli ravishda:

- asabni falajlovchi – zarin, zoman, V gazlar;
- umumiy zaharlovchi – sianit kislotasi, xloroform;
- terini yallig'lantiruvchi – iprit, azotli ipritlar, lyuizit;
- bo'g'uvchi – fosgen, difosgen;
- psixokimyoviy – lizergin kislotasining dietilamidi (DLK) BZ (Bi-zet);

- yuqori nafas yo'llari va burundagi shilliq pardalarga ta'sir o'tkazuvchi sternitlar – adamsit, difenilxlorarsin, difenilsianarsin;

- ko'z shilliq pardalariga ta'sir etuvchi (yosh oqizuvchi yoki lakrimatorlar deb ataladigan) – brombenzilsianid, xloratsetofenon, Si-es (CS) va Si-ar (CR) moddalarga bo'linadi.

Asabni falajlovchi zaharlovchi modda zahirida fosfor moddasi mavjud bo'lgan o'ldiruvchi zaharli gazlarning asosiy guruhi. Yashirin ta'sir o'tkazish davri juda qisqa.

Umumiy zaharlovchi va *bo'g'uvchi* zaharlovchi modda – nisbatan kam zaharli moddalar guruhi. Cheklangan mohiyatli yoki zaxira zaharlovchi modda sifatida ko'riladi.

Terini yallig'lantiruvchi zaharlovchi modda – o'ldiruvchi zaharlovchi moddaning asosiy guruhi. O'q-dorilarning barcha rusumlarida qo'llaniladi.

G'ijintiruvchi zaharlovchi modda – vaqtincha safdan chiqaruvchi zaharlovchi modda guruhi. Pirotexnik granata, shashka, aviatsiya va artilleriya o'q-dorilari yordamida qo'llash imkonlari mavjud.

Ruhiy-kimyoviy zaharlovchi modda – safdan vaqtincha chiqaruvchi zaharlovchi modda guruhi. Ruhiy kasalliklarni: shizofreniya, psixozni keltirib chiqaradi. Katta dozada qo'llanilganda – davolab bo'lmas yoki o'lim bilan yakunlanadigan oqibatlariga olib keladi.

Neyrotrop zaharlar – mikroorganizmlar faoliyatining mahsuloti sanaladigan zaharli oqsillar guruhi. Jangovar sharoitda aërozollar, qattiq va suyuq holatlarda qo'llanishi mumkin. Qo'poruvchilik maqsadida qo'llanilish ehtimoli mavjud.

Zaharli moddalardan himoya qilish bo'yicha barcha turdagi tadbirlar majmuiga – zaharlovchi moddani indikatsiyalash, degazatsiya va himoyalanish kabi tadbirlar kiradi.

ZVENO – 1) harbiy aviatsiyadagi birlamchi bo'linma (3-4 samolyotlar); 2) harbiy-dengiz flotidagi katerlar bo'linmasi (2-3 katerlar); 3) ayrim xorijiy armiyalardagi XX asrning 20-30-yillarida bo'lgan kavaleriya va piyodalarining taktik va o't ochuvchi kichik bo'linmasi.

ZENIT ARTILLERIYASI – havodagi nishonlarni: samolyot, vertolyot kabi uchish apparatlarini daf etish uchun mo'ljallangan artilleriya turi.

Qo'shinlar, aholi punktlari, shtablar, kechuvlar kabi harbiy hamda fuqarolik obyektlarini dushman aviatsiyasi zarbalaridan himoya qilish va quruqlikdagi nishonlarga qarata o't ochish uchun qo'llaniladi. Tashkiliy jihatdan HHM qo'shinlarining quruqlikdagi qismlari tarkibiga kiradi.

Zenit artilleriyasining vujudga kelishi havo hujumi vositalarining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Reaktiv aviatsiya parvozining balandligi, tezligi va manyovrchanlik xususiyatlarining ortishi zenit artilleriyasi, ayniqsa o'rtacha va kichik kalibrli zenit artilleriyasining o't ochish samarasi sezilarli pasaydi. Aviatsiyaning ushbu turiga qarshi jangovar harakatlar yuritish borasidagi vazifalar – zenit raketali komplekslar shaxsiy tarkibi zimmasiga yuklatila boshlandi.

Kichik kalibrli zenit artilleriya o'zining yengil harakatchanligi, texnik xizmat ko'rsatish amallarining soddaligi va jangda ishonchli bo'lishi bilan qurol-aslaha tarkibida, kichik balandliklardagi havo nishonlariga qarshi kurash vositasi sifatida qolib kelmoqda.

ZENIT PULEMYOTI – maxsus tirgakka o'rnatilgan va havodagi nishonlarga qarata o't ochish uchun mo'ljallangan – tez otar avtomatik qurol.

Zenit pulemyoti ilk bor Birinchi Jahon urushi yillarida Germaniya va Fransiya ishlab chiqilgan.

Keyinchalik tirgakli Maksim pulemyoti, so'ngra 12,7 mm li yirik kalibrli V. A. Degtyaryov va G. S. Shpagin pulemyotlaridan foydalanilgan. 1944-yilda 14,5 mm li yirik kalibrli S. V. Vladimirov pulemyoti asosida turli pulemyotli qurilmalar yaratildi.

ZENIT PULEMYOT QURILMASI – bir yoki bir necha zenit pulemyotlaridan (odatda 2 yoki 4) tashkil topgan avtomatik qurol.

Ushbu pulemyotlar maxsus tirgakka o'rnatilgan bo'lib, havo nishonlariga qarata o't ochish uchun yo'naltirishning umumiy

mexanizmlari va nishonga olish moslamalariga ega. Zenit pulemyot qurilmalari asosan quruqlikdagi qo'shinlarning zenit bo'linmalari hamda ba'zi bir tank (ZTR) va kichik kemalar aslahasi tarkibiga kiradi. Ilk bor XX asrning 20-yillarida ishlab chiqilgan. Bugungi kunda kalibri 14,5 mm li zenit pulemyot qurilmasi keng tarqalgan.

ZENIT RAKETALI KOMPLEKS – bir yoki bir necha boshqariladigan zenit raketalar, uchirish qurilmasi, radiolokatsion stansiya, boshqaruv tizimi majmuasi.

Dushmanning havodagi hujum vositalarini urib tushirish uchun mo'ljallangan. Mamlakat havo hujumidan mudofaa, havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va kemalarning havo hujumidan mudofaa vositalariga mansub zenit raketali komplekslar mavjud. Harakatchanligiga ko'ra zenit raketali komplekslar ko'chmas, yarim ko'chmas va harakatchan bo'ladi.

ZENIT RAKETALI HARBIY QISMLAR – muhim obyektlarni havo hujumidan mudofaa etish uchun mo'ljallangan, zenit raketalari bilan qurollangan harbiy qismlar.

Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari tarkibidagi asosiy qo'shin turlaridan biri. Tashkiliy jihatdan zenit raketali qism tarkibiga: o't ochish, texnik, boshqaruv va xizmat ko'rsatish bo'linmalari kiradi.

Qurol-aslahasi tarkibiga, turli masofa, balandlik va tezliklarda parvoz etayotgan samolyot va vertolyotlarni hamda yaqin masofada parvoz etayotgan boshqariladigan raketalarni urib tushirishga mo'ljallangan bir yoki bir necha olis, o'rta va yaqin masofalarga parvoz etuvchi boshqariladigan zenit raketalar, uchirish qurilmasi, radiolokatsion stansiya, boshqaruv tizimiga ega – zenit raketali komplekslar kiradi.

Zenit raketali harbiy qism quruqlik va suv yuzasidagi nishonlarni daf etish uchun jalb etilishi mumkin. Kuchli olov qudratiga ega bo'lib, ob-havoning har qanday sharoiti va sutkaning har qanday vaqtlarida jangovar harakatlar yuritish qobiliyatiga ega.

Jangovar vazifani bajarish uchun, zenit raketali qism jangovar tarkibga yoyiladi. Zenit raketali kompleksning jangovar imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishni nazarda tutgan holda – zenit raketali qismlarning jangovar tartib va guruhleri tashkil etiladi.

Zenit raketali qismlar jangovar harakatlar jarayonida, radiotexnik qo'shinlardan qabul qilinadigan ma'lumotlar bilan ta'minlanadi.

ZENIT TO'PI – havo nishonlariga qarata o't ochish uchun mo'ljallangan artilleriya quroli. Quruqlik va suv yuzasidagi nishonlarni ham yakson etish uchun qo'llaniladi.

Zenit to'p'i ilk bor Birinchi Jahon urushining boshida Germaniya, Italiya va Fransiyada qo'llanila boshlandi. Samolyotlarga qarshi kurash uchun mo'ljallangan 76 mm li to'plar 1915-yilda ishlab chiqilgan. 50-yillarda zenit-raketa komplekslari ixtiro qilinishi bilan o'rta va yirik kalibrli zenit to'plarining ahamiyati keskin kamaydi.

Jahondagi aksariyat armiyalarda kichik kalibrli juftlashtirilgan, to'rt va olti stvolli o'ziyurar zenit qurilmalari takomillashtirilib kelinmoqda. Bugungi kunda mavjud kichik kalibrli zenit to'plari – o't ochishning yuqori sur'ati va aniqligi, katta yo'naltirish tezligi, manyovrchanligi va murakkab yo'llarni bosib o'ta olish sifatleri zamon talabiga moslashtirilganligi bilan tavsiflanadi.

ZIRH – odamlar, harbiy texnika va mudofaa istehkomlarini o'qdan va snaryad, bomba, mina parchalari hamda yadroviy portlashning talafot yetkazuvchi omillaridan himoya qilish vositasi. Zirhga quyidagi talab qo'yiladi: turg'unlik (o'q yoki snaryadlarning singib kirish kuchiga qarshilik ko'rsata olish qobiliyati) va qattiqlikning (dushmanga shikast yetkazuvchi vositalarning ko'p karra ta'sirlariga bardosh berish sifati) o'zaro uyg'unlashtirilishi. Zirh quyidagi turlarga bo'linadi:

– o'qqa qarshi; bunday zirhdan zirhli transportyorlar, yengil, o'ziyurar artilleriya qurilmalari va suzuvchi tanklarning asosan o'q va snaryadlar parchalaridan himoya qiluvchi korpuslarini tayyorlash uchun foydalaniladi.

– snaryadlarga qarshi; bunday zirhdan o'rta va og'ir tanklar, o'ziyurar artilleriya qurilmalari va kemalarning asosan zirh yoruvchi, fugasli va shu kabi snaryadlardan himoya qiluvchi korpuslarini tayyorlash uchun foydalaniladi.

Bugungi kunda ko'proq po'latli zirh qo'llaniladi. Shuningdek, alyuminiy eritmalari, plastmassa va keramikadan yoki ushbu ashyolar aralashmasidan tayyorlangan zirh qo'llaniladi.

ZIRHYORAR SNARYAD – zirhli nishonlarni (to'p, piyodalar jangovar mashinasi, zirhli transportyor, kema va shu kabilarni) yo'q qilish uchun mo'ljallangan artilleriya snaryadi.

Toblangan cho'yandan tayyorlangan o'tkir kallakli ilk snaryad XIX asrning 60-yillari so'ngida, kema va qirg'oq artilleriyasi aslahasi tarkibida paydo bo'lgan.

Zirhyorar snaryad to'plarining jangovar komplekti tarkibiga kirib, tank va tankka qarshi artilleriyaning asosiy o'q-dorisi sanaladi. Snaryadlar kalibri to'p kalibriga teng va undan kichik bo'ladi.

ZIRHLI AVTOMOBIL – zirhlangan, pulemyot, ayrimlari to'p bilan qurollangan, g'ildirakli jangovar mashina bo'lib, razvedka yuritish, jangovar qo'riqlash va aloqa yuritish uchun mo'ljallangan.

Zirhli avtomobil qurollari og'irligiga qarab yengil, o'rta, og'ir turlarga bo'linadi. Ekipaji 2-6 kishidan iborat.

Zirhli avtomobillar ilk bor XX asrning boshida Angliyada qo'llanilgan. Zamonaviy zirhli avtomobillarning murakkab yo'llarni bosib o'tish qobiliyati kuchaytirilgan bo'lib, aslahalar bilan uskunalanganligi bilan bir vaqtda suzish qobiliyatiga ham egadir.

ZIRHLI RAZVEDKA-DOZOR MASHINASI (BRDM) – murakkab yo'llarni bosib o'tish qobiliyatiga ega g'ildirakli suzuvchi mashina.

Tezligi: shosseda soatiga 65-100 km, suvda 6-8 km. Yo'l bosish zaxirasi 500-750 km, ekipaj 4-5 kishi. Qo'shinlar razvedkasini yuritish uchun mo'ljallangan. Kuzatuv (razvedka) asboblari, navigatsiya va aloqa vositalari bilan ta'minlangan. Quroli – pulemyot.

ZIRHLI-TANK TEXNIKASI – tarkibiga zirhli himoyaga ega jangovar mashinalarning turli sinflari kiruvchi harbiy texnikaning turi.

Zirhli-tank texnikasining asosini – tank, zirhli transportyor va zirhli avtomobillar, razvedka, piyodalar va boshqaruvning jangovar mashinalari tashkil etadi.

Ko'makchi zirhli-tank texnikasiga quyidagilar kiradi: tank shataklari, zirhlangan ta'mirlovchi-evakuatsiyalovchi mashinalar, zirhlangan texnik yordam mashinalari, zirhli-tank texnikasi va qurol-aslahalarini ta'mirlash va xizmat ko'rsatishning harakatchan vositalari, mototsikllar.

Asosan, Quruqlikdagi qo'shinlar, Havo desant qo'shinlari va dengiz piyodalari aslahalarining tarkibiga kiradi.

ZIRHLI TRANSPORTYOR (BTR) – murakkab yo'llarni bosib o'tish qobiliyatiga ega, jangovar, zanjirli yoki g'ildirakli yarim o'rnavlovchi, o'rnavlovchi (zanjirli), ochiq va yopiq turdagi mashina. Zirhli transportyorlarning aksariyat qismi suzuvchi, aviatsiyada tashishga va parashutlardan tashlashga moslashtirilgan bo'lib, tunda ko'rish moslamalari, havoni radioaktiv changdan tozalash uchun mo'ljallangan filtrlash-shamollatish qurilmasi bilan jihozlangan. Odatda, o'qqa qarshi zirhlangan. Zirhli transportyor devorlarida o'q otish uchun mo'ljallangan maxsus teshik (shinkalar) mavjud. Minorali va minorasiz zirhli transportyorlar bo'lishi mumkin.

Zirhli transportyorlar 20 nafargacha motoo'qchi bo'linmalar shaxsiy

tarkibini tashish, olovli ko'mak berish, og'ir qurol-yarog'larni tirkash va razvedka yuritish uchun mo'ljallangan. Aslahasi tarkibiga pulemyotlar, ba'zan to'p kiradi.

G'ildirakli zirhli transportyorlar tezligi soatiga 110 km gacha, zanjirli larniki esa 65-70 km gacha bo'lib, yo'l bosish zaxirasi 400-1000 km ga teng. Dastlab 1918-yilda Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan.

O'

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI – Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan.

Hududi – 448,97 kv.km.

Aholisi – 34 449 251 kishi (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra).

Chegaradosh davlatlar: sharqda – Qirg'iziston; shimoliy-sharqda, shimolda va shimoliy-g'arbda – Qozog'iston; janubiy-g'arb va janubda Turkmaniston; janubda – Afg'oniston; janubiy-sharqda – Tojikiston.

Poytaxti – Toshkent shahri.

Davlat tili – o'zbek tili.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yili 8-dekabrda qabul qilingan.

Konstitutsiyaning 1-moddasiga asosan “O'zbekiston — suveren demokratik respublika”.

Davlat rahbari – Prezident.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 3-iyuldagi Farmoni bilan tashkil topgan. Uning Nizomi va tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 29-sentabrdagi PF-2719-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi davlat siyosatini olib boruvchi va mudofaa sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi, shuningdek, vazirlik, idora va boshqa ijroiya hokimiyatlarining mudofaa masalalari bo'yicha faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi respublika ijroiya hokimiyati organi hisoblanadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ORDEN VA MEDALLARI – O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari. Ular bilan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari mehnat va jangovar xizmatlari, samarali davlat, ijtimoiy va ijodiy faoliyatlari uchun taqdirlanishlari mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi uchun xizmat ko'rsatgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar,

ayrim hollarda korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, ijodiy jamoalar va harbiy bo'linmalar, O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy birliklari ham mukofotlanishi mumkin.

"Davlat mukofotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 22-dekabrda Qonuniga ko'ra orden va medallar Oliy Majlis tomonidan ta'sis etiladi, orden va medallar bilan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti taqdirlaydi.

Orden, medal bilan mukofotlashga taqdim etish, mukofotlash va orden, medalni topshirish qonunda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Orden, medallar bilan taqdirlash to'g'risidagi farmonlar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

Bir shaxs ayni bir orden, medal bilan qoida tariqasida bir marta taqdirlanadi. Orden, medallar bilan taqdirlash shaxsning vafotidan keyin ham amalga oshirilishi mumkin. Fuqarolar navbatdagi mukofotga avval mukofot bilan taqdirlangan vaqtidan keyin kamida 3 yil o'tgach taqdim etiladilar. Favqulodda hollarda avval taqdirlangan vaqtidan qat'i nazar, taqdim etilishlari mumkin. Har bir orden va medal O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan o'z nizom va tavsifiga ega. Orden va medallar, orden va medallarga oid tegishli hujjat tantanali vaziyatda topshiriladi. Orden va medal bilan mukofotlangan shaxslar bir yo'la to'lanadigan pul mukofoti oladilar va qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan imtiyozlardan foydalanadilar. Orden, medal bilan vafotidan keyin mukofotlangan taqdirda, orden, medal, mukofotlash to'g'risidagi hujjat va bir yo'la to'lanadigan pul mukofoti mukofotlanganning oilasiga topshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining orden va medallari, mukofotlari, odatda, umumdavlat bayramlari hamda boshqa bayramlar va tantanali majlislar vaqtida taqib yuriladi. Boshqa hollarda esa nishondorlar yo orden, medallarini yoxud ularning plankalardagi lentalarini taqib yurishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasining orden va medallarini, plankalardagi orden lentolari, medal lentalarini taqib yurish qoidalari hamda orden va medallar lentalarining tavsifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 6-apreldagi 1095-sonli Farmoniga ilovada bayon qilingan.

O'zbekiston Respublikasining orden va medallaridan shaxs og'ir jinoyat sodir etgani uchun hukm qilinganida – sudning taqdimnomasiga binoan; shaxs o'z sha'nini badnom etuvchi xatti-harakatlar sodir etganida – taqdirlash to'g'risida taqdimnoma kiritish huquqiga ega bo'lgan

organing taqdimnomasiga binoan mahrum etiladi.

O'zbekiston Respublikasining oliy mukofoti:

1. O'zbekiston Respublikasi Qahramoni – 1994-yil 5-mayda ta'sis etilgan.

O'zbekiston Respublikasi ordenlari:

1. Mustaqillik ordeni – 1994-yil 5-mayda ta'sis etilgan.
2. Amir Temur ordeni – 1996-yil 25-aprelda ta'sis etilgan.
3. Jaloliddin Manguberdi ordeni – 2000-yil 30-avgustda ta'sis etilgan.
4. Buyuk xizmatlari uchun ordeni – 1996-yil 29-avgustda ta'sis etilgan.
5. El-yurt hurmati ordeni – 1998-yil 28-avgustda ta'sis etilgan.
6. Fidokorona xizmatlari uchun ordeni – 2003-yil 29-avgustda ta'sis etilgan.
7. Mehnat shuhrati ordeni – 1995-yil 30-avgustda ta'sis etilgan.
8. Sog'lom avlod uchun ordeni – 1993-yil 4-martda ta'sis etilgan.
9. Shon-sharaf ordeni – 1993-yil 30-avgustda ta'sis etilgan.
10. Do'stlik ordeni – 1994-yil 5-mayda ta'sis etilgan.
11. Mardlik ordeni – 2012-yil 1-sentabrda ta'sis etilgan.
12. Salomatlik ordeni – 2020-yil 26-mayda ta'sis etilgan.
13. Faxriy murabbiy ordeni – 2020-yil 10-iyunda ta'sis etilgan.

O'zbekiston Respublikasi medallari:

1. Jasorat medali – 1995-yil 5-mayda ta'sis etilgan.
2. Sodiq xizmatlari uchun medali – 2007-yil 6-iyulda ta'sis etilgan.
3. Kelajak bunyodkori medali – 2017-yil 28-dekabrda ta'sis etilgan.
4. Shuhrat medali – 1994-yil 5-mayda ta'sis etilgan.
5. Sog'lom turmush medali – 2020-yil 26-mayda ta'sis etilgan.

O'ZBEKISTON QAHRAMONI – faxriy unvon, O'zbekiston Respublikasi oldida qahramonlik namoyon etish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlari uchun beriladigan eng oliy mukofot.

1994-yil 5-may kuni O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan ta'sis etilgan. Mazkur unvon berilishi bilan birga "Oltin yulduz" medali ham topshiriladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI OLIIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI – oliy harbiy ta'lim rejalarini amalga oshiruvchi davlat ta'lim muassasalaridir. Hozirgi davrda professional harbiy kadrlarni tayyorlash:

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi;
- Chirchiq oliy tank qo'mondon-muhandislik bilim yurti;
- Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti;

– Toshkent tibbiyot akademiyasi qoshidagi harbiy-tibbiy fakultetida amalga oshiriladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI – 1995-yilda tashkil topgan. 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti asosida yangidan tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi davlat ta'lim muassasasi bo'lib, unda 4 yillik o'qish rejasi bo'yicha harbiy mutaxassislar "bakalavr" akademik darajasida taktik bo'g'in boshqaruvi ofitserlari; 2 yillik o'qish rejasi asosida belgilangan harbiy mutaxassislik va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha "magistr" akademik darajasiga ega operativ-taktik bo'g'in boshqaruvi ofitserlari; oliy ta'limdan keyingi tayyorgarlik rejasi asosida harbiy ta'lim doirasida muhim yo'nalishlar bo'yicha dissertatsiya tadqiqotlarini olib boruvchi oliy malakali harbiy ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlanadi. Shuningdek, mazkur ta'lim muassasasida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri tomonidan belgilangan o'qitish muddatlarida taktik bo'g'indagi ofitserlar, operativ-taktik bo'g'inlaridagi ofitser va generallar qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida tahsil oladilar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA ALOQA HARBIY INSTITUTI – davlat oliy harbiy ta'lim muassasasi bo'lib, unda 2 yillik o'qish rejasi asosida taktik bo'g'in boshqaruvidagi aloqa va informatsion-kommunikatsiyalar texnologiyalari bo'yicha ofitser kadrlarni tayyorlaydi. Ushbu institut 2019-yilda Toshkent informatsion texnologiyalari universiteti qoshidagi Maxsus aloqa fakulteti negizida tashkil topgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGINING KICHIK MUTAXASSISLAR TAYYORLASH MARKAZI – Chirchiq, Samarqand, Qarshi, Urganch, Namangan shaharlarida joylashgan Mudofaa vazirligi tizimidagi serjantlar tayyorlash maktablari o'z faoliyatini to'xtatdi. 2001-yilda tashkil etilgan hamda 3 va 9 oylik o'quv kurslaridan iborat bo'lgan serjantlar tayyorlash maktablari faoliyati 26 yo'nalish bo'yicha kichik komandirlarni tayyorlash va malakasini oshirishga yo'naltirilgan edi.

Serjantlar tarkibi endi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan Samarqand oliy harbiy avtomobil

qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti o'mida tashkil etilgan Samarqand shahridagi kichik mutaxassislarni tayyorlash markazida tayyorlanadi.

Prezidentimizning 2017-yil 12-dekabrda qabul qilingan farmoniga muvofiq tashkil etilgan markaz Mudofaa vazirligi qo'shinlari tarkibiga kiruvchi maxsus o'quv markazi bo'lib, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'shinlarining kichik qo'mondonlik tarkibini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga mo'ljallangan.

Mazkur ta'lim muassasasida 6 oy davomida 11 yo'nalish, ya'ni: muhandislik, avtomobil xizmati, radiatsion, kimyoviy va biologik himoya, aloqa, front orti ta'minoti, zirhli texnikalarga xizmat ko'rsatish, artilleriya va quruqlikdagi qo'shinlarning havo hujumidan mudofaa bo'linmalari, radioelektron razvedka kabi yo'nalishlar bo'yicha kichik mutaxassislarni tayyorlanadi. Ta'lim yakunida harbiy xizmatchilarga kichik serjant unvoni beriladi.

Markazning 3 oylik qayta tayyorlov o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan harbiy xizmatchilarga esa serjant va katta serjant unvonlari beriladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGINING TERRORIZMGA QARSHI KURASH SOHASIDAGI VAKOLATLARI – O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'i xavfsizligini, mamlakat ma'muriy, sanoat-iqtisodiy markazlari va hududlari, muhim harbiy va boshqa obyektlarning havodan beriladigan zarbadan himoya qilinishi va qo'riqlanishini ta'minlaydi;

- o'z tasarrufidagi harbiy obyektlarning qo'riqlanishi va mudofaa qilinishini amalga oshiradi;

- terrorchilikka qarshi operatsiyalarda ishtirok etadi;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI HARBIY OLIMLAR ASSOTSIATSIYASI – jamoatchilik asosida tuzilib, harbiy sohada ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni birlashtirgan ilmiy tashkilot hisoblanadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MUDOFAA DOKTRINASI – 2018-yil 9-yanvardagi 458-sonli Qonun bilan tasdiqlangan. U harbiy sohada O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligini ta'minlashga doir prinsiplar va yondashuvlarni belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Doktrinaning mudofaa xususiyatiga egaligini tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasi hech bir davlatni o'zining dushmani

deb hisoblamaydi va barcha mamlakatlar bilan munosabatlarni mamlakat milliy manfaatlarining ustuvorligi asosida hamda xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalarini inobatga olgan holda o'zaro naf ko'rish, teng huquqlilik hamda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, barcha nizoli masalalarni tinch vositalar va muzokaralar yo'li bilan hal qilish, davlatlararo shakllangan chegaralarning buzilmasligi va o'zgarmasligini tan olish asosida quradi. Doktrina:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Milliy xavfsizlik konsepsiyasi va boshqa qonun hujjatlariga asoslanadi, xalqaro huquqning, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining prinsiplari va normalariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ishtirokchisi bo'lgan xalqaro shartnomalarga tayanadi;

- mamlakatning milliy manfaatlaridan, jahondagi va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatdan, harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo'lgan tahdidlar darajasidan, zamonaviy harbiy nizolarning xususiyatidan kelib chiqadi;

- tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasining va mamlakat mudofaasini rejalashtirishga doir boshqa hujjatlarning asosiy qoidalarini inobatga oladi;

- harbiy nizolarning oldini olish, hayotiy muhim milliy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha davlat, jamiyat va fuqarolar faoliyatini tashkil etish yo'nalishlari va usullarini ochib beradi;

- davlatning kelajakda mudofaa sohasidagi siyosati ustuvorliklarini, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini tayyorlash, qurish va qo'llashning asosiy prinsiplari va yo'nalishlarini belgilaydi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI AKADEMIYASI YOSH OLIMLAR KENGASHI – doimiy ravishda o'z ishini amalga oshiruvchi kollegiallik tashkilot. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2018-yil 14-fevraldagi 75-sonli "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta'lim muassasalarida "Yosh olimlar kengashi"ni tuzish to'g'risidagi buyrug'i talablarini bajarish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi huzurida "Yosh olimlar kengashi" tuzilib, uning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi boshlig'ining 2018-yil 21-martdagi 51-sonli buyrug'i asosida tashkil qilingan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI AKADEMIYASINING ILMIY VZVODI – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2018-yil 21-noyabrdagi 672-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasining Ilmiy vzvodini tashkil

etish bo'yicha tashkiliy tadbirlar haqida" buyrug'iga asosan tashkil etilgan.

Ilmiy vzvodni tashkil etishdan maqsad – harbiy-ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirish, ilmiy salohiyatni iste'dodli yoshlarni jalb qilib mustahkamlash, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va hayotga jalb qilish, istiqboldagi tajriba-konstruktorlik ishlariga asos solish, hamda iqtidorli yosh muhandis-texnolog kadrlarni O'zbekiston Respublikasi mudofaa sanoat komplekslariga tayyorlash.

O'ZIYURAR ZENIT QURILMA – zenit artilleriya qurilmasi. O't ochishni boshqarish jihozlari va umumiy yo'naltirish mexanizmlariga ega, bir yoki bir necha to'plar bilan qurollangan – artilleriyaqa mansub jangovar mashina. Asosan, kichik balandliklarda, tovush tezligiga qadar va undan ham yuqori tezlikda parvoz etayotgan havodagi nishonlarni daf etish, shu jumladan, quruqlikdagi nishonlarni yo'q qilish uchun mo'ljallangan. Zenit to'plari Birinchi Jahon urushi yillarida zirhli avtomobillarga o'rnatila boshlandi, biroq keng tarqalmay qolib ketdi. Ikkinchi Jahon urushi yillarida, asosan, shatakka olinuvchi zenit artilleriya qo'llanilgan. O'ziyurar zenit qurilmalari XX asrning 50-yillardan e'tiboran rivojlana boshladi. Mazkur qurilmalarning zamonaviy namunalari – avtonom zenit artilleriya komplekslari bo'lib, barcha elementlari yagona zirhli-zanjirli negizga mujassamlashtirilgan. Yuqori manyovrchanlik va murakkab yo'llarni bosib o'ta olish sifatlariga ega bo'lish bilan bir qatorda 20 km naridagi havo nishonlarini fosh eta olish, o'z to'plarini avtomatik tarzda yo'naltirish va ob-havoning har qanday sharoitida, yilning har qanday faslida, kunduz kuni va tungi soatlarda, ya'ni tevarak-atrof ko'rinishi cheklangan sharoitlarda, joyda turib va harakat davomida 4 km gacha balandlikda parvoz etayotgan nishonlarga qarata samarali o't ocha olishi mumkin.

O'ZIYURAR QUROL – o'ziyurar shassiga o'rnatilgan zambarak, minomyot, tisarilmaydigan to'p kabi artilleriya quroli. Dushman artilleriya, tanklari va jonli kuchini yo'q qilish, boshqaruv punktlari, radioelektron vositalari va mudofaa istehkomlarini vayron qilishga mo'ljallangan.

O'ziyurar qurol artilleriya qo'shinlariga mansub harbiy qismlarning qurol-aslahalari tarkibiga kiritilgan.

O'Z-O'ZIGA BAHO BERISH – individ o'zining shaxsi, faoliyati, yurish-turishining yaxlit yoki alohida tomonlariga baho berishidir. O'z-o'ziga baho berish ta'limning o'zgarmas tuzilmasi, o'zining "Men"i, o'zini anglashi va o'zini baholash jarayonida ko'rinadi. O'z-o'ziga baho

berishning asosini ular tomonidan qabul qilingan qadriyat tizimida individning shaxsiy ma'no tizimi tashkil etadi. O'z-o'ziga baho berish shaxsiy muvaffaqiyatlarni yoki shusiz qabul qilishda, ma'lum darajadagi maqsadga yetishda asosni tashkil qiladi. O'z-o'ziga baho berishning himoya vazifasi muqimlilik va shaxsning avtonomligini ta'minlaydi. Malakaning yomonlashuviga va bu bilan rivojlanishga salbiy ta'sir qilishga olib kelishi mumkin. O'z-o'ziga baho berish quyidagicha tavsiflanadi:

- darajasi bilan yuqori, o'rta va past o'z-o'ziga baho berish;
- real yutuqlarga aloqasini olganda – ko'tarilgan va pasaytirilgan o'z-o'ziga baho berish;
- tuzilishining ahamiyatiga nisbatan – ziddiyatli va ziddiyatsiz o'z-o'ziga baho berish.

O'Z-O'ZINI ISHONTIRISH – subyektning o'zini-o'zi tarbiyalash tartibga keltirish, shaxsni tashkil etishga qaratilgan ishontirish jarayoni bo'lib, o'zida ongli ravishda organizmdagi ruhiy va fiziologik jarayonlarga ikkinchi signal ta'siridadir. Erkin holda o'z-o'zini ishontirishga so'z orqali o'ziga ko'rsatma berish yoki ma'lum vaziyatlarni xayolda jonlantirish, jismoniy va ruhiy holatni o'zgartirishni talab qiladigan bir xil bog'liqliklar orqali yetiladi. Erkin holda o'z-o'zini ishontirish subyektning shaxsiy g'oyalari, baholariga tanqidsiz yondashish, to'g'ri va ishonchligiga shubha qilmaslik, ongning boshqarish vazifasini kamaytirish bilan xarakterlanadi.

O'Z-O'ZINI FAOLLASHTIRISH – insonning o'zini to'laroq namoyon qilishiga va shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishga bo'lgan intilish. Zamonaviy g'arb psixologiyasining ayrim yo'nalishlarida o'z-o'zini faollashtirish (bixeviorizm va freydizmga qarshi holda, shaxsning o'zini tuta bilishi biologik kuch orqali harakatlanadi deb hisoblanadi, bu fikr esa ularning zo'r berib muhitga moslashishini yaratishdan iborat) motivli omildagi asosiy rol sifatida talqin qilinadi. Haqiqiy o'z-o'zini faollashtirish qulay ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarni talab qiladi.

O'Q UZISH – 1) ulotqiruvchi zaryad portlab yonishi mobaynida hosil bo'ladigan gazlar energiyasining ta'siri ostida stvol kanalidagi snaryadning (mina, o'q yoki granataning) ulotqirilishi; 2) otulgan o'q ovozi; 3) qurolning turli rusumlaridan ochilayotgan olovning yuritilishi; 4) o't ochish nazariyasini ishlab chiqaruvchi ilmiy fan; 5) ta'limot fani.

O't ochish:

- jangovar o't ochish;
- o'quv maqsadida o't ochish;

sportga oid o't ochish turlariga bo'linadi.

Har bir qurol rusumidan o't ochishning o'ziga xos xususiyatlari o't ochish nazariyasi, otish qoidalari va qo'llanmalarida aks ettiriladi. "O't ochish" tushunchasi o'z ichiga o't ochishni tayyorlash tadbirlari, otib ko'rish amallari (o'qli qurol, boshqariluvchi zenit raketalari va zenit artilleriyasidan tashqari) va yakson etish uchun nishonga qarata o't ochishni mujassam etadi.

O'T OCHISHDAGI HAMKORLIK – turli o't ochish vositalari yoki bo'linmalarning dushmanga qarata muvofiqlashtirilgan tarzda o't ochishi.

O't ochishdagi hamkorlikning samarali natijalariga nishonlarning o't ochish vositalari orasida taqsimlanib, muhim nishonlarni yo'q qilish vaqti va yuritiladigan olov izchilligi aniqlab olinishi bilan erishiladi.

O'T OCHISH JADVALI – nishonga qarata o't ochish (raketa uchirish) uchun muayyan qurol tizimining har qanday o'q-dorisiga muvofiq, nishongacha mavjud masofa va shu kabi boshqa sharoitga bog'liq tarzda qurol rusumidagi nishonga olish moslamasining o'ratmalarini belgilash uchun zarur bo'lgan, hisoblab chiqarilgan ma'lumotlar to'plami.

O'T OCHISH MAYDONI – muayyan joyning maxsus jihozlangan, o'qli qurol va granatomyotlardan o't ochishga mo'ljallangan qismi.

O't ochish maydonida otish tayyorgarligi bo'yicha:

- o'quv maqsadida yakka o't ochish;
- bo'linmalar tarkibidagi jangovar guruhli o't ochish;
- sportga oid o't ochish;
- jangovar qo'l granatalarini uloqtirish kabi mashq va mashg'ulotlar o'tkaziladi.

O't ochish maydoni:

- qo'shinlarning o't ochish maydoni;
- sportchilar o't ochish maydoni turlariga bo'ladi.

O'T OCHISH POZITSIYASI – o't ochish vositalari, ya'ni pulemyot, to'p, tank kabilar tomonidan o't ochish uchun egallangan yoki egallashga tayyorlab qo'yilgan maydon.

O't ochish maydoni:

- asosiy;
- vaqtinchalik;
- soxta;
- yopiq;
- ochiq turlarga bo'linadi.

O'T OCHISH CHEGARASI – joy, suv havzasi va havo bo'shlig'idagi kesib o'tilishi bilan turli rusumlarga mansub quroldan o't ochish amali boshlanadigan yoki yakunlanadigan chiziqli.

O't ochish marrasi poligonlarda, odatda, bayroq, yorishib turadigan ko'rsatkich, ustun kabilar bilan belgilanadi.

O'T OCHISH MARRASI – to'g'ridan to'g'ri yo'naltirilgan olov bilan dushman tanklari va piyodalar atakasini bartaraf etish maqsadida bo'linma va qismlar yoyilishi uchun mo'ljallangan hudud qismi.

Dushman atakasining ehtimoliy yo'nalishlarida, bo'linmalarning tez, pinhona ilgarihlashlari va jangovar tartibga yoyilishlariga imkon beruvchi joylar tanlanadi.

O't ochish marrasi umumqo'shin qo'shilma komandirining komandasiga ko'ra egallanadi.

O'T OCHISHNI BOSHQARISH – bo'ysunuvchi bo'linma va qismlar olovini o'z vaqtida va samarali qo'llash hamda o't ochish bilan bog'liq vazifani bajarish maqsadida komandir va shtab tomonidan amalga oshiriladigan tadbir va harakatlar. O't ochishni boshqarish xususidagi harakatlar mazmunan:

- nishonlar xususiyati va koordinatalarini aniqlash;
- bajarilayotgan o't ochish amallariga tuzatishlar kiritish;
- yuritilayotgan olovning shikast yetkazish kuchi ta'sirining natijalarini nazorat qilib borish;

– olov bilan manyovr qilish kabi amallardan iborat. Har bir qo'shin turidagi o't ochishni boshqarish tadbirlari qo'shinda mavjud qurol va ushbu qurolni qo'llash usuliga muvofiq o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O'T OCHISH NUQTASI – tayanch punktlari sarhadlari yoki ushbu punktlar oralig'idagi o't ochish marrasida joylashgan o't ochish vositalari, ya'ni pulemyot, to'p, minomyot kabilarning shartli nomlanishi. Panada, okop, zirhli qalpoq ostida yoki ochiq joyda joylashadi.

O'T OCHISH SUR'ATI – 1) berilgan komandaga muvofiq artilleriya olovi, batareyalar tomonidan qatorasiga uzilgan o'q yoki zalplar orasidagi vaqt oralig'i; 2) avtomatik qurol olovining texnik jihatdan tezligi, muayyan qurol namunasidan uzluksiz o't ochish mobaynida, ma'lum vaqtda otib chiqariladigan o'q-dorining eng katta miqdori.

O'T OCHISH VAZIFASI – dushmanni yo'q qilish borasida o't ochish yoki raketa uchirish bilan hal etiladigan vazifa. O't ochish topshirig'i qo'yilayotganida:

- nishon;

– nishonni yo‘q qilish, yanchib tashlash uchun ochiladigan olovga oid vazifa;

– o‘t ochish yoki bas qilish vaqti;

– jalb etiladigan vositalar va bo‘linmalar soni;

– qo‘llaniladigan o‘q-dorilar rusumi va sarfi;

– o‘t ochish tartibi, bir tekis, navbatlar bilan va hokazo;

– nishonni o‘qqa tutish usuli ko‘rsatib o‘tiladi.

O‘T OCHISH CHIZIG‘I – sarhadida dushmani mudofaadagi bo‘linma, seksiya, guruh, vzvod olovi bilan yakson etish ko‘zda tutilayotgan joy chegaralari. O‘t ochish chizig‘i tegishli komandir tomonidan bo‘linmaning o‘t ochish tizimi tashkil etilayotgan vaqtda tayinlanadi. O‘t ochish chizig‘ida kuzatuv yuritish amali tashkil etiladi va barcha o‘t ochish vositalariga aniq vazifalar belgilab beriladi.

O‘Q – qurolga mo‘ljallangan jangovar patronning bosh qismi. Oddiy va maxsus turlarga bo‘linadi.

Oddiy o‘qlar ochiq joyda yoki yengil to‘siq ortida, shuningdek, zirhlangan texnika ichida joylashib olgan jonli kuchni yo‘q qilish uchun qo‘llaniladi.

Maxsus o‘qlar yorishadigan iz qoldirib uchish, zirhni teshib o‘tish, nishonni yondirish kabi vazifalar uchun mo‘ljallangan.

O‘QDON – muayyan rusumga mansub patronlarni joylashtirish va qurol patrondoniga yuborishdan avval, patronlarni uzatish chizig‘iga ketma-ket siljitish uchun mo‘ljallangan moslama, hajm. O‘qdonlar:

– *qurol bilan birikish joyiga ko‘ra* – stvol osti, qurol o‘rtasi va qo‘ndog‘idagi;

– *shakliga ko‘ra* – qutisimon, disksimon, barabansimon;

– *qurol bilan birikib turishiga ko‘ra* – almashuvchi, almashmaydigan, majmuiy);

– *patronlarning joylashishiga ko‘ra* – bir qatorli va ko‘p qatorli turlarga bo‘linadi.

O‘qdonlar avtomatik va avtomatlashtirilmagan o‘qotar qurol hamda kichik kalibrli zenit avtomatik to‘plarda keng qo‘llaniladi.

O‘Q-DORI VA ASLAHA TA‘MINOTI PUNKTI – o‘q-dori va aslaha zaxirasini saqlab turish va bo‘linmalarni ta‘minlash uchun mo‘ljallangan, jangovar harakatlar davrida batalyonda yoki vzvodda tashkil etiladigan punkt. Mazkur punkt tarkibi, tashkil etish vaqti, joyi va ko‘chib o‘tish tartibi batalyon yoki vzvod komandiri tomonidan belgilanadi.

O'q-dori va aslaha ta'minoti punkti, umumqo'shin poligoni va o't ochish maydonida, jangovar hamda o'quv-jangovar o't ochish mashqi o'tkazilganda ham tashkil etiladi.

O'Q-DORILAR – qurol-aslahaning tarkibiy qismi bo'lib, jonli kuch va texnikani yo'q qilish, inshootlarni vayron etish va maxsus vazifalarni bajarish mobaynida qo'llash uchun mo'ljallangan.

O'q-dorilar turkumiga quyidagilar mansub: artilleriya snaryadlari, reaktiv snaryadlar, raketalar va torpedalarning jangovar qismlari, aviatsiya va chuqurlik bombalari, o'qotar qurollarning patronlari, qo'l va qurol granatalari, yerusti va dengiz minalari, fugaslar, yadroviy va boshqa o'q-dorilar. Ular oddiy, yadroviy, kimyoviy va bakteriologik turlarga bo'linadi.

O'Q-DORINING TA'SIRCHANLIGI – o'q-dori jangovar jihatdan qo'llanilganidan so'ng hosil bo'ladigan natija samarasi.

O'q-dorining yondiruvchi, kumulyativ, parchalar va zarba bilan quyidagicha namoyon bo'luvchi ta'sirchanligi mavjud:

– *yondiruvchi* ta'sirchanlikda nishonning yonib ketishi kuzatiladi;

– *kumulyativ* ta'sirchanlikda nishon, portlagan zaryad va nishonni himoyalovchi qobiq mahsulotlarining jam bo'lib, yo'nalgan oqimi bilan yo'q qilinadi;

– *parchalar bilan ta'sir o'tkazilganida* nishon, harakatdagi snaryadning, o'q va parchaning kinetik energiyasi hisobiga yo'q qilinadi.

– Sanab o'tilgan ta'sirlar zirh va beton yorar o'q-dorilar uchun – asosiy, fugasli va parchalanuvchi-fugasli o'q-dorilar uchun esa – ko'makchi ta'sirchanlik sanaladi;

– *fugasli* ta'sirchanlikda – nishon, portlagan portlovchi zaryad mahsulotlari va hosil bo'ladigan zarbali to'lqin bilan daf etiladi. O'q-dorining ushbu xususiyati portlash natijasida hosil bo'ladigan xandaq hajmi, ya'ni 1 kg portlovchi moddaga o'rtacha 1 m³ o'yilib uloqtiriladigan tuproq hamda zarbali to'lqinning front bo'ylab siqilgan bosimi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari o'q-dorining yorituvchi, signallovchi, radioxalaqitlar hosil qiluvchi maxsus ta'sirchanliklari mavjud.

O'Q YOG'DIRISH QUVVATI – norasmiy atama bo'lib, uning ostida qurol-yarog' namunalari va harbiy bo'linmalarning dushmanni o'qqa tuta olish imkoniyati tushuniladi.

Muayyan qurolning o'q yog'dirish quvvati ushbu qurol olovining uzoqligi va aniqligi, jangovar tez otish darajasi, o'q-dorisining qudrati kabilar bilan belgilanadi.

Harbiy qism, qo'shilma va birlashmaning o'q yog'dirish quvvati ko'rsatkichlari sifatida esa – mavjud qurollarning jangovar imkoniyatlari va barcha qurollar uchun mavjud zalpning miqdori xizmat qiladi.

O'Q OTISH QUROLI – o'q va jarohat yetkazuvchi boshqa elementlar bilan o't ochish uchun mo'ljallangan stvolli qurol.

Dunyoda mavjud qurolning barcha turlari ichida eng ko'p tarqalgan o'qli qurol – ommaviy qurol sanaladi. O'qli qurol kichik – 6,5 mm gacha, me'yoriy – 6,5-9 mm va yirik – 9 mm dan 14,5 mm gacha kalibrli turlarga bo'linadi.

O'qli qurol:

– *vazifasiga ko'ra* – jangovar, mashq qiluvchi, o'quv, sport va ov qurollariga;

– *boshqarilish va qo'lda tutib turish usuliga ko'ra* – revolver, pistolet, pistolet-pulemyot, avtomat, miltiq, mergan miltig'i, karabin, pulemyot, qo'l pulemyoti, tirgakka o'rnatiladigan pulemyot kabi rusumlarga;

– *jarohat yetkazuvchi elementni uloqtirish uchun foydalaniladigan energiya manbayiga ko'ra* – olovli, pnevmatik, mexanik va elektrli turlarga;

– *qo'llanilish usuliga ko'ra* – dastaki, o't ochish mobaynida o'qchi tomonidan bevosita tutib turiluvchi, maxsus tirgakka yoki dastgohga o'rnatiladigan tirgakli ko'rinishlarga;

– *jangda qo'llanilishiga muvofiq* – shaxsiy va guruh qurol turlariga;

– *avtomatlashtirilganlik darajasiga ko'ra* – avtomatlashtirilmagan, ya'ni barcha amallar o'qchi tomonidan dastaki bajariladi, o'z-o'zini o'qlovchi va avtomatik, ya'ni qayta o'qlash amallari porox gazlari energiyasidan foydalanish evaziga avtomatlashtirilgan turlarga;

– *o't ochish xususiyatiga ko'ra* – yakka tarzda, qisqa navbatlar berib va majmuyi o't ochuvchi turlarga;

– *stvolining soniga ko'ra* – bir stvolli, ikki stvolli va ko'p stvolli;

– *stvol kanalining tuzilishiga ko'ra* – kesma va silliq stvolli ko'rinishlarga bo'linadi.

O'qli qurolning asosiy sifatleri: olovning unumdorligi, harakatining ishonchligi, manyovrchanligi, samaradorligi va foydalanishda osonligidir.

O'QNING SHIKAST YETKAZISH KUCHI – o'qning jonli organizmga ta'sir ko'rsatib, inson o'limiga olib keluvchi yoki jangovar qobiliyatini vaqtincha yo'qotishiga sabab bo'luvchi kuchi. Ushbu kuch o'qning vazni, shakli va tezligiga bog'liqdir.

O'QOTAR QUROL – shikast yetkazish elementini, ya'ni o'q, snaryad yoki minani stvol kanalidan uloqtirish uchun yonuvchi aralashma, porox yonishi mobaynida hosil bo'ladigan gazlar bosimining kuchi va ajrab chiquvchi energiyadan foydalaniladigan qurol.

O'qotar qurol uloqtiruvchi vositalar va uloqtiriladigan shikast yetkazish vositalarini o'zida mujassam etib, to'rt sinfga, xususan:

- o'qli qurol;
- artilleriya-minomyot quroli;
- reaktiv qurol;
- granatomyot quroliga bo'linadi.

O'qotar qurol, shuningdek, joylashtirilish turi, ya'ni yerda joylashtiriladigan, kemaga o'rnatiladigan, aviatsiyada qo'llaniladigan va shikast yetkaziladigan nishonlar turiga ko'ra, xususan:

- piyodalarga qarshi;
- zenit quroli;
- tankka qarshi va shu kabi qurol turlariga tasniflanadi.

Artilleriya-minomyot quroli uzoq masofalardagi turli nishonlarni yakson etish uchun mo'ljallangan bo'lib, quruqlikdagi qo'shinlar, aviatsiya va flot qurol-aslahasi tarkibiga kiradi. Artilleriya quroli jumlasiga:

- o'ziyurar va o'zi harakatlanuvchi kesmali to'plar;
- kesmali va silliq stvolli artilleriya qurollari;
- kesmali va silliq stvolli minomyotlar;
- zenit to'pi;
- kesmali va silliq stvolli tank to'plari;
- baravariga o't ochuvchi reaktiv tizimlar kiradi.

O'qli qurollar – yalpi qurolli kuchlar qurol-aslahasi tarkibida mavjud bo'lib, yaqin masofada yuritilayotgan jang mobaynida ochiq joylashgan nishonlarga o'q va jarohat yetkazuvchi boshqa elementlar bilan shikast yetkazish uchun mo'ljallangan qurollar.

O'QOTAR QUROL TEPISHI – pistolet, miltiq, avtomat, pulemyot, artilleriya quroli kabi o'qotar qurol stvolining tubiga o't ochilgan fursatda hosil bo'lgan porox gazlari bosimi kuchining o'tkazadigan ta'siri. O'qotar qurol tepishi qurol rsumiga ko'ra quyidagicha ro'y beradi:

– yaxlit qurol yoki qurol qismlarining o't ochilgan yo'nalishga qarshi tomon g'ildirashi yoki tisarilishi;

- qurol sapchishi;
- o't ochgan shaxs yelkasi yoki qo'liga turtki berishi.

Tepish oqibatlarini, ya'ni qurolning g'ildirab ketishi, raschyotning

toliqishi, qurolni yo'naltiruvchi o'rnatmalarning o'zgarib ketishi, o'qlarning nishonga g'uj tushmasligi va otish tezligining pasayishi kabi oqibatlarni turli vositalar: g'ildiratmaydigan pona, tepki so'ndirgich, amortizator, tepishga qarshi moslamalar bilan nisbatan kamaytirishga erishiladi. Avtomatik qurolida tepki kuchidan qurolni qayta o'qlash uchun foydalanadi, bu esa, o'z navbatida, o't ochish suratini oshiradi.

O'QUV-JANGOVAR MASHINALAR – harbiy texnikaning, ya'ni tank, transportyor, harbiy avtomobil, o'ziyurar to'p va piyodalar jangovar mashinalarining alohida guruh sifatida ajratilib, mutaxassislar tayyorlash, raschyot va ekipaj harakatidagi hamkorlikni takomillashtirish, bo'linmalar bilan taktik mashqlar o'tkazish uchun kundalik jangovar ta'limotda foydalaniladigan shtatdagi namunalari.

Harbiy-havo kuchlarida o'quv-jangovar mashinalar jumlasiga – jangovar samolyotga o'xshash o'quv-jangovar samolyotlar kiradi. Bunday samolyotlarda yo'riqchi-uchuvchi uchun ikkinchi kabina bo'lib, ushbu kabina samolyot va samolyotdagi qurol-aslahani boshqarish organlari bilan jihozlangan. Uchuvchini ilk parvozga, samolyotni boshqarish va jangovar jihatdan qo'llashga o'rgatish uchun mo'ljallangan.

O'QUV YIG'INI – qurolli kuchlarning jangovar tayyorgarlik tizimidagi tadbir bo'lib, qo'shinlarda xizmat o'tayotgan va zaxiradagi general, ofitser, serjant va askarlarning nazariy bilim va uslubiy mahoratlarini oshirish maqsadida o'tkaziladi. O'quv yig'inining o'quv-uslubiy, o'quv-mashq (sportchilar uchun), o'quv, komandirlik va nazorat-sinov turlari mavjud.

O'QUV MAYDONI – o'quv markazining bo'linmalar tarkibida taktik va maxsus-taktik mashg'ulotlar o'tkazish uchun mo'ljallangan va tegishlicha jihozlangan qismi.

O'QUV MARKAZI – jangovar tayyorgarlik xususidagi masalalarni amaliy hal etish, bo'linma va qismlarning taktik ta'limotini oshirish uchun mo'ljallangan, o'quv obyektlar bilan birgalikdagi harbiy qism. O'quv markazi tasarrufida o'quv maydoni va shaharchalar, qo'shinning o't ochish maydoni, poligon, tankodrom, avtodrom, ma'muriy xizmat va o'quv binolari, tahsil ko'radigan bo'linma va qismlarni joylashtirish, ularni maishiy ta'minlash binolari, ustaxona, park, omborxona kabi obyektlar mavjud. Bajaradigan vazifasining xususiyatlariga ko'ra o'quv markazlari:

- qurolli kuchlar turiga mansub;
- harbiy okrugga mansub;
- birlashma, qo'shilma va harbiy qismlarga mansub o'quv

markazlariga bo'linadi.

O'quv markaziga mashq qilish uchun kelgan harbiy qismdagi ichki xizmat Qurolli Kuchlar nizomlari va maxsus qo'llanmalar talablariga asosan tashkil etiladi.

O'QUV MODDIY-TEXNIK BAZA – shaxsiy tarkib ta'limoti va tarbiyasi, bo'linma, qism va qo'shilmalarning boshqaruv organlari va front orti ta'minoti organlarining hamkor harakatlarini shakllantirish manfaatlarida foydalaniladigan moddiy va texnik vositalar majmui. Qurolli Kuchlar (qo'shin va kuchlar) turining jangovar tayyorgarligidagi ehtiyojlarga ko'ra yaratiladi va takomillashtiriladi.

O'QUV SNARYADLARI – tashqi yuzasiga jez qobig'i yuritilgan, po'latdan tayyorlangan, tarkibiga portlatuvchi modda kiritilmagan snaryadlar. Artilleriya quroli raschyotini, qurolni o'qlash, o'q-dori keltirish va o'q-dori bilan muomala qilish qoidalarini o'rgatish uchun mo'ljallangan.

O'QUV SHAHARCHASI – o'quv markazining shaxsiy tarkibni jangovar tayyorgarlikning alohida turlari bo'yicha o'qitish uchun maxsus jihozlangan qismi. Muhandislik uskunalarining to'liq yig'indisi, qurol-aslaha va texnika maketlari, moslama va qo'llanmalar bilan jihozlanadi.

O'QUV QUROLI – maxsus tayyorlangan yoki jangovar jihatdan qo'llashga yaroqsiz bo'lgan qurol namunasi bo'lib, tuzilishi va qurol bilan muomala qilish usullarini o'rganish uchun mo'ljallangan. O'quv quroli butun yoki kesma ko'rinishga ega bo'ladi. Jangovar quroldan farqlanib turishi uchun o'quv qurolining asosiy qismi yuzasiga "*Uch.*" (ya'ni o'quv quroli) tamg'asi bosilgan. O'quv qurolining ayrim rusumlaridagi yog'och va plastmassa detallar esa qora tusga bo'yalgan bo'ladi. O'q uzilishining oldini olish maqsadida o'qli o'quv qurolning stvolida, patrondonida ko'ndalang tuynuklar kesib qo'yilgan, zatvorning uruvchisi esa arralangan bo'ladi.

O'QQA TUTISH – artilleriya qurollari olovi (raketa uchirish) bilan nishonga ta'sir etish jarayoni.

O'QQA TUTISH ZONASI – 1) zenit to'pidan ochilayotgan olovning talab etilayotgan aniqligi ta'minlanadigan va snaryad yoki uning elementlari havodagi nishonni urib tushirish imkonini saqlab qoladigan – to'p tevaragidagi bo'shliq; 2) havo nishonining barcha yo'nalishlari uchun nishonga shikast yetkaziluvchi zonalar majmuini ifodalovchi – zenit raketali kompleks tevaragidagi bo'shliq.

O'QQA TUTISH SEKTORI – 1) joyning pulemyot, to'p, tank kabi

qurolga ajratib berilgan qismi bo'lib, dushmani to'g'ridan to'g'ri yo'llangan olov bilan yo'q qilish uchun mo'ljallangan; 2) mudofaa istehkomida o'rnatilgan to'pdan (pulemyotdan) joyning to'g'ridan to'g'ri o'qqa tutiladigan qismi. Bunday holda o't ochish sektorining kattaligi ambrazura o'lchamiga bog'liq. Muayyan o't ochish vositasi uchun asosiy yo'nalishda va qo'shimcha o't ochish sektorlari tayinlanadi.

G'

G'ALABA – jangovar muvaffaqiyat, dushman qo'shinlarining tormor etilishi operatsiya, jang, umuman, urush oldiga qo'yilgan yalpi maqsadga erishish.

G'AVVOSLIK – suv ostida turli ilmiy tadqiqot va amaliy ishlarni bajarish maqsadida odamlar (g'avvoslar)ni maxsus kiyimlarda suv ostiga tushirish bilan bog'liq faoliyat sohasi. Qadimda (ayrim joylarda hozir ham) odamlar suvga hech qanday vositalarsiz, nafasini 1-2 minut ichiga yutib, 20-30 m chuqurlikkacha sho'ng'iganlar. Keyinchalik nafas olish uchun qamish-nay, havo to'ldirilgan mesh, havo yostig'i ishlatiladigan bo'ldi. XVIII asr oxirlarida havo nasosi ixtiro qilinganidan keyin G'. jihozlari qo'llanila boshladi.

G'. texnikasi suv ichida turli ishlarni bajarish uchun mo'ljallangan kiyim-bosh va asbob uskunalaridan iborat. Nafas olinadigan gaz aralashmasi bilan ta'minlash usuliga ko'ra G'. kiyimi ayrim va birlashtirilgan, nafas olish sxemasi bo'yicha ventilyatsiyalanuvchi, gaz aralashmasining tarkibiga ko'ra havoli, kislorodli, azot-kislorodli, gelikislorodli va b.ga bo'linadi. G'. kiyimining havo va suv o'tkazmaydigan qobiq hosil qiluvchi va g'avvosni tashqi muhit ta'siridan saqlovchi qismi skafandr deyiladi. Bu kiyimda g'avvos shlang orqali tepadan beriladigan siqilgan havo bilan nafas oladi, maxsus klapan orqali nafas chiqaradi. 100 m gacha chuqurlikka havo-kislorodli, 100-300 m va undan chuqurga gelikislorodli kiyimda tushiladi. XX asr 30-yillari boshida ayrim kislorodli nafas olish apparati o'rnatilgan G'. kiyimi, 40-yillarda esa havo-ballon apparatli G'. kiyimi – akvalang paydo bo'ldi, 60-yillarda g'avvoslarning suvostida uzoq turishiga imkon beradigan suvosti ushblari ishlab chiqildi. Keyinchalik G'. vositalari ancha takomillashtirildi.

G'avvosni suvga tushirish, uning suv tagida ishlashi va uni yuqoriga chiqarib olish uchun G'. kompressor, havo yuborish qurilmasi, tushirish-

chiqarib olish qurilmasi, signalizatsiya, aloqa va yoritish vositasi, gidrolokatorlar ishlatiladi.

Vazifasiga ko'ra G'. ishlari avariya-qutqarish, kemani ko'tarish, kemani ta'mirlash va suvosti texnikasi kabi ishlarga bo'linadi.

G'OYA – inson tafakkurida vujudga keladigan, jamiyat va olamlarni maqsad sari yetaklaydigan fikr. Unda olamni bilish va amaliy o'zgartirish maqsadlari, ularga erishish yo'llari va vositalari mujassam bo'ladi.

G'UL – 1) o'rta asrlarda turkiy xalqlar va mo'g'ullar qo'shinining markazida va qanot(flank)lar oldida, podshoh, xon huzurida turuvchi maxsus harbiy qism. Arabcha qalb deyilgan. Markazda turuvchi G'. ulug' G'. , qanotlardagisi esa kichik G'. deb atalgan. Harbiy yurish vaqtida qorovul oldiga ham G'. qo'yilgan. Katta (ulug') G'. ga xonning o'zi yoki tajribali amirlaridan biri qo'mondonlik qilgan; 2) bandilarning oyoq va bo'yniga kiygizib qo'yiladigan jazolash asbobi; kishan.

Sh

SHARTLI BELGILAR – joylardagi obyektlar, jangovar va meteorologik vaziyatni grafik hujjat, topografik va geografik xaritalarda tavsifiy, ramziy va shtrixli tasvirlanishida qo'llaniladigan belgilar. Shartli belgilar: topografik belgilar, taktik belgilar va meteorologik belgilarga bo'linadi.

Topografik shartli belgilar joylardagi obyektlarning shakli, o'lchami, joylashgan joyi, bir-biriga bog'liqligini hamda ayrim sifat va miqdoriy xususiyatlarini ko'rsatadi.

Taktik shartli belgilar xarita va grafik hujjatlarda qo'shinlar, boshqaruv punktlari, front ortidagi bo'linma, qism va muassasalarni, fortifikatsiyali inshoot va to'siqlar holatini, qo'shinlar harakatining xususiyati va vaziyatning boshqa elementlarini tasvirlash uchun qo'llaniladi.

Meteorologik shartli belgilar atmosferaning tabiiy holati va unda kechayotgan jarayonni tavsiflovchi meteorologik elementlarni belgilash uchun xizmat qiladi.

SHARTLI NOM – aloqaning texnik vositalari orqali chaqirish mobaynida haqiqiy nomni dushmanidan sir tutish maqsadida birlashma, qo'shilma, qism (kema, samolyot) va bo'linmalarning aloqa uzellari va aloqa stansiyalari, shuningdek, komandirlar va mansabdor shaxslarga beriladigan – so'z yoki harf va raqamlar birikmasi ko'rinishidagi nom.

Shartli nomni belgilash, terish va almashtirish tartibi maxsus yo'riqnomalarda belgilanadi.

SHARTLI YASHIRIN JAVOB – shartli yashirin savol bilan birgalikda harbiy xizmatchilar bir-birlarini tanishlari uchun vosita bo'lib xizmat qiladigan maxfiy so'z, odatda, aholi punktining nomi.

Qism shtabi tomonidan har sutkaga o'rnatilib, qo'riqlov va razvedka bo'linmalari komandirlariga og'zaki buyruqlarni yetkazish uchun yuborilayotgan shaxsga va shu kabi o'xshash hollarda ma'lum qilinadi.

Shartli yashirin javob, birinchi bo'lib shartli yashirin savol bergan shaxsdan yoki guruhdan so'raladi.

Shartli yashirin javobni bilmagan shaxs qo'lga olinadi.

SHARTLI YASHIRIN SAVOL – harbiy xizmatchilar bir-birlarini tanish uchun vosita sanaladigan, qism shtabi tomonidan har bir sutkaga shartli yashirin javob bilan birgalikda belgilanadigan maxfiy so'z. Shartli yashirin savol sifatida, odatda, qurol-aslaha yoki harbiy anjom nomi xizmat qiladi. Shartli yashirin savol qo'riqlov chizig'i orqali o'tayotgan va tungi vaqtda bo'linma sarhadida yurgan shaxslardan so'raladi.

Shartli yashirin savolni bilmagan shaxs qo'lga olinadi.

SHAXS XAVFSIZLIGI – insonning hayotiy muhim bo'lgan qadriyatlarini himoyalanganligi, ehtiyojlarini qondirish uchun turli ko'rinish va mazmunlarga ega bo'lgan xavf-xatar va tahdidlarning bartaraf etilganligi, o'zini namoyon etishi hamda shaxsiy kamol topishi uchun yetarli bo'lgan shart-sharoitlarning mavjudligi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini jamoa, jamiyat hamda davlat doirasida ta'minlanganligi va himoyalanganlik holati bo'lib, u o'zgaruvchan xarakterga egadir. Shaxs xavfsizligiga rahna soluvchi xavf va tahdidlar tashqi hamda ichki ta'sirlar asosida shakllanadi.

SHAXSIY GUVOHNOMA – ofitser va serjantlar tarkibiga mansub harbiy xizmatchining shaxsi, harbiy unvoni va lavozimini tasdiqlovchi hujjat. Pasport o'rinda ishlatiladi. Unda harbiy xizmatchining unvoni, lavozimi kabi asosiy ma'lumotlar aks ettiriladi.

Muddatli harbiy xizmat askarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat – harbiy guvohnoma sanaladi.

SHAXSIY TARKIB – harbiy xizmatchilarning barcha toifalari hamda harbiy qism, muassasa kabi harbiy tashkilotlarda yollanib ishlayotgan fuqaro shaxslar. Shaxsiy tarkib – davlat qurolli kuchlari jangovar qudratining asosi, harbiy tashkilotining asosiy qismidir.

SHAXSIY TARKIB KO'RIGI – harbiy qism (kema) kun tartibida

ko'zda tutilgan tadbir. Shaxsiy tarkibni ko'rikdan o'tkazishning doimiy shakli – har kuni o'tkaziladigan ertalabki ko'rik bo'lib, harbiy xizmatchilar mavjudligi, tashqi ko'rinishi, harbiy kiyimning belgilangan rusumi kiyilganligi va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya etilayotganligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi. Bundan tashqari, shaxsiy tarkib ko'rigi, mashg'ulot va shahar ta'tiliga chiqishdan oldin va shu kabi boshqa holatda o'tkaziladi.

Shaxsiy tarkib ko'rigini o'tkazish tartibi Ichki xizmat nizomida belgilangan.

SHAXSIY TARKIBNING RUHIY TAYYORGARLIGI – jangchi va harbiy jamoaning jangovar vazifani bajarishi uchun zarur bo'lgan ruhiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimi. Mardlik, jasurlik, o'zini idora etish, qat'iylik, bardoshlilik, tashabbuskorlik, irodalilik kabi xususiyatlarini shakllantirishga omil bo'ladi.

Ruhiy tayyorgarlik davomida jangchi ruhiyatining jo'shqinlik, xotira, ta'sirchanlik, tasavvur etish, sezish, faraz qilish, e'tiborli bo'lish, hissiyot, fikrlash sifatlari, shuningdek, zamonaviy jangda zarur bo'lgan nutq, bilim, ko'nikma va odatlari takomillashadi.

SHAXSIY QUROL – qisqa masofalarda o'zini-o'zi himoya qilish va dushmanga hamla qilish uchun mo'ljallangan shaxsiy qurol. Unga pistolet, revolver, xanjar, qilich kabilar kiradi.

SHAXSIY HIMOYA VOSITALARI – shaxsiy tarkib organizmi, teri qoplamalari va kiyim-kechagiga zaharlovchi va radioaktiv modda hamda biologik vositalar tushishining oldini olish, yadro quroli portlashi natijasida hosil bo'ladigan yorug'lik nurlanishidan jarohatlanish darajasini pasaytirish uchun mo'ljallangan vositalar majmui.

Shaxsiy himoya vositalariga gazniqob, himoyalovchi yopinchiq va paypoqlar, shuningdek, maxsus kiyimlar kiradi.

SHAXSIY HUJJATLARNING YIG'MA JILDI – harbiy xizmatchilar hisobi yuritiladigan asosiy hujjat.

Xizmat varaqasi, tarjimai hol, belgilangan o'lchamli fotosuratlar, attestatsiya komissiyasi tomonidan rasmiylashtirilgan hujjatlar kabi materiallardan iborat.

SHAHODATNOMA – Qurolli Kuchlarda joriy etilgan hujjat shakli bo'lib, mazkur hujjatni taqdim etayotgan da'vogar moddiy yoki moliyaviy vositalar bilan qancha miqdorda va qanday muddatga ta'minlanishi lozimligi ko'rsatiladi. Shahodatnoma qurol-aslaha, kiyim-kechak, pul ta'minoti va shu kabilarga rasmiylashtirilib, harbiy xizmatchi hamda oila

a'zolaridan biriga (unga beriladigan ta'minotning bir qismini olish huquqini beruvchi shahodatnoma) topshiriladi. Shahodatnoma, shuningdek, boshqa birlashma tasarrufiga o'tib ketayotgan harbiy qismga (kemaga) ham beriladi.

SHIFR – 1) qurolli kuchlarda texnik aloqa vositalari orqali jangovar hujjatlarni yuborishda, shuningdek, diplomatik vakillarning o'z hukumatlari bilan olib boradigan maxfiy yozishmalarida qo'llaniladigan shartli belgilar majmui (raqam yoki harflardan iborat shartli alifbo); 2) kutubxona shifrlari – kitoblar saqlanadigan bino tokchalaridagi matbuot nashrlari (kitob va jurnal) o'rning shartli belgisi. Bevosita matbuot nashrlarida va katalog kartochkalarida ko'rsatiladi.

SHIFRNI OCHISH – shifr, maxfiy yozuv yoki ilgari o'qib bo'lmagan yozuvda bitilgan matnni o'qish, ma'nosini tiklash, tushunish.

SHLEM – harbiy xizmatchi boshini zarba, shovqin, past va yuqori haroratdan saqlovchi himoya bosh kiyimi. Uchuvchi, tankchi, suvosti dengizchisi kabi mutaxassislik egalarining maxsus anjomlari tarkibiga kiradi.

SHLEMOFON – mikrofon, ikkita telefonli quloqchin va laringofonlarga ega maxsus shlyom. Kuchli shovqinlar mavjudligida uchuvchi, tankchi, suvosti dengizchisi kabi mutaxassislik egalari ikki tomonlama aloqa bog'lab borishlari uchun qo'llaniladi.

SHOMPOL – o'qli qurol stvolining kanali va boshqa qismlarini tozalash va moylash uchun mo'ljallangan, metall, yog'och yoki qurama ashyolardan tayyorlangan o'zak. Shompol, odatda, stvol ostida (miltiq, avtomatda), tirgak oyog'iga (pulemyotda) yoki qinga (pistolet, revolverda) mahkamlanadi (biriktiriladi).

SHTAB – qo'shinni jangovar vaziyatda boshqaradigan va kundalik faoliyatidagi ta'lim-tarbiya jarayonini idora qiladigan asosiy organ. Shtab:

- umumqo'shin shtabi;
- qurolli kuchlar turi shtabi;
- qo'shin turi shtabi;
- maxsus qo'shin shtabiga bo'linadi.

Batalyon, brigada va undan yuqori pog'onalarda mavjud. Bajaradigan vazifalari:

– qo'shinlar (kuchlar) va boshqaruv organlarining doimiy jangovar va safarbarlik shayligini tutib turish;

– vaziyat to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, o'rganib chiqish va qayta ishlash kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish.

Aksariyat davlatlarning qurolli kuchlarida shtablarning quyidagi tizimi tashkil qilingan:

- shtab boshliqlarining birlashgan qo‘mitasi;
- qurolli kuchlar birlashgan shtabi;
- qurolli kuchlar turi shtabi;
- front orti ta‘minoti shtabi;
- bosh shtab;
- qo‘shin turi va maxsus qo‘shin shtabi;
- birlashma, qo‘shilma, qism va bo‘linma shtablari va h.k.

Harbiy-dengiz flotida:

– kemalar divizioni, brigadasi, diviziyasi, eskadrasi, flotiliyasi shtablari;

- harbiy-dengiz floti turi shtabi;
- harbiy-dengiz floti bosh shtabi mavjud.

SHTAT (ingliz – *davlat*) – qo‘shilma, harbiy qism, muassasa, korxona yoki tashkilot tarkibi, tashkiliy tuzilishi, shaxsiy tarkib soni hamda xizmat ko‘rsatilishi uchun shtat bo‘yicha tayinlanadigan raschyotlar (ekipajlar) talab qilinadigan asosiy qurol-aslaha va texnika miqdori belgilab beriladigan me‘yoriy hujjat.

Ushbu hujjat yuqori pog‘onadagi shtab (organ) tomonidan tasdiqlanadi. Har bir harbiy qism, muassasa yoki korxona o‘z shtatiga ega bo‘lib, unda boshqaruv tuzilishi, lavozimlar nomlanishi, har bir lavozim uchun oylik maosh miqdori belgilanadi.

SHTURVAL – g‘ildirak ko‘rinishidagi boshqarish organi. Samolyotda elektronlar va balandlik rullari bilan boshqarishda, kemada burish rulini boshqarishda, avtomobilda quvurli o‘tkazgichlardagi to‘sma qopqoqlarni boshqarishda va boshqalarda ishlatiladi.

SHTURM (nem. – *shiddatli hujum*) – dushmanning qal‘a, shahar, tayanch punktlari kabi o‘ta mustahkam mudofaa marralariga (inshootlariga) qilingan shiddatli hujum. Dushmanning jonli kuchi va obyektlarini yanchib tashlash maqsadida artilleriya va aviatsiyadan; tayanch punktlari va mudofaa istehkomlarini o‘rab olish, yo‘q qilish uchun hujumkor guruh va otryadlardan foydalaniladi. Qal‘alarni egallashda qadimdan qo‘llanilib kelingan. Ikkinchi Jahon urushi davrida kuchli mustahkamlangan Kyonigsberg (bugungi Kaliningrad), Berlin va boshqa shaharlar ham shturm yo‘li bilan olingan.

SHTURMAN – ixtisoslik bo‘yicha tayyorgarlikdan o‘tgan, kemaning aniq va xavfsiz suzishi yoki boshqariladigan uchish apparatining

boshqariluv va jangovar manyovrini ta'minlaydigan – flot va aviatsiyadagi mansabdor shaxs. Shu bilan birga shturman, navigatsiya asboblarning texnik sozligi, ulardan to'g'ri foydalanishga mas'ul bo'lib, qurolni qo'llash uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni tayyorlab beradi. Harbiy-havo kuchlarida ko'p o'rinni uchish apparatidagi asosiy qurolni shturman boshqaradi.

Ch

CHAQIRUV – harbiy xizmatga chaqiruv, qonun bilan belgilangan, fuqarolarni qurolli kuchlar safida harbiy majburiyatlarini o'tash uchun jalb qilish.

CHAQIRILUVCHILAR – harbiy xizmatga chaqiriladigan va tuman hamda shahar chaqiruv uchastkalarida qayd etilgan shaxslar.

CHAQIRILUVCHILARNI HARBIY XIZMATGA TAYYOR-LASH – chaqiriluvchilar bilan olib boriladigan harbiy xizmatga tayyorgarlik ishlari quyidagilarni qamrab oladi:

- chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik;
- chaqiriluvchilarning harbiy-texnika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorgarligi;
- harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga tayyorgarlik;
- jismoniy tayyorgarlik, davolash-sog'lomlashtirish ishlari;
- umumta'lim tayyorgarligi;
- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy rahbarligi ostida o'tkaziladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimliklari chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash ishlari moliyalashtirilishi hamda moddiy-texnika jihatidan ta'minlanishini amalga oshiradilar, o'quv-moddiy bazasini barpo etadilar, bunday tayyorgarlikning tashkil etilishi uchun javobgar bo'ladilar.

Chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlashning tashkil etilishini, amalga oshirilishini va natijalarini nazorat qilib borish, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni uslubiy jihatdan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, shuningdek, ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK

– chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, shu jumladan, fuqaro muhofazasi bo'yicha tayyorgarlik o'quv dasturidagi majburiy fan bo'lib, umumta'lim maktablarida va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchilari tomonidan bitirish yili arafasidagi kurslardan yoki sinflardan boshlab o'tiladi.

Chaqiruvga qadar tayyorgarlik darajasi past bo'lgan chaqiriluvchilar chaqirilishdan oldin qo'shimcha ravishda bunday tayyorgarlikdan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan tashkil etiladigan mudofaa-sport sog'lomlashtirish lagerlarida o'tishlari mumkin.

CHAQIRILUVCHILARNING HARBIY-TEXNIKA MUTAXASSISLIK LARI BO'YICHA TAYYORGARLIGI – chaqiriluvchilarning harbiy-texnika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorgarligi mudofaa ishlari boshqarmalari huzuridagi chaqiriluvchilarni harbiy-texnika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash markazlarida amalga oshiriladi.

Yo'nalishi bo'yicha harbiy hisobdagi ixtisosliklarga turdosh o'rta maxsus va o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan chaqiriluvchilar harbiy-texnika mutaxassisliklari bo'yicha bevosita shu muassasalarda tayyorgarlikdan o'tadilar.

Mudofaa ishlari boshqarmalari huzuridagi markazlarda harbiy-texnika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorgarlikka o'n yetti yoshga to'lgan, salomatligiga ko'ra harbiy xizmatga yaroqli hamda tayyorgarlik tugaganidan keyin harbiy xizmatga chaqirilishi lozim bo'lgan chaqiriluvchilar jalb etiladi.

Harbiy-texnika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorgarlikdan o'tishga jalb etilgan fuqarolarning mashg'ulotlarda ishtirok etishi majburiydir.

Harbiy-texnika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorgarlikdan o'tishi lozim bo'lgan chaqiriluvchilarning soni, shuningdek, ularning tayyorgarlik dasturlari O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan birgalikda tasdiqlanadi.

Chaqiriluvchilarning mudofaa ishlari boshqarmalari huzuridagi markazlardagi tayyorgarligini moliyalashtirish Mudofaa vazirligi orqali O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari va moliyalashtirishning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

CHEGARA (Qarang: "Davlat chegarasi").

CHEGARA BAZASI – chegara qo‘shinlariga mansub harbiy qism, asosiy jangovar-xizmat va ma‘muriy-xo‘jalik birligi, taktik qo‘shilma.

Chegara bazasi davlat chegarasining muayyan qismini muhofaza etish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, chegara okrugi tarkibiga kiradi. Odatda chegara bazasi – chegara postlariga mujassamlashtirilgan bir necha chegara zastavalari, shu jumladan, jangovar ta‘minot va xizmat ko‘rsatuvchi bo‘linmalardan tashkil topgan. Chegara bazasi o‘z raqamiga ega.

CHEGARA BELGILARI – davlat chegarasi o‘tayotgan chiziqni ishoralash uchun mo‘ljallangan, chegaradosh davlat hududida turib aniq ko‘rinadigan tarzda o‘rnatiladigan belgilar. Chegara belgilari ustun, piramida, tuproq qo‘rg‘on kabi ko‘rinishlarga ega bo‘lib, yakka, juft, guruh holida yoki oraliqlarda o‘rnatiladigan bo‘lishi mumkin. Suv chegarasi suzuvchi qalqovich belgilar, ishora qoziqlari kabilar bilan belgilanadi. Chegara belgilarining o‘lchamlari va o‘rnatiladigan joylari chegaradosh davlatlarning o‘zaro bitimlari bilan belgilanadi.

CHEGARAGA TUTASH HUDUD – mamlakat hududining davlat chegarasiga tutashgan qismi. Sarhadlari bir necha o‘nlab, yuzlab kilometrgacha cho‘zilishi mumkin bo‘lib, tinchlik davrida jangovar shay qismlar joylashadi va muhandislik to‘siqlari bilan jihozlanadi.

CHEGARA DELIMITATSIYASI – shartnomada qayd etilgan va unga ilova qilingan xaritalarda grafik tasviri tushirilgan davlat chegaralari holati va yo‘nalishini muayyan davlatlararo kelishuvga binoan aniqlash.

Chegara delimitatsiyasini kelishuvchi tomonlarning teng huquqli asosda tuzilgan qo‘shma komissiyasi belgilaydi.

CHEGARA DEMARKATSIYASI – chegara delimitatsiyasi haqidagi hujjatlar asosida chegara belgilari o‘rnatish yo‘li bilan joylarda davlat chegarasi chiziqlarini aniqlash.

Chegara demarkatsiyasini kelishuvchi tomonlarning teng huquqli asosda tuzilgan qo‘shma komissiyasi belgilaydi.

CHEGARA ZASTAVASI – davlat chegarasining muayyan qismini muhofaza etayotgan chegara qo‘shinlarining asosiy bo‘linmasi. Odatda, chegarachilarning bir necha guruhlaridan (seksiyalaridan) tashkil topgan. Chegara zastavasi – chegara bazasi va chegara posti kabilar tarkibiga kiradi. Chegara zastavasi zastava boshlig‘i tomonidan boshqariladi.

CHEGARA ZONASI – bir mamlakat hududining davlat chegaralariga tutashib turgan va maxsus rejim o‘rnatilgan muayyan qismi. Chegara zonasi tarkibiga hududiy va ichki suv havzalari, chegaradagi

daryo va ko'llarning tegishli qismi kiritiladi. Chegara zonasida istiqomat qilish, kirib kelish, ko'chib yurish, yerusti, yerosti boyliklari, suv, o'rmon kabi boylik va mulklardan foydalanish, shu jumladan, turli ishlar bajarish tartibi belgilab berilgan.

Chegara zonasining ta'rifi va undagi rejim "O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonun va amaldagi boshqa qonunlarda belgilab qo'yilgan.

CHEGARA NARYADI – davlat chegarasining muayyan qismini muhofaza etish uchun tayinlangan chegarachilar guruhi. Chegara naryadi quyidagi turlarga bo'linadi:

- dozorlar naryadi;
- soqchilik naryadi;
- xufiya naryadlar;
- kuzatuv postlari va h.k.

CHEGARA OKRUGI – aksariyat davlatlar chegara qo'shinlarining harbiy-ma'muriy va operativ birlashmasi. Davlat chegarasining muayyan qismini muhofaza qilish uchun mo'ljallangan. Bir necha chegara bazalari, chegara postlari, alohida qismlar va nazorat-o'tkazish punktlaridan iborat. Dengiz va daryo chegaralari mavjud chegara okrugi tarkibiga qo'riqlovchi kemalar qismlari kiritiladi. Har bir chegara okrugida mintaqaviy shtab, harbiy kengash, tarbiyaviy ishlar boshqarmasi kabi boshqaruv organlari mavjud.

CHEGARACHI – chegara qo'shinlariga mansub harbiy xizmatchi.

O'zbekiston Respublikasida chegarachining huquqiy maqomi, vazifasi, huquqi va majburiyatlari "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonun (1999-y. 20-avgust), "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonun (2002-y. 12-dekabr), O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumqo'shin nizomlari, maxsus yo'riqnoma va qo'llanmalarda belgilab qo'yilgan. Chegarachining jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligi, tarbiyasi va madaniy-maishiy hayoti chegara qo'shinlarining davlat chegaralarini muhofaza etish bo'yicha o'taydigan xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Chegarachilar bugungi kunda zamonaviy qurol-yarog', jangovar texnika, aloqa va signallovchi vositalar bilan ta'minlangan. Biroq chegarachining asosiy quroli – hushyorlikdir.

CHEGARA QO'SHINLARI – davlatning quruqlik, dengiz va daryolardagi (ko'llardagi) chegaralarini muhofaza etish uchun

mo'ljallangan qo'shinlar.

O'zbekiston Respublikasining chegara qo'shinlariga Milliy xavfsizlik xizmati va ushbu xizmat tasarrufidagi Davlat chegaralarini muhofaza etish qo'mitasi (chegara qo'shinlarining bevosita boshqaruv organi) rahbarlik qiladi. Chegara qo'shinlari mintaqaviy shtablar, maxsus qo'shin va o'quv muassasalaridan tashkil topgan. Daryo chegaralarida faoliyat yuritish uchun chegara qo'shinlari tarkibida qo'riqlovchi kemalar bilan ta'minlangan harbiy qismlar mavjud. Chegara qo'shinlarining asosiy vazifalariga:

- O'zbekiston Respublikasi hududiga qurollangan to'dalar va qo'shinlar guruhining tajovuzini bartaraf etish;
- chegara zonasidagi aholi va xususiy mulkni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish;
- chegaraning maxsus belgilanmagan joylaridan noqonuniy usulda kesib o'tishga yo'l qo'ymaslik;
- odamlarni chegaradan maxsus punktlar orqali o'tishini ta'minlash;
- barcha kemalarning hududiy va ichki suvlarda suzish rejimiga rioya etilayotganligini kuzatib borish kiradi.

CHEKINISH – qo'shinning egallab turgan chegaralarini (hududini) majburan yoki atayin tashlab ketish, mudofaa sarhadlarining ichkarisidagi yangi chegaralarga o'tish amallari. Qo'shinni dushmanning son va kuch jihatdan ustun kelayotgan zarbalari ostidan olib chiqish, kelgusidagi jangovar harakatlar uchun samarali holatni egallash, vaqtdan yutish, front chizig'ini qisqartirish va boshqa yo'nalishlar uchun kuch ajratish maqsadida amalga oshiriladi. Chekinish amali faqat katta boshliqning buyrug'iga binoan o'tkaziladi.

CHIRCHIQ OLİY TANK QO'MONDON-MUHANDISLIK BILIM YURTI – davlat ta'lim muassasasi bo'lib, unda 4 yillik o'qish rejasi asosida belgilangan harbiy mutaxassislik va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha "bakalavr" akademik darajasiga ega taktik bo'g'in boshqaruvi ofitser kadrlari tayyorlanadi. Bu oliy harbiy ta'lim muassasasi dastlab Rossiya Federatsiyasining Nijniy Novgorod shahrida 1918-yil 16-noyabrda tashkil topgan bo'lib, 1941-yilning 22-sentabrida Xarkov shahridan Chirchiq shahriga ko'chirilgan.

CHODIR – shaxsiy tarkib, jangovar texnika turi, tibbiyot muassasasi va omborxonalarni dala sharoitida joylashtirish uchun mo'ljallangan yig'ma inshoot. Chodirlar asosan quyidagi turlarga bo'linadi:

- safar chodiri (yozgi va qishki);

- lager chodiri;
- qurama chodir.

Oddiy chodir askar va serjantlar anjomlari tarkibiga kiruvchi bir necha suv o'tmas yopinchiqlardan tiklanadi.

CHUQURLIK BOMBASI – harbiy-dengiz floti o'q-dorilari turlaridan biri bo'lib, suv ostidagi suvosti kemasini, jangovar suzuvchi, langarli va kema tubiga tegib portlaydigan mina kabi obyektlarni yo'q qilish uchun mo'ljallangan. Chuqurlik bombasi aviatsiya va kemalarda qo'llaniladigan turlarga bo'linadi. Samolyotdan yoki kemadan tashlanadi (otiladi). Chuqurlik bombalari oddiy yoki yadroviy zaryadlarga, kontaktli, kontaktsiz yoki belgilangan masofada ishga tushuvchi portlatkichlarga ega bo'lishi mumkin. Ilk bor 1915-yilda qo'llanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2020-yil. Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuni. 2019-yil 5-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinas. 2018-yil 9-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4958-sonli Farmoni/O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son.
5. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi Nizomi. 2019-yil 12-sentyabr, PQ-4447-son. Lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2019-yil 12 martdagi 202-sonli buyrug'i.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. www.press-service.uz
8. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" - 2016.
9. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" - 2017.
10. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" - 2017.
11. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" - 2017.
12. Dolimov Sh. Z. Xalqaro va milliy xavfsizlikka oid harbiy terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: 2014. - 491 b.
13. To'lyaganov A.A. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi yagona harbiy terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent, 2016. – 632 b.
14. Dolimov Sh. Z. Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent, 2007. - 393 b.
15. Подымова Л.С. Специфика инновационной восприимчивости преподавателя вуза // Психолого-педагогический журнал Гаудеамус.

– 2015. № 1 (25). – С. 46-49.

16. Sadriddinov S. Shaxs toifasi va kasb: ijtimoiy-psixologik jabha // Maktab va hayot. 2017, 4-son. – B. 9-11.

17. Samarov R. Axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlash mexanizmi (uslubiy qo'llanma). – Toshkent: "Universitet" - 2015. – 91 b.

18. Samarov R. Mudofaaviy faoliyat: nazariy yondashuvlar (monografiya). – Toshkent: "Turon zamin ziyo" - 2017. – 179 b.

19. Samarov R. Xavfsizlikning metodologik asoslari / Monografiya. – Toshkent: "Akademiya" - 2010. – 256 b.

20. Самаров Р. Ҳарбий-сиёсий жараёнларни тадқиқ этиш методологияси: концептуал ёндашув // O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi xabarlari № 1(33), Noyabr, 2020 yil. – Toshkent: O'R QK Akademiyasi nashri, 2020. 35-40 betlar.

21. Samarov R. Shaxsda milliy xususiyatlarni kamol toptirishda "homo ethnicos" fenomeni: ijtimoiy va etnopsixologik talqin // Shaxsda ilmiy dunyoqarash rivojlanishining psixologik imkoniyatlari va tarbiyaviy jihatlari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2019. - B 23-25.

22. Samarov R., Qodirov U. Harbiylik – sharaflı kasb. – Toshkent: "Fan" - 2006. - 120 b.

23. Словарь иностранных слов. – СПб: "Виктория плюс: - 2010. – 816 с.

24. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. I – XI jildlar. – Toshkent, 2000-2005.

Mundarija

Kirish	3
A	7
B	33
D	45
E	61
F	64
G	71
H	81
I	122
J	125
K	147
L	165
M	166
N	190
O	195
P	212
Q	230
R	257
S	274
T	283
U	306
V	310
X	316
Y	321
Z	344
O'	352
G'	368
Sh	368
Ch	374
Foydalanilgan adabiyotlar	380

HARBIY ATAMALARNING YANGI IZOHLI LUG‘ATI

Toshkent – “Innovatsiya-Ziyo” – 2020

Muharrirlar:

Xolsaidov F.B., Samedjanov A.X.

Musahhirlar:

Rahimova O., Abdurahmonova S.,

Rustamova D., Vohidova M.

Nashriyot litsenziyasi AI № 023, 27.10.2018.

Bosishga 18.10.2020 da ruxsat etildi. Bichimi 60x90.

“Times New Roman” garniturasida.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 25. Nashr bosma tabog‘i 24,4.

Adadi 3000 nusxa.

“Innovatsiya-Ziyo” MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri Farhod ko‘chasi, 6-uy.

ISBN 978-9943-6433-9-0



9 789943 643390